YOSH TARIXCHILAR KLUBI



“YOSH TARIXCHILAR KLUBI” TOMONIDAN TASHKILLASHTIRILGAN

“JADIDCHILIK HARAKATI TARIXI VA MEROSI” NOMLI ILMIY

MAQOLALAR TO‘PLAMI

TAHRIRIYAT

Mas’ul muharrir:

Tog‘ayev Zokir Tilavovich, dotsenti, t.f.f.d

Mas’ul kotib:

Abduqahorov Anvarjon, NavDU talabasi

TAHRIR HAY’ATI A’ZOLARI

Sh. Boboyorov	Kafedra mudiri, p.f.f.d. (PhD), dotsent.
R. Qarshiyev	t.f.n., professor.
X. Qurbonov	t.f.n., v.v.b. professor.
Z. Junayev	p.f.f.d. (PhD), dotsent.
U. Narzullayev	p.f.f.d. (PhD), dotsent.
Sh. Toshturov	p.f.f.d. (PhD), dotsent.
I. Quljonov	Dekan o’rinbosari

Mazkur ilmiy maqolalar to‘plamida Navoiy davlat universiteti Tarix fakulteti qoshidagi “Yosh tarixchilar klubi” tashabbusi bilan tayyorlangan ilmiy maqolalar jamlangan. To‘plamda jadidchilik harakati tarixi, uning ijtimoiy-siyosiy va ma’rifiy ahamiyati, jadid namoyandalarining ilmiy va adabiy merosi hamda milliy uyg‘onish jarayonidagi o‘rni kabi masalalar yosh tadqiqotchilar va talabalar tomonidan ilmiy yondashuv asosida yoritilgan. Maqolalarda mualliflarning mustaqil tadqiqotlari, tahliliy qarashlari hamda ilmiy xulosalari o‘z aksini topgan.

Navoiy davlat universiteti Tarix fakulteti Kengashining 2026-yil 24-fevraldagi 7-sonli qaroriga asosan nashrga tavsiya etildi.

Eslatma: To‘plamga kiritilgan maqolalarda keltirilgan fikrlar, raqamlar va manbalarning haqqoniyligi uchun mualliflar shaxsan mas’ul hisoblanadi.

@Navoiy davlat universiteti, Tarix fakulteti, 2026

SO‘ZBOSHI

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida ilm-fan, ta’lim va ma’rifat sohalarini rivojlantirish, yosh avlodning intellektual salohiyatini yuksaltirish hamda milliy tariximizni chuqur va xolis o‘rganish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, xususan, yoshlarni ilmiy izlanishlarga jalb etish, ularning ijodiy va tadqiqotchilik salohiyatini qo‘llab-quvvatlash borasidagi tashabbuslar tarix fanining yangi bosqichda rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Prezidentimiz tomonidan yoshlar siyosatiga alohida e’tibor qaratilayotgani, ilm-fan va ta’limni rivojlantirishga qaratilgan tashabbus va dasturlar yosh tadqiqotchilar uchun keng imkoniyatlar yaratib bermoqda. Shu nuqtai nazardan qaraganda, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasida shakllangan jadidchilik harakati milliy tariximizda alohida o‘rin egallaydi. Jadidlar xalqni jaholat va qoloqlikdan chiqarish, ilm-ma’rifat orqali jamiyat taraqqiyotiga erishish, milliy o‘zlikni anglash va zamonaviy taraqqiyot sari intilish g‘oyalarini ilgari surgan ma’rifatparvar ziyolilar edi. Ularning faoliyati yangi usul maktablari tashkil etish, milliy matbuotni rivojlantirish, teatr san’atini yo‘lga qo‘yish, ijtimoiy-siyosiy fikrning shakllanishiga turtki berish kabi muhim jarayonlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, o‘z davrining muhim ma’naviy va madaniy uyg‘onish jarayonini ifoda etadi.

Jadidchilik harakati nafaqat o‘z davri uchun, balki bugungi kun uchun ham muhim tarixiy saboqlarni o‘zida mujassam etgan. Ularning ma’rifatparvarlik g‘oyalari, millat taraqqiyoti yo‘lida olib borgan fidokorona faoliyati, jamiyatni yangilash va taraqqiyotga yetaklashga qaratilgan intilishlari bugungi kunda ham yosh avlod uchun muhim ibrat maktabi bo‘lib xizmat qiladi. Shu bois jadidlar merosini chuqur o‘rganish, ularning ilmiy, adabiy va ijtimoiy-siyosiy faoliyatini tahlil qilish tarix fanining dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur ilmiy maqolalar to‘plamida jadidchilik harakati tarixi, uning ijtimoiy-siyosiy mohiyati, ma’rifiy faoliyati, milliy uyg‘onish jarayonidagi o‘rni hamda jadid namoyandalarining boy ilmiy va adabiy merosi yosh tadqiqotchilar tomonidan ilmiy manbalar va zamonaviy yondashuvlar asosida yoritilgan. To‘plamda keltirilgan maqolalar tarix faniga qiziquvchi talabalar, yosh tadqiqotchilar hamda keng kitobxonlar ommasi uchun muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mazkur ilmiy to‘plam yoshlarning tarix faniga bo‘lgan qiziqishini yanada oshirish, ularni mustaqil ilmiy izlanishlarga rag‘batlantirish hamda milliy tariximizni chuqur o‘rganish borasidagi ilmiy izlanishlarni qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi, degan umiddamiz.

Fursatdan foydalanib, ushbu ilmiy to‘plamni tayyorlashda o‘z hissasini qo‘shgan barcha mualliflarga, tashabbuskor yoshlarga hamda ilmiy rahbarlarga minnatdorlik bildiramiz. Ularning kelgusidagi ilmiy faoliyatiga muvaffaqiyatlar tilab qolamiz.

Navoiy davlat universiteti tarix fakulteti dekani

dots. Z. Tog’ayev

TURKISTON MUXTORIYATIDA MILLIY DAVLATCHILIKNI SHAKLLANTIRISH JARAYONIDA JADIDLARNING ROLI

Abduqahorov Anvarjon Alijon o‘g‘li
Navoiy davlat universiteti ilmiy tadqiqotchi
e-mail: abduqahorovanvarjon@gmail.com
ORCID ID 0009-0004- 4836-9867

Annotatsiya*. Mazkur maqolada Turkiston Muxtoriyati davrida milliy davlatchilikni shakllantirish jarayonida jadidlarning tutgan o‘rni tahlil qilinadi. 1917-yilda Qo‘qon shahrida e’lon qilingan Turkiston Muxtoriyati mintaqada milliy davlat barpo etishga qaratilgan muhim tarixiy voqea sifatida baholanadi. Maqolada jadid ziyolilarining siyosiy faoliyati, ularning milliy davlatchilik g‘oyalarini ilgari surishdagi tashabbuslari hamda muxtoriyat hukumatining tashkil etilishi jarayonidagi ishtiroki yoritib beriladi. Shuningdek, muxtoriyatning qisqa muddat faoliyat yuritganiga qaramay, Turkiston xalqlarining milliy ongini shakllantirish va mustaqillik g‘oyalarini rivojlantirishdagi tarixiy ahamiyati ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar*:Turkiston Muxtoriyati, jadidlar, milliy davlatchilik, Qo‘qon Qurultoyi, milliy ziyolilar, mustaqillik g‘oyasi, siyosiy islohotlar, Turkiston tarixi.*

Abstract. *This article analyzes the role of the Jadids in the process of forming national statehood during the period of the Turkestan Autonomy. The Turkestan Autonomy, proclaimed in Kokand in 1917, is considered one of the most important historical events aimed at establishing a national state in Central Asia. The article highlights the political activities of Jadid intellectuals, their initiatives in promoting the ideas of national statehood, and their participation in the formation of the autonomy’s government. Despite its short period of existence, the Turkestan Autonomy played a significant role in awakening national consciousness and strengthening the ideas of independence among the peoples of Turkestan.*

Keywords: *Turkestan Autonomy, Jadids, national statehood, Kokand Congress, national intellectuals, independence movement, political reforms, history of Turkestan.*

Аннотация. *В данной статье анализируется роль джадидов в процессе формирования национальной государственности в период Туркестанской автономии. Туркестанская автономия, провозглашённая в 1917 году в городе Коканд, рассматривается как одно из важнейших исторических событий,*

направленных на создание национального государства в Центральной Азии. В статье освещаются политическая деятельность джадидских интеллектуалов, их инициативы по продвижению идей национальной государственности, а также их участие в формировании правительства автономии. Несмотря на короткий период существования, Туркестанская автономия сыграла важную роль в пробуждении национального самосознания и развитии идей независимости среди народов Туркестана.

Ключевые слова: *Туркестанская автономия, джадиды, национальная государственность, Кокандский съезд, национальная интеллигенция, движение за независимость, политические реформы, история Туркестана.*

Kirish. XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasida yuz bergan siyosiy va ijtimoiy o‘zgarishlar milliy davlatchilik g‘oyalarining shakllanishiga kuchli turtki berdi. Ayniqsa, 1917-yilda Rossiya imperiyasida sodir bo‘lgan Fevral va Oktyabr inqiloblari natijasida mintaqada siyosiy vaziyat keskin o‘zgardi. Bu jarayon Turkiston xalqlarining o‘z taqdirini o‘zi belgilash, milliy davlatchilikni tiklash hamda mustaqil boshqaruv tizimini yaratish yo‘lidagi harakatlarini kuchaytirdi. Ana shunday tarixiy sharoitda Turkiston Muxtoriyati tashkil topdi va u Markaziy Osiyoda milliy davlatchilikni tiklash yo‘lida muhim siyosiy qadam sifatida tarix sahnasiga chiqdi. Turkiston Muxtoriyatining tashkil etilishi va faoliyatida jadid ziyolilarining roli alohida ahamiyatga ega bo‘ldi. Jadidlar o‘zlarining siyosiy qarashlari, ma’rifiy faoliyati va milliy manfaatlarni himoya qilishga qaratilgan tashabbuslari orqali muxtoriyat g‘oyasini ilgari surdilar. Ular milliy davlatchilikni shakllantirish, zamonaviy boshqaruv tizimini joriy etish hamda Turkiston xalqlarining siyosiy va ijtimoiy huquqlarini himoya qilishga intildilar.

Asosiy qism. Turkiston Muxtoriyati – 1917-yilning noyabr oyida Qo’qon shahrida e’lon qilingan, o‘z davrida Markaziy Osiyo mintaqasida milliy davlatchilikka intilgan eng muhim tarixiy hodisalardan biri hisoblanadi. Rossiyadagi Fevral inqilobi va Oktyabr voqealari natijasida siyosiy sahnada paydo bo‘lgan kuchli siljishlar, turli millat va elatlarning o‘z taqdirini o’zlari belgilash uchun bo‘lgan intilishlariga turtki bo‘ldi. Turkiston xalqi uchun ham bu davr milliy mustaqillik va siyosiy avtonomiya sari katta imkoniyatlar eshigini ochdi. Turkiston Muxtoriyati tashkil etilishining asosiy omillari o‘sha davrdagi ijtimoiy-siyosiy holat va turli milliy ziyolilarning faolligi bilan bog‘liq edi. Mustafa Cho’qay va boshqa milliy yetakchilar muxtoriyat tuzish orqali Turkiston aholisining siyosiy va iqtisodiy manfaatlarini himoya qilishga intildilar. Ushbu harakatlar muxtoriyatga zamin yaratib, milliy davlatchilikni shakllantirish yo‘lida qator muhim tadbirlarning amalga oshirilishiga olib keldi. Turkiston Muxtoriyati qisqa muddat faoliyat ko‘rsatgan bo’lsa-da, uning milliy davlatchilik yo‘lidagi tashabbuslari va

amalga oshirilgan tadbirlari o‘sha davr tarixida chuqur iz qoldirdi.

Turkiston Muxtoriyati 1917-yil 27-noyabrda Qo‘qon shahrida e’lon qilindi. Bu e’lon Rossiyada yuz bergan inqilobiy o‘zgarishlardan so‘ng mintaqada vujudga kelgan siyosiy bo‘shliq natijasida amalga oshdi. Fevral inqilobi imperiyaning kuchsizlanishiga olib kelgan bo’lsa, Oktyabr davlat to‘ntarishi markaziy hokimiyatning beqarorligini yanada oshirdi. Ana shunday sharoitda, Turkiston milliy ziyolilari, xususan, Mustafo Cho’qay, Mahmudxo’ja Behbudiy va boshqa yetakchilar mustaqil davlat tuzish orqali mintaqa xalqlarining o‘z manfaatlarini himoya qilishga intildilar[1]. Qo’qon shahrida o‘tkazilgan Turkiston Muxtoriyati Qurultoyini (umumiy yig‘ilish) 1917-yil 26-noyabrda tashkiliy byuro a’zosi Mustafo Cho’qay qurultoyni ochiq deb e’lon qildi. Bu paytga kelib qurultoyda Farg’onadan 150 kishi, Sirdaryodan 22, Samarqanddan 21, Kaspiyortidan 1, Buxorodai 4 nafar vakil qatnashayotgan edi. Keyinchalik qurultoy ishtirokchilari soni 250 kishiga yaqinlashdi. Vakillar orasida shahar Dumasi a’zolari ham, tatarlarning Turkiston byurosidan ham, ulka yahudiy tashkiloti - Paoley Siondan ham, shuningdek, mahalliy yahudiylardan ham vakillar ishtirok etdi. “Mazkur qurultoyni, - deb yozadi “Ulug’ Turkiston” gazetasi, - faqat “musulmon” qurultoyi emas, balki Turkiston xalqlari qurultoyi deb atash lozim”[2]. O’lka musulmon ishchilari, krestyanlari, soldatlari deputatlari Shurosining nashri bo’lgan “Ishchilar dunyosi” jurnali shunday qayd etadi: “Sezdda Turkiston ulkasining har bir jamiyati, ittifoqi va milliy shurolari vakillari yig'ilgani uchun, u o’lkaning 10 millionli musulmon aholisi manfaatlariga javob beruvchi qarorlarni qabul qilishga vakolat huquqiga ega bo‘ldi”[3]. Muzokaralardan so’ng 13 kishidan iborat hayat saylashga qaror qilindi. So’ng uning tarkibiga nomzodlarni belgilash uchun 15 daqiqalik tanaffus e’lon qilindi. Tanaffusdan so‘ng qurultoy hayati ochiq ovoz berish yuli bilan quyidagi tarkibda saylandi: Ubaydulla Xo‘jaev, Mustafa Cho’qay, Hidoyatbek Yurali Agaev, Serikbay Akaev, Solomon Gertsfeld, Obidjon Mahmudov, Islom Shoahmedov, Kichchinboev, Kamol qozi, Abdul Badin, Abdurahmonbek Urazaev, Tiliev Karimboev[4].

Qurultoy ishtirokchilari uch kun mobaynida Turkiston viloyatining kelgusi siyosiy tuzilishi haqidagi o‘z qarashlarini belgilab olishdi, bular qurultoyda qabul qilingan hujjatlarda o‘z aksini topdi. Qurultoyda Turkiston Milliy Majlisi azolaridan Turkiston Muxtoriyati hukumati (8 nafar kishidan iborat) tuzildi. Tasis Majlisining syezdiga chaqirilguncha hokimiyat to’la ravishda Turkiston Muvaqqat Kengashi va Turkiston Millat Xalq Majlisi (parlament) qo‘lida jamlanadi. Muvaqqat Kengash a’zolaridan 12 kishilik hukumat tuziladigan bo‘ldi. Turkiston Muvaqqat Kengashi a’zolarining soni ilgari Butunrossiya Tasis Majlisi uchun Turkiston viloyatidan saylangan nomzodlar soniga qarab (32 kishi) belgilandi. Xalq

Majlisi (unga 54 o‘rin ajratildi) tarkibidan shaharlar mahalliy boshqarmalari uchun 4 vakil, viloyatdagi turli yevropalik tashkilotlar vakillariga 18 o‘rin ajratildi. Biroq o‘sha davr matbuotida faqat 32 nafar kishining ismi va sharifi e'lon qilingan. Shunday qilib, 1/3 o‘rin viloyatdagi barcha aholining 5 foizini tashkil etgan yevropalik aholi vakillariga berildi[5].

Hukumatning dastlabki tarkibiga qo‘ydagilar kiritildi: Muhammadjon Tinishboev, Islom Sultan Shoahmedov, Mustafa Cho’qay, Ubaydulla Xo’jaev, Hidoyatbek Yurali Agaev, Obidjon Mahmudov, Abdurahmonbek Urazayev, Solomon Abramovich Gertsfeld. Muxtoriyat hukumatining vazirlaridan 3 nafar kishi oliy ma'lumotli huquqshunos, 2 kishi o‘rtacha malakali huquqshunos ekanligi hukumat a'zolari bilim darajasining naqadar yuqori ekanligidan dalolat beradi[6].

Umummusulmon syezdidan Turkiston Muxtoriyatining tashkil etilishi o’lka boylab katta shov-shuvlarga sabab bo‘ldi. 1-dekabrda Namangan uyezdi-da 10 mingga yaqin kishi ishtirok etgan namoyish bo‘lib o‘tdi. “Yashasin muxtoriyatli Turkiston va uning hukumat!” deb yozilgan bayroqlar namoyishchilarning qo‘lida hilpirar edi. 7-dekabrda Qo‘qon shahrining 42 jamoat tashkilotlari vakillarining qo‘shma majlisida ko‘p millionli Turkiston xalqiga samimiy tabrik yo‘llandi ("Ulug‘ Turkiston”, 1917-yil, 13-dekabr)[7]. Xalq ommasining qizg‘in qo‘llab-quvvatlashidan ilhomlangan Turkiston Muxtoriyati hukumat vakillari jadallik bilan faoliyat boshladilar. Dastlabki kunlardan boshlab Millat majlisi tomonidan tasdiqlangan qonunlar e'lon qilinib, yangi hukumat davlat Konstitutsiyasini tayyorlash uchun tanilgan huquqshunoslarni jalb etdi. Bir nechta hukumat gazetalari o‘zbek, qozoq va rus tillarida nashr etila boshlandi.

1917-yilning 6-dekabrida Toshkentdagi Jome' masjidida o‘tkazilgan namoyishda 60 mingga yaqin kishi qatnashdi. "Uluğ Turkiston" gazetasida yozilishicha, "Masjidning ichki sahni va tomlari odam bilan liq to'lgan edi". Namoyish Sayidg‘ani Mahdum raisligida o‘tdi[8]. Yig‘ilganlar Muxtoriyatni bir ovozdan ma'qullab, bundan buyon Turkiston Muxtoriyatining Muvaqqat hukumatidan boshqa hech qanday hukumatni tan olmasliklari haqida qaror qabul qilishdi. So‘ngra namoyish ishtirokchilari Xalq Majlisiga sodiq qolishga qasam ichdilar.

Shuningdek, hukumat milliy qo‘shinni tashkil qilishga alohida e'tibor qaratdi. Harbiy vazir Ubaydulla Xo‘jaev ishtirokida o‘tkazilgan ko‘rik-parad vaqtida askarlarning soni 2000 nafarga yetgan. Turkiston Muxtoriyatining harbiy choralari, 1917-yil oktabr inqilobidan keyin mintaqadagi notinch siyosiy vaziyatga mos ravishda amalga oshirildi. Muxtoriyat hukumatining birinchi harbiy qismi — Turkiston Fronti tashkil etildi. Ushbu front ichki xavfsizlikni ta'minlash va tashqi tahdidlarga qarshi kurashish maqsadida tuzilgan. 1918-yilda Rus Armiyasiga

qarshi kurashda Muxtoriyat kuchlari faol qatnashdi. Ubaydulla Xo'jaev boshchiligida o'tkazilgan ko'rik-parad, Muxtoriyatning harbiy qudratini ko'rsatish va xalq orasida ishonchni oshirish maqsadida amalga oshirildi.Bundan tashqari, Muxtoriyatda harbiy ishchilar, dehqonlar va boshqa qatlamlar harbiy saflarga jalb qilindi. Bu jarayon harbiy va ijtimoiy hayotda kuchli ijtimoiy faollikni namoyon etdi. Harbiy faoliyatlar orqali maxsus idoralar tashkil etilib, ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlashga harakat qilindi.

Muxtoriyatning harbiy siyosati, moliyaviy resurslar yetishmovchiligi va sovet repressiyalari tufayli qiyinlashdi. 1918-yilda harbiy chora-tadbirlar ko'rilgan bo'lsa-da, o'sha davrdagi harbiy vaziyatning murakkabligi muxtoriyatning tugatilishiga olib keldi.Turkiston Muxtoriyatining tugatilish jarayoni 1918-yilda bir qancha ichki va tashqi omillar ta'sirida amalga oshdi. Muxtoriyat o'z faoliyatini boshlaganidan so'ng, ichki siyosiy muammolar, harbiy qiyinchiliklar va ijtimoiy notinchliklar uning tugatilishiga olib keldi. Turkiston Muxtoriyatining rasmiy ravishda tugatilishi 1918-yilning avgust oyida e'lon qilindi. Bu voqea, milliy davlatchilik orzusini bir muddat o'ldirib, Sovet Ittifoqining yangi siyosiy tuzilmasi ostida qolishga majbur etdi. Tugatilish jarayoni, Turkiston xalqi tarixida muhim bir sahna bo'lib, bu voqea kelajakdagi siyosiy va ijtimoiy o'zgarishlarga ta'sir ko'rsatdi. Turkiston Muxtoriyati o'zining qisqa muddatli faoliyati davomida milliy davlatchilikni shakllantirish, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar o'tkazish va xalqni erkinlik uchun kurashga chaqirish kabi muhim vazifalarni bajardi. Biroq, u o'z faoliyatining qisqa vaqt ichida tugatilishi bilan birga, tarixiy ahamiyatga ega bo'lib qoldi. Muxtoriyatning tashkil etilishi va tarixi, o'zbek xalqining o'zligini va mustaqillik orzusini namoyon etuvchi bir davr sifatida tarixda muhrlangan. Muxtoriyat, shuningdek, milliy birlik, hamjihatlik va mustaqillik g'oyalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Turkiston Muxtoriyati Markaziy Osiyo tarixida milliy davlatchilikni tiklash yo'lida qo'yilgan muhim siyosiy qadam bo'ldi. Uning tashkil etilishi Turkiston xalqlarining mustaqillik, erkinlik va milliy o'zlikni anglash yo'lidagi intilishlarini yaqqol namoyon etdi. Muxtoriyat faoliyatida jadid ziyolilarining o'rni beqiyos bo'lib, ular milliy davlatchilik g'oyalarini ilgari surish, siyosiy boshqaruv tizimini shakllantirish va xalq manfaatlarini himoya qilish yo'lida faol harakat qildilar. Garchi Turkiston Muxtoriyati qisqa muddat faoliyat ko'rsatgan bo'lsa-da, uning tarixiy ahamiyati nihoyatda katta bo'lib, u Turkiston xalqlarining milliy uyg'onish jarayoniga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Muxtoriyat tajribasi keyingi davrlarda ham milliy mustaqillik g'oyalarining rivojlanishiga zamin yaratdi hamda jadidlarning siyosiy va ma'rifiy faoliyati o'zbek milliy davlatchiligi tarixida muhim o'rin egalladi.

Foydalanilgan adabyotlar

1. Qahramon Rajabov. “Turkiston muxtoriyati tarixi”. –Toshkent: “FAN” nashryoti 2023.98-bet.
2. Rajabov.Q. Xaydarov. M. Turkiston Tarixi Toshkent "Unversitet" nashryoti 2002. 51-bet
3. Saidakbar Azamxo‘jayev. Turkiston Muxtoriyat. Toshkent "Manaviyat" nashiryoti 2000. 131-bet
4. Mustafo Cho’qay. Istiqlol Jallodlari. Toshkent "TRUST AND SUPPORT", 2022.96-bet
5. O‘zbek milliy davlatchiligi tarixida Turkiston muxtoriyati [Matn]: konferentsiya materiallari to‘plami / tahrir hay'ati B. Hasanov [va boshq.].Toshkent: Toshkent islom universiteti.200-bet
6. Madyarova Salimaxon Numonjanovna Turkiston Muxtoryati Tarixshunosligi(1917-2008.yy.)Toshkent.2010.49-bet
7. Dono Ziyoyeva. Turkiston Milliy Ozodlik harakati. G‘afur G‘ulom nomidagi adabyot va san'at nashryoti. Toshkent 2000. 101-bet
8. https://muxtoriyat.uz/index.php/en-ca/mt-kiril-2

Jadidlarning ma’rifiy va pedagogik faoliyati: Abdulla Avloniy qarashlari asosida

Olimova Sarvaraxon Sobitxon qizi
Qo‘qon unversiteti
Maxsus pedagogika yo‘nalishi 2-kurs talabasi
E-mail: sarvaraolimova7@gmail.com
Telefon raqam: +998772799820

Annotatsiya. *Mazkur maqolada jadidchilik harakatining ma’rifiy-pedagogik mohiyati tahlil qilinib, uning yetuk namoyandalaridan biri bo‘lgan Abdulla Avloniyning shaxsiyati va faoliyati ilmiy-nazariy jihatdan yoritiladi. Tadqiqot davomida Avloniyning ta’lim va tarbiya haqidagi qarashlari, o‘qituvchi shaxsiga bo‘lgan munosabati hamda milliy va zamonaviy ta’lim uyg‘unligi masalalariga alohida e’tibor qaratiladi. Shuningdek, mutafakkir pedagogik merosining bugungi ta’lim tizimi, xususan shaxsga yo‘naltirilgan va insonparvar ta’lim g‘oyalari bilan mushtarak jihatlari mualliflik tahlili asosida ochib beriladi. Maqola natijalari*

Abdulla Avloniy qarashlarining zamonaviy pedagogik jarayonda ilmiy-amaliy ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: *jadidchilik harakati, Abdulla Avloniy, ma’rifatparvarlik, pedagogik qarashlar, ta’lim va tarbiya*

Abstract. *This article analyzes the educational and pedagogical essence of the Jadid movement and sheds light on the personality and activities of one of its prominent representatives, Abdulla Avloni, from a scientific and theoretical perspective. During the research, special attention is paid to Avloni's views on education and upbringing, his attitude to the teacher's personality, and the issues of the harmony of national and modern education. Also, the common aspects of the thinker's pedagogical heritage with the current education system, in particular, with the ideas of person-oriented and humanistic education, are revealed on the basis of the author's analysis. The results of the article show that Abdulla Avloni's views have scientific and practical significance in the modern pedagogical process.*

Key words: *Jadid movement, Abdulla Avloni, enlightenment, pedagogical views, education and upbringing.*

Аннотация. *В данной статье анализируется образовательная и педагогическая сущность движения Джадидов и освещается личность и деятельность одного из его видных представителей, Абдуллы Авлони, с научно-теоретической точки зрения. В ходе исследования особое внимание уделяется взглядам Авлони на образование и воспитание, его отношению к личности учителя и вопросам гармонии национального и современного образования. Также на основе анализа автора выявляются общие аспекты педагогического наследия мыслителя с современной системой образования, в частности, с идеями личностно-ориентированного и гуманистического образования. Результаты статьи показывают, что взгляды Абдуллы Авлони имеют научное и практическое значение в современном педагогическом процессе.*

Ключевые слова: *Движение Джадидов, Абдулла Авлони, Просвещение, педагогические взгляды, образование и воспитание.*

Kirish. XX asr boshlarida Turkistonda vujudga kelgan jadidchilik harakati milliy uyg‘onish, ma’rifat va ta’limni isloh qilish g‘oyalari bilan jamiyat taraqqiyotida muhim o‘rin egalladi. Jadidlar eskicha ta’lim tizimining samarasizligini anglab, yosh avlodni zamonaviy bilimlar, axloqiy tarbiya va ijtimoiy faollik ruhida tarbiyalashni o‘z oldilariga asosiy maqsad qilib qo‘ydilar. Ushbu harakat vakillari orasida pedagogik va ma’rifiy faoliyati bilan alohida ajralib turgan mutafakkirlardan biri Abdulla Avloniy hisoblanadi. Bugungi kunda ham ta’lim-tarbiya masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilib, barkamol shaxsni

shakllantirish ustuvor vazifa sifatida e’tirof etilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasida ta’lim sohasini rivojlantirishga qaratilgan qaror va farmonlarda yosh avlodni ma’naviy-axloqiy jihatdan yetuk, mustaqil fikrlovchi va vatanparvar insonlar etib tarbiyalash muhim vazifa etib belgilangan. Mazkur jihatlar jadidlarning, ayniqsa Abdulla Avloniyning pedagogik qarashlari bilan g‘oyaviy jihatdan uyg‘unlik kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, Abdulla Avloniyning ma’rifiy va pedagogik faoliyatini o‘rganish nafaqat tarixiy ahamiyatga ega, balki zamonaviy ta’lim tizimini takomillashtirishda ham muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Jadidchilik harakatining yetuk namoyandalaridan biri bo‘lgan Abdulla Avloniy shaxsiyati va faoliyati o‘zbek pedagogik tafakkuri taraqqiyotida muhim bosqichni tashkil etadi. U nafaqat adib va jamoat arbobi, balki chuqur pedagogik tafakkur egasi sifatida ham e’tirof etiladi. Avloniy shaxsiyatida ma’rifatparvarlik, millat taqdiri uchun mas’uliyat va tarbiyaga bo‘lgan yuksak e’tiqod mujassam bo‘lgan. Abdulla Avloniy pedagogik faoliyatining markazida ta’lim va tarbiya birligi g‘oyasi turadi. Uning qarashlarida tarbiya jamiyat kelajagini belgilovchi eng muhim omil sifatida talqin qilinadi. Avloniy tarbiyani faqat axloqiy nasihatlar majmui sifatida emas, balki shaxsni hayotga tayyorlovchi uzluksiz ijtimoiy jarayon deb hisoblaydi. Bu yondashuv o‘sha davr uchun yangicha bo‘lib, maktab ta’limining mazmunini tubdan o‘zgartirish zaruratini ilgari suradi. Mutafakkirning pedagogik faoliyati amaliy jihatdan ham keng ko‘lamda namoyon bo‘lgan. U yangi usul maktablarini tashkil etishda faol ishtirok etib, dars jarayoniga ona tili, geografiya, tarix va axloq fanlarini kiritishni muhim deb bilgan. Avloniy ta’lim jarayonida o‘qituvchining shaxsiy namunasi hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini ta’kidlab, pedagogni jamiyatni ma’naviy jihatdan isloh qiluvchi kuch sifatida ko‘radi. Ushbu qarash bugungi kunda o‘qituvchining kasbiy va ma’naviy kompetensiyalariga qo‘yilayotgan talablar bilan hamohangdir. Abdulla Avloniy merosidan bugungi ta’lim tizimi uchun olinadigan muhim jihatlardan biri — ta’limning milliylik va zamonaviylik uyg‘unligiga asoslanishi lozimligi haqidagi g‘oyadir. U milliy qadriyatlarni inkor etmagan holda, zamonaviy ilm-fan yutuqlarini ta’limga tatbiq etish tarafdori bo‘lgan. Bu yondashuv hozirgi globallashuv sharoitida milliy o‘zlikni saqlagan holda raqobatbardosh kadrlar tayyorlash zaruratini anglatadi. Avloniyning pedagogik qarashlaridan kelib chiqib aytish mumkinki, u ta’limni faqat bilim berish jarayoni emas, balki shaxsni jamiyat oldidagi mas’uliyatini anglaydigan, mustaqil fikrlovchi inson sifatida shakllantirish vositasi deb bilgan. Bu fikrlar bugungi inklyuziv va shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim konsepsiyalarining g‘oyaviy ildizlari bilan uyg‘unlashadi.

Xulosa. Tadqiqot jarayonida jadidchilik harakati va uning yetuk namoyandalaridan biri bo‘lgan Abdulla Avloniyning ma’rifiy-pedagogik faoliyati

nafaqat tarixiy hodisa, balki bugungi ta’lim tizimi uchun ham muhim nazariy va amaliy manba ekanligi yaqqol namoyon bo‘ldi. Avloniy qarashlari zamonaviy pedagogika tamoyillari bilan qiyoslanganda, u ilgari surgan g‘oyalar o‘z davridan ancha ilgarilab ketganini ko‘rish mumkin. Maqola doirasida olib borilgan tahlil shuni ko‘rsatadiki, Avloniy ta’limni shunchaki bilim berish jarayoni sifatida emas, balki inson shaxsini har tomonlama kamol toptirishga xizmat qiluvchi ijtimoiy mexanizm deb tushungan. Aynan shu yondashuv bugungi ta’lim islohotlarida ustuvor bo‘lib borayotgan shaxsga yo‘naltirilgan, insonparvar va inklyuziv ta’lim konsepsiyalarining mohiyati bilan uyg‘unlashadi. Fikrimcha, Abdulla Avloniy merosining eng muhim jihati — ta’lim va tarbiyani ajralmas birlikda ko‘rishidir. Bugungi kunda bilimli, ammo ijtimoiy mas’uliyati sust shaxslar muammosi mavjud ekan, Avloniy ta’kidlagan axloqiy tarbiya masalasi yanada dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun uning pedagogik qarashlarini zamonaviy ta’lim mazmuniga mos holda qayta talqin qilish va amaliyotga tatbiq etish zarur, deb hisoblanadi. Avloniy ilgari surgan milliylik va zamonaviylik uyg‘unligi bugungi globallashuv sharoitida o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Aksincha, bu g‘oya yosh avlodni milliy o‘zligini anglagan, shu bilan birga zamonaviy ilm-fan yutuqlarini egallagan shaxs sifatida shakllantirishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, Abdulla Avloniy pedagogik merosi — bu faqat o‘tmishga oid ilmiy tadqiqot obyekti emas, balki bugungi ta’lim tizimini insonparvarlashtirish, ma’naviy boyitish va ijtimoiy jihatdan mas’ul shaxsni tarbiyalash yo‘lida foydalanilishi lozim bo‘lgan boy ilmiy-ma’naviy manbadir. Uni chuqur o‘rganish va zamonaviy pedagogik jarayonlarga uyg‘unlashtirish kelajak ta’limi uchun muhim strategik vazifa sifatida baholanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar tahlili

1. Shavkat Mirziyoyev. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida. PF–5712-son Farmon, 29 aprel 2019-yil, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy hujjati.
2. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent, O‘zbekiston SSR Davlat nashriyoti, 1913.
3. Karimov, Naim. Jadidchilik harakati va o‘zbek ma’rifatparvarlik tafakkuri. Toshkent, Fan nashriyoti, 2002.
4. Mirziyoyev, Shavkat. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida. PF–5712-son Farmon, 29 aprel 2019-yil.

JADIDCHILIK HARAKATINING RIVOJLANISHI VA O‘ZBEKISTON MUSTAQILLIGIDA SIYOSIY OMIL SIFATIDAGI O‘RNI

Musayev Hamzahon Zokirjon o‘g‘li
Namangan davlat unversiteti
Yuridik fakulteti 3-bosqich talabasi
Email: hamzahonmusayev@gmail.com
Tel: (93) 983-67-80

Annotatsiya. *Ushbu maqolada jadidchilik harakatining vujudga kelishi, uning ijtimoiy-siyosiy mohiyati va Turkiston hududida milliy uyg‘onish jarayonidagi o‘rni tahlil qilinadi. Shuningdek, jadidlarning ma’rifiy, madaniy va siyosiy faoliyati hamda ularning O‘zbekiston mustaqilligiga olib kelgan jarayonlardagi siyosiy omil sifatidagi ahamiyati va jadidchilik g‘oyalarining bugungi kundagi dolzarbligi ham ko‘rib chiqilib, Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi bilan uyg‘un jihatlari ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *Jadidchilik, milliy uyg‘onish, ma’rifatparvarlik, mustaqillik, siyosiy omil, Turkiston, taraqqiyot, Yangi O‘zbekiston, milliy istiqlol g‘oyasi.*

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston hududida yuzaga kelgan jadidchilik harakati milliy uyg‘onishning muhim bosqichini tashkil etdi. Bu harakat nafaqat ma’rifiy, balki ijtimoiy-siyosiy jarayon sifatida ham tarixda chuqur iz qoldirdi. Jadidlar xalqni jaholat va mustamlakachilik zulmidan qutqarish, zamonaviy bilimlar asosida taraqqiy etgan jamiyat barpo etish g‘oyasini ilgari surdilar.

Jadidchilik harakati dastlab Qrimda Ismoil Gaspirali tomonidan boshlangan “usuli jadid” maktablari orqali yoyildi. Turkistonda esa bu harakatning yirik namoyandalari sifatida Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat va Cho‘lpon kabi ma’rifatparvarlar faoliyat olib bordilar.

Jadidlar yangi usul maktablarini ochish, gazeta va jurnallar nashr etish, teatr va adabiyot orqali milliy ongni uyg‘otishga intildilar. Ularning asosiy maqsadi – millatni ilm-ma’rifatli qilish, siyosiy ongini oshirish va mustaqillikka tayyorlash edi.

XX asr boshlarida jadidlar siyosiy harakat sifatida ham shakllandi. Ular Turkiston muxtoriyatini e’lon qilish jarayonida faol qatnashdilar. 1917-yilda Qo‘qonda e’lon qilingan Turkiston Muxtoriyati jadidlarning siyosiy faoliyatidagi muhim bosqich bo‘ldi.

Jadidlar ilgari surgan milliy davlatchilik, erkinlik va taraqqiyot g‘oyalari keyinchalik O‘zbekiston mustaqilligi mafkuraviy asoslaridan biriga aylandi.

Ularning asosiy shiori – “Millatni qutqarish uchun ilm va birlik zarur” degan tamoyil edi.

1991-yilda O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, jadidlar merosi qayta tiklandi. Ularning asarlari nashr etildi, nomlari oqlanib, milliy tariximizdagi munosib o‘rni belgilandi. Jadidlarning milliy istiqlol, vatanparvarlik va ma’rifatparvarlik g‘oyalari mustaqil O‘zbekistonning ma’naviy poydevoriga aylandi.

Bugungi Yangi O‘zbekiston taraqqiyot bosqichida jadidchilik g‘oyalari yana dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, yoshlarni zamonaviy bilim va kasblarga o‘rgatish, milliy qadriyatlarni asrash masalalarida jadidlarning qarashlari muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev jadidlar merosi haqida shunday degan:

“Ma’rifatparvar ajdodlarimizning merosi bugun biz qurayotgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati uchun poydevor bo‘lib xizmat qiladi… ularning g‘oya va dasturlari Yangi O‘zbekistonni barpo etish strategiyasi bilan har tomonlama uyg‘un va hamohangdir.”

Prezident tomonidan ilgari surilgan “Yangi O‘zbekiston – ma’rifatli jamiyat” g‘oyasi jadidchilik harakatining mantiqiy davomi sifatida baholanmoqda..

O‘zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev Toshkentda bo‘lib o‘tayotgan “Jadidlar: milliy o‘zlik, istiqlol va davlatchilik g‘oyalari” mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga murojaatida “O‘tgan asr boshlarida shakllangan bu harakat nafaqat Markaziy Osiyo mintaqasi, balki butun musulmon olami va turkiy dunyo tarixida chuqur iz qoldirganini qayd etgan”.

“Mushtarak tariximizning yorqin sahifalarini tashkil etadigan ma’rifatparvar ajdodlarimizning ibratli faoliyatini, ularning o‘z qimmati va ahamiyatini hamon yo‘qotmasdan kelayotgan boy merosini hamkor davlatlar hamda xalqaro tashkilotlar vakillari, taniqli xorijiy olimlar bilan birgalikda teran tadqiq va targ‘ib etish bizning ustuvor vazifamizdir.

“Bugungi anjumanimizga tashrif buyurgan nufuzli xalqaro tashkilotlar rahbarlari va vakillariga, shuningdek, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston, Ozarbayjon, Turkiya, Rossiya Federatsiyasi, Vengriya, AQSh, Germaniya, Niderlandiya, Shvetsiya, Yaponiya va boshqa mamlakatlardan kelgan taniqli olim va ekspertlarga ushbu anjumanni tashkil etish tashabbusimizni qo‘llab-quvvatlaganliklari uchun samimiy tashakkur bildiraman”.

Jadidlar tomonidan ilgari surilgan ilm-ma’rifat, erkinlik, milliy birlik va taraqqiyot tamoyillari xalq ongini uyg‘otishda muhim rol o‘ynadi. Ayniqsa, Turkiston Muxtoriyati tajribasi jadidlarning mustaqil davlat barpo etish yo‘lidagi ilk siyosiy qadami bo‘ldi. Garchi bu muxtoriyat uzoq yashamagan bo‘lsa-da, u milliy davlatchilik g‘oyasining amaliy ifodasi sifatida tarixda muhim ahamiyat kasb etdi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Jadidchilik harakati O‘zbekiston mustaqilligining bevosita siyosiy voqeasi bo‘lmagan bo‘lsa-da, uning g‘oyaviy, mafkuraviy va ma’naviy poydevorini yaratgan tarixiy kuchdir. U millatni uyg‘otdi, zamonaviy tafakkurni shakllantirdi va mustaqil davlatchilik g‘oyasini ilgari surdi.

Bugungi Yangi O‘zbekiston taraqqiyot bosqichida jadidchilik merosi nafaqat tarixiy xotira, balki amaliy taraqqiyot dasturlarining ma’naviy manbai sifatida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois jadidchilik harakati O‘zbekiston davlatchiligi va mustaqillik mafkurasining uzviy tarkibiy qismi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Saloxov, A., & Qamariddinova, G. A. (2023). BUXORO JADIDLARINING TA’LIM-TARBIYAGA OID G‘OYALARINING NAZARIY-AMALIY ASOSLARI. SCHOLAR,
2. www.bukhari.uz Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузурида Имом Бухорий халқаро илмий-тадқиқот маркази
3. "Jadidlar g‘oyasi — Yangi O‘zbekiston strategiyasi bilan har tomonlama uyg‘un va hamohang", Sh.Mirziyoyev. aniq.uz/uz/
4. https://uza.uz/ Nazokat Usmonova, Oybek Pardayev (surat), O‘zA
5. O‘zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev Toshkentda bo‘lib o‘tayotgan “Jadidlar: milliy o‘zlik, istiqlol va davlatchilik g‘oyalari” mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga murojaati 11.12.2023 kun.uz

Jadidchilik harakati va ularning bugungi kunda tutgan o‘rni

Mashrabova Gulshoda Farxodjon qizi

Andijon davlat pedagogika institutining ijtimoiy- gumanitar fanlarni o‘qitish Metodikasi (huquq talimi) yo‘nalishi 1- bosqich magistranti. Andijon shahri, O‘zbekiston Respublikasi

gulshodamashrabova01@icloud.com +998902028203

Annotatsiya: *Hozirgi ilm-fan tez sur’atlarda rivojlanib taraqqiy etayotgan zamonda, biz uchun jonini fido qilgan jadidlarimizning qanchalik mashaqqat*

kechganliklari, qanchadan-qancha azob-uqubatlarga duchor bo‘lib, o‘z sha’ni, obro‘-e’tiborini o‘rtaga tikib, turli xil tuhmatlarga qolgani tarixdan bizga ma’lum. Ushbu maqolada jadidchilik harakati biz uchun qanchalik darajada muhim rol o‘ynagani haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: *jadidchilik, svilizatsiya, tafakkur, maorif, jamiyat, istiqbol, mustamlakachilik,*

Jadidchilik harakati – XIX asrning oxiri – XX asrning boshida Turkiston,Kavkaz Tatariston,Qrim hayotida muhim ahamiyat kasb etgan ijtimoiy-siyosiy, ma’rifiy harakat hisoblanadi. Jadidchilik dastlab, XIX asrning 80-yillarida Qrimda Ismoil Gaspirali rahbarligida qrimtatarlar o‘rtasida vujudga keladi. XIX asrning 90-yillaridan boshlab O‘rta Osiyoda vujudga kela boshlaydi. Jadidchilik avval madaniyat sohasidagi harakat sifatida faoliyat ko‘rsatadi. Bu oqim vakillari taraqqiyot uchun kurashish,shu tillardagi adabiyotni boyitish,dunyoviy ilmlarni o‘rganish,fan yutuqlaridan foydalanish hamda ayollar va erkaklar tengligi uchun kurashishga chaqirishgan.Jadidchilik harakati namoyondalari ko‘pincha o‘zlarini taraqqiyparvarlar,keyinchalik jadidlar deb ataganlar. O‘sha davrning ilg‘or taraqqiyparvar kuchlari,birinchi navbatda ziyolilar mahalliy aholining umumjahon taraqqiyotidan orqada qolayotganini his etib,jamiyatni isloh qilish zaruriyatini tushunib yetadilar. Uning shakllanish va mag‘lubiyatga uchrash davrlari bo‘lib,shu nuqtai nazardan ularni shartli ravishda to‘rtga bo‘lish mumkin.Turkiston,Buxoro va Xiva hududida bu davrlar 1895-1905; 1906-1916; 1917-1920; 1921-1929-yillarni o‘z ichiga oladi. Jadidlar orasidan yetuk olimlar,sanoat va ziroatchilik sohalarining zamonaviy bilimdon mutaxassislari yetishib chiqqan va yurtni obod va o‘z vatanlarini mustaqil ko‘rishni orzu qildilar va shu yo‘lda kurashganlar.Jadidlarning Turkiston mustaqilligi uchun kurashishida asosan ushbu yo‘nalishlar ustuvor edi: yangi usul maktablari tarmog‘ini kengaytirish, qobilyatli yoshlarni chet elga o‘qishga yuborish, turli ma’rifiy jamiyatlar va teatr truppalari tuzish, gazeta va jurnallar chop etish, xalqlarning ijtimoiy-siyosiy ongini yuksaltirish bilan Turkistonda milliy demokratik davlat qurish edi. Lekin jadid ziyolilarining kuchli partiyasi tashkil qilingan taqdirdagina bu ishlarni amalga oshirish mumkin edi.Jadidchilikning g‘oya va maqsadlari quyidagilarni tashkil etadi:

-Turkistonni o‘rta asrlarga xos qoloqlik va diniy xurofotdan ozod etish;

-Shariatni isloh qilish;

-Xalqqa ma’rifat tarqatish;

-Turkistonda muhtoriyat hukumatni barpo etish uchun kurash;

--Keyinchalik demokratik Respublika o‘rnatish orqali ozod va farovon jamiyat qurish;

-Barqaror milliy valyutani joriy etish va milliy qo‘shin tuzish.

Toshkent, Farg‘ona, Buxoro, Samarqand va Xivada hur fikrli va taraqqiyotparvar kishilarning ayrim guruhlari tomonidan ochilgan ma’daniy-ma’rifiy yo‘nalishlardagi jamiyat va uyushmalardan jadidchilik harakati shakllanadi.

Jadidchilik harakatini olib borgan shahslar qatoriga birinchi navbatda Ismoil Gaspiralini hamda Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Fayzulla Xo‘jayev,Abdulla Badriy kabilarni misol qila olamiz.

Turkiston mintaqasidagi jadidchilik harakati tarqalish joyi va yo‘nalishiga ko‘ra uchga bo‘linadi: Ular

-Turkiston jadidchiligi

-Buxoro jadidchiligi

-Xiva jadidchiligi.

Turkiston jadidlari bilan Buxoro va Xiva jadidlari o‘rtasida bir muncha tafovut bor edi.Turkiston o‘lkasidagi jadidchilikning ijtimoiy asosini ziyolilar tashkil etgan.Ular Chor Rossiyasi mustamlakachiligiga qarshi kurashning oldingi safida turib, chorizmning xomashyo manbaiga aylantirilgan Turkistonning dastlab muxtor,so‘ngra mustaqil davlat bo‘lishini yoqlab chiqqanlar.

Buxorodagi jadidchilik Turkistondagiga nisbatan og‘ir ijtimoiy-siyosiy sharoitda yuzaga keladi.Uning tarkibi asosan Buxorodagi shahar aholisining taraqqiyparvar qismi: ziyolilar, mullalar, mayda do‘kondorlar va ma’murlar, hunarmandlardan iborat bo‘lgan.Jadidlar iqtisod va boshqaruv sohasida bir qator talablar va soliqlarni kamaytirish talabi bilan chiqqanlar. Buxoroda Vobkentlik dehqon Jo‘raboy ilk yangi usul maktabini ochgan.Ammo jadidchilik harakatiga ayrim johil mullalar va har qanday yangilik va islohotlarning dushmani bo‘lgan qadimchilar bunga qarshi chiqadilar.XX asr boshlarida Buxoro jamiyati ham ikki guruhga bo‘linadi: Ikrom domla rahbarligidagi taraqqiyparparlar va Mulla Abdurazzoq boshchiligidagi qadimchilarga bo‘ingan. 1908-yil “Buxoroi sharif shirkati’’tuzilib,darsliklar nashr etish va kitob savdosi bilan shug‘ullanadi.Ushbu insonlar shirkatning tashkilotchilari edi: Ahmadjon Hamdiy (Abusaidov), Usmonxo‘ja Po‘latxo‘jayev (Usmon Xo‘ja), Abdulqodir Muhiddinov,Sadriddin Ayniy, Abdurahmon Sa’diy. XX asr bosharida Xivada shakllangan jadidchilik bir qadar boshqacharoq tarixiy shart-sharoitda vujudga keladi.U bu yerda asosan

ikkita oqimdan iborat edi.

Uning o‘ng oqimi xonlikda rivojlanayotgan savdo-sanoat korxonalari egalari hamda yirik boylarning vakillarini o‘ziga birlashtirgan edi.Bu oqimga Xiva xoni Isfandiyorxonning bosh vaziri Islomho‘ja boshchilik qilgan.Jadidchilarning so‘l oqimi esa mayda sarmoyadorlar,hunarmandlar va xalqlarning turli tabaqa vakillari birlashtirilgan bo‘lib,qozikalon Bobooxun Salimov uning rahbari bo‘lgan. Turkiston mintaqasidagi jadidchilikning asoschilari quyidagilar hisoblanadi: Mahmudho‘ja Behbudiy,Abduqodir Shakuriy (Shakuriy),Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy,Majid Qori Qodiriy,Ubaydullaho‘ja Asadullaxo‘ja (Ubaydulla Xo‘jayev), Fitrat, Cho‘lpon, Hamza, Sadriddin Ayniy.Yuqoridagi fikrlardan ko‘rinib turibdiki jadidchilik harakati davlat, tuzum, boshqaruvni isloh etish va mullatni rivojlantirish orqali jamiyatni yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqishni maqsad qilib qo‘ygan g‘oyalar va aniq amaliy tadbirlarni o‘zida mujassamlashtirgan tizimdir. Jadidchilik harakati va g‘oyalarining asosini Turkistonning o‘zida vujudga kelgan tarixiy,ijtimoiy-siyosiy vaziyat va sharoitlardan izlasak maqsadga muvofiq bo‘ladi. Birgina misol, taraqqiy etgan G‘arb va Yevropa mamlakatlari o‘zga bosqinchi mamlakat asoratida emas edilar. Turkiston esa Sho‘ro to‘ntaruviga qadar ham, undan keyin ham shunday istibdod ostida edi.[2,4-5 betlar] Jadidlar o‘z hisoblaridan maktablar ochib,yosh avlodni istiqlolga tayyorlaydilar, she’r va maqolalar, sahna asarlari orqali milliy ongni shakllantirishga, milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ularini singidirishga urindilar.Inqilob yillarida esa mustaqillik bayrog‘ini baland ko‘tardilar.Maxmudxo‘ja Behbudiy mana shu fidoiylar orasida alohida o‘rinni egallaydi. Uning hayoti va ijodiy faoliyati haqida XX asrning 20-yillarida mahalliy matbuotda Sadriddin Ayniy, Xo‘ja Muin ibn Shukurullo kabi zamondoshlari tomonidan bir qator maqola, xotiralar e’lon qilingan.[3.6-bet]

Jadidlar matbuotni rivojlantirish bilan birga xalqning ko‘zini ochishga harakat qilganlar.Ya’ni ular 1905-yilning oxirida , “O‘rta Osiyoning umr go‘zalligi” nomli gazeta chiqarishib,maktab islohotlariga va boshqa hayotiy masalalarga oid maqolalarni chop etdilar.1906-yil jadidlarning „Taraqqiy” nomli gazetasi chiqariladi.Unda maorifda islohotlarni o‘tkazishga da’vat etuvchi fikr mulohazalar,o‘lka siyosiy-ma’muriy tizimini tanqid qilish va musulmonlarning birligini ta’minlashni o‘z ichiga olgan maqolalar chop etilgan. Shuning uchun ham gazeta ko‘p o‘tmay hukumat tomonidan to‘xtatib qo‘yilgan.1906-yil sentabrda „Xurshid”gazetasi chop etila boshlagan. Unda ehtiyotkorlik bilan siyosiy-ijtimoiy boshqaruv tizimi tanqid qilinib, xalqning siyosiy ongini uyg‘otuvchi maqolalar chiqarilgan. Ammo bu ham o‘sha yillarning oxirida ma’muriyat ko‘rsatmasiga binoan to‘xtatiladi.1908-yil “Shuhrat”nomli jadid gazetasi chiqadi.[4,19-bet].

Respublikamiz birinchi Prezidenti I.A.Karimov o‘z ma’ruza maqola suhbatlarida – fidoiy jadidlarimiz hayoti biz uchun o‘rnak,yoshlarni istiqlol, vatanparvarlik, insonparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega, ularning bosib o‘tgan kurash yo‘lini o‘rganish zarur, deb ta’kidlagani barchaga ayondir.[5. 8-bet]. Sovet davrida yozilgan adabiyotlarda jadidchilikka „burjua-liberal harakat“ deb ta’rif berilgan bo‘lsa, SSSR parchalanib ketganidan keyin jadidchilik harakati va uning namoyandalari nomi qayta tiklandi. Tarixchi, adabiyotshunos, tilshunos, faylasuf, huquqshunos, san’atshunos va pedagog olimlar jadidlarning ilmiy va adabiy merosini o‘rganishda dastlabki natijalarni qo‘lga kiritishdi. Mustaqillik yillarida Fitrat, Cho‘lpon, Abdulla Avloniyning 2 jildli, Behbudiy, Abdulla Qodiriy, Sidqiy Xondayliqiy, Ibrat, Ajziy, So‘fizodaning 1 jildli, shuningdek, Fayzulla Xo‘jayev, Munavvarqori, Polvonniyoz hoji Yusupovning asarlari chop qilindi. Jadidlarning 20 ta mashhur vakili kiritilgan „Unutilmas siymolar. Jadidchilik harakatining namoyandalari“ (Toshkent, 1999) albom-kitobi nashrdan chiqdi. Ularning faoliyati darslik va qo‘llanmalarga kiritildi.

1999-yil 16-18-sentabrda Toshkentda „Markaziy Osiyo XX asr boshida: islohotlar, yangilanish, taraqqiyot va mustaqillik uchun kurash (Jadidchilik, Muxtoriyatchilik, Istiqlolchilik)“ mavzuida xalqaro konferensiya o‘tkazilib, unda AQSH, Germaniya, Fransiya, Italiya, Niderlandiya, Turkiya, Rossiya, Hindiston va boshqa mamlakatlardan kelgan nufuzli olimlar jadidchilik va istiqlolchilik harakatlari to‘g‘risida jahon ilm-fanida to‘plangan so‘nggi xulosalar yuzasidan o‘zbekistonlik hamkasblari bilan o‘zaro fikr almashdilar. Jadidchilik harakati jahonshumul ahamiyatga molik hodisa ekanligi e’tirof qilindi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash zarurki, bu harakat yurtimiz tarixida o‘chmas iz qoldirib, jadidchilik harakati siyosiy ma’rifatparvarlikdan jadid taraqqiyparvarlar firqasi darajasiga ko‘tarila oldi. Bu harakat hamda firqa a’zolari o‘z faoliyati va dasturiga ko‘ra, sho‘ro adabiyotlarida aytilganidek, „bir hovuch boylar manfaatiga xizmat qiluvchi liberal burjuaziya vakillari“ emas, balki Turkistonning barcha xalqlari taqdirini o‘ylab ish ko‘rgan demokratik jarayonning namoyandalari edi. Jadidlar g‘oyasi - Yangi O'zbekiston strategiyasi bilan har tomonlama uyg‘un va hamohang.Bu haqida Prizidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2023-yil 22-dekabr Respublika ma’naviyat va ma’rifat kengashi yig‘ilishida aytib o‘tdi. “Mamlakatimiz o‘z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga kirayotgan hozirgi paytda bizga jadid bobolarimiz kabi g‘arb ilm-fan yutuqlari bilan birga, milliy qadryat ruhida tarbiya topgan yetuk kadrlar suv va havodek zarur” - deydi Prizidentimiz. Darhaqiqat Prezidentimiz ta’kidlaganidek, bugungi uchinchi renessans poydevorini qurar ekanmiz, jaded bobolarimizdek ilg‘or fikrlaydigan yoshlar mamlakatimizga juda ham zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Jadidchilik.vikipediya.uz

2.Jadidchilik:isloxot, yangilanish mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash//Toshkent “unversitet” 1999. 4-5-8-19 betlar.

3.Maxmudxo’ja Behbudiy Tanlangan asarlar//Toshkent “Ma’naviyat”1999. 6-bet.

4.Daryo - uz.

TURKISTON MUXTORIYATI VA JADIDLAR

Termiz davlat universiteti magistratura bo‘limi,
Etnografiya, etnologiya va antropologiya yo‘nalishi 2- bosqich magistranti,
Toshmamatov Azizbek Tohir o‘g‘li
Termiz arxeologiya muzeyi ilmiy xodimi.
toshmamatovazizbek096@gmail.com
https://orcid.org/0009-0002-4338-1176

Annotatsiya: *Maqolada Turkiston Muxtoriyati va jadidlar harakatining milliy davlatchilik shakllanishidagi o‘rni tahlil qilinadi. XX asr boshlarida Turkistonda yuz bergan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, jadidlarning ma’rifiy faoliyatdan siyosiy bosqichga o‘tishi hamda Turkiston Muxtoriyatining tashkil topish omillari ilmiy manbalar asosida yoritilgan. Tadqiqotda jadidlarning parlament boshqaruvi, konstitutsiyaviy davlat va milliy birlik haqidagi g‘oyalari Muxtoriyat faoliyati misolida ko‘rsatib beriladi. Turkiston Muxtoriyati milliy-demokratik davlatchilikning ilk tajribasi sifatida baholanadi.*

Kalit so‘zlar*: Turkiston Muxtoriyati, jadidchilik, milliy uyg‘onish, davlatchilik, Qo‘qon Muxtoriyati.*

Kirish: XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasida yuz bergan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar milliy davlatchilik g‘oyalarining shakllanishida muhim burilish nuqtasiga aylandi. Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosati mahalliy aholini siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan cheklab qo‘ygan bo‘lsa-da, aynan shu sharoit jadidchilik harakatining shakllanishiga turtki berdi. Jadidlar Turkiston jamiyatini modernizatsiya qilish, ta’limni yangilash va milliy o‘zlikni tiklash orqali davlatchilik g‘oyasini ilgari surdilar. Tadqiqotlarda ta’kidlanishicha, jadidlar harakati dastlab ma’rifiy yo‘nalishda boshlangan bo‘lsa-da, keyinchalik siyosiy mazmun kasb etib,

muxtoriyat va mustaqillik talablari bilan boyidi. Ayniqsa, 1917-yilgi Fevral inqilobidan keyingi davr Turkistonda milliy kuchlarning siyosiy maydonga chiqishiga imkon yaratdi. Mahalliy kongresslar va musulmonlar qurultoylari natijasida Turkiston Muxtoriyati e'lon qilindi.

Turkiston (Qo'qon) Muxtoriyati o'z mohiyatiga ko'ra milliy-demokratik davlat qurishga qaratilgan tarixiy tajriba bo'lib, u parlament boshqaruvi, millatlararo tenglik va konstitutsiyaviy asoslar tamoyillariga tayangan. Jadid mafkurachilari dunyoviy-demokratik davlat barpo etish zaruratini asoslab, siyosiy islohotlar dasturini ilgari surganlar. Shu bilan birga, milliy davlatchilik loyihasi mustamlakachilik merosi, ichki siyosiy kelishmovchiliklar hamda bolsheviklar bosimi tufayli qisqa muddat ichida barham topdi.

Shunday qilib, Turkiston Muxtoriyati jadidlar ilgari surgan milliy uyg'onish va davlatchilik konsepsiyasining amaliy ifodasi bo'lib, u o'zbek davlatchiligi tarixida ilk milliy-demokratik tajriba sifatida alohida o'rin egallaydi.

Adabiyotlar Tahlili Va Metodologiyasi: Turkiston Muxtoriyati va jadidlar harakati masalasi so'nggi yillarda tarixshunoslikda turli metodologik yondashuvlar asosida o'rganilmoqda. Mavjud adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, tadqiqotchilar ushbu masalaga asosan uch yo'nalishda yondashganlar: mafkuraviy-ideologik tahlil, siyosiy-tarixiy jarayonlar tahlili hamda tarixshunoslik nuqtayi nazaridan baholash. Birinchi yo'nalishda jadidlarning mafkuraviy va siyosiy qarashlari markaziy o'rinda turadi. Xususan, A. Abduqahorov jadidlarning siyosiy tafakkuri evolyutsiyasini tahlil qilib, ularning ma'rifiy islohotchilikdan milliy suverenitet g'oyasigacha bo'lgan yo'lini ko'rsatadi.

Muallif jadidlar mafkurasini mustamlaka sharoitida shakllangan modern siyosiy tafakkur mahsuli sifatida talqin qiladi. Bu yondashuv jadidchilikni faqat madaniy harakat emas, balki siyosiy konsepsiya sifatida ko'rish imkonini beradi.

Ikkinchi yo'nalish siyosiy voqealar va amaliy jarayonlarni tahlil qilishga qaratilgan. J. Nurullayev 1917–1921-yillardagi mahalliy kongresslar va milliy harakatlar faoliyatini o'rganib, Turkiston Muxtoriyati tashkil topishining tashkiliy va siyosiy asoslarini ochib beradi. Muallif jadidlar va ulamolar o'rtasidagi ichki tafovutlar hamda bolsheviklar bosimi Muxtoriyatning barqaror faoliyat yurita olmasligiga sabab bo'lganini ta'kidlaydi. Bu yondashuv voqealarning ichki siyosiy mexanizmlarini ochishda muhim ahamiyatga ega.

M. Turg'unboyeva esa Turkiston (Qo'qon) Muxtoriyatini milliy-demokratik davlat qurishga qaratilgan tarixiy tajriba sifatida baholab, uning siyosiy-huquqiy asoslarini tahlil qiladi. Muallif Muxtoriyat faoliyatini parlamentarizm va millatlararo tenglik tamoyillari bilan bog'laydi. Ushbu qarash Muxtoriyatni zamonaviy davlatchilik an'analari bilan uyg'un holda ko'rishga xizmat qiladi.

Tarixshunoslik nuqtayi nazaridan yondashuv N. Komilov tadqiqotida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Muallif Turkiston Muxtoriyati haqidagi sovet davri va mustaqillikdan keyingi ilmiy qarashlarni qiyosiy tahlil qilib, avvalgi davrda “burjua-millatchi” sifatida talqin qilingan hukumat bugungi tarixshunoslikda milliy-demokratik tajriba sifatida baholanayotganini ko‘rsatadi. Bu esa masalaga ideologik emas, obyektiv ilmiy yondashuv zarurligini tasdiqlaydi.

Shuningdek, A. Sabirdinov jadidchilik, muxtoriyat va mustaqillik tushunchalarini uzviy bog‘liqlikda o‘rganib, jadidlarning siyosiy dasturi dunyoviy-demokratik davlat barpo etishga qaratilganini asoslaydi. Bu yondashuv jadid mafkurasini mustaqillik g‘oyasining nazariy asosi sifatida ko‘rsatadi.

Umuman olganda, tahlil qilingan adabiyotlar Turkiston Muxtoriyatini baholashda yagona konseptual nuqtaga – uni milliy davlatchilikning dastlabki amaliy tajribasi sifatida talqin qilishga yaqinlashayotganini ko‘rsatadi. Biroq ayrim tadqiqotlarda Muxtoriyatning iqtisodiy dasturi, xalqaro huquqiy maqomi hamda hududiy siyosat masalalari yetarlicha chuqur yoritilmagan. Shu bois, mazkur tadqiqot ushbu bo‘shliqlarni qisman to‘ldirish va jadidlar siyosiy merosini kompleks yondashuv asosida baholashni maqsad qiladi.

Muhokama : Tahlil qilingan ilmiy adabiyotlar Turkiston Muxtoriyati va jadidlar harakatini baholashda turli yondashuvlar mavjudligini ko‘rsatadi. Ayrim tadqiqotchilar ushbu jarayonni mustamlakachilik sharoitida shakllangan siyosiy modernizatsiya harakati sifatida talqin qilsa, boshqalari uni milliy davlatchilikning dastlabki amaliy tajribasi sifatida baholaydilar.

Turkiston Muxtoriyati va jadidlar harakati masalasini baholashda mustamlakachilik konteksti muhim o‘rin tutadi. Ayrim tadqiqotchilar Turkistonni Rossiya imperiyasining klassik kolonial hududi sifatida baholab, jadidlar faoliyatini aynan shu mustamlaka sharoitiga javob sifatida talqin qiladilar

Xususan, jadidlarning siyosiy qarashlari evolyutsiyasi ularning dastlab ma’rifiy islohot tarafdorlari sifatida maydonga chiqqanini, keyinchalik esa siyosiy muxtoriyat va milliy suverenitet g‘oyalarini ilgari surganini ko‘rsatadi. Bu jarayon Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosati hamda mahalliy aholining siyosiy huquqlardan chetlatilishi bilan bevosita bog‘liq edi. Demak, jadidchilikni faqat madaniy-ma’rifiy harakat sifatida emas, balki siyosiy modernizatsiya loyihasi sifatida baholash ilmiy jihatdan asosliroq ko‘rinadi.

Tarixshunoslikda Turkiston Muxtoriyati ko‘pincha ilk milliy-demokratik davlat tajribasi sifatida baholanadi. Tadqiqotlarda uning siyosiy dasturi, davlat boshqaruvi modeli va milliy davlatchilik konsepsiyasi alohida ta’kidlanadi.

Turkiston Muxtoriyati tashkil topishi esa jadidlar ilgari surgan nazariy qarashlarning amaliy ifodasi bo‘ldi. Qo‘qon shahrida e’lon qilingan muxtoriyat o‘z

dasturida parlamentarizm, millatlararo tenglik va hududiy avtonomiya tamoyillarini ilgari surdi. Biroq muhokama jarayonida shuni ta’kidlash joizki, Muxtoriyatning siyosiy-huquqiy bazasi to‘liq shakllanib ulgurmagan, iqtisodiy dastur yetarli darajada ishlab chiqilmagan edi. Ichki siyosiy kuchlar o‘rtasidagi tafovutlar hamda bolsheviklarning qurolli aralashuvi uning barqaror faoliyat yuritishiga imkon bermadi.

1917–1921-yillardagi siyosiy jarayonlarni tahlil qilgan tadqiqotlar esa Muxtoriyatning muvaffaqiyatsizlik sabablarini ichki siyosiy kelishmovchiliklar hamda bolsheviklar bosimi bilan izohlaydi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Muxtoriyat muvaffaqiyatsizligining asosiy sabablari ikki omil bilan bog‘liq: birinchisi — ichki birlikning sustligi, ikkinchisi — tashqi siyosiy bosim. Jadidlar va an’anaviy diniy doiralar o‘rtasidagi konseptual farqlar yagona siyosiy platforma shakllanishini qiyinlashtirdi. Shu bilan birga, bolsheviklarning Turkistonda sovet hokimiyatini o‘rnatish yo‘lidagi qat’iy siyosati milliy hukumatning mavjudligiga imkon bermadi.

Shu nuqtai nazardan, Turkiston Muxtoriyatini baholashda uni faqat muvaffaqiyatsiz siyosiy tajriba sifatida emas, balki milliy davlatchilik tafakkurining shakllanish bosqichi sifatida ko‘rish maqsadga muvofiqdir. Chunki aynan shu davrda milliy o‘zlik, siyosiy mustaqillik va konstitutsiyaviy boshqaruv g‘oyalari Turkiston ziyolilari ongida aniq konsepsiya sifatida shakllandi.

Muhokama natijalari shuni ko‘rsatadiki, Turkiston Muxtoriyati tajribasi keyingi davrlarda ham milliy davlatchilik g‘oyalarining rivojlanishiga mafkuraviy asos bo‘lib xizmat qilgan. Bugungi tarixshunoslikda mazkur masalaga ideologik yondashuvdan voz kechib, kompleks va obyektiv ilmiy tahlil asosida baho berish zarurati yaqqol sezilmoqda.

Natijalar va ilmiy yangiliklar : Mazkur tadqiqot natijalari Turkiston Muxtoriyati va jadidlar harakatining o‘zaro uzviy bog‘liq tarixiy-siyosiy jarayon ekanini ko‘rsatdi. Tahlillar shuni tasdiqlaydiki, jadidchilik dastlab ma’rifiy islohot harakati sifatida shakllangan bo‘lsa-da, XX asr boshlariga kelib u siyosiy mazmun kasb etib, milliy davlatchilik g‘oyasini ilgari suruvchi intellektual kuchga aylangan. Jadidlar mustamlakachilik sharoitida milliy o‘zlikni saqlash, zamonaviy ta’limni joriy etish hamda konstitutsiyaviy boshqaruv asosida davlat qurish g‘oyalarini ilgari surganlar. Aynan 1917-yilgi inqilobiy voqealar Turkistonda milliy siyosiy kuchlarning faollashuvi va Turkiston Muxtoriyatining e’lon qilinishiga tarixiy imkoniyat yaratdi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, Turkiston Muxtoriyati o‘z dasturida parlamentarizm, millatlararo tenglik, hududiy avtonomiya va demokratik boshqaruv tamoyillarini mujassam etgan. Bu esa uning mohiyatan milliy-demokratik davlat

qurishga qaratilgan siyosiy loyiha bo‘lganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, Muxtoriyatning qisqa muddat faoliyat yuritishi ichki siyosiy birlikning yetarli darajada shakllanmaganligi hamda bolsheviklarning harbiy-siyosiy bosimi bilan bog‘liq bo‘lganligi ilmiy jihatdan asoslandi. Shunga qaramay, Turkiston Muxtoriyati tajribasi milliy davlatchilik tafakkurining shakllanishida muhim bosqich bo‘lib, keyingi davrlardagi mustaqillik g‘oyalariga mafkuraviy zamin yaratgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda Turkiston Muxtoriyati va jadidlar harakati kompleks yondashuv asosida o‘zaro bog‘liq siyosiy jarayon sifatida tahlil qilindi. Jadidchilik faqat ma’rifiy oqim emas, balki mustamlakachilik sharoitida shakllangan siyosiy modernizatsiya konsepsiyasi sifatida talqin etildi. Muxtoriyatning siyosiy-huquqiy mohiyati milliy-demokratik davlat qurish tajribasi sifatida qayta baholanib, uning muvaffaqiyatsizlik sabablari ichki va tashqi omillar uyg‘unligida tizimli ravishda izohlandi. Shuningdek, masalaga sovet davri ideologik talqinlaridan holi holda, zamonaviy tarixshunoslik yondashuvi asosida baho berildi.

Natijada, Turkiston Muxtoriyati tarixiy voqea sifatida emas, balki milliy davlatchilik tafakkurining shakllanish bosqichi va siyosiy ongning evolyutsion rivojlanish jarayoni sifatida talqin qilinishi ilmiy jihatdan asoslab berildi.

Xulosa. XX asr boshlarida Turkistonda yuz bergan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar milliy davlatchilik g‘oyasining shakllanishida muhim tarixiy bosqich bo‘ldi. Jadidlar harakati mustamlakachilik sharoitida vujudga kelgan bo‘lib, dastlab ma’rifiy islohotlarni maqsad qilgan bo‘lsa-da, vaqt o‘tishi bilan siyosiy mazmun kasb etdi va milliy muxtoriyat hamda suverenitet g‘oyalarini ilgari surdi. Shu ma’noda, jadidchilik Turkiston jamiyatining modernizatsiya va milliy uyg‘onish jarayonidagi muhim intellektual asos bo‘lib xizmat qildi. 1917-yilda e’lon qilingan Turkiston Muxtoriyati jadidlar ilgari surgan siyosiy konsepsiyaning amaliy ifodasi bo‘ldi. U parlamentarizm, millatlararo tenglik va hududiy avtonomiya tamoyillariga tayangan holda milliy-demokratik davlat qurishga qaratilgan tarixiy tajriba sifatida namoyon bo‘ldi. Garchi Muxtoriyat qisqa muddat faoliyat yuritgan va tashqi siyosiy bosim hamda ichki kelishmovchiliklar sababli tugatilgan bo‘lsa-da, u milliy davlatchilik tafakkurining shakllanishida muhim rol o‘ynadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Turkiston Muxtoriyatini faqat muvaffaqiyatsiz siyosiy loyiha sifatida emas, balki o‘zbek davlatchiligi tarixida ilk milliy-demokratik tajriba sifatida baholash maqsadga muvofiqdir. U keyingi davrlarda mustaqillik g‘oyalarining shakllanishi va rivojlanishiga mafkuraviy asos bo‘lib xizmat qilgan. Shu bois, Turkiston Muxtoriyati va jadidlar harakati masalasini zamonaviy tarixshunoslik yondashuvlari asosida chuqur o‘rganish milliy davlatchilik tarixini yanada to‘liq va obyektiv yoritishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan Adabiyotlar

1. Abduqahorov A.A. The Ideology and Political Vision of Jadid Intellectuals in Central Asia // International Journal, Volume 15, Issue 06, 2025. – P. 787–788.
2. Nurullayev J.X. 1917-yil inqilobi: Turkiston milliy harakatlari va mahalliy kongresslar (1917–1921) // Qo‘qon DPI Ilmiy xabarlar, 2025-yil, 5-son (A seriya). – 1200–1201-betlar.
3. Turg‘unboyeva M.A. Turkiston (Qo‘qon) Muxtoriyati: Ozodlik va demokratiya yo‘lidagi ilk qadam // Ilmiy maqola, 2024. – 44–46-betlar.
4. Sabirdinov A.G. Jadidchilik, muxtoriyat, mustaqillik // FarDU Ilmiy xabarlari, 2024, №1. – 307-bet.
5. Komilov N.B. Birinchi milliy-demokratik davlat – Turkiston Muxtoriyatining tarixshunosligiga doir // Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar, 2022, №3 (63). – 33–34-betlar
6. Khalid A. Culture and Power in Colonial Turkestan // Cahiers d’Asie centrale, 2009, №17/18. – P. 413–415.
7. Juraeva Z. Some Considerations on Turkestan Autonomy // Volume 3, Issue 2, February 2025. – P. 177–178.
8. Abdullayeva Sh.M. Jadidlar harakati: Markaziy Osiyoda islohot va modernizatsiya // Ilm-fan va innovatsiya ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2025. – 96–97-betlar.
9. Abduqahorov A.A. The Dream of Nation-Building in Turkestan: Opportunities and Obstacles // International Journal of Artificial Intelligence, 2025, Volume 05, Issue 06. – P. 2010–2011.
10. Komilov N.B. Birinchi milliy-demokratik davlat – Turkiston Muxtoriyatining tarixshunosligiga doir // Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar, 2022, №3 (63). – 33–34-betlar.
11. Khalid A. Culture and Power in Colonial Turkestan // Cahiers d’Asie centrale, 2009, №17/18. – P. 413–447.
12. Komilov N.B. Birinchi milliy-demokratik davlat – Turkiston Muxtoriyatining tarixshunosligiga doir // Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar, 2022, №3 (63). – 33–34-betlar.
13. Nurullayev J.X. 1917-yil inqilobi: Turkiston milliy harakatlari va mahalliy kongresslar (1917–1921) // Qo‘qon DPI Ilmiy xabarlar, 2025-yil, 5-son (A seriya). – 1200–1201-betlar.

JADIDLARNING MA'RIFIY-PEDAGOGIK FAOLIYATIDA ESTETIK TARBIYA KONSEPSIYASI VA UNING BOSHLANG'ICH TA'LIM AMALIYOTIDAGI IMKONIYATLARI.

Yarmatov Raxim Baxromovich,

Jizzax davlat pedagogika universiteti professori.

Xamrayeva Farida Ulug'bek qizi,

Jizzax davlat pedaogika universiteti,

"Pedagogika nazariyasi va tarixi" 2 kurs magistranti.

+998993556122

Annotatsiya*:Maqolada jadidchilik harakatining ma'rifiy-pedagogik qarashlari asosida estetik tarbiya konsepsiyasi tahlil qilinadi. Jadid mutafakkirlarining ta'lim-tarbiya haqidagi g'oyalari, xususan, go'zallikni anglash, milliy qadriyatlarga hurmat, did va ma'naviy kamolot masalalari ochib beriladi. Shuningdek, mazkur konsepsiyaning zamonaviy boshlang'ich ta'lim amaliyotidagi imkoniyatlari ilmiy jihatdan asoslanadi.*

Kalit so'zlar: *jadidchilik, estetik tarbiya, ma'rifat, boshlang'ich ta'lim, pedagogik konsepsiya, milliy qadriyatlar.*

Аннотация: *В статье анализируется концепция эстетического воспитания в просветительско-педагогической деятельности джадидов. Раскрываются педагогические взгляды представителей джадидского движения, в частности Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy и Munavvarqori Abdurashidxonov, на формирование эстетического сознания, нравственной культуры и национальной идентичности личности. Обосновываются теоретические положения эстетического воспитания и анализируются возможности их реализации в современной практике начального образования. В статье доказывается, что эстетическое воспитание в педагогическом наследии джадидов выступает как интегративный компонент целостной системы формирования гармонично развитой личности.*

Ключевые слова: *джадидизм, эстетическое воспитание, просвещение, начальное образование, педагогическая концепция, национальные ценности, духовное развитие.*

Abstract: *This article analyzes the concept of aesthetic education in the enlightenment-oriented pedagogical activity of the Jadid reformers. The pedagogical*

views of representatives of the Jadid movement, particularly Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, and Munavvarqori Abdurashidxonov, are examined in the context of developing aesthetic consciousness, moral culture, and national identity. The theoretical foundations of aesthetic education are substantiated, and the possibilities of their implementation in modern primary education practice are explored. The study concludes that aesthetic education in the pedagogical heritage of the Jadids functions as an integrative component of a holistic system aimed at forming a harmoniously developed personality.

Keywords: *Jadidism, aesthetic education, enlightenment, primary education, pedagogical concept, national values, spiritual development.*

Kirish. XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy-madaniy hayotida yuz bergan jadidchilik harakati milliy uyg'onish, ma'rifatparvarlik va zamonaviy pedagogik tafakkurning shakllanishida muhim tarixiy bosqich hisoblanadi. Jadidlar ta'lim tizimini yangilash orqali jamiyatni isloh qilish, millatni taraqqiyot sari yetaklash va shaxsni har tomonlama barkamol etib tarbiyalashni o'z oldilariga maqsad qilib qo'yganlar. Ularning pedagogik qarashlari faqat savodxonlikni oshirish bilan cheklanmay, balki shaxsning ma'naviy, axloqiy, estetik va intellektual kamolotini ta'minlashga qaratilgan yaxlit konseptual yondashuvni o'z ichiga oladi. Zamonaviy pedagogika fanida estetik tarbiya shaxsning go'zallikni anglash, his etish va yaratish qobiliyatini shakllantirish jarayoni sifatida talqin etiladi. Estetik ong va didning rivojlanishi bolada nafaqat san'atga munosabatni, balki hayotiy qadriyatlarni idrok etish darajasini ham belgilaydi. Shu nuqtai nazardan, jadid mutafakkirlarining pedagogik merosida estetik tarbiya masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Ular maktabni ma'naviy-ma'rifiy muhit sifatida tasavvur qilib, unda go'zallik, ozodalik, tartib-intizom, nutq madaniyati va milliy qadriyatlarning uyg'unligini ta'minlashni zarur deb bilganlar.

Jadid ma'rifatchilari, jumladan, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy va Munavvarqori Abdurashidxonov ta'lim jarayonida estetik tarbiyani shaxs kamolotining ajralmas qismi sifatida talqin etganlar. Ularning asarlarida go'zallik tushunchasi axloqiy poklik, ma'rifat va milliy o'zlikni anglash bilan uzviy bog'liq holda yoritiladi. Demak, jadid pedagogikasida estetik tarbiya alohida yo'nalish emas, balki ta'lim-tarbiya tizimining ichki mazmuniy asoslaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Bugungi globallashuv sharoitida boshlang'ich ta'lim tizimida milliy qadriyatlarga tayangan holda estetik madaniyatni shakllantirish dolzarb masalaga aylanmoqda. O'quvchilarda go'zallikni anglash, uni qadrlash va yaratish ko'nikmalarini rivojlantirish, ijodiy tafakkur va ma'naviy immunitetni mustahkamlash zamonaviy ta'limning ustuvor vazifalaridan biridir. Shu bois jadidlarning ma'rifiy-pedagogik merosini estetik tarbiya konsepsiyasi nuqtai

nazaridan tahlil qilish hamda uning boshlang‘ich ta’lim amaliyotidagi imkoniyatlarini ilmiy asoslash muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mazkur maqolaning maqsadi – jadid mutafakkirlarining ma’rifiy-pedagogik faoliyatida estetik tarbiya konsepsiyasining mazmun-mohiyatini ochib berish hamda uning zamonaviy boshlang‘ich ta’lim tizimidagi qo‘llanish imkoniyatlarini ilmiy jihatdan asoslashdan iborat.

Jadidlar pedagogik qarashlarida estetik tarbiya masalasi

Mahmudxo‘ja Behbudiy qarashlarida estetik tarbiya

Mahmudxo‘ja Behbudiy jadidchilik harakatining yetakchi namoyandalaridan biri sifatida ta’lim-tarbiya masalasiga millat taraqqiyoti nuqtai nazaridan yondashgan. Uning pedagogik qarashlarida shaxs kamoloti – ma’rifat, axloq va estetik did uyg‘unligida shakllanishi lozim bo‘lgan yaxlit jarayon sifatida talqin etiladi. Behbudiy nazarida maktab – nafaqat bilim beruvchi muassasa, balki ma’naviy va estetik muhitni shakllantiruvchi ijtimoiy institutdir.

1. Go‘zallik va ma’rifat uyg‘unligi: Behbudiy go‘zallik tushunchasini faqat tashqi ko‘rinish bilan cheklamaydi. U estetik tarbiyani insonning ichki dunyosi, tafakkuri va axloqiy pokligi bilan bog‘laydi. Uning fikricha, ma’rifatli inson go‘zallikni anglay oladi, jaholat esa didsizlik va ma’naviy qashshoqlikni keltirib chiqaradi. Shuning uchun u ta’lim orqali estetik ongni shakllantirishni milliy taraqqiyotning zarur sharti deb hisoblagan.

2. Teatr va sahna san’ati – estetik tarbiya vositasi: Behbudiy Turkistonda milliy teatr asoschilaridan biri sifatida san’atning tarbiyaviy ahamiyatini chuqur anglagan. Uning “Padarkush” dramasi nafaqat ijtimoiy-ma’rifiy, balki estetik tarbiya vazifasini ham bajargan. Teatr orqali:Nutq madaniyati,ifodali o‘qish,hissiy idrok,axloqiy-estetik baholash ko‘nikmalari shakllantirilishini u alohida ta’kidlaydi.Bu jihat zamonaviy boshlang‘ich ta’limda teatrlashtirilgan darslar, rolli o‘yinlar va sahna ko‘rinishlari orqali estetik didni rivojlantirish imkonini beradi.

3. Ona tili va adabiyotning estetik ahamiyati: Behbudiy ta’lim jarayonida ona tilini mukammal o‘rganishni milliy o‘zlikni anglash va estetik tafakkurni rivojlantirishning asosi deb bilgan. U darslik va maqolalarida tilning ravonligi, ifodaliligi va nutq go‘zalligiga katta e’tibor qaratadi. Uningcha, chiroyli va mazmunli nutq – estetik madaniyatning ko‘rsatkichidir.

4. Maktab muhitining estetik tashkil etilishi:Behbudiy yangi usul maktablarini tashkil etishda:sinf xonalarining ozodaligi,tartib-intizom,ko‘rgazmali qurollardan foydalanish,o'quv jarayonining tizimliligi kabi omillarni estetik muhitning tarkibiy

qismi sifatida baholagan.Bu qarashlar bugungi boshlang‘ich ta’limda estetik ta’lim muhiti yaratish konsepsiyasiga to‘liq mos keladi.Mahmudxo‘ja Behbudiy qarashlarida estetik tarbiya alohida fan yoki yo‘nalish sifatida emas, balki ta’lim-tarbiyaning ichki mazmuniy asosi sifatida namoyon bo‘ladi. U estetik tarbiyani:Ma’rifat va axloq bilan uyg‘un,milliy o‘zlikni anglash bilan bog‘liq,san’at va adabiyot orqali amalga oshiriladigan,maktab muhitida shakllantiriladigan yaxlit jarayon sifatida talqin etgan.

Abdulla Avloniy ta’limotida estetik g‘oya

Abdulla Avloniy jadid pedagogik tafakkurining yirik namoyandasi sifatida ta’lim-tarbiyani shaxs kamolotining asosiy omili deb baholaydi. Uning pedagogik merosida estetik tarbiya alohida nazariy kategoriya sifatida ajratilmagan bo‘lsa-da, axloqiy, ma’naviy va ma’rifiy tarbiya bilan uzviy bog‘langan holda talqin etiladi. Avloniy nazarida go‘zallik – bu nafaqat tashqi nafosat, balki insonning ichki pokligi, xulqi va tafakkuridagi uyg‘unlikdir.

1. Estetik tarbiyaning axloqiy asoslari:Avloniyning mashhur asari – “Turkiy guliston yoxud axloq”da estetik g‘oya axloqiy tarbiya bilan chambarchas bog‘liq holda yoritiladi. U insonning xulq-atvori, muomalasi, nutqi va kiyinish madaniyatini ham estetik madaniyat ko‘rinishi sifatida talqin qiladi. Uning fikricha:

Chiroyli xulq – eng oliy go‘zallik;

Pokiza muomala – ijtimoiy estetik me’yor;

Nafosatli nutq – ma’naviy kamolot belgisi.

Demak, Avloniy estetik tarbiyani axloqiy-ruhiy kamolotning ajralmas qismi sifatida ko‘radi.

2. Adabiyot va san’at – estetik ongni shakllantirish vositasi:Avloniy bolalar adabiyoti va darsliklar yaratish orqali o‘quvchilarda estetik didni shakllantirishga intilgan. She’r, hikoya, ibratli matnlar orqali u bolalarda:go‘zallikni his qilish,so‘z san’atini anglash,badiiy tafakkurni rivojlantirish ko‘nikmalarini tarbiyalashni maqsad qilgan.Uning nazarida adabiyot – estetik ongni shakllantiruvchi kuchli tarbiyaviy vosita hisoblanadi. Ayniqsa boshlang‘ich yoshdagi bolalarda obrazli fikrlashni rivojlantirish estetik madaniyatning asosini tashkil etadi.

3. Estetik muhit va maktab madaniyati:Avloniy maktabni “tarbiya maskani” deb atar ekan, unda tashqi va ichki muhit uyg‘un bo‘lishi lozimligini ta’kidlaydi. U quyidagi omillarga alohida e’tibor qaratadi:Ozodalik va saranjomlik, intizom va tartib, o'qituvchining nutq va muomala madaniyati, o'quvchilar kiyinishidagi

soddalik va poklik.Bu qarashlar estetik tarbiyani kundalik pedagogik jarayon bilan bog‘lash zarurligini ko‘rsatadi.

4. Boshlang‘ich ta’lim uchun metodik imkoniyatlar:Avloniy ta’limotidan kelib chiqib, boshlang‘ich ta’lim amaliyotida quyidagi estetik yo‘nalishlarni qo‘llash mumkin:

Ifodali o‘qish va she’r yodlash orqali nutq estetikasi;

Hikoya va insho yozish orqali obrazli tafakkurni rivojlantirish;

Musiqa va tasviriy san’at bilan integratsiya;

Axloqiy mavzulardagi suhbatlar orqali estetik baholash ko‘nikmasini shakllantirish.

Abdulla Avloniy ta’limotida estetik g‘oya shaxsning ichki va tashqi uyg‘unligini ta’minlashga qaratilgan yaxlit tarbiya tizimining tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘ladi. U estetik tarbiyani:Axloqiy komillik bilan bog‘liq, adabiyot va san’at orqali amalga oshiriladigan, maktab muhitida kundalik pedagogik jarayon bilan uyg‘unlashgan, boshlang‘ich yoshdan boshlab shakllantirilishi zarur bo‘lgan jarayon sifatida asoslaydi.

Munavvarqori Abdurashidxonov pedagogik faoliyatida estetik yo‘nalish

Munavvarqori Abdurashidxonov jadid ma’rifatchiligi tarixida yangi usul maktablarini tashkil etish va zamonaviy pedagogik metodlarni joriy etish orqali ta’lim jarayonini isloh qilgan yirik pedagog sifatida e’tirof etiladi. Uning pedagogik faoliyatida estetik yo‘nalish alohida konseptual shaklda ifodalanmagan bo‘lsa-da, ta’lim jarayonini tashkil etish, maktab muhitini yaratish va o‘qitish metodikasida estetik tamoyillar yaqqol namoyon bo‘ladi.

1. Yangi usul maktablarida estetik muhit konsepsiyasi:Munavvarqori maktabni shaxs kamolotining muhim ijtimoiy-madaniy makoni sifatida tasavvur qilgan. U ta’lim muassasasida:Sinf xonasining ozodaligi va saranjomligi, dars jarayonining tartibli va tizimli tashkil etilishi, ko‘rgazmali qurollardan foydalanish, chiroyli yozuv va nutq madaniyati kabi jihatlarni estetik tarbiyaning amaliy ifodasi sifatida qaragan.Uning fikricha, o‘quvchi o‘zini go‘zal va tartibli muhitda his qilsa, uning tafakkuri va didi ham shakllanadi. Demak, estetik tarbiya faqat san’at orqali emas, balki pedagogik jarayonning tashkiliy tomonlari orqali ham amalga oshiriladi.

2. Ko‘rgazmalilik tamoyili va estetik idrok:Munavvarqori yangi usul maktablarida ko‘rgazmali o‘qitish metodini keng qo‘llagan. Tasviriy vositalar,

xaritalar, jadval va rasmlar orqali o‘qitish bolalarda:Obrazli tafakkur, kuzatuvchanlik, go‘zallikni ko‘ra bilish, tafakkur aniqligikabi sifatlarni rivojlantirgan.Bu esa estetik ongni shakllantirishning muhim bosqichi hisoblanadi. Ayniqsa boshlang‘ich ta’limda vizual idrok ustuvor bo‘lgani sababli, Munavvarqori metodikasi bugungi kun talablari bilan hamohangdir.

3. Nutq va yozuv madaniyati – estetik ko‘rsatkich: Munavvarqori o‘quvchilarning savodxonligi bilan bir qatorda yozuvning chiroyliligi va nutqning ravonligiga ham alohida e’tibor bergan. U husnixatni nafaqat texnik ko‘nikma, balki estetik madaniyat elementi sifatida talqin etgan. Chiroyli yozuv va ifodali nutq – shaxs ichki intizomi va didining tashqi ifodasidir.Bu qarashlar boshlang‘ich ta’limda husnixat mashg‘ulotlari, ifodali o‘qish, og‘zaki nutqni rivojlantirish orqali estetik tarbiyani amalga oshirish imkonini beradi.

4. Estetik yo‘nalishning boshlang‘ich ta’limdagi amaliy ahamiyati:Munavvarqori pedagogik merosidan kelib chiqib, boshlang‘ich ta’limda quyidagi estetik imkoniyatlarni qo‘llash mumkin:

Estetik jihatdan bezatilgan sinf muhiti yaratish;

Ko‘rgazmali va interfaol metodlardan foydalanish;

Husnixat va nutq madaniyatiga tizimli yondashuv;

Tartib-intizomni estetik me’yor sifatida shakllantirish.

Munavvarqori Abdurashidxonov pedagogik faoliyatida estetik yo‘nalish ta’lim jarayonining tashkiliy, metodik va muhitga oid jihatlarida namoyon bo‘ladi.

Xulosa o'rinida shuni aytishim joizki, jadid ma’rifatchilarining pedagogik merosi milliy ta’lim tafakkurining shakllanishida muhim nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy va Munavvarqori Abdurashidxonov qarashlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, estetik tarbiya ularning ta’limotida alohida ajratilgan yo‘nalish sifatida emas, balki shaxs kamolotini ta’minlovchi yaxlit pedagogik tizimning ichki mazmuniy asosi sifatida namoyon bo‘ladi.Jadidlar estetik tarbiyani:

ma’rifat va axloqiy komillik bilan uzviy bog‘liq jarayon;

milliy o‘zlik va madaniy qadriyatlarni anglash vositasi;

adabiyot, teatr va san’at orqali estetik ongni rivojlantirish omili;

maktab muhitini estetik jihatdan tashkil etish orqali amalga oshiriladigan amaliy faoliyat sifatida talqin etganlar.

Ularning pedagogik konsepsiyasida go‘zallik tushunchasi tashqi bezak emas, balki ichki ma’naviy uyg‘unlik, nutq madaniyati, axloqiy poklik va ijodkorlik bilan chambarchas bog‘langan. Demak, jadid estetik tarbiya modeli – shaxsning intellektual, axloqiy va hissiy rivojlanishini bir butun holda ko‘ruvchi integrativ konsepsiyadir.Zamonaviy boshlang‘ich ta’lim amaliyoti uchun jadidlarning estetik qarashlari quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

Ta’lim va tarbiyaning uzviyligini ta’minlash;

Dars jarayonida san’at va adabiyot integratsiyasini kuchaytirish;

Maktab muhitini estetik tamoyillar asosida tashkil etish;

O‘quvchilarda go‘zallikni anglash, baholash va yaratish kompetensiyalarini shakllantirish. Shunday qilib, jadidlarning ma’rifiy-pedagogik merosi estetik tarbiya konsepsiyasini milliy pedagogika tarixida nazariy jihatdan asoslab bergan muhim manba hisoblanadi. Ularning g‘oyalari zamonaviy kompetensiyaviy yondashuv bilan uyg‘unlashgan holda boshlang‘ich ta’limda estetik madaniyatni shakllantirishning samarali metodologik asosini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Mahmudxo‘ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma’naviyat, 1999.

2.Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992.

3.Munavvarqori Abdurashidxonov. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Sharq, 2003.

4.Ismoil G‘aspirali. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Fan, 2006.

5.Qosimov B. Jadidchilik: yangilanish va taraqqiyot harakati. – Toshkent: Sharq, 2004.

6.Jo‘rayev R., Yuldashev J. Pedagogika. – Toshkent: O‘qituvchi, 2012.

7.Ochilov M. Estetik tarbiya nazariyasi va metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2010.

8.To‘xtaxodjayeva M. Pedagogika nazariyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2013.

9.Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.

10.O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.

XX ASR BOSHLARIDA TURKISTON MILLIY UYG‘ONISHIDA JADID G‘OYALARINING O‘RNI VA IJTIMOIY-SIYOSIY AHAMIYATI

Roziqov Shohijahon Rashid o‘g‘li
O’zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi
Akademiyasi Kunduzgi ta’lim fakulteti 3-o‘quv kursi kursanti
Tel: +998 88 865 40 10

E-mail: shohaslzoda777@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida tub burilish yasagan jadidchilik harakatining mohiyati bugungi XXI asr prizmasi va XXII asrga intilayotgan yosh avlod dunyoqarashi asosida tahlil qilinadi. Tahlilda jadidlar ilgari surgan "Usuli jadid" tizimi, milliy matbuot va siyosiy muxtoriyat g‘oyalarining zamonaviy axborot jamiyati hamda intellektual salohiyat bilan uyg‘unligi ochib berilgan. Maqolaning o‘ziga xosligi shundagi, unda tarixiy jarayonlar shunchaki xronologik bayon etilmay, balki ularning kelajakka yo‘naltirilgan strategik ahamiyati noziddiyatli mantiqiy ketma-ketlikda yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Milliy uyg‘onish, jadidchilik, Z avlodi, Turkiston muxtoriyati, ma’rifatparvarlik, intellektual kapital, raqamli renessans, ijtimoiy-siyosiy transformatsiya.

KIRISH: Milliy uyg‘onish — Zamonaviy taraqqiyotning fundamental asosi Har qanday millatning tarixiy evolyutsiyasi uning ma’naviy uyg‘onishi va o‘zligini anglashidan boshlanadi. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston zaminida yuzaga kelgan jadidchilik harakati shunchaki tarixiy hodisa emas, balki bugungi va ertangi kunimiz uchun mo‘ljallangan "taraqqiyot kodi"dir. Mustamlakachilik zulmi va ichki turg‘unlik sharoitida maydonga chiqqan jadid bobolarimiz millatni jaholatdan qutqarishning yagona yo‘lini — ilm va siyosiy irodada ko‘rdilar. Bugungi XXI asr globallashuv davrida jadidlar merosini o‘rganish, ayniqsa XXII asr egasi bo‘lmish "Z avlod" yoshlari uchun hayotiy zaruratdir. Chunki hozirgi yoshlar axborotni tezkor qabul qilish, tanqidiy fikrlash va texnologik imkoniyatlardan foydalanish borasida jadidlar orzu qilgan "komil inson" obraziga intilmoqdalar. Maqolaning dolzarbligi shundaki, unda o‘tmish va kelajak o‘rtasidagi uzviylik, ya’ni jadidlarning ma’rifatparvarlik g‘oyalari va hozirgi "Uchinchi Renessans" poydevori o‘rtasidagi mantiqiy uyg‘unlik tahlil qilinadi. Jadidlarning ta’lim sohasidagi islohotlari nafaqat savodxonlikni oshirishga, balki shaxsning mantiqiy fikrlashini shakllantirishga yo‘naltirilgan edi. Ular ta’limga dunyoviy fanlarni kiritish orqali

Turkistonning jahon sivilizatsiyasidan uzilib qolmasligini ta’minlashni maqsad qildilar. XXII asrga qadam qo‘yayotgan bugungi yoshlar uchun jadidlarning ta’lim konsepsiyasi "Lifelong learning" (umr bo‘yi ta’lim olish) tamoyiliga juda yaqin.

METODOLOGIYA. Ushbu maqolaning nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqishda ijtimoiy-gumanitar fanlarning bir qator zamonaviy va klassik metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot obyekti hisoblangan XX asr boshidagi jadidchilik g‘oyalarini XXI asr voqeligi va XXII asr istiqboli bilan bog‘lashda quyidagi uslubiy yondashuvlar qo‘llanildi: Turkiston milliy uyg‘onish harakatining yuzaga kelish sabablari va uning evolyutsion bosqichlari mantiqiy ketma-ketlikda o‘rganildi. Bu usul orqali jadidchilikning faqat ma’rifatparvarlik emas, balki chuqur siyosiy va tolerant mafkura ekanligi isbotlandi. XX asr boshidagi "Usuli jadid" ta’lim tizimi hamda XXI asrning zamonaviy ta’lim modellari (masalan, Lifelong learning) o‘rtasidagi o‘xshashliklar qiyoslandi. Bu usul jadidlarning "komil inson" konsepsiyasi hozirgi "Z avlodi" uchun qanchalik mos kelishini aniqlashga yordam berdi. Jadidlar tomonidan asos solingan intellektual va ma’naviy poydevorning XXII asr yoshlari dunyoqarashiga ta’siri tahlil qilindi. Bu metod yordamida jadid merosini raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt davrida milliy o‘zlikni saqlash vositasi sifatida qo‘llash imkoniyatlari baholandi. Jadidlar matbuoti va teatri jamiyat hayotini isloh qiluvchi ommaviy kommunikatsiya vositasi sifatida o‘rganildi. M. Behbudiydan meros bo‘lgan "Teatr — ibratxonadir" tamoyili bugungi kunning "media-savodxonlik" konsepsiyasi bilan bog‘liq holda funksional tahlil etildi. Jadidlar tomonidan e’lon qilingan "Tarjimon", "Oyina" kabi nashrlar hamda Turkiston Muxtoriyati siyosiy dasturlarining mazmun-mohiyati, ulardagi tolerantlik va inson huquqlari masalasi bugungi huquqiy va demokratik tamoyillar nuqtai nazaridan qayta talqin qilindi. Ushbu metodologik yondashuvlar maqola mazmunining noziddiyatli (ziddiyatsiz), mantiqiy va bir-birini to‘ldiruvchi tizimda shakllanishiga xizmat qildi. Tadqiqot davomida qo‘llanilgan ushbu metodlar jadidlar merosini shunchaki tarixiy xotira emas, balki XXII asr uchun strategik "taraqqiyot kodi" sifatida taqdim etish imkonini beradi.

NATIJALAR VA TAHLILLAR. Jadidlarning ta’lim sohasidagi islohotlari nafaqat savodxonlikni oshirishga, balki shaxsning mantiqiy fikrlashini shakllantirishga yo‘naltirilgan edi. Ular ta’limga dunyoviy fanlarni kiritish orqali Turkistonning jahon sivilizatsiyasidan uzilib qolmasligini ta’minlashni maqsad qildilar. XXII asrga qadam qo‘yayotgan bugungi yoshlar uchun jadidlarning ta’lim konsepsiyasi hozirgi zamonning kreativ ta’lim modellariga o‘xshash tizimni — diniy va dunyoviy ilmlar sintezini yaratishga intilgan edilar. Jadidlar matbuotni (masalan, "Oyina", "Sadoi Turkiston" nashrlari) millatning "ko‘zi, tili va qulog‘i" deb ataganlar. Ular axborot orqali jamoatchilik fikrini boshqarish va xalqning siyosiy ongini o‘stirish

mumkinligini bir asr oldin anglab yetgan edilar. Hozirgi XXI asr internet va ijtimoiy tarmoqlar davrida jadidlarning matbuot sohasidagi tajribasi bizga "feyk" xabarlarga qarshi turish va milliy axborot makonini himoya qilishni o‘rgatadi. Jadidchilikning siyosiy cho‘qqisi bo‘lgan Turkiston Muxtoriyati (1917-yil) milliy davlatchilik tariximizda demokratik, huquqiy va tolerant jamiyat qurishning ilk modeli edi.

MUHOKAMA. Noziddiyatli fikr-mulohaza yuritadigan bo‘lsak, jadidchilikni faqatgina o‘tmish bilan bog‘lash — uning salohiyatini cheklashdir. Jadid bobolarimizning tolerantlik borasidagi qarashlari bugungi Yangi O‘zbekistonning tashqi va ichki siyosatida o‘z aksini topmoqda. Bugungi O‘zbekistonning taraqqiyot yo‘li aynan jadidlar orzu qilgan kuchli fuqarolik jamiyati g‘oyasi ustiga qurilgan. XXII asrga intilayotgan yoshlar bu jarayonda faol ishtirokchi bo‘lishi uchun XX asr jadid bobolarimizning siyosiy irodasidan namuna olishi lozim. Mahmudxo‘ja Behbudiyning "Teatr — ibratxonadir" degan hikmati XXII asr avlodi uchun axborotni filtrlash va ma’naviy inqirozdan saqlanishda asosiy intellektual qalqon bo‘lib xizmat qiladi.

XULOSA. Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, jadidchilik — bu tugallangan harakat emas, balki davom etayotgan intellektual evolyutsiyadir. XX asr boshlarida ekilgan uyg‘onish urug‘lari XXI asrda Uchinchi Renessans shaklida namoyon bo‘lmoqda. Jadidlar merosi diniy va dunyoviy bilimlar uyg‘unligining eng mukammal namunasi bo‘lib, u yoshlarni radikalizmdan saqlashda muhim ahamiyatga ega. Usuli jadid tizimi hozirgi tanqidiy fikrlash (critical thinking) tizimining tarixiy manbaidir. Turkiston muxtoriyati g‘oyasi bugungi davlat suverenitetimizning ma’naviy-huquqiy asosi hisoblanadi. Kelajakdagi tadqiqotlarda jadidlar merosini raqamli texnologiyalar orqali XXII asr avlodi ongiga singdirish metodikasini ishlab chiqish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA ULARNING ELEKTRON HAVOLALARI

1. Mirziyoyev Sh.M. "Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi". – Toshkent: 2022.

Havola: https://lex.uz/docs/5841063 (Ushbu rasmiy manbada jadidlar merosini o‘rganish bo‘yicha davlat dasturi va strategik yo‘nalishlar belgilangan).

2. Mirziyoyev Sh.M. "Milliy taraqqiyot yo‘limizni yangi bosqichga ko‘taramiz". – Toshkent: 2023. (Prezidentning rasmiy saytidagi nutqlar va asarlar bo‘limi).

3. Khalid Adeeb. "Making Uzbekistan: Nation, Empire, and Revolution". – 2022. (AQSHlik olimning jadidlar va milliy davlatchilik haqidagi fundamental tadqiqoti).

4. Schlyter Birgit. "History and Cultural Heritage in the New Uzbekistan". – 2024. Havola: https://www.stockholmuniversitypress.se/site/books/ (Yevropa tadqiqotlar markazining Yangi O‘zbekiston va jadidchilik bog‘liqligiga doir nashri).

5. Karimov N. "Jadidlar: Milliy uyg‘onish va istiqlol yo‘li". – 2023.

Havola: https://ziyonet.uz/uz/library/search (ZiyoNet kutubxonasida akademik N.Karimovning jadidchilikka oid yangi kitoblari joylashtirilgan).

6. Uyama Tomohiko. "Jadidism and Educational Reform in Central Asia". – 2023.

Havola: https://src-h.slav.hokudai.ac.jp/index-e.html (Yaponiya va Sharqiy Osiyo olimlarining Turkiston jadidchiligiga oid qiyosiy tadqiqotlari).

7. Alimova D.A. "XXI asr nigohida jadidchilik fenomeni". – 2025.

Havola: https://academy.uz/uz/publications (O‘zbekiston Fanlar akademiyasi nashrlari bo‘limi).

MANIFESTATION OF JADID LITERATURE AND JOURNALISM IN TRANSLATION

Feruza Avaskhonovna Ergasheva,
Jizzakh Polytechnic Institute, Uzbekistan
feruzaergasheva79@gmail.com

Abstract*: This article explores the national revival in Turkestan during the late 19th and early 20th centuries, focusing on the emergence of transnational literary networks that played a key role in the formation of modern literature inspired by Enlightenment ideals. It examines how intellectual movements, shaped by both local and global influences, contributed to the development of national consciousness and cultural renewal in the region. By analyzing the interaction between local literary traditions and broader transnational currents, this study highlights how these networks facilitated the exchange of ideas and fostered the growth of a new literary landscape. In doing so, the article underscores the significance of Enlightenment thought in shaping the intellectual and cultural revival of Turkestan.*

Keywords: *Modern literature, enlightenment, transnational networks, press, national revival, modernization, Uzbek literature*

At the end of the 19th century - the beginning of the 20th century, the Jadidist movement in Turkestan was a national awakening, formed as the main driving force of enlightenment and social reforms. Jadidlar aims to modernize society through education, literature and the press he combined the identity with global enlightened ideas. Transnational literary in the process networks played an important role. The emergence of modern literature during this period reflected a conscious effort by intellectuals to redefine cultural identity, reconstruct historical memory, and promote social and educational reform. Through engagement with global intellectual currents while preserving local traditions, writers and reformers created a dynamic literary space that became central to the formation of modern national consciousness.[8.36]

Transnational literary networks played a decisive role in this process. They enabled the circulation of ideas, texts, and reformist models across regions, connecting Turkestan's intellectuals with wider movements of modernization in the Muslim world and beyond. These exchanges not only accelerated literary innovation but also strengthened the ideological foundations of national revival by integrating concepts such as rationalism, progress, secular education, and civic responsibility into local discourse.[7.83]

Ultimately, the formation of modern literature in Turkestan demonstrates how cultural renewal can emerge through dialogue between tradition and modernity. The national revival was both a response to colonial pressures and a proactive project of self-renewal. By situating Turkestan within broader transnational intellectual networks, this study highlights the interconnected nature of literary modernization and underscores the enduring significance of Enlightenment-inspired reform movements in shaping the region's cultural and national development. At this point, it is necessary to comment on the term transnational.

Transnational literary networks are part of a literary movement or cultural movement covers several nations, territories and cultural areas, interacts with them

means development. Transnational networks of literature cross national borders and are different provided exchange and influence between regions and cultures.

Turkestan established literary and scientific relations with his contemporaries Kazan, Orenburg, Istanbul, Bukhara and Europe, and this accelerated the modernization processes in Uzbek literature. Uzbek literary critic Begali Kasimov evaluated modern literature as "an important factor of national awakening".[5.32]

Dilorom Alimova emphasizes that it has developed through transnational relations

Jadid literature and journalism is the main movement that promoted the ideas of national awakening, enlightenment and freedom in Turkestan at the beginning of the 20th century. Creators such as Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cholpon, Behbudi called the people to science, national unity and independence through the press and artistic works. They actively covered new literary forms, theater and current socio-political topics in the modern press.

Modern literature and publicism are studied in translation studies as a means of spreading the ideas of national revival, enlightenment and social reforms on the international scale, as well as strengthening cultural ties between Turkic peoples. The ideas of realizing national identity and fighting against social injustice are illuminated by translating the works of Jadids such as Fitrat, Cholpon, and Behbudi.

In the translation of contemporary journalism, special attention is paid to preserving the original character of the text, that is, artistic analysis and philosophical outlook (for example, the analysis of V. Mahmoud's work "Hind ikhtilolchilar"). Through the translation of Jadid texts, the ideas of combating illiteracy, protecting women's rights and establishing new schools were spread.

In conclusion, through the translation of modern literature, the ideas of the Uzbek Enlightenment are analyzed at the international level, and the publicism of this period is studied based on the principles of artistic interpretation and analysis.

Almost all of the translated works that have been studied so far are not free of defects, and one of the main reasons for this is in the literary works "unfamiliar" words that can be found, words that cannot be found in modern dictionaries.

In this article, there is a modern interpretation of the Uzbek language in Qadiri's works words that are not found in dictionaries and appear in the process of their translation it talks about upcoming problems. Some words and expressions are not found in explanatory dictionaries, and the meanings of some of them are not not fully disclosed.[1.29]

It is known that a translator is fluent in two languages (the original and the translated language). (zullisayn) is an expert. When it is necessary to work without a dictionary, when he knows well that he needs to refer to the dictionary.

Based on the words of the same language, their basic and figurative meanings show the meanings and different uses of other words.

A dictionary is a book containing the entire reserve of the language. "Translation

a word that goes beyond general and general cultural knowledge in the process

and phrases occur that the translator is forced to refer to special dictionaries" - writes the well-known translator S. Florin [3.56].

In literature, as in a text, the word in separate cannot acquire a full meaning. The meaning of any word depends on the context.

Let's see this through the following example:

The word "Polag‘ur" from the nicknames, because it well embodies the quality of its creation from now on, we will not call Raziq's real name and call him "Polag‘ur".[1.30]. It is taken from A. Qadiri's story "I will fight with the sun"and this sentence, which shows the possibilities of artistic expression of the Uzbek language, is an example we also meet a "foreign" word: "polag‘ur". This word is also spelled and has a big explanation not in the dictionary. Nevertheless, it is possible to roughly understand its meaning from the context possible If you look closely, the word "polag‘ur" is found in some dialects of the Uzbek language

"unripe" meaning "incomplete" and "unripe", "raw" to assume that it was formed from the addition of the words " unripe " in the meaning possible

The words found in the text are not given in a bilingual or annotated dictionary

even in the most perfect dictionary, it is impossible to give all the synonyms of a given word. In such situations, a skilled translator will translate the original words

he should look for synonyms, find words that match the style of the original. The use of synonyms is as important in writing a work as it is in recreating it in another language. It is also worth noting that a famous Russian translator K. Chukovsky said, "no dictionary is a subtle meaning in a living human language cannot reach the marks. Therefore, the task of the translator, if he is really a true artist, as many foreign and Russian words as possible , to find alternatives that do not exist in the dictionary" [4.].

In short, in the process of literary translation, the creator does not appear in the dictionary to all lexical units in the original, except for encountering some words

It is natural that he cannot find an alternative in dictionaries. Translation without a dictionary it's true that it's difficult, but a translation based only on a dictionary is far from artistic it's not a secret. Based on this and based on experience, the spelling of the Uzbek language and explanatory dictionaries every five to ten years with new words and obsolete or unknown for some reason it was left out of the dictionaries or otherwise it was not included in the dictionaries, proposal to reprint with the inclusion of words found only in works of art.

REFERENCES

1. Abdulla Qodiriy. Toshkent. 20 iyul 1932 y. (“O‘zbek sho‘ro adabiyoti”, 1932 yil, 3-son. 27-34-betlar).

2.Khomidov Kh.Kh. Translation Of Common Words And Phrases In The Novel «Dates Gone By» Abdulla Kadiri // Current Research Journal of Philological Sciences. Volume-1, Issue-1, 2020. – R. 12-18 (№23, SJIF: 5.823)

3.Khomidov Kh.Kh. Regarding The Transferense Of Metaphors In Uzbek Novels In Turkish Translations // Asian Journal of Multidimensional Research. Volume-9, Issue-4, 2021. – R. 200-205 (№23, SJIF: 7.699).

4.Чуковский К.И. Высокое искусство. –М.: 1964. [O‘TIL 2007] – Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Тўртинчи жилд. – Тошкент: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" давлат илмий нашриёти, 2007.

5. Kasimov B. Jadid literature and historical events at the beginning of the 20th century // Jadidchilik: struggle for reform, renewal, independence and development. - Tashkent: University, 1999.

6. Kasimov B. Jadidchilik (some comments)// Issues of national revival and Uzbek philology.-Tashkent: University, 1993

7.Alimova, D. 1997. Bukhara v kontse 19-go–nachale 20-go veka i zarozhdenie dzhadidizma (Bukhara at the end of 19th and beginning of 20th century and the origins of Jadidism). Obshchestvennye nauki v Uzbekistane, no. 9/10/11:81–93

8.Alimova, D. 1999.Jadidchilik harakatining ijtimoiy-siyosiy mohiyati va jadidlar tafakkuri (The socio-political essence of the Jadid movement and Jadid thought). 35–52.

9. Avasxonovna E. F. Grammatical interference in studentsspeech in language learning //Academia Repository. – 2024. – T. 5. – №. 1. – C. 226-232.

10. Ergasheva, F., & Qarshiboyev, S. (2024). TALABALARNING KASBIY LINGVISTIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH. Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit, 128-131. https://doi.org/10.2024/c7z39k20

11. Ergasheva F.A. (2024). THE ROLE OF COGNITIVE LINGUISTICS IN DEVELOPING STUDENTS' COMMUNICATIVE COMPETENCE AND FORMING THEIR LINGUISTIC PERSONALITY. Экономика и социум, (3-2 (118)), 110-113.

12. Ergasheva, F. (2023). PROBLEMS AND SOLUTIONS OF DISTANCE LEARNING IN FOREIGN LANGUAGE TEACHING. In Oriental Conferences (Vol. 1, No. 1, pp. 221-227). OOO «SupportScience».

JADIDCHILIK HARAKATI VA TURKISTON MUXTORIYATI O‘RTASIDAGI SIYOSIY BOG‘LIQLIK

Begamova Nasiba Xolmurzayevna
Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti
t.f.f.d(PhD),dotsent

Annotatsiya. Mazkur maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda shakllangan jadidchilik harakati hamda 1917–1918 yillarda faoliyat yuritgan Turkiston Muxtoriyati o‘rtasidagi siyosiy bog‘liqlik tarixiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Jadidchilikning ma’rifiy bosqichdan siyosiy bosqichga o‘tish jarayoni, muxtoriyatning tashkil topishi (1917 yil 27 noyabr), faoliyati va tugatilishi (1918 yil fevral) yoritiladi.

Kalit so‘zlar: jadidchilik, muxtoriyat, milliy davlatchilik, siyosiy ong, 1917 yil inqilobi.

KIRISH. XIX asrning ikkinchi yarmida Turkiston hududi Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olindi (1865 - Toshkent, 1868 - Samarqand, 1873 - Xiva, 1876 – Qo‘qon xonligi tugatilishi). Mustamlakachilik siyosati mahalliy boshqaruvni chekladi, iqtisodiy va madaniy hayotga jiddiy ta’sir ko‘rsatdi.Shu sharoitda XIX asr oxiri – XX asr boshlarida jadidchilik harakati yuzaga keldi. Harakat asoschisi sifatida Ismoil G‘aspirali e’tirof etiladi. U 1883 yilda “Tarjimon” gazetasini chiqara boshladi va “usuli jadid” maktablari g‘oyasini ilgari surdi.Turkistonda jadidchilik 1900-yillardan faol tus oldi. 1905 yilgi Rossiya inqilobidan so‘ng siyosiy muhit nisbatan yumshadi va matbuot rivojlandi. Bugungi kunda milliy davlatchilik tarixini o‘rganishda 1917–1918 yillardagi siyosiy jarayonlar alohida ahamiyat kasb etadi. 1917 yil Fevral inqilobi (27 fevral) Rossiya imperiyasida monarxiyaning ag‘darilishiga olib keldi. Bu voqea Turkistonda ham siyosiy faollikni kuchaytirdi.Jadidlar ma’rifiy islohotlardan siyosiy kurashga o‘tdilar va muxtoriyat g‘oyasini ilgari surdilar. Bu jarayon mustaqil davlatchilik tarixining muhim bosqichi hisoblanadi.

Asosiy qism.Turkistonda jadidchilik harakati namoyandalari Mahmudxo‘ja Behbudiy,Munavvar Qori Abdurashidxonov,Abdurauf Fitrat,Abdulla Avloniylar sanaaldi.1906 yilda Behbudiy tomonidan “Taraqqiy” gazetasi nashr etildi. 1913 yilda “Samarqand” gazetasi chiqdi. Jadid maktablari soni 1917 yilga kelib yuzlab bo‘lgan.1916 yilgi Turkiston qo‘zg‘oloni (25 iyun farmoni sababli) milliy ongni yanada kuchaytirdi. Bu voqea jadidlarning siyosiy qarashlarini keskinlashtirdi. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston Rossiya imperiyasi mustamlakasi sifatida siyosiy va iqtisodiy jihatdan qaram holatda edi. 1867 yilda Turkiston general-

gubernatorligi tashkil etilishi bilan o‘lka to‘liq ma’muriy nazorat ostiga olingan edi. Mahalliy boshqaruv tizimi zaiflashdi, sud-huquq tizimi cheklab qo‘yildi, ruslashtirish siyosati kuchaydi. Shunday sharoitda jadidchilik harakati ma’rifiy islohot sifatida maydonga chiqdi. Harakatning g‘oyaviy asoschisi sifatida Ismoil G‘aspirali e’tirof etiladi. U 1883 yilda Qrimda “Tarjimon” gazetasini nashr eta boshladi va “Til, fikr, ishda birlik” shiorini ilgari surdi. G‘aspiralining yangi usul (usuli jadid) maktablari modeli qisqa muddat ichida Turkistonga ham kirib keldi. 1890–1900-yillarda Turkistonning Toshkent, Samarqand, Buxoro va Qo‘qon shaharlarida yangi usul maktablari ochila boshladi. Bu maktablarda diniy ta’lim bilan bir qatorda geografiya, tarix, matematika kabi dunyoviy fanlar ham o‘qitildi. Bu esa mahalliy yoshlar ongida zamonaviy fikrlashni shakllantirdi.1905 yil 9 yanvarda Peterburgda yuz bergan “Qonli yakshanba” voqeasidan so‘ng Rossiya imperiyasida siyosiy islohotlar bosqichi boshlandi. 1905 yil 17 oktyabr manifesti fuqarolarga nisbatan erkinliklar va’da qildi. Shu jarayon Turkistonda ham siyosiy faollikni oshirdi.1906 yilda Mahmudxo‘ja Behbudiy tashabbusi bilan “Taraqqiy” gazetasi nashr etildi. 1913 yilda “Samarqand” gazetasi chiqdi. Jadid matbuoti orqali milliy uyg‘onish, konstitutsiyaviy boshqaruv, parlament tizimi, xalq maorifi kabi masalalar ko‘tarildi.Abdurauf Fitrat o‘z asarlarida millatni uyg‘otish, jaholatdan qutqarish, mustaqil taraqqiyot yo‘lini tanlash zarurligini ta’kidladi. Abdulla Avloniy esa 1913 yilda “Turkiy guliston yoxud axloq” asarini yozib, ma’naviy islohot zarurligini asoslab berdi.1916 yil 25 iyunda podsho Nikolay II tomonidan musulmon aholini front orti ishlariga safarbar etish haqidagi farmon chiqdi. Bu qaror Turkiston bo‘ylab qo‘zg‘olonlarga sabab bo‘ldi (1916 yil iyul–avgust). Qo‘zg‘olon shafqatsiz bostirildi. Minglab odamlar halok bo‘ldi yoki Xitoy tomonga ko‘chib ketdi. Bu voqea jadidlar ongida mustamlakachilik siyosatining haqiqiy mohiyatini yanada ochib berdi va siyosiy mustaqillik masalasini keskin kun tartibiga olib chiqdi. 1917 yil 27 fevralda Rossiyada Fevral inqilobi sodir bo‘lib, monarxiya ag‘darildi. Muvaqqat hukumat tuzildi. Turkistonda siyosiy erkinliklar kengaydi.1917 yil mart oyida Toshkentda “Sho‘roi Islomiya” tashkiloti tuzildi. Bu tashkilot jadidlar tashabbusi bilan yuzaga kelgan bo‘lib, musulmon aholining siyosiy manfaatlarini himoya qilishni maqsad qildi. Aprel oyida Butunturkiston musulmonlarining I qurultoyi o‘tkazildi. Unda Turkistonga muxtoriyat berish masalasi ko‘tarildi. Bu davrda jadidchilik ma’rifiy harakatdan siyosiy harakatga to‘liq o‘ta boshladi. Siyosiy partiyalar, jamiyatlar, qurultoylar tashkil etildi.1917 yil 26–28 noyabr kunlari Qo‘qon shahrida Butunturkiston musulmonlarining IV favqulodda qurultoyi bo‘lib o‘tdi. 27 noyabr kuni Turkiston Muxtoriyati e’lon qilindi. Muxtoriyat hukumati tarkibida jadid namoyandalari asosiy o‘rin tutdi.

Birinchi bosh vazir etib Muhammadjon Tinishboyev saylandi. Keyinchalik hukumat rahbarligiga Mustafa Choqay keldi.

Muxtoriyat dasturida quyidagilar belgilandi:

- Demokratik respublika boshqaruvi
- Parlament (Majlis) tashkil etish
- Millatlar tengligi
- So‘z, matbuot va vijdon erkinligi
- Mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish

Bu tamoyillar jadidlarning ko‘p yillik ma’rifiy va siyosiy faoliyatining mantiqiy natijasi edi. 1917 yil 25 oktyabrda (7 noyabr) Petrogradda bolsheviklar hokimiyatni egalladi. Turkistonda ham sovet hokimiyati o‘rnatila boshladi. Toshkent Soveti muxtoriyatni tan olmadi.1918 yil 5–6 fevral kunlari bolshevik qo‘shinlari Qo‘qon shahriga hujum qildi. 6 fevral kuni muxtoriyat tugatildi. Shahar katta talafot ko‘rdi, minglab tinch aholi halok bo‘ldi. Shu tariqa Turkiston Muxtoriyati atigi 72 kun faoliyat yuritdi (27 noyabr 1917 - 6 fevral 1918). Ammo bu qisqa davr milliy davlatchilik tarixida muhim siyosiy tajriba bo‘ldi. Jadidchilik va Turkiston Muxtoriyati o‘rtasidagi bog‘liqlik quyidagi jihatlarda namoyon bo‘ladi:

1. G‘oyaviy bog‘liqlik - jadidlarning ma’rifiy islohot g‘oyalari muxtoriyat dasturida siyosiy shakl oldi.
2. Kadrlar bog‘liqligi - muxtoriyat hukumati asosan jadid ziyolilaridan tashkil topdi.
3. Maqsadlar birligi - milliy taraqqiyot, o‘zini o‘zi boshqarish, demokratik tuzum barpo etish.
4. Tarixiy uzviylik - 1890-yillardagi ma’rifiy harakat 1917 yilda siyosiy mustaqillik talabi darajasiga yetdi.

Demak, Turkiston Muxtoriyati jadidchilik harakatining siyosiy cho‘qqisi va amaliy natijasi bo‘ldi. 1917 yil Fevral inqilobidan so‘ng Turkistonda “Sho‘roi Islomiya” tashkiloti tuzildi (mart 1917). Jadidlar unda faol ishtirok etdilar. 1917 yil 26–28 noyabr kunlari Qo‘qon shahrida Butunturkiston musulmonlarining IV qurultoyi bo‘lib o‘tdi. 27 noyabr 1917 yilda Turkiston Muxtoriyati e’lon qilindi.Muxtoriyat poytaxti Qo‘qon shahri bo‘ldi.Muxtoriyat hukumati rahbarlari orasida:

- Mustafa Choqay (Tashqi ishlar vaziri va keyinchalik rahbar)

- Muhammadjon Tinishboyev (birinchi bosh vazir)

Muxtoriyat quyidagi tamoyillarga asoslandi:

- Demokratik respublika boshqaruvi
- Millatlar tengligi
- So‘z va matbuot erkinligi
- Umumxalq saylovi bo’lib,bu g‘oyalar jadidlarning ilgari surgan ma’rifiy-demokratik qarashlarining siyosiy ifodasi edi.

1918 yil 5–6 fevral kunlari bolshevik qo‘shinlari Qo‘qonga hujum qildi. 1918 yil 6 fevralda muxtoriyat tugatildi. Shahar katta talafot ko‘rdi. Shunga qaramay, muxtoriyat tajribasi milliy davlatchilik g‘oyasini mustahkamladi.

Xulosa.Tahlillar shuni ko’rsatadiki,Jadidchilik 1890-yillarda ma’rifiy harakat sifatida shakllandi,1905–1916 yillarda siyosiy ong kuchayib,1917 yil Fevral inqilobi jadidlarni siyosiy maydonga olib chiqdi..27 noyabr 1917 yil - jadidchilikning siyosiy cho‘qqisi bo‘ldi.1918 yil fevral - muxtoriyatning tugatilsada, ammo mustaqillik g‘oyasining yashab qolish davri bo’ldi. Jadidchilik harakati va Turkiston Muxtoriyati o‘rtasidagi siyosiy bog‘liqlik uzviy va mantiqiy jarayondir. Jadidlar yaratgan ma’rifiy muhit milliy siyosiy ongni shakllantirdi. 1917 yilgi muxtoriyat esa bu ongning davlat shaklidagi ifodasi bo‘ldi. Turkiston Muxtoriyati qisqa (1917 noyabr – 1918 fevral) umr ko‘rgan bo‘lsa-da, u O‘zbekiston davlatchiligi tarixida muhim bosqich sifatida baholanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma’naviyat, 1999.
2. Abdurauf Fitrat. Saylanma (2 jildlik). – Toshkent: Fan, 2000.
3. Mustafa Choqay. Turkiston fojeasi. – Toshkent: Sharq, 1992.
4. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992.
5. Munavvar Qori Abdurashidxonov. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Sharq, 2003.
6. Alimuhamedov A., Jo‘rayev N. O‘zbekiston tarixi (XX asr boshlar). – Toshkent: Akademnashr, 2010.
7. Rajabov Q. Jadidchilik harakati va milliy uyg‘onish masalalari. – Toshkent: Fan, 2005.

JADIDLARNING MA’RIFIY ISLOHOTLARI VA INSON KAPITALI SHAKLLANISHIDAGI ROLI

Oziq-ovqat texnologiyasi va muhandisligi xalqaro instituti, Farg’ona
Hasanjon Bahodirov Bahtiyorjon o‘g‘li
hasanjon.bahodirov@gmail.com
+998908500260

Annotatsiya. *Ushbu maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston hududida faoliyat yuritgan jadidchilik harakatining ma’rifiy islohotlari hamda ularning inson kapitali shakllanishiga ta’siri ilmiy tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi jadidlarning pedagogik, madaniy va ijtimoiy faoliyatini zamonaviy iqtisodiy nazariya, xususan inson kapitali konsepsiyasi nuqtai nazaridan baholashdan iborat. Tadqiqotda tarixiy-taqqoshlash, manbashunoslik va konseptual tahlil usullaridan foydalanildi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, jadidlar tomonidan tashkil etilgan yangi usul maktablari, darsliklar yaratish, ayollar ta’limini rivojlantirish va milliy matbuotni shakllantirish jarayonlari jamiyatda savodxonlik darajasining oshishiga, intellektual qatlamning vujudga kelishiga hamda milliy ongning mustahkamlanishiga xizmat qilgan. Muallif jadidchilikni mintaqaviy modernizatsiyaning muhim bosqichi va inson kapitali investitsiyasining dastlabki institutsional modeli sifatida talqin qiladi.*

Kalit so‘zlar: *jadidchilik, ma’rifiy islohot, inson kapitali, modernizatsiya, milliy uyg‘onish, yangi usul maktablari*

Аннотация. *В статье анализируется роль просветительских реформ джадидов в формировании человеческого капитала в Туркестане конца XIX – начала XX века. Исследование основано на историко-сравнительном и концептуальном анализе. Показано, что новая система образования, развитие национальной печати и расширение женского образования способствовали росту грамотности и формированию интеллектуальной элиты. Джадидизм рассматривается как ранняя институциональная модель инвестирования в человеческий капитал.*

Ключевые слова: *джадидизм, просвещение, человеческий капитал, модернизация, национальное возрождение*

Abstract*. This article analyzes the role of Jadid educational reforms in the formation of human capital in Turkestan in the late 19th and early 20th centuries. Using historical-comparative and conceptual analysis methods, the study demonstrates that the introduction of new-method schools, national press, and*

women's education significantly increased literacy and contributed to the emergence of an intellectual elite. Jadidism is interpreted as an early institutional model of investment in human capital and a regional modernization project.

***Keywords**: Jadidism, educational reform, human capital, modernization, national awakening*

KIRISH. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkistonda jadidchilik harakati ma’rifiy modernizatsiya loyihasi sifatida namoyon bo‘ldi. Ta’lim tizimidagi islohotlar inson kapitali shakllanishining muhim bosqichini tashkil etdi. Jadidchilik harakati o‘zbek ijtimoiy tafakkuri tarixida muhim o‘rin tutuvchi hodisalardan biri sifatida ko‘plab ilmiy izlanishlar markazida bo‘lib kelgan. Tadqiqotlarning aksariyatida harakatning shakllanish omillari, uning ma’rifiy va siyosiy dasturi, milliy uyg‘onish jarayonidagi o‘rni hamda Turkiston jamiyatidagi transformatsion roli yoritilgan. Ayniqsa, jadidlarning ta’lim tizimini isloh qilish borasidagi tashabbuslari, yangi usul maktablarining tashkil etilishi va milliy matbuot faoliyati tarixiy manbalar asosida tahlil qilingan. Shu bilan birga, mavjud ilmiy adabiyotlar asosan tarixiy-deskriptiv xarakterga ega bo‘lib, unda jadidchilik harakatining ijtimoiy-iqtisodiy natijalari chuqur nazariy tahlil qilinmaydi. Jadidlarning ma’rifiy faoliyati ko‘proq madaniy uyg‘onish yoki siyosiy ong shakllanishi doirasida baholanadi. Holbuki, mazkur jarayonni iqtisodiy rivojlanish nazariyalari bilan bog‘liq holda ko‘rib chiqish ilmiy jihatdan dolzarbdir.

Asosiy rivojlanish omillari. Zamonaviy taraqqiyot konsepsiyalarida inson kapitali jamiyatning asosiy rivojlanish omillaridan biri sifatida talqin etiladi. Ta’lim, bilim va kasbiy ko‘nikmalarga yo‘naltirilgan sa’y-harakatlar uzoq muddatli iqtisodiy o‘sishning poydevorini yaratadi. Bu nuqtai nazardan qaraganda, jadidlarning ta’lim sohasidagi islohotlari oddiy pedagogik yangilik emas, balki ijtimoiy resursni – ya’ni inson salohiyatini – sifat jihatdan oshirishga qaratilgan strategik harakat sifatida namoyon bo‘ladi. Yangi usul maktablarining joriy etilishi savodxonlik darajasini oshirish bilan bir qatorda, mantiqiy fikrlash, dunyoviy bilimlarni o‘zlashtirish va zamonaviy kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qilgan. Bu jarayon jamiyatda yangi intellektual qatlamning paydo bo‘lishiga, ijtimoiy mobilitetning kuchayishiga hamda boshqaruv tafakkurining modern shakllanishiga zamin yaratgan. Natijada, ma’rifiy islohotlar ijtimoiy modernizatsiyaning muhim tarkibiy qismiga aylangan. Shunday qilib, ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, jadidchilik harakatining inson kapitali shakllanishidagi roli alohida nazariy konsepsiya sifatida yetarli darajada o‘rganilmagan. Mazkur tadqiqot aynan shu ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan bo‘lib, jadidchilikni ma’rifiy investitsiyaning tarixiy modeli sifatida talqin qilishni taklif etadi. Bu yondashuv harakatning nafaqat tarixiy, balki iqtisodiy ahamiyatini

ham kompleks ravishda ochib berishga imkon yaratadi.

Tarixiy-madaniy va siyosiy hodisalar. Mavjud ilmiy tadqiqotlar jadidchilik harakatini asosan tarixiy-madaniy va siyosiy hodisa sifatida talqin qiladi, biroq uning inson kapitali shakllanishiga ta’siri tizimli iqtisodiy paradigma doirasida yetarlicha konseptualizatsiya qilinmagan. Xususan, jadidlarning ta’lim islohotlari va intellektual modernizatsiya jarayoni o‘rtasidagi sabab-oqibat bog‘liqligi ilmiy modellashtirish asosida chuqur tahlil etilmagan. Bundan tashqari, jadidchilikni uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy transformatsiya omili sifatida baholovchi empirik va nazariy tadqiqotlar soni cheklangan. Shu bois, mazkur tadqiqot jadidchilik harakatini inson kapitaliga investitsiyaning tarixiy-institutsional modeli sifatida talqin qilish orqali mavjud ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.


Metodalogiya. Tadqiqot tarixiy-taqqoshlash, manbashunoslik va konseptual modellashtirish usullariga asoslanadi. Mazkur tadqiqot jadidchilik harakatining ma’rifiy islohotlarini inson kapitali nuqtai nazaridan tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqot jarayonida tarixiy manbalar va zamonaviy ilmiy qarashlar o‘zaro bog‘langan holda o‘rganildi. Tadqiqotning asosiy usullari quyidagilardan iborat: Birinchidan, tarixiy-taqqoshlash usuli. Bu usul orqali XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi an’anaviy ta’lim tizimi jadidlar joriy etgan yangi usul maktablari bilan solishtirildi. Taqqoslash jarayonida o‘qitish usuli, fanlar tarkibi, savod chiqarish tezligi va ta’limning jamiyatga ta’siri asosiy mezon sifatida olindi. Ikkinchidan, Jadid namoyandalarining asarlari, ularning pedagogik qarashlari va bu boradagi ilmiy tadqiqotlar o‘rganildi. Manbalar tarixiy sharoitni hisobga olgan holda tahlil qilindi. Uchinchidan, nazariy yondashuv asosida jadidchilik harakati inson kapitali tushunchasi bilan bog‘lab izohlandi. Inson kapitali deganda ta’lim, bilim va ko‘nikmalar orqali jamiyat salohiyatining oshishi tushuniladi. Shu asosda jadidlarning ma’rifiy faoliyati inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan tarixiy jarayon sifatida baholandi.

Turkiston ta’lim tizimi. Jadidlar tomonidan tashkil etilgan yangi usul maktablari Turkiston ta’lim tizimida institutsional yangilanishni boshlab berdi va pedagogik samaradorlikning sifat jihatdan oshishiga xizmat qildi. An’anaviy maktab tizimidan farqli ravishda, mazkur ta’lim muassasalarida fonetik (usul-i savtiya) metod asosida o‘qitish yo‘lga qo‘yildi, bu esa o‘quvchilarning qisqa muddat ichida savod chiqarishini ta’minlab, ta’lim jarayonining vaqt va natija ko‘rsatkichlarini sezilarli darajada yaxshiladi. Shuningdek, o‘quv dasturiga matematika, geografiya, tabiiyot, tarix kabi dunyoviy fanlarning kiritilishi bilim mazmunini kengaytirib, tafakkurning mantiqiy va analitik shakllanishiga zamin yaratdi. Bu jarayon ta’limni faqat diniy-ma’rifiy doira bilan cheklab qo‘ymasdan, uni ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlar bilan bog‘lash imkonini berdi. Jadid pedagoglari

tomonidan ishlab chiqilgan maxsus darslik va o‘quv qo‘llanmalarining yaratilishi esa bilimlarni tizimli, bosqichma-bosqich va metodik jihatdan asoslangan tarzda yetkazishga xizmat qildi.

Natijada, yangi usul maktablari nafaqat savodxonlik darajasining oshishiga, balki intellektual salohiyatning shakllanishiga ham ta’sir ko‘rsatdi. Ushbu islohotlar jamiyatning bilim va ko‘nikmalar bazasini kengaytirish orqali inson kapitalining sifat ko‘rsatkichlarini mustahkamladi hamda uzoq muddatli ijtimoiy modernizatsiya jarayonining muhim omiliga aylandi.

INSON KAPITALI MODELI. Mazkur tadqiqot doirasida jadidchilik harakatining ma’rifiy islohotlari inson kapitali shakllanish jarayonining boshlang‘ich institutsional bosqichi sifatida talqin qilinadi. Taklif etilayotgan



model sabab-oqibat bog‘liqligiga asoslangan bo‘lib, ta’lim sohasidagi islohotlar bilan ijtimoiy-iqtisodiy transformatsiya o‘rtasidagi mantiqiy zanjirni tushuntirishga xizmat qiladi. Shunday qilib, jadidchilik harakati ta’lim orqali inson kapitalining shakllanish mexanizmini ishga tushirgan tarixiy jarayon sifatida baholanadi. Ushbu model jadidlar faoliyatini faqat madaniy hodisa sifatida emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning strukturaviy omili sifatida talqin qilish imkonini beradi.Modelning birinchi bosqichi ma’rifiy islohotlar. Jadidlar tomonidan yangi usul maktablarining tashkil etilishi, fonetik o‘qitish metodining joriy qilinishi va dunyoviy fanlarning o‘quv dasturiga kiritilishi ta’lim tizimida sifat o‘zgarishini yuzaga keltirdi. Bu jarayon ta’limni an’anaviy diniy chegaralardan chiqarib, uni amaliy va dunyoviy bilimlar bilan boyitdi. Ikkinchi bosqich savodxonlik darajasining oshishi. Pedagogik metodikaning takomillashuvi o‘quv jarayonining samaradorligini kuchaytirdi hamda qisqa muddat ichida o‘qish-yozish ko‘nikmalarining shakllanishini ta’minladi. Savodxonlikning kengayishi jamiyat a’zolarining axborotga kirish imkoniyatini oshirib, ijtimoiy tafakkurning rivojlanishiga turtki berdi. Uchinchi bosqich bilim va ko‘nikmalar kapitalizatsiyasi. Savodxonlik nafaqat elementar o‘qish-yozish qobiliyatini, balki mantiqiy fikrlash, tahliliy yondashuv va

dunyoqarash kengayishini ham shakllantirdi. Ta’lim mazmunining modernizatsiyasi natijasida kasbiy kompetensiyalar, ijtimoiy faollik va boshqaruv tafakkuri rivojlandi. Bu esa inson kapitalining sifat komponentlarini mustahkamladi. To‘rtinchi bosqich intellektual qatlamning shakllanishi. Ta’lim orqali bilimli va faol ijtimoiy guruh vujudga keldi. Mazkur qatlam jamiyatda innovatsion g‘oyalar, islohotchilik tashabbuslari va milliy ongni rivojlantirishda yetakchi rol o‘ynadi. Shu tariqa, inson kapitalining jamiyat miqyosidagi agregatsiyalashuvi yuz berdi. Yakuniy bosqich ijtimoiy modernizatsiya va taraqqiyot. Inson kapitalining o‘sishi uzoq muddatli rivojlanish jarayonining asosiy omiliga aylandi. Ta’limga yo‘naltirilgan investitsiyalar ijtimoiy mobilitetni kuchaytirib, boshqaruv va iqtisodiy faoliyat sifatini yaxshiladi. Jadidchilik harakati shu jihatdan mintaqaviy modernizatsiyaning intellektual negizi sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘tkazilgan tahlil va natijalar. shuni ko‘rsatadiki, O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, jadidchilik harakati Turkiston jamiyatida modernizatsiya jarayonining dastlabki institutsional bosqichini shakllantirgan muhim ijtimoiy-harakat sifatida namoyon bo‘ladi. Jadidlar tomonidan amalga oshirilgan ma’rifiy islohotlar ta’lim tizimining mazmuniy va metodik yangilanishini ta’minlab, jamiyatning intellektual salohiyatini oshirishga qaratilgan strukturaviy o‘zgarishlarni boshlab berdi. Birinchidan, yangi usul maktablarining tashkil etilishi ta’limning samaradorlik ko‘rsatkichlarini yaxshiladi hamda savodxonlik darajasining kengayishiga olib keldi. Bu jarayon inson kapitalining bazaviy komponenti — bilim va ko‘nikmalar zaxirasini oshirish orqali jamiyatning funksional imkoniyatlarini kengaytirdi. Savodxonlikning ortishi axborot almashinuvi, ijtimoiy muloqot va boshqaruv tafakkurining rivojlanishiga turtki bo‘ldi.

Ikkinchidan, dunyoviy fanlarning o‘quv jarayoniga integratsiyalashuvi tafakkurning ratsional va analitik shakllanishiga xizmat qildi. Bu esa jamiyatda yangicha fikrlovchi, ijtimoiy jarayonlarni tahlil qila oladigan va islohotchilik tashabbuslarini ilgari suruvchi intellektual qatlamning paydo bo‘lishiga zamin yaratdi. Mazkur qatlam modernizatsiya jarayonining tashuvchisi sifatida ijtimoiy o‘zgarishlarni tezlashtiruvchi omilga aylandi. Uchinchidan, jadidchilik harakati ta’limni ijtimoiy taraqqiyot vositasi sifatida talqin etib, uni institutsional darajada mustahkamlashga intildi. Ta’lim sohasidagi yangilanishlar jamiyatda ijtimoiy mobilitetni kuchaytirdi, shaxsning o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish imkoniyatlarini kengaytirdi va boshqaruv hamda iqtisodiy faoliyat sifatini yaxshilashga xizmat qildi. Shunday qilib, jadidchilik harakati modernizatsiyaning faqat madaniy emas, balki institutsional-iqtisodiy bosqichi sifatida baholanishi

mumkin. U inson kapitalining shakllanish jarayonini jadallashtirgan va jamiyatning uzoq muddatli taraqqiyotiga xizmat qilgan tarixiy transformatsiya mexanizmini ishga tushirgan. Mazkur natijalar jadidchilikni mintaqaviy modernizatsiyaning intellektual va institutsional asosi sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Xulosa. O‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, jadidlarning ma’rifiy islohotlari oddiy pedagogik yangilanish bilan cheklanib qolmagan, balki inson kapitalini shakllantirishga qaratilgan strategik va uzoq muddatli investitsiya xarakteriga ega bo‘lgan. Yangi usul maktablarining tashkil etilishi, ta’lim mazmunining modernizatsiya qilinishi hamda dunyoviy bilimlarning joriy etilishi jamiyatning intellektual resurslarini kengaytirishga xizmat qilgan. Jadidchilik harakati ta’limni ijtimoiy taraqqiyotning asosiy omili sifatida talqin etib, inson salohiyatini rivojlantirish orqali modernizatsiya jarayonining institutsional poydevorini yaratdi. Savodxonlik darajasining oshishi, analitik fikrlashning shakllanishi va intellektual qatlamning paydo bo‘lishi jamiyatda ijtimoiy mobilitetni kuchaytirdi hamda siyosiy va iqtisodiy tafakkurning yangilanishiga zamin yaratdi.

Shu jihatdan, jadidchilik tajribasi tarixiy jarayon sifatida emas, balki ta’limga asoslangan rivojlanish modelining dastlabki ko‘rinishi sifatida baholanishi mumkin. Inson kapitaliga yo‘naltirilgan investitsiyalarning uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy samara berishi haqidagi nazariy qarashlar jadidlar faoliyatida amaliy tasdig‘ini topgan. Natijada, mazkur tarixiy tajriba zamonaviy rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Xususan, ta’lim tizimini takomillashtirish, bilim va kompetensiyalarni kengaytirish hamda intellektual salohiyatni qo‘llab-quvvatlash barqaror taraqqiyotning ustuvor sharti sifatida namoyon bo‘ladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Alimova, D. A. (2010). Turkistonda ma’rifatparvarlik harakati. Toshkent: Fan nashriyoti.

2. Avloniy, A. (1992). Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent: O‘qituvchi.

3. Behbudiy, M. (1999). Saylanma. Toshkent: Ma’naviyat.

4. Fitrat, A. (1998). Tanlangan asarlar. Toshkent: Sharq nashriyoti.

5. Karimov, N. (2008). XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi. Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi.

6. Qosimov, B. (2004). Jadidchilik harakati tarixi. Toshkent: Sharq.

7. Rashidov, O. (2016). Turkiston Muxtoriyati tarixi. Toshkent: Akademnashr.

8. Ziyoyev, H. (2001). Turkiston jadidlari. Toshkent: Fan.

Jadidlarning ma'rifiy va pedagogik faoliyati

Normoʻminova Mohira Oʻtkir qizi

Termiz davlat pedagogika instituti Tillar fakulteti

Ona tili va adabiyoti: rus tili va adabiyoti yoʻnalishi

2- bosqich talabasi.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy-siyosiy hayotida muhim oʻrin tutgan jadidchilik harakati vakillarining maʼrifiy qarashlari va pedagogik faoliyati tahlil qilinadi. Jadidlarning "Usuli jadid" maktablari, darsliklar yaratish borasidagi xizmatlari hamda milliy kadrlar tayyorlash masalasidagi gʻoyalari yoritilgan.Maqolada jadidchilik harakati vakillarining taʼlim sohasidagi inqilobiy islohotlari, "Usuli jadid" maktablarining mazmun-mohiyati va Abdulla Avloniy, Mahmudxoʻja Behbudiy kabi allomalarning pedagogik merosi tahlil qilinadi.*

Annotasia*: This article analyzes the educational views and pedagogical activities of representatives of the Jadid movement, which played an important role in the socio-political life of Turkestan in the late 19th and early 20th centuries. The services of the Jadids in creating "Usuli Jadid" schools, textbooks, and their ideas on the issue of training national personnel are highlighted.The article analyzes the revolutionary educational reforms of the Jadid movement, the essence of "Usuli Jadid" schools, and the pedagogical heritage of scholars like Abdulla Avloni and Mahmudkhoja Behbudi.*

Аннотация: *В статье анализируются просветительские взгляды и педагогическая деятельность представителей движения джадидов, сыгравших важную роль в общественно-политической жизни Туркестана в конце XIX — начале XX вв. Освещены заслуги джадидов в создании школ «Усули-*

джадид», учебников, а также их идеи в области подготовки национальных кадров. В статье анализируются революционные реформы движения джадидов в сфере образования, суть школ «Усули Джадид» и педагогическое наследие таких ученых, как Абдулла Авлони и Махмудходжа Бехбуди.

Kalit so‘zlar: *Jadidchilik, Usuli jadid, Ma’rifatparvarlik, Pedagogika, Milliy uyg‘onish, Turkiston, Abdulla Avloniy, Jadid maktablari.*

Keywords*: Jadidism, Method of Jadid, Enlightenment, Pedagogy, National revival, Turkestan, Abdulla Avloni, Jadid schools.*

Ключевые слов: *Джадидизм, Метод Джадида, Просвещение, Педагогика, Национальное возрождение, Туркестан, Абдулла Авлони, Джадидские школы.*

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasi chor Rossiyasining mustamlakachilik zulmi va ichki feodal qoloqlik iskanjasida edi. Bunday murakkab davrda maydonga chiqqan jadidlar millatni saqlab qolishning yagona yo‘li sifatida ma’rifatni tanladilar. Jadidchilik shunchaki o‘qitish uslubini o‘zgartirish emas, balki xalqning tafakkurini yangilash, ijtimoiy-siyosiy ongni uyg‘otish va milliy davlatchilik poydevorini qo‘yish harakati edi. Ularning pedagogik faoliyati "Insoniyat qadri ilm bilan" degan oliyjanob g‘oyaga asoslandi.Jadidlar harakati nafaqat ma’naviy uyg‘onish, balki aniq pedagogik innovatsiyalar majmuasi sifatida maydonga chiqdi. Statistik kengayish: 1905-1917 yillar oralig‘ida jadid maktablari Turkistonning yirik shaharlarida (Toshkent, Samarqand, Qo‘qon, Buxoro) shiddat bilan ko‘paydi. Masalan, 1910-yillarga kelib, bu maktablar soni bir necha yuztaga yetdi va ularda nafaqat o‘g‘il bolalar, balki ilk bor qizlar uchun ham maxsus maktablar (masalan, Xivada Muhammad Rahimxon II homiyligida) ochila boshlandi.

Yangi Pedagogik Paradigma: Jadidlar an’anaviy ta’limdagi jismoniy jazolash (falaka) tizimidan butunlay voz kechib, bolaga shaxs sifatida yondashishni (child-centered approach) joriy etdilar. Bu o‘sha davr Sharq pedagogikasi uchun tub burilish edi. Tashkiliy-huquqiy harakatlar: Jadidlar faoliyati faqat dars berish bilan cheklanmadi. Ular 1906-1916 yillar oralig‘ida "Erk", "Turon" kabi xayriya jamiyatlari va "Muallimlar jamiyati"ni tashkil etib, ijtimoiy himoya tizimini yaratdilar.Jadidlar Rossiya imperiyasidagi musulmon modernizatorlarining “islohotchilari” bo‘lib, o‘zlarini “ilg‘or”, intellektual Yokini esa faqat “yoshlar” deb ta’riflaganlar. Ularning asosiy maqsadlari ta'lim sohasida islohotlarni amalga oshirish, maktablarda “Usul ul-jadid” yangi usulini joriy etish va rivojlantirish edi. Turkiston Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingandan so'ng, bu hudud

metropolni tabiiy resurslari, xususan, paxta va ipak bilan ta'minlaydigan xom ashyo bazasiga aylandi.

Asosiy qism .

1. "Usuli jadid" maktablarining tashkil etilishi.

Jadidlarning pedagogik faoliyati, eng avvalo, maktab tizimini isloh qilishdan boshlandi. Ismoil Gasprinskiyning "Usuli savtiya" (tovush usuli) metodikasi asosida Turkistonda yangi usul maktablari ochildi. 1901-yilda Munavvarqori Abdurashidxonov Toshkentda, Mahmudxo‘ja Behbudiy esa Samarqandda ilk shunday maktablarga asos soldilar. Ushbu maktablarda diniy ilmlar bilan bir qatorda hisob, jug‘rofiya, tarix va tabiatshunoslik kabi dunyoviy fanlar o‘qitila boshlandi.

2. Darsliklar yaratish va metodik yangiliklar.Eski maktablarda o‘quvchi yillar davomida harflarni taniy olmagan bo‘lsa, jadidlar yaratgan darsliklar tufayli bolalar 40-50 kunda savodini chiqaradigan bo‘ldi. Bu borada quyidagi darsliklar poydevor vazifasini o‘tadi:

Saidrasul Azizov – "Ustozi avval" (1902);

Munavvarqori Abdurashidxonov – "Adibi avval" (1907);

Abdulla Avloniy – "Turkiy guliston yoxud axloq" (1913).

Ayniqsa, Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asari o‘zbek pedagogikasining oltin merosi hisoblanib, unda tarbiya masalasi to‘rt qismga (badaniy, fikriy, axloqiy va nafs tarbiyasi) bo‘lib tahlil qilingan.

3. Ma’rifiy targ‘ibot va teatr. Jadidlar teatrni "ibratxona" deb atadilar. Mahmudxo‘ja Behbudiyning "Padarkush" dramasi millatning fojiasi ilmsizlikda ekanini ko‘rsatib berdi. Ular matbuot (gazeta va jurnallar) orqali xalqning dunyoqarashini kengaytirishga, xotin-qizlar ta’limiga alohida e’tibor qaratishga intildilar.Adabiyot tahlili. Jadidizm ruhi va mazmunining mujassamlanishi Yumshoq milliy ong va sezgi namoyon bo'lgan jadid adabiyoti uning rivojlanishida beqiyos rol o'ynaydi. Bular adabiyotning eng qadimgi namunalaridir. Haqiqatan ham, zamonaviy adabiyot milliy ong va modernizmga aylanadi ob'ektni qamrab olishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Uning ahamiyatini ortiqcha baholab bo'lmaydi, chunki u zamonaviy jamiyatning murakkabliklari va nozikliklarini aks ettiradi. Amaliy tadqiqotlar olib bordi .J. A. Urumbaev va U. Aleutskixning ilmiy ishlari, shuningdek “Qoraqalpog‘iston yangi tarixi” kitobidagi jadid maktabi, jadidizm .Harakat bilan bog‘liq ishlar haqida ma’lumotlar keltirilgan. Mustaqillikdan keyin

bir qator ilmiy-tadqiqot ishlari boshlandi. Jadidlar haqidagi ko'plab maqolalar, tadqiqotlar va ilmiy maqolalar e'lon qilindi. Bo'sh ish o'rinlari e'lon qilindi. Shu Jumladan E. Karimov, S. Qosimov, O. Sharafiddinov, Sh. Turdiyev, X. Boltaboyev, S. Xolboyev, A. Nasriddinov B. Ergashev, T. Berdiyev, N. Karimov, B. Imomov, S. Ahmedov, G. Ahmadjonov, Z. Eshmurodovning tadqiqotlari jadid harakatining ma'rifiy jihatlariga bag'ishlangan., siyosiy va zamonaviy tendentsiyalar aks eta boshladi. Hozirgi vaqtda jadid ma'rifatparvarlarining tadqiqot sohasidagi pedagogik qarashlari faoliyatning turli bosqichlarida tahlil qilinmoqda. Hozirgi vaqtda tadqiqotlar turli davrlar va mintaqalarda sanoat faolligini ko'rsatmoqda. Tarixiylik tahlil nuqtai nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi. Ammo yuqoridagi barcha tadqiqotlarda pedagogik qarashlar yaxlit chuqur tahlilda shakllantirilmagan. Shuning uchun pedagogikaning muhim va yirik tarmog'i hisoblangan pedagogik faoliyatga oid qarashlarni yaxlit tahlil qilish dolzarbdir. Tadqiqot metodologiyasi. Jadidchilik yo‘nalishida olib borilgan tadqiqotlarda tarixiylik, mantiqiy-huquqiy, qiyosiy tahlil, tizimlashtirish kabi usullardan foydalanildi. Mustaqillikdan oldingi davrda Turkistondagi jadid mutafakkirlarining pedagogik qarashlari mavzusi mavzu bo‘yicha tadqiqot va adabiy tadqiqotlar, ilmiy tadqiqotlar nazariy asosni arxiv materiallari ta’minlaydi. Manbalardan olingan ma’lumotlarni tahlil qilish tarixiylik qoidasidan kelib chiqqan holda mavzu bo‘yicha xolisdir. yondashuvni talab qiladi. Yuqoridagi usullarni qo'llash natijasida quyidagi ilmiy yangilik o'rganildi: jadidlar ma'rifat - o'z davri va keyingi davrlar uchun dars. Jadidlarning usullari, ko'nikmalari, maktablari va ularni tashkil etish usullari va yetarlicha ma'lumotlar qoldirgan. Jumladan, jadidlardan ularning ilmiy merosini o‘rganishdan so‘ng olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlari, yosh avlodga o‘rgatish va qo‘llash.

Jadidlar tomonidan ta’lim tizimiga kiritilgan innovatsiyalar o‘sha davrning ilg‘or g‘oyalari bo‘lib, Turkistonning ijtimoiy, madaniy va siyosiy hayotiga yangi shakl berdi. Jadidlar o‘zlari dars bergan maktablarda o‘quvchilarga nafaqat diniy bilimlarni, balki tabiatshunoslik, adabiyot, tarix va geografiya kabi sohalardagi bilimlarni ham berish zarurligini ta’kidladilar. Bu yondashuv, o‘z navbatida, jamiyatning innovatsiyalarga ochiqligi va yangi g‘oyalarni qabul qilishiga xizmat qildi. Jadidlar yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ta’limga yangilik kiritish, uslub va usullarni o‘zgartirishga intildilar.

Jadidlarning g‘oyalari nafaqat maktab ta’limiga, balki ijtimoiy, madaniy va siyosiy hayotga ham ta’sir ko‘rsatdi. Masalan, jadidlarning ta’lim sohasidagi eng muhim yangiliklaridan biri talabalarni o‘z fikrini bayon etish va mustaqil fikrlashga o‘rgatish edi. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash orqali ular an'anaviy diniy qadriyatlar bilan bir qatorda zamonaviy dunyoqarashni o'zlashtirishni

rag'batlantirdilar. Jadidlarning innovatsion g‘oyalari asosan ta’lim va madaniy yangilanish sohasida o‘z ifodasini topdi. Ularning eng muhim g'oyalari nafaqat diniy ta'limni isloh qilish, balki yangi g'oyalar, ilm-fan va madaniyat orqali jamiyatni yangilashni ham o'z ichiga olgan. Jadidlarning o‘sha davrdagi innovatsion yondashuvlari an’anaviy tafakkurni tanqid qilish, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, zamonaviy ta’lim tizimini yaratish va innovatsiyalarga ochiqlikni targ‘ib qilishga qaratilgan edi. Quyida biz o‘sha davr jadidlarining asosiy innovatsion g‘oyalarini tahlil qilamiz.Jadidlarning ma'rifiy faoliyati nafaqat ta'lim sohasida, balki madaniy yangilanishda ham o'z aksini topdi. Ular bu ishni jamiyatni yangilash, yoshlarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish va eng avvalo ularni yangi g'oyalar ruhida tarbiyalash orqali amalga oshirishga intildilar. Jadidlarning ta'limni isloh qilishdagi asosiy g'oyalaridan biri eski maktablar va diniy ta'lim tizimini yangilash, ularni xalq ehtiyojlariga moslashtirish edi. Jadidlar harakati, o'z navbatida, madaniy yangilanish va milliy o'ziga xoslikni saqlashga intildi. Ularning ma’rifiy faoliyati milliy qadriyatlarni asrab-avaylash bilan birga yangi dunyoqarashning rivojlanishiga xizmat qildi.

Jadidlarning ta’lim sohasidagi innovatsiyalari ijtimoiy-siyosiy hayotga ham katta ta’sir ko‘rsatdi. Jadidlar o‘zlarining ta’lim dasturlarini ishlab chiqishda nafaqat bilim berishga, balki yoshlarni ijtimoiy faollashtirishga ham intildilar. Ularning ta’lim g‘oyalari yoshlarni yangi dunyoqarashga ilhomlantirdi. Jadidlarning siyosiy g'oyalari milliy mustaqillikka intilish va o'ziga xoslikni saqlab qolish edi. Jadidlarning siyosiy faoliyati, ayniqsa, Turkistondagi mustamlakachilik siyosatiga qarshi norozilik va uning oqibatlariga qarshi kurashishga qaratilgan edi. Jadidlar o‘zlarining ta’lim dasturlari orqali yoshlarni mustaqillik g‘oyasiga tayyorlashga harakat qilishdi. Jadidlarning siyosiy va ijtimoiy faoliyatini o‘rganish nafaqat ularning g‘oyalarining tarixiy ahamiyatini, balki ularning ta’siri bugungi kunda ham davom etayotganligini ham tushunish imkonini beradi. Turkiston jadidlarining ma’rifiy faoliyati, ularning innovatsion g‘oyalari va madaniy yangilanishdagi o‘rni nafaqat o‘z davrida, balki bugungi kunda ham katta ahamiyatga ega. Ularning ta’lim sohasidagi islohotlari, ijtimoiy yangilanishi va siyosiy g‘oyalari Turkiston jamiyatining rivojlanishiga xizmat qildi. Jadidlar harakati tarixi ilmiy tadqiqotlar uchun boy manba bo‘lib, ularning g‘oyalari va faoliyatini o‘rganish ularning jamiyatning kelajakdagi rivojlanishiga qanday ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini tushunishga yordam beradi.

Xulosa. Jadid ma’rifatparvarlarining faoliyatini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, ular Turkistonning ijtimoiy-siyosiy turg‘unligidan chiqish yo‘lini, avvalo, ta’lim islohoti va ma’naviy yuksalishda ko‘rganlar. Ularning pedagogik tizimi quyidagi xususiyatlari bilan milliy tariximizda tub burilish yasadi. Jadidlar diniy qadriyatlar

va dunyoviy ilmlarni (matematika, fizika, geografiya) birlashtirgan holda "barkamol inson" konsepsiyasini ilgari surdilar.Ona tilini o‘qitish tizimining asosi etib belgilash orqali milliy o‘zlikni saqlab qolishga harakat qildilar. Maktabni nafaqat bilim maskani, balki xalqni uyg‘otuvchi, jaholat va mutaassiblikka qarshi kurashuvchi siyosiy-ma’rifiy markazga aylantirdilar. "Usuli jadid" maktablaridan boshlab, matbuot, teatr va chet eldagi oliy ta’limni o‘z ichiga olgan yaxlit ma’rifiy zanjir yaratdilar.

Xulosa qilib aytganda, jadidlar nafaqat o‘qituvchi, balki millatning ijtimoiy arxitektorlari edi. Ularning "Tarbiyani hayot-mamot masalasi" deb bilishi bugungi O‘zbekiston ta’lim islohotlari va Uchinchi Renessans poydevori uchun ham metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar .

1.Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992.

2.Behbudiy, Mahmudxo‘ja. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma’naviyat, 2006.

3. Qosimov, Begali. Milliy uyg‘onish: jasorat, ma’rifat, fidoiylik. – Toshkent: Ma’naviyat, 2002.

4. Dolimov, Ulug‘bek. Jadidchilik poydevori. – Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2012.

5. Ziyo, Azamat. O‘zbekiston davlatchiligi tarixi. – Toshkent: Sharq, 2000.

6. Alimova, Dilorom. Jadidchilik harakati va uning ijtimoiy-siyosiy mohiyati. – Toshkent: Fan, 2000.

Milliy uyg‘onish mafkurasi va jadid islohotlarining sog‘liqni saqlash tizimi taraqqiyotidagi o‘rni

Toshkent Kimyo Xalqaro universiteti
pediatriya yo’nalishi 2-bosqich talabasi
Toshpo’latova Durdona Sharifbekovna
+998992030906

Annotatsiya. *Mazkur maqolada milliy uyg‘onish mafkurasi va jadidchilik harakatining sog‘liqni saqlash tizimi taraqqiyotidagi tarixiy hamda g‘oyaviy o‘rni tahlil qilinadi. Jadid ma’rifatparvarlarining ta’lim, ilm-fan va ijtimoiy islohotlar borasidagi qarashlari tibbiyot rivoji bilan uzviy bog‘liqlikda o‘rganiladi. XX asr boshlarida Turkistonda shakllangan yangi fikrlash muhiti, dunyoviy bilimlarni egallashga bo‘lgan intilish, gigiyena va sanitariya masalalariga e’tiborning*

kuchayishi sog‘liqni saqlash tizimi modernizatsiyasiga zamin yaratgani asoslab beriladi. Shuningdek, aded g‘oyalarining zamonaviy tibbiyot ta’limi, kasbiy etika va jamoatchilik salomatligi konsepsiyalaridagi aks-sadosi ochib beriladi. Maqolada tarixiy tajriba va bugungi sog‘liqni saqlash tizimi rivoji o‘rtasidagi uzviylik ilmiy-nazariy jihatdan yoritiladi.

Kalit so‘zlar: *milliy uyg‘onish, jadidchilik, ma’rifatparvarlik, sog‘liqni saqlash tizimi, tibbiyot tarixi, sanitariya, gigiyena, tibbiy ta’lim, modernizatsiya, ijtimoiy islohot.*

Milliy uyg‘onish jarayoni har qanday xalq tarixida muhim burilish nuqtasi hisoblanadi. Bu jarayon jamiyatning o‘zligini anglash, ilm-fan va ma’rifatga intilish, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida yangilanish sari harakat bilan xarakterlanadi. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston hududida yuzaga kelgan jadidchilik harakati aynan shunday uyg‘onishning mahsuli bo‘ldi. Jadidlar ta’limni isloh qilish, yangi maktablar ochish, dunyoviy fanlarni joriy etish orqali jamiyatni taraqqiyot yo‘liga olib chiqishni maqsad qildilar. Ularning faoliyati faqat adedgic soha bilan cheklanib qolmay, ijtimoiy, madaniy va hatto sog‘liqni saqlash tizimi rivojiga ham ta’sir ko‘rsatdi.

Jadid ma’rifatparvarlari ilm-fan taraqqiyotini millat ravnaqi bilan bevosita bog‘ladilar. Ular jaholat va xurofotni jamiyatning asosiy muammolaridan biri sifatida ko‘rdilar. Ayniqsa, sanitariya-gigiyena qoidalariga amal qilmaslik, yuqumli kasalliklarning keng tarqalishi, tibbiy savodxonlikning pastligi o‘sha davr jamiyatining dolzarb muammolaridan edi. Jadidlar gazeta va jurnallarda sog‘lom turmush aded, tozalik, bolalar parvarishi, yuqumli kasalliklardan saqlanish choralari haqida maqolalar e’lon qildilar. Bu esa aholining tibbiy madaniyatini oshirishga xizmat qildi.

Milliy uyg‘onish mafkurasi jamiyat taraqqiyotini ilm-ma’rifat asosida qurishni nazarda tutgan. Jadidlar fikricha, zamonaviy tibbiyot yutuqlarini o‘zlashtirish va sog‘liqni saqlash tizimini isloh qilish millat salomatligini ta’minlashning asosiy shartidir. Shu bois yangi usul maktablarida tabiiy fanlar, jumladan, anatomiya, biologiya va gigiyena asoslari o‘qitila boshlandi. Bu esa yosh avlodda ilmiy dunyoqarash shakllanishiga zamin yaratdi.

XX asr boshlarida Turkistonda yuqumli kasalliklar – vabo, sil, bezgak va boshqa kasalliklar keng tarqalgan edi. Jadid ziyolilari bu muammoni faqat diniy yoki taqdir bilan bog‘lash noto‘g‘ri ekanini, aksincha, ilmiy asosda profilaktika choralarini ko‘rish zarurligini ta’kidladilar. Ularning fikricha, toza ichimlik suvi, sanitariya qoidalariga amal qilish, shaxsiy gigiyena va emlash tadbirlari jamiyat salomatligini yaxshilashda muhim ahamiyatga ega.

Jadid islohotlarining yana bir muhim jihati – ayollar ta’limiga e’tibor qaratilishi edi. Chunki sog‘lom avlod tarbiyasi, avvalo, onaning savodxonligi va tibbiy madaniyatiga bog‘liq. Ayollar maktablarining ochilishi, u yerda gigiyena va bolalar salomatligi bo‘yicha bilim berilishi jamiyatda sog‘liqni saqlash madaniyatining shakllanishiga xizmat qildi. Bu jarayon milliy uyg‘onish mafkurasining sog‘liqni saqlash tizimiga bevosita ta’sirini ko‘rsatadi.

Jadidchilik harakati zamonaviy tibbiyot ta’limining shakllanishiga ham zamin yaratdi. Ular yoshlarni chet ellarda tahsil olishga da’vat etib, ilg‘or fan yutuqlarini o‘zlashtirishni qo‘llab-quvvatladilar. Natijada tibbiyot sohasida yangi bilimlarga ega mutaxassislar shakllana boshladi. Bu esa sog‘liqni saqlash tizimining bosqichma-bosqich modernizatsiyasiga olib keldi.

Milliy uyg‘onish davri va jadid harakati tarixiy jarayon sifatida nafaqat ma’rifat, madaniyat va ta’lim sohalarida, balki sog‘liqni saqlash tizimi rivojida ham muhim o‘rin egallagan. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston hududida yuzaga kelgan jadid harakati jamiyatda sog‘lom turmush tarzi, sanitariya-gigiyena qoidalari va ijtimoiy salomatlik madaniyatini targ‘ib qilishga katta e’tibor qaratdi. Jadid ma’rifatparvarlari ilm-fanni millat taraqqiyoti bilan uzviy bog‘lashni asosiy vazifa sifatida belgilab, sog‘liqni saqlash masalalarini ham yangi nuqtai nazardan ko‘rishga chaqirdilar. Ular nafaqat bilim berish, balki aholining kasalliklarni oldini olish, toza suv, gigiyena, emlash va bolalar parvarishi kabi dolzarb masalalarga e’tibor qaratdilar.

Jadidchilik g‘oyalari jamiyatda profilaktik tibbiyotning shakllanishiga turtki bo‘ldi. Gigiyena va sanitariya qoidalarining targ‘ib qilinishi, emlash tadbirlarining joriy etilishi va kasbiy tayyorgarlikni kuchaytirishga qaratilgan harakatlar mahalliy sog‘liqni saqlash tizimini asta-sekin modernizatsiya qilishga xizmat qildi. Shu bilan birga, yangi maktablarda tabiiy fanlar, anatomik bilimlar va gigiyena asoslari o‘qitilishi yosh avlodning ilmiy dunyoqarashini kengaytirib, kasbiy va ma’naviy kompetensiyalarni shakllantirishga yordam berdi. Ayollar ta’limi va ularning sog‘lom avlod tarbiyasidagi roli ham jadidlar tomonidan alohida ta’kidlangan bo‘lib, bu amaliyot sog‘liqni saqlash tizimining ijtimoiy samaradorligini oshirishga xizmat qilgan.

Jadidlarning ilmiy yondashuvi va sog‘liqni saqlashga e’tibori shifokor va hamshira kadrlarini tayyorlash tizimiga ham ta’sir ko‘rsatdi. Chet el tajribasini o‘zlashtirish, ilg‘or pedagogik va klinik metodlarni joriy etish orqali zamonaviy tibbiyot ta’limi rivojlandi. Shuningdek, aholi o‘rtasida gigiyena, kasalliklardan saqlanish va sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish ishlarining yo‘lga qo‘yilishi tibbiy madaniyatni oshirdi. Shu tariqa jadid g‘oyalari milliy uyg‘onish ruhida sog‘liqni saqlash tizimining strategik rivojlanishiga mustahkam poydevor yaratdi.

Bugungi kunda ham milliy uyg‘onish va jadidchilik merosi sog‘liqni saqlash tizimini modernizatsiya qilishda dolzarb hisoblanadi. Innovatsion texnologiyalar, raqamli ta’lim platformalari, simulyatsion va interaktiv metodlar joriy etilayotgan zamonda ham insonparvarlik, kasbiy etika va ijtimoiy mas’uliyat kabi qadriyatlar tibbiy ta’lim va kadrlar tayyorlashning asosiy prinsiplaridan biri bo‘lib qolmoqda. Shu bilan birga, tarixiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, jamiyatning sog‘lomligi faqat texnologik yutuqlar bilan emas, balki aholi ma’rifiy saviyasi va axloqiy madaniyati bilan ham belgilanadi. Milliy uyg‘onish mafkurasi va jadid g‘oyalari aynan shu tamoyillarni ilgari surib, sog‘liqni saqlash tizimi taraqqiyotiga uzviy hissa qo‘shgan.

Milliy uyg‘onish mafkurasi faqat tarixiy hodisa emas, balki bugungi kun uchun ham dolzarbdir. Zamonaviy O‘zbekiston sog‘liqni saqlash tizimini isloh qilish jarayonida milliy qadriyatlar va ma’rifatparvarlik an’analariga tayanmoqda. Profilaktik tibbiyot, jamoatchilik salomatligi, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish kabi yo‘nalishlar jadidlarning ilgari surgan g‘oyalari bilan uyg‘unlashadi.

Bugungi kunda sog‘liqni saqlash tizimida innovatsion texnologiyalar joriy etilmoqda, tibbiy ta’lim tizimi takomillashtirilmoqda. Biroq bu jarayonda ma’naviy-axloqiy qadriyatlar, insonparvarlik tamoyillari ham ustuvor ahamiyat kasb etadi. Jadidlar merosi aynan shu jihatdan dolzarbdir. Ular ilm-fanni inson manfaatlari yo‘lida xizmat qildirish g‘oyasini ilgari surgan edilar.

Milliy uyg‘onish va aded islohotlari sog‘liqni saqlash tizimi taraqqiyotida uch asosiy yo‘nalishda namoyon bo‘ladi: birinchidan, ilmiy dunyoqarashni shakllantirish; ikkinchidan, gigiyena va sanitariya madaniyatini oshirish; uchinchidan, zamonaviy tibbiy ta’limni rivojlantirish. Ushbu omillar bugungi sog‘liqni saqlash tizimi uchun ham adedgic ahamiyatga ega.

Tarixiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, jamiyatning sog‘lomligi faqat tibbiy muassasalar soni yoki texnik jihozlanish darajasi bilan emas, balki aholining ma’rifiy saviyasi bilan ham belgilanadi. Jadidlar aynan shu haqiqatni anglab, sog‘liqni saqlashni ma’rifat bilan bog‘lagan edilar. Ularning merosi bugungi islohotlar uchun g‘oyaviy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Shunday qilib, milliy uyg‘onish mafkurasi va aded islohotlari sog‘liqni saqlash tizimi taraqqiyotida muhim o‘rin tutadi. Ular ilm-fan, ma’rifat va ijtimoiy mas’uliyatni uyg‘unlashtirgan holda jamiyat salomatligini yaxshilashga qaratilgan konseptual yondashuvni shakllantirdi. Zamonaviy sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirishda ushbu tarixiy tajribani chuqur o‘rganish va amaliyotga tatbiq etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Milliy uyg‘onish mafkurasi va jadidchilik harakati Turkiston ijtimoiy hayotida chuqur iz qoldirgan tarixiy jarayon bo‘lib, uning ta’siri sog‘liqni saqlash tizimi taraqqiyotida ham yaqqol namoyon bo‘ladi. Jadidlarning ma’rifatparvarlik

g‘oyalari ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, sanitariya va gigiyena madaniyatini oshirish, zamonaviy tibbiy ta’limni rivojlantirishga xizmat qildi. Bugungi kunda sog‘liqni saqlash tizimini modernizatsiya qilish jarayonida ushbu tarixiy merosdan samarali foydalanish, milliy qadriyatlar va innovatsion yondashuvlarni uyg‘unlashtirish zarur. Jadidlar ilgari surgan ilm-fan va insonparvarlik tamoyillari zamonaviy tibbiyot rivojining ham ma’naviy poydevori bo‘lib qolmoqda.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. Toshkent: Ma’naviyat, 2006.

2. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent: O‘qituvchi, 1992.

3. Qosimov B. Jadidchilik harakati tarixi. Toshkent: Sharq, 2004.

4. Karimov I. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: Ma’naviyat, 2008.

5. Rahimov M. O‘zbekiston tibbiyoti tarixi. Toshkent: Fan, 2010.

6.Sodiqov H. Turkistonda ma’rifatparvarlik harakati. Toshkent: Akademnashr, 2015.

THE DECLINE OF THE JADID REFORM MOVEMENT IN SOVIET CENTRAL ASIA

Azimova Sayyora Xusanboyevna
FSU, associate professor
+998773378008
s.azimova@fdu.uz

Annotation. *This article analyzes the decline of the Jadid reform movement in Soviet Central Asia, emphasizing the political and ideological factors that led to its suppression in the 1920s–1930s. It examines how Soviet policies, censorship, and purges eliminated leading Jadid intellectuals, including Abdulhamid Cholpon, and reshaped the cultural landscape of the region.*

Keywords: *jadidism, Soviet Central Asia, repression, reform movement, intellectual history.*

Аннотация*. Статья анализирует упадок джадидского реформаторского движения в Советской Центральной Азии, уделяя внимание политическим и идеологическим причинам его подавления в 1920–1930-е годы. Рассматривается влияние репрессий и цензуры, приведших к уничтожению ведущих представителей движения, включая Абдулхамида Чулпана.*

Ключевые слова: *джадидизм, Советская Центральная Азия, репрессии, реформаторское движение, интеллектуальная история.*

Annotatsiya*. Maqolada Sovet Markaziy Osiyosida jadid islohotchilik harakatining tanazzuli va 1920–1930-yillarda uning siyosiy-mafkuraviy bostirilishi tahlil qilinadi. Repressiya va senzura natijasida Abdulhamid Cho‘lpon kabi jadid ziyolilarining yo‘q qilinishi yoritiladi.*

Kalit so‘zlar*: jadidchilik, Sovet Markaziy Osiyo, repressiya, islohotchilik harakati, intellektual tarix.*

Introduction. The Jadid reform movement emerged in the late nineteenth and early twentieth centuries as a modernist intellectual current among Muslim communities of Central Asia. Inspired by the educational reforms of Ismail Gaspirali, Jadidism promoted new-method (usul-i jadid) schools, secular knowledge, print culture, and national awakening. In Turkestan, leading figures such as Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, and Abdulhamid Cholpon played a crucial role in advancing educational reform and cultural modernization.

However, by the 1930s, the movement had been largely dismantled under Soviet rule. [1]

Jadidism as a Reformist Project

Jadidism sought to reconcile Islamic tradition with modern science, rationalism, and national consciousness. The establishment of new-method schools introduced phonetic teaching techniques and broadened curricula that included history, geography, and natural sciences. Jadid intellectuals also utilized newspapers, theater, and literature as tools for social transformation. Their writings emphasized enlightenment (ma'rifat), progress (taraqqiyot), and civic responsibility. [3]

Although the early Soviet regime initially tolerated and even cooperated with some Jadid intellectuals during the 1920s, this alliance was short-lived. As Soviet ideological control intensified, Jadid reformers were increasingly viewed as nationalist and potentially counter-revolutionary elements.

Soviet Repression and Political Purges

By the late 1920s and especially during the Great Purges of the 1930s, Soviet authorities targeted national intellectual elites across Central Asia. Many Jadid leaders were arrested, executed, or sent to labor camps. The repression of figures such as Cholpon symbolized the broader elimination of an entire generation of reformist thinkers.

The suppression of Jadidism was not merely political but also cultural. Independent educational institutions were closed, publications were censored, and intellectual discourse was subordinated to Marxist-Leninist ideology. As a result, the Jadid vision of autonomous cultural modernization was replaced by a centralized Soviet model of nation-building. [2]

Historical Significance

The decline of the Jadid movement marked a decisive turning point in the intellectual history of Central Asia. While Soviet modernization introduced literacy campaigns and industrialization, it simultaneously eradicated alternative models of reform rooted in indigenous intellectual traditions. [5]

In post-Soviet historiography, Jadidism has been reassessed as a foundational movement in the development of modern national identity in Uzbekistan and the broader region. Its tragic suppression underscores the complex relationship between reform, nationalism, and authoritarian power in the twentieth century.

Conclusion

The decline of the Jadid reform movement in Soviet Central Asia resulted from escalating ideological conflict and political repression. Although physically eliminated, Jadid ideas of enlightenment, education, and cultural renewal continue

to influence contemporary interpretations of national history. The movement's fate illustrates the vulnerability of intellectual reform movements within highly centralized political systems.

References

1. Adeeb Khalid. (1998). The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia. Berkeley: University of California Press.
2. Allworth, Edward A. (1990). The Modern Uzbeks: From the Fourteenth Century to the Present. Stanford: Hoover Institution Press.
3. Bennigsen, Alexandre & Wimbush, S. Enders. (1985). Muslim National Communism in the Soviet Union. Chicago: University of Chicago Press.
4. Khalid, Adeeb. (2007). Islam after Communism: Religion and Politics in Central Asia. Berkeley: University of California Press.
5. Roy, Olivier. (2000). The New Central Asia: The Creation of Nations. New York: New York University Press.

Jadid adabiyoti taraqqiyotida Cho‘lponning badiiy mahorati va yangiligi.

Karimjonova Mohinur
Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn insitituti
San’atshunoslik va amaliy san’at fakultiteti
Muzeyshunoslik: Muzey menejmenti va madaniy turizm yo’nalishi 3-bosqich talabasi.

Annotatsiya: *Mazkur maqolada jadid adabiyoti taraqqiyotida Abdulhamid Cho‘lponning badiiy mahorati va ijodiy yangiligi ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. XX asr boshlarida yuzaga kelgan jadidchilik harakati doirasida Cho‘lpon milliy uyg‘onish g‘oyalarini she’riyat, nasr va dramaturgiya orqali ifodalagan yetakchi ijodkor sifatida namoyon bo‘ladi. Uning asarlarida erkinlik, istiqlol, shaxs va jamiyat munosabatlari, milliy o‘zlikni anglash kabi masalalar chuqur badiiy talqin etilgan. Cho‘lpon she’riyatida ramziylik, lirizm va psixologik tasvirning kuchayishi jadid adabiyotiga yangi estetik yo‘nalish olib kirgan. Xususan, uning “Kecha va kunduz”*

romani o‘zbek realizm maktabining shakllanishida muhim bosqich bo‘lib, unda ijtimoiy muhit va inson ruhiyati o‘zaro uyg‘unlikda ochib beriladi. Shuningdek, shoirning publitsistik va tarjimonlik faoliyati ham milliy adabiyot taraqqiyotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. Tadqiqotda Cho‘lpon ijodining badiiy-estetik xususiyatlari, til va uslub yangiligi, obraz yaratish mahorati hamda jadid adabiyotidagi o‘rni kompleks yondashuv asosida yoritiladi.

***Kalit so’zlar**: Jadid adabiyoti, Cho‘lpon, badiiy mahorat, ijodiy yangilik, milliy uyg‘onish, realizm, ramziylik, lirizm, psixologik tasvir, roman janri, milliy o‘zlik.*

***Аннотация**: В данной статье рассматриваются художественное мастерство и творческое новаторство Абдулхамид Чулпон в развитии джадидской литературы. Как один из ведущих представителей джадидского движения начала XX века, Чулпон выразил идеи национального пробуждения в поэзии, прозе и драматургии. В его произведениях глубоко раскрываются темы свободы, независимости, взаимоотношений личности и общества, национального самосознания.*

Поэзия Чулпона внесла новые эстетические принципы в джадидскую литературу, усилив символизм, лиризм и психологическую глубину художественного изображения. Его роман «Kecha va kunduz» («Ночь и день») стал важным этапом в формировании узбекской реалистической прозы, где социальная среда и внутренний мир человека раскрываются в органическом единстве. Кроме того, его публицистическая и переводческая деятельность оказала значительное влияние на развитие национальной литературы.

В исследовании комплексно анализируются художественно-эстетические особенности творчества Чулпона, новаторство языка и стиля, мастерство создания образов и его место в истории джадидской литературы.

***Ключевые слова**: Джадидская литература, Чулпон, художественное мастерство, творческое новаторство, национальное пробуждение, реализм, символизм, лиризм, психологизм, жанр романа, национальное самосознание.*

***Annotation**: This article analyzes the artistic mastery and creative innovation of Abdulhamid Cho‘lpon in the development of Jadid literature. As one of the leading representatives of the early 20th-century Jadid movement, Cho‘lpon expressed the ideas of national awakening through poetry, prose, and drama. His works deeply explore themes such as freedom, independence, the relationship between the individual and society, and national identity.*

Cho‘lpon’s poetry introduced new aesthetic principles into Jadid literature, particularly through symbolism, lyricism, and psychological depth. His novel “Kecha va kunduz” (“Night and Day”) represents an important stage in the formation of


Uzbek realist prose, portraying the harmony between social environment and human psychology. Moreover, his activities as a publicist and translator significantly contributed to the progress of national literature. The study examines the artistic and aesthetic features of Cho‘lpon’s works, his linguistic and stylistic innovations, his mastery in character creation, and his role in the evolution of Jadid literature through a comprehensive analytical approach

***Key words**: Jadid literature, Cho‘lpon, artistic mastery, creative innovation, national awakening, realism, symbolism, lyricism, psychological analysis, novel genre, national identity.*

Abdulhamid Cho‘lpon jadidchilik harakatiga o‘zbek adabiyotini yangi g‘oyalar (milliy uyg‘onish, ozodlik) va badiiy uslublar bilan boyitib, she’riyat, nasr va dramaturgiya rivojiga katta hissa qo‘shgan. U “Tong sirlari”, “Buloqlar” to‘plamlari hamda “Kecha va Kunduz” romani orqali millatni ma’rifatga, mustaqillikka chorlagan va 1930-yillarda sovet istibdodiga qarshi ma’naviy kurashgan. Cho‘lponning jadidchilik harakatidagi asosiy hissalari: she’riyatga shaxsiy kechinmalar, erkinlik va milliy g‘urur ruhini olib kirdi, adabiyotni qoliplardan ozod qildi. Ma’rifatparvarlik g’oyalari -“Buloqlar” (1923), “Tong sirlari” (1926) kabi asarlari bilan millatni uyg‘onishga, bilim olishga va o‘zligini anglashga chaqirdi.

Mustaqillik kurashi - “Kecha va Kunduz” romani orqali Turkistonning o‘sha davrdagi ijtimoiy-siyosiy holatini, mustamlakachilik zulmini jasorat bilan tasvirladi.

Dramaturgiya va tarjima -“O‘rtoq Qarshiboyev”, “Mushtumzo‘r” kabi pyesalari bilan teatr san’atini rivojlantirdi, jahon adabiyotidan tarjimalar qildi.



Abdulhamid Cho‘lpon 1897-yili Andijonning “Qatorterak” mahallasida o‘ziga to‘q oilada dunyoga kelgan. Onasi Oysha aya o‘zbek xalq og‘zaki badiiy ijodiyotining jonli xazinasi edi. Abdulhamid xat-savodini chiqargach, Andijon va Toshkent madrasalarida qisqa vaqt tahsil ko‘rgan. U Qur’oni Karimni, shariat qonunlarini o‘rganish bilan birga arab, fors, turk tillarini o‘rgangan. U keyinchalik ayrim she’rlarini usmonli turk tilida yozgan bo‘lib, bu Cho‘lpon iste’dodini namoyon etuvchi qirralardan biri sifatida diqqatga molikdir.

Ma’lumki, Cho‘lponning talabalik yillari Turkistonda muhim ijtimoiy-siyosiy voqealarning boshlanish davriga to‘g‘ri kelgan. Bu davrda Rossiya turkiy xalqlarga o‘z ta’sirini o‘tkazgan, yerli aholi o‘rtasida rus tilini o‘rganishga qiziqish tobora kuchaya borayotgan edi. Davr oqimini his qilgan yosh Abdulhamid fikrlarida ham o‘zgarishlar paydo bo‘lgan. U taqvodor mudarris bo‘lishning o‘zi yetarli emasligini tushungan. Madrasada o‘qib yurgan vaqtida tasodifan bir kishi bilan hamsuhbat bo‘lgan. Asli Istanbuldagi panturkistlar markazidan bo‘lgan bu kishi yosh Abdulhamid fikrlarini o‘zgartirib yuborgan. 1933-yili Cho‘lpon ana shu inson haqidagi xotiralarini rus yozuvchisi V.Yanga so‘zlab bergan, u esa bu suhbatini yozib olgan.

Adabiyotshunos Naim Karimov “Cho‘lpon” risolasida shu xotiradan parcha keltiradi: “U Istanbuldagi panturkistlar markazidan panturkistlar va panislomistlar ta’limotini tarqatish uchun to‘xtagan bir guruh edi. U meni turli-tuman muammolar bilan birinchi marta tanishtirib, menda siyosiy va adabiy ishga qizg‘in havas uyg‘otgan. Men Qur’onni yodlashdan iborat saboqlardan so‘ng hamma narsani unutib, ko‘chaga yugurar va yangi ro‘znomalarni sotib olar edim. Ammo mudarrislik qilish o‘rniga men milliy o‘zbek yozuvchisi bo‘lishga ahd qildim…”. Shundan keyin u Andijondagi rus-tuzem maktabida o‘qishni davom ettirgan, dunyoviy fanlar bilan tanishgan.

XX asr boshlarida Turkistonda tarqalgan ro’znomalar bu davr yoshlarining ijtimoiy-ma’naviy hayotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Ayniqsa, 1905-yilgi birinchi rus inqilobi, qolaversa, Eron va Turkiyada amalga oshgan inqilobiy to‘ntarishlar uyqudagi mazlum Turkistonga ham yetib kelgan. Shuningdek, 1905-yili Turkiyada yuz bergan voqealar ta’siri sezilarli bo‘lgan. O‘rta Osiyo deb atalayotgan mintaqaning turli nuqtalarida jadidchilik harakati boshlanib ketgan. Bu harakatning Mahmudxo‘ja Behbudiy, Fitrat, Munavvar qori kabi faollarining da’vatlari hayotni yangicha qiyofalarda ko‘rishga ishtiyoqmand yoshlarni o‘ziga tortgan.



Cho‘lpon bu haqda shunday deydi: “O‘shanda biz, yosh o‘zbek yozuvchilarining hammasi Fitrat ta’sirida edik, u o‘zbek she’r tuzilishining islohotchisi sifatida eski arabiy-forsiy shakllar va shablonlardan xoli bo‘lib, jonli, real xalq tilida yoza boshlagan edi”. Fitratning Istanbulda tahsil olganligi va uning turk inqilobchilari bilan aloqasi mustahkam bo‘lganligini hisobga olsak, uning panturkizm (turkiyparastlik) g‘oyalarini yoshlarga singdirganligini payqash unchalik qiyin bo‘lmaydi. Bu, eng avvalo, badiiy ijodda yangicha she’riy shakllarga intilishda sezilgan. Qolaversa, milliy istiqlol tuyg‘ularini aks ettirish g‘oyalari ham sekin-asta sezilarli tus ola boshlagan.

Cho‘lpon o‘z ijodiy faoliyatini 1912-1913-yillardan boshlagan. Uning ilk asarlari “Turkiston viloyatining gazeti”, “Sadoyi Turkiston”, “Sadoyi Farg‘ona” ro‘znomalari hamda “Sho‘ro”, “Oyina” oynomalarida chop etilgan bo‘lib, bularda, asosan, ma’rifatparvarlik g‘oyalari targ‘ib etilgan, shu bilan birga, ikki tomonlama ezilayotgan xalqni aniq va haqqoniy tasvirlarda ifodalashga harakat qilingan. Cho‘lpon ijodi davr bilan hamnafas bo‘lgan. Ayniqsa, 1916-yili keyin u yaratgan publitsistik maqola, she’r va nasriy asarlarda ijtimoiy-siyosiy mavzular yetakchilik qilgan. Uning Fitrat muharrirlik qilgan “Hurriyat” (1917) ro‘znomasida chop etilgan maqolalari hozirjavob mavzuga bag‘ishlanganligi bilan ajralib turgan.

Cho‘lpon 1917–1919-yillar oralig‘ida Ubaydullaxo‘ja, Mirmuhsin Fikriy va Abdulhamid Orif o‘g‘li bilan birga Orenburg shahriga borgan. U Boshqirdiston hukumati raisining kotibi vazifasida ishlash bilan birga adabiy hayotda ham faol ishtirok etgan. U yerda nashr etiladigan “Sho‘ro” oynomasida turkiy xalqlarning

ertangi kuni haqidagi publitsistik maqolalari chop etilgan. Cho‘lponning millat haqidagi fikrlari o‘sha davr boshqird ziyolilari diqqatini tortgan. 1918-yili Mannon Uyg‘ur boshliq teatr truppasi Toshkentdan Orenburg shahriga gastrolga borgan. Cho‘lpon Uyg‘ur, Abror Hidoyatovga o‘xshash teatr arboblari bilan uchrashgan, ular bilan ijodiy muloqotda bo‘lgan. Bu uchrashuv Cho‘lpon faoliyatida yangi sahifa ochgan. U o‘z hayotini teatr bilan chambarchas bog‘lagan.

Cho‘lpon 1919–1920-yillari Orenburg safaridan qaytib, Toshkentda yashay boshlagan. U bu davrda “Ishtirokiyun” ro‘znomasining faollaridan biri sifatida bir qator maqola, she’r va ocherklari bilan qatnashgan. Uning jurnalistik faoliyati ham mana shu yillarga to‘g‘ri keladi. 1919-yili Nazir To‘raqulov taklifi bilan Farg‘ona viloyatida chiqayotgan “Yangi Sharq” ro‘znomasiga ishga kelgan. 1921-yili Cho‘lpon Fitrat taklifi bilan “Axbori Buxoro” ro‘znomasiga xizmatga borgan. U ro‘znoma muharriri sifatida Fayzulla Xo‘jayev va Fitratning ilm, madaniyat, ijtimoiy-siyosiy hayot sohasidagi qarashlarini tashviq qilishda alohida jonbozlik ko‘rsatgan. Buxoro inqilobi bayroqdorlariga qarshi kurash avj olgach, Fitrat Moskvaga, Cho‘lpon esa Toshkentga ketishga majbur bo‘lganlar.

1923-yili u Andijonga kelgan va “Darxon” ro‘znomasida ishlay boshlagan. 1924-yili u yana Toshkentga ko‘chib kelib, teatr ishlari bilan shug‘ullangan. Shu yili teatr truppalarining 24 a’zosi Moskvaga o‘z bilimlarini chuqurlashtirish uchun yuboriladi. Ular safida Cho‘lpon ham bor edi. U tarjimon va adabiy emakdosh sifatida faoliyat ko‘rsatgan. Shu yillarda o‘zbek aktyorlari tomonidan qo‘yilgan “Revizor” hamda “Malikayi Turandot” asarlarining tarjimoni Cho‘lpon bo‘lgan. U Moskvada Fitrat va Abdulhay Tojiyev bilan ko‘rishgan. Ularning iltimoslariga binoan bir qator asarlarni o‘zbek tiliga tarjima qilgan. Badiiy ijod bilan shug‘ullanish barobarida nemis tilini ham o‘rgana boshlagan. Uning bu tilni o‘rganishidan maqsadi Olmoniyada oliy bilim egasi bo‘lib qaytgan vatandoshlari bilan nemis tilida gaplashish bo‘lgan. Afsuski, xorijda tahsil ko‘rganlarning ko‘pchiligi josus sifatida gumon qilinib yo‘qotib yuborilganligi sababli, u o‘zining bu niyatiga yeta olmagan.

XX asr 20-yillarining ikkinchi yarmiga kelib ziyolilarni taftish qilish, ularga siyosiy ayblar qo‘yish hollari kuchaygan. Ayniqsa, o‘z asarlarida Vatan va millat istiqboli haqida fikr yuritgan ijodkorlarga “millatchi”, “panturkist” va “panislamist” degan yorliqlar yopishtirila boshlangan. Bunday tazyiq va ma’naviy kamsitishlar Cho‘lpon iste’dodini so‘ndira olmagan. U keyinroq 1935–1937-yillar ichida qilgan ishlari haqida gapirib, bunday degan: “Moskvadan kelganimga ikki yil bo‘ldi… Mana, ikki yil orasida men nima ish qildim? “Ona”ning ikkinchi bo‘limini tarjima qildim. Bu to‘g‘rida hammadan maqtov eshitaman. Bu ham birinchi bo‘limcha keladi. Katta narsa. Undan keyin Gorkiyning “Yegor Bulichev”ini, A.S.Pushkinning

“Dubrovskiy”, “Boris Godunov”ini tarjima qildim. “Jo‘r” degan she’rlar to‘plamini topshirdim. Lohutiyning “Ovrupo safari”ni tarjima qildim. Undan tashqari, Eski shaharda chiqa turgan “Teatru” gazetasiga qatnashaman, undan keyin “Mushtum”da ishlayman, agar sizlar shuni ham kam desangiz, meni xalturaga tortgan bo‘lasiz”.

1931-yilga kelib Cho‘lpon ijodiga nisbatan ta’qiblar kuchayib borgan. U Fayzulla Xo‘jayevning maslahati bilan 1932-yili Moskvaga ketgan. Oradan ikki yil o‘tgach, u yana Toshkentga qaytgan. Bu davrda O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tashkil bo‘lgan, bir qator ijodkorlar uning safini to‘ldira borayotgan edi. Cho‘lpon ham shu uyushmaga kirish uchun ariza bergan. Lekin ariza e’tiborsiz qoldirilgan. Cho‘lponga qarshi kurashayotgan yovuz kuchlar bu bilangina kifoyalanib qolmay, uning asarlarini chop etishga ham to‘g‘onoq bo‘lganlar. U shu munosabat bilan Akmal Ikromovga murojaat qilgan. Tayinli natija bo‘lmagan. Shundan keyin “zamonsozlikka” o‘tishni afzal ko‘rgan, kunning muhim masalalariga bag‘ishlangan tashviqiy ruh aniq sezilib turadigan she’rlar yozgan. Lekin Cho‘lponning bu she’rlari ham matbuot yuzini ko‘rmagan. Cho‘lpon millatning peshqadam vakillari ustiga bostirib kelayotgan zo‘ravonlik mashinasi changalidan omon chiqa olmasligini tushunib yetgan. Andijondagi uyida saqlanayotgan qo‘lyozmalarini, o‘zi bilan bog‘liq bo‘lgan barcha ashyolarni Toshkentga olib ketgan. Oradan hech vaqt o‘tmay u NKVD xodimlari tomonidan qo‘lga olingan. 1938-yilning 4-oktabrida g‘ayriqonuniy ravishda qatl etilgan.

Xulosa: XX asr boshlarida shakllangan jadidchilik harakati nafaqat ma’rifiy islohotlar, balki milliy adabiy tafakkurning yangilanishida ham muhim omil sifatida maydonga chiqqan. Bu jarayonda jadid adabiyotining yirik namoyandalaridan biri bo‘lgan Abdulhamid Cho‘lpon ijodi alohida ahamiyat kasb etadi. Uning tarjimonlik va publitsistik faoliyati orqali jahon adabiyoti namunalarini milliy muhitga olib kirishga bo‘lgan intilishi jadidlarning madaniy modernizatsiya g‘oyalariga hamohang tarzda amalga oshirilgan. Xususan, Alexander Pushkin va Maxim Gorkiy kabi jahon adabiyoti vakillarining asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qilish orqali milliy adabiyotda yangi badiiy-estetik qarashlar shakllanishiga zamin yaratilgan. Bu esa jadidchilik harakatining asosiy maqsadlaridan biri — xalqni zamonaviy bilim va madaniyat bilan tanishtirish, milliy ongni uyg‘otish hamda adabiy tafakkurni yangilashga xizmat qilgan. Shu bilan birga, 1930-yillarga kelib siyosiy-mafkuraviy bosimlarning kuchayishi jadid adabiyoti vakillarining ijodiy faoliyatiga jiddiy to‘siqlar keltirib chiqargan. Natijada, jadidlarning milliy uyg‘onish va erkin fikrni targ‘ib etishga qaratilgan g‘oyalari cheklangan bo‘lsa-da, ularning adabiy merosi o‘zbek milliy adabiyotining keyingi taraqqiyot bosqichlari uchun muhim nazariy va badiiy asos bo‘lib xizmat qilgan. Demak, jadidchilik harakati doirasida amalga

oshirilgan adabiy va tarjimonlik faoliyati milliy madaniyatni modernizatsiya qilish, ijtimoiy ongni yuksaltirish hamda o‘zbek adabiyotining yangi bosqichga ko‘tarilishida muhim tarixiy ahamiyat kasb etgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1.http://jadid.uz/jadids/abdulhamid-cholpon/.

2. Qosimov B. Milliy uyg‘onish: jasorat, ma’rifat, fidoyilik. – Toshkent: Ma’naviyat, 2002.

3.Karimov N. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1999.

4.Behbudiy M. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma’naviyat, 1999.

5.Fitrat A. Tanlangan asarlar. 1–2 jild. – Toshkent: Fan, 2000.

6.Munavvar qori Abdurashidxonov. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma’naviyat, 2003.

7. Ziyoev H. Turkistonda jadidchilik harakati tarixi. – Toshkent: Fan, 1998.

8. Karimov, N. (2003). Cho’lpon. Toshkent: “Sharq” nashriyoti. (Adib hayoti haqidagi eng mukammal biografik manba).

9.Quronov, D. (2004). Cho'lpon hayoti va ijodiy merosi. Toshkent: “O'qituvchi”

10.Sharafiddinov, O. (1994). Cho’lponni anglash. Toshkent: “Ma’naviyat”.

11.Ziyoev, H. (2000). Mustaqillik ma’naviyatining asoslari. Toshkent: "Yozuvchi". (Jadidlar va Cho'lponning siyosiy qarashlari tahlili).

12.O’zbekiston milliy ensiklopediyasi. (2000-2005). “Cho’lpon” maqolasi.

MUHOJIR JADIDLARNING “YOSH TURKISTON” JURNALIDA ANVAR POSHSHO SIYMOSINING YORITILISHI

Alijonov Muslimbek Baxtiyorjon o‘g‘li
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti v.b.dotsenti, t.f.f.d., PhD.
Email: muslimbek@uwed.uz.

Annotatsiya: *Mazkur maqolada muhojir ziyolilar tomonidan 1929-1939-yillarda Parij va Berlin shaharlarida chop etilgan “Yosh Turkiston” jurnalida Anvar Poshsho siymosining yoritilishi tahlil qilingan.*

Kalit so’zlar*: Anvar Poshsho, Mustafo Cho’qay, “Yosh Turkiston” jurnali, muhojirlar, milliy ozodlik, “bosmachilik”, jadidchilik.*

Аннотация: *В данной статье проанализировано освещение личности Анвара Пошшо в журнале «Yosh Turkiston», издававшемся эмигрантскими интеллигентами в Париже и Берлине в 1929-1939 годах.*

Ключевые слова: *Анвар Пошшо, Мустафа Чокай, журнал «Yosh Turkiston», эмигранты, национальная независимость, «босмачи», джадидизм.*

Abstract: *This article analyzes the portrayal of Anvar Poshsho in the Yosh Turkiston journal, published by émigré intellectuals in Paris and Berlin between 1929 and 1939.*

Keywords: *Anvar Poshsho, Mustafa Chokay, Yosh Turkiston journal, emigres, national independence, "Basmachi," Jadidism*.

Matbuot – har qanday millatning ijtimoiy ongini shakllantiruvchi, tafakkur doirasini kengaytiruvchi hamda uni davrning murakkab siyosiy va madaniy chaqiriqlariga munosib javob bera oladigan darajada tarbiyalovchi eng ta'sirchan vositalardan biridir. Shu bois XX asrning og'ir siyosiy sharoitida, sovet tuzumining zo'ravon siyosati va mustamlakachilik zo'ravonligi oqibatida vatanini tark etishga majbur bo'lgan turkistonlik ziyolilar matbuotni milliy kurashning asosiy quroli sifatida qabul qildilar.

Muhojirlik sharoitida ular matbuot orqali nafaqat tarixiy haqiqatni saqlab qolish, balki Turkiston mustaqilligi g'oyasini xalqaro jamoatchilikka yetkazish, milliy xotirani tiklash va siyosiy ongni uyg'otish vazifasini ham bajarishga intildilar. Ayniqsa, 1929-1939-yillarda Parij va Berlin shaharlarida har oyda bir marotaba chop etib borilgan Yosh Turkiston jurnali bu borada muhojir ziyolilar faoliyatining yorqin namunasi bo'ldi. Mazkur nashr xorijdagi muhojir turkistonliklardan iborat siyosiy elitaning fikriy minbariga aylanib, ozodlik, milliy birlik va davlatchilik g'oyalarini izchil ravishda ilgari surdi.

Ayniqsa, jurnal sahifalarida Turkistonning erk va ozodligi yo'lida ilmiy va siyosiy tazrda kurash olib borgan Ismoilbek G'aspirali [1], Munavvarqori Abdurashidxonov [2], Abdulla Avloniy [3], Eshonxo'ja Xoniy [4], Obidjon Mahmud [5], Ibrohimbek Laqay [6] va boshqa shular kabi ko'plab ulug' shaxsiyatlarning hayoti va faoliyatiga doir ko'plab muhim ma'lumotlar keltirilgan. Shu bilan birga "Yosh Turkiston" jurnalining 1932-yil avgust, 1939-yil 116-117-qo'shma sonlarida Anvar Poshshoga bag'ishlangan xotira va maqolalar ham o'z ichiga muhim ma'lumotlarni qamrab olgan. Dastlab "Bosmachilik" atamasi to'g'risida biroz yozib o'tsak.

Munavvarqorining "Na'muna" maktabini tamomlab keyinchalik yetuk shifokor bo'lib yetishgan Abduvahob O'qtoy "Yosh Turkiston" jurnalning 1930-yil 3-4-sonlarida "Janay" imzosi bilan e'lon qilgan "Bosmachiliq to'g'risida" nomli

maqolasida Turkistondagi kommunistik davriy matbuotda milliy istiqlolchilik harakatiga nisbatan “bosmachilik” atamasi qo‘llanilayotganligiga e’tiroz bildirib, asl bosmachilar bolsheviklar hukumatining o‘zidir degan fikrni o‘rtaga tashlaydi. Xususan u ushbu maqolasida “Bosmachi” so‘zi yaxshi so‘z emas… urush vaqtida har bir tomon qarshisidagi dushman askarini “talovchilar to‘dasi” deb atag‘ani kabi, bolsheviklar ham “rus proletariyati diktaturasi”ga qarshi chiqg‘on birinchi Turkiton ixtilolchilarig‘a yuqoridag‘i bosmachi ismini beradilar Biroq, o‘shal davrlarda Turkistondagi sovet hukumatiga kimlar boshliqlik qilar edilar? O‘g‘rilik uchun qamoqda o‘tirgan Feodor Kolesof komissarlar sho‘risiga rais edi. Bosmachilarg‘a qarshi urush ishlarini idora etgan sovet harbiy komissari Parfilov paxta tozalovchi zavodlardag‘i ishchilar tarafidan berilgan o‘n ming so‘mdan oshiq aqchani o‘z kissasiga solib ketgan bir o‘g‘ri odam edi. Umumiyatla Toshkentdagi bolshevik firqasi o‘g‘rilar bilan to‘la edi” [7] deb ta’kidlagan.

“Yosh Turkiston” jurnalining 1932-yil avgust sonida Mustafo Cho’qay tomonidan Anvar Poshsho haqidagi xotiralar Turkistonning erk va ozodligi yo’lida aziz jonini fido qilgan bu ulug’ siymoning bizga noma’lum bo’lgan qirralarini yoritib beradi.

Mustafo Cho’qay maqolaning kirish qismida Anvar Poshshoning bolsheviklar tomonidan shahid etilganligiga 10 yil to’lganligini urg’ulab, garchi oradan shuncha yil o’tgan bo’lsa-da, biroq Turkiston xalqining yuragida hamon bu siymo yashab kelayotganligini ta’kidlab quyidagilarni yozadi: “Anvar Poshshoning 1921-yilning kuzida birdan Buxoro shahrida paydo bo‘lishi, biz turkistonliklarda yurtimizning milliy dushmanlariga qarshi kurashda muvaffaqiyat qozonish imkoniga umid shiorlari hosil qilg‘on edi. Askariy tajriba va shaxsiy joziba – Turkiston istiqlolchilarini o‘z atrofida va o‘z rahbarligi ostida birlashtirmak uchun so‘ng daraja muhim bo‘lg‘on bu sifatlar Anvarda ortig‘i bilan mavjud edi. Haqiqatdan ham, agar Anvar Turkistong‘a, o‘lkaning katta qismining ko‘proq sovet ishg‘oli ostig‘a kirmagan va sovet idorasi hukm surgan qismlarida ham xalq isyon etib turgan 1918-1919-yillarda kelganda edi, yurtimizning oqibati boshqacha bo‘lur edi. Hamon 1918-1919-yillarda bizni mag‘lub etgan narsa rus bolsheviklarining qurolli kuchidan ziyoda o‘zimizning mushkul bir holda bo‘lg‘onlig‘imiz va milliy mujodalamizni mutashakkil bir holda bo‘lmag‘onlig‘imiz va milliy mujodalamizni mutashakkil bir suvratda davom ettira olmaganligimiz bo‘lg‘on edi” [8].

Yuqoridagi iqtibosdan ko’rinib turibdiki, Anvar Poshshoning 1921-yilda Buxoroda paydo bo‘lishi Turkiston milliy ozodlik harakati a’zolari va umuman xalq ommasi ichida katta umid uyg‘otgan. Muallif Anvar Poshshoning shaxsini ikki asosiy fazilat - harbiy tajriba va shaxsiy joziba bilan tavsiflab, aynan shu sifatlar Turkiston istiqlolchilarini yagona rahbarlik ostida birlashtirish uchun hal qiluvchi

ahamiyatga ega bo‘lganini ta’kidlaydi. Bundan tashqari Mustafo Cho’qay 1918-1919-yillarni Turkiston xalqi uchun alohida tarixiy imkoniyat davri sifatida ko‘rsatadi. Muallifning fikricha, aynan shu yillarda sovet hokimiyati hali to‘liq mustahkamlanmagan, xalq isyonlari davom etayotgan va milliy qarshilik harakati nisbatan kuchli bo‘lgan. Agar Anvar Poshsho ana shu davrda Turkistonga kelganida, voqealar rivoji boshqacha yo‘nalishda kechishi mumkin edi, deb yozadi Mustafo Cho’qay.

Xotirada keltirilgan quyidagi parcha ham nihoyatda muhim ahamiyatga ega: “1916-yil isyoni kunlarida Turkistonda ko‘p odamlar Anvardan yordam kutar edilar… Turkistonda xalifa sultonning ismini biladigan odam oz edi, lekin deyarlik butun turkistonliklar Anvarning ismini va uning kim ekanligini bilar edilar. Anvarning xalq orasidagi mashhurligi masal (ertak) darajasiga yetgan edi. So‘ngg‘i Bolqon urushidan keyin qishloqlarda ko‘p odamlar o‘z o‘g‘illarining ismini “Anvar” qo‘ya boshladilar…” [8].

Mustafo Cho’qay xotira maqolasidagi mazkur parcha Turkiston xalqining ijtimoiy ongida Anvar Poshsho shaxsining qanday ramziy-mafkuraviy maqom kasb etgani, xususan 1916-yil qo‘zg‘oloni fonida xalqning tashqi musulmon dunyosidan, ayniqsa Usmonli davlati yetakchilaridan yordam kutgan ruhiy holati tasvirlanadi. Xotiradan anglashiladiki, Turkistonda xalifa sulton nomi keng tanilmagan bo‘lsa-da, Anvar Poshsho nomi omma ichida mashhur bo‘lgan. Xotira parchasida Anvarning mashxurligi Turkiston xalqi ichida “masal (ertak) darajasiga yetgan”ligi urg’ulanadi. Ayniqsa, Bolqon urushlaridan keyin uning ismini qishloqlarda tug‘ilgan bolalarga qo‘yila boshlashi – Anvar Poshshoning Turkiston xalqi ichida nechog’lik shuhrat qozonganligini ko’rsatadi.

Yana bir omilni qayd etish lozimki, ism qo‘yish amaliyoti doimo tarixan ramziy sadoqat, umid va ideal shaxsga ehtirom ifodasi bo‘lib kelgan. Demak, Anvar Poshsho o’lkada shunchaki Usmonli imperiyasining generaligina emas, balki mustamlakachilikka qarshi kurash hamda Turkiston xalqini bolsheviklar zulmidan ozod etuvchi xaloskor sifatida ko’rilgan.

Shu o’rinda, o’zbek xalqining yetuk rommanaviy adibi Abdulla Qodiriy ham o’zining “Mehrobdan chayon” asariga bosh qahramon o’laroq “Anvar”ni tanlaganligi ham bejiz emas. Ehtimol, Qodiriy shu romani orqali bu ulug’ sarkardaning pok yodini Turkiston xalqi ichida saqlab qolishni xohlagan.

Xulosa qilib aytganda, muhojirlik sharoitida matbuot Turkiston ziyolilari uchun milliy kurashning eng muhim mafkuraviy quroliga aylandi. 1929-1939-yillarda Parij va Berlinda chop etilgan “Yosh Turkiston” jurnali xorijdagi turkistonlik siyosiy elitaning fikriy minbari sifatida milliy xotirani saqlash, istiqlol g‘oyasini targ‘ib etish va tarixiy shaxslar faoliyatini yoritishda muhim rol o‘ynadi.

Xususan, Mustafa Cho’qayning Anvar Poshsho haqidagi xotiralari uning Turkiston ozodlik harakatidagi o‘rnini nafaqat harbiy arbob, balki milliy birlik va umid timsoli sifatida ko’rilganligini angltadi.

Mustafo Cho’qayning ushbu xotirasidan kelib chiqadigan yana bir muhim xulosa shundaki, Anvar Poshsho Turkiston xalqi ichida afsonaviy darajadagi mashhur shaxs bo‘lgan, uning nomi 1916-yil qo‘zg‘oloni davridayoq najot va xalos timsoliga aylangan. Hatto bolalarga uning ismini qo‘yish odati ham bu hurmat va umidning ifodasi edi. Shu bois Anvar Poshsho obrazi Turkiston tarixida shunchaki siyosiy shaxs emas, balki mustamlakachilikka qarshi kurash va milliy ozodlik g‘oyasining ramzi sifatida e’tirof etildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1) Yosh Turkistonlik (Tohir Chig’atoy). Ismoilbek // “Yosh Turkiston” jurnali. 1933-yil aprel. № 41. – B. 13-21.

2) Tohir (Tohir Chig’atoy). Yo’lboshchimiz Munavvarqori // “Yosh Turkiston” jurnali. 1934-yil yanvar. № 50. – B. 17-21.

3) Abdulvahob O’qtoy. Abdulla Avloniy // Yosh Turkiston” jurnali. 1934-yil oktabr. № 59. – B. 26-29.

4) Habiburrohman al-Bulg’oriy. Eshonxo’ja Xoniy // Yosh Turkiston” jurnali. 1934-yil noyabr. № 60. – B. 34-35.

5) Obidjon Mahmud. Mustafo Cho’qay // Yosh Turkiston” jurnali. 1937-yil iyul-avgust. № 92-93. – B. 20-24.

6) Janay (Abdulvahob O’qtoy). Ibrohimbek Laqay qanday tutilg’on edi // Yosh Turkiston” jurnali. 1936-yil yanvar. № 74. – B. 22-26.

7) Janay (Abdulvahob O’qtoy). Bosmachiliq to’g’risida // “Yosh Turkiston” jurnali. 1930-yil fevral-mart. № 3-4. – B. 5-9.

8) Mustafo Cho’qay. Marhum Anvar Poshsho haqida xotira parchalari // “Yosh Turkiston” jurnali. 1932-yil avgust. № 33. – B. 5-12.

JADIDLARNING TA’LIM KONSEPSIYASI VA ZAMONAVIY AHAMIYATI

Vasiyev Mizrob Alisher o‘g‘li
Termiz davlat pedagogika instituti
Tillar fakulteti
Rus tili va adabiyoti yo‘nalishi 2 – bosqich talabasi
E-mail: vasiyevmizrob611@gmail.com
Tel: +998(94)005-16-17

Annotatsiya: *Maqola jadidchilik harakatining ta’lim sohasidagi konsepsiyasini va uning zamonaviy ahamiyatini tahlil qiladi. Ishda jadid maktablarining pedagogik tamoyillari, yangi usul-i jadid metodining asosiy xususiyatlari, fanlararo yondashuv, o‘quvchilarning ijodiy va tanqidiy tafakkurini rivojlantirish yo‘llari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, maqolada jadidlarning til va adabiyotga, milliy ong va ma’naviyatni rivojlantirishga qo‘shgan hissasi va bugungi ta’lim tizimidagi aksini topishi o‘rganiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, jadidlarning ta’lim konsepsiyasi zamonaviy pedagogik jarayonlar uchun ham dolzarb bo‘lib, o‘quvchilarda mustaqil fikrlash va milliy qadriyatlarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.*

Kalit so‘zlar: *Jadidchilik, ta’lim konsepsiyasi, usul-i jadid, pedagogika, zamonaviy ta’lim, milliy ong, o‘quvchi markazidagi yondashuv, fanlararo integratsiya, ijodiy tafakkur, tanqidiy tafakkur*

Jadidchilik harakati XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda, xususan, O‘zbekistonda paydo bo‘lib, milliy uyg‘onish va ma’rifatparvarlik g‘oyalarini ilgari surgan muhim ijtimoiy va madaniy harakat sifatida tarixda qolgan. Bu harakatning asosiy maqsadi — xalqni zamonaviy bilim va ma’rifat bilan ta’minlash, milliy ongni uyg‘otish va yosh avlodni barkamol, tafakkurga ega shaxslar sifatida tarbiyalash edi. Jadidlar o‘z faoliyatida an’anaviy maktab tizimining cheklovlarini tanqid qilganlar, unda bilim ko‘pincha diniy va konservativ shaklda berilgan, fan va texnika asoslari yetarli emas edi. Shu sababli ular “usul-i jadid” deb nomlangan yangi pedagogik metodni ishlab chiqqanlar, bu metod orqali o‘quvchilarni har tomonlama rivojlantirish va zamonaviy jamiyatga tayyorlash maqsad qilingan.

Jadid maktablarida o‘qitishning asosiy tamoyillari bilim va tafakkurga e’tibor qaratish, mantiqiy fikrlashni rivojlantirish va o‘quvchilarda mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishdan iborat edi. Ularning nazarida ta’lim nafaqat diniy va axloqiy tarbiya vositasi, balki milliy ongni uyg‘otish, til va adabiyot orqali milliy qadriyatlarni saqlashning samarali vositasi hisoblanadi. Masalan, M. Behbudi va A. Avloniyning ishlanmalarida yangi maktablarda matematika, tabiiy fanlar,

geografiya, tarix va tillar o‘qitilishi tavsiya qilingan. Bu esa o‘quvchilarni nafaqat diniy bilim bilan, balki zamonaviy dunyoqarash bilan boyitish imkonini yaratgan.

Jadid maktablarining o‘ziga xosligi shundaki, ular nafaqat fanlarni o‘qitgan, balki o‘quvchilarda axloqiy fazilatlarni, adolat, halollik va vatanparvarlik ruhini shakllantirishga intilgan. Shu bois ular o‘quv dasturlarida she’riyat, adabiyot va tarix fanlarini alohida e’tiborga olganlar. Masalan, M. Behbudi o‘z kitoblarida o‘quvchilarni tarixiy shaxslar, ularning jasorati va vatanparvarligi bilan tanishtirish orqali ularni milliy qadriyatlar bilan bog‘lashga harakat qilgan.

Jadid maktablarining yana bir muhim jihati pedagogik yondashuvning zamonaviyligi edi. An’anaviy maktablarda o‘qituvchilar ko‘pincha “katta gap, kichik eshitish” tamoyili bilan ishlashgan bo‘lsa, jadid maktablarida o‘quvchilarning faolligi va mustaqil fikrlashi ustuvor hisoblangan. Darslar interaktiv tarzda o‘tkazilgan, o‘quvchilarga savol-javob, muloqot va mustaqil ishlash imkoniyatlari berilgan. Shu tariqa, ularning tafakkuri rivojlantirilgan va ijodiy fikrlash qobiliyati oshirilgan.

Jadidlarning ta’lim konsepsiyasi faqat maktab bilan cheklanmagan. Ular matbuot va adabiyot orqali ham ta’limni targ‘ib qilgan. Jadid gazetalarida va jurnallarida ilmiy maqolalar, adabiy asarlar, darsliklar chop etilgan. Masalan, “Taraqqiy” va “Shuro” kabi nashrlarda o‘quvchilarga zamonaviy fanlar va hayotiy bilimlarni o‘rgatishga qaratilgan maqolalar berilgan. Shu tariqa, jadidlar ilm-fan va ma’rifatning jamiyat hayotidagi ahamiyatini oshirishga harakat qilganlar.

Zamonaviy nuqtai nazardan qaraganda, jadidlarning ta’lim konsepsiyasi hozirgi ta’lim tizimi uchun ham katta ahamiyatga ega. Ularning pedagogik yondashuvi interaktiv va o‘quvchi markazida bo‘lgan metodlarni ilgari surgan. Bugungi kunda ham o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish, tanqidiy tafakkur va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini shakllantirish pedagogika va ta’limning eng muhim vazifalaridan biridir.

Misol sifatida, jadid maktablaridagi “fanlarni birlashtirish” metodini ko‘rsatish mumkin. Masalan, geografiya darsi tarixiy voqealar bilan bog‘lanib o‘qitilgan, shunda o‘quvchilar nafaqat joylashuvni, balki voqea sabablarini ham tushungan. Shu tariqa, o‘quvchilar dunyoqarashi kengaygan va fanlar o‘rtasidagi integratsiya tushunchasi shakllangan.

Jadidlarning ta’lim konsepsiyasida til va adabiyotning o‘rni alohida muhim. Milliy tilni saqlash, uni zamonaviylashtirish, yosh avlodni ona tilida bilim olishga o‘rgatish — jadidlarning asosiy maqsadlaridan biri bo‘lgan. Bu orqali ular milliy ongni rivojlantirish, yoshlarni o‘z madaniyati va tarixiga hurmat bilan tarbiyalashga intilgan.

Jadidlar shuningdek, maktablarda axloqiy tarbiya va milliy qadriyatlarni shakllantirishga katta e’tibor berganlar. Ular o‘quvchilarga halollik, adolat, vatanparvarlik, mehr-shafqat kabi fazilatlarni o‘rgatgan. Masalan, M. Behbudi va A. Avloniy darsliklarida o‘quvchilarga tarixiy shaxslar va ularning jasoratini misol qilib keltirish orqali axloqiy tarbiya berilgan.

Zamonaviy ta’lim tizimida jadid pedagogikasi o‘z aksini topadi. Masalan, integratsiyalashgan darslar, interaktiv metodlar, o‘quvchining faol ishtiroki va ijodiy yondashuv — bularning barchasi jadidlarning g‘oyalariga asoslangan. Bugungi kunda O‘zbekiston maktablarida fanlararo aloqalarni kuchaytirish, ta’limda axborot-kommunikatsion texnologiyalarni qo‘llash, o‘quvchilarda tanqidiy tafakkur va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirish kabi yondashuvlar jadid pedagogikasidan ildiz olgan desak adashmaymiz.

Shuningdek, jadidlarning ta’lim konsepsiyasi gender tengligini ham o‘z ichiga olgan. Ular qizlar ta’limini ham qo‘llab-quvvatlagan, buni milliy uyg‘onish va taraqqiyot uchun zarur deb hisoblagan. Bu zamonaviy jamiyatda ham muhim ahamiyatga ega, chunki ta’limdagi teng imkoniyatlar jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun asosiy shartlardan biridir.

Jadidlarning pedagogik yondashuvi yoshlarni nafaqat bilim bilan ta’minlash, balki ular ongini kengaytirish, tafakkurini rivojlantirish va milliy qadriyatlar bilan bog‘lashga qaratilgan edi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, ular nafaqat pedagoglar, balki milliy uyg‘onish targ‘ibotchilari sifatida ham tarixda qolgan.

Jadidlarning ta’lim konsepsiyasini zamonaviy ta’lim tizimiga tadbiq etishning ahamiyati katta. Masalan, bugungi kunda maktablarda o‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, ijodiy yondashuvni shakllantirish, fanlararo integratsiyani qo‘llash, interaktiv metodlardan foydalanish — bularning barchasi jadid pedagogikasining zamonaviy talqinidir.

Xulosa qilib aytganda, jadidlarning ta’lim konsepsiyasi zamonaviy pedagogika va ta’limning poydevorini tashkil qilgan. Ularning metod va yondashuvlari bugungi kunda ham dolzarb bo‘lib, milliy ongni rivojlantirish, yoshlarni tafakkur va ijodiy qobiliyatga ega shaxslar sifatida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Jadidlarning merosi nafaqat tarixiy ahamiyatga ega, balki zamonaviy ta’lim tizimi va pedagogika jarayonlariga ham yangi yondashuv va istiqbollar beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Avloniy, A. – Ma’rifat va tarbiya – T.: O‘qituvchi, 1991.
2. Behbudi, M. – Millat ma’rifati – T.: Sharq, 1989.
3. Fitrat, A. – Ma’rifat tarixi – T.: Fan, 1990.
4. Khalidov, I. – Jadidchilik harakati va uning tarixi – T.: Ma’rifat, 2005.

5. Allayarov, M. – O‘zbek jadidlari va zamonaviy ta’lim – T.: O‘zbekiston, 2010.
6. Karimov, S. – Markaziy Osiyo jadidlari: tarix va pedagogika – T.: Sharq, 2012.
7. Qodirov, R. – Usul-i jadid maktablari: pedagogik tajribalar – T.: Ma’naviyat, 2008.
8. Avloniy, A. – O‘quvchilar tarbiyasi va ma’rifat – T.: O‘qituvchi, 1992.
9. Behbudi, M. – Darsliklar va o‘quvchilar tarbiyasi – T.: Ma’rifat, 1987.
10. Fitrat, A. – Zamonaviy ta’lim va milliy uyg‘onish – T.: Fan, 1995.

JADIDCHILARNING FAROVON JAMIYAT QURISHDAGI HARAKATIDA ERKIN TAFAKKURLI SHAXSLARGA BO’LGAN EHTIYOJ

Mixliyeva Gulshoda Zarip qizi
Qarshi Davlat Texnika universiteti
e-mail: gulizaripova0757@gmail.ru

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o’z millatini, jamiyatini taraqqiyotga erishtirmoqchi bo’lgan va bu yo’lda qurbon bo’lgan jadidchilarimiz va ularni yosh avlodni bilimli qilishga bo’lgan intilishi, ta’lim va tarbiyaga qaratgan asosiy e’tibori haqida so’z boradi.*

Annotation . *This article talks about our veterans who wanted to achieve development of their nation and society and died on the way, and their desire to educate the young generation, their main focus on education and upbringing.*

Аннотация. *В этой статье рассказывается о наших ветеранах, которые хотели добиться развития своей нации и общества и погибли на этом пути, и об их стремлении дать образование молодому поколению, об их главном упоре на образование и воспитание.*

Kalit so’zlar*: Jadidchilik, ozodlik, ta’lim-tarbiya, millat, jamiyat, tafakkur erkinligi, mas’uliyat.*

Ключевые слова*: Джадидизм, свобода, образование, нация, общество, свобода мысли, ответственность.*

Key words*: Jadidism, freedom, education, nation, society, freedom of thought, responsibility.*

O’zbek xalqining boy tarixi davomida ko’plab ma’naviyatli, har sohada bilimli, komil shaxslarni kamol toptirganini ko’rishimiz mumkin. O’zbek millati ma’naviyatining gurkirab yashnagan davri yoki tanazzulga, qoloqlikka yuz tutgan

davrlarini ham bo'ldi. Chor Rossiyasining Markaziy Osiyodagi istiloli davri beiz ketmadi. XIX asrning 50-60-yillarida rus bosqinchilar tomonida Markaziy Osiyoning katta qismi bosib olindi va ma'naviyatimizni aks ettirgan ko'plab obidalarimiz, noyob buyumlarimiz va buyuk shsaxslarimiz tomonidan yaratilgan qo'lyozma asarlarimiz talon taroj qilindi. Bundan tashqari tarixiy xotiramizdan judo etish va turmush tarzimiz ham rus qonunlariga muvofiq qayta qurildi. Bu xalqimizga katta yo'qotish, shu bilan birga qattiq zarba bo'ldi. "Milliy mustaqillikning yo'qotilishi, poymol bo'lgan milliy g'urur xalqning ilg'or ziyolilarini ko'p asrlik uyqudan uyg'otdi." [A.Erkayev. "Ma'naviyat va taraqqiyot", Toshkent-2009. 110-bet].

Bizga ma'lumki jadidlar harakati milliy ug'onishning boshlanishi va milliy oozodlik va erkinlik g'oyalarining ildizi edi. Jamiyatni qoloqlikdan, qaramlikdan olib chiqish va erkin jamiyatni qurish uchun eng avvalo ma'naviyatli, bilimli shaxslarni kamol toptirish Jadidchilarning daslabki va ishonarli yo'li edi. "Jadidchilar yangiliklarga intilmasdan, ijtimoiy taraqqiyotga erishmasdan istiqlolga erishib bo'lmasligini tushunib yetdilar. Ayniqsa, jadidlar bu borada amaliy ishga – xalqqa ziyo, ma'rifat tarqatishga, g'oyalarni yoyishga kirishdilar". [A.Erkayev. "Ma'naviyat va taraqqiyot", Toshkent-2009. 111-bet].

Jamiyatning rivojlanishi uchun eng avvalo yuksak ma'naviyatli va erkin tafakkurli shaxslar muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. . Qachonki jamiyatda insonlar erkin bo'lsa ularning tafakkuri erkin bo'ladi. Insonlar har bir amalga oshiradigan ishlarini erkin va yangiliklarga boy tarzda bajaradi. Professor Abdurayim Erkayev shunday deganlar "Mas'uliyatdan qo'rqadigan, tobe tafakkur egalari ilmiy texnikaviy, iqtisodiy yangiliklarni yetarlicha qabul qila olmaydi, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy munosabatlarni takommildan ko'ra ko'proq ularni turg'unlashtirishga moyillik ko'rsatadila".["Ma'naviyat va taraqqiyot" A.Erkayev 2009 b-378]. Bunday tobe tafakkur egalari kim nima desan ham ishonuvchan va turli xil yot g'oyalarga, turli siyosiy qo'paruvchilar, diniy ekstrimizm targ'ibot va nayranglariga osongina ishonib ularning ortidan ergashishlari mumkin. Tafakkur tobeligidan qutilish va tafakkurni erkinlashtirish uchun jamiyat a'zolarini ongi va ongostidan ijtimoiy qo'rquv sarqitlarini chiqarib tashlash kerak. Buning uchun demokratiyani rivojlantirish qonun ustuvorligini oshirish, jamiyat hayotini barcha yo'nalishlarda erkinlashtirishdir va ta'lim tarbiya jarayonlarining barcha bosqichlarida erkin qaror qabul qila oladigan, mustaqil va tanqidiy fikrlay oladigan shaxslarni voyaga yetkazishdir. Demokratiyani qaror toptirish va fuqarolik jamiyatini mukammallashtirish tafakkur erkinligini rivojlantirilishini ta'minlash va rivojlantirishning huquqiy, ijtimoiy va siyosiy shartlaridan biridir. Birinchi prezidentimiz aytganlaridek "Albatta hammamizga ayonki, jamiyat tafakkurini

butunlay yangilash bir ikki yillik ish emas, uzoq va uzluksiz davom etadigan jarayon. Qolaversa, bu yo'lda tinimsiz izlanish va mehnat qilish, hali-beri uchrab turadigan eskicha fikrlash asoratlarini yengib o'tish oson emasligini ham tushinamiz" [Islom Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T.,"Ma'naviyat"2008,100-101-b"].

Jadidchilik harakati asosiy maqsadi ham yillar mobaynida zulmkorlikdan aziyat chekib tinka madori qurigan millat yoshlarining demokratik davlat davlat qurish, millatni ziyoli qatlamlarini kengaytirish, yuksak bilimga ega yosh olimlarni yetishtirib chiqarish va buning ortida millatni, xalqni ozod etish va ma'naviyatini qayta tiklash edi. Buning uchun birinchi o'rindagi vazifa qilib o'z oldilariga ta'lim-tarbiya sohasini rivojlantirishni qo'ydilar. Ular bilimli, ma'naviyatli, ma'suliyatli va erkin tafakkurli millat vakillarini ko'paytirsagina o'z oldilariga qo'ygan maqsadlariga erisha olishlarini bilishar edi. Islom Karimov shunday so'zlari bor: "Tafakkur ozod bo'lmasa, ong va shuur tazyiqdan, qullikdan qutilmasa, inson to'la ozod bo'lmaydi. Taraqqiyot taqdirini ma'naviy jihatdan yetuk odamlar hal hal qiladi".[I.Karimov. "Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir". O'zbekiston-1996, 34-bet]. Zulmkor rus siyosatidan millatimiz insonlar erkin fikr yuritish, tanqidiy fikr bildirishdan hadiksirab qolishdi. Insonlarni o'z dinidan, o'zligidan,millat esa milliy boyliklaridan begonalashtirildi. Insonlarning tafakkuri tobelika tushib qoldi va shunchaki "sen menga tegma, men senga tegmayaman" qabilida yashashga o'rganib qoldi. Shunday tobe tafakkurga o'rganib qolgan jamiyatda har bir sohada oldinga o'sish va rivojlanish bo'lmadi. Chorizm hokimiyati qo'shtirnoq ichida milliylikni rivojlantirayotgandek, xalqni erkinligini ta'minlayotgandek soxta ko'rinish berayotgani bo'lsada, aslida zulmkor va xalqni ma'naviy va madaniy meroslardan mahrum qilgan, dinidan, ma'rifatli yoshlaridan ayirayotgan hokimiyat edi. Millat taraqqiyoti suslashdi. Hurfikrlikni, demokratiyani yoqlab chiqayotgan istedodli yoshlar, jadidchilarni nafaqat g'oyalari taqiqlandi, balki ularning o'zlarini ham yo'q qilindi. Hatto aholining jadid bo'lmagan ziyolilari, endigina yetishib chiqayotgan bilimli ma'naviyatli yoshlarini ham qatag'on qurboni qilishdi. Buni ko'rib turgan xalq tinch yashasam bo'ldi ya'ni " sen menga tegma men, men senga tegmayman" qabilida ish tutadigan bo'lishdi. SHunchaki rus hokimiyat izmiga taqdirlarini topshirib qo'yishdi. Erkinlik, ozodlik va hurfikirlilikka bo'lgan intilishlarini bir chekkaga surib qo'yishdi. Shunday qilib millatimiz tafakuridan, ma'naviyatidan judo qilindi. Rus hokimiyat yurtimizni asosan hom ashyo bazasiga aylantirgani uchun xalqimizni ko'plab qismi qishloqlarga qolib ketdi. "Shaxs manfaatlarining jamoa manfaatlariga qurbon qilishi, inson shaxsi bilan hisoblashmaslik, insonni ijtimoiy kelib chiqishiga qarab baholash, inson huquqlaridan mahrum etilishi tafakkurimizning yaxshi

rivojlanmasligiga sabab bo'ldi".[A.Erkayev "Ma'naviyat va taraqqiyot" 2009 271-bet 371-bet].

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak jadidchilarimiz butun jonini millat ziyoli qatlamini ko'paytirish uchun, ularni ozodligi, erkinligi, hurfikirligi va taraqqiyotiga erishtirish uchun qurbon qilishdi. Millatni tobelikdan qutqarish, erkin tafakkurli shaxslarni ko'paytish va bu bilan jamiyatni ozod qilish va taraqqiyotga erishtirish osonlikcha kechmadi va chorizm hukumati o'z maqsadiga erishdi. Millatni tobelikcha saqlab qoldi. Millat, jamiyat rivojlanishdan toxtab qoldi. Tobe tafakkur va mas'uliyatdan qo'rqadigan tafakkurli shaxslar bor jamiyatda hech qachon rivojlanish va o'sish bo'lmaydi. Tafakkur erkinligi inson erkinligining asosiy negizi deb hisoblasak, chorizm hukumatida ham insonlarnng erkinligini cheklagan holda ularning tafakkur erkinligidan, hurfiikirlilikdan ayirishdi. Insonlar mas'uliyat hissidan uzoqlashishdi. Bugun qornim to'ysa bo'ldi deb ertani o'ylashdan, o'zini, farzandini kelajagini va jamiyatni ertasini o'ylashdan tiyildi. Inson erkinligining negizi va ajralmas bir qismi deb biz tafakkur erkingi ayta olamiz. Tafakkur erkinligi jamiyat insonga yaratib bergan imkoniyatlar va erkinliklarning mahsulidir va inson erkinligining aqliy negizidir. Bugungi Ommaviy axborot vositalari rivojlangan va globallashuv davri kishisi bilan ho'kizga omoch taqib yer haydab kun ko'radigan, o'zi yashayotgan jamiyatida qanday voqealar yuz berayotganidan behabar kishisi ongi, tafakkuri, dunyoqarashi, fikr mulohazalari bir biridan tubdan farq qiladi. Tafakkurning erkinligi va rivojlanishiga ijtimoiy taraqqiyot darajasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Birinchi prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganlaridek "Tafakkur ozod bo'lmasa, ong va shuur tazyiqdan, qullikdan qutulmasa, inson to'la ozod bo'lolm ayd. Taraqqiyot taqdirini ma'naviy jihatdan yetuk odamlar hal qiladi" [Islom Karimov. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir.T:"O'zbekiston",1996,34-b]. Jamiyatimizda insonlarning tafakkur erkinligini o'stirish uchun , xalqimiz o'z tafakkur saloxiyatini yanada yuksakroq yuzaga chiqarishi uchun har qanday tashqi va ichki tahdidlardan ogoh bo'lish, jamiyatdagi insonlar xavf va ularga qo'rquv uyg'otuvchi omillarga qarshi faol kurashmoq, demokratiyani yanada mustahkamlamoq va yoshlar ongiga sog'lom milliy g'ururni singdirmoq juda ham zarur. Bugungi mustaqilligimiz yillar mobaynida mana shunday hayot kechirib kelgan xalqimiz uchun, mustaqillikni, ozodlikni ko'rish uchun o'z jonini millati uchun tikkan jadidlarimizning asl orzusi edi.

Yangi O'zbekistonni jahon rivojlangan davlatlar qatoriga qo'sha oladigan, bilimli, erkkin tafakkurli va mas'uliyatli yosh avlodni yetishtirishimiz muhim ahamiyatga ega. Prezidentimiz aytganlaridek - "Mamlakatimiz o'z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga kirayotgan hozirgi paytda bizga jadid bobolarimiz kabi

g’arb ilm-fan yutiuqlari bilan birga, milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan yetuk kadrlar suv bilan havodek zarur”.[www.ziyonet.uz] Biz har doim ana shu jadidlarimiz kabi millat uchun, o’z jamiyatimiz rivoji, taraqqiyoti uchun jon bera oladigan haqiqiy vatanparvar yosh avlodni yetishtirishimiz zarurligini unitmasligimiz darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. .Shavkat Mirziyoyev. “Yangi O’zbekistonda taraqqiyot strategiyasi”.O’zbekiston”. Toshkent-2023

2. I.Karimov. “Adolatli jamiyat sari”. T.”O’zbekiston”1998. 17-b].

3.Islom Karimov. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”. T.,”Ma’naviyat”2008,100-101-b”.

4. ” [Islom Karimov. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir.T:”O’zbekiston”,1996,34-b].

5. A.Erkayev “Ma’naviyat va taraqqiyot” 2009 271-bet]

6. www.ziyonet.uz

JADIDCHILIK HARAKATINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

Yusufjonova Nafisaxon Ibrohimovna
Farg‘ona davlat texnika universiteti talabasi

+998(93)-040-01-42

Annotatsiya. *Ushbu jadidchilik harakati maqolaning Turkiston tarixidagi o'rni, uning vujudga kelish sabablari va muammolarni keng yoritiladi. Maqoladadidchilikning madaniy rivojlanishiga ta'sir ko'rsatgan ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va iqtisodiy jihatdan tahlil. Jadidlarning asosiy maqsadlari jamiyatni ilm-fan va ma'rifat asosida yangilash, milliy uyg'otish va eski an'anaviy tizimlarni isloh qilish edi. Ularning faoliyati yangi usul maktablari, matbuot va adabiyot orqali amalga oshirildi. Maqolada, jadidchilik harakatining harakatdagi muhim ishtirokchilari va qismlari ko'rsatiladi. Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat va boshqa zililar jismoniy ta'lim tizimida olib bordilar, balki milliy matbuot va adabiyot rivojiga hissa qo'shdilar. Jadidlarning sahna asarlari, darslik va gazetalar orqali ilgari surilgan g'oyalari yosh avlodning ilmiy tafakkurini*

rivojlantirishga xizmat. Maqolada jadidchilik xarakatining turibi xam yoritiladi. 1917-yilgi voqealardan so'ng Turkistonda milliy muxtoriyat g'oyasi shakllandi va Turkiston Muxtoriyati tashkil etildi. Bu harakat milliy davlatchilik va mustaqillik g'oyalarining rivojlanishiga turtki berdi.


Kalit so'zlar. *Jadidchilik, ma'rifatparvarlik, yangi usul maktabi, ta'lim islohoti, milliy uyg'onish, mustamlakachilik, siyosiy faollik, matbuot, adabiyot, sahna san'ati, ziyolilar, milliy davlatchilik, muxtoriyat, taraqqiyot, milliy o'zlik, erkin fikr, ijtimoiy islohot, ilm-fan.*

Kirish. Jadidchilik yoki jadidizm (jadīd — yangi) – o'n to'qqizinchi asr oxiri yigirmanchi asr boshida Turkiston, Kavkaz, Qrim va Tatariston ziyolilari hayotida muhim ahamiyat kasb etgan ijtimoiy-siyosiy, ma'rifiy harakat. Dastlab jadidchilik XIX asrning 80-yillarida Qrimda vujudga keldi. XIX asrning 90-yillaridan O'rta Osiyoda tarqaldi.XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy-siyosiy hayotida jadidchilik harakati keng quloch yoydi. "Jadid" so'zi arabcha "yangi" ma'nosini anglatadi. Jadidchilik harakati mana shu tarixiy zarurat paydo bo'ldi. "Jadid" so'zi arab tilidan olingan bo'lib, "yangi" degan ma'noni anglatadi. Harakat qildi eski ta'lim usulini yangilash, yangi usul maktablarini tashkil etish, yosh avlodni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish orqali jamiyatni taraqqiyot yo'liga olib chiqishni maqsad qilib qo'ydi. Ular milliy ta'lim, balki butun ijtimoiy hayotni yangilash tarafdori edilar. Jadidlar milliy ongni uyg'otish, xalqni o'z haq-huquqlarini anglashga undash, milliy o'zlikni saqlash va rivojlantirish g'oyalarini oldingi surdilar. Bu harakatning yordamiga yig'ish ham katta ta'sir ko'rsatadi. Usmonli davlati, Qrim-tatar ziyolilari, Yevropa ma'rifatchiligi g'oyalari Turkiston ziyolilari dunyoqarashiga turkiy tasir ko'rsatgan. unga, Ismoil G'aspirali oldinga surilgan "usuli jadid" ta'lim tizimi Turkiston yordam tez sur'atlarda yo'llangan. Jadidlar o'z faoliyatida faqat nazariy g'oyalar bilan cheklanib qolmay, amaliy foydali ham amalga oshirdilar. Yangi maktablar ochish, darsliklar, gazeta va jurnallar nashr etish orqali ular jamiyatda fikriy ish jarayonini boshladilar. Jadidchilik harakati o'z harakatiga ko'ra faqat ma'rifiy harakat emas, balki milliy taraqqiyotning muhim bosqichi ham edi. XX asr boshlariga kelib, jadidlar faoliyati ijtimoiy hayotning turli sohalarini oldi. Ular sahna san'ati, adabiyot, matbuot va siyosat orqali xalqni birlashtirishga intildilar. barcha milliy matbuotning paydo bo'lishi jadid g'oyalarining keng ommaga yetib borishida muhim rol o'ynadi. Shu yordam jadidchilik harakati jismoniy o'z davri uchun, balki bugungi kun uchun ham muhim tarixiy tajriba. U milliy o'zlikni anglash, ilm-fan va ma'rifatga intilish, jamiyatni isloh qilish kabi g'oyalarni ilgari surganligi bilan ahamiyatlidir. Ushbu muammoni hal qilish jarayonining tarixiy jarayoni va uning ahamiyati atroflicha

tahlil.

Jadidchilik harakati o‘z mohiyatiga ko‘ra ma’rifiy, madaniy va siyosiy islohotlarni amalga oshirishga qaratilgan bo‘lib, xalqni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish, milliy o‘zlikni anglash va taraqqiyotga erishishni maqsad qilgan edi. Jadidchilik avval madaniyat sohasidagi harakat sifatida faoliyat yuritgan. Bu oqim vakillari taraqqiyot uchun kurashish, turkiy tillarni rivojlantirish, shu tillardagi adabiyotni boyitish, dunyoviy ilmlarni o‘rganish, fan yutuqlaridan foydalanish hamda ayollar va erkaklar tengligi uchun kurashishga chaqirishgan. Keyinchalik jadidchilar panturkizm g‘oyalarini targ‘ib qilishgan. Sovet davrida yozilgan adabiyotlarda jadidchilikka „burjua-liberal, millatchilik harakati“ deb ta’rif berilgan. Bu davrda asosan tanqid qilingan jadidchilik namoyandalari nomi SSR parchalanib ketganidan keyin qayta tiklandi.

Asosiy qism. Bu davrda mahalliy ziyolilar xalqning orqada qolayotganligini anglab, jamiyatni isloh qilish zaruriyatini his etishdi. Jadidlar ma’rifatparvarlikni asosiy yo‘nalish sifatida belgilab, yangi usul maktablari orqali dunyoviy fanlarni o‘qitishni yo‘lga qo‘yishdi. Milliy uyg‘onish g‘oyasi turkiy tillarni rivojlantirish, adabiyot va madaniyatni boyitish orqali amalga oshirildi. Ayollar va erkaklar teng huquqliligini targ‘ib qilish, jamiyatni zamonaviy taraqqiyot yo‘liga olib chiqish, milliy istiqlol g‘oyalarini ilgari surish jadidchilikning muhim tamoyillari bo‘ldi. Jadid adabiyoti milliy uyg‘onishning muhim qismi bo‘lib, xalqni ma’rifatga chaqirish, jaholatga qarshi kurashish, milliy o‘zlikni anglashni targ‘ib qildi.



Cho‘lpon, Fitrat, Abdulla Avloniy kabi jadid adabiyoti namoyandalari o‘z asarlari orqali xalqni uyg‘otishga xizmat qildilar. Ularning she’rlari, dramalari va publitsistik maqolalari xalqni zamonaviy bilimlar sari yetaklashda muhim vosita bo‘ldi. 1920-yillardan boshlab Sovet hokimiyati jadidlarni “xalq dushmani” sifatida ko‘rsatib, ularni ta’qib qildi. Ko‘plab jadidlar qamoqqa olinib, qatl etildi yoki surgun qilindi. Bu davrda jadidchilik harakati rasmiy ravishda tugatilgan bo‘lsa-da, ularning g‘oyalari keyingi avlod ziyolilari uchun ilhom manbai bo‘lib qoldi. Jadidchilik harakatining natijalarida ta'lim tizimidagi muammolar jiddiydan biri bo'ldi. An'anaviy maktab va madrasalarda o'qitish usullari asosan yodlashga samarali bo'lib, o'quvchilarning mustaqil fikrlashi rivojlanishimas edi. Diniy fanlarga katta e'tibor qaratilar, biroq dunyoviy fanlar yetarli darajada o'zgarmas

edi. jamiyat zamonaviy taraqqiyotdan ortda qolayotgan edi. Jadidlar millat taraqqiyoti ilm-fan bilan chambarchas bog'liq tushunish anglab, ta'lim olish tubdan isloh qilish zarurligini oldindan surdilar. Jadidchilik harakati namoyandalari koʻpincha oʻzlarini taraqqiyparvarlar, keyinchalik jadidlar deb atashgan. Oʻsha davrning ilgʻor taraqqiyparvar kuchlari, birinchi navbatda, ziyolilar mahalliy aholining umumjahon taraqqiyotidan orqada qolayotganligini his etib, jamiyatni isloh qilish zaruriyatini tushunib yetgandilar. Jadidchilik mohiyat e'tibori bilan avvalo siyosiy harakat edi. Uning shakllanish va magʻlubiyatga uchrash davrlari boʻlib, ularni shartli ravishda toʻrtga boʻlish mumkin. Turkiston, Buxoro va Xiva hududida bu davrlar 1895–1905; 1906–1916; 1917–1920; 1921–1929-yillarni oʻz ichiga oladi.Birinchi davrda Turkistonda podsho Rossiyasining mustahkam oʻrnashib olishi kuzatiladi. U oʻz siyosiy agentlari (vakillari) yordamida mahalliy xon va amir vakolatlarini cheklabgina qolmay, ularni qoʻgʻirchoqqa aylantirib, rus va gʻarb sarmoyadorlarining ishlashi va yashashi uchun sharoit yaratadi, turli kompaniyalar, aksiyadorlik jamiyatlari manfaatini koʻzlaydi. Ayni chogʻda mahalliy aholining talab va ehtiyojlari nazarga olinmay qoʻyildi, diniy e'tiqodlari, urf-odatlari bilan hisoblashmaslik, ularni mensimaslik kuchaydi. Hayotiy, ilmiy saviyasi yuqori boʻlgan qozilar tajribasiz kishilar bilan almashtirildi, poraxoʻrlik, ijtimoiy-siyosiy adolatsizlik avj oldi. Madrasa va maktablar faoliyatini cheklash, mahalliy joy nomlarini ruscha atamalar bilan almashtirish, hatto mahkama jarayonida qozilar boʻyniga xoch taqtirishgacha borildi. Oʻsha davr ahvolini Muhammadali xalfa Sobir oʻgʻli (Dukchi eshon) xalqqa qarata oʻz „Xitobnoma“sida (1898) yaxshi bayon qilgan. Millat istiqbolini oʻylovchi taraqqiyparvar kuchlar xalqning deyarli barcha tabaqalari—hunarmand, dehqon, savdogar, mulkdor, ulamolar orasida mavjud edi. Ziyolilar dastlab chorizmga qarshi kurashni xalqni asriy qoloqlikdan uygʻotish – siyosiy-ma'rifiy jabhadan boshlashga qaror qildilar. Jadidchilik harakati ana shunday tarixiy bir sharoitdaTurkiston mintaqasida rivojlanish uchun oʻziga qulay zamin topdi. Jadidlar orasidan yetuk olimlar, sanoat va ziroatchilik sohalarining zamonaviy bilimdon mutaxassislari, madaniyat arboblari yetishib chiqib, yurtni obod va oʻz vatanlarini mustaqil koʻrishni orzu qildilar va shu yoʻlda kurashdilar. Jadidlarning Turkiston mustaqilligi uchun kurashida asosan quyidagi yoʻnalishlar ustuvor edi:yangi usul maktablari tarmogʻini kengaytirish; qobiliyatli yoshlarni chet elga oʻqishga yuborish; turli ma'rifiy jamiyatlar va teatr truppalari tuzish; gazeta va jurnallar chop qilish, xalqning ijtimoiy-siyosiy ongini yuksaltirish bilan Turkistonda milliy demokratik davlat qurish.

Xulosa. Jadidchilik harakati Turkiston tarixida chuqur iz qoldirgan ijtimoiy-ma'rifiy va siyosiy hodisa sifatida alohida o'rin egallaydi. Bu harakat jamiyatni

yangilash, xalqni ilm-ma'rifatga chorlash va milliy ongni yo'lda muhim bosqich bo'ldi. Jadidlar o'z davrining og'ir sharoitlariga qarab, xalq ta'limi, matbuot, adabiyot va sahna san'ati orqali millatni uyg'otishga intildilar. Ularning rivojlanishi jamiyatda yangicha fikrlash, dunyoviy bilimlarga rivojlanish va taraqqiyotga intilish kuchaydi. Jadidchilik harakatining eng katta yutug'i kerak, u milliy o'zlikni anglash jarayonini tezlashtirdi. Mustamlaka yashayotgan xalq orasida erkinlik mustaqillik va adolat g'oyalari shakllana boshlaydi. Jadidlar millat ravnaqi faqat ilm-fan va zamonaviy ta'lim orqali ta'minlanishini chuqur anglagan holda, amaliy ishlar olib bordilar. Ular yangi usul maktablarini tashkil etish bilan cheklanib qolmay, darsliklar yaratdilar, gazeta va jurnallar chiqardilar, teatr asarlari sahnalashtirdilar. Bu esa xalqning siyosiy va madaniy saviyasini saqlashga xizmat qildi.

Shu bilan birga, jadidchilik harakati jamiyatdagi eskicha qarashlar bilan yangicha tafakkur o'rtasidagi kurashni ham ifoda etdi. Ular qurilish zarurligini, milliy barqarorlikni saqlab qolgan holda taraqqiyot sari intilishga ko'rsatib berdilar. Jadidlarning g'oyalari qisqa vaqt ichida keng yoyilgan bo'lsa-da, siyosiy vaziyat va mustamlaka ma'muriyati barqaror ko'pchiligi ta'qib va tazyiqlarga uchradi. Shunga qaramay, ular oldin surgan xalqlar ongida qoldi va keyingi davr taraqqiyotiga zamin yaratdi. Bugungi kunda jadidchilik merosi milliy davlatchilik, ma'naviyat va ma'rifat rivojida muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda. Ularning ilm-fanga tayanish, yoshlarni zamonaviy bilimlar tarbiyalash, jamiyatni isloh qilish haqidagi qarashlari hozirgi rivojlanish jarayonida ham o'z bilan bog'liqligini yo'qotgan. Jadidchilik harakati tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, har qanday millatning taraqqiyoti avvalo ma'rifat va ongli avlod tarbiyasiga bog'liqdir. Shu tufayli jadidlarning ma'naviy merosini o'rganish va uni yosh avlod oniga singdirish bugungi kunning muhim ahamiyatidan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston tarixi (XIX asr oxiri – XX asr boshi) . – Toshkent: O‘qituvchi, 2016.

2. Mahmudxo'ja Behbudiy . Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma’naviyat, 1999.

3. Abdulla Avloniy . Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: Sharq, 2008.

4. Abdurauf Fitrat . Tanlangan asarlar. – Toshkent: Fan, 2000.

5. Ismoil G'aspirali . Til, fikr va ishda birlik. – Qozon, 1905 (qayta nashr).

6. Jadidchilik harakati tarixi . – Toshkent: “Akademnashr”, 2014.

7. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi . O'zbekistonning yangi tarixi. 2-kitob. – Toshkent, 2000 yil.

8. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi . 3–4 jildlar. – Toshkent, 2002 yil.

TARAQQIYPARVARLARNING MA’NAVIY - AXLOQIY TARBIYA MASALASIGA OID QARASHLARIDAN

Ijtimoiy va siyosiy fanlar instituti
“Ijtimoiy va iqtisodiy fanlar” kafedrasi
Phd., dot.**Ganiyev Joxongir Xakimjanovich**
tel. +99894-651-08-80

ANNOTATSIYA. *Mazkur maqolada bugungi kundagi taraqqiyparvarlar merosiga bo‘lgan qiziqishning ortganligi, shuningdek, undagi ma’naviy-axloqiy tarbiyaga oid qarashlarning dolzarbligi ta’kidlangan. Jadid mutafakkirlarimiz tomonidan ta’lim-tarbiyaning milliy-ma’naviy asoslari va uning tarkibiy qismi bo‘lgan ma’naviy-axloqiy tarbiyaga alohida e’tibor qaratilganligi qayd etilgan. Maqolada, shuningdek, milliy-ma’naviy tiklanishimizda yoshlarning ma’naviyatini yuksaltirish hamda ularning zamonaviy fan, texnika va texnologiya yutuqlarini chuqur o‘zlashtirishi muhim omil ekanligi haqida hulosalar berilgan.*

Kalit so‘zlar*: ma’naviyat, jadid, meros, axloq, tarbiya, padarqush, mutafakkir, jamiyat, odob, hulqlar, islohot, ajdodlar, taraqqiyot.*

ABSTRACT. *This article highlights the increased interest today in the progressive heritage, as well as the relevance of the views on spiritual and moral education contained within it. It is noted that our jadids placed particular emphasis on the national and spiritual foundations of education and upbringing, and on its integral component—spiritual and moral education. The article also draws the conclusion that, within our national and spiritual revival, elevating the morality of the youth and their profound mastery of modern science, engineering, and technological advancements are crucial factors.*

Keywords*: spirituality, jadid, heritage, ethics, upbringing, padarkush, thinker, society, decency, hulks, reform, ancestors, progress.*

KIRISH. Zamonaviy davrda dunyoda keskin ijtimoiy – siyosiy o‘zgarishlar yuz berayotgan vaqtda ta’lim-tarbiyaning milliy-ma’naviy negizlariga bo‘lgan e’tibor muhim ahamiyat kasb etayotganligini ko‘rishimiz mumkin. Shu o‘rinda sharqda

azalda ta’lim – tarbiya va milliy ma’naviyatning doimo uzviy aloqada bo‘lganligini e’tiborga olishimiz va umumbashariy qadriyatlar bilan birgalikda rivojlanish sari qadam tashlashimiz lozimligini unutmasligimiz darkor.

Ma’lumki, jannatmakon Vatanimiz insoniyat tamaddunining beshiklaridan biri hisoblanadi. Yurtimiz zaminda istiqomat qilgan ajdodlarimiz XIX asr oxiri XX asr boshlaridayoq ilm-fan va ta’lim – tarbiya sohalarida ulkan natijalarni qo‘lga kiritganlar. Bugungi yosh avlod haqli ravishda taraqqiyparvarlarimiz Mahmudxo‘ja Behbudiy, Ahmad Donish, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Isxoqxon Ibrat, Abdulla Qodiriy kabilarning nomlarni faxr bilan tilga oladilar. Ularning insoniyat ilmu fani, axloqiy tarbiyasiga qo‘shgan hissalari bebaholigi tufayli zamonaviy davrda jadidlarimiz merosini o‘rganish, uni tiklashga e’tibor kun – sayin ortib bormoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Yurtimiz hududida azaldan ta’lim va tarbiyaga bir-biridan ajralmas uzviy bog‘liq tushunchalar sifatida qaralgan. Bunga albatta, o‘ziga hos ijtimoiy, siyosiy va tarixiy shart-sharoitlar sabab bo‘lgan. Asrlar mobanida shakllangan ustoz-shogird tizimi, ta’lim-tarbiya ishlari milliy – ma’naviyatimiz bilan hamo-hang holda olib borishi natijasida, u axloq-odob normalari bilan boyitildi va bugungi kun ko‘rsatib turgandek tarixda o‘zini oqladi. Milliy ta’lim – tarbiya tizimini rivojlantirib, uning islohotini boshida turgan ajdodlarimiz Mahmudxo‘ja Behbudiy, Ahmad Donish, Abdulla Avloniy, Isxoqxon Ibrat kabilarning asarlarida mazkur masalalar keng va atroflicha yoritilgan, uslubiy ko‘rsatmalar ishlab chiqilgan.

Aynan shuning uchun ham O‘zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I.A. “Karimovning Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q”, “O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li”, “Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch” asarlari hamda Prezidentimiz Sh.M Mirziyoev asarlari va har yili Oliy Majlisga Murojaatnomalarida O‘zbekistonda ta’lim-tarbiyaning milliy - ma’naviy negizlari, ajdodlarimiz tomonidan bu sohada qoldirilgan ulkan meros va tajribalardan to‘g‘ri foydalanib, komil insonni tarbiyalashda, ta’lim va tarbiyada inson omilini birinchi o‘ringa qo‘yish masalasi haqida atroflicha fikrlar yuritilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O‘zbek xalqining boy o‘tmishi va unda ta’lim – tarbiyaning o‘rni to‘g‘risida Prezidentimiz quyidagi fikrlari diqqatga sazovordir: “O‘zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi. Isbottalab bo‘lmagan ushbu haqiqat davlat siyosati darajasiga ko‘tarilishi zarur. ... Jamiyat taraqqiyotining asosi, uni muqarrar halokatdan qutqarib qoladigan yagona kuch ma’rifatdir. ... Aql zakovatli, yuksak ma’naviyatli kishilarni tarbiyalay olsakkina, oldimizga qo‘ygan maqsadlarga erisha olamiz, yurtimizda farovonlik va taraqqiyot qaror topadi”[1]. Jamiyatda

kechayotgan ijtimoiy, hususan ta’lim sohasidagi islohotlarning samaradorligi uning fuqarolari ega bo‘lgan ma’naviyatga bog‘liq. Shu bois mustaqillikning dastlabki yillarida mamlakatimizda jamiyat rivojlanishining ma’naviy-axloqiy negizlari aniq belgilab olish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etdi. Bunda avvalambor jaddid ajdodlarimizning meroslaridan foydlanildi. Ularning asrlaridagi g‘oylar asos qilib olindi. Bular: - umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik; - xalqimizning ma’naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish; - insonning o‘z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi; - vatanparvarlik[2]. Zero, jamiyat rivojlanishi faqat uning iqtisodiy taraqqiyotinigina emas, balki ma’naviy yuksalishini ham taqozo etishini taraqqiyparvarlarimiz oldindan ko‘ra olishgan.

Ijtimoiy tarbiyaning boshqa turlari kabi ma’naviy-axloqiy tarbiya asosini ham ilg‘or milliy, ma’naviy axloqiy qadriyatlar, xalq pedagogikasi g‘oyalari tashkil etadi. Ma’naviyat shaxs, xalq, davlat va jamiyatning kuch-qudrati, taraqqiyoti, imkoniyatlari va istiqbollarini belgilab beruvchi ichki ijobiy, ruhiy omildir. Aynan shunung uchun, jamiyatimizda aholi, ayniqsa, yosh yigit-qizlarimizning ma’naviy va ma’rifiy saviyasini doimiy yuksaltirish - birinchi darajali ahamiyatga egadir [3].

Ta’lim-tarbiyaning milliy ma’naviy negizlari to‘g‘risida gapirganda ma’naviy-axloqiy tarbiya uning asosiy tarkibiy qismi ekanligini ta’kidlab o‘tish lozim. Ma’naviy-axloqiy tarbiya va unga qo‘yiladigan talablar asosida Vatanga muhabbat va sadoqat, mehnatga axloqiy munosabat, o‘z atrofdagilarga axloqiy yondashuv, shuningdek, har bir insonning o‘zi va shaxsiy xulq-atvoriga munosabatni qaror toptiriladi. Jumladan taraqqiyparvar mutafakkirlardan Axmad Donishning “Nodir hodisalar” (1870—1889) asarini o‘qiydigan bo‘lsak unda farzandning ota-onaga nisbatan huquqi, ularning o‘zaro munosabatlarining asoslari, bolalarning tarbiyasi, oilaviy munosabatlar, an’anaviy hayot qoidalari xususida keng hamda mulohazali fikrlarini bayon etilganligini ko‘rish mumkin[4]. Shu bilan bitrga Axmad Donish Rossiyaga bir necha bor bo‘lganligi uchun ijtimoiy va siyosiy hayotni xolis hamda asosli ravishda qiyoslay olgan va shuning uchun jamiyatdagi muammolarni ochiq ko‘rsatib bergan[5].

Ma’naviy-axloqiy tarbiya haqida gapiganda so‘zsiz Abdulla Avloniyning merosi nihoyatda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi, Xususan, Abdulla Avloniy “Turkiy guliston yohud axloq” asarida inson tarbiyasidagi hulq haqida fikr yuritar ekan ularni yomon va yaxshi hulqlarga ajratib tahlil qiladi. Yomon xulqlar sirasiga quyidagilarni kiritadi: g‘azab, aysh-ishrat, jaholat, safohat (umri va molini bekorchi narsalarga sarf etish), hamoqat (o‘zbilarmonlik, manmanlik), hasosat (ta’ma, hirs), rahovat (g‘ayratsizlik), anoniyyat (xudbin, mutakabbir, manman), adovat (kek saqlash), namimat (chaqimchilik), g‘iybat, haqorat, jibonat (qo‘rqoqlik), hasad, kizb (yolg‘on), nifoq, ta’ma, zulm va boshqalar[6].

Taraqiyparvarlarimizdan yana biri Isxoqxon Ibrat mehnatkash xalq boshidagi og‘ir hayot, qashshoqlik, mamlakatning qoloqlikda, xalqnning nodonlikda qolganligining sabablarini aniqlashga, undan qutqarish yo‘llarini topishga harakat qildi. Bir necha taraqqiy etgan mamlakatlarda bo‘lgan Ibrat xalqni zulmatdan, mamlakatni qoloqlikdan qutqaruvchi birdan-bir yo‘l ilmma’rifatni egallash deb tushungan edi[7].

Taraqqiyparvarlarimizdan Mahmudxo‘ja Behbudiy (1874-1919 yillar) yangi usul maktablarini tashkil qilish bilan birgalikda tarbiya ishlarini ham samarali tarzda rivojlantirib borgan. O‘zining ta’lim-tarbiya, ma’naviyatga oid fikrlarini “Oyna” jurnalida berib borgan. Behbudiy o‘z hayoti davomida 200 dan ortiq ilm-ma’rifat, ma’naviyat, tarbiya va axloq masalalariga doir maqolalar yozib, davriy matbuotda e’lon qilgan. O‘tkir zehnga ega bo‘lgan Behbudiy ta’lim – tarbiya va jamiyat rivojiga to‘sqinlik qilgan illatlarni fosh qilgan. Yurt rivoji ta’lim va tarbiyada, bilim olishda ekanligiga asosiy e’tiborni qaratgan.

Ta’lim-tarbiya va milliy ma’naviyat bilan bog‘liq muammolarni Behbudiyning 1912 yili yozgan “Padarqush” asarida yaqqol kuzatishimiz mumkin. Asarda boy ziyoli o‘qituvchilar bilan bo‘lgan suhbatda quyidagi fikrni aytadi: “Mani xayolimda dunyoning sababi, izzati — boylik”. Boy o‘zining ham savodsizligini aytib o‘g‘li Toshmurodni o‘qitishdan bosh tortadi. Natijada barcha narsani pul bilan o‘lchashga o‘rgangan Toshmurod otasini puli uchun o‘ldirishgacha borib yetadi. Asar so‘ngida ziyoli insonning aytgan gaplari naqadar haqiqatga mos kelishini ko‘rishimiz mumkin:

“Bizlarni xonavayron, bachagiryon va bevatan va bandi qilg‘on tarbiyasizlik va jaholatdur: bevatanlik, darbadarlik, asorat, faqru zarurat va xorliklar hammasi ilmsizlik va betarbiyalikning mevasi va natijasidur. Asir va zabun bo‘lganlar beilmlikdan. Modomiki, bizlar tarbiyasiz va bolalarimizni o‘qutmaymiz, bul tarifa yomon hodisalar va badbaxtliklar oramizda doimo hukm-farmo bo‘lsa kerak. Bu ishlarni yuq bo‘lmog‘iga o‘qumoq va o‘qutmoqdan boshqa iloj yo‘qdur [8].

Ta’lim-tarbiyani rivojlantirish, uning milliy ma’naviy va umumbashariy negizlarini birgalikda olib borish o‘sha davrda ham muhim ahamiyat kasb etganligini kuzatishimiz mumkin. Biroq, yuzaga kelgan sovet tuzumi davrida ta’lim tizimida kommunistik mafkuraning hukmronlik qilishi, o‘zligimizga hos bo‘lmagan asoslarni sun’iy singdirishga urinishlar amalga oshirildi.

Bugungi kunda, yuzaga kelgan muammolarni hal qilish uchun yuksak ma’naviy e’tiqod va sabr-toqat bilan odamlarni uyushtirish, ular dunyoqarashida yangi jamiyat taffakkurini shakllantirish muhim vazifa darajasiga ko‘tarildi. Mamlakatimizda ana shu buyuk masalalarni hal etish jarayonlari ketmoqda. Shuning uchun ham prezidentimiz og‘ir iqtisodiy muammolarni hal etish

jarayonlari murakkab holatda kechayotganligiga qaramasdan yoshlarni qo‘llabquvvatlash, ularning zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlariga, yuksak ma’naviyatli hamda intelektual salohiyatli kadrlar bo‘lib yetishishlarini asosiy vazifa sifatida belgilab berdi hamda uni amalga oshirishda rahbarlik qilmoqda. Sh.M.Mirziyoev tomonidan uchinchi reneseans davrini qurish uchun yoshlarimizning ma’naviyati, ularning ta’lim va tarbiyasini yanada yuksaltirish uchun islohotlarimiz ko‘lami va samarasini yanada oshirish zarurati ta’kidlandi. Aynan, shuning uchun prezidentimizning jadidlar merosini o‘rganishga bag‘ishlangan Xalqaro konferensiya ishtirokchilariga qilgan murojaatnomasida quyidagi fikrlarni ko‘rishi mumkin: “O‘z zamonining ilg‘or namoyandalari bo‘lgan jadidlar g‘oyat murakkab va qiyin sharoitda bilim va ma’rifat tarqatish, ta’lim-tarbiya sohasini tubdan isloh etish orqali milliy taraqqiyotga erishish g‘oyasi bilan maydonga chiqdilar. Shu maqsadda o‘z mablag‘lari hisobidan maktab va teatrlar, nashriyot va kutubxonalar, gazeta va jurnallar tashkil qildilar, qobiliyatli yoshlarni chet ellarga o‘qishga yubordilar. Ularning bu olijanob tashabbus va harakatlari jamiyat hayotida kuchli aks sado berib, qudratli to‘lqinga aylandi.

O‘ylaymanki, tarixda ikki buyuk Renessansga zamin bo‘lgan mintaqamizda uchinchi Renessansni aynan jadid ajdodlarimiz amalga oshirishlari mumkin edi. Afsuski, mustabid tuzum ularning ezgu g‘oya va amaliy harakatlarini to‘la ro‘yobga chiqarishga imkon bermadi. Biz bugun mamlakatimizda erkin fuqarolik jamiyati, huquqiy demokratik davlat barpo etar ekanmiz, jadid bobolarimizning gumanistik qarashlariga tayanamiz, ularning merosidan ma’naviy kuch-quvvat olamiz” [9]. Milliy-ma’naviy tiklanishimizda yoshlarimiz ma’naviyatini yuksak darajaga ko‘tarish, ularning taraqqiyparvar ajdodlarimizning meroslarini chuqur o‘zlashtirishlari katta omil ekanligi Prezidentimiz tomonidan ta’kidlab o‘tildi. Haqiqatdan ham jahonning rivojlangan mamlakatlari tajribalari ko‘rsatib turibdiki, qaysi mamlakat yoshlari o‘z yurtlarining tarixini, milliy qadriyatlarini va ayniqsa ajdodlarining merosini qanchalik mukammal egallasa, bundan zarur xulosalarni qilsa mamlakat taraqqiyotiga qo‘shadigan hissalari shunchalik samarali bo‘ladi, bilimga intilishi ortadi, zamonaviy bilimlarni egallaydi, ma’naviyat yuksaladi va mamlakatning hozirgi zamon jahon sivilizatsiya tizimiga kirib borishi tezlashadi. Bugungi globallashuv davrida yosh avlodini tarbiyalashda ushbu g‘oyalar alohidaahamiyatga egadir. Ular inson qadr-qimmatiga hurmat, bag‘rikenglik va ijtimoiymas'uliyatnishakllantirishga xizmat qiladi[10].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Taraqqiyparvarimizning ma’naviy - axloqiy tarbiyaga doir meroslaridan bugungi globallshuv davrida nihoyatda muhim ahamiyat kasb etmoqda. aynan

shuning uchun ularning merosi globallashuv davrida o‘ziga hos ikki hil vazifani bajarmoqda.

Birinchidan, ta’lim-tarbiyaning milliy ma’naviy negizlari globallashuv va “ommaviy madaniyat”ning zararli ta’sirlaridan yoshlarimizni saqlab turuvchi, ularni ma’naviy qadriyatlarimiz negizida tarbiyalovchi o‘ziga hos bir asos bo‘lib hizmat qilmoqda.

Ikkinchidan, jadid ajdodlarimizning milliy-ma’naviy meroslari umumbashariy qadriyatlar bilan simbiozlashgan holda katta va kengqamrovli tarbiyaviy dasturga aylanib, ta’lim-tarbiyaning samaradorligini oshishiga, rivojlanishga ta’sir ko‘rsatmoqda.

Fikrimiz so‘ngida yuqoridgi mulohazalar asosida quyidagi hulosalarni keltirish mumkin: – O‘zbekistonda ta’lim-tarbiyaning milliy-ma’naviy negizlari murakkab, o‘ziga hos tushuncha bo‘lib, asrlar mobaynida ajdodlarimiz tomonidan ushbu sohada shakllangan tajribalari asnosida yuzaga kelgan va eng asosiysi ushbu tajriba vaqt sinovlaridan muvaffaqiyatli o‘ta olgan. – O‘zbekiston hududida ta’lim-tarbiya va milliy ma’naviyat bo‘yicha ajdodlarimiz bizga ulkan meros qoldirishgan. Ana shu tajribadan to‘g‘ri foydalanish va shu bilan birga, ta’lim va tarbiyada inson omilini birinchi o‘ringa qo‘yishimiz lozim. – Bugungi kunda ta’lim va tarbiya tizimini to‘htovsiz rivojlanishi, ilmiy yangiliklar bilan boyib borishi zarurligini tushunishimiz va bu yo‘nalishda umumbashariy tamoyillarga murojat qilishimiz, horijiy mamlakatlar fan-texnika yutuqlaridan samarali foydalanishimiz muhim ahamiyat kasb etadi. – Umumbashariy qadriyatlar va tamoyillarga mos ravishda yoshlarimiz mehnat bozorida raqobatbardosh bo‘lishlari, xorijiy tillarni yaxshi o‘zlashtirishlari, axborot texnologiyalaridan, zamonaviy bilimlardan, habardor bo‘lishlari, mutahassisliklari bo‘yicha chuqur nazariy va amaliy bilimlarga ega bo‘lishlari talab qilinadi. – Yuksak intelektual salohiyatli yoshlarimiz o‘zligini anglagan, milliyma’naviy qadriyatlarimizdan habardor bo‘lgan va eng asosiysi Vatanimiz taraqqyoti uchun bor bilim-salohiyatini ishga soladigan bo‘lishlari hech shubhasiz yangi mazmundagi ta’lim-tarbiya tizimimizning pirovard maqsadi bo‘lishi kerak.

REFERENCES

1. Каримов И.А.Тарихий хотирасиз келажак йўқ // Мулоқот журнали, № 5, 1998 йил.

2. Каримов И.А. Ўзбекистоннинг ўз истиқлол ва тараққиёт йўли. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – б. 65.

3. Мирзиёев Ш.М. Олий Мажлисга Мурожаатномаси // Халқ сўзи. № 276. 30.12.2020.

4. https://www.vostlit.info/Texts/rus5/Donis_2/frametext2.htm Ахмад Дониш “Редкостные события”.

5. Akhmedova Z. A. AHMAD DONISH’S IDEAS ON IMPROVING PUBLIC ADMINISTRATION //Oriental Journal of Philology. – 2021. – Т. 1. – №. 2. – С. 9-17.

6. Абдулла Авлоний. Туркий гулистон ёҳуд ахлоқ. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. - б.35.

7. https://www.internationaljournal.co.in/index.php/jasass/article/view/2942

Khakimjanovich G.J. The role of value in the spiritual development of future generation. The Journal of Applied Science and Social Science. 2026 | журнальная статья.

8. Беҳбудий М. Падаркуш. Ziyo.uz. – б. 40-49.

9. https://president.uz/oz/lists/view/6007 Jadidlar merosini o‘rganishga bag‘ishlangan Xalqaro konferensiya ishtirokchilariga. 06.03.2023.

10. https://wosjournals.com/index.php/ptj/article/view/13122/12771 GJ Xakimjanovich. Yoshlar tarbiyasida Zahiriddin Muhammad Bobur merosining tutgan o‘rni // Pedagogik tadqiqotlar jurnali. Vol. 9 No. 1 (2026). – b. 167.

КОНЦЕПЦИЯ СОВЕРШЕННОГО ЧЕЛОВЕКА В ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ВЗГЛЯДАХ МАХМУДХОДЖИ БЕХБУДИ И МУНАВВАРКОРИ АБДУРАШИДХОНОВА

Пак Диана Александровна, преподаватель,
Джизакского государственного педагогического
университета имени А. Кадыри,
tumangroz@gmail.com
Асатова Ирода Икром кизи студентка,
Джизакского государственного педагогического
университета имени А. Кадыри
irodanarzullaeva00@gmail.com

***Аннотация**: В данной работе рассматривается концептуальное содержание идеала совершенного человека через призму педагогического наследия выдающихся джадидов Туркестана. Анализируются ключевые*

теоретические подходы Махмудходжи Бехбуди и Мунавваркори Абдурашидхонова, направленные на радикальную трансформацию образовательной системы начала XX века. Особое внимание в статье уделяется тому, как просветители сочетали светские дисциплины с традиционным воспитанием, стремясь к формированию всесторонне развитой личности, способной на социальное и интеллектуальное лидерство. В статье предоставляется авторская методика интеграции академических знаний и морально-этических ценностей, а также приводятся статистические результаты её апробации. Исследуются социально-педагогические аспекты, способствующие росту национального самосознания и когнитивной активности учащихся. Работа обосновывает актуальность идей джадидизма для современной образовательной политики Узбекистана, подчеркивая важность преемственности гуманистических традиций в воспитании гармоничного поколения.

***Ключевые слова**: Джадидизм, Бехбуди, Мунавваркори, Просвещение, Педагогика, Человек, Концепция, Знание, Реформа, Воспитание.*

В начале XX века движение джадидизма в Туркестане стало мощным импульсом для национального возрождения. Махмудходжа Бехбуди и Мунавваркори Абдурашидхонов рассматривали образование не просто как передачу знаний, а как инструмент формирования нового поколения. В их педагогических взглядах концепция «совершенного человека» (комил инсон) базировалась на синтезе национально-религиозных ценностей и передовых достижений мировой науки. Для них идеальная личность — это образованный, политически активный и нравственно стойкий гражданин, способный бороться за свободу и процветание своей Родины. Основной проблемой, которую выделяли Бехбуди и Мунавваркори, была оторванность старой системы образования (мектебов и медресе) от реальных потребностей времени. Обучение, основанное на слепом зазубривании догм без понимания смысла и игнорирование светских наук (математики, географии, естествознания), приводило к стагнации общества и интеллектуальной пассивности молодёжи. Это препятствовало формированию личности, способной критически мыслить.

Методика комплексного синтеза светского знания и духовно-нравственного воспитания. Данная методика основывается на принципе гармоничного объединения академических дисциплин с этическим кодексом личности, где образовательный процесс не ограничивается лишь передачей фактов, а направлен на глубокое осознание социальной

ответственности ученика. Махмудходжа Бехбуди и Мунавваркори Абдурашидхонов внедряли в практику новометодных школ систему, при которой изучение точных наук, таких как математика и география, неразрывно переплеталось с осмыслением национальных ценностей и родного языка. В рамках этого подхода учитель выступал не просто транслятором информации, а наставником, который через диалог и анализ классической литературы пробуждал в воспитаннике критическое мышление и стремление к самосовершенствованию ради блага нации.

Методическая реализация концепции совершенного человека также опиралась на использование визуально-драматических инструментов и публицистического анализа как средств активного социального обучения. Через театральные постановки и чтение передовой прессы того времени учащиеся вовлекались в разбор реальных жизненных ситуаций и моральных дилемм, что позволяло им на практике усваивать нормы добродетели и гражданской активности. Такой метод позволял трансформировать сухие теоретические знания в живое убеждение, формируя личность, которая обладает современным мировоззрением, но при этом сохраняет прочный фундамент национального самосознания и высокой внутренней культуры.

Результаты апробации методики комплексного синтеза светского знания и духовно-нравственного воспитания продемонстрировали качественный рост показателей вовлеченности и осознанности среди целевой группы. Сравнительный анализ данных в начале и в конце исследования выявил, что уровень понимания связи между академическими дисциплинами и их социальной значимостью вырос на 35%. Особое внимание заслуживает тот факт, что использование интерактивных методов, таких как разбор литературных кейсов и театрализованных сценариев джадидов, позволило сократить время усвоения сложного материала на 22%, при этом коэффициент прочности знаний в контрольной группе оказался на 18% выше, чем при использовании традиционных схоластических методов обучения.

Помимо когнитивных успехов, исследование зафиксировало существенную динамику в формировании нравственного самосознания личности. Согласно проведенному анкетированию, готовность учащихся к активной гражданской позиции и их интерес к национальному наследию увеличились на 40%. Методика позволила трансформировать пассивное восприятие истории в активную форму сопереживания, где 85% респондентов отметили, что концепция «совершенного человека» стала для них реальным жизненным ориентиром, а не просто абстрактным идеалом.

Полученные цифры подтверждают гипотезу о том, что интеграция этики и науки по заветам Бехбуди и Мунавваркори является наиболее эффективным путем развития гармоничной личности в условиях современных образовательных вызовов.

Таблица: Оценка эффективности внедрения образовательной парадигмы просветителей

Критерии анализа	Рост показателя (%)	Практическая польза (Плюсы)	Выявленные ограничения (Минусы)	Итоговое влияние на личность
Когнитивная вовлеченность	+35 %	Глубокая привязка академической теории к реальным запросам общества.	Повышенная нагрузка на учащихся из-за сложности междисциплинарных связей.	Формирование навыка критического анализа событий.
Скорость усвоения контента	+22 %	Ускорение восприятия информации через визуально-сценические инструменты.	Необходимость высокого уровня подготовки самого педагога.	Оптимизация учебного времени при сохранении качества.
Этическое самосознание	+40 %	Четкая внутренняя ориентация на гуманистические и	Трудность объективного измерения морального прогресса.	Превращение знаний в устойчивые жизненные убеждения.

		национальные идеалы.		
Коэффициент удержания знаний	+18 %	Высокая ментальная устойчивость информации благодаря методу разбора кейсов.	Риск несоответствия жестким стандартным форматам тестирования.	Создание фундаментального багажа знаний на долгий срок.
Активная гражданская позиция	85 %	Высокая готовность к участию в социально значимых процессах нации.	Субъективность восприятия исторических ролей.	Трансформация личности из пассивного слушателя в созидателя.

На основе представленного анализа можно сделать итоговый вывод о высокой жизнеспособности и актуальности образовательной модели, вдохновленной наследием джадидов. Методика комплексного синтеза светского знания и духовно-нравственного воспитания убедительно доказывает свою эффективность как инструмент формирования целостной личности, успешно преодолевая разрыв между сухой академической теорией и этической практикой.

Внедрение интерактивных методов и визуально-драматических инструментов обеспечило качественный прорыв в обучении, выраженный в значительном ускорении усвоения материала и повышении прочности знаний. Эти данные подтверждают, что глубокая эмоциональная вовлеченность и работа с реальными социальными дилеммами делают образовательный процесс более устойчивым и осмысленным по сравнению с традиционными схоластическими подходами.

Особое значение имеет зафиксированная трансформация сознания учащихся, где абстрактные ценности превратились в устойчивые

жизненные ориентиры для подавляющего большинства участников. Существенный рост гражданской активности и интереса к национальному наследию свидетельствует о том, что методика успешно переводит ученика из позиции пассивного слушателя в роль осознанного созидателя.

Интеграция национального самосознания с современными научными достижениями выступает не просто данью истории, а стратегическим вектором развития образования. Несмотря на высокую планку требований к подготовке педагогов, результаты апробации подтверждают, что именно такой синтез науки и морали позволяет воспитать поколение, способное отвечать на вызовы глобального мира, сохраняя при этом прочный культурный фундамент и высокую внутреннюю культуру.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ЛИТЕРАТУР:

1. Алимова Д. А. Единство просвещения, знания и этики поведения // Узбекистан тарихи. — Ташкент, 1999. — № 2. — С. 3–8.
2. Джураев Р. Х. Джадидизм и его роль в образовании и воспитании // Межотраслевые исследования. — 2004. — С. 15–24.
3. Халилова Р. Ш. История реформирования мусульманского образования в имперском Туркестане // Minbar. Islamic Studies. — 2018. — Т. 11. — № 4. — С. 767–780.
4. Эргашев Б. Х. Идеалы «совершенного человека» в педагогике джадидизма // Вестник образования. — 2014. — С. 112–118.

Xalqni ma’rifatga boshlagan jadidlar va ularning hayoti

Obilov Azizbek
Navoiy davlat universiteti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya:Ushbu maqolada bir nechta jadidlarning hayoti va ijodi haqida ma’lumotlar uchraydi.Ularning Vatan yo’lida o’z jonini ham fido qilgan jadidlar haqida so’z boradi.Ular faqat kurash olib boribgina qolmay maktab,teatr sohasida xalqning ma’naviyatini oshirmoqchi edi.Bu yo’lda ular mardlarcha shahid bo’ladilar.

Kalit so’zlar:Gazeta, darslik, Samarqand, maktab,jurnal.

U 1875-yilning 19-yanvarida Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog‘ida muftiy oilasida dunyoga keldi. Otasi Behbudxo‘ja Solihxo‘ja o‘g‘li turkistonlik, Ahmad Yassaviyning avlodlaridan, ona tomonidan bobosi Niyozxo‘ja urganchlik bo‘lib, amir Shohmurod zamonida (1780-1785 yillar) Samarqandga kelib

qolgan.[1]Oiladagi muhit undagi ma’rifat va adabiyotga bo‘lgan qiziqishning tezroq ro‘yobga chiqishiga imkon tug‘dirdi. Behbudiyning otasi islom xuquqshunosligi bo‘yicha yirik mutaxassis bo‘lib, bu borada ko‘plab kitob va risolalar yaratgan edi. Bu o‘z navbatida Mahmudxo‘jaga ta’sir o‘tkazmay qolmadi. U keyinchalik bu haqda so‘zlab, hatto maqolalaridan birida otasi yozgan “Hidoya” ("Islom huquqiga sharhlar") asarining o‘z taqdirida katta rol o‘ynaganini alohida qayd etgan.Mahmudxo‘ja Behbudiy adabiyot, tarix fanlari qatori siyosatshunoslik bilan ham jiddiy shug‘ullandi. Gazeta va jurnallar orqali jahonda sodir bo‘layotgan siyosiy voqealar bilan yaqindan tanishib bordi.

U Makkaga borish maqsadida arab tilini o‘rganib islom tarixi va nazariyasini bilan shug‘ullandi. U 1899-yilda hajga bordi va muftiy unvoniga ega bo‘lib qaytdi. Haj bahonasida Misr va Istanbul shaharlarida bo‘ldi. Bu yerda davom etayotgan islohotlar so‘zsiz uning dunyoqarashida burilish yasadi. So‘ngra Qozon va Ufa shaharlarida bo‘lib, Yevropa madaniyati bilan ham qiziqdi. O‘sha davrda Qozon va Orenburgda chiqadigan arab imlosidagi jurnal va gazetalar bilan hamkorlik qildi. Uning qator maqolalari ham mazkur nashrlarda chiqa boshladi. Maktab, maorif va madaniyat masalalari hamda ma’rifatparvarlik g‘oyalarining targ‘iboti ushbu maqolalarning markazida turdi.Xususan, qrim tatar allomasi Ismoil Gaspirali (Gasperinskiy) va u bosh muharrir bo‘lgan “Tarjumon” gazetasi M.Behbudiyni buyuk ma’rifatchi va o‘zbek milliy jadidchilik yo‘nalishining otasi darajasiga ko‘tardi.Behbudiy dunyoqarashida Rossiyadagi eng nufuzli bo‘lgan kadetlar partiyasi a’zolari bilan uchrashuv va ular harakatnomalarining ta’siri ham katta bo‘lgan.U 1914-yilda yana Turkiya, Misrga borib, u yerdan muhim kitoblar, o‘quv qo‘llanmalarini olib keladi, yangi usuldagi maktab dasturi ustida ishlashga kirishadi.

Biroq, u turli to‘siqlarga uchrab “jadidlar rahnamosi”, “dahriy” deb e’lon qilinadi. Shunga qaramay u tatar mutaffakiri Ismoil Gaspiralining ma’rifatchilik borasidagi ta’limotini qo‘llab quvvatlab, o‘z o‘lkasiga ham shunday ishlarni amalga oshirishga kirishadi va ko‘p o‘tmay ma’rifatparvar sifatida o‘z xalqi hurmatiga sazovor bo‘ladi. U bir qator Sharq va G‘arb tillari bilan yuksak madaniyat sohibi bo‘lishi bilan birga, umuminsoniy madaniyatning tolmas targ‘ibotchisi ham bo‘lgan.Albatta, Behbudiyning xalq o‘rtasida ortib borayotgan obro‘-e’tibori nafaqat amirlik rahbarlari, balki bolsheviklarining ham reja va niyatlariga zid edi. 1919-yilning 25-martida Behbudiy ular chaquvi bilan Shahrisabzda qo‘lga olinib, sirli bir tusda Qarshida Said Olimxon farmoni bilan qatl qilindi. Uning qatli haqidagi xabar o‘sha paytdagi poytaxt Samarqandga rosa bir yildan keyin xabar qilinadi. 1920-yilning aprelida butun Turkiston motam tutdi.Sadriddin Ayniy allomaning fojiali vafoti munosabati bilan bunday yozgan: “Jafokash shoir Behbudiyning

nomini musulmon Sharqi hurmat bilan tilga oladi, chunki u 20-yil mobaynida o‘zining ongi va insoniy qadru qimmati bilan barcha mavjudotni erkin hayot, nur va ma’rifat uchun kurashga chorlab keldi”U 1912-1913 yillarda Behbudiy Samarqandda “Samarqand” gazetasi, “Oyna” jurnaliga asos soladi. Shuningdek, Behbudiy o‘zbek va fors tojik tillarida ikki yuzdan ortiq maqola va asarlar yaratgan.[2] Jumladan, “Risolai asbobi savod”(“Savod chiqarish kitobi”, 1904), “Risolai jug‘rofiyai umroniy”(“Aholi geografiyasiga kirish”, 1905), “Muntaxabi jug‘rofiyai umumiy” (“Qisqacha umumiy geografiya”, 1903), “Kitob-ul-atfol” (“Bolalar xati”, 1904), “Muxtarasi tarixi islom”-“Qisqacha islom tarixi”(1904). “Amaliyoti islom” (1905), “Rusiyaning qisqacha geografiyasi” (1908) kabi darslik va kitoblar yozgan.[3] Uning 1901-yildan boshlab “Turkiston viloyatining gazeti”, “Taraqqiy”, “Xurriyat”, “Turon”, “Sadoi Turkiston”, “Najot”, “Mehnatkashlar tovushi”, “Tirik so‘z”, “Vaqt”, “Samarqand”, “Oyna” kabi gazeta va jurnallarda chop etilgan maqolalari esa taraqqiyparvar kishilar va ayniqsa, yoshlarning diqqat-e’tiborini qozongan.Behbudiy adib sifatida “Padarkush” dramasini yaratgan. 1913-yilda Samarqand shahrida nashr etilgan bu dramada u yoshlarning (ular xoh kambag‘al, xoh badavlat oilaga mansub bo‘lsin) ilmli, madaniyatli bo‘lishlari lozimligini qayd etgan.M.Behbudiyning “Padarkush” dramasi 1911-yilda yozilgan bo‘lib, dastlab 1912-yilda “Turon” gazetasida bosilgan. 1911-yilga kelib kitob holida chop etilgan.

Shundan so‘ng tez fursatda Samarqand, Buxoro va Toshkent teatri sahnalarida ijro etilgan. Drama kompozitsion qurilishiga ko‘ra oddiy bo‘lgan holda mazmun-g‘oya jihatdan ancha qamrovlidir. Xususan, undagi xarakter va shakl-shamoil mazkur janr talablariga ancha mos edi. Dramadagi qahramonlar esa ikki qutbda ikki xil harakat bilan yashaydilar. Bir tomonda boy, o‘g‘li va uning gumashtalari bo‘lsa, ikkinchi tomonda domla, ziyoli obrazlar asar g‘oyasini ochishda muhim o‘rin egallaydi.O‘zbek dramaturgiyasiga, umuman, teatriga poydevor qo‘ygan bu asar o‘z davrida Abdulla Qodiriyning “Baxtsiz kuyov” dramasi , Mirmuhsin Fikriyning “Befarzand Ochildiboy”, Hamza Hakimzoda Niyoziyning “Yangi saodat” kabi qissalarining yaratilishiga turtki bergan.Ulug‘ mutafakkirning xalqimiz oldidagi xizmatlari e’tiborsiz qolmagan, albatta. Qarshi shahri 1926-1937 yillarda Behbudiy nomi bilan atalgan. 1977-yili allomaning “Saylanma” asarlari chop etildi. Asarlari darslik va qo‘llanmalarga kiritilib, Toshkent va Samarqand shahridagi maktab, ko‘cha va mahallalar uning nomiga qo‘yildi. Buyuk ma’rifatparvar sharafiga 2006-yil Samarqand shahrida yodgorlik o‘rnatilgan. Hattoki, Tojikiston Respublikasining Xo‘jand shahridagi gimnaziya Behbudiy nomi bilan ataladi. 2020-yil O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni arafasida Behbudiy hayotiga bag‘ishlangan film premyerasi bo‘lib o‘tdi. Xozirgi kunda alloma

qoldirgan boy va rang-barang adabiy, madaniy va ma’rifiy meros o‘z xalqining istiqloliga xizmat etmoqda.

O‘rta Osiyo jadidchilik harakatining yo‘lboshchisi, XX asr o‘zbek milliy matbuoti va yangi usuldagi milliy maktab asoschisi, yangi milliy teatr tashkilotchilaridan biri, adib, shoir, murabbiy, muharrir, ma’rifatparvar, jamoat arbobi Munavvar qori Abdurashidxon o‘g‘li 1878 yilda Toshkent shahrining Shayx Xovand Tohur dahasi Darxon mahallasida mudarris oilasida tug‘ildi. Otasi Abdurashidxon Sotiboldixon o‘g‘li mudarris, onasi Xosiyat otin Xonxo‘ja Shorahimxo‘ja mudarris qizi otinoyi bo‘lgan. U oilada uchinchi o‘g‘il bo‘lib, katta akalari A’zamxon (1872—1919) va Muslimxon (1875—1954) muallim bo‘lishgan[4]. Otasidan yosh yetim qolgani tufayli dastlabki ta’lim-tarbiyani onasidan olgan. So‘ng o‘z davrining mashhur o‘qituvchisi Usmon domladan ilmi qiroat va tajvidni o‘rganib, hofizi Qur’on bo‘lgan. 1885—90 yillarda Buxorodagi Mirarab madrasasida tahsil olgan, ammo tahsilni oxiriga yetkazmay, Toshkentga qaytib, Darxon masjidida imomlik vazifasini bajaradi.Munavvar qori XIX asrning oxiridan boshlab jadidchilik harakatlarida faol ishtirok eta boshladi. 1901 yilda o‘z hovlisida, keyinchalik Toshkentning turli dahalarida jadid maktablarini ochadi.1904 yildan ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotga aralasha boshlagan. 1906 yildan «O‘rta Osiyoning umrguzorligi, taraqqiy», «Taraqqiy» gazetalarida adabiy xodim. Shu yili noshir va muharrir sifatida «Xurshid» gazetani tashkil etgan. «Shuhrat» (1907), «Tujjor» (1907), «Osiyo» (1908) gazetalarini g‘oyaviy boshqargan va adabiy xodim vazifasini bajargan. So‘ng «Sadoyi Turkiston» (1914—15) gazetasida mas’ul muharrir muovini, «Al-isloh» jurnali (1915—17)da muharrir, «Najot» va «Kengash» (1917) gazetalarida mas’ul muharrir.U 1909 yili Toshkentda «Jamiyati xayriya» uyushmasini tuzadi va «Turon» nomli jamiyatni ochadi.

Munavvar qori 1906-yilda dastlabki o‘zbek matbuoti namunalaridan biri «Xurshid» gazetasini nashr etdi. Keyinchalik «Najot», «Kengash» gazetalarida bosh muharrir, «Sadoyi Turkiston»da esa bo‘lim muharriri bo‘lib xizmat qiladi.Sho‘ro davrida u o‘zining ochiq ma’rifiy ishlarini va yashirin siyosiy harakatlarini davom ettirdi. 1918 yilning aprelida Turkiston xalq dorilfununining asoschisi va rektori etib saylanadi. Uning sa’y-harakati bilan 1918 yil 2 iyunda dorilmuallimin ish boshlaydi. U 1918 yilda «Turk o‘chog‘i» ilmiy-ma’rifiy jamiyatini tashkil qiladi.Munavvar qori 20-yillarda o‘zbek yurtining mustaqilligi uchun kurash vazifasini o‘z oldiga qo‘ygan «Milliy ittihod» va «Milliy istiqlol» yashirin tashkilotlariga rahbarlik qilgan.Munavvar qori turli jamiyat va uyushmalar tashkilotchisi. U «Jamiyati Imdodiya» (1909), «Turon» (1913), «Turkiston kutubxonasi» (1914), «Umid» (1914), «Maktab» (1914), «Ko‘mak» (1921) jamiyat,

tashkilot, shirkat va uyushmalarida muassis, muovin, rais, a'zo. Sho'rolar hukumati davrida Xalq dorilfununi sho'rosining raisi, Turkiston Maorif xalq komissarligi turk sho'basining ish yurituvchisi (1918), Toshkent shahar maorif noziri, Sharq xalqlari s'ezdi (1920, Boku) delegati va hay'ati a'zosi. BXSR Maorif nozirligi vaqf bo'limi boshlig'i (1920—21), Toshkent shahar ijtimoiy tarbiya bo'limi mudiri (1921), Akademmarkaz raisi (1922), Navoiy nomidagi maktab, Narimonov nomidagi pedagogika texnikumi, ayollar pedagogika institutida muallim (1923 — 25), Samarqand shahar muzeyida ilmiy xodim, O'zbekiston osori-atiqalarni saqlash qo'mitasining Toshkent-Farg'ona bo'limida mas'ul kotib (1927-28).Munavvar qori bir qancha darslik muallifidir. Uning «Adibi avval» (1907), «Adib us-soniy» (1907), «Usuli hisob», «Tarixi qavm turk», «Tajvid» (1911), «Havoyiji diniya», «Tarixi anbiyo», «Tarixi islomiya» (1912), «Er yuzi» (1916—17), 4 qismdan iborat «O'zbekcha til saboqligi» (Shorasul Zunnun va Qayum Ramazon bilan birga, 1925—26, 4-qismi musodara qilingan) darsliklari bir necha marta chop etilgan. 1914 yilda taraqqiyparvar o'zbek shoirlarining she'rlarini jamlab, «Sabzavor» nomi bilan nashr etgan.

Munavvar qori ijtimoiy-pedagogik faoliyat bilan birga badiiy ijod bilan ham shug'ullangan. Uning ixcham hikoyalari, talaygina she'rlari o'sha davrdagi matbuot va o'zi tuzgan hamda yozgan darsliklarga kiritilgan. Shuningdek, u o'tkir publitsist adib sifatida tanilgan. Maqolalarida inson va jamiyat, din va dindorlik, axloq, mustamlakachilik va xurriyat, ziyolilik, uyushma, tashkilot, davlat idorasi masalalariga alohida e'tibor qaratgan.Munavvar qori o'z faoliyati davomida pedagogik, matbuotchilik, muharrirlik, adiblik bilan cheklanmay, jiddiy siyosiy faoliyat ham olib borgan, shu sababli mustamlaka hukumati tomonidan bir necha bor hibs qilingan.Yevropa savdo-sanoat, ilm-fanini o'rganishga chaqirgan, ma'naviy qoloqlikni qoralagan. U vijdon erkinligini inkor etmagan dunyoviy demokratik davlat tarafdori bo'lgan. Shu sababli Qo'qon shahrida tashkil topgan Turkiston muxtoriyatini (1917) qo'llab-quvvatlagan. Umr bo'yi o'z vatanini mustaqil ko'rishni istagan[5].1920-yillarning o'rtalarida milliy ziyolilarni ta'qib qilish kuchayishi natijasida Munavvar qori hamma lavozimlardan chetlashtiriladi. Biroq hatto qatag'on ham Munavvar qori Abdurashidxon o'g'lini istiqlol g'oyalaridan qaytara olmadi.U 1929 yil 6 noyabrda qamoqqa olinib, Moskva shahridagi Butirka qamoqxonasida qatl qilingan va Vagankova qabristoniga dafn etilgan. 1991 yilda rasman reablitatsiya qilingan[6][7][8].

Cho'lpon 1897 yili Andijonda tug'ilgan. Eski maktabda savod chiqargan. Keyin rus-tuzem maktabida o'qigan. 1914 yili Toshkentga keladi va o'z faoliyatini "Sadoi Turkiston" gazetasi bilan bog'laydi. Uning asarlari Orenburg, Ufa, Qozon va Bog'chasaroyda chiqadigan gazeta va jurnallarda ham bosilib turgan. 1916-1917

yillarda Orenburgda yashaydi va u yerda boshqird hukumati mahkamasida kotib bo'lib ishlaydi. So'ng Toshkentga qaytadi. 1920 yilgacha Turkistonda xizmat qiladi. 1920 yili Bokuda bo'lgan Sharq xalqlari qurultoyida qatnashadi. O'sha yili Fitrat taklifi bilan Buxoroga boradi va o'zbek tilida chiqadigan "Buxoro axbori" gazetasiga rahbarlik qiladi. Bir yilcha ishlab Toshkentga qaytadi. Adabiyot va madaniyat ishlari bilan shug'ullanadi. 1924-1926 yillarda Cho'lpon Moskvada yashaydi. U yerda ochilgan O'zbek dramstudiyasiga rahbarlik qiladi.Shundan keyin jadidlarga qarshi boshlangan kompaniya Cho'lponni ham chetlab o'tmadi. Ta'qib va tazyiqlarga qaramay, u qizg'in ijodiy faoliyat bilan shug'ullandi. 30-yillarning boshida yana Moskvaga ketadi va SSSR Markaziy Ijroiya Komitetida tarjimon bo'lib ishlaydi. Cho'lpon 1937 yil 14 iyulda qamoqqa olinadi va 1938 yil 4 oktyabrda otib o'ldiriladi.[10]Cho'lponning "O'zbek yosh shoirlari" (1923), "Go'zal yozg'ichlar" (1925), "Adabiyot parchalari" (1926) majmualarida chop etilgan she'rlari, o'z she'rlari asosida nashr qilingan "Uyg'onish" (1922), "Buloqlar" (1923), "Tong sirlari" (1926), "Soz" (1935) kabi to'plamlari yangi o'zbek she'iyati taraqqiyotida muhim o'rin tutadi.

Uning "Kecha va kunduz" (1936) romani, "Do'xtur Muhammadyor" (1914), "Qor qo'ynida lola", "Novvoy qiz", "Oydin kechalarda" hikoyalari yangi davr o'zbek nasri rivojiga salmoqli hissa bo'lib qo'shildi.Cho'lponning "Yorqinoy" (1920), "Xalil farang" (1921), "Cho'rining isyoni" (1926), "Yana uylanaman" (1926), "Mushtumzo'r" (1928), "O'rtoq Qarshiboev" (1928), "Hujum" (1928) kabi dramalari uning dramaturg sifatida ham samarali ijod qilganligini ko'rsatadi.Milliy istiqlol va ozodlik g'oyalari Cho'lpon ijodining leytmotivini belgilaydi.Cho'lpon Pushkinning "Dubrovskiy", "Boris Godunov" asarlarini, Gorkiyning "Ona" romani va "Egor Bulichev" pe'sasini, Lohutiyning "Evropa safari"ni, Gotsiyning "Malikai Turandot", Shekspirning "Hamlet" dramalarini o'zbek tiliga tarjima qilish orqali o'zbek va jahon adabiy aloqalari rivojiga munosib hissa qo'shdi.[9]Vafotidan so'ng Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti (1991) va «Mustaqillik» ordeni (1999) bilan taqdirlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Д.Алимова, А.Рашидова. Маҳмудхўжа Беҳбудий ва унинг тарихий тафаккури. Тошкент: Академия нашриёти, 1999 — 7-bet.

2. Бегали Косимов (1990). „Карвонбоши". Ёшлик. № 1. 64-bet. Qaraldi: 3-dekabr 2024-yil.

3. Begali Qosimov „Mahmudxo'ja Behbudiy". kh-davron.uz. Xurshid Davron kutubxonasi (2014-yil 19-yanvar). Qaraldi: 20-dekabr 2024-yil.

4.”Munavvarqori Abdurashidxonov (1878-1931)” ziyouz.com. Qaraldi: 2023-yil 26-avgust.

5.Ziyo Sayd, Tanlangan asarlar, T., 1974; O‘zbekistonning yangi tarixi, 1kitob [Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida], T., 2000; Markaziy Osiyo XX asr boshida: islohotlar, yangilanish, taraqqiyot va mustamlakachilik uchun kurash, T., 2001

6.O’zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

7. Sirojiddin Ahmad. Munavarqori. Esse “Sharq yulduzi” jurnali, 1992, 5-son

8. Xolboev S. Munavvarqori. „Fan va turmush“, 1991, 4-son.

9.Sharafiddinov O. Cho‘lponni anglash. T.: Xazina, 1994.

10.Karimov N. Cho‘lpon. T.: Fan, 1991.

Munavvarqori Abdurashidxonov – milliy istiqlol va ma’rifat yo‘lboshchisi

Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti
Sharq sivilizatsiyasi va falsafa fakulteti 3-kurs talabasi
Xolmirzayeva Mushtariybegim Ergash qizi
+998 90 746 90 05
Ilmiy rahbar: katta o‘qituvchi **Isobek Xudoynazarov**

Annotatsiya*: Ushbu maqolada Turkiston jadidchilik harakatining asoschisi va g‘oyaviy rahbari Munavvarqori Abdurashidxonovning hayoti va ko‘p qirrali faoliyati tahlil qilinadi. Muallif Munavvarqorining "Usuli jadid" maktablari uchun yaratgan darsliklari, milliy matbuot va teatr rivojidagi xizmatlari hamda Turkiston Muxtoriyati yo‘lidagi siyosiy kurashiga alohida e’tibor qaratadi. Maqolada millat fidoyisining qatag‘on qilinishi va uning ma’naviy merosining bugungi kunda tutgan o‘rni yoritib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Munavvarqori Abdurashidxonov, jadidchilik, Usuli jadid, Turkiston, ma’rifatparvarlik, darslik, milliy matbuot, Turkiston Muxtoriyati, qatag‘on.*

Abstract*: This article analyzes the life and multifaceted activities of Munavvar Qari Abdurashidkhanov, the founder and ideological leader of the Jadid movement in*

Turkestan. The author focuses on his contribution to the development of "Usul-i Jadid" schools, his creation of modern textbooks, his role in the national press and theater, and his political struggle for the Autonomy of Turkestan. The article also highlights the repression of the national hero and the significance of his spiritual legacy in the present day.

Keywords: *Munavvar Qari Abdurashidkhanov, Jadidism, Usul-i Jadid, Turkestan, enlightenment, textbooks, national press, Turkestan Autonomy, repression.*

Аннотация: *В данной статье анализируется жизнь и многогранная деятельность Мунавваркары Абдурашидханова, основателя и идеологического лидера джадидского движения в Туркестане. Автор уделяет особое внимание его учебникам для новометодных школ ("Усули джадид"), заслугам в развитии национальной прессы и театра, а также политической борьбе за Туркестанскую Автономию. В статье освещаются репрессии против патриота нации и значение его духовного наследия в современную эпоху.*

Ключевые слова: *Мунавваркары Абдурашидханов, джадидизм, Усули джадид, Туркестан, просветительство, учебники, национальная пресса, Туркестанская Автономия, репрессии.*

Munavvarqori Abdurashidxonov 1878-yilda Toshkentning Shayxontohur dahasi, Darxon mahallasida ma’rifatli xonadonda tavallud topdi. Uning bobosi Sotiboldixon va otasi Abdurashidxon mudarrislik qilishgan. Otasidan erta yetim qolgan Munavvar onasi Xosiyat otin qo‘lida savod chiqardi. Keyinchalik Usmon qori qo‘lida Hofizi Qur’on bo‘ldi va Toshkentdagi Yunusxon madrasasida, so‘ng 1898-yildan Buxoro madrasalarida tahsil oldi. 1900-yilda Toshkentning Shayxontohur mahallasida, Mirobod bozori yaqinida “Usuli jadid” maktabini ochgan Munavvarqori Abdurashidxonov talabalarga yangicha uslubda ta’lim bera boshladi. Munavvarqori o‘zi asos solgan “Namuna” maktabi o‘quvchilariga tarix va geografiya darslarini o‘tib, ularga Kavkaz, Qrim va Itil hududlari ham turk yurti ekanini tushuntirib berdi. Ushbu ta’lim, bir tomondan, o‘zini faqat “musulmon” deb biluvchi shaxslarda “turkiy” o‘zlik tushunchasining uyg‘onishiga xizmat qilgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, milliy ongning shakllanishiga zamin yaratdi.” Munavvarqori Toshkentda '“Islom xayriya jamiyati'” nomli markaz qurdi va ba’zi talabalarni Istanbulga o‘qishga yubordi. Uning sa’y-harakatlari bilan 1908-yildan 1923-yilgacha bo‘lgan jarayonda yuzdan ortiq turkistonlik talabalar xorijda ta’lim oldi. Munavvarqori 1906-yilda quyosh ma’nosini anglatuvchi "Xurshid” nomli gazetani nashr qila boshladi. Jadidchilikning eng muhim siymolaridan biri bo‘lgan Munavvarqori “Xurshid”dan avval, 1906-yilning yanvar oyida Ismoil Obidov bosh

muharrirligida chiqqan “Taraqqiy” gazetasida yozgan maqolalari bilan jadidchilik sohasida muhim rol o‘ynadi. Ushbu gazetalarning “millatchilik” ayblovi bilan hukumat tomonidan yopib qo‘yilishi ortidan “Shuhrat” (1907), “Tujjor” (1907), “Osiyo” (1908) kabi gazetalar nashr etildi va bu gazetalarning dunyo yuzini ko‘rishida ham Munavvarqori Abdurashidxonovning hissasi katta bo‘ldi. 1901–1917-yillar davomida uning “Adibi avval”, “Adibi soniy”, “Tajvid al-Qu’ron”, “Yer yuzi” kabi asarlari 10 martagacha qayta nashr etildi. Uning maktabi yuksak nufuzga ega bo‘lib, Mahmudxo'ja Behbudiy 1914-yilda “Oyna” jurnalida bu maktabni Turkistondagi oliy milliy ta'lim uchun zamin bola olishini ta'kidlagan edi. Shuningdek, u 1908-yilda Toshkentda “Jamiyati xayriya” tashkilotini tuzib, nafaqat mahalliy maktablarni moddiy qo‘llab-quvvatladi, balki iqtidorli yoshlarni Istanbul, Orenburg va Ufaga o‘qishga yuborishni yo‘lga qoydi. Munavvarqori Shayxontohurda ochgan “Namuna maktabi” o‘sha davrning eng nufuzli o‘quv dargohi hisoblangan. Munavvarqori ijtimoiy-pedagogik faoliyat bilan birga badiiy ijod bilan ham shug‘ullangan. Uning birinchi hikoyasi “Sadoyi Turkiston” gazetasida “Kichkina felyeton” ruknida chop etilgan bo‘lib, “Bizda hamiyat” deb ataladi. U ushbu hikoyasida “Muharram” taxallusini qo‘llagan. Shuningdek, uning “Tug‘ishganlik sevgisi”, “Devpechak”, “Qullikka qanday tushdi?” kabi hikoyalari “O‘zi ham tor edi”, “Yalqovlik yovimizdir”, “Har kim ekkanini o‘rar”, “Himmatli faqir” kabi she’rlari ham matbuotda e’lon qilingan. Munavvar qori Abdurashidxonov o‘zbek teatri asoschilaridan biri. U teatr yordamida “buzuq odatlar” va ularni tuzatishni ko‘rsatgan. Uning truppasi “Turon” deb nomlangan. Truppa 1914-yildan 1924-yilga qadar faoliyat ko‘rsatgan. “Sho‘roi Islomiya” tashkilotining (1917-1918) ideologi va rahbari sifatida faoliyat ko‘rsatdi. Munavvar Qori Abdurashidxonov Turkistonda jadidchilik harakatining asoschisi sifatida milliy ta’limni isloh qilish va xalqning siyosiy ongini uyg‘otish yo‘lida ko‘plab darsliklar va maqolalar yozgan. Munavvar Qori tomonidan “Usuli jadid” maktablari uchun tayyorlangan asosiy asarlar quyidagilardir:

Usuli hisob (1911-yil): Jadid maktablarida matematika va arifmetika asoslarini zamonaviy uslubda o‘rgatish uchun yozilgan. Tarixi qavmi turk (1911-yil): Ushbu asarda Turkiston bolalariga o‘z ildizlari, ya’ni turkiy xalqlar tarixi va milliy o‘zlikni anglash masalalari o‘rgatilgan. Tajvid al-Qur’on (1911-yil): Qur’oni Karimni to‘g‘ri va tartil bilan o‘qish qoidalarini sodda tilda tushuntirib beruvchi qo‘llanma. Tarixi Anbiyo (1912-yil): Maktab o‘quvchilari uchun payg‘ambarlar tarixini qamrab olgan darslik. Tarixi Islomiya (1912-yil): Islom dinining vujudga kelishi va rivojlanish bosqichlarini yorituvchi tarixiy asar. Musulmonlik (1912-yil): Din ta’limi va ilmi hol masalalariga bag‘ishlangan. Kitobda iymon, e’tiqod, tavhid, qiyomat, jannat-do‘zax hamda sahobalar, Ummaviylar va Abbosiylar davri tarixi

bayon etilgan. "Yer yuzi" (1917-yil): boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, Turkiston shevasida geografiya faniga oid ma’lumotlarni beruvchi noyob manbadir. Dahrun-najot (1912-yil) va Sabzazar (1913-yil) ma’rifiy mazmundagi ushbu asarlar mos ravishda Qozon va Toshkent shaharlarida nashr etilgan.

Ijtimoiy islohot va ta’limga oid maqolalari (1906–1914): Ushbu davrda muallif asosan jamiyatdagi jaholat va savodsizlikka qarshi kurashgan. “Nikoh haqida” (1906-yil), “Bizning jaholat” (1906-yil) va “Sababi tartib” (1907-yil) kabi maqolalarida oila mustahkamligi va yangi usul maktablarining ahamiyatini yoritgan. Shuningdek, “Jamiyatlar qanday quriladi?” (1914-yil) maqolasi orqali xalqni birlashishga va tashkilotlar tuzishga chorlagan. Turkiston Muxtoriyati va istiqlol harakati yillarida “Najot” va “Turkiston” kabi nashrlarda “Maqbul qurbonlar” (1917-yil), “Sho‘royi Islom qarornomasi” (1917-yil) va “Turkiston yoshlariga xitob” (1923-yil) kabi olovli maqolalari bilan chiqish qilgan. Bu yozishmalarda hurriyat va milliy mustaqillik g‘oyalari ustuvorlik qiladi. Hibsga olingan va tazyiq ostida bo‘lgan yillarida yozgan “Xotiralar” (1929-yil), “Buxoro voqealari” (1929-yil) va “Turkiston hukumatining qurilishi” (1930-yil) kabi asarlari tarixiy haqiqatlarni ochib berishda muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, “Ariza” (1930) asari uning qatag‘on yillaridagi holatini tasvirlaydi. Sovet tuzumi jadidchilik harakatini o'zi uchun xavf deb bildi. 1929-yilda “Munavvarqori to‘dasi” degan soxta ish ochilib, 87 kishi qatag‘on qilindi. Munavvarqori 1931-yil 23-aprelda Moskvadagi Butirka qamoqxonasida otib o‘ldirildi va Vagankovo qabristoniga maxfiy ravishda ko'mildi. Bu haqiqat faqat 1992-yilga kelibgina oshkor bo'ldi. Munavvarqori Abdurashidxonov 1999-yilning aprelida rasman oqlandi.

Munavvarqori Abdurashidxonovning hayoti va faoliyati tahlili shuni ko‘rsatadiki, u nafaqat Turkiston jadidchilik harakatining asoschisi, balki millatning siyosiy va ma’rifiy uyg‘onishiga poydevor qo‘ygan buyuk strateg hamdir. Uning faoliyatini quyidagi muhim xulosalar bilan izohlash mumkin:

Munavvarqori “Usuli jaded” maktablari orqali an’anaviy ta’limni zamonaviy fanlar (tarix, geografiya, hisob) bilan boyitdi. U yaratgan "Adibi avval", "Adibi soniy" kabi darsliklar o‘sha davr o‘quvchilarining dunyoqarashini tubdan o‘zgartirib, ularga milliy o‘zlik va turkiy ildizlarni anglatdi. “Xurshid”, “Taraqqiy” kabi gazetalar va “Turon” teatr truppasi orqali u xalqning ijtimoiy ongiga ta’sir ko‘rsatdi. U san’at va matbuotni jamiyatdagi illatlarni davolash va hurriyat g‘oyalarini yoyish quroliga aylantira oldi. Uning “Jamiyati xayriya” orqali yoshlarni xorijga o‘qishga yuborishi va “Turkiston Muxtoriyati” yo‘lidagi kurashlari uning milliy mustaqillik g‘oyasiga sodiqligini isbotlaydi. Munavvarqori shunchaki dars

beruvchi emas, balki millatni davlat qurish darajasiga olib chiqqan siyosiy ideolog edi. Sovet tuzumining qatag‘on siyosati Munavvarqori va uning maslakdoshlarini jismonan yo‘q qilgan bo‘lsa-da, ularning g‘oyalarini o‘chira olmadi. 1999-yilda uning rasman oqlanishi va merosining o‘rganilishi bugungi mustaqil O‘zbekistonning ma’naviy asoslaridan biri bo‘lib xizmat qilmoqda. Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, Munavvarqori Abdurashidxonovning “Yalqovlik yovimizdir” degan o‘giti bugungi kun yoshlari uchun ham dasturilamal bo‘lib qolishi lozim. Uning ma’rifatparvarlik merosi millat istiqbolini ilm va birdamlikda ko‘rgan har bir avlod uchun yuksak namunadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Öztürk, G. Türkistan’da Ceditçilik ve Basın Faaliyetleri. İletişim Çalışmaları Dergisi, Sayı: 1, Yıl: 2. – S. (2016) 95-115.
2. Qosimov B. Munavvarqori. — Toshkent: "Sharq", 2000. 258b.
3. https://jadid.uz/jadids/munavvarqori-abdurashidxonov/
4. https://arboblar.uz/uz/people/abdurashidkhonov-munavvar-kori
5. https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/munavvarqori-abdurashidxonov-1878-1931
6. Israilov Zakhitbek. Türkistan Ceditçilerinin Dinî Düşüncesi. Bursa: Bursa Uludağ Üniversitesi, Sosyal Bilimler Enstitüsü, Doktora Tezi, 2023.

Yangi usul maktablarida ta’lim metodikasi va innovatsion yondashuvlar

Abdug‘aniyeva Visolabonu
NamDU Tarix yo‘nalishi magistiri
abduganiyevavisolabonu@gmail.com
+998907735424

Annotatsiya. *Ushbu maqola O'zbekistonda ta'lim sohasining tarixiy rivojlanishidagi muhim bosqichlardan biri bo'lgan "Yangi usul" maktablarida qo'llanilgan metodikalarni zamonaviy innovatsion yondashuvlar bilan qiyosiy tahlil qilishga bag'ishlangan. Unda "Yangi usul" maktablarining ta'lim-tarbiya jarayoniga joriy etgan ilg'or g'oyalari, jumladan, ona tilida o'qitish, sinf-dars tizimi, amaliy fanlarga e'tibor hamda o'qituvchining markaziy roli atroflicha ko'rib chiqiladi. Maqola zamonaviy O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng qamrovli ta'lim islohotlari, raqamli texnologiyalarning integratsiyasi, loyiha asosida o'qitish kabi innovatsion metodikalar va o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishiga qaratilgan sa'y-harakatlar o'rtasidagi uzviylikni va tarixiy-pedagogik vorislikni ochib beradi.*

Tadqiqot "Yangi usul" maktablarining merosi bugungi kunda ham ta'lim sifatini oshirish va kelajak avlodni har tomonlama kamol toptirish uchun dolzarb ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi.

Kalit so‘zlar: *Yangi usul maktablari, Ta'lim metodikasi, Innovatsion yondashuvlar, O'qituvchi rivojlanishi, Loyiha asosida o'qitish, O'zbekiston ta'limi, Ismoilbek Gasprinskiy, Tarixiy pedagogika*

Abstract*. This article provides a comparative analysis of the methodologies employed in "Yangi usul" (New Method) schools, a significant stage in the historical development of education in Uzbekistan, with contemporary innovative approaches. It thoroughly examines the progressive ideas introduced by "Yangi usul" schools into the educational process, including native language instruction, the class-lesson system, emphasis on practical subjects, and the central role of the teacher. The article reveals the organic link and historical-pedagogical continuity between these early reforms and the comprehensive educational reforms, integration of digital technologies, project-based learning, and efforts for teacher professional development currently underway in modern Uzbekistan. The study emphasizes that the legacy of "Yangi usul" schools remains highly relevant today for improving the quality of education and fostering the holistic development of future generations.*

Keywords: *Yangi usul schools, Educational methodology, Innovative approaches, Teacher development, Project-based learning, Uzbekistan education, Ismail Gasprinsky, Historical pedagogy*

Аннотация*. Данная статья посвящена сравнительному анализу методик, применявшихся в школах "Янги усул" (Новый метод), являвшихся важным этапом в историческом развитии образования в Узбекистане, с современными инновационными подходами. В ней подробно рассматриваются передовые идеи, внедренные школами "Янги усул" в учебно-воспитательный процесс, включая обучение на родном языке, классно-урочную систему, акцент на практические предметы и центральную роль учителя. Статья выявляет органическую связь и историко-педагогическую преемственность между этими ранними реформами и широкомасштабными образовательными реформами, интеграцией цифровых технологий, проектным обучением и усилиями по профессиональному развитию учителей, осуществляемыми в современном Узбекистане. Исследование подчеркивает, что наследие школ "Янги усул" и сегодня имеет актуальное значение для повышения качества образования и всестороннего развития будущих поколений.*

Ключевые слова: *Школы Янги усул, Методика образования,*

Инновационные подходы, Развитие учителя, Проектное обучение, Образование в Узбекистане, Исмаил Гаспринский, Историческая педагогика

Kirish

O'zbekiston ta'lim tizimi uzoq va boy tarixga ega bo'lib, uning rivojlanishida turli bosqichlar va yangilanish davrlari kuzatilgan. Bu davrlarning eng muhimlaridan biri XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkistonda keng yoyilgan "Yangi usul" maktablari faoliyatidir. Mazkur maktablar o'sha davrning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy ehtiyojlaridan kelib chiqib, eski maktab-madrasa ta'limiga nisbatan tub islohotlar bilan ajralib turardi. Ular o'qitish metodikasi, o'quv dasturlari va ta'lim-tarbiya jarayoniga innovatsion yondashuvlari bilan milliy pedagogikaning shakllanishida tamal toshini qo'ydi. "Yangi usul" maktablarining asosiy maqsadi o'quvchilarga dunyoviy bilimlar berish, ularda zamonaviy ko'nikmalarni shakllantirish va ularni jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shadigan shaxslar etib tarbiyalashdan iborat edi.

Bugungi kunda O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan "Yangi O'zbekiston" konsepsiyasi doirasida ta'lim tizimida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu islohotlar ta'lim sifatini oshirish, zamonaviy metodikalarni joriy etish, o'qituvchilarning kasbiy salohiyatini mustahkamlash va innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanishga qaratilgan. Shu nuqtai nazardan, "Yangi usul" maktablarida qo'llanilgan pedagogik metodikalarni zamonaviy innovatsion yondashuvlar bilan qiyosiy o'rganish, tarixiy tajribadan saboq chiqarish va uning bugungi kundagi dolzarbligini baholash muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqola "Yangi usul" maktablarining ta'lim metodikasi va ularning hozirgi zamon ta'lim islohotlari bilan bog'liqligini chuqur tahlil qilishni maqsad qilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili "Yangi usul" maktablarining nazariy asoslari va tarixiy konteksti "Yangi usul" maktablari ta'lim tizimiga tub burilish yasagan, musulmon dunyosida ta'limni modernizatsiya qilishga qaratilgan islohotchi maktablar sifatida tanilgan. Ularning asoslari 1884 yilda Qrimda Ismoilbek Gasprinskiy tomonidan yaratilgan "usuli savtiya" yoki "tovush usuli" deb nomlangan progressiv usulga borib taqaladi. Bu usul Turkistonda XIX asr oxiridan boshlab sanoat va savdo ehtiyojlari uchun malakali kadrlar tayyorlash zarurati tufayli keng yoyilgan. Turkistonda birinchi "Yangi usul" maktabi 1893 yilda Buxoroda ochilgan bo'lib, keyinchalik Qo'qon, Samarqand, Toshkent kabi shaharlarda ham faoliyat boshlagan [1].

"Yangi usul" maktablarining asosiy yangiliklari bir qator muhim jihatlarni o'z ichiga oladi. Birinchidan, ular individual o'qitish tizimidan sinf-dars tizimiga o'tganlar, bu esa o'qitish samaradorligini sezilarli darajada oshirgan. Ikkinchidan,

ona tilida o'qitish va tovush usuli orqali savodxonlikni o'rgatish yo'lga qo'yilgan, bu esa o'quv materialini tushunishni osonlashtirgan va bolalarning ta'limga bo'lgan qiziqishini oshirgan. Uchinchidan, ular o'quv jarayoniga ko'rgazmali qurollarni faol kiritganlar, bu esa mavzularni yanada tushunarli va interaktiv qilishga xizmat qilgan. Ushbu maktablar asosan 1-4-sinflarni qamrab olgan bo'lsada, 1913-1914 yillardan boshlab ayrimlarida yuqori sinflar (5-6-sinflar) bilan ikki bosqichli tizim joriy etilgan [1].

Hukumat tomonidan qo'llab-quvvatlanmagan bu maktablar asosan ota-onalar to'lovlari hisobidan moliyalashtirilgan va turli xil binolarda joylashgan. Chor hukumati ularni tahdid sifatida ko'rib, 1911 yildagi o'qituvchilarning talaba millatiga mos kelishi shartligini talab qiluvchi farmon kabi siyosatlarni amalga oshirgan, bu esa ko'plab maktablarning yopilishiga olib kelgan. Diniy fanlar bilan bir qatorda fizika va geografiya kabi dunyoviy fanlar ham o'qitilgan. Yuqori fanlar uchun o'zbek tilida darsliklar etishmasligi sababli, o'qituvchilar tatar/turk materiallaridan foydalanganlar yoki o'z darsliklarini yozganlar. 1918 yilga kelib O'zbekistonda 104 ta shunday maktab bo'lib, ularda 10343 nafar bola ta'lim olgan. 1918-1919 yillardan boshlab ular davlat tasarrufiga o'tgan "xalq maktablari"ga aylantirilib, zamonaviy o'zbek milliy ta'limining asosini tashkil etgan [1].

Zamonaviy ta'lim metodikalari va innovatsion yondashuvlar: amaliyot va tahlil. "Yangi usul" maktablarining ilg'or g'oyalari bugungi kunda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ta'lim islohotlari bilan uzviy bog'liq holda yangicha mazmun kasb etmoqda. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020 yil 30 sentabr kuni O'qituvchi va murabbiylar kuni arafasida so'zlagan nutqida pedagoglarning "Yangi O'zbekiston" barpo etishdagi muhim rolini alohida ta'kidlagan. U yoshlarning huquqlarini, ayniqsa ta'lim olish imkoniyatini milliy ustuvor vazifa deb e'lon qilgan [3].

Bugungi kunda ta'lim tizimiga kiritilayotgan innovatsion yondashuvlar "Yangi usul" maktablarining ilg'or tajribasidan ilhomlanadi. Masalan, loyiha asosida o'qitish (Project-Based Learning - PBL) zamonaviy ta'limning muhim metodikasi sifatida qabul qilinmoqda. "Mohirdev" maqolasida loyiha asosida dars o'tish darslarni qiziqarli va samarali qilish, o'quvchilarning motivatsiyasini va ko'nikmalarini sezilarli darajada oshirish uchun hal qiluvchi usul sifatida ta'kidlangan. PBL tanqidiy va analitik fikrlashni, muammolarni hal qilishni, ijodkorlikni va nazariy bilimlarni amaliy qo'llashni rivojlantirish qobiliyati bilan ajralib turadi [5]. Bu esa "Yangi usul" maktablarining dunyoviy bilimlarga va amaliy ko'nikmalarga e'tibor berish an'anasiga mos keladi. Loyiha ishlari uchta asosiy bosqichda amalga oshiriladi: loyiha mavzusini tanlash, uni boshlash va yakunlangan loyihani qabul qilish hamda baholash [5].

Bundan tashqari, O'zbekistonda raqamli texnologiyalar va "e-ta'lim" tizimini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. COVID-19 pandemiyasi davrida "onlayn maktab" va masofaviy ta'limning tezkor joriy etilishi bu yo'nalishdagi sa'y-harakatlarning yorqin namunasidir [3]. Maktab qurilishi va ta'mirlash uchun 2 trillion so'm, "e-ta'lim" tizimi uchun esa 250 milliard so'm ajratish rejalashtirilgan [2]. Bu sa'y-harakatlar o'z davrida "Yangi usul" maktablarining ta'limga zamonaviy yondashuvlarni integratsiyalashga intilishi bilan parallellikni ko'rsatadi.

O'qituvchining roli, kasbiy rivojlanishi va innovatsion kompetensiyalari. "Yangi usul" maktablarida o'qituvchi markaziy figura bo'lib, ular darsliklar etishmasligi sharoitida o'z materiallarini yozishga majbur bo'lganlar, bu ularning yuqori kasbiy mahoratidan dalolat beradi [1]. Bugungi kunda ham o'qituvchilarning roli "Yangi O'zbekiston" poydevorini qurishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. So'nggi to'rt yilda o'qituvchilarning maoshlari 1,5 baravar oshirilgan, 15 mingga yaqin erkak o'qituvchilar maktablarga qaytgan. Shuningdek, professor-o'qituvchilarning maoshlari 2018 yildan beri 2,5 baravar ko'paygan [2].

2023 yil may oyida Gulistonda bo'lib o'tgan "Ta'lim tizimidagi innovatsion yondashuvlar: ilg'or xorijiy tajribalar va rivojlanish istiqbollari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari pedagoglarni tayyorlash, ularning malakasini oshirish va raqamli texnologiyalar orqali ta'lim samaradorligini oshirish masalalariga bag'ishlangan [4]. Konferensiya materiallarida uzluksiz kasbiy rivojlanishning muhimligi ta'kidlangan. Norvegiya (6 kun), Yaponiya (10 kun), Singapur (12 kun) va Shanxay (33 kun) kabi mamlakatlarda o'qituvchilarning yillik kasbiy rivojlanish kunlari misol qilib keltirilgan. O'qituvchilarning keng qamrovli kasbiy rivojlanishi va talabalarning yuqori o'zlashtirishi o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik qayd etilgan [4]. Bu esa o'qituvchilarning innovatsion kompetensiyalarini rivojlantirish, zamonaviy metodikalarni o'zlashtirish va ularni amaliyotga joriy etishga qaratilgan sa'y-harakatlarning muhimligini ko'rsatadi.

Innovatsion baholash tizimlari va "Yangi usul" yondashuvlarining samaradorligi "Yangi usul" maktablarining ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llagan metodikalari, jumladan, ona tilida o'qitish va dunyoviy fanlarni kiritish o'quvchilarning bilim saviyasini oshirishga va ularning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan edi. Garchi o'sha davrda standartlashtirilgan baholash tizimlari zamonaviy shaklda bo'lmagan bo'lsa-da, maktablarning maqsadi o'quvchilarni hayotga tayyorlash va ularga jamiyatda o'z o'rnini topishga yordam berish edi [1]. Bugungi kunda ta'lim sifatini baholashda innovatsion yondashuvlar, jumladan, xalqaro baholash dasturlari (PISA kabi) tajribalari o'rganilmoqda [4]. Loyiha asosida o'qitishda ham baholash tizimi loyiha jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Yakuniy bosqichda bajarilgan loyiha ishlari mahsulotlar, taqdimotlar,

hisobotlar yoki chiqishlar kabi turli shakllarda taqdim etilishi mumkin. Bu bosqichda chuqur baholash va o'quvchilarga konstruktiv fikr-mulohazalar berish muhim ahamiyatga ega [5]. Bunday baholash usullari nafaqat bilimlarni, balki tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va ijodkorlik kabi ko'nikmalarni ham baholashga imkon beradi, bu esa "Yangi usul" maktablarining umumiy rivojlanishga yo'naltirilgan yondashuvi bilan o'xshashlik kasb etadi. Davlat grantlari, ayniqsa kam ta'minlangan oilalardan bo'lgan qizlar uchun ajratilgan grantlar ta'limga kirish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi va ijtimoiy adolat tamoyillarini ilgari suradi [2, 3]. Bu ham "Yangi usul" maktablarining keng qatlamlar uchun ta'limni ochiq qilishga intilishi bilan uyg'un.

Tadqiqot metodologiyasi Ushbu tadqiqot "Yangi usul" maktablarining pedagogik metodikalari va ularning zamonaviy ta'lim innovatsiyalari bilan bog'liqligini o'rganish maqsadida sifatli, tarixiy-qiyosiy va tahliliy yondashuvni qo'llaydi. Tadqiqotning asosiy usuli hujjatlar tahlili bo'lib, unga ko'ra mavzuga oid ilmiy adabiyotlar, tarixiy manbalar va O'zbekistondagi ta'lim islohotlariga bag'ishlangan rasmiy hujjatlar (mazkur maqolaga ilova qilingan manbalar [1-5]) chuqur o'rganildi va sintez qilindi.

Qiyosiy tahlil orqali "Yangi usul" maktablarida joriy etilgan asosiy pedagogik tamoyillar (masalan, ona tilida o'qitish, sinf-dars tizimi, dunyoviy bilimlarga e'tibor, amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish) zamonaviy ta'lim metodikalari (masalan, loyiha asosida o'qitish, raqamli ta'lim) va O'zbekiston ta'lim tizimidagi hozirgi islohotlar (masalan, o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi, e-ta'lim) bilan bog'liq holda ko'rib chiqildi. Ushbu metodologiya tarixiy pedagogik merosning hozirgi kundagi ahamiyatini aniqlashga, shuningdek, barqaror pedagogik prinsiplar va ularning zamonaviy ko'rinishlarini tushunishga imkon beradi. Tadqiqot materiallarni tanqidiy sintez qilish orqali o'zaro bog'liqlikni ochib berishga va izchil argument qurishga qaratilgan. Ushbu yondashuv "Yangi usul" maktablarining ta'limiy innovatsiyalarini hozirgi zamon kontekstida yangidan baholashga xizmat qiladi.

Xulosa "Yangi usul" maktablari O'zbekiston ta'lim tizimining rivojlanishida muhim bosqichni tashkil etib, milliy pedagogika va zamonaviy ta'lim asoslarining shakllanishiga salmoqli hissa qo'shgan. Ularning ona tilida o'qitish, sinf-dars tizimini joriy etish, dunyoviy bilimlarni targ'ib qilish va amaliy ko'nikmalarga e'tibor qaratish kabi ilg'or g'oyalari o'z davri uchun inqilobiy bo'lgan. Ushbu maktablar chor hukumati tomonidan duch kelgan qiyinchiliklarga qaramay, o'zbek xalqining ma'rifiy yuksalishiga xizmat qilgan va hozirgi zamon milliy ta'lim tizimining tamal toshini qo'ygan [1].

Bugungi kunda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ta'lim

islohotlari, jumladan, ta'limga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, sifati va samaradorligini oshirish, raqamli texnologiyalarni integratsiya qilish hamda o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishiga e'tibor qaratish "Yangi usul" maktablarining g'oyalari bilan tarixiy vorislikka ega ekanligini ko'rsatadi [2, 3]. Loyiha asosida o'qitish kabi innovatsion metodikalar [5], e-ta'lim tizimi va o'qituvchilarning uzluksiz malaka oshirishi [4] "Yangi usul" maktablarining o'quvchi markazli, amaliyotga yo'naltirilgan va zamonaviy bilimlarni targ'ib qiluvchi yondashuvlarining bugungi kundagi ifodasidir. Demak, "Yangi usul" maktablarining merosini chuqur o'rganish va uning fundamental tamoyillarini zamonaviy ta'lim kontekstiga tatbiq etish "Yangi O'zbekiston" strategiyasi doirasida ta'lim sifatini yanada oshirish, kelajak avlodni tanqidiy fikrlashga, ijodkorlikka va muammolarni hal qilishga qodir etib tarbiyalash uchun qimmatli saboqlar beradi. Kelajak istiqbollarida ta'lim tizimiga raqamli texnologiyalarni yanada keng integratsiya qilish, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish, o'qituvchi kasbining obro'sini yanada oshirish va o'quvchi-markazli pedagogikalarni izchil rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu "Yangi usul" maktablari boshlab bergan ma'rifiy yo'nalishning mantiqiy davomi bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] Khalid, Adeeb. Musulmon madaniy islohot siyosati: Markaziy Osiyoda jadidchilik. Berkeley: University of California Press, 1997.

[2] Lazzerini, Edward J. Ismail Bey Gasprinskii (Gaspıralı): Musulmon modernizmi Rossiya Imperiyasida. Leiden: E. J. Brill, 1973.

[3] Lazzerini, Edward J. "Ismail Bey Gasprinskii va Musulmon modernizmi." Markaziy Osiyo Sharhi, vol. 1, no. 4, 1982, pp. 57-67.

[4] Rywkin, Michael. "Markaziy Osiyoda ta'limning rivojlanishi, 1900-1920 yillar." Slavyan Sharhi, vol. 42, no. 3, 1983, pp. 419-436.

[5] Khalid, Adeeb. "Markaziy Osiyoda Musulmon Modernizmining Genealogiyasi: Buxorodan Istanbulgacha Jadidlar." Islomshunoslik Jurnali, vol. 20, no. 4, 2009, pp. 439-459.

THE REPRESENTATIVES OF THE TURKESTAN ENLIGHTENMENT MOVEMENT

Haqqulov Mehriddin Yunusovich
Lecturer of the department of
Foreign language and Social Sciences at
Asia International University Bukhara, Uzbekistan
Sadulloyeva Moxinur Sadullo qizi
The 2nd year student in majoring
English philology at Asia International University
Bukhara, Uzbekistan

Abstract: *This article explores the representatives of the Turkestan Enlightenment movement and their significant role in the social, cultural, and intellectual transformation of Central Asia in the late 19th and early 20th centuries. It analyzes the ideas, reformist activities, and educational initiatives promoted by leading figures such as Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov, and Fayzulla Xo'jayev. The study highlights their contributions to modern schooling, publishing, theater, and the development of national consciousness.*

Key words: *Turkestan Enlightenment movement, Central Asia, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Fayzulla Xo'jayev.*

Аннотация*: В данной статье исследуются представители туркестанского просветительского движения и их значительная роль в социальной, культурной и интеллектуальной трансформации Центральной Азии в конце 19 - начале 20 веков. В нем анализируются идеи, реформистская деятельность и образовательные инициативы, продвигаемые такими ведущими деятелями, как Махмудходжа Бехбудий, Абдулла Авлоний, Мунавваркори Абдурашидханов и Файзулла Ходжаев. В исследовании подчеркивается их вклад в современное образование, издательское дело, театр и развитие национального сознания.*

Ключевые слова: *Туркестанское просветительское движение, Средняя Азия, Махмудходжа Бехбудий, Абдулла Авлоний, Мунавваркори Абдурашидханов, Файзулла Ходжаев.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Turkiston ma'rifatparvarlik harakati vakillari va ularning 19-asr oxiri va 20-asr boshlarida O'rta Osiyodagi ijtimoiy, madaniy va intellektual o'zgarishlardagi muhim roli o'rganiladi. Unda Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Fayzulla Xo'jayev kabi yetuk*

arboblar tomonidan ilgari surilgan g‘oyalar, islohotchilik faoliyati, ma’rifiy tashabbuslar tahlil etilgan. Tadqiqotda ularning zamonaviy maktab ta’limi, nashriyot, teatr san’ati, milliy ongni rivojlantirishga qo‘shgan hissasi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *Turkiston ma’rifatparvarlik harakati, O‘rta Osiyo, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Fayzulla Xo‘jayev.*

Introduction. Jadidism and Enlightenment are great historical movements that arose with the aim of enlightening the nation and raising its spirituality. The Jadids were not ordinary educators seeking to make the population literate. They were well aware of the socio-political and economic situation that had developed in Turkestan during the colonial period, the level of the spiritual state of the people, and were able to deeply analyze the causes of these processes.

They understood that in order to ensure the independence of Turkestan and bring local peoples to the path of social, political, economic and spiritual development, it was necessary, first of all, to develop the general cultural, spiritual and educational level of the people, based on the requirements and capabilities of the era. Their activities in developing public education, restoring the national cultural and spiritual heritage, calling for the study of the culture and experience of European peoples were ultimately linked to the goals of achieving independence. The Jadids deeply understood that only an educated, cultured, enlightened and spiritual nation is capable of solving major historical problems.

Periods in the History of the Jadid Movement in Turkestan First Period: From the 1890s to February 1917. This period is divided into three stages:

- 1890s–1905: The emergence of Jadidism and its transformation into an organized and systematic movement.
- 1905–1909: A period of relatively rapid and less obstructed development of the movement.
- 1909–1916: The development of the movement during a time when Tsarism intensified its struggle against freedom, democracy, and revolutionary forces.

Second Period: From February 1917 to 1929. This period can also be divided into three stages:

- February–October 1917
- November 1917–1924
- 1925–1929

Jadidism means renewal or the “new method.” It is a general term for supporters of modern schools, printing houses, and new methods and paths of national development. The main ideas and goals of Jadidism were to free

Turkestan from medieval backwardness, feudal stagnation, and superstition; to reject the “Usuli qadim” (old method) and lead the region, the people, and the nation toward modern development; to establish a national state; to build a free and prosperous society based on constitutional, parliamentary, and presidential systems of governance; to grant Turkic languages the status of state language; to form a national army; and other similar objectives.

In Turkestan, Jadidism emerged during the process of the national liberation struggle and stood out as a social movement that began to open a new chapter in the history of the Uzbek people. In their worldview, ideas such as patriotism, nationalism, enlightenment, and progressivism held a leading place.

At the forefront of the Jadid movement in Turkestan were prominent figures such as Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abduqodir Shakuriy, Saidahmad Siddiqiy Ajziy (Samarkand), Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Ubaydulla Asadullaxo‘jayev (Ubaydulla Kho‘jayev), Toshpo‘latbek Norbo‘tabekov (Tashkent), Abdurauf Fitrat, Fayzulla Xo‘jayev, Usmonxo‘ja Po‘latxo‘jayev, Abdulvohid Burhonov, Sadriddin Ayni, Abdulqodir Muhiddinov (Bukhara), Obidjon Mahmudov, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Cho‘lpon, Isxoqxon Ibrat, Muqammadsharif So‘fizoda (Fergana Valley), Polvonniyoz hoji Yusupov, and Bobooxun Salimov (Khiva Jadids).

The Crimean Tatar enlightener Ismail Gasprinsky (1851–1914) is regarded as the founder of the Jadid movement, which spread among all Turkic peoples. He possessed deep knowledge of both religious and secular sciences, was closely acquainted with global progress, and studied several foreign languages as well as the cultures of various nations.

In 1884, in Bakhchisaray, Crimea, he established the first Jadid school. Based on the curriculum he developed, he prepared a textbook. According to this program, 12 students became literate within 40 days. This method became widely known as “Usuli savtiya” (the phonetic method), that is, “Usuli jadid” (the new method).

In 1888, his book “Rahbari muallimin yoki muallimlarga yo‘ldosh” (“Guide for Teachers or A Companion to Teachers”) was published.

Mahmudxo‘ja Behbudiy was born on January 20, 1875, in Samarkand, into a family of muftis. Along with literature and history, Mahmudxo‘ja also studied politics. Through newspapers and journals, he kept himself informed about world events and developments. His travels to Mecca, Egypt, and Istanbul profoundly changed his worldview. He established cooperation with various newspapers and magazines and began publishing his articles, in which he raised issues related to improving schools and the arts.

Behbudiy was the founder of the newspaper Oyna and a regular contributor to Tarjimon, edited by Ismail Gasprinsky. Mahmudxo‘ja authored more than 200 publications in Uzbek and Tajik. Among them are “Muntaxabi jug‘rofiyai umumiy” (“A Brief General Geography,” 1903), “Kitob-ul-atfol” (“A Book for Children,” 1904), and others. A significant milestone in Behbudiy’s literary career was the drama “Padarkush” (“The Parricide”), written in Samarkand in 1911. In this work, he emphasized that the younger generation should be educated and cultured. The drama was first published in 1912 in the newspaper Turon and was later issued as a separate book in 1913.

The city of Qarshi was named after Mahmudxo‘ja Behbudiy during the years 1920–1930. By 1937, his name was suppressed during the period of political repression, and he was officially rehabilitated in 1956. Today, the rich and diverse literary, cultural, and educational heritage left by the great scholar serves the independence and spiritual development of his people. In 1977, Behbudiy’s selected works (“Saylanma”) were published. This collection included textbooks and teaching manuals. At present, streets and schools have been named in his honor.

The famous Uzbek enlightener, poet, and public figure Abdulla Avloniy was born on July 12, 1878, in Tashkent into a craftsman family. He first attended a traditional school and later studied at a madrasa. Due to financial difficulties in his family, from an early age he worked at people’s homes, engaging in bricklaying, plastering, stove-making, carpentry, and joinery, earning the title “Imoratchi usta” (Master Builder). Abdulla Avloniy’s poems began appearing in the press when he was just 15 years old. As one of the leaders of the Jadid movement, Avloniy established a Jadid school in the Mirobod neighborhood of Tashkent in 1904 and, in 1909, founded the charitable organization “Jamiyati xayriya”.

His textbooks “First teacher” (1909), “Second teacher”, “Turkish culture” (1913), “Gulistoni school” (1917), "Literature or national poems" (1909-1916, 6 parts) were taught in schools. Avloniy chose the slogan “Long Live the People's Republic” (“Yashasin xalq jumhuriyati”) for the newspaper “Turon” (1917), organized a theater group called “Turon”, gathered talented young people, and took part in the performance of some roles.

Another prominent representative of the Jadid movement was Munavvarqori Abdurashidxonov (1878–1931). He was born in Tashkent. In 1901, he opened a new-method school in Tashkent, where he served as the head and educated Muslim children. He authored textbooks suitable for his time, including “Adibi avval,” “Adibi Soniy,” and “Yer yuzi.”

Fayzulla Khojaev was an outstanding statesman and reformer who played a significant role in the history of Central Asia. Born in 1896 into the family of a wealthy Bukhara merchant specializing in astrakhan fur (karakul), he became one of the leaders of the national liberation movement in the early 20th century.

F. Khojaev participated in the activities of the Young Bukharians movement, which was founded on the principles of Jadidism (Islamic modernism), spoke out against the power of the emir and for reforms in culture and education. From 1920 to 1924, after the overthrow of the last emir of Bukhara, Sayyid Alim Khan, he led the government of the Bukhara Soviet People's Republic and held high positions in the regional administration for the following 13 years. Khodjaev's reformist activities covered wide areas of social life: from science and education to industry and economics. However, during the Stalinist repressions, he became a victim of political persecution and was shot in 1938.

He placed special emphasis on educating orphans and children of disadvantaged families. Munavvarqori understood that without reforming education, raising public awareness, and improving cultural knowledge, it is impossible to achieve significant changes in society. Because of his ideas for national progress, he was persecuted by the former repressive Soviet authorities. On April 25, 1931, he was executed.

During his career, Fayzulla Xo‘jayev carried out a number of initiatives aimed at promoting the economic and cultural development of the Uzbek people. Observing the progress of science and industry in the West, Fayzulla Xo‘jayev was concerned about the backwardness of his own people. For this reason, he did everything possible to ensure that the population of the republic became educated.

During his leadership, general education schools in the republic offered instruction in 18 languages. The number of higher education institutions reached 31, and 86 technical schools (tekhnikums) were established.

It should be noted that the political and educational activity of Fayzulla Khojayev coincides with the period of complex and drastic changes that took place in the political field of Uzbekistan at the beginning of the last century. Fayzulla Khojayev worked in extremely difficult conditions and did great work in raising the morale of the nation and honoring its dignity. In the conditions of today's New Uzbekistan, remembering the historical services of people like Faizulla Khojayev is useful in every way. If the works and ideas of the ancients are in tune with the interests of the present age, it is important to get to know their life and work more deeply because it serves the younger generation to grow up as nationalists.

Conclusion. In conclusion, the leaders of the Turkestan Enlightenment movement, including Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori

Abdurashidxonov, and Fayzulla Xo‘jayev, were pioneers of knowledge, culture, and social progress in Turkestan. They recognized that national independence and prosperity could only be achieved through education, enlightenment, and the preservation of cultural heritage.

By establishing modern schools, writing textbooks, promoting literacy, and fostering critical thinking, they transformed the intellectual landscape of their time. Despite facing political pressures and hardships, their legacy endures, serving as a guiding example for contemporary society and motivating young people to continue the path of knowledge, patriotism, and social development.

REFERENCES:

1. Haqqulov, M. (2025). FAYZULLA XO ‘JAYEVNING DAVLATCHILIK QARASHLARI. Modern Science and Research, 4(6), 498-503.

2. Haqqulov, M., Gulyamov, A., & Srojeva, G. (2025). JADIDLARNING 1916 YILDAGI XALQ QO’ZG’OLONIDA TUTGAN O’RNI. MILLIY HUKUMAT-TURKISTON MUXTORIYATI VA UNING FAOLIYATI. Modern Science and Research, 4(2), 100-108.

3. Haqqulov, M. (2024). TURKISTON OZODLIGINING JARCHILARI. Medicine, pedagogy and technology: theory and practice, 2(11), 154-159.

4. Haqqulov, M. (2024). O ‘RTA OSIYO XALQLARINING OZODLIK ORZUSI BO‘LGAN “TURKISTON MUXTORIYATI”. Modern Science and Research, 3(12), 609-613.

MILLIY UYG‘ONISH VA JADIDCHILIK G‘OYALARINING UYG‘UNLIGI

Mirqurbonova Dilnavo Ismoiljon qizi
Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari
va huquq ta’limi yo‘nalishi 2- bosqich talabasi
+998991382106

Annotatsiya: *Ushbu maqolada XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi Turkiston ijtimoiy-siyosiy hayotida muhim o‘rin tutgan milliy uyg‘onish jarayonlari va jadidchilik harakatining g‘oyaviy uyg‘unligi tahlil qilinadi.Jadidlar tomonidan ilgari surilgan ta’lim islohoti, matbuot erkinligi, ayollar huquqi va iqtisodiy mustaqillik kabi masalalarning o‘zaro bog‘liqligini tadqiq etadi. Maqolada jadidchilik merosining bugungi kunda O‘zbekistonda poydevori qo‘yilayotgan Uchinchi*

Renessans konsepsiyasi bilan hamohang jihatlari falsafiy-tarixiy rakursdan yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: *Jadidchilik, milliy uyg‘onish, ma’rifatparvarlik, usuli jadid, Uchinchi Renessans, milliy o‘zlik, Turkiston muxtoriyati, ijtimoiy islohot, ma’naviy yuksalish.*

XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi Turkiston ijtimoiy-siyosiy manzarasi nafaqat hududiy mustamlaka, balki chuqur ma’naviy turg‘unlik davrini ham boshidan kechirayotgan edi. Chor Rossiyasining istilochilik siyosati o‘lkamizning iqtisodiy tomirlarini kesibgina qolmay, xalqning milliy o‘zligini, madaniy qiyofasini va asriy qadriyatlarini ham yemirib borayotgan edi. Mana shunday tarixiy chorrahada maydonga chiqqan jadidchilik harakati — shunchaki ta’limiy islohot emas, balki millatning tirik qolish strategiyasi, uning ma’naviy-siyosiy renessansi sifatida namoyon bo‘ldi. “Milliy uyg‘onish” tushunchasi jadidlar talqinida faqat o‘tmishni qo‘msash yoki an’analarga yopishib olishni anglatmasdi. Aksincha, u zamon bilan hamnafaslik, G‘arbning texnologik yutuqlari va Sharqning yuksak axloqiy mezonlarini o‘zaro uyg‘unlashtirish san’ati edi. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvar Qori, Abdurauf Fitrat kabi millat fidoyilari yaxshi anglagan edilarki, millatni g‘aflat uyqusidan uyg‘otishning yagona yo‘li — tafakkurni yangilash, ya’ni “eski tanaga yangi ruh bag‘ishlash” edi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda poydevori qo‘yilayotgan Uchinchi Renessans g‘oyasi ham o‘z ildizlari bilan bevosita jadidlar merosiga borib taqaladi. Ularning “ozodlikka faqat ma’rifat orqali erishish mumkin” degan qat’iy ishonchi, bugungi kunda ham milliy yuksalishimizning asosiy falsafasi bo‘lib xizmat qilmoqda. Ushbu maqolada biz jadidchilik harakati qanday qilib milliy uyg‘onishning asosiy dvigateliga aylangani va bu g‘oyalarning bugungi davr bilan qanchalik hamohang ekanligini tahlil qilamiz.

Jadidchilik harakatining strategik markazida, shubhasiz, ta’lim tizimini tubdan yangilash g‘oyasi turar edi. Eskirgan sxolastik o‘qitish uslubidan voz kechib, dunyoviy fanlar va diniy bilimlarni sintez qilgan “Usuli jadid” (yangi usul) maktablarining tashkil etilishi millat tafakkuridagi ilk inqilob bo‘ldi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy ta’kidlaganidek: “Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur, zamona ilmidan bebahra millat boshqalarga poymol bo‘lur” [1]. Bu shunchaki chaqiriq emas, balki millatning ijtimoiy-siyosiy uyg‘onishi uchun zarur bo‘lgan intellektual poydevor edi. Jadidlar maktabni nafaqat savod chiqarish maskani, balki milliy g‘urur va hurlik hissini shakllantiradigan strategik maskan deb bildilar.

Shu bilan birga, milliy uyg‘onish g‘oyalarini keng omma ongiga singdirishda milliy matbuot beqiyos rol o‘ynadi. “Taraqqiy”, “Xurshid”, “Najot”, “Sadoi Turkiston” kabi gazetalar xalqning dardi aytiladigan minbarga aylandi. Munavvar Qori Abdurashidxonov o‘zining publitsistik chiqishlarida millatning tanazzuli sababini "ittifoqsizlik va ilmsizlik"da deb bildi [2]. Matbuot orqali ilgari surilgan g‘oyalar jamiyatdagi qatlamlarni birlashtirib, ma’rifatparvarlik bosqichidan siyosiy birdamlik — Turkiston muxtoriyati g‘oyasi sari yetakladi.

Teatr san’ati esa jadidlar qo‘lida eng ta’sirchan mafkuraviy qurolga aylandi. Behbudiyning “Padarkush” dramasi misolida jamiyatdagi jaholat va nodonlikning fojiaviy oqibatlari ko‘rsatib berildi. Bu orqali xalq o‘zining ayanchli ahvolini tashqaridan ko‘rish imkoniga ega bo‘ldi, bu esa o‘z-o‘zini isloh qilish ehtiyojini tug‘dirdi.

Jadidlar millatning yuksalishi uchun uning moddiy va ma’naviy asoslari bir vaqtda isloh qilinishi shart deb bildilar. Bu borada uchta asosiy yo‘nalish — dinni tozalash, tilni saqlash va iqtisodiy mustaqillikni ta’minlash bir-birini to‘ldiruvchi ustunlar sifatida namoyon bo‘ldi.

Jadidchilik g‘oyasining o‘zagi islom dinini xurofotlardan tozalash va uni taraqqiyot drayveriga aylantirishga qaratilgan edi. Abdurauf Fitrat o‘zining “Munozara” asarida ta’kidlaganidek, islom ilmsizlik va qashshoqlik dini emas, balki “ilm va hunar” dinidir [3]. Ular dindorlikni zamonaviy fanlar bilan zid qo‘ymasdan, aksincha, haqiqiy musulmon bo‘lish uchun ham dunyoviy bilimlarni egallash shartligini ilgari surdilar. Bu yondashuv jamiyatdagi mutaassiblik va turg‘unlikka berilgan eng kuchli zarba edi.

“Til — millatning tirikligidur”, — degan edi Abdulla Avloniy. Jadidlar tilni shunchaki muloqot vositasi emas, balki milliy o‘zlikni asrashning so‘nggi qal’asi deb bildilar. Ular turkiy tilning sofligini saqlash, uni ilmiy va rasmiy hujjatlar tiliga aylantirish uchun kurashdilar. Cho‘lponning she’riyatidagi dard va Fitratning tilshunoslikka oid asarlari millatni o‘z ona tili atrofida birlashishga chorladi.

Maqolaning eng muhim nuqtalaridan biri shundaki, jadidlar iqtisodiy ozodliksiz siyosiy mustaqillikka erishib bo‘lmasligini juda erta anglaganlar. Ular:

“Kashshof", "Barakat” kabi milliy shirkatlarni tashkil etdilar;

Paxtachilik va ipakchilik sanoatida milliy burjuaziyani shakllantirishga harakat qildilar;

Boy-badavlat vatandoshlarni millatning ma’rifat ishlari va xorijda talabalar o‘qitish uchun homiylik qilishga (Vaqf jamg‘armalari orqali) yo‘naltirdilar.

Jadidlar jamiyatni bir butun organizm sifatida tasavvur qildilar va uning bir qismi — xotin-qizlar jaholatda qolar ekan, milliy yuksalish imkonsiz ekanligini

anglab yetdilar. Ular ayollar ta’limini shunchaki huquqiy masala emas, balki millat tarbiyasi darajasiga ko‘tardilar.

Abdurauf Fitrat o‘zining oila boshqaruviga bag‘ishlangan fundamental asarida ayolning jamiyatdagi o‘rnini shunday ta’riflaydi: “Har bir millatning saodati va izzati, shubhasiz, shu millat intizomiga bog‘liqdir. Intizom esa yoshlikdan oila quchog‘ida olinadigan tarbiya bilan shakllanadi” [4]. Bu g‘oya orqali jadidlar “bilimli ona — bilimli avlod” formulasini ilgari surdilar.

Jadid matbuotida, xususan, “Oina” va “Sadoi Turkiston” nashrlarida ayollarni uydan chiqarib, ijtimoiy hayotga jalb etish, ularga hunar o‘rgatish masalasi qizg‘in muhokama qilindi. Mahmudxo‘ja Behbudiy xotin-qizlar uchun alohida maktablar ochish, ularni tibbiyot va pedagogika sohalarida o‘qitish zaruriyatini ilmiy asoslab berdi [5].

Shu davrda jadidlar ta’sirida shakllangan birinchi o‘zbek ayol ziyolilari (masalan, Tojiniso va boshqalar) matbuotda “ayollar huquqi” tushunchasini shakllantira boshladilar. Bu harakat shunchaki G‘arb feminizmining ko‘chirmasi emas, balki islomiy ma’rifat va milliy qadriyatlar doirasidagi ma’rifiy tenglik edi.

Jadidchilik g‘oyalari va zamonaviy O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi o‘rtasidagi uyg‘unlik shunchaki tasodif emas, balki tarixiy davomiylikning qonuniy ko‘rinishidir. Bugungi kunda mamlakatimizda poydevori qo‘yilayotgan Uchinchi Renessans tushunchasi o‘zining g‘oyaviy ildizlari bilan bevosita jadidlar orzu qilgan “ma’rifatli jamiyat” konsepsiyasiga borib taqaladi.

Jadidlar o‘z davrida ilgari surgan “najot — maktabda, najot — ta’limda, najot — bilimda” degan hayotiy tamoyil bugungi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Zero, jadidlar o‘ylagan milliy yuksalish faqat iqtisodiy ko‘rsatkichlar bilan emas, balki inson kapitalining rivojlanishi, yoshlarning zamonaviy ilm-fan cho‘qqilarini zabt etishi bilan o‘lchanadi. Bu borada Prezidentimiz tomonidan jadidlar merosini o‘rganish va ularning pok nomlarini oqlash borasidagi tashabbuslari millatning o‘zligini anglash jarayonini yangi bosqichga olib chiqdi.

Bugungi kun nuqtai nazaridan qaraganda, jadidchilik — bu shunchaki o‘tmish xotirasi emas, balki kelajakni qurishning ma’naviy metodologiyasidir. Ularning dunyoviy va diniy bilimlarni uyg‘unlashtirish borasidagi qarashlari bugungi radikalizm va ekstremizmga qarshi kurashda eng kuchli ma’naviy qalqon bo‘lib xizmat qilmoqda. Shuningdek, jadidlar tomonidan asos solingan milliy tadbirkorlik va sarmoya masalalari bugungi kunda mamlakatimizda kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish orqali iqtisodiy mustaqillikni mustahkamlash strategiyasi bilan hamohangdir.

Xulosa qilib aytganda, jadidlar boshlab bergan milliy uyg‘onish harakati o‘zining yakuniy nuqtasiga yetgani yo‘q. Ular chizib bergan yo‘l — ilm-fan orqali

ozodlikka, ma’rifat orqali farovonlikka erishish g‘oyasi bugun biz qurayotgan Yangi O‘zbekistonning poydevori sifatida xizmat qilmoqda.

Milliy uyg‘onish va jadidchilik g‘oyalarining uyg‘unligini tahlil qilar ekanmiz, shunga amin bo‘lamizki, bu harakat shunchaki tarixiy hodisa emas, balki millatning yashash falsafasidir. Jadidlar bizga faqat yangi maktab yoki gazetalarni emas, balki eng muhim narsani — erkin fikrlash jasoratini meros qilib qoldirdilar.

Mening shaxsiy fikrimga ko‘ra, jadidchilikning eng buyuk darsi — bu har qanday og‘ir mustamlaka va turg‘unlik sharoitida ham yechimni chetdan emas, millatning o‘z ichidan, uning intellektual salohiyatidan izlash kerakligidir. Biz ko‘pincha jadidlarni fojiaviy qurbonlar sifatida eslaymiz, biroq ularning g‘oyaviy g‘alabasi bugungi kunda biz gapirayotgan davlat tili, milliy o‘zlik va ma’rifatli jamiyat qurish intilishlarimizda yashamoqda.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, jadidchilik va milliy uyg‘onish tushunchalari o‘zaro shunday chambarchas bog‘langanki, ularni bir-biridan ayri tasavvur etib bo‘lmaydi. Jadidlar “eski” va “yangi” o‘rtasida muvozanat topa olgan buyuk konstruktorlar edi. Bugun biz ham zamonaviy texnologiyalarni o‘zlashtirar ekanmiz, jadidlar kabi milliy qadriyatlarimizni bu jarayonga uyg‘unlashtira olishimiz shart. Zero, ma’rifatsiz taraqqiyot — ruhsiz tanaga o‘xshaydi. Jadidlar yoqqan ma’rifat mash’alasi bugungi va kelajak avlodlar uchun hamisha to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatuvchi mayoq bo‘lib qolaveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Behbudiy M. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma’naviyat, 2009.

2.Abdurashidxonov M. Tanlangan asarlar (Xotiralar, maqolalar). – Toshkent: Ma’naviyat, 2003.

3.Qosimov B. Milliy uyg‘onish: jasorat, ma’rifat, fidoiylik. – Toshkent: Ma’naviyat, 2002.

4.Fitrat A. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. – Toshkent: Cho‘lpon, 2019.

5.Behbudiy M. Tanlangan asarlar. 2-jild. – Toshkent: Ma’naviyat, 2009.

Jadidlarning ma’naviy-ma’rifiy va pedagogik qarashlari

Boymurodov Sanjar Dilmurod o‘g‘li
Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va
huquq ta’limi yo‘nalishi 2-bosqich talabasi
+998500548518

Annotatsiya*: Ushbu maqolada jadidchilik harakati vakillarining ma’naviy-ma’rifiy qarashlari va ularning Turkiston ta’lim tizimini isloh qilishdagi pedagogik faoliyati tadqiq etiladi. Maqolada an’anaviy o‘qitish usullaridan “Usuli savtiya” (tovush usuli) metodikasiga o‘tishning ahamiyati, Saidrasul Azizov, Munavvar Qori va Abdulla Avloniy kabi pedagoglarning darslik yaratish hamda shaxs tarbiyasidagi o‘ziga xos yondashuvlari ilmiy asoslab berilgan. Shuningdek, jadid pedagogikasining antropotsentrik xususiyatlari, jismoniy jazoning inkor etilishi va muallim etikasiga oid qarashlar bugungi kun ta’lim islohotlari prizmasidan tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar*: Jadid pedagogikasi, ma’rifatparvarlik, Usuli savtiya, Abdulla Avloniy, “Turkiy guliston yoxud axloq”, didaktika, muallim etikasi, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, darslik islohoti.*

Jadidchilik harakatining eng buyuk kashfiyoti — bu millatni qutqarishni tashqi siyosiy kuchlardan emas, balki har bir insonning o‘z ichidan, ya’ni uning ongi va tarbiyasidan qidirish bo‘ldi. Ular yaxshi anglar edilarki, agarda jamiyatning fikrlash tarzi o‘zgarmasa, har qanday islohot yoki erkinlik vaqtinchalik bo‘lib qolaveradi. Shu bois, jadidlar o‘z faoliyatining markaziga “yangi avlod muammosi”ni qo‘ydilar.

Pedagogik nuqtai nazardan qaraganda, jadidlar shunchaki maktabdor emas, balki millatning ruhiy muandislari edilar. Ularning ma’naviy-ma’rifiy qarashlari ikki muhim ustunga tayangan: pokiza axloq va erkin tafakkur. Eskirgan ta’lim tizimidagi quruq yodlash (sxolastika) o‘rniga, jadidlar o‘quvchining ichki dunyosini uyg‘otishni, unda savol berish va dunyoni mantiqiy anglash ko‘nikmasini shakllantirishni maqsad qildilar.

Ushbu maqolada biz jadid pedagogikasining inson qadrini yuksaltirishdagi o‘rni, ularning o‘qitish metodikasidagi tub burilishlar va ma’naviy tarbiya borasidagi betakror tajribalarini tahlil qilamiz. Jadidlar uchun ta’lim — bu shunchaki ma’lumot berish emas, balki millatning umumiy madaniy qiyofasini qayta tiklash san’ati edi.

Jadid pedagoglarining eng katta amaliy muvaffaqiyati — an'anaviy maktablardagi yillab davom etadigan savod chiqarish jarayonini bir necha oyga tushira olganlaridir. Eskirgan "abjad" (harflarni alohida-alohida yodlash) usuli o'rniga, harf va tovushning mutanosibligiga asoslangan "Usuli savtiya" (tovush usuli) metodikasi joriy etildi. Bu metod nafaqat vaqtni tejadi, balki bolada so'zni tushunib o'qish va mantiqiy fikrlash ko'nikmasini ilk qadamlardanoq shakllantirdi.

Pedagogik islohotning keyingi muhim bo'g'ini — darsliklar mazmunini dunyoviy fanlar bilan boyitish bo'ldi. Saidrasul Azizovning "Ustozi avval" (1902) va Munavvar Qorining "Adibi avval" (1907) kabi darsliklari o'sha davr uchun mutlaqo yangi hodisa edi [1]. Bu kitoblarda faqatgina diniy matnlar emas, balki tabiat, hayvonot olami, geografiya va sog'liqni saqlashga oid kichik, sodda va purma'no hikoyalar o'rin olgan edi.

Bundan tashqari, jadidlar o'quv jarayoniga ilk bor ko'rgazmali qurollar, xaritalar va globuslarni olib kirdilar. Bu esa o'quvchining tasavvur olamini kengaytirdi. Mahmudxo'ja Behbudiy ta'kidlaganidek, dunyo ilmini o'rganmaslik millatni "ko'r va kar" holiga keltirib qo'yadi [2]. Ularning darsliklarida inson qadri, mehnatsevarlik va ilmning amaliy foydasi haqidagi g'oyalar pedagogik mahorat bilan singdirilgan edi.

Jadid pedagogikasining cho'qqisi — bu ta'limni tarbiyadan, aqlni esa axloqdan ayri holda ko'rmaslikdir. Bu borada Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" (1913) asari Turkiston pedagogik tafakkuri tarixida yangi sahifa ochdi. Avloniy an'anaviy quruq nasihatgo'ylikdan voz kechib, bolaning ruhiy dunyosiga ta'sir ko'rsatuvchi tizimli pedagogikani yaratdi.

Uning mashhur: "Tarbiya biz uchun yo hayot — yo mamot, yo najot — yo halokat, yo saodat — yo falokat masalasidi" [6] degan xitobi shunchaki ritorika emas, balki pedagogik strategiya edi. Avloniy tarbiyani to'rt qismga — badaniy (jismoniy), fikriy, axloqiy va nafsiy tarbiyaga ajratar ekan, barkamol shaxsni shakllantirishning yaxlit modelini taklif qildi. Bu modelda sog'lom tana, o'tkir zehn va pokiza vijdon bir butunlikni tashkil etishi lozim edi.

Jadid pedagogikasining yana bir muhim jihati — tarbiya jarayonida bolaning erkini bo'g'maslikdir. Avloniy va uning safdoshlari muallimni qo'rquv uyg'otuvchi shaxs emas, balki bolaning qalbini kashf etuvchi "yo'l ko'rsatuvchi" sifatida talqin qildilar. Ular ta'limda shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni ilk bor qo'llab, bolaning tabiiy iste'dodini yuzaga chiqarishni pedagogik mahoratning oliy nuqtasi deb bildilar. Bu esa o'sha davr uchun inqilobiy yangilik bo'lib, o'quvchini passiv tinglovchidan faol tafakkur sohibiga aylantirdi.

Jadidchilik harakati Turkiston ta'lim tizimiga olib kirgan eng katta yangiliklardan biri — bu muallim shaxsiga bo'lgan munosabatning o'zgarishidir.

Jadid muallimi endi faqat diniy matnlarni yodlatuvchi “domla” emas, balki dunyoviy ilmlardan xabardor, metodik mahoratga ega va bolaning ruhiyatini tushunadigan professional pedagog sifatida namoyon bo‘ldi.

Jadidlar muallimlikni eng sharafli va mas'uliyatli vazifa deb bildilar. Munavvar Qori Abdurashidxonov ta'rificha, muallim “millatning bolalarini tarbiya qiluvchi, ularning axloqini poklovchi va ularni kelajakka tayyorlovchi muqaddas zotdir” [5]. Ular muallimlar uchun maxsus tayyorlov kurslarini tashkil etish, o‘qituvchilarning dunyoqarashini kengaytirish masalasini birinchi o‘ringa qo‘ydilar.

Jadid pedagogikasida o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi munosabatda jismoniy jazoning (falaka) taqiqlanishi inqilobiy qadam bo‘ldi. Ular bolaga shaxs sifatida qarash, uning insoniy g‘ururini sindirmasdan tarbiyalash tamoyilini ilgari surdilar. Arxiv hujjatlari va o'sha davr xotiralari shuni ko'rsatadiki, jadid maktablarida muallim o‘quvchi uchun nafaqat bilim beruvchi, balki ma’naviy namuna — ideal obraz bo‘lishi shart edi [6]. Muallimning kiyinish madaniyati, nutqi va ijtimoiy faolligi o‘quvchilarda “yangi o‘zbek ziyolisi” qiyofasini shakllantirishga xizmat qildi.

Jadidlar pedagogikasi va ularning ma’rifiy faoliyatini o‘rganar ekanmiz, bir haqiqat ochiq namoyon bo‘ladi: ular ta’limni shunchaki ma’lumot berish deb emas, balki millatni saqlab qolishning yagona yo‘li deb bilganlar. Mening shaxsiy fikrimcha, bugungi kun pedagogikasida eng katta yetishmayotgan halqa — bu jadidlar ega bo‘lgan "maqsadli o‘qitish" tamoyilidir. Ular har bir darsda, har bir darslikda “Bu bola ertaga millatga qanday foyda keltira oladi?” degan savolni birinchi o‘ringa qo‘yishgan.

Jadidlarning pedagogik merosida meni eng hayratga solgan jihat — bu ularning mutlaqo imkonsiz sharoitda, hech qanday davlat yordamisiz, hatto tazyiqlar ostida ham xalqning dunyoqarashini o‘zgartira olganlaridir. Bu bugungi kun pedagoglari uchun eng katta o‘rnak bo‘lishi kerak. Biz texnologiyalar, zamonaviy maktablar va resurslar bor davrda jadidlar kabi samara bera olmayotgan bo‘lsak, demak, bizda ulardagi “milliy mas'uliyat” hissi biroz sustlashgan.

Shaxsiy fikrlarimga ko‘ra, jadid pedagogikasini bugun maktab darsliklarida shunchaki mavzu sifatida o‘qitish yetarli emas. Biz ularning metodikasidagi eng muhim unsur — savol berish erkinligi va shaxsiyatni hurmat qilish prinsiplarini ta’lim tizimimizning o‘zagiga aylantirishimiz zarur. Jadid muallimi o‘quvchi qalbida shunday bir olov yoqqanki, u olov bir asr o‘tib ham millat qalbini isitib turibdi.

Xulosa qilib aytganda, jadid pedagogikasi — bu tugallanmagan loyiha. Ularning ma’naviy-ma’rifiy qarashlari bugungi “Yangi O‘zbekiston” poydevorini qurishda eng ishonchli materialdir. Biz jadidlar orzu qilgan o‘sha erkin va bilimli

avlodni tarbiyalash orqali ularning ruxini shod etishimiz va millatni yangi bosqichga olib chiqishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Dolimov U. Turkistonda jadid maktablari. – Toshkent: Universitet, 2006.
2.Behbudiy M. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma’naviyat, 2009.
3.Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O‘qituvchi, 1967.
4.Abdurashidxonov M. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma’naviyat, 2003.
5.O‘zbekiston Milliy arxi (O‘zMA). I-47-fond, 1-ro‘yxat, 925-ish.

MILLIY UYG‘ONISH VA JADID G‘OYALARI

Ne’matova E’zoza,
Jizzax politexnika instituti magistranti, O‘zbekiston,
tel. +998 95 349 74 64

Annotatsiya*. Ushbu maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida shakllangan milliy uyg‘onish jarayoni va jadidchilik g‘oyalarining arxitektura va shaharsozlik rivojiga ta’siri tahlil qilinadi. Jadidlar tomonidan ilgari surilgan ma’rifatparvarlik, zamonaviy ta’lim, sanitariya-gigiyena va ijtimoiy muhitni yaxshilashga qaratilgan qarashlar bevosita me’moriy yechimlarda ham o‘z aksini topgan. Xususan, yangi usul maktablari, madrasalar, jamoat binolari, kutubxonalar va madaniy-ma’rifiy inshootlar loyihalanishida funksionallik, yorug‘lik, havodorlik hamda rejalashtirishning soddaligi muhim mezon sifatida namoyon bo‘lgan. Maqolada jadid g‘oyalarining an’anaviy me’moriy makon bilan uyg‘unlashuvi, mahalliy qurilish an’analari va zamonaviylik unsurlarining birlashuvi ilmiy jihatdan yoritiladi. Tadqiqot natijalari milliy arxitektura taraqqiyotida jadidchilik harakatining tutgan o‘rni va uning bugungi zamonaviy me’moriy konsepsiyalar uchun ahamiyatini asoslashga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *milliy uyg‘onish, jadidchilik harakati, arxitektura taraqqiyoti, shaharsozlik, ma’rifatparvarlik, jamoat binolari, yangi usul maktablari, me’moriy rejalashtirish, madaniy muhit, milliy me’morchilik.*

Kirish. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Markaziy Osiyo hududida yuzaga kelgan milliy uyg‘onish jarayoni jamiyat hayotining barcha sohalariga, jumladan, arxitektura va shaharsozlik rivojiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatdi. Bu davrda

shakllangan jadidchilik harakati nafaqat ma’rifat, ta’lim va madaniyat sohasida, balki jismoniy muhitni tashkil etish, yashash va o‘qish makonlarini zamon talablari asosida qayta ko‘rib chiqishda ham muhim rol o‘ynadi. Jadidlar tomonidan ilgari surilgan g‘oyalar jamiyatni yangilash, inson turmush sharoitini yaxshilash va ijtimoiy muhitni sog‘lomlashtirishga qaratilgan bo‘lib, bu jarayon arxitektura orqali amaliy shakl kasb eta boshladi. An’anaviy me’morchilikda ko‘proq diniy va mahalliy ehtiyojlarga mos inshootlar ustuvor bo‘lgan bo‘lsa, jadidchilik davrida jamoat binolari, yangi usul maktablari, madaniy-ma’rifiy markazlar va ijtimoiy ahamiyatga ega inshootlar loyihalanishiga ehtiyoj kuchaydi. Bu holat arxitektura rejalashtirishida funksionallik, gigiyena, yorug‘lik va havoning erkin aylanishi kabi tamoyillarning ustuvor ahamiyat kasb etishiga olib keldi. Natijada me’moriy makon faqat estetik yoki an’anaviy shakl emas, balki inson salomatligi va tarbiyasiga xizmat qiluvchi muhit sifatida qarala boshlandi.

Jadidlar tomonidan ilgari surilgan zamonaviy ta’lim g‘oyalari maktab binolarining tuzilishida yaqqol namoyon bo‘ldi. Yangi usul maktablari uchun qurilgan binolarda sinfxonalarning keng va yorug‘ bo‘lishi, o‘quvchilar salomatligini ta’minlashga qaratilgan rejalashtirish yechimlari qo‘llanildi. Bu esa arxitekturada ratsional yondashuvning kuchayishiga, me’moriy makonning pedagogik va ijtimoiy vazifalar bilan uyg‘unlashuviga zamin yaratdi. Shu jihatdan, jadidchilik harakati milliy arxitektura taraqqiyotida yangi bosqichni boshlab berdi, deyish mumkin. Milliy uyg‘onish davrida me’moriy muhitni tashkil etishda mahalliy qurilish an’analari bilan bir qatorda zamonaviy qurilish usullari va rejalashtirish prinsiplari ham qo‘llanila boshladi. Bu jarayon milliylik va zamonaviylikning uyg‘unlashuvi sifatida namoyon bo‘lib, arxitektura taraqqiyotiga yangi mazmun bag‘ishladi. Jadid g‘oyalari asosida shakllangan me’moriy qarashlar shahar makonini yanada tartibli, qulay va ijtimoiy ehtiyojlarga mos holga keltirishga xizmat qildi.

Mazkur maqolada milliy uyg‘onish va jadidchilik g‘oyalarining arxitektura va shaharsozlik rivojiga ta’siri ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida jadidchilik harakatining me’moriy tafakkur shakllanishidagi o‘rni, jamoat binolari va ta’lim inshootlari loyihalanishida namoyon bo‘lgan yangicha yondashuvlar hamda ularning bugungi zamonaviy arxitektura uchun ahamiyati yoritiladi. Ushbu masala arxitektura sohasida milliy meros va tarixiy tajribani chuqur o‘rganish hamda zamonaviy loyihalarda undan samarali foydalanish nuqtayi nazaridan dolzarb hisoblanadi.

Asosiy qism. 1. Milliy uyg‘onish va jadidchilik harakatining shakllanishi. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Markaziy Osiyo hududida yuz bergan ijtimoiy-siyosiy va madaniy jarayonlar milliy uyg‘onish harakatining shakllanishiga olib keldi.

Ushbu davr jamiyat hayotida tub burilishlar davri bo‘lib, xalqning o‘zligini anglash, milliy tafakkurni rivojlantirish va zamonaviy taraqqiyotga intilish jarayonlari kuchaydi. Ana shu tarixiy sharoitda jadidchilik harakati vujudga kelib, u ma’rifat, ta’lim, madaniyat bilan bir qatorda moddiy muhit va arxitektura rivojiga ham ta’sir ko‘rsatdi.

Jadidlar jamiyat taraqqiyotini faqat ma’naviy soha bilan cheklab qo‘ymasdan, inson yashaydigan muhitni ham zamon talablariga mos holda yangilash zarurligini ta’kidladilar. Ularning qarashlarida shahar muhiti, maktab binolari, jamoat inshootlari va madaniy maskanlar jamiyat rivojining muhim omili sifatida qaraldi. Bu yondashuv milliy arxitektura tafakkurida yangi bosqichning boshlanishiga sabab bo‘ldi. Milliy uyg‘onish g‘oyalari jadidchilik harakati orqali tizimli tus olib, ijtimoiy hayotning turli jabhalarida namoyon bo‘la boshladi. Ayniqsa, ta’lim va jamoat binolarini loyihalashda yangi talablar paydo bo‘ldi. Endilikda bino faqat tashqi ko‘rinish emas, balki uning ichki makoni, qulayligi va funksional imkoniyatlari muhim ahamiyat kasb etdi.

2. Jadid g‘oyalarining arxitektura tafakkuriga ta’siri

Jadidchilik g‘oyalari asosida shakllangan arxitektura tafakkuri an’anaviy me’moriy qarashlardan ma’lum darajada farq qilar edi. Avvalgi davrlarda me’morchilikda ko‘proq diniy va mahalliy ehtiyojlar ustuvor bo‘lgan bo‘lsa, jadidlar bu sohada ijtimoiy foydalilik va inson salomatligini birinchi o‘ringa qo‘ydilar. Bu esa me’moriy makonni tashkil etishda yangicha yondashuvlarni talab qildi. Jadidlar tomonidan ilgari surilgan g‘oyalarda binolarning yorug‘, havodor va qulay bo‘lishi muhim mezon sifatida belgilandi. Ayniqsa, o‘quv binolari va jamoat inshootlarida tabiiy yorug‘likdan samarali foydalanish, xonalar orasidagi mantiqiy bog‘lanish va gigiyenik sharoitlarga e’tibor kuchaydi. Bu holat arxitekturada ratsional rejalashtirish tamoyillarining shakllanishiga olib keldi.

Shuningdek, jadidchilik davrida arxitektura estetikasi ham yangicha mazmun kasb etdi. Bezak va naqshlar an’anaviy shaklda saqlangan bo‘lsa-da, ularning qo‘llanilishida ortiqcha dabdabadan voz kechilib, soddalik va maqsadga muvofiqlik ustuvor bo‘la boshladi. Bu jarayon milliy me’morchilikda zamonaviylik unsurlarining paydo bo‘lishiga xizmat qildi.

3. Yangi usul maktablari arxitekturasi. Jadidchilik harakatining eng muhim amaliy natijalaridan biri yangi usul maktablarining tashkil etilishi bo‘ldi. Ushbu maktablar nafaqat ta’lim mazmuni, balki arxitektura yechimlari bilan ham an’anaviy maktab va madrasalardan farq qildi. Yangi usul maktablari uchun mo‘ljallangan binolar o‘quvchilarning jismoniy va ruhiy rivojini ta’minlashga xizmat qiluvchi muhit sifatida loyihalandi. Maktab binolarida sinfxonalarning

kengligi, shift balandligi va derazalarning joylashuvi alohida e’tiborga olindi. Tabiiy yorug‘lik va havoning erkin aylanishi ta’lim jarayonining samaradorligini oshiruvchi muhim omil sifatida qaraldi. Bu esa jadid g‘oyalarining arxitektura orqali amaliyotga tatbiq etilganini ko‘rsatadi. Yangi usul maktablarining joylashuvi ham shahar tuzilmasida muhim o‘rin egalladi. Ular ko‘pincha aholiga qulay hududlarda, transport yo‘llariga yaqin joylarda qurildi. Bu holat shaharsozlikda ijtimoiy ehtiyojlarni hisobga olish tamoyilining kuchayganidan dalolat beradi.

4. Jamoat binolari va madaniy-ma’rifiy inshootlar. Milliy uyg‘onish davrida jamoat binolari va madaniy-ma’rifiy inshootlarning soni ortib bordi. Kutubxonalar, teatrlar, klub va majlislar o‘tkaziladigan binolar jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylandi. Ushbu inshootlar jadid g‘oyalarining targ‘ibotchisi sifatida xizmat qildi va arxitektura orqali ijtimoiy ongni shakllantirishga hissa qo‘shdi. Jamoat binolarini loyihalashda ochiq va qulay makon yaratish muhim vazifa bo‘ldi. Zallar keng va yorug‘, kirish qismlari esa hammabop qilib rejalashtirildi. Bu yondashuv jamiyatning turli qatlamlari uchun teng imkoniyatlar yaratishga qaratilgan edi. Natijada, arxitektura ijtimoiy tenglik va ochiqlik g‘oyalarini ifodalovchi vositaga aylandi. Madaniy-ma’rifiy inshootlarda milliy bezak elementlari saqlangan holda, zamonaviy qurilish texnikalari va rejalashtirish usullari qo‘llanildi. Bu jarayon milliylik va zamonaviylik uyg‘unligining yorqin namunasi bo‘lib xizmat qildi.

5. Shaharsozlik va ijtimoiy muhitning shakllanishi. Jadidchilik g‘oyalari shaharsozlik jarayonlariga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Shahar makoni endilikda faqat savdo yoki diniy markaz emas, balki ta’lim, madaniyat va ijtimoiy hayot markazi sifatida rivojlana boshladi. Bu esa shahar tuzilmasini qayta ko‘rib chiqishni talab etdi. Ko‘chalar, jamoat maydonlari va yashash hududlari rejalashtirilayotganda sanitariya, transport qulayligi va aholining kundalik ehtiyojlari hisobga olindi. Bu yondashuv shahar muhitini yanada tartibli va qulay holga keltirdi. Jadidlar ilgari surgan sog‘lom muhit g‘oyasi arxitektura va shaharsozlikda muhim mezonga aylandi. Shahar muhitida jamoat binolarining to‘g‘ri joylashtirilishi ijtimoiy aloqalarning faollashuviga xizmat qildi. Natijada, shahar makoni jamiyatning madaniy va ma’rifiy rivojini ta’minlovchi muhim omilga aylandi.

6. Jadid g‘oyalari va milliy arxitektura merosi. Milliy uyg‘onish va jadidchilik harakati milliy arxitektura merosining rivojiga yangi mazmun bag‘ishladi. An’anaviy me’moriy shakllar zamonaviy ehtiyojlar bilan uyg‘unlashtirilib, yangi tipdagi inshootlar vujudga keldi. Bu jarayon milliy arxitekturaning uzluksiz rivojlanishiga xizmat qildi. Jadidlar tomonidan shakllantirilgan arxitektura qarashlari bugungi kunda ham dolzarb ahamiyatga ega. Zamonaviy ta’lim muassasalari, madaniy markazlar va jamoat binolarini loyihalashda ushbu tarixiy

tajribadan foydalanish muhimdir. Milliylik, funksionallik va ijtimoiy foydalilik tamoyillari jadidchilik davridan boshlab shakllangan barqaror qadriyatlar sifatida qaraladi. Shu bois, jadidchilik harakati nafaqat tarixiy hodisa, balki zamonaviy arxitektura taraqqiyoti uchun muhim ilmiy va amaliy manba hisoblanadi.

Xulosa. Milliy uyg‘onish davri va jadidchilik harakati Markaziy Osiyo tarixida muhim burilish nuqtasi bo‘lib, bu jarayon jamiyat hayotining barcha jabhalarida, jumladan, arxitektura va shaharsozlik rivojida ham chuqur iz qoldirdi. Jadidlar tomonidan ilgari surilgan ma’rifatparvarlik g‘oyalari faqat ta’lim va madaniyat bilan cheklanib qolmay, balki inson yashaydigan muhitni yaxshilash, ijtimoiy makonni zamonaviy talablar asosida qayta tashkil etish zarurligini ham o‘z ichiga oldi. Shu jihatdan qaralganda, jadidchilik harakati milliy arxitektura tafakkurining shakllanishida muhim omil bo‘lib xizmat qilganini ta’kidlash mumkin.

Tadqiqot davomida aniqlanganki, jadid g‘oyalari arxitekturada funksionallik, qulaylik va ijtimoiy foydalilik tamoyillarining kuchayishiga olib kelgan. An’anaviy me’morchilikda ko‘proq bezak va ramziy ma’nolar ustuvor bo‘lgan bo‘lsa, milliy uyg‘onish davrida bino va inshootlarning ichki makoni, rejalashtirish mantiqi hamda inson salomatligiga ta’siri muhim ahamiyat kasb eta boshladi. Bu holat arxitekturaning faqat estetik emas, balki ijtimoiy va pedagogik vazifalarni bajaruvchi tizim sifatida qaralishiga sabab bo‘ldi. Yangi usul maktablari arxitekturasi jadidchilik harakatining amaliy natijalaridan biri sifatida alohida e’tiborga loyiqdir. Ushbu maktab binolari ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi muhit sifatida loyihalanib, ularning rejalashtirilishida yorug‘lik, havodorlik va gigiyenik sharoitlarga katta e’tibor qaratildi. Bu yondashuv arxitektura va pedagogika o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni namoyon etdi hamda ta’lim muassasalarini loyihalashda zamonaviy mezonlarning shakllanishiga zamin yaratdi.

Shuningdek, jadidchilik davrida barpo etilgan jamoat binolari va madaniy-ma’rifiy inshootlar jamiyat hayotida muhim ijtimoiy markazga aylandi. Kutubxonalar, teatrlar va majlislar o‘tkaziladigan binolar nafaqat ma’rifat tarqatish, balki ijtimoiy muloqotni rivojlantirish, milliy ongni shakllantirish vazifasini ham bajardi. Ushbu inshootlarning arxitektura yechimlarida ochiqlik, hammaboplik va qulaylik tamoyillari ustuvor bo‘lib, bu jadid g‘oyalarining makon orqali ifodalanganini ko‘rsatadi. Milliy uyg‘onish davrida shaharsozlik jarayonlari ham yangi bosqichga ko‘tarildi. Shahar muhiti endilikda faqat iqtisodiy yoki diniy markaz sifatida emas, balki ta’lim, madaniyat va ijtimoiy hayot markazi sifatida rivojlana boshladi. Jadidlar ilgari surgan sog‘lom ijtimoiy muhit g‘oyasi ko‘chalar, jamoat maydonlari va yashash hududlarini rejalashtirishda muhim mezon sifatida namoyon bo‘ldi. Bu esa shahar makonining tartibli va qulay bo‘lishiga xizmat qildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, jadidchilik harakati milliy arxitektura merosining uzluksiz rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan. An’anaviy me’moriy shakllar zamonaviy qurilish usullari bilan uyg‘unlashtirilib, milliylik va zamonaviylik o‘rtasida muvozanatga erishildi. Bu jarayon bugungi zamonaviy arxitektura amaliyoti uchun ham muhim tajriba hisoblanadi. Ayniqsa, ta’lim muassasalari va jamoat binolarini loyihalashda jadidchilik davrida shakllangan funksional va ijtimoiy yondashuvlardan foydalanish dolzarb ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, milliy uyg‘onish va jadid g‘oyalari arxitektura taraqqiyotida muhim tarixiy bosqichni tashkil etadi. Ushbu davrda shakllangan me’moriy qarashlar jamiyatning ma’naviy va moddiy rivojini uyg‘un holda ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Jadidchilik harakatini arxitektura nuqtayi nazaridan o‘rganish milliy me’morchilikning tarixiy ildizlarini chuqurroq anglashga, shuningdek, zamonaviy loyihalarda milliy merosdan samarali foydalanishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qodirov, X. O‘zbekiston tarixida jadidlar harakati – Toshkent, 2005.
2. Mamatqulov, A. Milliy uyg‘onish va pedagogik yangiliklar – Samarqand, 2010.
3. Toshpulatov, B. Turkiston Muxtoriyati davrida jadidlar faoliyati – Toshkent, 2012.
4. Yo‘ldoshev, S. Jadid adabiyoti va matbuot – Toshkent, 2015.
5. Abdullayeva, N. Jadidlar va milliy uyg‘onish tarixi – Toshkent, 2018.

JADIDLAR HARAKATINING SHAKILLANISHI VA RIVOJLANISHI

Xasanova Zarina
Jizzax politexnika instituti magistranti, O‘zbekiston,
tel. +998 90-311-63-39

Annotatsiya. Ushbu maqola XIX asr oxiri — XX asr boshlarida O‘rta Osiyo va Rossiya imperiyasi hududida paydo bo‘lgan Jadidlar harakatining shakllanishi, rivojlanishi va jamiyat hayotidagi rolini tahlil qiladi. Jadidlar harakati asosan islom ta’limi va ma’rifatni modernizatsiya qilishga qaratilgan edi va ularning asosiy maqsadi jamiyatni ilm-fan, madaniyat va taraqqiyot yo‘lida yangilash edi. Maqolada Jadidlar faoliyati doirasida maktablar tashkil etilishi, yangi o‘quv dasturlari joriy etilishi, gazetalar va jurnal nashrlari orqali aholini

ma’rifiylashtirish kabi muhim jihatlar ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, harakat ichidagi ichki tafovutlar, turli hududlarda faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari va milliy uyg‘onish jarayonidagi ta’siri tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari Jadidlar harakatining ijtimoiy, madaniy va siyosiy hayotga qo‘shgan hissasini yoritib, ularning O‘rta Osiyo jamiyatini modernizatsiya qilishdagi tarixiy ahamiyatini chuqur tushunishga imkon beradi. Maqola o‘quvchilarga Jadidlar merosi va ularning mintaqaviy taraqqiyotdagi roli haqida keng qamrovli bilim beradi.

Kalit so‘zlar: Jadidlar harakati, O‘rta Osiyo, ma’rifat, ta’lim islohotlari, madaniyat, modernizatsiya, milliy uyg‘onish, XIX–XX asr, ijtimoiy taraqqiyot, tarixiy meros.

Jadidlar harakatining kelib chiqishi. Jadidlar harakati XIX asr oxirida O‘rta Osiyo hududida paydo bo‘ldi. Ular asosan musulmon jamiyatining eski ta’lim tizimi va madaniy hayotidagi zaifliklarni tanqid qilib, yangicha ma’rifiy va ta’limiy qarashlarni ilgari surdilar. Harakatning kelib chiqishiga ijtimoiy va siyosiy omillar, jumladan Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosati, iqtisodiy o‘zgarishlar va jamiyatdagi savodsizlik darajasi sabab bo‘ldi. Maqsad va asosiy yo‘nalishlar; jadidlar harakatining asosiy maqsadi jamiyatni modernizatsiya qilish, ta’limni rivojlantirish va ilm-fan, madaniyat orqali insonlarni ma’rifiylashtirish edi. Ular eski maktablar tizimini yangilash, yangi o‘quv dasturlarini joriy etish, hamda gazetalar va jurnallar orqali aholini bilim bilan ta’minlashga katta e’tibor berishdi. Faoliyat va rivojlanish; jadidlar faoliyati turli hududlarda o‘ziga xos edi. Toshkent, Buxoro, Samarqand va boshqa shaharlar Jadidlar ta’siri ostida yangicha maktablar tashkil etildi. Ularning ta’lim dasturlari nafaqat diniy bilimni, balki matematika, tarix, tabiiy fanlar va adabiyot kabi fanlarni ham o‘z ichiga olgan. Shuningdek, ular gazetalar va jurnallar orqali keng jamoatchilikni ma’rifiylashtirishga intildilar. Jamiyat va milliy uyg‘onishdagi ta’sir; jadidlar harakati jamiyat hayotiga chuqur ta’sir ko‘rsatdi. Ular milliy uyg‘onish, madaniy modernizatsiya va ijtimoiy taraqqiyot jarayonlarini rag‘batlantirdilar. Shu bilan birga, harakat ichida qarama-qarshi fikrlar va tafovutlar mavjud bo‘lib, ularning ba’zilari an’anaviy diniy qadriyatlar bilan modernizm o‘rtasida ziddiyatlarni yuzaga keltirdi.Jadidlar bu harakatlari mobaynida ko’zlagan maqsadlariga erishdilar.

Jadidlar harakati XIX asr oxiri — XX asr boshlarida O‘rta Osiyo jamiyatida chuqur ijtimoiy, madaniy va ma’rifiy iz qoldirdi. Ularning faoliyati ko‘plab sohalarda sezilarli natijalar berdi va jamiyatning modernizatsiya jarayonini tezlashtirdi.

Avvalo, ta’lim va ma’rifat sohasidagi natijalar eng ko‘zga ko‘ringan bo‘ldi. Jadidlar eski maktab tizimini tanqid qilib, yangi ta’lim uslubini joriy etdilar. Ushbu yangi maktablar nafaqat diniy bilimlarni o‘rgatgan, balki matematika, tabiiy fanlar,

tarix, adabiyot va boshqa zamonaviy fanlarni ham o‘z ichiga olgan. Shu orqali yosh avlod zamonaviy bilimlar bilan tanishdi va savodli qatlam kengaydi. Natijada, jamiyatda ilm-fan, tafakkur va mustaqil fikrlashga qiziqish ortdi. Ikkinchi muhim natija – madaniy modernizatsiya. Jadidlar gazetalar, jurnallar va kitoblar nashr etish orqali aholining madaniy saviyasini oshirdilar. Ular jamiyatda tanqidiy tafakkur va mustaqil fikrlashni rivojlantirishga katta e’tibor qaratdilar. Shu bilan birga, madaniyat sohasida teatr, musiqa va adabiyotning rivojlanishi orqali yangi ma’rifiy yo‘nalishlar keng tarqaldi. Bu o‘z navbatida, jamiyatdagi qadriyatlar va turmush tarzini yangilashga yordam berdi. Uchinchidan, Jadidlar harakati milliy uyg‘onish va ijtimoiy tafovutlarni kamaytirishga katta hissa qo‘shdi. Ular mahalliy til, adabiyot va madaniyatni rivojlantirish orqali milliy o‘zlikni shakllantirishga intildilar. Shu bilan birga, yangi maktablar va ma’rifiy ishlarda keng qatlamlarni jalb qilish orqali jamiyatdagi ijtimoiy tafovutlar kamaydi. Bu harakat milliy uyg‘onish jarayonini rag‘batlantirib, turli qatlamlarni ilm-fan va madaniyat bilan tanishtirdi.

Shuningdek, Jadidlar harakati siyosiy va tarixiy meros qoldirdi. Ularning faoliyati jamiyatni modernizatsiya qilish bilan birga, mustaqil tafakkur va milliy ong shakllanishini rag‘batlantirdi. Harakat orqali o‘quvchilar, ziyolilar va oddiy aholi orasida yangi qarashlar shakllandi, bu esa O‘rta Osiyo jamiyatini yangicha fikrlashga undadi. Jadidlar faoliyati natijasida paydo bo‘lgan meros bugungi kunda ham ta’lim va madaniyat tizimida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ilmiy, madaniy va ma’rifiy jarayonlarni rivojlantirishda o‘z aksini topadi. Jadidchilik davrida barpo etilgan jamoat binolari va madaniy-ma’rifiy inshootlar jamiyat hayotida muhim ijtimoiy markazga aylandi. Kutubxonalar, teatrlar va majlislar o‘tkaziladigan binolar nafaqat ma’rifat tarqatish, balki ijtimoiy muloqotni rivojlantirish, milliy ongni shakllantirish vazifasini ham bajardi. Ushbu inshootlarning arxitektura yechimlarida ochiqlik, hammaboplik va qulaylik tamoyillari ustuvor bo‘lib, bu jadid g‘oyalarining makon orqali ifodalanganini ko‘rsatadi. Milliy uyg‘onish davrida shaharsozlik jarayonlari ham yangi bosqichga ko‘tarildi. Shahar muhiti endilikda faqat iqtisodiy yoki diniy markaz sifatida emas, balki ta’lim, madaniyat va ijtimoiy hayot markazi sifatida rivojlana boshladi. Jadidlar ilgari surgan sog‘lom ijtimoiy muhit g‘oyasi ko‘chalar, jamoat maydonlari va yashash hududlarini rejalashtirishda muhim mezon sifatida namoyon bo‘ldi. Bu esa shahar makonining tartibli va qulay bo‘lishiga xizmat qildi. Bundan tashqari, Jadidlar harakati jamiyatda ijtimoiy faollikni kuchaytirdi. Ular yoshlarni jamiyat hayotida faol bo‘lishga, o‘z huquqlari va mas’uliyatini anglashga undadilar. Shu bilan birga, ayollar ta’limi va jamiyatdagi roli masalalarini ham ilgari surdilar, bu esa ijtimoiy tenglik va modernizatsiya jarayonini rag‘batlantirdi. Jadidlar harakati jamiyatning

ta’lim, madaniyat, milliy uyg‘onish va ijtimoiy faollik sohalarida chuqur iz qoldirdi. Ularning amalga oshirgan islohotlari O‘rta Osiyo jamiyatini modernizatsiya qilishda, milliy ongni shakllantirishda va madaniy merosni boyitishda beqiyos ahamiyatga ega bo‘ldi. Jadidlar merosi bugungi kunda ham ilmiy, madaniy va ijtimoiy jarayonlarda ilhom manbai sifatida qadrlanadi.

Jadidlar harakati O‘rta Osiyo jamiyatida chuqur iz qoldirgan bo‘lsa-da, u o‘z yo‘lida bir qator qiyinchiliklar va to‘siqlarga duch keldi. Bu qiyinchiliklar harakatning ijtimoiy, siyosiy, diniy va iqtisodiy kontekstlari bilan bog‘liq bo‘lib, uning rivojlanishi va tarqalishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. An’anaviy diniy qarashlar bilan to‘qnashuv muhim to‘siq bo‘ldi. Jadidlar eski maktab tizimini tanqid qilib, diniy bilim bilan birga zamonaviy fanlarni o‘qitish va yangi pedagogik metodlarni joriy qilishga harakat qilganlarida, ba’zi mahalliy ulamolar va diniy yetakchilar tomonidan qarshi chiqishlarga duch kelishdi. Ulamolar Jadidlarning yangiliklarini an’anaviy islom ta’limi qadriyatlariga zidd deb hisobladilar va ularning maktablarini ochishga qarshilik ko‘rsatdilar. Bu qarama-qarshilik natijasida Jadidlar ko‘pincha o‘z faoliyatini yashirin yoki cheklangan shaklda olib borishga majbur bo‘ldilar. Siyosiy va ma’muriy cheklovlar ham katta to‘siq bo‘ldi. O‘sha davrda O‘rta Osiyo Rossiya imperiyasi ta’siri ostida bo‘lib, mustamlakachilik siyosati hududdagi ijtimoiy va siyosiy faoliyatni qattiq nazorat qilardi. Jadidlar tomonidan ochilgan yangi maktablar, gazeta va jurnallar, shuningdek ma’rifiy ishlanmalar ko‘pincha hukumat nazoratiga tortildi. Ularning ayrim nashrlari yopildi, maktablari cheklangan ruxsatnomalar bilan ishladi. Bu siyosiy cheklovlar Jadidlar faoliyatining kengayishiga to‘sqinlik qildi va ularni tezkor va samarali ishlashga majbur qildi. Iqtisodiy qiyinchiliklar ham harakat rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatdi. Jadidlar ochgan maktablar, nashrlar va kutubxonalarni moliyalashtirish ko‘pincha o‘z kuchlari va xayriya orqali amalga oshirildi. Hududdagi iqtisodiy cheklovlar, aholining ayrim qatlamlari kambag‘alligi, maktablarni va matbuot nashrlarini barqaror saqlashni murakkablashtirdi. Shu sababli ko‘plab maktablar va gazetalar qisqa muddatda yopilish xavfi ostida faoliyat yuritdi. Jamiyatdagi qarama-qarshilik va tushunmovchiliklar ham muammolarni kuchaytirdi. Harakatning modernizatsiya va yangi pedagogik metodlarga urg‘u berishi ba’zi kishilar tomonidan rad qilindi. Ba’zi oilalar va mahalliy hamjamiyat Jadidlar maktablariga o‘quvchilarni yuborishda ehtiyotkorlik qildi yoki qarshilik ko‘rsatdi, chunki ular eski an’anaviy ta’lim tizimi va qadriyatlarni ustun deb bilishdi. Shuningdek, Jadidlar orasida ham metod va yondashuv bo‘yicha qarama-qarshiliklar mavjud edi, bu esa harakatning bir maromda rivojlanishini qiyinlashtirdi. Hududiy va mintaqaviy farqlar ham qiyinchiliklarni oshirdi. Toshkent, Samarqand, Buxoro va Xiva kabi shaharlar va hududlarda Jadidlar

harakati turlicha rivojlandi. Ba’zi hududlarda mahalliy hokimiyat va ulamolar kuchli qarshilik ko‘rsatgan bo‘lsa, boshqa hududlarda Jadidlar faoliyati nisbatan erkinroq edi. Shu sababli harakatning umumiy rivojlanishi bir xilda bo‘lmadi va ayrim hududlarda uning faoliyati to‘liq amalga osholmasdi.

Shuningdek, Jadidlar yangi bilim va pedagogik metodlarni joriy etishda resurs va malaka yetishmovchiligi bilan ham duch kelishdi. Yangi maktablarni tashkil etish uchun malakali o‘qituvchilar va pedagoglar yetishmasligi, shuningdek zamonaviy o‘quv materiallarini tayyorlashdagi qiyinchiliklar, harakatning dastlabki bosqichlarida muammolarni keltirib chiqardi.

Xulosa. Jadidlar harakati O‘rta Osiyo tarixida nafaqat ijtimoiy va madaniy yangilanishning, balki milliy uyg‘onish va modernizatsiya jarayonining markaziy omillaridan biri sifatida tarixiy ahamiyatga ega bo‘ldi. Harakat XIX asr oxirida va XX asr boshlarida paydo bo‘lib, jamiyatni ilm-fan, madaniyat va ma’rifat orqali yangilashni maqsad qilgan edi. Ushbu harakatning shakllanishi nafaqat zamonaviy ta’lim va pedagogik islohotlarga, balki milliy ong va ijtimoiy faollikning rivojlanishiga ham xizmat qildi. Jadidlar eski ta’lim tizimini tanqid qilib, yangi maktablar ochdilar va o‘quv dasturlarini kengaytirib, diniy bilim bilan birga matematika, tabiiy fanlar, tarix, adabiyot va boshqa zamonaviy fanlarni ham joriy etdilar. Shu orqali yosh avlod zamonaviy bilimlar bilan tanishib, mustaqil fikrlashga o‘rgandi, savodli qatlam kengaydi va jamiyatdagi tafovutlar asta-sekin kamaydi.

Madaniy sohada ham Jadidlar faoliyati katta natijalar berdi. Ular gazeta, jurnal va kitoblar nashr etish orqali aholining ma’rifiy saviyasini oshirdi, tanqidiy tafakkur va mustaqil fikrlashni rag‘batlantirdi. Shu bilan birga, teatr, musiqa va adabiyot rivoji orqali yangi madaniy oqimlarni shakllantirdilar. Bu jarayon jamiyatdagi qadriyatlar va turmush tarzini yangilashga yordam berdi, yoshlar orasida ijodiy qiziqish va madaniy faollik kuchaydi. Jadidlar harakati milliy uyg‘onish jarayoniga ham beqiyos hissa qo‘shdi. Ular mahalliy til, adabiyot, tarix va madaniyatni rivojlantirish orqali milliy o‘zlikni shakllantirdi, yangi maktablar va ma’rifiy ishlarda keng qatlamlarni jalb qilish orqali ijtimoiy tafovutlarni kamaytirdi. Shu bilan birga, ayollar ta’limi va jamiyatdagi rolini ilgari surish orqali ijtimoiy tenglik va modernizatsiya jarayonini rag‘batlantirdi.

Siyosiy va tarixiy meros nuqtai nazaridan ham Jadidlar harakati muhimdir. Ularning faoliyati jamiyatda mustaqil tafakkur va milliy ongni shakllantirdi, o‘quvchilar, ziyolilar va oddiy aholida yangicha qarashlar va zamonaviy yondashuvlar shakllanishiga imkon yaratdi. Ularning islohotlari va faoliyati orqali O‘rta Osiyo jamiyatida ta’lim, madaniyat va ijtimoiy faollik sohalarida mustahkam poydevor yaratilgan. Jadidlar harakati O‘rta Osiyo tarixida nafaqat tarixiy hodisa,

balki jamiyatni modernizatsiya qilish, milliy uyg‘onish, ta’lim va madaniyat sohalarida chuqur iz qoldirgan muhim harakat sifatida qadrlanadi. Ularning merosi bugungi kunda ham ta’lim, madaniyat va jamiyat rivojlanishida ilhom manbai bo‘lib xizmat qiladi. Harakatning amalga oshirgan islohotlari va natijalari O‘rta Osiyo jamiyatini yangilash, ilm-fan va madaniyatni rivojlantirish, milliy o‘zlikni mustahkamlash va ijtimoiy modernizatsiya jarayonida tarixiy ahamiyatga ega bo‘ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Vohidov, O. (2003). O‘rta Osiyo ma’rifiy harakatlari tarixi. Toshkent: Sharq.
2. Qodirov, B. (2010). Jadidlar va ularning ta’lim tizimidagi islohotlari. Toshkent: Fan.
3. Jalilov, M. (1998). XIX–XX asr O‘rta Osiyo madaniyati. Toshkent: Ma’naviyat.
4. Karimov, A. (2005). “Jadidlar harakati va milliy uyg‘onish” – O‘zbekiston tarixi jurnali, 2(5), 45–58.
5. Sultonov, N. (2012). Jadidlar maktablari va pedagogik merosi. Samarqand: Universitet nashriyoti.
6. Tursunov, R. (2007). O‘rta Osiyo zamonaviy ma’rifat harakatlari. Toshkent: Yangi asr.
7. Rakhimov, D. (2001). “Jadidlar va gazeta-nashr faoliyati” – Milliy madaniyat va tarix, 4(8), 22–35.
8. Akramov, F. (1995). Jadidlar shaxsiyati va ularning jamiyatga ta’siri. Buxoro: Sharq nashriyoti.

MILLIY UYG‘ONISH VA JADID G‘OYALARI

Xalikov Sindorkul Ravshanovich
Jizzax politexnika instituti,
Arxitekturaviy loyihalash kafedrasi dotsenti
Arxitektura fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), O‘zbekiston
ORCID: https://orcid.org/0000-0002-2163-5326
Umarova Sabina Alisher qizi
Jizzax Politexnika Instituti magistranti
ORCID: https://orcid.org/0009-0003-2729-036X

Annotatsiya: *Ushbu maqolada milliy uyg‘onish g‘oyalarini shakllanib kelishi, rivojlanishi va ularning tarixiy-falsafiy ildizlari tahlil qilinadi. Muallif milliy uyg‘onish*

g‘oyalari tushunchasini ochib beradi. Qadimgi Sharq tafakkuri, Islom falsafasi, turkiy madaniyat an’analarini, va jadidlar harakati tizimidagi o’rnini yoritib beradi. Shuningdek milliy uyg‘onishimiz xalqning ma’naviy hayotidagi ahamiyati, ularning bugungi kundagi yoshlar tarbiyasi hamda globallashuv sharoitida saqlab qolish masalalari tahlil qilinadi. Maqolada milliy uyg‘onishimizning har bir davrda qay tarzda namoyon bo’lgani aks ettirilgan. Tarixiy manbalar va falsafiy qarashlarga tayanib, milliy uyg‘onishlarining uzviylik va yangilanish tamoyillari ilmiy nuqtai nazardan asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: *Milliy uyg‘onish g‘oyalari, Tarixiy ildizlar, Falsafa, Ma’naviyat, An’ana, Sharq tafakkuri, Jadidlar, Islom falsafasi, Milliy taraqqiyot, Globallashuv.*

Annotation*: This article analyzes the formation, stages of development, and historical-philosophical roots of the ideas of national awakening. The author reveals the essence and conceptual meaning of national awakening. The study highlights its foundations in ancient Eastern thought, Islamic philosophy, Turkic cultural traditions, and its role within the system of the Jadid movement. Furthermore, the significance of national awakening in the spiritual life of the people, its role in youth education, and the issues of preserving national values in the context of globalization are examined. The article also reflects how national awakening manifested itself in different historical periods. Based on historical sources and philosophical views, the principles of continuity and renewal in national awakening are scientifically substantiated.*

Keywords*: ideas of national awakening, historical roots, philosophy, spirituality, tradition, Eastern thought, Jadid movement, Islamic philosophy, national development, globalization.*

Аннотация: *В данной статье анализируются процессы формирования, этапы развития и историко-философские корни идей национального возрождения. Автор раскрывает сущность и содержательное значение понятия национального возрождения. Освещаются его истоки в древневосточной мысли, исламской философии, тюркских культурных традициях, а также его место в системе джадидского движения. Кроме того, рассматривается значение национального возрождения в духовной жизни народа, его роль в воспитании молодежи и вопросы сохранения национальных ценностей в условиях глобализации. В статье показано, как национальное возрождение проявлялось в различные исторические периоды. На основе исторических источников и философских взглядов научно обосновываются принципы преемственности и обновления национального возрождения.*

Ключевые слова: *идеи национального возрождения, исторические*

корни, философия, духовность, традиция, восточная мысль, джадидское движение, исламская философия, национальное развитие, глобализация.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston davlati murakkab ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni boshdan kechirdi. Chor Rossiyasi mustamlakachilik siyosati natijasida mahalliy xalqning siyosiy huquqlari cheklanib, iqtisodiy va madaniy hayotda qoloqlik juda kuchayib ketdi. An'anaviy ta'lim tizimi zamon talablariga javob bermay qoldi, xalq orasida savodsizlik darajasi yuqori edi. Xuddi shunday sharoitda milliy uyg'onish g'oyalari, ilm-ma'rifat orqali taraqqiyot sari yetaklash zarurati tug'ildi.

Milliy uyg'onish harakati aynan shu tarixiy ehtiyoj mahsuli sifatida yuzaga chiqdi. Bu harakatning asosiy maqsadi xalq ongini rivojlantirish, zamonaviy bilimlarga ega chiqish, ularni da'vat etish va o'zlikni anglashni kuchaytirishga qaratilgan edi. Ushbu vaziyat jadidlar harakati bilan uzviy bog'liq bo'lib, yangi usuldagi ta'limni joriy etish, matbuot va adabiyot orqali jamiyatni isloh qilish g'oyalarini ilgari surgandi. Milliy uyg'onishning asosiy maqsadlari quyidagilar:

- Ma'rifatni rivojlantirish – odamlarni ilm-fan, tarix, til va madaniyat bilan tanishtirish, savod darajasini oshirish;
- Milliy o'zlikni anglash – xalqning o'z tarixi, urf-odatlari va qadriyatlariga hurmatni shakllantirish;
- Ijtimoiy islohotlar- jamiyatda adolat, tenglik, ayollar ta'limi va yoshlarning ma'naviy tarbiyasini yaxshilash;
- Madaniy yangilanish- adabiyot, teatr, matbuot va boshqa vositalari orqali xalq ongini uyg'otish.

Shunday qilib, jadidlar g'oyalari xalqni ilm-ma'rifat, milliy o'zlikni anglash va tarqqiyot yo'lida yetaklashga qaratilgan bo'lib, bugungi kunda ham o'zbek jamiyatida muhim meros sifatida qadr topadi. Ularning faoliyati milliy uyg'onish davrini belgilab bergan va yosh avlodni ma'naviy ruhda rivojlantirishda asosiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Jadidlar orqali milliy uyg'onish faqat ma'rifiy jarayon bo'lib qolmadi, balki siyosiy mazmun ham kasb etdi. Jadidchilik harakatining asoschisi sifatida ko'pincha qrim-qatar ma'rifatchisi Ismoil G'aspirali tilga olinadi. U ilgari surgan "usuli jadid" – yangi usuldagi maktablar tashkil etish g'oyasi musulmon xalqlari orasida keng tarqaldi. Bu g'oya Turkistonda ham tez yoyilib, mahalliy ziyolilar tomonidan qo'llab quvvatlandi.

Turkistonda jadidchilik harakatining yirik namoyondalari qatorida Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Cho'lpon kabi ma'rifatparvarlar bor edi. Ular xalqni ilm-ma'rifatli qilish, zamonaviy

fan va texnikani o‘rgatish,teatr va adabiyot orqali ongni uyg‘otish yo‘lida faoliyat olib bordilar.Ular millatning o‘z taqdirini belgilash va taraqqiy etgan jamiyat qurish g‘oyalarini ilgari surdilar. Masalan, Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Padarkush” dramasida jamiyatdagi jaholat va ma’naviy inqirozni ochib bergan bo‘lsa, Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asari yoshlarni axloqiy va ma’rifiy tarbiyalashga xizmat qildi.

Jadidlar gazeta va jurnallar orqali xalqni savodli qilish, yangi dunyoqarash, milliy g‘ururni shakllantirish bilan shug‘ullandilar. Masalan, “Turkiston”gazetasi, “Shuhrat” jurnali orqali jamiyatdagi adolatsizlik va ma’naviy muammolar yoritildi. Shu tarzda matbuot o‘rni nafaqat ma’rifat, balki ijtimoiy ongni uyg‘otish vositasi sifatida ham muhim bo‘ldi. Ular nafaqat bilim va fan orqali, balki milliy qadriyatlar, tarix va san’atni targ‘ib etish orqali ham xalqning ma’naviy uyg‘onishiga hissa qo‘shdilar. Shu bilan birgalikda ular o‘z davrida milliy birlikni mustahkamlashga ham katta e’tibor qaratdilar.

Jadidlar o‘z maqsad va g‘oyalarini amalga oshirish uchun:

- Yangi usuldagi maktablarni Toshkent Samarqand, Buxoro, Andijon va boshqa shaharlarda ochdilar;
- Dramatik asarlar, maqolalar, she’rlar yozdilar, bularni teatr va matbuot orqali xalq ongiga singdirdilar;
- Din, tarix, til, adabiyot kabi fanlarni milliy asosda o‘qitdilar;
- Ayollarning ta’limi va bolalar masalasiga katta e’tibor qaratdilar.

Jadidlar faoliyatining muhim yo‘nalishlaridan biri ayollar ta’limini rivojlantirish edi. Ular ayollarning ma’rifatli bo‘lishu jamiyatning tarqqiyoti va farovonligi uchun muhim ekanini ta’kidladilar. Bu orqali jamiyatdagi gender tengligi va ijtimoiy faollikning ilk qadamlari paydo bo‘ldi. Sovet davrida jadidlarimizning “Xalq dushmani” sifatida qatag‘onga uchradi, lekin ularning g‘oyalari xalqimizning qalbidan o‘chmadi. Mustaqillik yillarida jadidlarimizning nomlari qayta tiklandi, yozgan asarlari qayta nashr ettirilib, maktablar, ko‘chalar, muassasalar jadidlarimizning nomi bilan atala boshlandi. ,

Mustaqillik davriga erishganimizdan so‘ng O‘zbekiston Respublikasi xalqining tarixida yangi davr boshlandi. Asrlar davomida to‘planib, ammo mustamlakachilik va tazyiq ostidagi milliy qadriyatlar qayta tiklandi. Mustaqilligimiz xalqimizga o‘z tarixini, tili-dini, urf-odat va an’analarini qayta rivojlantirish imkoni yaratildi. O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev jadidlarning ilm-ma’rifat madaniyat va ijtimoiy islohotlar yo‘lidagi xizmatni doimiy ravishda ta’kidlab keladi. Ularning g‘oyalari bugungi kunda ham milliy qadriyatlarni saqlash, yoshlarni ilm-fan va taraqqiyot yo‘liga yetaklashda asosiy manba sifatida qadrlanadi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev bir nutqida shunday dedi: “Bugun biz mustaqil demokratik davlat qurmoqdamiz va bu yo‘lda ijtimoiy islohotlarni jadidlarimizning insonparvar g‘oyalari bilan uzviy bog‘lab boramiz. Ularning merosi yangi O‘zbekiston — huquqiy davlat va erkin jamiyatni barpo etishda mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qiladi.” Ushbu fikrlar davlat rahbarining milliy tarixiy ildizlarni qadrlashini va jadidlar g‘oyalarini bugungi maqsadlar bilan uyg‘unlashtirishga bo‘lgan e’tiborini ko‘rsatadi. Shuningdek, davlat rahbari jadidlarning ilgari surgan ma’rifatparvar g‘oyalari bugungi kunda ham yoshlar tarbiyasi, milliy qadriyatlarni mustahkamlash va erkin fikrlash asosida jamiyat qurish uchun muhim ilhom manbai ekanini qayd etgan.

XULOSA. Yuqorida keltirilgan fikr va mulohazalardan quyidagi xulosalarga kelish mumkin. Milliy uyg‘onish – o‘zbek xalqining ma’naviy, madaniy va ijtimoiy hayotida muhim burilish yasadi. Jadidlar ilm-fan, ta’lim, madaniyat va milliy o‘zlikni rivojlantirish orqali jamiyatni yangilashga katta hissa qo‘shgan. Ularning ilgari surgan g‘oyalari nafaqat XIX-XX asrlarda, balki bugungi kunda ham yosh avlodni tarbiyalash, milliy qadriyatlarni saqlash va ilm-fan yo‘lida rivojlantirishga ilhom manbai bo‘lmoqda. XIX-XX asrlarda milliy qadriyatlarimizni saqlash jadidlar harakati orqali davom etdi. Ulardan Mahmudxo`ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori, Fitrat, Cho`lpon kabi jadidlarimiz xalqimizni milliy o‘zlik sari chorlab, qadriyatlarni yangicha tarzda tiklashga harakat qildilar. Ularning faoliyati milliy uyg‘onish davrining poydevoriga aylandi.

Diniy ma’naviy meroslar qayta tiklandi. Imom al-Buxoriy, Imom Termiziy Bahouddin Naqshband, Ahmad Yassaviy kabi allomalar merosi o‘rganilib, ularning nomidagi xalqaro ilmiy markazlar faoliyat boshladi. Bu orqali diniy bag‘rikenglik, insonparvarlik va adolat qadriyatlari jamiyat hayotiga chuqur singmoqda. “Yangi O‘zbekiston” davrida milliy qadriyatlar davlat siyosatining markaziga aylanib, Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida jadidlarimiz merosi, milliy qadriyatlarni, yoshlarning ma’naviy tarbiyasi ayollar faolligi kabi yo’nalishlarda keng ko‘lamli islohotlar olib borilmoqda. Bu islohotlar milliy uyg‘onish davridagi qadriyatlarni zamonaviy taraqqiyot bilan bog‘lashga xizmat qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdulla Avloniy “Turkiy guliston yoxud axloq” asari – Toshkent 1910.
2. Abdurauf Fitrat, Maxmudxo‘ja Bexbudiy va boshqa jadidlar asarlari. Toshkent 1910-1930.
3. Islom tarixi va falsafasi bo‘yicha manbalar A.Azizov. Toshkent 2002.
4. Jadidchilik va milliy uyg‘onish bo‘yicha ilmiy manbalar: Rasulov S. Samarqand 2015.

5. O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti nutqlari va farmonlari: Islom Karimov Toshkent 1991-2016.
6. Shavkat Mirziyoyev Toshkent 2016-2025.
7. Zardushtiylik va avesto manbalari. Toshkent 1985.
8. Tursunov B. O‘zbek milliy qadriyatlari Toshkent 2010.

Jadidchilik harakatining shakillanishi va rivojlanishi

Ma’murova Nodira O’tkirjon qizi
Farg’ona davlat texnika universiteti 1-bosqich talabasi
Oripova Zarnigor Matqulbek qizi
Farg’ona davlat texnika universiteti
Kimyo muhandisligi kafedrasi assistenti
zarnigorxonoripova@mail.ru

Annotatsiya*. Mazkur maqolada jadidchilik harakatining vujudga kelish sabablari, uning asosiy bosqichlari hamda Turkiston ijtimoiy-madaniy hayotidagi o‘rni yoritiladi. Shuningdek, harakatning milliy uyg‘onish jarayonidagi ahamiyati tahlil qilinadi.*

Kalit so’zlar*: Jadidchilik, ma’rifatparvarlik, milliy uyg‘onish, yangi usul maktablari, islohot, Turkiston.*

Kirish. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotda jiddiy o‘zgarishlar yuz berdi. Chor Rossiyasi mustamlakachilik siyosati mahalliy aholining siyosiy va iqtisodiy ahvoliga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Ana shunday sharoitda millat ravnaqi va ozodligi uchun kurashgan ma’rifatparvar ziyolilar harakati — jadidchilik vujudga keldi. Jadidchilik harakatining shakllanishida yangi usul maktablarining tashkil etilishi muhim omil bo‘ldi. Bu maktablarda diniy ta’lim bilan bir qatorda dunyoviy fanlar ham o‘qitildi. Jadidlar xalqni jaholatdan chiqarish, ilm-fan va zamonaviy bilimlar orqali millatni rivojlantirishni asosiy maqsad qilib oldilar. Harakat XX asr boshlarida yanada kengaydi. Jadidlar matbuot, teatr, adabiyot va publitsistika orqali xalq ongini uyg‘otishga harakat qildilar. Ular milliy tilni rivojlantirish, ayollar ta’limini yo‘lga qo‘yish, jamiyatni isloh qilish g‘oyalarini ilgari surdilar.

1917-yil voqealaridan so‘ng jadidlar siyosiy maydonga ham chiqib, milliy davlatchilik g‘oyasini ilgari surdilar. Bu jarayon Turkiston Muxtoriyati tashkil topishida o‘z aksini topdi. Garchi bu harakat uzoq davom etmagan bo‘lsa-da, u milliy ozodlik va mustaqillik g‘oyalarining shakllanishiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Jadidchilik harakati namoyandalari ko‘pincha o‘zlarini taraqqiyparvarlar,

keyinchalik jadidlar deb atashgan. O‘sha davrning ilg‘or taraqqiyparvar kuchlari, birinchi navbatda, ziyolilar mahalliy aholining umumjahon taraqqiyotidan orqada qolayotganligini his etib, jamiyatni isloh qilish zaruriyatini tushunib yetgandilar. Jadidchilik mohiyat e’tibori bilan avvalo siyosiy harakat edi. Uning shakllanish va mag‘lubiyatga uchrash davrlari bo‘lib, ularni shartli ravishda to‘rtga bo‘lish mumkin.

Turkiston, Buxoro va Xiva hududida bu davrlar 1895-1905; 1906-1916; 1917-1920; 1921-1929-yillarni o‘z ichiga oladi. Birinchi davrda Turkistonda podsho Rossiyasining mustahkam o‘rnashib olishi kuzatiladi. U o‘z siyosiy agentlari (vakillari) yordamida mahalliy xon va amir vakolatlarini cheklabgina qolmay, ularni qo‘g‘irchoqqa aylantirib, rus va g‘arb sarmoyadorlarining ishlashi va yashashi uchun sharoit yaratadi, turli kompaniyalar, aksiyadorlik jamiyatlari manfaatini ko‘zlaydi. Ayni chog‘da mahalliy aholining talab va ehtiyojlari nazarga olinmay qo‘yildi, diniy e’tiqodlari, urf-odatlari bilan hisoblashmaslik, ularni mensimaslik kuchaydi. Hayotiy, ilmiy saviyasi yuqori bo‘lgan qozilar tajribasiz kishilar bilan almashtirildi, poraxo‘rlik, ijtimoiy-siyosiy adolatsizlik avj oldi. Madrasa va maktablar faoliyatini cheklash, mahalliy joy nomlarini ruscha atamalar bilan almashtirish, hatto mahkama jarayonida qozilar bo‘yniga xoch taqtirishgacha borildi. O‘sha davr ahvolini Muhammadali xalfa Sobir o‘g‘li (Dukchi eshon) xalqqa qarata o‘z „Xitobnoma“si (1898)da yaxshi bayon qilgan. Millat istiqbolini o‘ylovchi taraqqiyparvar kuchlar xalqning deyarli barcha tabaqalari — hunarmand, dehqon, savdogar, mulkdor, ulamolar orasida mavjud edi. Ziyolilar dastlab chorizmga qarshi kurashni xalqni asriy qoloqlikdan uyg‘otish — siyosiy-ma’rifiy jabhadan boshlashga qaror qildilar. Jadidchilik harakati ana shunday tarixiy bir sharoitda Turkiston mintaqasida rivojlanish uchun o‘ziga qulay zamin topdi. Jadidlar orasidan yetuk olimlar, sanoat va ziroatchilik sohalarining zamonaviy bilimdon mutaxassislari, madaniyat arboblari yetishib chiqib, yurtni obod va o‘z vatanlarini mustaqil ko‘rishni orzu qildilar va shu yo‘lda kurashdilar. Jadidlarning Turkiston mustaqilligi uchun kurashida asosan quyidagi yo‘nalishlar ustuvor edi: yangi usul maktablari tarmog‘ini kengaytirish; qobiliyatli yoshlarni chet elga o‘qishga yuborish; turli ma’rifiy jamiyatlar va teatr truppalari tuzish; gazeta va jurnallar chop qilish, xalqning ijtimoiy-siyosiy ongini yuksaltirish bilan Turkistonda milliy demokratik davlat qurish. Jadid ziyolilarining kuchli partiyasi tashkil qilingan taqdirdagina bu ishlarni amalga oshirish mumkin edi. Turkistonda jadidichilik harakatining katta ijtimoiy siyosiy kuch sifatida maydonga chiqishida barcha shart-sharoit va omillar yetilgan edi. Ma’lumki, Yevropa XVIII-XIX asrlarda o‘z boshidan texnika taraqqiyotini kechirib, XX asr madaniyati va turmushi uchun mustahkam poydevor yaratilgan edi. Osiyo, jumladan, Turkiston esa bu sohada

orqada qolib ketgandi. Uchta o‘zbek xonliklari (Buxoro, Xiva, Qo‘qon)ning o‘zaro birodarkushlik urush va nizolari, Rossiyaning bu davlatlarga bostirib kirishi, mintaqaning mustamlaka holatiga tushib qolishi, mustamlakachilik milliy zulmning o‘rnatilishi va uning kuchayib ketishi o‘sha qoloqlikni yanada chuqurlashtirib yuborgan edi. Qoloqlik va jaholatni, o‘lka aholisining ayanchli ahvoli Turkistonning Yevropa va jahon sivilizatsiyasidan orqada qolib ketgani, islom va shariat oyoq osti haqida o‘z zamonasining ilg‘or, ziyoli qatlamlarida fikr-mulohazalar paydo bo‘la boshladi. Ijtimoiy uyqudan uyg‘onish, milliy uyg‘onish tarixiy zaruriyat bo‘lib qoldi. Boshqacha qilib aytganda, jadidichilik harakati ijtimoiy rivojlanishning, tarixiy taraqqiyotning talab va ehtiyojlariga javob tariqasida obektiv ravishda maydonga keldi. O‘lkada millatning dard alamlarini, butun ayanchli, mudhish, fojiali, og‘ir qismatini o‘z qalbi va vujudidan o‘tkazib, o‘zining butun borlig‘ini, aql-zakovatini, ongli hayotini erk ozodlik taraqqiyot uchun safarbar etgan ziyolilarning butun bir yangi avlodi shakllanadi. Turkistonda jadidchilikning maydonga kelishi va rivojlanishida Usmonli Turk imperiyasidagi ijtimoiy-siyosiy, madaniy-mafkuraviy g‘oya va harakatlarning ham ta’siri kuchli bo‘ldi.

XX asr boshlariga kelib Toshkent, Samarqand, Buxoro, Farg‘ona vodiysi shaharlarida o‘nlab jadid usulidagi maktablar ochildi. Jadidlar maktablarda yoshlarni bilimli va ma’rifatli qilib tarbiyalab, ular orqali Turkistonda mustaqil davlat barpo etish uchun milliy davlatchilik g‘oyalarini ilgari surgan. XX asr boshiga kelib Turkistonda jadid ziyolilarining butun bir avlodi, o‘lka ma’naviy-ma’rifiy soha taraqqiyotiga, milliy madaniyatning rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan namoyandalari vujudga keldi. Bular Samarqandda Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abduqodir Shakuriy, Said ahmad Siddiqiy Ajziy, Toshkentda Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev, Buxoroda Abdurauf Fitrat, Sadriddin Ayniy, Fayzulla Xo‘jayev, Farg‘ona vodiysida Hamza Hakimzoda Niyoziy, Obidjon Mahmudov, Abdulhamid Cho‘lpon, Is’hoqxon Ibrat, Xivada Bobooxun Salimov, Polvonniyoz hoji Yusupov va boshqalar edi. Ular vatanparvar, ma’rifatparvar, Turkiston o‘lkasida jadidchilik harakatining asoschilari va rahnamolari hisoblanadi.



Turkiston jadidlarini birlashtirishda “O‘rta Osiyo jadidlarining otasi” deb tan olingan Mahmudxo‘ja Behbudiy (1875–1919) ning xizmati katta bo‘ldi. U 1875-yilning 19-yanvarida Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog‘ida tug‘ilgan. Dastlab Samarqand, so‘ngra Buxoro madrasalarida tahsil olib, imom-xatib, qozi, keyin muftiy darajasiga ko‘tarildi. Behbudiy O‘rta Osiyo jadidchilik harakatining asoschisi va yo‘lboshchisi edi. Turkistonda ma’rifatparvarlik harakatining rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan shaxs hisoblanadi. Behbudiyning tashabbusi bilan o‘z otasi sharafiga “Behbudiya kutubxonasi” deb atalgan kutubxona tashkil qilingan. Xulosa qilib aytganda, bizning jadidlar millat taqdiri va kelajagi uchun jon kuydirgan fidoyi ma’rifatparvarlar edi. Ular xalqni jaholat va qoloqlikdan chiqarish, ilm-fan va zamonaviy ta’lim orqali jamiyatni yangilashni o‘z oldilariga asosiy maqsad qilib qo‘ydilar. Jadidlar nafaqat ta’lim sohasida, balki matbuot, adabiyot, teatr va siyosiy faoliyat orqali ham milliy ongni uyg‘otishga harakat qildilar.

Ularning sa’y-harakatlari natijasida yangi usul maktablari ochildi, milliy matbuot rivojlandi, yosh avlodni chet ellarda o‘qitish tashabbuslari ilgari surildi. Eng muhimi, jadidlar Turkistonning ozod va mustaqil bo‘lishini orzu qildilar hamda shu yo‘lda kurash olib bordilar. Garchi jadidchilik harakati turli siyosiy sabablar tufayli mag‘lubiyatga uchragan bo‘lsa-da, uning g‘oyalari milliy uyg‘onish jarayonida muhim o‘rin tutdi. Jadidlarning boy ilmiy va ma’naviy merosi bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan bo‘lib, u yosh avlodni vatanparvarlik, ma’rifat va taraqqiyot ruhida tarbiyalashda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan Adabiyotlar

1. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma’naviyat, 1999.

2. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992.

3. Cho‘lpon. Asarlar to‘plami. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2001.

4. Fitrat. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Sharq, 2000.
5. Saidrasul Azizi. Jadidchilik harakati tarixi. – Toshkent: Fan, 2006.
6. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 3–4-jildlar. – Toshkent, 2002–2003.
7. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992.
8. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. “Jadidchilik” maqolasi. – Toshkent, 2002–2003.
9. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti. O‘zbekiston tarixi (XIX asr oxiri – XX asr boshi). – Toshkent: Fan, 2014.

JADIDLARNING MILLIY MATBUATGA QO'SHGAN HISSASI

O‘zbekiston amaliy san’at va hunarmandchilik tarixi davlat muzeyining Amaliy san’at va etnografiya ilmiy bo‘limi ilmiy xodimi
Sobirov Sardor Alisher o‘g‘li
+998994791003

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Jadidchilarning milliy matbuot paydo bo‘lishi, yuksalishi va taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi to‘liq ochib berilgan. Shuningdek, Markaziy Osiyoda matbuot yuksalishini davrlaga ajratib o‘rganilgan va har bir davrning xususiyatlari ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Jadid, Markaziy Osiyo, Ismoil Gaspirali, Taraqqiy, Shuhrat, Turon.*

Kirish. Jadidchilar harakati O‘rta Osiyoda XIX asning oxiri - XX asrlar boshlarida Turkiston ijtimoiy - madaniyat yuksalish va milliy uyg‘onish jarayonlarini shakllanishida muhim bosqichdi tashkil etadi. Bu harakatlar avvalam bor ta’limini islohat o‘tkazih, jamiyat tafakkurini yuksaltirish, milliy ongni shakllantirish va zamoviy fikrlashni qaror toptirishni asosiy maqsad qilib belgiladilar. Jadid ushbu g‘oyalarni keng ommaga yetkazishda eng samarali vosita sifatida Mabuotni tanlab olishdi. Bundan tashqari, o‘sha davrga kelib Yevropa mamlakatlarida matbuot tizimi allaqachon to‘laqonli shakllanib, jamoatchilik fikrini boshqaruvchi va ijtimoiy taraqqiyotga xizmat qiluvchi muhim institutga aylangan. Jadidlar chet el davlatlariga tashrif jarayonlarida tajribani chuqur anglab, uni Turkiston sharoitida milliy uyg‘onish vositasi sifatida qo‘llashga intildilar. Dastlab jadid namoyondalari gazeta chop etish uchun bosmaxonalar

tashkil etishdi.

Asosiy. O‘rta Osiyoda bosmaxona paydo bo‘lishida Ismoil Gaspirali faoliyati bilan bog‘liq. 1871–874 yillar Fransiyaning parij unversitetida tahsil oladi va tarjimon bo‘lib ishlaydi. Shu vaqt oralig‘ida jurnalistikani ham o‘rganadi. 1875 yil vatani Qrimga qaytadi. 1879 – yildan boshlab Ismoil Gaspirali Ismoil Gaspirali Qrimda o‘zining qrim-tatar tilida „Faidaly eglendzhe“ (1879-1880), „Qonun“ (1881) gazetalari nashriyoti yaratishga bir necha bor harakat qilib ko‘radi. Nihoyat 1883-yil 10-aprelda Ismoil Gaspiraliga birinchi nashriyotini ochishga ruxsat berildi va nashriyot Tarjimon deb ataladi. Uning boshchiligida Tarjimon nashriyoti jahon yangiliklar, turkiy dunyo adabiyoti, turkiy xalqlarni birlashtirish va boshqa muhim masalalar keng yoritildi. Gazeta 1914 – yil 11-sentabrgacha ya’ni uning vafotigacha muntazam chop etib borildi. Bundan tashqari, o‘z vatandoshlarini uning g‘oyalariga ergashishga, milliy davlat qurish va xalq farovonligi uchun kurashishga da’vat etadi. U 1893 yilda Markaziy Osiyo shaharlariga sayohat qilib, o‘z qarashlari va g‘oyalarini yoyish maqsadida Toshkent va Samarqand kabi shaharlarda bo‘ladi(J.Azimov,1922). Samarqandda G‘aspirali Mahmudxo‘ja Behbudiy bilan yuzma-yuz uchrashadi va uning fikr-mulohazalari hamda takliflari bilan yaqindan tanishadi.

Markaziy Osiyoda jadid matbuoti tarixi odatda to‘rtta davrga bo‘linadi

1-davr (1906–1908) – imperiya davrida mahalliy tilda matbuoti va jadid nashrlarining vujudga kelishi hamda mustaqil ommaviy axborot vositalarining faoliyatini yo‘lidagi dastlabki qadamlar.

2-davr (1912–1914) – muvaffaqiyatli nashriyot faoliyatini yo‘lga qo‘yishga harakatlar , biroq ularning faoliyatini

3-davr (1917–1918) – Rossiyadagi fuqarolar urushi sharoitida gazetalar faoliyatining qayta jonlanishi, radikallashuvi va safarbarlik vositasiga aylanishi.

4-davr (1918–1928) – O‘zbek sovet matbuotini shakllantirish va unda faol qatnashish davri. Bu davrga 1925 yildan boshlab sovetlar tomonidan sotsializm dushmanlariga, jumladan jadidlarga qarshi boshlangan mafkuraviy kurash ham kiradi.

Rossiya Yaponiya bilan qaqshatqich mag‘lubiyati sababli siyosiy hayotga ma’lum darajada yangilanish zarurligini ko‘rasatdi. So‘z erkinligiga qo‘yilgan cheklovlarning biroz yumshatilishi Turkistonda matbuot faoliyatining paydo bo‘lishga turtki berdi (J.Azimov,1922). Birinchi davrda Markaziy Osiyoda jadidlarning matbuotda xalq marifatli qilish va ta’lim rivojlantirish uchun madaniy islohatlar o‘tkazish alohida urg‘u berishadi. Jadidlarning madaniy islohotlari

dastlab yangi usul maktablarida yuzaga kelgan bo‘lib, bu harakat zamonaviylik keltirib chiqargan muammolarga moslasha oladigan yangi avlod turkistonliklarni tarbiyalash zaruratiga javob sifatida shakllandi. Jadidlarni o‘z nashrlarini tashkil etishga undagan dastlabki ilg‘or gazetalardan biri “Taraqqiy” gazetasi 1906-yil iyun oyida nashr etila boshlagan.Unga tatar ziyolisi Ismoil Obidiy muharrirlik qilgan (D.A.Saidmurodov, U.O.Narzullayev,2025). Bu gazeta musulmon aholisi uchun haftasiga ikki yoki uch marta Qozon yoki Qrimda navbatma-navbat chop etilgan. Ammo gazeta uzoq vaqt faoliyat yuritmadi.1906-yil avgust oyida, 19-sonidan so‘ng sud qarori bilan yopildi.

Xurshid - Jadidchilarning ilk gazetalaridan qatoriga kiradi ushbu gazeta 1906 - yil 7–sentabrda Toshkent shahrida chiqarilgan. Uning noshir va muharriri Munavvarqori Abdurashidov edi. Ammo nashriyotda mustamlakachilar zulmiga qarshi kurash, milliy uyg‘onishni rag‘barlantirish, ijtimoiy sohani shakllantirish va boshqa masalalarni oid maqollar va materiallar nashr qilgan sababli 1906 – yil 12 – noyabr yopib qo‘yildi. Shuningdek, Abdulla Avloniy asos slogan Shuhrat gazetasi ham xuddi shunday taqdirni boshdan kechirdi. tez orada faoliyatini to‘xtatgan boshqa gazetalar ro‘yxatiga yana bir Tujjor gazetasi kirish mumkin. Tujjor gazetasi 1907-yil haligacha noma’lum bo‘lgan shaxs boshchiligida asos solingan. Biroq 36 soni chop etildi xolos. Osiyo 1908-yil 9-apreldan boshlab, nashr qilishni boshladi va atigi 5 son chop etilgan.

Ikkinchi davr jadid matbuotida faollik yanada kuchaydi. Tuzilmaviy o‘zgarishlar bo‘lmagan bo‘lsa-da, gazetalar tilidagi ohang ko‘proq didaktik, ya’ni o‘git va ma’rifat berishga yo‘naltirilgan tus oldi. Buxoroda jadidlari guruhi Gazeta chiqarish tashabbusi tomonidan ilgari surildi va ular fors tilidagi Buxoroyi sharif (“Buxoroyi sharif”) nomli gazetasini nashr etishga huquqiga ega bo‘lishdi. 1912-yil iyul oylarida ushbu nashrning turkiy ilovasi — Turon chop etila boshladi. “Buxoroyi sharif” ozarbayjonlik muharrirlar tomonidan tahrir qilinar va har kuni nashr etilar edi. amirning iltimosiga sababli binoan hukumat tomonidan 1913-yil faoliyati to‘xtatildi. Behbudiy han Jurnalistika, matbuot yukasalishida katta hissa qo‘shgan. Behbudiy 1913-yilda aprel Samarqand den nomlanadigan nashriyotini ochadi. Nashriyot ikki tilda o‘zbek va tojik tillarda har haftasiga 2 marta chop etilgan

Hoji Muin (1883–1942)ning hayot yo‘li ko‘p jihatdan Mahmudxo‘ja Behbudiy faoliyatiga o‘xshash edi. Behbudiy kabi u ham bir qator gazeta va jurnallarga muharrirlik qilgan: Hurriyat (“Hurriyat”), Mehnatkashlar tovushi (“Mehnatkashlar tovushi”), Tayyoq (“Tayyoq”) va Mashrab. Shuningdek, u Behbudiy bilan birga Samarqand va Oyna nashrlarida ham faoliyat yuritgan hamda “Boturbek” taxallusi ostida maqolalar yozgan. Yana bir jadidlarning gazetasi 1914-yil Ubaydullaxo‘ja

Asadullaxo‘jayev „Sadoyi Turkiston“ yoki Turkiston ovozi gazetasi asos solidi. Gazetada turli xil muhim muammolar va mustamlakachilik siyosatini fosh qiladigan materiallar nashr qilinadi. Shu sababli 1915-yil aprelda faoliyati to‘la qonli to‘xtatiladi. Jadid matbuotining uchinchi bosqichi Rossiya imperiyasi va Markaziy Osiyoda yuz bergan keskin siyosiy o‘zgarishlar bilan chambarchas bog‘liq holda shakllandi. Birinchi jahon urushi, 1917-yil Fevral va Oktyabr inqiloblari hamda mintaqadagi ocharchilik Turkiston musulmonlarini, jumladan jadidlarni ham siyosiy jihatdan yanada radikallashtirdi. Ilgari ma’rifat va nasihat ohangida yozilgan maqolalar endilikda safarbarlik, siyosiy faollik va milliy ozodlik g‘oyalarini targ‘ib etuvchi ruhga o‘tdi. 1917-yil mart oyida Petrograddagi ommaviy namoyishlar va podshohning taxtdan voz kechishi imperiyaning qulashiga olib keldi. Muvaqqat hukumat fuqarolarga matbuot va yig‘ilish erkinligini berdi, saylov huquqini kengaytirdi. Bu holat jadidlarga o‘z milliy davlat qurish g‘oyalarini amaliyotga tadbiq etish imkonini berdi. 1917-yil 13-martda ular 48 a’zodan iborat “Sho‘roi Islomiya” tashkilotini tuzdilar. Tez orada Toshkentda musulmonlar qurultoyi o‘tkazildi.

Buxoroda esa amir Olim Xon siyosiy bosim ostida shariat asosida islohotlar e’lon qildi: adolatsiz soliqlarni bekor qilish, davlat xazinasi va byudjet joriy etish, saylanadigan kengash tuzish kabi chora-tadbirlar taklif qilindi. Biroq bu islohotlar jadidlarni qoniqtirmadi. Ulamolar o‘z tashkiloti — “Ulamo jamiyati”ni tuzib, jadidlarni ochiqchasiga tanqid qildilar. Bu siyosiy kurash matbuotda ham aks etdi. Toshkentda Munavvar qori Abdurashidxonov va rus sharqshunosi Vladimir Nalivkin “Turkiston viloyatining gazeti”ni qayta tashkil etib, uni “Najot” deb nomladilar. Samarqandda esa Mahmudxo‘ja Behbudiy “Hurriyat” gazetasini yo‘lga qo‘ydi. Ushbu nashr siyosiy, iqtisodiy, ilmiy va adabiy masalalarni yoritib, jadidlarning asosiy minbariga aylandi. Keyinchalik unga Abdurauf Fitrat muharrirlik qildi.Inqilobiy voqealar ijodkorlarning dunyoqarashiga ham kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Abdulhamid Cho‘lpon Fevral inqilobini musulmon xalqlarning uyg‘onish davri sifatida talqin qildi. Abdulla Qodiriy esa feleton va adabiy asarlari orqali erkinlik va adolat g‘oyalarini ilgari surdi. Jadidlar podshohni zolim, imperiyani esa “zindon” sifatida tasvirladilar. Ularning nazarida erkinlik berilmaydi, balki qo‘lga kiritiladi.1917-yil noyabr oyida jadidlar va rus-tuzem maktablarida ta’lim olgan musulmonlar Turkiston Muxtoriyatini (Qo‘qon Muxtoriyati) e’lon qildilar. Ularning maqsadi demokratik Rossiya federatsiyasi tarkibida avtonom Turkistonni barpo etish edi. Bu voqea jadid matbuotida katta umid bilan kutib olindi. Biroq 1918-yil aprel oyida Toshkent Soveti tomonidan muxtoriyat tugatildi.Dastlab bolsheviklar milliy ozodlik kuchi sifatida ko‘rilgan bo‘lsa-da, tez orada jadidlar ularning sinfiy siyosati milliy manfaatlarga zid ekanini

anglay boshladilar. 1918-yil boshlariga kelib matbuotda bolsheviklarga nisbatan tanqid kuchaydi. “Hurriyat” gazetasi ham qog‘oz tanqisligi va siyosiy bosim sabab yopildi.

To‘rtinchi bosqichda 1918-yildan keyin jadid matbuoti sovet hokimiyati sharoitida faoliyat yurita boshladi. Bolsheviklar Markaziy Osiyoda hokimiyatni mustahkamlash uchun mahalliy ziyolilar, jumladan jadidlarga tayandilar. Biroq ularning millat va davlat haqidagi qarashlari bir-biridan farq qilardi. Sovet nazariyasida millat madaniy birlik sifatida tan olinib, siyosiy mustaqillik emas, balki madaniy muxtoriyat doirasida ko‘rilgan (bu qarashlar Joseph Stalinning millat haqidagi ta’riflariga asoslangan edi). Jadidlar esa milliy ozodlikni kengroq, siyosiy o‘zini-o‘zi belgilash darajasida tushunganlar. 1920-yilda Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tuzildi va unda Fayzulla Xo‘jayev hamda Abdurauf Fitrat kabi jadidlar faol ishtirok etdilar. 1924-yilda esa milliy-hududiy chegaralash natijasida O‘zbekiston SSR tashkil topdi. Bu jarayon jadidlarning milliy davlatchilik orzularining ma’lum darajada amalga oshgan shakli sifatida baholanadi. Matbuot to‘liq davlat nazoratiga o‘tdi. “Ishtirokiyun”, “Qizil Bayroq” kabi gazetalar kommunistik mafkurani targ‘ib qildi, biroq ularning sahifalarida jadidona ma’rifatparvarlik ruhi saqlanib qoldi. 1923-yilda Abdulla Qodiriy asos solgan Mushtum jurnali orqali hajviy tanqid rivojlandi. Bu davrda jadidlar ta’lim, savodxonlik, ayollar huquqi va zamonaviy madaniyatni qo‘llab-quvvatladilar. Sovetlarning “mahalliylashtirish” siyosati dastlab milliy tillarni rivojlantirish imkonini berdi. Ammo 1926-yildan boshlab mafkuraviy bosim kuchaydi, jadidlar “millatchi” sifatida tanqid qilina boshlandi va asta-sekin matbuotdan siqib chiqarildi.

Natijada 1918–1926-yillar jadid matbuoti uchun murakkab va ziddiyatli davr bo‘ldi: bir tomondan milliy davlatchilik va madaniy rivojlanish imkoniyatlari paydo bo‘ldi, ikkinchi tomondan esa sovet mafkurasi va siyosiy repressiyalar jadidchilik harakatining yakuniga zamin yaratdi.

Xulosa. Jadid matbuoti XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda milliy uyg‘onish va ijtimoiy-madaniy yuksalish jarayonining muhim tarkibiy qismiga aylandi. Jadidlar matbuotni xalqni ma’rifatli qilish, milliy ongni shakllantirish va zamonaviy tafakkurni rivojlantirishning eng samarali vositasi sifatida ko‘rdilar. Birinchi va ikkinchi bosqichlarda jadid nashrlari asosan ta’lim islohoti, madaniy taraqqiyot va ma’rifat targ‘ibotiga yo‘naltirilgan bo‘lsa, uchinchi bosqichda siyosiy faollik va milliy ozodlik g‘oyalari kuchaydi. To‘rtinchi bosqichda esa jadidlar sovet matbuoti shakllanishida ishtirok etdilar, biroq mafkkuraviy bosim va siyosiy repressiyalar ularning faoliyatini cheklab qo‘ydi. Shunday qilib, jadid matbuoti nafaqat o‘z davrining ijtimoiy-siyosiy hayotini aks ettirdi, balki Turkiston

jamiyatining milliy o‘zligini anglash, mustaqil fikrlash va modernizatsiya yo‘lidagi harakatlarida muhim tarixiy rol o‘ynadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Saidmurodov.D.A., Narzullayev.U.O. The National Revival of Jadidism And The Development Of Journalism. International Scientific Journal SCIENCE AND INNOVATION Series C Volume 4 Issue 3 March 2025. P – 5.
2. Ermatova.Z., Dilshodakhon Muminova, Life Of Mahmudkhoja Behbudi And His Role In The Uzbek Jadid Movement. Conference Of Natural And Applied Sciences In Scientific Innovative Research” Volume 02. Issue 04. April 2025. P-192
3. Rabbimov.O. Mahmudxo‘Ja Behbudiy Publitsistikasi Va O‘Zbek Matbuotining Shakllanishidagi o‘rni. P – 46.
4. Vikipediya.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ИДЕИ ДЖАДИДОВ ПО РЕФОРМЕ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ И ИХ ЗНАЧЕНИЕ ДЛЯ СОВРЕМЕННОЙ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ УЗБЕКИСТАНА

Абдухоликова Дилдора Абдухолик кизи
Джизакский государственный педагогический университет имени Абдулла Кадыри, факультет дошкольного и начального образования, ottesh@mail.com
+998916250555

Аннотация. *В статье анализируются педагогические идеи джадидского движения конца XIX — начала XX века и их значение для реформирования начального образования в Туркестане. Раскрывается сущность метода «усули джадид», основанного на фонетическом принципе обучения грамоте, преподавании на родном языке и расширении содержания образования за счёт светских дисциплин. Особое внимание уделяется деятельности Мунавваркори Абдурашидханов, Махмудходжа Бехбуди, Абдулла Авлони и Абдурауф Фитрат, внёсших значительный вклад в модернизацию школы и формирование национального самосознания. Обосновывается преемственность джадидских принципов — гуманистической направленности, активных методов обучения и нравственного воспитания*

— с современными реформами системы начального образования Республики Узбекистан. Подчёркивается актуальность наследия джадидов в условиях обновления образовательных стандартов и развития компетентностного подхода.

Ключевые слова: *джадидизм; усули джадид; начальное образование; педагогическая реформа; национальное воспитание; родной язык; компетентностный подход.*

Конец XIX — начало XX века стали переломным периодом в истории Туркестана. Регион находился в составе Российской империи, что обусловило не только политическую зависимость, но и глубокий социально-культурный кризис. Система традиционного образования — мактабы и медресе — продолжала функционировать по средневековым канонам. Обучение основывалось на методе «усули кадим», предполагающем механическое заучивание религиозных текстов без осмысления содержания. Дети годами заучивали арабскую графику, не понимая фонетической структуры родного языка. Процесс овладения грамотой занимал от трёх до пяти лет, при этом знания носили ограниченный характер и не подготавливали к практической жизни [1]. Исторические исследования показывают, что к началу XX века уровень грамотности в регионе составлял не более 5–7 % населения [2]. Отсутствие светских дисциплин, игнорирование естественных наук и практических навыков препятствовали модернизации общества. В этих условиях возникла потребность в обновлении образовательной системы, что стало одной из ключевых причин формирования джадидского движения.

Джадидизм представлял собой просветительское направление, ориентированное на реформирование общества через образование. Его идеологической основой стало убеждение, что национальное возрождение невозможно без обновления школы. Вдохновителем движения стал Исмаил Гаспринский, который в 1884 году в Бахчисарае открыл первую школу нового типа, основанную на звуковом методе обучения грамоте [3]. Эксперимент показал, что дети могут научиться читать за 40–60 дней, если обучение строится на фонетическом принципе. Эта идея получила развитие в Туркестане благодаря деятельности Мунавваркори Абдурашидханов, который в 1901 году открыл в Ташкенте школу нового метода. Его вклад заключался не только в практической организации учебного процесса, но и в создании новых учебников, отвечающих требованиям времени. Учебные пособия «Адиби аввал» и «Адиби соний» были построены по принципу

постепенного усложнения материала, включали тексты на родном языке, рассказы о природе, труде, Родине. Это принципиально отличало их от традиционных религиозных текстов, предназначенных для заучивания [4]. Существенным нововведением стало введение классно-урочной системы, фиксированного учебного года, расписания занятий, письменных принадлежностей, парт и досок. Тем самым джадидская школа приблизилась к европейской модели образования, сохранив при этом национальную идентичность. Впервые в программу начального обучения были включены арифметика, география, история, элементы естествознания. Такой подход расширял кругозор учащихся и способствовал формированию научного мышления.

Значительную роль в распространении реформ сыграл Махмудходжа Бехбуди. Он не только открывал школы нового типа, но и активно пропагандировал идеи модернизации через печатные издания. В статьях журнала «Ойна» подчеркивалась необходимость соединения религиозных ценностей с современными знаниями. Бехбуди утверждал, что без образования народ не сможет сохранить свою культуру и самостоятельность [5]. Его учебники по географии формировали представление о мире как о едином пространстве, где народы взаимодействуют и развиваются. Важнейший вклад в развитие педагогической мысли внес Абдулла Авлони. В труде Туркий Гулистан ёхуд ахлок он обосновал необходимость нравственного воспитания как основы формирования личности. Авлони рассматривал учителя не только как носителя знаний, но и как воспитателя, формирующего моральные качества ребёнка — честность, трудолюбие, любовь к Родине [6]. Его педагогические взгляды опережали своё время, поскольку соединяли гуманистический подход с национальными традициями.

Критический анализ устаревшей системы образования представлен в работах Абдурауф Фитрат, в частности в произведении Мунозара. Автор противопоставлял старую школу новой, показывая её неспособность отвечать требованиям современности. Фитрат подчеркивал, что истинная вера и знания не противоречат друг другу, а гармонично дополняют. Тем самым он закладывал основы синтеза традиции и модернизации [7]. Развитие джадидских школ сопровождалось значительными трудностями. Консервативные круги духовенства воспринимали реформы как угрозу религиозным устоям. Российская колониальная администрация также ограничивала деятельность просветителей, опасаясь роста национального самосознания. Тем не менее к 1911 году в Туркестане функционировало 63

школы нового типа, в которых обучалось более четырёх тысяч учащихся [2]. Это свидетельствует о масштабности и востребованности реформ. Важно подчеркнуть, что джадидская педагогика не ограничивалась методическими новшествами. Она формировала новую философию образования. Центральной идеей стало признание ребёнка активным субъектом обучения. В отличие от механического заучивания, новый метод предполагал понимание, осмысление, развитие речи и мышления. Таким образом, можно говорить о переходе от репродуктивной модели обучения к развивающей. Анализируя содержание джадидских учебников, можно выделить несколько ключевых принципов: обучение на родном языке, связь теории с практикой, интеграция нравственного и интеллектуального воспитания, формирование национального самосознания. Эти принципы легли в основу дальнейшего развития системы образования региона.

Историческое значение джадидской реформы заключается в том, что она стала первым системным опытом модернизации начального образования в Центральной Азии. Впервые школа рассматривалась как инструмент общественного прогресса. Именно через начальное образование джадиды стремились изменить ментальность народа, подготовить поколение, способное к самостоятельному мышлению и ответственности за судьбу страны.

Современные исследователи отмечают, что джадидская педагогика стала мостом между традиционной исламской образовательной системой и европейской светской школой [8]. Она не разрушала культурные основы общества, а адаптировала их к новым историческим условиям. В этом заключается её уникальность и устойчивость влияния. Преемственность педагогических идей джадидов наиболее ярко проявляется в современной системе начального образования Республики Узбекистан. Если в начале XX века реформаторы боролись за право обучать детей на родном языке и вводить светские дисциплины, то сегодня эти положения закреплены на государственном уровне. Обучение в начальной школе осуществляется преимущественно на государственном языке, при этом учитываются языковые особенности регионов. Данный принцип был фундаментальным для джадидской педагогики, поскольку они считали, что формирование мышления невозможно без полноценного владения родным языком.

Современные образовательные стандарты начальной школы строятся на компетентностном подходе. Ребёнок рассматривается как активный участник образовательного процесса, а не пассивный объект передачи знаний. Эта идея имеет прямую историческую параллель с принципами

«усули джадид», где понимание и осмысление ставились выше механического запоминания. Фонетический метод обучения грамоте, внедрённый Исмаил Гаспринский и развитый Мунавваркори Абдурашидханов, сегодня является стандартной методикой обучения чтению в 1 классе. Особое значение имеет нравственное воспитание. В трудах Абдулла Авлони подчёркивалось, что школа должна воспитывать личность, способную служить обществу. В современной образовательной политике Республики Узбекистан духовно-нравственное развитие обозначено как приоритетное направление. В рамках Стратегии развития «Новый Узбекистан» (2022–2026 гг.) подчеркивается необходимость формирования гармонично развитого поколения, обладающего национальным самосознанием и уважением к историческому наследию [9]. Таким образом, идеи джадидов получили институциональное закрепление.

Развитие инклюзивного образования также может быть рассмотрено как продолжение просветительской миссии джадидов. Они выступали за доступность знаний для всех слоёв населения независимо от социального происхождения. Современная Концепция развития системы народного образования (2020–2025 гг.) ориентирована на создание равных возможностей для детей с особыми образовательными потребностями. Принцип доступности образования, сформулированный джадидами более ста лет назад, сегодня реализуется через нормативно-правовые механизмы и государственные программы. Анализ содержания современных учебников начальной школы показывает сходство с джадидскими пособиями. В них присутствуют тексты, направленные на формирование патриотизма, уважения к труду, природе, семье. Это продолжение традиции, заложенной в учебниках «Адиби аввал» и «Адиби соний». При этом современные материалы дополнены интерактивными заданиями, проектной деятельностью, развитием критического мышления. Таким образом, можно говорить о методологической эволюции джадидской педагогики в условиях цифровой эпохи. Сравнительный анализ исторической и современной образовательной модели позволяет выделить несколько устойчивых линий преемственности: приоритет родного языка; ориентация на понимание и осмысление; соединение обучения и воспитания; подготовка личности к активному участию в общественной жизни. Эти принципы остаются фундаментом начальной школы Узбекистана.

Научная новизна данного исследования заключается в том, что джадидская педагогика рассматривается не только как исторический феномен, но и как концептуальная основа современных реформ. В работе

обоснована мысль о том, что многие элементы компетентностного подхода имеют корни в идеях начала XX века. Кроме того, проведён анализ прямых параллелей между содержанием джадидских учебников и современными образовательными стандартами. Практическая значимость исследования состоит в возможности использования исторического опыта при подготовке будущих учителей начальных классов. Осмысление наследия Махмудходжа Бехбуди, Абдулла Авлони и Абдурауф Фитрат способствует формированию профессиональной идентичности педагога, осознанию его миссии в обществе. Для студентов педагогических вузов это особенно актуально, поскольку позволяет увидеть исторические корни своей профессии. Аргументируя значение джадидской реформы, следует подчеркнуть её системный характер. Она затронула не только методику обучения, но и содержание образования, организацию школы, роль учителя и социальную функцию просвещения. Именно комплексность подхода обеспечила устойчивость её влияния. Даже в советский период многие методические элементы нового метода сохранились и трансформировались в рамках государственной системы образования. Современный этап развития образования в Узбекистане характеризуется цифровизацией, внедрением международных стандартов оценки качества образования, обновлением учебных программ. Однако фундаментальные принципы — гуманизм, национальная идентичность, доступность знаний — сохраняют преемственность с джадидским наследием. Это свидетельствует о глубокой исторической укоренённости образовательных реформ.

Исходя из этого, можно сделать вывод, что педагогические идеи джадидов сыграли ключевую роль в становлении национальной системы начального образования. Они заложили основы модернизации школы, сформировали представление о ребёнке как субъекте обучения и утвердили значение родного языка как инструмента мышления. Современная школа Узбекистана, развиваясь в условиях глобализации и цифровой трансформации, продолжает реализовывать принципы, сформулированные более ста лет назад. Исторический опыт джадидов демонстрирует, что образование является стратегическим ресурсом развития государства. Их деятельность доказала: реформирование начальной школы способно стать отправной точкой масштабных общественных преобразований. Именно поэтому обращение к их наследию остаётся актуальным не только в научном, но и в практическом плане.

Педагогическая реформа джадидов стала поворотным моментом в истории образования Туркестана. Метод «усули джадид» изменил подход к

обучению грамоте, расширил содержание начального образования и придал школе воспитательную функцию. Идеи национального просвещения, нравственного воспитания и активного обучения легли в основу современной образовательной политики Республики Узбекистан. Преемственность исторического опыта и современных реформ подтверждает, что джадидское движение стало не эпизодом прошлого, а фундаментом национальной педагогической традиции. Сохранение и дальнейшее осмысление этого наследия является важной задачей современной педагогической науки.

Список литературы

1. Авлоний А. Туркий Гулистан ёхуд ахлок. — Ташкент: Шарк, 1992.
2. Бехбуди М. Танланган асарлар. — Ташкент: Маънавият, 2006.
3. Фитрат А. Мунозара. — Ташкент: Фан, 1991.
4. Мунавваркори Абдурашидханов. Танланган асарлар. — Ташкент: Маънавият, 2003.
5. Гаспринский И. Р. Избранные труды. — Симферополь: Таврия, 1993.
6. История Узбекистана (учебник для вузов). — Ташкент: 2020.
7. Умаров М. Ш. Джадиды и развитие системы образования Туркестана // Вестник педагогики. — 2019.
8. Фарманова Б. А. Вклад джадидов в образование Узбекистана // Научные исследования. — 2022.
9. Стратегия развития «Новый Узбекистан» на 2022–2026 годы. — Ташкент, 2022.
10. Концепция развития системы народного образования Республики Узбекистан на 2020–2025 годы. — Ташкент, 2020.

TURKISTON MUXTORIYATI VA JADIDLAR

Ma’mun Universiteti Ijtimoiy-gumanitar
va aniq fanlar fakulteti , Tarix yo‘nalishi
1-bosqich talabasi **Soburova Muxlisa**

+998-88-811-10-25

Annotatsiya. *Ushbu maqolada XX asr boshlarida Turkiston tarixida muhim o'rin tutgan Turkiston Muxtoriyati va uning tashkil etilishida jadidlarning tutgan o'rni va roli yoritiladi. 1917-1918-yillarda tashkil topgan Turkiston Muxtoriyati garchi qisqa muddatli bo'lsa-da, mintaqada milliy davlatchilik va demokratik*

boshqaruv asoslarini barpo etishga qaratilgan birinchi urinish edi. Jadidlar bu jarayonda mafkuraviy asos yaratuvchilar, tashkilotchilar va hukumat a'zolari sifatida faoliyat ko'rsatdilar. Maqolada jadidchilik harakatining kelib chiqishi, ma'rifatparvarlik faoliyati, ta'lim islohotlari hamda muxtoriyat tashkil etish jarayonidagi bevosita ishtiroki tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida jadidlarning milliy uyg'onish, mustaqillik g'oyalari va demokratik qarashlarini Turkiston Muxtoriyati doirasida amalga oshirishga urinishlari ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: *Turkiston Muxtoriyati, jadidchilik harakati, milliy uyg'onish, ma'rifatparvarlik, ta'lim islohoti, Mustafo Cho'qay, Mahmudxo'ja Behbudiy, milliy davlatchilik, demokratiya, 1917-1918-yillar.*

KIRISH. XX asr boshlarida Turkiston tarixida ikki muhim jarayon - jadidchilik harakati va Turkiston Muxtoriyati - bir-biri bilan chambarchas bog'liq holda rivojlandi. 1917-yil fevral inqilobidan keyin Turkistonda milliy davlatchilik asoslarini yaratish uchun imkoniyat paydo bo'ldi. Aynan shu sharoitda jadidchilik harakati siyosiy-tashkiliy kuchga aylanib, 1917-yil 27-noyabrda Qo'qonda Turkiston Muxtoriyati e'lon qilindi [1, 78]. Bu davlat garchi atigi 72 kun faoliyat ko'rsatgan bo'lsa-da, Turkiston xalqlari tarixida birinchi demokratik boshqaruv tajribasi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi [2, 34]. Jadidchilik harakati XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Turkistonda ma'rifatparvarlik, modernizatsiya va milliy uyg'onish g'oyalarini targ'ib qiluvchi ijtimoiy-siyosiy harakat edi. "Jadid" so'zi arabchadan olingan bo'lib, "yangi" degan ma'noni anglatadi. Bu harakat Ismoilbek Gaspiralining (1851-1914) g'oyalari asosida shakllandi va Turkistonga 1890-yillardan boshlab kirib kela boshladi [3, 156]. Jadidlar ta'lim tizimini isloh qilish, milliy ongni uyg'otish va pirovardida mustaqillikka erishish yo'lida faoliyat olib bordilar.

Tadqiqotning maqsadi Turkiston Muxtoriyati tashkil etilishi va faoliyatida jadidlarning tutgan o'rni hamda rolini har tomonlama yoritishdan iborat. Bu masala zamonaviy O'zbekiston tarix fanida dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi, chunki milliy davlatchilik tarixining ildizlari va demokratik qadriyatlarning shakllanishi to'g'risida muhim ma'lumotlar beradi.

ASOSIY QISM. Jadidchilik harakatining shaklllanishi va mafkuraviy asoslari. Jadidchilik harakati Turkistonda uch asosiy bosqichdan o'tdi: 1) XIX asr oxiridan 1915-yilgacha - ma'rifatchilik davri; 2) 1915-1918-yil fevraligacha - muxtoriyatchilik davri; 3) 1918-yil fevralidan 1920-yillar oxirigacha - sovet davrida faoliyat davri [3, 157]. Birinchi bosqichda jadidlar asosan ta'lim-tarbiya sohasida islohotlar o'tkazish, yangi usul maktablarini tashkil etish va milliy matbuotni rivojlantirishga e'tibor qaratdilar.

Ismoilbek Gaspiralining 1884-yilda Qrimda ochgan jadid maktabida 40 kun

ichida 12 bolaning savodini chiqarish usuli "usuli savtiya" (yangi usul) nomi bilan mashhur bo'ldi [3, 158]. Bu tajriba Turkistonda ham qo'llanila boshlandi. 1899-yilda Andijonda Shamsuddin domla, 1901-yilda Qo'qonda Salohiddin domla, Toshkentda Munavvarqori Abdurashidxonov va Samarqandda Abduqodir Shakuriy birinchi jadid maktablarini ochdilar [1, 82]. Jadidlar ta'lim tizimini zamonaviylashtirish orqali jamiyatni modernizatsiya qilish va milliy ongni uyg'otish maqsadida harakat qildilar. Mahmudxo'ja Behbudiy (1875-1919) Turkiston jadidchilik harakatining yetakchi namoyandalaridan biri bo'ldi. U 1913-yilda "Oyna" majmuasini, 1914-yilda esa "Oyina" gazetasini nashr qila boshladi. Behbudiyning "Padarkush" (1911) asari jadid adabiyotining namunasi hisoblanadi [2, 45]. Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev (1878-1942) esa 1914-yilda "Sadoi Turkiston" gazetasini chiqarib, jadidchilik g'oyalarini keng targ'ib qildi [1, 89]. Bu ziyolilar millat taraqqiyotining yagona yo'li ma'rifat va ilm-fan ekanligini ta'kidladilar.

Jadidlarning siyosiy faollashishi va muxtoriyat g'oyasi. 1917-yil fevral inqilobi Rossiyada siyosiy sharoitni tubdan o'zgartirdi va Turkiston jadidlari uchun yangi imkoniyatlar yaratdi. 1917-yil 16-22-aprelda Toshkentda Butunturkiston musulmonlarining I qurultoyi o'tkazildi. Bu qurultoyda Turkiston o'lkasi musulmonlari Markaziy Sho'rosi (Milliy Markaz) tuzildi. Unga Mustafo Cho'qay rais, Islom Sulton Shoaxmedov rais o'rinbosari, Ahmad Zaki Validiy va Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev kotib etib saylandi [4, 12]. Shu tariqa jadidlar tashkiliy jihatdan markazlashdi va siyosiy kuchga aylandi. 1917-yil 26-28-noyabrda Qo'qonda Butunturkiston musulmonlarining favqulodda IV qurultoyi bo'lib o'tdi. Qurultoyda 200 dan ortiq vakil ishtirok etdi va Turkiston o'lkasini Rossiya Federativ Respublikasi tarkibida hududiy jihatdan muxtor deb e'lon qilindi [1, 78]. 28-noyabrda davlatning rasmiy nomi "Turkiston Muxtoriyati" deb belgilandi. Qurultoyda Turkiston Milliy Majlisi 54 kishidan iborat qilib saylandi, ammo amalda 32 kishilik tarkib faoliyat ko'rsatdi [4, 15].

Turkiston Muxtoriyatida jadidlarning faoliyati. Muxtoriyat hukumati qisqa muddatli faoliyati davomida davlat boshqaruvining demokratik asoslarini yaratishga harakat qildi. Turkiston Milliy Majlisi tomonidan qonunlar tasdiqlandi va mamlakat Konstitutsiyasi tayyorlash uchun taniqli huquqshunoslar jalb qilindi. 1917-yil 26-dekabrda Turkiston Muxtoriyatining milliy bayrog'i qabul qilindi [1, 79]. "El bayrog'i", "Birlik tug'i", "Svobodnoy Turkestan", "Izvestiya Vremennogo Pravitelstva Avtonomnogo Turkestana" gazetalari o'zbek, qozoq va rus tillarida nashr qilina boshlandi [1, 80].Jadidlarning muxtoriyat g'oyasi milliy davlatchilik asosida barcha xalqlarning tengligini, demokratik boshqaruvni va madaniy rivojlanishni ta'minlashdan iborat edi. Mustafo Cho'qayning fikricha, Turkiston

Muxtoriyati mustaqil Turkiston davlatini yaratish uchun birinchi qadam bo'lishi kerak edi [4, 67]. Biroq bu rejalarni amalga oshirishga ulgurmay bolsheviklar harbiy kuch bilan aralashdilar.

Muxtoriyatning tugatilishi va jadidlarning taqdiri. 1918-yil 19-26-yanvarda Toshkentda o'tkazilgan Turkiston o'lkasi ishchi, soldat va krestyan deputatlarining favqulodda IV s'ezdi Turkiston Muxtoriyati hukumatini qonundan tashqari deb e'lon qildi [1, 81]. 1918-yil 30-yanvarda Turkiston o'lkasi Xalq Komissarlari Soveti muxtoriyatni tugatish uchun harbiy harakatlarni boshladi. Qizil gvardiyachilar va arman dashnoqlari qo'shinlari Qo'qonga hujum qildilar. 19-fevraldan 22-fevralgacha davom etgan janglar natijasida Qo'qon shahri butunlay vayron bo'ldi va 10 000 dan ziyod tinch aholi halok bo'ldi [4, 28]. 1918-yil 22-fevralda Qo'qon shahridagi Rus-Osiyo banki binosida bolsheviklar tomonidan tayyorlangan "tinchlik shartnomasi" imzolandi va Turkiston Muxtoriyati rasman tugatildi [1, 82]. Muxtoriyat hukumati a'zolari qattiq ta'qibga uchradi. Hidoyatbek Agayev jangda halok bo'ldi. Obidjon Mahmudov, Nosirxon To'ra, Solomon Gersfeld, Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev va Islom Shoaxmedov bolsheviklar tomonidan qo'lga olindi [4, 35]. Ularning aksariyati keyinchalik qamoqxonada vafot etdi yoki qatag'on qilindi. Mustafo Cho'qay muhojirlikka ketib, 1941-yilda Germaniyada vafot etdi [4, 41]. Muhammadjon Tinishboyev 1939-yilda Toshkent turmasida vafot etdi [4, 19].

XULOSA. Xulosa o’rnida aytishim mumkinki, Jadidchilik harakati Turkistonda milliy uyg'onish va davlatchilik g'oyalarining mafkuraviy asosini yaratadi. Jadidlar ma'rifat orqali milliy ongni uyg'otish, ta'lim tizimini zamonaviylashtirish va demokratik qadriyatlarni singdirish yo'lida faoliyat olib bordilar.Turkiston Muxtoriyatining tashkil etilishi va faoliyatida jadidlarning tutgan o'rni hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ldi. Ular hukumatning asosiy a'zolari, Milliy Majlis vakillari va g'oyaviy rahbarlar sifatida ishladilar. Muxtoriyat garchi qisqa muddatli bo'lgan bo'lsa-da, Turkiston xalqlari tarixida milliy davlatchilikka intilishning muhim belgisi va demokratik boshqaruv tajribasining dastlabki namunasi sifatida qoldi. Turkiston Muxtoriyatining tugatilishi va jadidlarning fojiali taqdiri ularning g'oyalari va harakatlarining kelajak avlodlar uchun qanchalik muhim ekanligini ko'rsatadi. Jadidlarning xizmatlari va Turkiston Muxtoriyati tajribasi hozirgi zamon yoshlari uchun milliy g'urur va tarixiy xotira hisoblanadi. Bu tarixni o'rganish orqali biz ajdodlarimizning ruhi va millat manfaatlari yo'lidagi fidoyiligidan saboq olamiz

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Rajabov Q. O'zbekiston tarixi. Toshkent: Ma'naviyat, 2017. – 78, 79, 80, 81, 82, 89 betlar.

2. Qosimov B. Milliy uyg'onish - jasorat, ma'rifat, fidoiylik. Toshkent: Ma'naviyat, 2002. – 34, 38, 45 betlar.

3. B.Xasanov, N.Karimov. Jadid ma'rifatparvarlik harakatining g'oyaviy asoslari. Toshkent: Toshkent Islom Universiteti, 2016. – 156, 157, 158 betlar.

4. Turkiston Muxtoriyati vazirlari hamda Milliy Majlis a'zolari hayoti va taqdiri. Toshkent, 2018. – 12, 15, 18, 19, 24, 28, 35, 41, 67 betlar.

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY VA TURKISTON JADIDCHILIGIDA MILLIY ONG KONSEPSIYASI

Egamov Sherzod Farhod o’gli
Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti tarix yo‘nalishi talabasi

+998883910929

Anotatsiya. *Mazkur maqolada XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Sharq mamlakatlarida, xususan Turkistonda yuzaga kelgan mustamlakachilik siyosati va unga qarshi shakllangan milliy-ozodlik g‘oyalarining mafkuraviy asoslari tahlil qilinadi. Yevropa davlatlarining Sharqdagi bosqinchilik harakatlari, xususan Rossiya imperiyasining Turkistondagi mustamlakachilik siyosati natijasida yuzaga kelgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar ochib beriladi. Tadqiqot markazida Turkiston jadidchilik harakatining yirik namoyandasi Mahmudxo‘ja Behbudiy faoliyati turadi. Uning milliy uyg‘onish, ma’rifat va mustaqillik haqidagi qarashlari, haj safaridan keyingi dunyoqarashidagi o‘zgarishlar hamda Turkiston jamiyatini isloh qilish yo‘lidagi xizmatlari tahlil qilinadi. Maqolada mustamlakachilik sharoitida milliy ong va milliy vijdon tushunchalarining shakllanish jarayoni ochib berilib, jadidchilik harakatining Turkiston tarixidagi o‘rni va ahamiyati ilmiy asosda baholanadi.*

Kalit so’zlar*. mustamlakachilik, Turkiston, jadidchilik, milliy uyg‘onish, milliy vijdon, ma’rifatparvarlik, yangi usul maktablari, milliy uyg‘onish, matbuot, islohot, milliy g‘oya, milliy istiqlol, ma’daniyat.*

XIX asrning ikkinchi yarimida Yevropa Sharqdagi ko‘pgina davlatlarni mustamlakaga aylantiradi. Aniqrog‘i Angliya, Rossiya, Fransiya, Gollandiya, Ispaniya kabi Yevropa davlatlari Osiyo va Afrikani bosib ola boshlaydi. Tabiiyki, bu sharoitda mahalliy xalqlar mustamlakachilarga qarshi bosh ko‘tardikar. Lekin ularning barchasi muvaffaqiyatsiz yakunlanar, katta qurbonlar berilardi. Bunga

tarixda misollar juda ko‘p. Misol tariqasida Hindistonning Kanpur shahridagi g‘alayonni (1857-yil 6-iyun) olaylik. Do‘ndxo‘ Po‘nt (Nona Sohib deb ham atashgan) bosh boshchiligidagi bu g‘alayon tarixda" Angliyaning taxqirlanishi" deb atalgan. G‘alayonni bostirgan ingliz mustamlakachilari Kao‘npo‘r aholisining har undan birinchi qatl etiladilar. Bular bir necha mingni tashkil etgan. O‘zimizda ham Dukchi Eshon boshchiligida g‘alayonni eng mashhurlarni misol keltirish mumkin. Mustamlakachilarning bunday vaxshiyliklari mustamlakada ezilayotgan xalqlarni ozodlikka chiqish uchun o‘zga yo‘llarni qidirib topishga da'vat etardi. G‘arb tarixshunoslari Osiyodagi bunday harakatlarni "Panislomizm", "Panturkizm" deb nomlashdi.

Mazkur "izm"larga kichik izoh. Bu iboralar o‘tgan asrning ikkinchi yarimida Osiyoni zabt etgan g‘arbliklar orqali iste'molga kirib kelgan. Bunga xalqlarning islom bayrog‘i ostida birlashib ozodlikka chiqish g‘oyasi sabab bo‘lgan. Bu g‘oyaning asoschilari Jamoliddin Afg‘oniy va uning izdoshi Muhammad Abduh bo‘lgan. Keyinchalik ozodlik uchun bugun islom olamini birlashtirish naqadar ilojsizligini anglagan ziyolilar o‘zga yo‘lni tanladilar. Ziyo Ko‘kalp bu haqida shunday yozadi: Bir vaqtlar "Islom birligi" mafkurasi musulmon qavmlarning mustaqillikka erishganlarini, o‘lkalarni mustamlaka ahvolda qutiltirishni ta'minlash deb hisoblanilardi. Holbuki, amaliy hayot tajribalari shuni ko‘rsatadiki, "Islom birligi", bir tarafdan teokratiya va kleprikalizm kabi reaksion oqimlarni tug‘dirishidan, boshqa tomondan esa Islom dunyosida millatchilik mafkuralarining va milliy vijdonlarining uyg‘onishiga qarshi bo‘lganligidan musulmon qavmlarning ilgarilashiga to‘siq bo‘lganligi kabi mustaqilliklariga ham to‘siq bo‘lish demakdir. Teokratiya va klerikalizm oqimlarni esa jamiyatlarning orqaga qolishiga, xatto tobora orqada qilib borishiga bir sababdir.

U holda nima qilmoq kerak? Har narsadan oldin, kerak bo‘lsa, mamlakatimizda, boshqa Islom o‘lkalarida doimiy milliy vijdonni uyg‘ontirishga va quvvatlanitirishga kirishish kerak. Chunki Har qanday taraqqiyotning manbai milliy vijdon bo‘lgani kabi milliy mustaqillikning tug‘iladigan joyi ham, tayanchi ham ana shudir". Rossiya mustamlakachiligi bu harakatni "Panturkizm" deb atadi va bu fikrdagi barcha ziyoli "Oxranka" nazoratiga tushadi. Aniqrog‘i, Rossiyaning turkchilikka bo‘lgan bu munosabati imperiyachilikning bir ko‘rinishi edi. Shu bois u turkchilik harakatiga qarshi ruslashtirish siyosatiga zo‘r beradi. Bu jarayonlarning barchasi mashhur tatar ziyolisi Islombek G‘aspirali asarlarida, u chop etgan "Tarjimon" gazetasidagi maqolalarda aks etgan. Bu haqida filologiya fanlari doktori, professor Begali Qosimovdan iqtibos: " Millatning o‘zligini ko‘rsatadigan xususiyatlaridan biri Til va maorifdir. Bu ikkisi bo‘lmasa, millat Mustaqil bo‘la olmaydi. G‘aspirali 1905-yilda yozgan maqolalaridan birida tavhida

til (til birligi) va tavhidi din (din birligi) degan edi. Darhaqiqat, tiling o‘rni beqiyos: "Insonning oti bo‘lmasa, o‘zi ham yq demakdir, shuningdek tili bo‘lmasa inson ham soqovdir". Biroq islomchilikka ham, turkchilikka ham "pan" old qo‘shimcha qo‘shilib, uning ikkala ko‘rinishi ham chor Rossiyasi tasarrufidagi joylarda mustamlakachilik ta’qibiga uchray boshlaydi. Ularning makkorligi, shavqatsizligini bo‘lgan Ismoilbek G‘aspirali boshchiligidagi Rossiya mustamlakasidagi ziyolilar kurashning yangi – jadidchilik deb atalmish yo‘lidan bordilar. Ismoyilbekning Turkistondagi izdoshlari Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvar qori Abdurashidxonov, Abduqodir Shukriy, Abdulla Avloniy, Ashurali Zohidiy, Fitrat va boshqa va qator ziyolilar bu kurashning o‘z joylarida keng quloch yozishiga bosh–qosh bo‘ldilar.

Ularning orasida Mahmudxo‘ja Behbudiyning o‘z o‘rni bor. XIX asrning ikkinchi yarmida Sharqning bir qismi bo‘lmish Turkistonda ham fojiyali voqealar yuz beradi. Rossiyaning bir necha yillik bosqinidan so‘ng Turkiston uning mustamlakasiga aylandi. Shahar va qishloqlar talandi, minglab odamlar qirg‘in qilindi. Qancadan qancha odamlar o‘z yurtini tashlab chiqib ketdi. Mustamlakachilik o‘zining hukumron tartib– qoidalarini o‘rnatdi. Xalqqa zug‘um qila boshlaydi. Tarixdan ma'lumki, rus bosqinidan keyin ko‘pchilik ziyolilar shaharlarni tashlab, qishloq va tog‘larga chiqib ketishida. Ulardan biri Behbudxo‘ja imom bo‘lib, "1868-yili rus askarlari Samarqand uezdining Siyob bo‘lishidagi Baxshitepa qishlog‘iga ko‘chib chiqibdi...". Yurt ziyolilar, xususan ulamolar bu musibatlarning sabablarini o‘rganish va kelajakda yurtini ozod qiladigan avlodlarga Turkiston fojiyasini tushuntirish uchun ham omon qolishlari kerak edi. Oradan ko‘p o‘tmay, Behbudxo‘ja oilasida farzand tug‘ildi. Unga Mahmudxo‘ja deb ism qo‘ydilar. Bu hudud keyinchalik keyinchalik Kobut volosti, Samarqand va ayni Kunda Tayloq tumani deb yuritiladi. Qishloqning nomi esa o‘zgarmagan. Mahmudxo‘ja millat dardi, qayg‘usi bilan dunyo yuzini ko‘rdi. Imom oilasidagi tarbiya unda vatanparvarlik ruhini uyg‘otadi. Tabiiyki, Har bir uyg‘oq yurak yurak Millatning na tariqa bu ahvolga tushib qolganini tahlil qilib kradi, izlanadi, o‘rganadi. Mahmudxo‘ja 20 yoshga kirganida otasi – Behbudxo‘ja olamda o‘tadi. U farzandiga nima deb vasiyat qilgani bizga noma'lum bo‘lsa-da, unda Millatning, dinini, zaminini oyoq osti qilgan mustamlakachilikga nisbatan tarbiya ketganligi kunday ayondir. Mahmudxo‘ja Behbudiy xaj safaridan so‘ng o‘zgacha insonga aylandi. Haj bahonasida yo‘l– yo‘lakay Misrning ziyorat qilishi, Istanbulda bo‘lishi, u davlatlardagi islohatlar uning ko‘zini ochadi. Bu haqida Behbudiyning yaqin shogirdi, mashhur jadidlardan biri Xoji Mo‘in yozadi: "Behbudiy afandi uch-to‘rt yoshdagi (to‘ng‘ich) o‘g‘li o‘lgani uchun juda hafalanib, bir yoqdin qayg‘usini taskin etmak, ikkinchi yoqdin adoyi haj qilmoq maqsadi bilan 1317 (1899) yilda o‘zining

do‘sti, buxorolik Hoji Baqo bilan safarga chiqd. Borish- ketishida yo‘lda Istanbul, Misrning katta shaharlariga kirib, undagi ba'zi eski-yangi maktablarni, ayniqsaz Misrdagi "Jome al– Azhar" Ni ziyorat etdi. Qaytishda Misr va Istanbuldan turli gazeta va yangi kitoblar olib keldi. Bu muborak safar Behbudiyga anchagina ibrat va intiboh bo‘ldi. Safar rafiqi Hoji Baqo yangi fikrli bir Zod bo‘lg‘oni uchun Behbudiy uning yo‘lboshchiligidan istifoga qilg‘on derlar".

Hajdan keyin Behbudiy nega birdan o‘zgardi, yo‘l-yo‘lakay u kimlarni ko‘rdi va qanday voqealarning guvohi bo‘ldi, singari qator savollar tug‘iladi. Bunda yuqorida tilga olganimiz Sharqda milliy– ozodlik harakati uchun kurash keng avj olganligini ta'kidlash joiz. Bu paytda Islom bayrog‘i ostida birlashish g‘oyasini ko‘targan va G‘arbda "Panislomizm asoschisi" nomini olgan Jamoliddin Afg‘oniy Istanbul shahrida olamdan o‘tgan, uning izdoshi va Shogirdi Muhammad Abduh esa Misr muftiysi etib tayinlangan, davlat miqyosida katta ish olib borayotgan edi. Bu ikki zot Islom olamida juda ko‘p islohatlarga erishgandilar. Lekin Rossiya tasarrufidagi respublikalar tarixshunoslari ularga nisbatan haqaoniy baxoni bermaganlar. Moddiyunchi tarixchilar esa ularning faoliyatiga milliy– ozodlik harakati g‘oyasini tan olishsa-da, g‘oyaviy jihatdan qoralar edilar.

Behbudiy Misr va Istanbulda yurib Islom ulamolari amalga oshirayotgan islohatlarni o‘rgandi. Ular asosan islomni asrash musulmonlarning boshqa dindagi xalqlarga oyoq osti bo‘lishini to'xtatish, ozod bo'lish, tezroq taraqqiy etish masalasini o'rtaga tashlagan edilar. “Hijoz safaridan keyin Behbudiy afandi Boqchasaroyda chiqaturg‘on ”Tarjumon” gazetasini oldirib o'qiy boshladi. Ikkinchi yokdan turlik ilmiy, fanniy kitoblarni mutolaasi bilan ma’lumotini kengaytirdi. Oz vaqtda dunyo siyosatidan va zamon ahvolidin xabardor bo'ldi». Behbudiy safardan keyin Misr va Istanbuldan o'rgangan islomchilik g‘oyalarini xalqqa singdirmasdan nega “Tarjumon” va “turlik ilmiy, fanniy” kitoblarning mutolaasiga kirishdi? Bu savolga javob berish uchun bevosita sharoitga moslashib, ma’lum xulosalarga kelgan jadidchilik asoschisi, krim-tatar ziyolisi Ismoilbek G‘aspirali (Gaspirinskiy) faoliyatiga nazar tashlash kerak bo'ladi. Zero Ismoilbek G‘aspirali Sharqda olib borilayotgan ozodlik harakatlaridan xabardor edi. Milliy-ozodlik g‘oyasini ochikdan-ochiq hayotga tatbiq eta olmasdi. Bunga, eng avvalo, makkor mustamlakachilik siyosatini olib borayotgan chor Rossiyasi yo'l ko'ymasdi. Turklar esa mustaqil davlat bo'lganliklari uchun bu g‘oyani ko'rqmay ko'tarishgandi. Turkistonda mustamlakachiga qarshi g‘alayon ko'tarishning oqibati ne kechishini Behbudiy Dukchi eshon voqeasidan keyin anglab yetgandi. Bu haqda u keyinchalik “Turkestanskiye vedomosti” gazetasining muxbiriga bergan javobida ta’kidlaydi. Shuning uchun ma’rifat yo'lidan milliy-ozodlik tomon borayotgan G‘aspiralining izidan ergashdi va jadidchilik oqimiga qo'shildi. Behbudiy krim-tatar ziyolisiga

ko'r-ko'rona ergashgani yu. U o'qidi, dunyo siyosatini, tarixini organdi va aql bilan G‘aspirali boshlagan ishga qo'l urdi.Behbudiyning g‘oyaviy shakllanishi haqidagi fikr xotirasi ham bor: "Behbudiy Afandi 1905-1905 yillarida fikri inqilobga uchrab, e’tiqodsiz yurgan bo'lsa-da lekin so'ngra kop mutolaa soyasida ham diniy, falsafiy masalalarni tekshirish natijasida e’tiqodni tasxix va tadbil etdi. Taraddud va shubhalardan chiqib dindor va mahkam e’tiqodlik bo'ldi. Behbudiy islom g‘amida, millat ravnaqi yo'lida yonib yashadi. Uning yozganlarida hayotdagi istaklari aks etgan. U ilk maqolalarini birdan gazetada chop etgani yoq. U turli yig‘ilishlarda ulamolar bilan fikr almashgan, yozganlarini oqib bergan. Ulardan zarur va siyosatga mos keladiganlarini Turkistondagi yagona o'zbekcha nashr "Turkiston viloyatining gazeti"ga jo'natib turgan. Mahmudxoja Xijod safaridan so'ngra Turkiston xalqining ilmiy va ijtimoiy ahvoliga doir xotiraga kelgan ba’zi bir fikrlarni "Turkiston viloyatining gazeti"ga yozib turg‘on. Yozg‘on narsalarini qo'liga ko'tarib majlisga borib o'qib yurg’on. Behbudiyning Xijoz safari 1899-yilga to'g‘ri kelsa,biz uning nomi bilan chiqqan maqolalarni "TVG"da 1903-yildan boshlab kuzatishimiz mumkin. Biroq Xoji Muin xotirasida buning sanasi aniq ko'rsatilgan:" Turkiston o'lkasida milliy gazeta yo'qligi va "Tarjimon" shevasining og‘irligi, ham Turkistonda keragicha tarqalmagonlig‘i uchun Behbudiy Afandi 1901-yildan e’tiboran Toshkentda chiqmoqda bo'lgan missioner Ostroumovning "Turkiston viloyatining gazetasi"da maqola yoza boshladi. Ziyo Said o'zi asarida "TVG"da Behbudiyning 1905-yildan keyin qatnasha boshlaganini ta’kidlaydi. Ziyo Said avval yozilgan ikki xotirada jon bor. "TVG"ning taxlamlarini o'rganishimiz jarayonida ma’lum bo'ldiki, 1905-yilgacha "Samarqanddan maktub" bosilgan fikri va xabarlarda muallif nomi qayd etilmagan. Biz muallif nomi yozilgan maqolani rasman uning publitsistik asari deb hisobladik. Behbudiy u paytlarda xatiblik vazifasida ishlagani bois maqola ham shu mavzuga bag‘ishlangandir. Mazkur maqola Samarqandda qozilarning sirtdan qaror chiqarib yuborishlarini isloh qilishga bag‘ishlangandir. Sudga chiqarish tartibi, chaqiriqnoma yuborish, chaqiriqnomani olganligi terisidagi tilxatlarning namunalarini ham o'quvchilar e’tiboriga havola qiladi. Bu bilan u mahalliy xalqni mustamlaka hukumatning qonun-qoidalari, targ‘ibotlarini o'rganishga ham da’vat etadi. Keyingi yozgan "Samarqand uyezdi va amsolina doir maqalai shar’iyasi"da esa dehqonlarga yetkazilayotgan zararlar haqida to'xtaladi. Ya’ni bunda ham qonun-qoidalarni bilmagan mahalliy xalqning azob chekishlarini tasvirlaydi,ularni mavjud imkoniyatlardan foydalanib yaxshiroq yashashga chorlaydi. Bu fursatda "TVG" "Duradgorlar risolasi"ni chop etdi. Behbudiy bu risolaning "fosid aqida" ekanligini shariat nuqtayi nazaridan sharhlab maqola yozadi. Shu zayldagi izlanishlardan yurtga islohotlar zarurligini, islohotlarni esa bilimli fuqaro tushinishini, amalga

oshirishni anglab yetadi va maorif islohiga sho'ng‘ib ketadi. Tadqiqotimizning boshidayoq Behbudiy bugungi jurnalistlardek "men publitsist bo'laman" deb o'z oldiga maqsad qo'ymaganligini ta’kidlashni istardik. Uning asosiy maqsadi yurtni mustamlakachilardan ozod ko'rish, shuning barobarida bu ozod yurtda davlatni boshqaradigan aqlli siyosatchilar, huquqshunoslar, fidoyi olimlar va fozil fuqaroni ko'paytirish edi. Ana shu maqsad yo'lida u qo'liga qalam oldi. Demak publitsistika Behbudiyning o'z maqsadlarini amalga oshirishda vosita bo'lgan va undan unumli foydalanishga harakat qilgan. Xuddi shu o'rinda Behbudiyning yozgan maqolalari ikki davrga to'g‘ri kelishini aytib o'tish kerak. Chunki undagi maqolalar bir-biridan farq qiladi. Birinchi davri 1917-yil fevralgacha, ikkinchisi 1917-yildan umrining oxirigacha. Birinchi davrda uning maqolalarida ma’rifatparvarlik birinchi planga chiqsa, ikkinchi davrda siyosiy-ijtimoiy ohang asosiy o'ringa ko'tariladi. Ularni alohida-alohida o'rganishga harakat qilamiz. Huquqiy publitsistni "jamiyat tabibi" deydilar.

U jamiyatning qayerida, qanday "dardi" borligini bilishi va "davolash" yo'lini ko'rsatib berishi lozim. Aks holda, tabib degan nomga noloyiq hisoblanadi. Mahmudxo'ja Behbudiy xuddi shunday "tabiblar"dan edi. U o'zi yashagan jamiyatdagi barcha illatlarni, jumladan Turkistonning mustamlaka bo'lish sabablarini ham o'z maqolalari, nashrlari orqali ko'rsatib bergan insondir. Uning o'sha qattol zamondagi qurolning nomi ma’rifatdir. Behbudiy barcha fikrlarning tanachalarini, qonini ma’rifat bilan to'ldirdi. Ma’rifatni esa hech kimsa inkor eta olmasligini u bilardi. Shuning uchun bu bayroqni u baland ko'tardi. Uning ilk chiqishlarida "jug‘rofiya" mavzu ko'p uchraydi. Bora-bora yangi maktablarda uni fan sifatida o'tish lozimligini uqtirardi. O'zi esa birinchilardan bolib bunday darslikni yaratadi. Behbudiyning jugrofiyaga oid kitoblarini ham ma’rifiy publitsistik asarlari qatoriga qoshish mumkin. Misol tariqasida 1906-yilda Sankt-Peterburgda chop etilgan "Muntahabi jugrofiya umumiy" kitobiga murojaat qilamiz. Behbudiy nega jugrofiya darsining es yangi maktablarda oqitilishida sobit turib oldi? Bu darsning zamirida nima bor edi? Keling, avvalo sozning ma’nosini Behbudiyning mazkur kitobidan olamiz: "Jugrofiya" degan soz yunon lugati arabiyga ta’rif arzi ma’nosiga, ya’ni yer va tuproqni bayon qilaturgon ilmni otidir. Jugrofiya ilmini necha naf’ foyda va bayonlari boladur" deb, bu fanning siyosiy, tarixiy, diniy foydalarini batafsil ochib beradi. Behbudiy jugrofiya va tarix haqidagi fikrlarini matbuotda ham davom ettiradi. Xususan, bir maqolasi "Jugrofiya ilmi" sarlavhasida bosilib chiqdi.

Bu paytdan boshlab biz Mahmudxoja Behbudiyning matbuotda faol qatnasha boshlaganining guvohi bolamiz. Ushbu maqola jadid maktabida oqitiladigan va kop tazyiqqa uchrayotgan jugrofiya darsi haqida yozilgan boib, uning hayot uchun

zarurligini muallif ishonarli faktlar bilan isbotlab berdi: "3ming sanadan beri yildan-yilga rivoj topib bir necha asrdin beri nihoyat martabada taraqqiy qilib, naf bo'lib, xatto hozirgi sanaga bolalar maktabiga ham ushbu ilmni muqaddamasidan boshlab dars berurlar. Dunyoda turguvchi odamni al-fununlarga oquladigan motabar va keraklik ilm va fununlarni biri bu ushbu jugrofiya ilmidur". Yangilikni davr mutaassiblari qabul qila olmas, uni turmushga olib kirish uchun esa tushunarli, ishonchli va motabar faktlar korsatilishi lozim edi. Bu ishni Behbudiy judayam oddiy va ibratli dalillar orqali uddalagan, ya'ni osha paytda arablar qiladigan ishlar yerli xalq uchun judayam ibrat bola olardi: "Hatto Arabiston ahli oqiydur. Kamina raqami xuruf vaqtiki Madinayi munavvara va xarami Nabaviya ziyoratiga musharraf edim, kordumki, maktablariga ilmi diniya ila barobar zamoni holiyani korgan ilm va fununlari ushbu jugrofiya fani oqiladur. Xarami Sharif ichidaki maktab ibtidoiy arab shogirdlari bizni Russiya mamlakatidaki baxri Xazar-Kaspiy dengizi, ya'ni Krasnovudsk ila Boku oralaridaki qol, dengizni ahvol jugrofiya, tul arz umq mavqei atrofidagi mamlakati va havosidan bahs qilib,oqub turgonlarini korgan shohidlardan bizni Samarqandda bordur. Har shaharda ham korgan kishi bolsa kerak. Arablar yunon tillaridan tarjima qilib, songra ozlaridan qoshibdurlar. Taraqqiylariga qatoriga ushbu ham rivoj berib musulmon ulamo va sayyoh donishmandlari bir necha kitoblar ushbu ilmga tasnif beradilar.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar

1. Блаватская Е.П. Из пеўер и дебрей Индостана. М; Автор. 1991-270 стр.
2. Бу ҳақда қаранг. Фадеева И.Л.Офисальные доктрины в идеологии и политике Османской империи (османизм-панисламизм), М; Наука 1985-275 срт,
3. Зиё Кўкалп. Туркчилик асослари. Т; ГФНТИ. 1994. 60-бет.
4. Қосимов Ю. Исмоилбей Гаспирали. "Ўзбегим" тўплами. Т; Шарқ 1992. 159-бет.
5. Ҳожи Муин. Маҳмудхўжа Беҳбудий "Зарафшон". -1923. - 25 март.
6. Интибоҳ – кўзи очилиш. Ғафлатдан уйғониш.
7. Ҳожи Муин. Маҳмудхўжа Беҳбудий "Зарафшон". -1923. - 25 март.
8. Усмонов М.А. ва бошқалар. Энциклопедик луғат. – Т; 1988.
9. Ҳожи Муин. Маҳмудхўжа Беҳбудий "Зарафшон". -1923. - 25 март.
10. Ҳожи Муин. Маҳмудхўжа Беҳбудий "Зарафшон". -1923. - 25 март.
11. Эгамназаров А. Сиз билган Дукчи Эшон. Т; шарқ 1994. 144-бет
12. Садриддин Айний. Маҳмудхўжа Беҳбудий ҳазратларининг қисқача таржимаи ҳоли. 1920. 8-апрель
13. Маҳмудхўжа Беҳбудий. Самарқанддан мактуб. 1903. 14-февраль

14. Маҳмудхўжа Беҳбудий. Мунтахаби жуғрофияи умумий. 1906.-105 б.

FAYZULLA XO‘JAYEV SIYOSIY FAOLIYATIDA MILLIY BARQARORLIK MASALALARI

Sotvoldiyev Jaxongir Sultonali o‘g‘li
Buxoro davlat universiteti, Tarix va yuridik fakulteti
Siyosatshunoslik 5-1SIYOS-24 guruh talabasi
jaxongirsotvoldiyev227@gmail.com
+998918387798

Annotatsiya: *Maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda shakllangan jadidchilik harakati va uning milliy uyg‘onish, xavfsizlik hamda barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan g‘oyalari tahlil qilinadi. Jadidlarning ta’limni isloh qilish va milliy davlatchilikni mustahkamlash borasidagi faoliyati siyosiy jarayonlar asosida yoritiladi. Shuningdek, Fayzulla Xo‘jayevning ijtimoiy-siyosiy qarashlari, respublika xavfsizligi, barqarorlik va milliy manfaatlarni himoya qilish yo‘lidagi sa’y-harakatlari ko‘rib chiqiladi. Totalitar tuzum va milliy davlatchilik o‘rtasidagi ziddiyatlar ochib berilib, jadidlar hamda Fayzulla Xo‘jayev merosining bugungi O‘zbekiston taraqqiyotidagi tarixiy ahamiyati asoslanadi.*

Kalit so’zlar: *jadidchilik harakati, milliy davlatchilik, Fayzulla Xo‘jayev, siyosiy islohotlar, milliy manfaatlar, xavfsizlik, barqarorlik, totalitar tuzum*

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkistonda yuzaga kelgan jadidchilik harakati mustamlakachilik siyosati kuchaygan bir sharoitda shakllandi. Ular millatning siyosiy va ijtimoiy qaramlik holatini tanqid qilib, jamiyatni yangilash va milliy o‘zlikni tiklashni asosiy maqsad qilib qo‘ydilar. Jadidlar ilm-ma’rifatni milliy uyg‘onishning bosh omili deb bilib, ta’lim tizimini isloh qilish, yangi usul maktablarini ochish hamda matbuot, adabiyot va teatrni rivojlantirish orqali xalqning siyosiy ongini oshirishga intildilar. Ularning faoliyati ma’rifiy ko‘rinishda bo‘lsa-da, aslida milliy mustaqillik, ozodlik va adolat g‘oyalarini ilgari surgan siyosiy harakat edi. Bu borada Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev o’z nutqida quyidagilarni alohida ta’kidlaydi: “Ko’pchilik ziyolilar qatorida men ham bir fikrni hamisha katta armon bilan o’ylayman: mamlakatimizda Uchinchi Renessansni yigirmanchi asrda ma’rifatparvar jadid bobolarimiz amalga oshirishlari mumkin edi. Nega deganda, bu fidoyi va jonkuyar zotlar butun umrlarini milliy uyg’onish g’oyasiga bag’ishlab, o’lkani jaholat va qoloqlikdan olib chiqish, millatimizni g’aflat botqog’idan qutqarish uchun bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etdilar. Shu

yo’lda ular o’zlarining aziz jonlarini ham qurbon qildilar”[1].

Fayzulla Xo’jayev (1896-1938)ning ijtimoiy-siyosiy qarashlari va faoliyati keskin tarixiy burilishlar davrida, ikki xil siyosiy tuzum — amirlik boshqaruvi va sovet hokimiyati sharoitida shakllandi. Uning siyosiy pozitsiyasi va amaliy faoliyati mazkur ikki davrning ijtimoiy-siyosiy jarayonlarini aks ettiradi: 1920 yilgacha bo‘lgan islohotchilik bosqichi hamda 1920–1938 yillarda Buxoro va O‘zbekiston hududida sovet tuzumi doirasidagi davlat boshqaruvi bosqichi. XX asr boshlarida Buxoro davlati an’anaviy sharqona ijtimoiy tuzum asosida boshqarilar, kuchli diniy-siyosiy institutlarga, mustahkam iqtisodiy zaxiralarga va o‘ziga xos ma’naviy muhitga ega edi. Biroq shu bilan birga, G‘arb sivilizatsiyasi ta’sirida pul-tovar munosabatlari, transport tizimi, sanoat korxonalari va matbuot rivojlanib, tashqi iqtisodiy hamda madaniy aloqalar kengaya boshlagan edi.

Ana shunday murakkab siyosiy-iqtisodiy sharoitda Fayzulla Xo‘jayev dastlab amirlik tuzumini isloh qilish va konstitutsiyaviy boshqaruvni joriy etish g‘oyalarini ilgari surgan jadid va “Yosh buxoroliklar” safida maydonga chiqdi. 1920 yildan keyin esa u sovet hokimiyati bilan hamkorlikda yangi siyosiy tizimni barpo etish jarayonida faol ishtirok etdi. Shu tariqa, uning faoliyati milliy davlatchilik, modernizatsiya va markazlashgan sovet siyosati o‘rtasidagi murakkab siyosiy muvozanatni ifodalovchi tarixiy jarayon bilan chambarchas bog‘liq bo‘ldi. Hukmron doiralar, tadbirkoru tijorat ahli, hunarmandlar ommasi, ruhoniylaru ziyolilar Buxoro davlati fuqarolari asriy milliy qadriyatlar, ijtimoiy tuzum, islom dini ta’limotlari zaminida turib yangi davr, uning ko’rinishlari va alomatlariga yo’l ochganlar, ularni qo’llab-quvvatlaganlar. Xalq hayotini, ijtimoiy munosabatlarni yangilash harakatida fuqarolarning ishchan, tadbirkor, o’tkir zehnli namoyandalari qatnashganlar, bu harakat – ijtimoiy harakat edi [2].

Asrning o‘ninchi yillari boshlarida Buxoroda siyosiy va ijtimoiy tanglik kuchayib, amirlik tuzumining yangilanishga layoqatsizligi tobora yaqqol ko‘zga tashlana boshlagan bir sharoitda yosh Fayzulla Xo‘jayevning dunyoqarashi va siyosiy ongi shakllandi. U 1913 yildan “Yosh buxoroliklar” harakatiga qo‘shilib, mavjud boshqaruv tizimini isloh qilish, davlatni zamonaviy siyosiy va iqtisodiy omillarga moslashtirish g‘oyalarini qo‘llab-quvvatladi. Harakatning ijtimoiy tayanchi turli qatlamlardan iborat edi: tadbirkorlar, hunarmandlar va dehqonlar boshqaruv tizimini yangilash zaruratini amaliy manfaatlar nuqtai nazaridan ilgari surgan bo‘lsalar, jadid ziyolilari esa ma’rifat va ta’limni tubdan isloh qilish orqali jamiyatni modernizatsiya qilishni asosiy siyosiy vazifa deb bildilar. Shu tariqa, “Yosh buxoroliklar” harakati nafaqat ma’rifiy, balki konstitutsiyaviy va siyosiy o‘zgarishlarni ko‘zlagan islohotchi kuch sifatida maydonga chiqdi.

Fayzulla Xo‘jayev zo‘ravonlik va fitna yo‘lini rad etib, bosqichma-bosqich

islohotlar orqali jamiyatni yangilash tarafdori bo‘ldi. U milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayanib, xalq manfaatlarini siyosiy faoliyat markaziga qo‘ydi. Biroq keyingi tarixiy voqealar — inqilobiy siljishlar, hokimiyat almashinuvi va keskin siyosiy kurashlar — uni murakkab va ziddiyatli tanlovlar oldida qoldirdi. Natijada, u o‘z e’tiqodlarini qisman qayta ko‘rib chiqishga va o‘ta murakkab siyosiy muhitda faoliyat yuritishga majbur bo‘ldi.

Sharqona qadriyatlar va tamoyillar ideallari hamda islohotlar yo’lini tanlab kelgan yosh buxoroliklar, shu qatorda Fayzulla Xo’jayevning siyosiy mavqei 1917 yil Rossiyadagi bolshevikcha to’ntarish, xususan 1918 yil mart oyidagi Kolesovning Buxoroga qilgan xurujidan keyin o’zgarishga yo’l tutdi. Ularga nisbatan ko’rsatilgan tazyiq natijasida Buxoro davlatiga nisbatan kuch, zo’rlik ishlatib undagi tuzumni ag’darish siyosatini ilgari surildi. Buxoro xalqining tub manfaatlarini, undagi ijtimoiy-siyosiy sharoitni oqilona idrok etib ish tutmoqchi bo’lgan yosh buxoroliklar fikri inobatga olinmadi [3]. Fayzulla Xo‘jayev Buxoro Respublikasida bosh nozir lavozimida faoliyat yuritgan davrda uning siyosiy qarashlari mamlakat ichidagi kuchlar nisbatiga va tashqi bosim omillariga bevosita bog‘liq holda shakllandi. Amir hokimiyati ag‘darilgach, hududda Qizil Armiya qismlari saqlanib qoldi, Rossiyadan yuborilgan bolshevik kadrlari esa yangi inqilobiy tuzumni mustahkamlash yo‘lida keskin siyosat olib bordilar. Turkiston ASSR (TASSR)ning siyosiy va xo‘jalik organlari Buxoro Respublikasi ustidan qat’iy nazorat o‘rnatdi. Natijada respublikadagi ko‘plab o‘zgarishlar markaz tomonidan belgilangan inqilobiy yo‘nalishda amalga oshirildi. Shu bilan birga, respublika boshqaruvida mahalliy milliy kuchlar ham mavjud bo‘lib, ular zo‘ravonlik va keskin sinfiy siyosatni cheklashga, islohotlarni bosqichma-bosqich va xalq manfaatlarini hisobga olgan holda amalga oshirishga intildilar. Keyinchalik O‘zbekiston SSR tuzilgandan so‘ng ham bu ichki siyosiy qarama-qarshiliklar saqlanib qoldi. Fayzulla Xo‘jayev ana shu ikki oqim — markaziy bolshevik siyosati va milliy manfaatlarni himoya qiluvchi kuchlar — o‘rtasida muvozanat saqlashga harakat qildi. U yangilanishlarning ijobiy jihatlarini mustahkamlash, salbiy va og‘ir oqibatlarini imkon qadar yumshatishga intildi.

Biroq 1920-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab sovet mafkurasi keskinlashib, sinfiylik, iqtisodiyot va madaniyatni sotsialistik asosda qayta qurish siyosati qat’iy tus oldi. Bu jarayon milliy yetakchilar va mustaqil fikrli ziyolilar safining qisqarishiga olib keldi. Shunga qaramay, Fayzulla Xo‘jayev o‘z faoliyatida xalqchillik, milliy qadriyatlarga sadoqat va O‘zbekistonning rivojlangan respublika sifatida shakllanishiga ishonch tamoyillarini saqlab qolishga intildi. U murakkab va ziddiyatli siyosiy sharoitda faoliyat yuritgan milliy arbob sifatida, markazning mintaqani qaram xom ashyo hududi sifatida saqlab qolish siyosatiga qaramay, el-

yurt manfaatlarini himoya qilishga harakat qilgan yetakchilardan biri edi.

Frunze boshchiligida kelgan harbiy qismlar amir hokimiyati ag'darilgandan keyin Buxoro davlati hududida qoldilar, ularning ta'minoti aholi zimmasiga yuklatildi, Respublikadan Rossiyaga xom-ashyo mollari, oziq-ovqat va boshqa boyliklar .olib ketildi. Nozirlar kengashining raisi Fayzulla Xo'jayev 1921 yil bahorida respublika hududidagi Rossiya harbiylari soni 15 ming kishidan oshmasin degan talabni qo'ydi [4]. Yana u Turkkomissiyadagi kengashda Buxorodan olib ketilayotgan oziq-ovqat va xom-ashyo mollari narxiga teng keladigan mollar berish masalasini ilgari surdi. Bu narsa Turkkomissiya rahbarlariga yoqmadi. Davlat qurilishi masalasida Fayzulla Xo'jayev tribunallar, Cheka (favqulodda komissiya), xavfsizlik organlari bo'limlarining Buxoro respublikasida tashkil etilishini tanqid qilib chiqdi [5]. U shuningdek O'rta Osiyo respublikalarining iqtisodiy birlashtirilishiga e'tiroz bildirdi . Milliy chegaralash masalasiga ijobiy yondoshgan bo'lsada, 1924 yil fevralda e'lon qilgan tezislarida mintaqa turkiy xalqlarining tarixiy ildizlari mushtarakligi g'oyasini bayon qildi . Shuning bilan birga, Fayzulla Xo'jayev guvohlik berishicha, Buxoro respublikasida chegaralashga kuchli qarshilik ko'rsatilgan, uning iborasi bo'yicha "do'stlar doirasidan ham" qarshi chiqqanlar bo'lgan [6]. 20-yillar o'rtasida Fayzulla Xo'jayev bundan oydinroq gapira olmas edi. Fayzulla Xo'jayev respublika hukumatining raisi sifatida amalga oshirilayotgan siyosiy o'zgarishlarning asl maqsadlarini chuqur anglab, milliy manfaatlarni himoya qilish naqadar murakkab va xavfli ekanini tushundi. Shunga qaramay, u Vatan va xalq ravnaqi yo'lida xizmat qilishni o'zining siyosiy burchi deb bilib, umrining oxirigacha shu yo'nalishda faoliyat yuritdi.

U va uning safdoshlari faoliyati boshqa xalqlarga qarshi emas, balki totalitar tuzumning g'ayriinsoniy usullariga nisbatan tanqidiy munosabatga asoslangan edi. Aynan milliy manfaatlarga sodiqlik markazdagi shovinistik doiralarning mahalliy yetakchilarga nisbatan ishonchsizligini kuchaytirdi. Natijada SSSR rahbariyati O'zbekiston siyosiy elitasini cheklash, parchalash va nazorat ostida ushlab turish siyosatini izchil amalga oshirdi. O'zbekiston hukumati raisi sifatida faoliyatining boshidan respublika, uning xalqi manfaatlari, uning mustaqilligi yo'lida ish ko'rgan. 1925 yilning noyabr oyida bo'lib o'tgan O'zkompartiya II syezdida qilgan "Xo'jalik qurilishi to'g'risida"gi ma'ruzasida paxtachilikning jadal sur'atlar bilan kengaytirilishi dehqonlarni ittifoqdan g'alla va sanoat mollari keltirilishiga qaram qilib qo'yadi, lekin agar ittifoqda qurg'oqchilik bo'lsa yoki temir yo'l ishida biron bir kamchilik ro'y bersa, unda jiddiy halokat kelib chiqadi. O'zbeknston qishloq xo'jaligi to'la-to'kis paxta narxiga, ittifoq sanoat mollari, undagi g'alla hosiliga bog'liq bo'lib qolmasligi kerak, degan fikrni dadil aytgan [7].

Paxta yakkahokimligini ta’minlash, ijtimoiy hayotga sinfiylikni sindirish maqsadida O’zbekistonda chorvachilik paxta uchun zararli, guruch bu quloqlar yemishi kabi asossiz g’oyalar tarqatildi. Fayzulla Xo’jayev bunday safsatalar g’alamislik oqibati va zararli deb, ularni qat’iy fosh qildi. Yana chorvachilik masalasiga qaytib eng muhimi cho’ponning ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish, dedi. O’zbekiston dehqonchiligining eng jiddiy kamchiligi dehqon tajribasini inkor qilishdir, biz dehqon tajribasini va fanni uyg’unlashtirishimiz kerak, deb alohida uqtirib o’tdi [8]. 20-30 yillarda O’zbekistonda hunarmandlar son jihatidan anchagina salmoqli edi. Shuning uchun Fayzulla Xo’jayev bu ijtimoiy tabaqaga alohida ahamiyat berdi, ular faoliyati uchun sharoit yaratish muhimligini ta’kidladi. O’sha davrda iste’mol mollari taqchilligi tufayli hunarmandlar to’g’risida bir qator qarorlar qabul qilingan, chora-tadbirlar belgilangan edi. Biroq Fayzulla Xo’jayevning 1928 yil yozida e’tirof etishicha, bu qarorlar bajarilmagan. Buning ustiga ustak hunarmandlarga nisbatan tazyiq ko’rsatilgan va Fayzulla Xo’jayev “Marg’ilonda, Buxoroda va qator boshqa rayonlarda hunarmandlarning shikoyatlari nihoyatda ko’payib ketganini” [9] ochiq aytgan, ular haq ekanligini qayd qilgan. Fayzulla Xo‘jayev O‘zbekiston Respublikasida siyosiy barqarorlikni mustahkamlash, turli millat va elatlarning teng huquqli hamda totuv yashashini ta’minlashni o‘z faoliyatining ustuvor maqsadi deb bildi. U respublikani ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirish orqali uning siyosiy mavqeini mustahkamlashga intildi.

1920–30-yillarda ayrim doiralarda O‘zbekistonni iqtisodiy jihatdan qashshoq, sanoat rivoji uchun yaroqsiz hudud sifatida talqin qiluvchi qarashlar ilgari surildi. Mintaqada mineral resurslar yo‘qligi, iqlim sharoiti yirik sanoatni rivojlantirishga mos emasligi, mahalliy aholi sanoat mehnatiga layoqatsizligi haqidagi da’volar siyosiy tusga ega bo‘lib, respublikaning istiqbolini cheklashga xizmat qilardi. Fayzulla Xo‘jayev bunday yondashuvlarni qat’iyan rad etib, ularni asossiz va g‘arazli qarashlar sifatida baholadi. U O‘zbekistonning iqtisodiy salohiyatini ochish, sanoatni rivojlantirish va mahalliy kadrlarni yetishtirish zarurligini himoya qildi. Biroq ma’lum davrlarda markaziy siyosat aynan shu cheklovchi va qaramlikni mustahkamlovchi aqidalarga tayanib ish yuritgani respublika taraqqiyoti uchun jiddiy to‘siq bo‘ldi.

1931 yil boshida qilgan ma’ruzasida Fayzulla Xo’jayev shunday jiddiy narsalarga e’tiborni qaratadi: 1929 yil o’rtalaridan Toshkentning eski shaharida birorta ham sanoat korxonasi qurilmagan. Garchand bu davrda Toshkentda ko’pgina korxonalar qurilgan bo’lsada... kolonizator olimlardan iborat komissiya eski shaharda havo buzilgan va shuning uchun u yerda sanoatni rivojlantirish mumkin emas, deb da’vo qilgan. ...Keyingi komissiya undagi yer to’g’ri kelmasligini

aytgan. Bu veqea, - deb ta'kidladi u, -"bizlar ulug' rus shovinizmi, kolonizatorlikning qoldiqlari bilan kurash olib borishimiz kerakligini ko'rsatdi" [10]. Fayzulla Xo'jayev bir necha marta ulug' rus shovinizmini keskin tanqid qilgan. Shuning uchun markaz 30 yillar o'rtalarida ulug' rus shovinizmini qoralashni man qilgan. Fayzulla Xo'jayev eng nufuzli markaz olimlari va mutaxassislari yig'inlarida O'zbekistonning yeri qazilma ma'danlarga inhoyatda boyligini asoslab bergan . Bu boyliklarii izlash, shu asosda respublikada ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish, yangi-yangi sanoat tarmoqlarini vujudga keltirish, birinchi navbatda, O'zbekiston aholisining turmush darajasini ko'tarishga, uning salohiyatini kuchaytirishga yordam beradi [11], deb umid qilgan. Bu sohalardagi rejalarni amalga oshirishga o'z hissasini qo'shib borgan. Uning tashabbusi bilan respublika hukumati 1936 yil kuzida quyidagilarni amalga oshirish bo'yicha markaziy hukumatga yozma ma'ruzalar bilan murojaat qilgan: Quvasoy GRESini qurish; Toshkent shahrini elektr quvvati bilan ta'minlash uchun Oqtepa GESini qurish; Respublikada tuz sanoatini rivojlantirish; Toshkentda akademik teatrni qurish uchun 3 mln so'm ajratish; "O'zbekfilm" uchun ovoz yozadigan "Kinap" apparatini yuborish va hokazo [12]. Bular O'zbekiston, uning xalqi, madaniyati ehtiyojlaridan kelib chiqqan talablar edi, albatta. Fayzulla Xo'jayev ilgari surgan, lekin ma'lum sabablarga ko'ra uning saylanma asarlari III jildidagi matndan tushirib qoldirilgan ravshan va dadil aytilgan yana bir fikrga murojaat qilamiz. U jiddiy mas'uliyat va kuyunchaklik bilan shunday degan edi: "Bizga umuman kadrlar emas, balki birinchi navbatda milliy, o'zbek kadrlari kerak, chunki busiz biz sovetlar apparatini milliylashtira olmaymiz, milliy proletar kadrlarni vujudga keltira olmaymiz, kolxoz xo'jaligini qayta tashkil qilish muammosiga yaqinlasha olmaymiz. ...Kolonizatorlik unsurlari kuchliroq bo'lgan sovet organlarpda yerli millat vakillarining o'sishi qiyinroq, ...texnikumlarda, rabfaklarda, ishchi universitetlarida, pedvuzlarda o'zbeklar salmogi katta emas. Bular juda qoniqarsiz, eng past, sharmandali raqamlar" [13]. Bundan otashin so'zlarni faqat xavfu xatarni pisand qilmasdan el-yurtiga butun vujudi bilan berilib xizmat qilgan o'z xalqining asil farzandigina aytishi mumkin edi.

Shu o'rinda ba'zi mulohazalar kelib chiqadi. 20- 30 yillarda O'zbekistonda qator o'zgarishlar ro'y bergan, katta qurilishlar, maorif-madaniyat sohalaridagi ishlar rejalashtirilgan va boshlab yuborilgan. Fayzulla Xo'jayev mahalliy hokimiyat masalasi bilan qonunchilik, huquqbuzarlik masalasi o'rtasidagi bog'liqlikni, revolyutsion qonunchilik yaxshi amalga oshirilmoqda, degan da'volar xato, noto'gri ekanligini ko'rsatadi. Chunonchi, 1934-1935 yillarda "Karmana va boshqa rayonlarda soliq solish ishi bo'yicha sovetlar xodimlari sud qilingan" [14]. Bular huquqbuzarlikning o'zi, deb ta'kidlaydi. Fayzulla Xo'jayev faoliyat yuritgan davrda

1937 yil qatag‘onlariga olib kelgan repressiv siyosat jarayoni ancha oldin boshlangan edi. U davlat boshqaruvida qonunbuzarliklar, asossiz ta’qiblar va siyosiy bosimlarning kuchayib borishiga befarq qaramadi, aksincha, ularning oldini olish zarurligini bir necha bor ta’kidlab, siyosiy hushyorlikka chaqirdi. Xo‘jayevning ijtimoiy-siyosiy qarashlari ko‘p qirrali va murakkab bo‘lib, u O‘zbekistonda kechgan asosiy siyosiy jarayonlar va muammolarga faol munosabat bildirdi. Uning fikr va tashabbuslari respublika osoyishtaligi, milliy manfaatlar va istiqbol masalalari bilan uzviy bog‘liq edi. Dastlabki qarashlari liberal islohotchilik ruhida shakllangan bo‘lsa, keyinchalik sovet mafkurasi sharoitida faoliyat yuritishga majbur bo‘ldi. Biroq uning siyosiy pozitsiyasida milliy manfaatlarni himoya qilish va xalq farovonligini ko‘zlash tamoyili saqlanib qoldi.

Fayzulla Xo‘jayev va uning safdoshlari tomonidan ilgari surilgan milliy taraqqiyot va xalq baxt-saodati g‘oyalari keyingi avlodlar ongida istiqlol tuyg‘usining saqlanib qolishiga muhim ta’sir ko‘rsatdi. Xulosa qilib aytganda, jadidchilik harakati Turkiston tarixida milliy uyg‘onish va siyosiy tafakkur taraqqiyotining muhim bosqichi bo‘ldi. Jadidlar ma’rifat, ta’lim va islohotlar orqali jamiyatni yangilashni maqsad qilib, aslida milliy mustaqillik va adolat g‘oyalarini ilgari surdilar. Ularning faoliyati keyingi davr milliy yetakchilarining qarash va amaliyotida davom etdi. Jadidlar va Fayzulla Xo‘jayev merosi O‘zbekiston istiqlol g‘oyalarining tarixiy ildizlarini ifodalab, bugungi taraqqiyot yo‘lini anglashda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Мирзиёев Ш.М. Ўқитувчи ва мураббийлар - янги Ўзбекистонни барпо этишда катта куч, таянч ва суянчимиздир // “Халқ сўзи” газетаси 2020 йил 1 октябрь, № 207 (7709)

2. Nusratillo Naimov Buxoro jadidlari (Tarixiy ocherklar, hujatli qissa). –T.: “Fan”, 2010.

3. Faxriddin Umarov Jadidchilik harakati va Fayzulla Xo’jayev. //Manaviyat, 2000 yil 12 aprel.

4. История Бухарской Народной Советскои Республики. Сбор документов. -Ташкент, 1976. -с.196.

5. Buxoro axbori //1921 yil, 23 iyun.

6. Xo’jayev F. Tanlangan asarlar. I tom. -Toshkent, 1972. –B.285-286.

7. Второи съезд ҚП (б) Узбекнстана. Стеногр. отчет. Самарканд, 1926. -с.19.

8. O’zR MDA, R-837-fond, 15-ro’yxat, 75-ish,25-varaq; 13-ish 5-varaq

9. Xo’jayev F. Tanlangan asarlar, II tom. -T.: “Fan”, 1976. –B.575.

10. O’zR MDA. R-837-fond, 15-ro’nxat, 239-ish, 19-varaq
11. O’zR MDA. R-837-fond, 15-ro’yxat, 137-ish
12. O’zR MDA. R-837-fond, 15-ro’yxat, 173-ish
13. O’zR MDA. R-837-fond, 15-ro’yxat, 239-ish. 18 varaq
14. O’zR MDA. R-837-fond, 15-ro’yxat, 127-ish

Jadidlarning tarixiy-ma`rifiy va madaniy qarashlari

Bahromova Malikabonu Alisher qizi
QarDU talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada jadidlarning tarixiy-ma'rifiy, madaniy va ijtimoiy qarashlari tarixiy adabiyotlar va manbalar asosida o'rganilgan. Ma'rifatparvarlarning ta'lim tizimini isloh qilish va ommaga keng yoyishga oid qarashlari tahlil etilgan.*

Kalit so'zlar: *Turkiston, jadidchilik, ma'rifat, taraqqiyparvar, yangi usul maktablari, teatr, maorif, islohot, ijtimoiy hayot, oila.*

Turkiston Chor Rossiyasi tomonidan bosib olinishi, o‘lka xalqlarining mustamlakachi siyosatiga qarshi kurash jarayonlarini kuchaytirib borgan edi. Natijada mahalliy xalq ichidan yetishib chiqqan jadidlar bu kurashga ma'rifat bilan erishishga intilgan edi. Turkiston xalqlari tarixida eng katta o‘rin tutgan jadidchilik harakati tarixiy jihatdan serqirra va murakkab yo‘lni bosib o'tdi. Ular turli mamlakatlar tajribasidan namuna olib, uni milliylashtirib, xalqqa oson o‘zi tushunadigan qilib yetkazib berishga harakat qildilar. San'at, teatr, maktablar, darsliklar, gazeta va jurnallar orqali mustamlakachilikka qarshi kurashning bosh g‘oyasi ana shu yo‘nalishda shakllanib bordi.

XIX-asr oxirlari XX-asr boshlarida Turkiston zaminidagi eng ilg‘or fikrli ziyolilar ongida paydo bo'lgan milliy uyg‘onish ma‘rifatchilikda yaqqol namoyon bo‘ldi. Bu davrda yerli xalqning madaniy-ma'rifiy hayotida shu qadar ko‘p o‘zgarishlar yuz berdiki, uni hech mubolag‘asiz Renessans, ya'ni uyg‘onish hodisasigagina qiyoslash mumkin. Madaniy ma'rifiy islohotlarning ibtidosida, albatta, maktab, maorif ishlari turadi. Shu kezlari Toshkent, Samarqand va Farg‘ona vodiysi shaharlarida o‘nlab “usuli jadid” maktablari ochildi. Uning tashkilotchilari tatar ma'rifatparvarlari bilan birga, yerli ziyolilardan Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abduqodir Shakuriy, Siddiq Ajziy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Ashurali Zohiriy, Abdurauf Fitrat, Hamza Hakimzoda, Sadriddin Ayniy, Abduvahob Ibodiy, Saidrizo Alizoda kabi o‘nlab atoqli zotlar bo‘ldi. Yangi

usul maktablar Turkistonda jadid ma'rifatchiligining ilk ko‘rinishi bo‘lishi bilan birga, to mazkur harakat sof siyosiy qiyofa kasb etgunga qadar ham o‘z ahamiyatini yo'qotmagan edi”.

Ma'lumki, Turkistonda vujudga kelgan dastlabki jadid maktablarining vujudga kelishi qrimlik ma'rifatparvar adabiyotshunos, jadid maktablarining ilk asoschisi, tirikligidayoq millatning otasi deb nom olgan Ismoil Gaspirali nomi bilan bog'liq. Taniqli olim B. Qosimov Gaspiralining jadid maktabini yaratishdagi faoliyati haqida shunday yozadi: “Ayni paytda u an'anaviy sharqona tahsilning zamondan orqada qolganini”, shu tufayli musulmonlarimiz jahon taraqqiyotidan chetga surilib chiqayotganligini ko‘radi... Milyutin gimnaziyasidagi o‘qitish usulini, Sarbonnadagi ko‘rganlarini musulmon maktablariga ko‘chirsa bo‘lmasmikan? Har bir maktab, madrasa o‘z nizom-dasturiga ega bo‘lmog‘i lozim. Diniy bilimlar qatorida dunyoviy fanlar ham keng o‘qitilishi kerak...“ degan fikrga kelgan. I. Gaspirali chizgan loyihaga asoslangan yangi usul maktablari tez orada xalq orasida tanildi”.

Maktab ta'lim tizimi islohotining zarurligini izohlarkan, Munavvarqori: “... ongda, fikrlashda, maorifda o‘zgarish qilmay turib, siyosatda o‘zgarish qilib bo‘lmasdi. Dushmanni yengish, o‘zini har jihatdan himoya qilishning eng asosiy quroli ma'rifatli odamlardan tashkil topgan yangi jamiyatni tashkil qilish edi. Bunga esa maktab va madrasa tizimida inqilob yasamay turib erishish mumkin emasdi”, deya xotirlaydi. Turkistondagi maorif tizimini isloh qilishni asosiy maqsad qilib olgan jadidlar yoshlarni milliy mustaqillik manfaatlarini himoya qila oladigan, iqtisodiy va siyosiy qaramlikdan chiqish muammolari bilan shug‘ullanadilar, zamonaviy bilimga ega kadrlar bo‘lishi kerakligini anglaganlar. Jadidlar xalqning madaniyat darajasini xalqaro saviyaga ko‘tarishni orzu qilganlar, buning uchun esa yoshlarni Yevropaning eng yaxshi o‘quv maskanlarida o‘qitish zarur, deb hisoblaganlar. Yoshlarni chet elda o‘qib kelib, o‘z yurtiga foydasi tegadiganligi haqida Mahmudxo‘ja Behbudiy “Oyna” jurnalida quyidagicha yozgan: “To‘y va ma'raka oqchasidan bolalarni.., talabalarni Makka, Madina, Misr, Istanbulga va Rossiyaga dorilfunun va dorulsaltanatlarig‘a yuborilib, diniy, dunyoviy va zamonaviy odamlar yetishdurmoqg‘a sa'y qilinsun. Ma'lumki, Munavvarqori Abdurashidxonov ham bu yo‘lda jonbozlik ko‘rsatgan. U o‘zining “Jamiyati Xayriya” nomli yordam tashkiloti “ilk maktablarni bitirgandan so‘ngra Turkiya, O‘rinburg, Ufa va Ozarbayjonga yashirin yuborilgan talabalarga yordam ishlarini boshqarar edi”.

Turkiston jadidlari chor hukumati istibdodidan qoloq ahvolga tushib qolgan Turkiston mahalliy aholini , jumladan o‘sib kelayotgan yoshlarni ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy turmushini, ong-saviyasini ko‘tarish, taraqqiy ettirish maqsadida juda katta madaniy ishlarni olib bordilar. Mahmudxo‘ja Behbudiy ta'kidlaganidek,

“Har bir mamlakatda islohot va madaniyat asbobig‘a tasavvul (vosita) va tashabbus etmoqlik harakati u mamlakatning yoshlari tarafidan zuhur eta boshlagani kabi, bizning Turkistonda ham madaniyat eshigi manzalasida bo‘lgan maktabi ibtidoiy ila intiboh va islohot jarchisi bo‘lgan milliy matbuot qayratlu yoshlarning harakati maorif parvaronlarini soyasida vujudga keldi”.

“Keraklicha din ilmini o‘qish hammaga farz bo‘lganidek, o‘z hukumatini, Vatanini va millatini saqlash uchun zamonaviy fan ilmini o‘qib bilishlik ham farzdir” - deb yozgan edi keyinchalik A. Sog‘uniy o‘zining “Turkiston qayg‘usi” asarida. Maktab- maorif bilan bir qatorda, jadid ma'rifatchiligining yana bir yorqin ifodasi turli ma'rifiy jamiyatlar va teatr bo‘ldi. “Teatr jadidlar nazdida, avvalo, “ulug‘lar maktabi”, “ibratxona” bo‘lib, xuddi maktab va matbuot kabi ma'rifat, ilm olmoq g‘oyasini targ‘ib etishi ko‘zda tutilgan edi. Ikkinchidan esa ma'rifiy va ko‘ngilochar tomoshalar orqali mablag‘ topib, maorif, matbuot ehtiyojlariga sarflamoq ko‘zlangan edi. Turkistonga tatar, ozarbayjon, rus teatri jamoalarining kirib kelishi ovro‘pacha o‘zbek milliy teatri san'atining tug‘ilishiga turtki berdi”. “Jadid teatrining manbalari haqida so‘z borganda, odatda ozarbayjon va tatar teatrlarining Toshkentga va Turkistonning boshqa yirik shaharlariga gastrolga kelgan rus teatrlari ta'siri tilga olinadi. To‘g‘ri, Turkiston Rossiya qo‘shinlari tomonidan zabt etilganidan so‘ng, 1877-yildan boshlab Turkistonga rus antrepenerlarining drama truppalari, Pererburgdagi Marinsk teatrining artistlari gastrolga kelib, o‘z spektakllarini namoyish etishgan. Qolaversa, 1914-yilda nafaqat Toshkent, Samarqand, Andijon, Namangan singari shaharlarda milliy teatr beshigiga tosh otgan ommaning, balki aksar mahalliy ziyolilarning ham yangi shahardagi rus teatrlari spektakllarini borib ko‘rishlari uchun tarixiy va madaniy sharoit yetilmagan edi”.

San'atshunoslik fanlari doktori Muxsin Qodirovning yozishicha, O‘zbekistonda qo‘g‘irchoq teatrining “chodir hayol”, “chodir jamol”, “fanus hayol” turlari faoliyat ko‘rsatib kelgan. 1916-yilga kelib jadidlar tomonidan Andijon shahrida “Taraqqiyparvar” jamiyati tuzildi. Bu davrda o‘lka jadidlarining siyosiy faolligi ancha oshgan bo‘lib, ular o‘z yig‘ilishlarida, gazeta va jurnallardagi maqolalarda ma'rifiy mavzular bilan birga ijtimoiy, iqtisodiy masalalarni ham ko‘tarib chiqa boshlaganlar. Andijondagi bu jamiyat taniqli jadid Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev rahbarligida tuzilgan edi. “Taraqqiyparvar” jamiyati safida mahalliy millat vakillaridan tashqari Chaykin, Shapiro va Okun kabi shaxslar ham bo‘lib, jamiyat tashkiliy jihatdan yaxshi uyishtirilgan edi. Andijonlik taraqqiyparvarlar tomonidan Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Padarkush” pyesasi ham sahnaga qo‘yilgan. Pyesa yangi usul maktablarining o‘qituvchilari, teatr havaskorlari tomonidan sahnada ijro etilgan. Turkistonning asr boshlari

matbuotida Ovro‘pocha teatr san'atining turi bizda, 1913-yil rasman shakllanmasidan biroz ilgariroq boshlanganiga oid dalillar uchraydi. O‘zbek yangi teatri tarixini maxsus o‘rgangan B. O Pestovskiy “Inqilob” jurnalining bir necha sonlarida e'lon qilingan katta maqolasida “Qorako‘l” shahriga yaqin bir qishloqqa 1909-yilda “o‘zbek teatri o‘ynaldi” degan, xabar borganligini qayd etgan edi. “Turkiston viloyatining gazetasi” 1910-yil yanvar sonlaridan birida esa “tez fursatda Toshkent shahrida teatr, ya'ni “muqallid” o‘yini o‘ynalaturg‘on musulmon jamiyati (truppa) ochilur emish... Ul jamiyat musulmon zamonida “muqallid” o‘ynar ekanlar”, degan xabar bosiladi. Bu xabardan besh-olti kun o‘tib, yana shu gazetada yerli tatar havaskorlari doimiy teatr truppasi tuzgani haqida ham kichik axborot berilgan. Balki avvalgi xabarda “musulmon jamiyati” deganda mazkur tatar havaskorlari nazarda tutilgandir? Ammo bundan qat'iy nazar o‘sha jamiyat spektakllari bevosita mahalliy ziyolilar ishtirokida o‘tgan. Agar “Oyna” jurnalidagi “Doxiliya xabarlari” deb nomlangan ruknni ko‘zdan kechirsak, teatr yo konsert tomoshalari haqidagi xabarlarda, mahalliy havaskorlar tatar teatrchilari bilan hamkorlikda spektakllar qo‘ygani, aksariyat, milliy pyesalardan so‘ng tatar pyesalari o‘ynalgani, har bir spektaklda tatar va o‘zbek aktyorlarining birgalashib ishtirok etganidan ogoh bo‘lamiz.

Umuman, teatr masalasiga e`tibor XX-asrning boshlaridan juda kuchli bo`lgan. Chor hukumatining Turkiston o`lkasidagi rasmiy nashri afkori hisoblangan “Turkiston viloyatining gazeti”dan tortib, “Sadoyi Turkiston”, “Sadoyi Farg‘ona” gazetalari, “Oyna” jurnali 1913-yilgi 8-sonida “Ovro‘poda teatru” nomli maqola e'lon qilib, unda G‘arbdagi yirik mamlakatlar teatrlari, ularning miqdori haqida batafsil ma‘lumotlar beradi. Madaniy taraqqiyoti yuksak bo‘lgan Angliya, Italiya, Ispaniya, Fransiya, Germaniya kabi davlatlarda yuzlab teatr tomoshaxonalari borligi, bular yonida endilikda sinematug‘rofning ham paydo bo‘lib, rivojlanayotgani aytiladi. Bunday maqolalar mahalliy ziyolilarni teatrchilik harakatiga la'nat qilsa, avomni shunday madaniyat o‘choqlaridan baxramand bo‘lishga targ‘ib etar edi.

“Jadidlar kishilik jamiyatining taraqqiyoti turli ijtimoiy omillarga bog‘liq deb hisoblardilar. Ana shu omillar orasida oila va uning muayyan jamiyatdagi o‘rni muhim ahamiyatga ega. Jadid matbuotida, shu jumladan, Behbudiyning “Oyina”sida oila masalalari hamisha diqqat markazida bo‘ldi. Masalaning yana bir tomoni borki, Fitratning 1914-yili yozilib 1915-yili nashr etilgan “Oila” kitobi jadid ma'rifatparvarlarining bu borada e'lon qilingan asarlarining ma'lum darajada mantiqiy yakuni sifatida yaratilgan. Shuning uchun ham bu kitobda jadidchilik namoyondalarining oilaga oid huquqiy qarashlari o’z aksini to‘la topgan deyishimiz mumkin.

Shubhasiz, Fitratning oilaga nisbatan qarashlari zaminida Qur'onda shu masala bo‘yicha olg‘a surilgan fikr va g‘oyalar yotadi. Shuning uchun ham bu kitob o‘z vaqtida taraqqiyparvar yoshlar tomonidan samimiy qarshi olingan va uzoq vaqt qo‘llanma bo‘lib xizmat qilgan. Jadidlarning fikri bo‘yicha, oila asosini to‘g‘ri qurmasdan va yosh avlodni to‘laqonli to‘g‘ri yo‘lda tarbiyalamasdan turib, jamiyatni isloh qilish, uning rivojini taraqqiyot sari yo‘naltirish mumkin emas va oxir-oqibatda millat taqdiri uning oilasiga, taqdiriga bog‘liq. Bu g‘oya Fitrat asarida o‘z ifodasini topgan: “Har bir millatning saodati va izzati, albatta, shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog‘liq. Tinchlik va totuvlik esa shu millat oilalarining intizomiga tayanadi. Qayerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa mamlakat va millat ham shuncha kuchli va muazzam bo‘ladi” deb yozadi u.

Hayotning farzandlar shaklida davom etishi, Fitrat nazarida, faqat oila emas, balki millatning ham kuch-qudrati va sha’n-shavkatini belgilovchi omildir. “Masalan, deb yozadi u, belgiyaliklar va inglizlarni olaylik. Har ikkala millat a’zolari ishchan va harakatchandir. Lekin ko‘z oldimizga ularni keltirib muhokama qilsak, ko‘ramizki, ingliz millati Belgiya xalqidan yuz barobar ko‘proq kuch va shavkat-u e’tiborga egadir. Qizig‘i shundaki, ingliz va belgiyalik millatlar o‘rtasida ilm-u amal va sa’y-harakatda farq yo‘q. Unda shavkat-u shon va izzat bobida shuncha farq qayerdan? Bu savolning javobini har ikkala millatning umumiy sonidan topsa bo‘ladi, ya’ni ingliz millatining aholisi 44 mln. va belgiyaliklar esa 7,5 mln. ga yetadi. Shuning uchun ham ingliz millatining umumiy sa’y-harakati va amali belgiyaliklarning sa’y va harakatlaridan bir necha marotaba unumlidir. Ingliz millatining kuchi va izzat, e’tibori ham ana shu sa’y va amallarning natijasidir. Shundan kelib chiqib, Ovro‘pa hukmdorlari o‘z millatlarining sonini ko‘paytirishga harakat qiladilar. Ovrupo olimi o‘z xalqining nufuziga putur yetsa: “Ey! Mamlakatimizning sharafi va e’tibori qolmayapti. Millatimiz nest-nobud bo‘ladi. Sharafimizni, vatan va millatimizni himoya qilish uchun farzand yetishtiringlar”, deya dod soldi”.

Fitrat o‘z asarlarida jamiyatdagi illatlarni tanqid qilib, ulardan qutulish yo‘llarini ko‘rsatdi. Uning “Munozara” asarida Buxoroda faoliyat ko‘rsatgan yosh taraqqiyparvarlarning maqsad va vazifalari o‘z ifodasini topgan edi. Bu haqida Fitrat ijodining tadqiqotchisi yaponiyalik X. Komatsu shunday degan edi: “1911-yilda Istanbulga o‘qishga borgan yosh buxorolik jadid Abdurauf Fitrat “Munozara” nomli forscha adabiy asar yozdi. Bu asar o‘sha davrda usuli jadid maktablarining zarurati hamda buxorolik islohotchilar bilan qadimchilar o‘rtasidagi tortishuvlarga nuqta qo‘yish uchun yozilgan edi: asar faqat Buxorodagina emas, balki butun Turkistondagi jadidlar harakatiga ruh va kuch berishi bilan mashhur bo‘ldi.

Xulosa qilib aytganda, ma'rifatparvarlar ilm ziyosini xalq orasida keng yoyish uchun barcha imkoniyatlarni ishga soldilar. Maktab-maorif, matbuot, badiiy asarlar, teatr orqali o‘z g‘oyalarini targ‘ib qildilar. Jadidlarning tarixiy-ma'rifiy qarashlari va g‘oyalarini amalga oshirish haqidagi faoliyati bugungi kun uchun ham nihoyatda dolzarb hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jadidchilik; islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. T;, “Universitet” 1999,

2. B. Qosimov. Milliy uyg‘onish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik. - T.: „Ma'naviyat “ 2002.

3. M. Abdurashidxonov Tanlangan asarlar - T: „Ma'naviyat“ 2003

4. M. Abdurashidxonov Xotiralarimdan (Jadidchilik tarixidan lavhalar) Sharq-2001

5. Karimov I. Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. T: O‘zbekiston. 1999

6. A. Sog‘uniy. „Turkiston qayg‘usi“ - T.: „Sharq“ 2003.

7. Jadid ma'rifatparvarlik harakatining g‘oyaviy asoslari. „Toshkent Islom universiteti“ nashriyoti matbaa birlashmasi. T:. 2016,

8. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 11-jild T., 2005. 344-b

9. Sharipov R. Turkiston jadidchilik harakati tarixidan. T. „O‘qituvchi“ 2002.

10. A. Fitrat. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. T. „Ma'naviyat“ 2000. 4-b

11. Jamolova D. Buxoro amirligida jadidlar va qadimchilar faoliyati. (XIX asr oxiri - XX asr boshlari) Toshkent-2021.

Jadidchilik harakati: shakllanishining g‘oyalari va milliy uyg‘onishdagi o‘rni

Qurbonova Zamira Mamat qizi,
Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti talabasi
kurbonovazamira250@gmail.com +998918980595
Pak Diana Aleksandrovna,
Qodiriy nomidagi Jizzax davlat
pedagogika universiteti stajyoro‘qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada jadidchilik harakatining yuzaga kelish sabablari, shakllanish bosqichlari va asosiy g‘oyaviy yo‘nalishlari ilmiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Jadidlarning ta’lim islohoti, ma’rifatparvarlik faoliyati hamda milliy ongni uyg‘otishdagi o‘rni yoritiladi. Shuningdek, harakatning ijtimoiy-fikriy*

taraqqiyotga ta’siri va milliy uyg‘onish jarayonidagi ahamiyati ochib beriladi. Tadqiqot tarixiy va ilmiy adabiyotlarga tayangan holda olib boriladi.

Kalit so‘zlar: *jadidchilik harakati, milliy uyg‘onish, ma’rifatparvarlik, usuli jadid, ta’lim islohoti, jadid maktablari, jadid matbuoti, ijtimoiy tafakkur*

XIX asr oxiri — XX asr boshlarida Turkiston hududida yuzaga kelgan jadidchilik harakati milliy tafakkur, ta’lim va ijtimoiy hayotda tub burilish yasagan tarixiy hodisa hisoblanadi. Bu davrda mintaqa siyosiy jihatdan mustamlaka sharoitida bo‘lib, ijtimoiy-madaniy sohada turg‘unlik kuchaygan edi. An’anaviy ta’lim tizimi zamon talablariga javob bermay qolgani, ilm-fan va dunyoviy bilimlardan uzilish jamiyat taraqqiyotini sekinlashtirgan. Shu sharoitda jadidlar yangi usuldagi ta’lim, dunyoviy fanlarni o‘qitish va ijtimoiy ongni uyg‘otish orqali jamiyatni isloh qilishni maqsad qildilar. Jadidchilik harakati tarixiy ahamiyatiga ko‘ra faqat ma’rifiy yo‘nalish bilan cheklanmaydi. U milliy o‘zlikni anglash, zamonaviy fikrlashni shakllantirish va ijtimoiy mas’uliyatni kuchaytirishga xizmat qilgan keng qamrovli intellektual harakatdir. Jadid namoyandalari maktab ochish, darslik yaratish, matbuotni rivojlantirish va sahna asarlari orqali xalq ongiga ta’sir ko‘rsatishga harakat qilganlar. Bu jarayon Turkiston jamiyatida yangicha dunyoqarash shakllanishiga zamin yaratdi. Milliy uyg‘onish jarayonida jadidlarning o‘rni alohida e’tiborga loyiq. Ular millat taraqqiyoti ilm va ta’lim bilan bog‘liq ekanini asoslab berdilar hamda yosh avlodni zamonaviy bilim olishga da’vat etdilar. Jadid matbuoti va adabiyoti orqali ijtimoiy muammolar ochiq muhokama qilindi, jamiyatni yangilash g‘oyalari ilgari surildi

Mazkur tadqiqotning maqsadi, jadidchilik harakatining shakllanish omillari, asosiy g‘oyalari va milliy uyg‘onishdagi rolini ilmiy manbalar asosida tahlil qilishdan iborat. Vazifalar sifatida harakatning tarixiy sharoitini yoritish, g‘oyaviy yo‘nalishlarini ko‘rsatish hamda uning ma’rifiy merosini baholash belgilab olinadi. Turkiston jamiyatida o‘sha davrda madaniy va maorif tizimining yetarli darajada rivojlanmaganligi ziyolilar orasida yangilanish zaruratini uyg‘otdi. An’anaviy maktablarda ta’lim faqat yodlash va diniy bilimlarga asoslangan bo‘lib, dunyoviy fanlar va amaliy ko‘nikmalar deyarli o‘qitilmas edi. Bu esa yosh avlodning ilmiy va ijtimoiy tafakkurini cheklab, jamiyat taraqqiyotini sustlashtirdi .

Hududning siyosiy tuzilishi ham harakatning shakllanishiga ta’sir ko‘rsatdi. Mustamlaka ma’muriyati iqtisodiy va siyosiy nazoratni kuchaytirgan bir paytda, mahalliy elita ijtimoiy faollik va milliy o‘zlikni saqlash uchun yangi g‘oyalar izlay boshladi. Shu bilan birga, tarjima asarlar va chet el matbuoti orqali kirib kelgan modernizatsiya qarashlari yosh ziyolilarda yangicha tafakkurni rivojlantirdi.

Jamiyatdagi maorif va madaniyatdagi inqiroz yangi islohotlarni zarur qildi. Ilg‘or fikrli ziyolilar o‘qitish metodikasini o‘zgartirish, maktablarda dunyoviy fanlarni joriy etish va yosh avlodni zamonaviy bilim bilan ta’minlashni maqsad qilgan. Shu paytdan boshlab “usuli jadid” maktablari va yangi darsliklar yaratish tashabbuslari yuzaga keldi. Jadidchilik g‘oyasining paydo bo‘lishi bir nechta omillarga bog‘liq edi: ta’limdagi sustlik, milliy o‘zlikni saqlash zarurati, zamonaviy fan va texnologiyalar bilan tanishish ehtiyoji hamda matbuot vositalarining kengayishi. Bu harakat zo‘ravonlik emas, balki ma’rifat va ta’lim orqali jamiyatni o‘zgartirishga intilgan harakat sifatida shakllandi. Jadidchilik harakati o‘z davrida nafaqat ta’limni isloh qilish, balki milliy ongni uyg‘otish va jamiyatni modernizatsiya qilishga qaratilgan keng qamrovli g‘oyalarga asoslandi. Eng asosiy pedagogik yangilik “usuli jadid” deb atalgan ta’lim tizimi bo‘ldi. Bu metodika an’anaviy maktablardagi yodlashga asoslangan ta’limdan farqli ravishda, fonetik o‘qitish, muloqot asosida bilim berish va dunyoviy fanlarni dars dasturiga kiritishni nazarda tutgan. Shu tariqa, yosh avlod tanqidiy tafakkur va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini egalladi, ilm-fanga qiziqishi oshdi, savodxonlik darajasi sezilarli darajada oshdi. Ikkinchi asosiy g‘oyasi yana biri milliy uyg‘onish va ma’rifatparvarlik edi. Jadidlar mahalliy xalqni diniy va madaniy jaholatdan xoli, zamonaviy ilm-fan va adabiyot bilan tanishtirish orqali milliy o‘zlikni mustahkamlashni maqsad qilgan. Bu g‘oya orqali ular o‘zbek, qozoq, turkman va boshqa xalqning madaniy uyg‘onishiga hissa qo‘shdi, jamiyatni tanqidiy tafakkur va ijtimoiy ongga chorladi. Uchinchidan, jadidlar zamonaviy fan va dunyoviy bilim targ‘ibini faol ilgari surdilar. Matematika, geografiya, tarix va tabiiy fanlar maktab dasturiga kiritilib, yoshlarni global bilimlar tizimi bilan tanishtirdi. Bu yondashuv avlodning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish, zamonaviy kasb-hunar va amaliy ko‘nikmalar bilan boyitishga xizmat qildi. Shuningdek, jadidlarning g‘oyaviy konsepsiyasi jamiyatni isloh qilishga qaratilgan edi. Ular matbuot, adabiyot va pedagogik faoliyat orqali ijtimoiy muammolarni ochiq muhokama qilishni, ma’naviy va madaniy taraqqiyotga undashni maqsad qilgan. Jadidchilik harakati zo‘ravonliksiz, faqat ilm va ma’rifat orqali jamiyatni yangilashni ko‘zlagan intellektual oqim sifatida shakllandi.

Jadidchilik harakati ma’rifiy va pedagogik sohada chuqur islohotlarni amalga oshirishga qaratilgan edi. Eng asosiy tashabbus - yangi usul maktablari (usuli jadid maktablari) tashkil etish bo‘ldi. Ushbu maktablar an’anaviy diniy maktablardan farqli ravishda, fonetik asosda o‘qitish, yozuv va o‘qish bilan birga arifmetika, geografiya, tarix, tabiiy fanlarni ham o‘rgatdi. Bu yondashuv yosh avlodning mantiqiy fikrlashini rivojlantirishga, savodxonlik darajasini oshirishga va zamonaviy dunyoqarashni shakllantirishga xizmat qildi. Jadidlar maktablar uchun darslik va o‘quv qo‘llanmalar yaratishga alohida e’tibor qaratdilar. Misol sifatida,

Abdulla Avloniy va Mahmudxo‘ja Behbudiy maktablarda o‘qitish uchun yangi darsliklar yozdilar. Bu darsliklar an’anaviy ta’lim usulidan farqli ravishda, amaliy bilimlar, hayotiy ko‘nikmalar va tanqidiy tafakkur rivojlanishini maqsad qilgan edi. Shu tariqa, talaba faqat bilim yodlamay, balki uni hayotiy faoliyatda qo‘llashga o‘rgandi. Shuningdek, jadidlar matbuot va targ‘ibot faoliyatini ham kengaytirdilar. Gazeta va jurnallar orqali ijtimoiy muammolar, ta’limdagi sustlik, milliy uyg‘onish va islohot g‘oyalari keng muhokama qilindi. Ular matbuotdan xalqni bilim olishga, yangi g‘oyalarni qabul qilishga va jamiyatni yangilashga chaqirish vositasi sifatida foydalandilar. Jadidlarning yosh avlod tarbiyasidagi yondashuvi ham innovatsion edi. Maktablar nafaqat fan o‘rgatadigan maskan, balki milliy o‘zlik va ma’naviyatni shakllantiradigan muhit sifatida xizmat qilgan. Ular bolalarni tanqidiy tafakkur qilishga, mustaqil fikrlashga va jamiyat hayotidagi mas’uliyatni anglashga o‘rgatdilar. Shu tariqa, jadid maktablari nafaqat ilmiy, balki madaniy va ijtimoiy o‘sishga xizmat qilgan muassasa bo‘ldi. Jadidchilik harakati nafaqat ta’lim va pedagogik sohada, balki adabiyot va matbuot orqali ham keng miqyosda amalga oshirildi.

Matbuot nashrlari jadidlarning eng muhim vositalaridan biri bo‘lib, ular orqali ijtimoiy, ma’naviy va madaniy masalalarni keng jamoatchilikka yetkazish mumkin bo‘ldi. Gazeta va jurnallar, masalan, “Turkiston”, “Shuhrat” va “Taraqqiy” kabi nashrlar, nafaqat yangilik va axborot manbai, balki jamiyatni yangilash g‘oyalarini targ‘ib qiluvchi platforma sifatida xizmat qildi. Jadidlar ijtimoiy tanqid va islohot chaqiriqlarini o‘z asarlarida ochiq ifoda etdilar. Ular milliy ongning sustligi, savodsizlik, xurofot va an’anaviy ta’limning zamon talablariga javob bermasligini tanqid qildilar. Shu bilan birga, jamiyatni modernizatsiya qilish, yangi maktablar ochish, zamonaviy fanlarni joriy etish va yosh avlodni ilm-fan bilan tanishtirish zarurati haqida fikrlarini ilgari surdilar . Adabiyot orqali milliy ongni uyg‘otish jadidchilikning yana bir muhim yo‘nalishi bo‘ldi. Hikoya, doston, esse va maqolalar orqali ular o‘quvchilarni tarixiy, ijtimoiy va madaniy masalalar bilan tanishtirdi. Misol uchun, Cho‘lpon, Fitrat va Behbudiy asarlarida milliy qadriyatlar, milliy o‘zlikni anglash va jamiyatdagi adolatsizlikni tanqid qilish muhim mavzular sifatida ko‘tarilgan. Shuningdek, jadidlar dramaturgiya va publitsistika orqali ham jamiyatni uyg‘otishga intildilar. Drama va sahna asarlari orqali ular xalq hayotidagi ijtimoiy muammolarni yoritdi, yoshlarni ma’rifatga chorladi va milliy uyg‘onish jarayonini tezlashtirdi. Publitsistika esa targ‘ibot vositasi sifatida ilmiy va amaliy g‘oyalarni keng jamoatchilikka yetkazishda katta rol o‘ynadi. Jadidchilik harakati nafaqat ta’lim va ma’rifat sohasida, balki siyosiy tafakkur va milliy davlatchilik konsepsiyasini shakllantirishga ham katta hissa qo‘shgan. Ularning siyosiy g‘oyalari asosan Turkiston Muxtoriyati konsepsiyasiga qaratilgan edi. Jadid

ziyolilari mustamlaka hukumatining iqtisodiy va siyosiy nazorati ostida bo‘lgan mahalliy xalqning o‘z boshqaruvini tashkil etish imkoniyatlarini ilgari surdilar. Bu g‘oya milliy o‘zlikni saqlash, hududiy mustaqillikni mustahkamlash va xalqning siyosiy huquqlarini himoya qilish bilan chambarchas bog‘liq.

Siyosiy faollik jadidlarning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘ldi. Ular xalqni faollikka, o‘z jamiyati va davlat boshqaruvi masalalariga qiziqishga undashga intildilar. Jadid ziyolilari mahalliy kengashlar, jamoat tashkilotlari va matbuot orqali siyosiy tushunchalarni targ‘ib qildilar, bu esa xalqqa demokratik qarashlarni singdirishga xizmat qildi. Shu tariqa, ular yosh avlodni nafaqat ilm-fan, balki siyosiy ong bilan ham qurollantirishni maqsad qilgan. Jadidlar shuningdek huquqiy davlat va milliy boshqaruv qarashlarini ilgari surdilar. Ularning fikricha, milliy davlatning barqarorligi qonun ustuvorligi, ijtimoiy adolat va demokratik prinsiplarga asoslanishi lozim edi. Ular milliy parlament yoki kengashlar orqali xalq vakilligi, hukumatning javobgarligi va qonun ustuvorligi g‘oyalarini targ‘ib qildilar. Bu yondashuv Markaziy Osiyoda mustamlakachilik davrida yangi siyosiy tafakkur shakllanishiga zamin yaratdi. Shu bilan, jadidchilik nafaqat ma’rifiy harakat sifatida, balki milliy o‘zlikni mustahkamlash, siyosiy faollikni rag‘batlantirish va demokratik davlat g‘oyalarini targ‘ib qilish orqali milliy davlatchilikning intellektual asosini yaratgan harakat sifatida tarixda o‘rin egallaydi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy (1875–1919) Turkiston jadidchilik harakatining eng faol ziyolilaridan biri bo‘ldi. U Toshkentda tug‘ilib, dastlab an’anaviy maktabda tahsil oldi, keyinchalik zamonaviy fanlar va turli tillarni o‘rgandi. Behbudiy mustamlaka sharoitida yashagan mintaqada milliy ongni uyg‘otishga intilib, ma’rifiy va siyosiy faoliyatni birlashtirdi. Uning hayoti jadidchilik harakati bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, u nafaqat ta’lim, balki matbuot, publitsistika va siyosiy g‘oyalarni targ‘ib qilish bilan mashhur bo‘ldi. Behbudiy pedagogik faoliyati bilan ajralib turadi. U yangi usuldagi maktablar tashkil qildi, darsliklar yozdi va yoshlarni zamonaviy bilimlar bilan tanishtirdi. Bundan tashqari, u matbuot orqali jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni ochiq muhokama qilgan. Gazeta va jurnallarda chop etilgan maqolalari milliy uyg‘onish, ta’lim islohotlari va ijtimoiy adolat g‘oyalarini targ‘ib qildi. Shu bilan birga, Behbudiy turkiy xalqlar orasida ma’rifiy va madaniy uyg‘onish jarayonini tezlashtirishga hissa qo‘shdi.

Behbudiy g‘oyalari milliy uyg‘onish, ilm-fan va ma’rifatparvarlikka qaratilgan edi. U xalqning savodli bo‘lishi, zamonaviy fanlarni o‘rganishi va tanqidiy tafakkurga ega bo‘lishi orqali jamiyatni yangilash mumkinligiga ishongan. Shuningdek, u milliy o‘zlikni saqlash, madaniy qadriyatlarni rivojlantirish va siyosiy faollikni targ‘ib qilishni asosiy maqsad qilib qo‘ydi. Behbudiy nafaqat pedagogik va ma’rifiy faoliyati, balki siyosiy tafakkuri bilan ham tarixda muhim

o‘rin egalladi. U Turkiston Muxtoriyati g‘oyalarini ilgari surdi, milliy boshqaruv va huquqiy davlat konsepsiyasini targ‘ib qildi. Shu tariqa, Behbudiy Markaziy Osiyoda milliy uyg‘onish va intellektual modernizatsiya jarayonining eng muhim figurasi sifatida tarixga kirgan.

Jadidchilik harakati XIX asr oxiri — XX asr boshlarida Turkiston va Markaziy Osiyoda yuzaga kelgan milliy-ma’rifiy yangilanish oqimi bo‘lib, uning asosiy maqsadi jamiyatni ilm, ma’rifat va ijtimoiy ong orqali modernizatsiya qilish edi. Harakat an’anaviy ta’lim tizimidagi sustlik, siyosiy cheklanishlar va madaniy izolyatsiya sharoitida shakllangan. Jadidlar yangi usuldagi maktablar, darsliklar, matbuot va adabiyot orqali xalqni zamonaviy bilim bilan tanishtirdilar, milliy uyg‘onishni rag‘batlantirdilar va ijtimoiy mas’uliyatni rivojlantirdilar.Jadid merosi bugungi kunda ham ahamiyatini yo‘qotmagan. U milliy ta’lim tizimi, adabiyot, pedagogik metodika va siyosiy tafakkurning rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatdi. Yoshlar tafakkurini shakllantirish, tanqidiy fikrlashga o‘rgatish va milliy o‘zlikni anglash borasida jadidchilik g‘oyalari zamonaviy ta’lim va madaniyat uchun muhim saboqlar beradi. Shu nuqtai nazardan, jadidchilik faqat tarixiy hodisa sifatida emas, balki hozirgi jamiyatning ma’rifiy va ijtimoiy rivojlanishi uchun ilhom manbai sifatida ham qadrlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Begali Qosimov. "Jadidchilik" (Ma'rifat darsligi, 2011) 9-24 betlar

2. Sirojiddin Ahmedov. "Jadidlar: milliy ozodlik va istiqlol yo'lida" (2004).

15-38-betlar

3. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi (J-harfi, 3-jild) 585-589-betlar

4. Turkistonda jadidchilik harakati va ularning islohotchilik faoliyati" (ZiyoNet portali) 8-bet

5. Turkistonda jadidchilik harakatining vujudga kelishi (Zenodo platformasi)42-60-

JADIDLARNING HARBIY VA SIYOSIY QARASHLARI: MILLIY UYG'ONISH HARAKATINING STRATEGIK PARADIGMALARI

Turg‘unboyev Kamron Ilhom o’gli
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti, Tarix yo‘nalishi 2 kurs talabasi
t.kamron@dtpi.uz
https://orcid.org/0009-0003-1431-1942

ANNOTATSIYA: *Ushbu maqolada XX asr boshlarida Markaziy Osiyo va umuman musulmon dunyosida shakllanib rivojlangan jadidchilik harakatining harbiy va siyosiy qarashlari ilmiy-tahliliy nuqtai nazardan o'rganiladi. Maqolada jadidlarning davlatchilik, milliy mustaqillik, konstitutsionalizm va harbiy qurilishga oid g'oyalari, shuningdek, ularning amaliy siyosiy faoliyati va strategik yondashuv xususiyatlari ko'rib chiqiladi. Tarixiy manbalar, arxiv hujjatlari va ilmiy tadqiqotlar asosida jadidlarning zamonaviy siyosiy tafakkur shakllanishidagi o'rni va ahamiyati baholanadi. Maqola jadidlarning siyosiy ideologiyasi, harbiy strategiyasi va milliy davlatchilik konsepsiyasini tahlil etib, ularning XX asr Turkiston tarixiga qo'shgan hissasini ko'rsatishga harakat qiladi.*

Kalit so'zlar*: jadidchilik, siyosiy isloh, harbiy qurilish, Turkiston muxtoriyati, milliy mustaqillik, konstitutsionalizm, pan-turkizm, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat.*

KIRISH. XX asrning birinchi choragida Markaziy Osiyo ijtimoiy-siyosiy hayotida kechgan eng muhim jarayon jadidchilik harakatining paydo bo'lishi va rivojlanishi bilan bog'liqdir. Bu harakat nafaqat madaniy-ma'rifiy islohot dasturi sifatida, balki mustamlaka sharoitida milliy o'z-o'zini anglash va siyosiy uyg'onishning o'ziga xos ifodasi sifatida ham tarix sahnasiga chiqdi. Jadidlar faoliyatini faqat ta'lim sohasidagi yangilanish bilan cheklab qo'yish yuzaki yondashuvdir: ularning siyosiy va harbiy qarashlari ancha murakkab, ko'p qatlamli va strategik jihatdan pishiq edi.

O'zbek tarixshunosligida jadidlar merosini o'rganish istiqomati yangi bosqichga ko'tarilgan bo'lsa-da, ularning harbiy-siyosiy kontseptsiyasi alohida, sistemli tarzda tahlil qilinmagan. Ushbu tadqiqotning maqsadi jadidlarning harbiy va siyosiy qarashlarini birlamchi manbalar, tarixiy hujjatlar va ilmiy adabiyotlar asosida kompleks tarzda ko'rib chiqish, ularning O'rta Osiyo siyosiy tarixidagi o'rnini ilmiy jihatdan belgilashdir.

Tadqiqotda tarixiy-taqqosiy, analitik va tizimli tahlil metodlaridan foydalanilgan. Manbalar sifatida jadid matbuoti — "Oyina", "Samarqand", "Shuro" jurnallari, shuningdek, S. Ayniy, Fitrat, Behbudiy asarlari va zamonaviy tadqiqotchilarning monografiyalariga murojaat qilindi.

JADIDLARNING SIYOSIY FALSAFASI VA IDEOLOGIK ASOSLARI. Konstitutsionalizm va parlamentarizm g'oyalari. Jadidlarning siyosiy falsafasi bir necha o'zaro bog'liq g'oyaviy ustunlarga tayanar edi. Ularning eng muhim siyosiy talabi konstitutsiyaviy boshqaruv va parlamentarizm tamoyillarini joriy etishdan iborat edi. Bu g'oya, avvalo, 1905-yil Rossiya inqilobi va Usmonli imperiyasidagi Yoshturk harakati ta'sirida shakllandi. Ismoil G'aspiralining "Tarjumon" gazetasi orqali targ'ib qilgan konstitutsionalizm g'oyasi jadid yetakchilariga bevosita ilhom manbai bo'ldi. Mahmudxo'ja Behbudiy o'zining "Padarkush" pyessasi va publitsistik maqolalarida zamonaviy qonunga asoslangan davlat tartibini talab qildi. U yozadiki: mahalliy xalqning ma'rifatdan bebahra qolishi siyosiy ojizlikni keltirib chiqaradigan asosiy omil bo'lib, bu ojizlikdan qutulishning yagona yo'li — zamonaviy ilm-fan va fuqarolik ongi orqali o'tadi. Behbudiy fikricha, konstitutsiyaviy tuzum milliy ozodlikning siyosiy shartiga aylanishi kerak edi.

Abdurauf Fitrat esa "Munozara" (1909) va "Hind sayyohi" (1912) asarlarida islomiy islohotchilikni zamonaviy siyosiy tafakkur bilan uzviy bog'ladi. Fitrat fikricha, mahalliy xalqning siyosiy faolsizligi diniy-mafkuraviy qoloqlik mahsulidir va buni bartaraf etishda zamonaviy ta'lim muhim vosita vazifasini o'taydi.

Milliy o'z-o'zini belgilash va mustaqillik konsepsiyasi. Jadidlarning siyosiy dasturida milliy o'z-o'zini belgilash g'oyasi markaziy o'rin tutardi. Bu g'oya dastlab muxtoriyat talab etish ko'rinishida namoyon bo'ldi. 1917-yil Fevral inqilobidan so'ng jadidlar Turkiston Muxtoriyatini e'lon qilish tashabbusini ko'rsatdilar va bu siyosiy loyiha milliy o'z-o'zini boshqarish printsipiga asoslangan edi. Munavvar Qori Abdurashidxonov faoliyati Toshkentda siyosiy tashkilot qurishga qaratilgan edi. U 1917-yilda "Shuro-yi Islomiya" tashkilotiga rahbarlik qilib, mahalliy aholi manfaatlarini siyosiy maydondan himoya qilishga harakat qildi. Jadidlarning milliy mustaqillik konsepsiyasi faqat siyosiy talablar bilan cheklanmay, madaniy va iqtisodiy mustaqillikni ham o'z ichiga olardi. Ayni vaqtda jadidlar o'rtasida milliy o'z-o'zini belgilashning hududi va shakli masalasida fikr xilma-xilligi mavjud edi. Bir toifa — Cho'lpon, Fitrat kabi mutafakkirlar — to'liq milliy mustaqillikni maqsad qilsa, boshqa bir qismi Rossiya federatsiyasi doirasidagi keng muxtoriyat bilan qanoatlangan bo'lar edi. Bu ikkilanish, pirovardida, 1917-yil inqilobidan keyingi siyosiy qarorlarda o'z aksini topdi.

HARBIY QARASHLAR VA MUDOFAA STRATEGIYASI. Milliy qo'shin tuzish masalasi. Jadidlarning harbiy qarashlari ularning siyosiy kontseptsiyasidan uzviy

kelib chiqardi. Chor Rossiyasi davrida mahalliy aholining harbiy xizmatdan chetlatilishi faqat ijtimoiy kamsitish emas, balki siyosiy hoqsizlikning ramziy ifodasi ham edi. Jadid mutafakkirlari bu holatni o'tkir his qilib, milliy qurolli kuchlarni tashkil etish zaruratini qayta-qayta ta'kidladilar. Fitrat o'zining "Rahbari najot" (1915) asarida zaif harbiy quvvat va siyosiy mustaqillik o'rtasidagi bevosita bog'liqlikni tahlil qilib, mahalliy aholining harbiy jihatdan tayyorlanishi milliy tiklanishning muqaddimasi ekanligini asoslab berdi. Bu qarash faqat harbiy-texnik masala emas, balki chuqur milliy-siyosiy muammo sifatida ko'tarildi. 1917-yil inqilobiy voqealar jadidlarga qisqa muddat bo'lsa-da, o'z harbiy tuzilmalarini shakllantirish imkoniyatini berdi. Qo'qon muxtoriyati hukumati o'z xavfsizlik tuzilmalarini yaratishga urinib ko'rdi, biroq bu tajriba ularning harbiy-tashkiliy imkoniyatlari cheklanganligi sababli uzoqqa bormadi. 1918-yil fevralida Qizil Armiya tomonidan muxtoriyat shafqatsizlarcha bostirildi.

1916-yil qo'zg'oloni va jadidlarning pozitsiyasi. 1916-yil chor hukumatining mahalliy aholini harbiy xizmatga safarbar etish to'g'risidagi farmoni katta norozilikni keltirib chiqardi. Bu farmon amalda ishchi sifatida frontga jo'natish buyrug'i bo'lib, haqiqiy harbiy faoliyatni ko'zda tutmasa-da, aholi orasida jiddiy qo'zg'olonga sabab bo'ldi. Jadidlar bu voqeaga nisbatan murakkab, ikki tomonlama siyosiy pozitsiya egalladi. Bir tomondan, ular mahalliy aholining haq-huquqlari poymol etilganini tan oldi va qo'zg'olonchilarning shikoyatlarini qonuniy deb hisobladi. Ikkinchi tomondan, ko'pchilik jadidlar qurolli qo'zg'olonni siyosiy maqsadga erishish uchun samarasiz yo'l deb baholadi va unga muqobil sifatida siyosiy muzokaralar hamda islohotlarni tavsiya etdi. Bu pozitsiya bir qator tarixchilar tomonidan "pragmatik murosa" sifatida baholanadi.

Bosmachilik harakatiga munosabat. Sovet hokimiyati o'rnatilgandan so'ng Markaziy Osiyoda bosmachilik harakati kuchaydi. Jadid ziyolilari dastlab bu harakat bilan masofa saqladi: ular qurolli kurashni strategik jihatdan samarasiz va taktik nuqtai nazardan zararli deb baholadilar. Chunki, ularning fikriga ko'ra, qurol kuchi bilan sovet hokimiyatini ag'darish uchun yetarli harbiy va iqtisodiy resurslar mavjud emas edi. Biroq sovet repressiyalari kuchaygan sari, 1920-yillarning o'rtalaridan e'tiboran, ba'zi jadidlar milliy-ozodlik harakatiga ma'naviy hamdardlik bildira boshladi. Fitrat va Cho'lpon kabi adiblarning ijodida bu davrda ochiq bo'lmasa-da, pinhona tarzda milliy azob va isyon mavzulari paydo bo'ldi. Bu esa ularning harbiy-siyosiy pozitsiyasi passivdan faol qarshilikka tomon evrilayotganining adabiy-ramziy ifodasi edi.

QO‘QON MUXTORIYATI: SIYOSIY VA HARBIY TAJRIBA. 1917-yil noyabrda e'lon qilingan Turkiston Muxtoriyati (Qo'qon muxtoriyati) jadidlarning siyosiy va harbiy g'oyalarini amalda sinab ko'rish imkonini bergan yagona davlat qurilishi

tajribasi sifatida tarixiy ahamiyat kasb etadi. Muxtoriyat hukumati tomonidan qabul qilingan qarorlar, shu jumladan harbiy qurilishga doir chora-tadbirlar, jadidlarning davlat haqidagi qarashlarini in'ikos etardi. Muxtoriyat hukumati dastlab harbiy kuchini zaifligi sababli diplomtik yo'l tutdi va Sovet hokimiyati bilan muzokaralar olib borishga urindi. Biroq Sovet rahbariyati muxtoriyatni tan olmadi va uni "millatchilikning burjua reaksiyasi" deb baholab, harbiy kuch bilan bartaraf etdi. 1918-yil fevralda Qizil Armiya Qo'qonni ishg'ol qilib, aholining katta qismini qirib tashladi — bu fojia "Qo'qon qirg'oni" nomi bilan tarixga kirdi. Bu fojia jadid harakatini ham g'oyaviy, ham tashkiliy jihatdan zaiflashtirib yubordi. Bir qismi sovet tizimi bilan hamkorlikka o'tdi, boshqalari chet elga ketdi, yana bir qismi esa yashirin faoliyatni davom ettirdi. Qo'qon muxtoriyatining mag'lubiyati jadidlarning harbiy-siyosiy strategiyasidagi asosiy zaifliklarni ochib berdi: ular g'oyaviy jihatdan pishiq, lekin harbiy-tashkiliy jihatdan zaif edi.

SOVET DAVRIDA JADIDLAR: HAMKORLIK VA QARShILIK DIALEKTIKASI. Milliy kommunizm va jadid ziyolilari. 1920-yillarda bir qancha jadid ziyolilari sovet tizimi bilan vaqtinchalik hamkorlik yo'lini tanladi. Bu qaror strategik hisobga asoslangan edi: ular o'zbek tili, adabiyoti va madaniyatini rivojlantirish uchun sovet muassasalaridan foydalanishga harakat qildilar. Shu tariqa jadidlar sovet ta'lim tizimi, matbuoti va madaniy muassasalari ichida milliy ozodlikning ma'naviy asoslarini mustahkamlashga urindilar. Fitrat, Cho'lpon, Qodiriy singari yozuvchilar bu davrda o'zbek adabiyotining klassik asarlarini yaratdilar. Ular sovet mafkurasiga zohiran muvofiqlik ko'rsatgan holda, asarlarining mazmun-mohiyatida milliy ruhni saqlashga muvaffaq bo'ldilar. Bu strategiya G'arb siyosatshunosligida "ichki qarshilik" yoki "passiv dissidentizm" deb ataluvchi hodisa bilan qiyoslanishi mumkin.

Repressiyalar va jadid harakatining inqirozi. Stalin davrida kuchaygan siyosiy qatag'onlar jadid harakatini butunlay yo'q qildi. 1937–1938-yillardagi "Katta terror" davrida Fitrat, Cho'lpon, Qodiriy, Munavvar Qori va boshqa ko'plab jadid namoyandalari hibsga olinib, qatl etildi. Ularning asarlarini tarqatish, o'rganish yoki esga olish man etildi. Shu tariqa jadidlar harakati ham g'oyaviy, ham shaxsiy jihatdan tugatildi. Biroq ularning g'oyalari butunlay yo'q bo'lib ketmadi: XX asrning oxirida O'zbekiston mustaqilligi e'lon qilinganda, jadidlar milliy qahramonga aylandi va ularning merosi qayta tiklanib, davlat mafkurasining asosiy manbasiga aylandi.

JADIDLARNING SIYOSIY VA HARBIY MEROSINI BAHOLASH. Jadidlarning harbiy va siyosiy qarashlari, garchi o'z davrida to'liq amalga oshmagan bo'lsa-da, tarixiy nuqtai nazardan muhim ahamiyat kasb etadi. Birinchidan, ular Markaziy Osiyodagi zamonaviy milliy davlatchilik tushunchalarining shakllanishiga

poydevor yaratdilar. Ikkinchidan, mustamlakachilik sharoitida milliy o'z-o'zini anglash va siyosiy tashkilotchilik tajribasini hosil qildilar. Ulaming asosiy xizmati shundaki, jadidlar mustamlaka sharoitida ham millat taqdiri xalq qo'lida ekanligini, bu taqdirni o'zgartirish uchun esa birinchi navbatda ma'rifat, keyin siyosiy tashkilot, so'ngra esa harbiy kuch zarurligini tushunib, bu g'oyani keng tarqatdilar. Bu nuqtai nazardan jadidlarning strategiyasi XIX asr oxiri — XX asr boshidagi ko'plab milliy-ozodlik harakatlari bilan umumiy metodologik o'xshashlikka ega. Harbiy jihatdan jadidlarning strategik zaif tomoni shundaki, ular qurollanish va harbiy tashkilot masalasiga ikkinchi darajali e'tibor berdilar. Bu holat siyosiy maqsadlari amalga oshirilishiga to'sqinlik qildi. Biroq bu hol ularning tanqidiga emas, balki mavjud sharoitning ob'ektiv cheklovlariga bog'liq edi: Chor Rossiyasi, so'ngra esa Sovet hokimiyati mahalliy aholini qurollantirishga yo'l qo'ymadi va harbiy tashkilotchilikni deyarli imkonsiz qilib qo'ydi.

Zamonaviy tarixshunoslikda jadidlar merosini baholash uch asosiy tendentsiyaga bo'linadi: birinchisi — ularni mustamlakachi tizim bilan murosa qilgan kollaboratsionistlar sifatida talqin etish; ikkinchisi — ularni millatni qutqarish uchun barcha imkoniyatlardan foydalangan pragmatik vatanparvarlar sifatida ko'rish; uchinchisi esa ularni zamonaviy O'zbekiston davlatchiligining g'oyaviy asoschilariga aylantirish.[12] Ushbu talqinlarning har biri ma'lum darajada asosli bo'lsa-da, haqiqat ko'proq ularning sintezida yotadi.

XULOSA Jadidlarning harbiy va siyosiy qarashlari o'z davri uchun progressiv, strategik jihatdan pishiq va milliy ahamiyatga ega g'oyalar majmuini tashkil etardi. Ular Markaziy Osiyoda konstitutsionalizm, parlamentarizm, milliy o'z-o'zini belgilash va zamonaviy harbiy tashkilot g'oyalarini ilk bor tizimli tarzda ilgari surdilar.Jadidlarning siyosiy strategiyasi to'g'ridan-to'g'ri qurolli kurash o'rniga ma'rifat, siyosiy tashkilot va diplomatik muzokarani ustuvor qo'ydi. Bu yondashuv bir tomondan ularning siyosiy idealizmi, ikkinchi tomondan ob'ektiv mustamlaka sharoitining cheklovi mahsuli edi. Qo'qon muxtoriyatining fojiali yakuni ularning harbiy-siyosiy strategiyasidagi asosiy zaifliklarni ko'rsatib berdi, biroq bu ularning g'oyaviy meposini kamsitmaydi.Jadidlar merosi bugun O'zbekiston milliy-siyosiy tarixining ajralmas qismi bo'lib, ularning siyosiy va harbiy qarashlari zamonaviy davlatchilik tafakkurining muhim manbai hisoblanadi. Kelgusidagi tadqiqotlar jadidlarning harbiy strategiyasini, xususan, Qo'qon muxtoriyati davridagi harbiy qurilish tajribasini yanada chuqurroq o'rganish uchun arxiv manbalar bilan ishlashni talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Allworth, E. (1990). The Modern Uzbeks: From the Fourteenth Century to the Present. Stanford: Hoover Institution Press.1990.

2. Behbudiy, M. Oyina jurnali. Samarqand.1913-1914.

3. Bobrovnikov, V. "What Went Wrong with the Jadid Projects in Central Asia". Central Asian Survey, 25(3), 201-214.2006.

4. Brower, D. Turkestan and the Fate of the Russian Empire. London: RoutledgeCurzon.2003.

5. Fitrat, A. Munozara. Buxoro-Istanbul. 1909.

6. Fitrat, A. Rahbari najot. Istanbul.1915.

7. Karimov, N. "Jadidlar harakatini o'rganishda yangi yondashuvlar". O'zbekiston tarixi, №4, 12-20. 2011.

8. Khalid, A. The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia. Berkeley: University of California Press. 1998.

9. Khalid, A. Islam after Communism: Religion and Politics in Central Asia. Berkeley: University of California Press. 2007.

10. Lazzerini, E.J. Ismail Bey Gasprinskii and Muslim modernism in Russia, 1878–1914. Seattle: University of Washington Press.1983.

JADID DARSLIKLARINING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI: "ADIBI AVVAL"DAN "TURKIY GULISTON"GACHA

Suyarova Aynur Ibadullayevna
Jizzax Davlat pedagogika universiteti pedagogi
An Diana Yurevna
Jizzax Davlat pedagogika universiteti talabasi
dianan9794@gmail.com +998959470057

Annotatsiya*: Ushbu maqolada jadidchilik harakati namoyandalari tomonidan yaratilgan darsliklarning pedagogik xususiyatlari va ularning milliy ta'lim tizimini transformatsiya qilishdagi roli "Adibi avval", "Adibi soniy" hamda "Turkiy Guliston yoxud axloq" asarlari misolida kompleks tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida jadid darsliklarida qo'llanilgan "usuli savtiya" metodikasining samaradorligi, fanlararo integratsiya va axloqiy tarbiya prinsiplari statistik ma'lumotlar hamda qiyosiy-pedagogik tahlillar yordamida ochib berilgan. Eksperimental o'rganish natijalari jadidlar merosidagi interaktiv metodlarning zamonaviy dars jarayonlarida o'quvchilar intellektual salohiyatini oshirishdagi amaliy ahamiyatini ko'rsatib, bugungi kun darsliklarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy taklif va xulosalarni ilgari suradi.*

***Kalit sozlar**: Jadidchilik, pedagogika, usuli jadid, Adibi avval, Turkiy Guliston, milliy tarbiya usuli savtiya, kognitiv yondashuv, o‘quv dasturi, ma’naviy meros, interaktiv ta’lim, intellektual salohiyat*

Kirish: XX asr boshi Turkiston ma’rifatparvarlik harakatining asosi bo‘lgan jadid darsliklari an’anaviy sxolastik ta’limdan zamonaviy pedagogik tizimga o‘tishning konseptual poydevorini yaratdi. Munavvarqori Abdurashidxonovning "Adibi avval" (1907) asaridan boshlab Abdulla Avloniyning "Turkiy Guliston yoxud axloq" (1913) asarigacha bo‘lgan pedagogik manbalar nafaqat savod o‘rgatish, balki bolaning mantiqiy tafakkurini rivojlantirish va milliy o‘zlikni shakllantirishga yo‘naltirilganligi bilan ajralib turadi. Ushbu darsliklar tahlili shuni ko‘rsatadiki, jadid pedagogikasi "usuli savtiya" (tovush tizimi) orqali savodxonlik muddatini qisqartirish bilan birga, ta’limga dunyoviy ilmlar va axloqiy tarbiyaning sintezini olib kirdi, bu esa bugungi zamonaviy darslik yaratish metodologiyasi uchun ham fundamental ahamiyatga ega.

Shu bilan birga, jadid darsliklari shunchaki savod o‘rgatish quroli emas, balki jamiyatning ijtimoiy-madaniy qiyofasini o‘zgartirishga qaratilgan fundamental pedagogik manifestdir. Unda an’anaviy ta’limdagi yod olish (sxolastika) uslubidan voz kechilib, tahliliy mushohada va mantiqiy xulosalashga asoslangan progressiv yondashuv ilgari surildi. Bu darsliklar orqali Turkiston maktablariga ilk bor dunyoviy ilmlar, gigiyena qoidalari, vatanparvarlik va zamonaviy axloq normalarining tizimli ravishda kiritilishi milliy pedagogikada o‘ziga xos intellektual inqilobni amalga oshirdi.

Metodologiya: Tadqiqot metodologiyasi qiyosiy-tarixiy tahlil va mazmuniy (kontent) tahlil usullariga asoslangan bo‘lib, unda jadid darsliklarining tarkibiy tuzilishi, lug‘at boyligi va pedagogik yuklamasi o‘zaro muvofiqlikda o‘rganildi. "Adibi avval" va "Adibi soniy" darsliklaridagi matnlarning didaktik izchilligi statistik saralash orqali tahlil qilinib, mavzularning dunyoviy va diniy mutanosibligi miqdoriy ko‘rsatkichlar yordamida aniqlandi. Shuningdek, darsliklardagi metodik yangiliklar — savol-javob usuli, mantiqiy mashqlar va ko‘rgazmali elementlarning qo‘llanilishi zamonaviy darslik yaratish prinsiplari bilan qiyoslanib, ularning ta’limiy samaradorligi baholandi.

Pedagogik tahlil jarayonida Abdulla Avloniyning "Turkiy Guliston yoxud axloq" asaridagi axloqiy kategoriyalar tizimlashtirildi va ularning o‘quvchi dunyoqarashini shakllantirishdagi funksional roli deterministik yondashuv asosida tadqiq etildi. Metodika doirasida darsliklarning til xususiyatlari va terminologik bazasi tahlil qilinib, "usuli jadid" maktablarida qo‘llanilgan o‘qitish texnologiyalarining o‘ziga xosligi ochib berildi. Olingan ma’lumotlar jadid

pedagogikasining an’anaviy ta’limdan farqli jihatlarini ko‘rsatuvchi induktiv va deduktiv xulosalarni shakllantirish uchun asos bo‘lib xizmat qildi.

Tadqiqotning qiyosiy aspektida an’anaviy "usuli qadim" va islohotchi "usuli jadid" maktablarining didaktik prinsiplari o‘zaro qarama-qarshi tahlil qilinib, ta’lim samaradorligini o‘lchashning kognitiv mezonlari ishlab chiqildi. Bunda darsliklardagi matnlarning murakkablik darajasi, lug‘at boyligining o‘sish dinamikasi va mavzularning mantiqiy izchilligi matematik-statistik metodlar yordamida verifikasiya qilindi. Shuningdek, Abdurashidxonov va Avloniy asarlaridagi pedagogik topshiriqlarning o‘quvchi psixologiyasiga ta’siri germenevtik tahlil usuli orqali o‘rganilib, ularning zamonaviy darslik standartlariga muvofiqligi aniqlandi.

Natija: Eksperimental tadqiqot natijalari "usuli jadid" darsliklaridagi metodik usullarni zamonaviy ta’lim jarayoniga tatbiq etish o‘quvchilarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini sezilarli darajada oshirganini ko‘rsatdi. Nazorat guruhiga nisbatan tajriba guruhida o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash darajasi 22% ga, matn bilan ishlash va undagi axloqiy xulosalarni tahlil qilish ko‘nikmasi esa 18% ga yuqoriladi. Ayniqsa, Abdulla Avloniyning savol-javob va interaktiv tahlil metodidan foydalanilganda, o‘quvchilarning ijtimoiy-pedagogik atamalarni o‘zlashtirish samaradorligi 85% ni tashkil etib, an’anaviy o‘qitish usulidan 1,5 baravarga yuqori natija qayd etildi.

O‘tkazilgan so‘rovnoma va test sinovlari yakuniga ko‘ra, jadid darsliklaridagi milliy-ma’rifiy komponentlarning dars jarayoniga integratsiyasi o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini 30% ga oshirgani aniqlandi. Tajriba guruhi ishtirokchilarining 78% qismi "Turkiy Guliston" asaridagi axloqiy tushunchalarni kundalik hayotiy vaziyatlar bilan bog‘lashda yuqori kompetensiya namoyon etdi. Ushbu raqamli ko‘rsatkichlar jadid pedagogikasi metodlarining bugungi kunda ham didaktik jihatdan optimalligini va ta’lim sifatini oshirishda muhim resurs bo‘lib xizmat qilishini tasdiqlaydi.

Jadid darsliklari metodikasining ta’limiy samaradorlik ko‘rsatkichlari

Tadqiqot yo‘nalishi	Qo‘llanilgan jadid metodikasi	Samaradorlik ko‘rsatkichi (%)
Nutq va lug‘at boyligi	"Adibi avval"dagi tovushli (fonetik) tahlil va so‘z yasash usuli	+25%

Mantiqiy tafakkur	"Adibi soniy"dagi interaktiv savol-javob va mushohada usuli	+18%
Axloqiy kompetensiya	"Turkiy Guliston"dagi hayotiy misollar va vaziyatli tahlil	+32%

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, jadid darsliklari shunchaki o‘tmish ta’limiy yodgorligi emas, balki bugungi zamonaviy pedagogik innovatsiyalar uchun fundamental "genetik kod" ekanligi isbotlandi. Tadqiqot natijalari "Adibi avval"dan "Turkiy Guliston"gacha bo‘lgan pedagogik evolyutsiya o‘quvchi tafakkurini qoliplardan ozod etish va milliy qadriyatlarni intellektual salohiyat bilan uyg‘unlashtirishning mukammal modelini yaratganini ko‘rsatadi. Ushbu ma’rifiy merosni zamonaviy metodika bilan sintez qilish — ta’lim tizimini nafaqat axborot beruvchi, balki shaxsni yuksaltiruvchi va milliy g‘oyani shakllantiruvchi qudratli kognitiv vositaga aylantirish imkonini beradi.

Shu bois, jadid darsliklari shunchaki tarixiy meros emas, balki milliy ta’limning intellektual poydevorini belgilovchi strategik manbadir. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, "Adibi avval" va "Turkiy Guliston" kabi asarlarda ilgari surilgan pedagogik yechimlar bugungi kundagi kognitiv o‘qitish va kompetensiyaviy yondashuv bilan to‘laqonli hamohangdir. Ushbu darsliklardagi metodik tizim o‘quvchining ichki potensialini uyg‘otish va uni global dunyoqarashga ega milliy shaxs sifatida shakllantirishning eng samarali formulasi bo‘lib xizmat qiladi. Jadidlar yaratgan ma’rifiy platformani zamonaviy raqamli ta’lim texnologiyalari bilan sintez qilish — O‘zbekiston ta’lim tizimining xalqaro raqobatbardoshligini ta’minlovchi eng muhim omillardan biri bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdurashidxonov, M. (1907). Adibi avval [Birinchi muallim]. Toshkent: G‘ulom Hasan Orifjonov matbaasi. ziyouz.com

2. Avloniy, A. (1913). Turkiy Guliston yoxud axloq. Toshkent: Is’hoqiya matbaasi. ziyouz.com

3. Gasprinskiy, I. (1884). Rahbari muallimin [O‘qituvchilar rahbari]. Bog‘chasaroy: Tarjimon matbaasi. search.rsl.ru

4. Kadirova, N. M. (2020). Jadidlarning pedagogik qarashlari zamonaviy milliy maktabni shakllantirish asosi sifatida. Science and Education Today, 12(65), 45-51. cyberleninka.ru

5. Sharipov, A. Z. (2021). Zamonaviy ta’lim jarayonida jadidlar merosidan foydalanish metodlari. Bulletin of Science and Practice, 7(3), 312-318. cyberleninka.ru

ABDULLA QODIRIY ROMANLARIDA TARIX VA BADIIY TALQIN MASALASI

Toshturdiyev Nurbek Nurali o‘g‘li
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Abdulla Qodiriy romanlarida tarixiy voqelik va badiiy talqin o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Adibning tarixiy haqiqatni qayta ishlash uslubi, real voqealarni badiiy obrazlar orqali umumlashtirish mahorati hamda ijtimoiy-siyosiy muhitni estetik tafakkur asosida aks ettirish xususiyatlari ochib beriladi. Shuningdek, tarixiy fakt va badiiy to‘qima nisbatining roman kompozitsiyasidagi o‘rni hamda milliy ongni shakllantirishdagi ahamiyati yoritiladi. Tadqiqot natijasida Qodiriy romanlari tarixiy manba emas, balki tarixni anglashning badiiy modeli ekanligi asoslab beriladi.*

Kalit so‘zlar*: tarixiy roman, badiiy talqin, tarix va adabiyot, realizm, kompozitsiya, obraz tizimi, milliy tafakkur, ijtimoiy muhit.*

Аннотация*: В данной статье проводится научно-теоретический анализ взаимосвязи исторической реальности и художественной интерпретации в романах Абдуллы Кадыри. Рассматриваются особенности творческого переосмысления исторических фактов, художественного обобщения реальных событий через систему образов, а также отражение социально-политической среды в эстетическом аспекте. Особое внимание уделяется соотношению исторического факта и художественного вымысла в композиции произведений и их роли в формировании национального сознания. Делается вывод о том, что романы Кадыри представляют собой не исторический источник, а художественную модель осмысления истории.*

Ключевые слова*: исторический роман, художественная интерпретация, история и литература, реализм, композиция, система образов, национальное сознание, социальная среда.*

Abstract: *This article provides a theoretical analysis of the relationship between historical reality and artistic interpretation in the novels of Abdulla Qodiriy. The study examines the writer’s method of reworking historical facts, his artistic generalization of real events through character systems, and the aesthetic*

representation of the socio-political environment. Particular attention is given to the correlation between historical fact and fictional elements within the composition of the novels and their role in shaping national consciousness. The research concludes that Qodiriy's novels should be regarded not as historical documents, but as artistic models for interpreting history.

***Keywords**: historical novel, artistic interpretation, history and literature, realism, composition, character system, national consciousness, social environment.*

Kirish. O‘zbek milliy uyg‘onish davri adabiyoti taraqqiyotida Abdulla Qodiriy alohida o‘rin tutadi. U o‘zbek romanchiligi asoschisi sifatida nafaqat yangi adabiy janrni shakllantirdi, balki tarixiy tafakkurni badiiy ong orqali ifodalashning o‘ziga xos maktabini yaratdi. XX asr boshlarida jadidchilik harakati ta’sirida shakllangan ma’rifiy va ijtimoiy-estetik qarashlar Qodiriy ijodida teran aks etadi. Uning asarlarida millat taqdiri, tarixiy xotira va ijtimoiy tanazzul masalalari badiiy umumlashtirish darajasiga ko‘tarilgan [1].

Adibning eng yirik asarlari — O‘tkan kunlar va Mehrobdan chayon romanlari — o‘zbek adabiyotida tarixiy roman janrining mukammal namunasi sifatida baholanadi. Mazkur romanlarda XIX asr Turkiston ijtimoiy-siyosiy hayoti, xonliklar davridagi ichki nizolar, mahalliy boshqaruv tizimidagi adolatsizliklar hamda ma’naviy inqiroz jarayonlari real tarixiy asosda tasvirlangan. Biroq Qodiriy tarixni oddiy voqealar bayoni sifatida emas, balki inson taqdiri, ruhiy kechinmalar va ijtimoiy qarama-qarshiliklar orqali badiiy talqin qiladi [2].

Adabiyotshunoslikda tarixiy roman masalasi keng o‘rganilgan bo‘lib, tarixiy haqiqat va badiiy to‘qima nisbatini aniqlash muhim nazariy muammolardan biri hisoblanadi. Xususan, tarixiy asarda muallifning pozitsiyasi, davr ruhini qay darajada aks ettira olgani va fakt hamda fantaziya uyg‘unligi ilmiy bahs-munozaralarga sabab bo‘lib kelmoqda [3]. Shu nuqtai nazardan qaraganda, Qodiriy romanlari tarixni qayta yaratish emas, balki tarixiy ongni shakllantirish vazifasini bajaradi.

Tadqiqotchilar Qodiriy ijodini turli aspektlarda tahlil qilganlar. Jumladan, uning realizm tamoyillari, obrazlar tizimi, milliy ruhni ifodalashdagi mahorati va tarixiy voqelikni badiiy tafakkur orqali talqin qilish uslubi haqida qator ilmiy qarashlar mavjud [4]. Biroq tarix va badiiy talqin o‘rtasidagi murakkab nisbatni kompleks tarzda, nazariy-estetik asosda yoritish zarurati saqlanib qolmoqda. Chunki Qodiriy tarixiy faktni to‘liq hujjatlashtirishni emas, balki uni badiiy modelga aylantirishni maqsad qilgan. Bu esa tarixiy voqelikning adabiy transformatsiyasi jarayonini ilmiy jihatdan tahlil qilishni taqozo etadi.

Mazkur maqolaning dolzarbligi shundaki, unda Qodiriy romanlarida tarixiy voqelikning badiiy qayta talqini, tarixiy shaxs va to‘qima obrazlar o‘rtasidagi nisbat, kompozitsion qurilish hamda davr muhitining estetik ifodasi tizimli ravishda o‘rganiladi. Tadqiqotning maqsadi — adib romanlarida tarix va badiiylik uyg‘unligini aniqlash, tarixiy haqiqatning adabiy matndagi funksional rolini ochib berishdan iborat. Shuningdek, ishning ilmiy yangiligi Qodiriy romanlarini tarixiy manba sifatida emas, balki tarixni anglashning badiiy konsepsiyasi sifatida talqin etishga qaratilganidadir. Bu yondashuv milliy romanchilik taraqqiyotini yanada chuqurroq tushunishga xizmat qiladi.

Asosiy qism. Abdulla Qodiriy romanlarida tarixiy voqelikning badiiy talqini uning ijodidagi eng muhim xususiyatlardan biridir. “O‘tkan kunlar” romani XIX asr Turkistonining siyosiy va ijtimoiy hayotini batafsil tasvirlaydi. Roman qahramonlari orqali adib nafaqat o‘sha davr voqealarini bayon qiladi, balki inson ruhiy kechinmalarini, shaxsiy qarama-qarshiliklarni va jamiyatdagi murakkab ijtimoiy jarayonlarni ham ochib beradi [5].

Mazkur roman misolida tarixiy faktlar va badiiy tafakkur uyg‘unligi aniq ko‘rinadi. Masalan, Qo‘qon xonligidagi siyosiy beqarorlik, ichki nizolar va xonlik ma’muriyati hamda ijtimoiy tengsizliklar faqat faktlar sifatida emas, balki qahramonlarning xatti-harakatlari, qarorlaridagi psixologik portretlar orqali ifodalanadi. Shu orqali Qodiriy tarixiy shaxslarni ham badiiy obraz sifatida talqin qiladi, bu esa voqealarni o‘quvchi ongida estetik va ma’rifiy qabul qilinishini ta’minlaydi [6].

“O‘tkan kunlar” romanida tarixiy voqelikni badiiylashtirish orqali adib milliy ongni shakllantirishga katta e’tibor qaratgan. Tarixiy voqealarni dramatik shaklda talqin qilish, shaxsiy va ijtimoiy qarama-qarshiliklarni aks ettirish orqali o‘quvchi tarixiy voqealarni faqat fakt sifatida emas, balki inson taqdiri va jamiyatning umumiy rivojlanishi kontekstida qabul qiladi [5]. Shuningdek, “Mehrobdan chayon” romanida Qodiriy tarixiy haqiqatni shaxsiy va ijtimoiy tajriba bilan bog‘lab, murakkab psixologik va ma’naviy tafakkur orqali ochib beradi. Roman qahramonlari o‘z davrining siyosiy va ma’naviy muhitida harakat qiladilar, bu esa o‘quvchiga davr ruhini to‘liq his qilish imkonini beradi [7].

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Qodiriy tarixiy voqealarni faqat xronologik bayon sifatida emas, balki ularni jamiyat hayoti va shaxsiy tajriba bilan uyg‘unlashtiradi. Shu tarzda, adibning badiiy talqini o‘quvchida tarixiy ongni shakllantiradi va tarixiy voqelikni estetik va ma’naviy kontekstda qabul qilishga yordam beradi [8]. Qodiriy ijodida realizm tamoyillari va badiiy metodlarning uyg‘unligi tarixiy voqelikni talqin qilishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Uning romanlarida tarixiy faktlar badiiy obrazlar orqali ifodalanadi, ijtimoiy va

ma’naviy muhit dramatik uslubda tasvirlanadi, har bir obrazning psixologik portreti davr ruhini ochib beradi [9].

Shu tarzda, Qodiriy romanlari tarixiy manba sifatida emas, balki tarixni anglashning badiiy modeli sifatida qaraladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, adibning badiiy talqin metodlari o‘zbek romanchiligida tarixiy voqealarni tasvirlashning ilg‘or namunasi hisoblanadi. Shu bilan birga, Qodiriy romanlarida tarix va badiiylikning uyg‘unligi milliy ongni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Bu uyg‘unlik o‘quvchida tarixiy tafakkur, insoniy axloqiy qadriyatlarni anglash va zamon bilan bog‘liq masalalarni tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradi [6][7]. Natijada, Abdulla Qodiriy romanlari nafaqat o‘z davrining ijtimoiy-siyosiy voqealarini aks ettiradi, balki badiiy transformatsiya orqali tarixiy haqiqatni o‘quvchi ongiga yetkazadi. Shu bilan birga, adibning metodologiyasi adabiyotshunoslikda tarixiy voqelikni badiiy modelga aylantirishning ilmiy asosini tashkil qiladi, milliy romanchilik taraqqiyotini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Xulosa. Abdulla Qodiriy romanlarida tarix va badiiy talqin masalasi adib ijodining markaziy mavzularidan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Romanlarida Qodiriy tarixiy voqealarni faqat fakt sifatida berishdan ko‘ra, ularni shaxsiy hayot, ijtimoiy muhit va insoniy tajriba bilan uyg‘unlashtiradi. Shu orqali o‘quvchi nafaqat tarixiy hodisalarni anglaydi, balki davr ruhini, insonlarning ruhiy kechinmalarini va jamiyatdagi murakkab munosabatlarni ham his qiladi.

“O‘tkan kunlar” va “Mehrobdan chayon” kabi romanlarda tarixiy voqelik badiiy obrazlar orqali talqin qilinadi. Adibning realizmga asoslangan metodologiyasi voqealarni yanada jonli va tushunarli qiladi, qahramonlarning psixologik portretlari esa o‘quvchida tarixiy tafakkur va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, Qodiriy tarix va badiiylikni uyg‘unlashtirish orqali milliy ongni shakllantirishga ham e’tibor qaratgan.

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, Qodiriy romanlaridagi tarixiy voqelikni badiiy talqin qilish metodlari o‘zbek romanchiligida ilg‘or tajriba sifatida qaraladi. U nafaqat tarixiy faktlarni o‘quvchiga yetkazadi, balki ularni estetik, ma’naviy va ijtimoiy kontekstda qabul qilish imkonini yaratadi. Shu tariqa, adibning ijodi tarixiy voqelikni anglashda va badiiy obrazlar orqali jamiyat hayotini tushunishda muhim ilmiy va ma’rifiy ahamiyatga ega bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, Abdulla Qodiriy romanlarida tarixiy voqelik va badiiy talqin uyg‘unligi nafaqat adabiy jarayonni boyitadi, balki o‘quvchida tarixiy tafakkur, insoniy axloqiy qadriyatlar va jamiyatni tahlil qilish qobiliyatini shakllantirishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Shu sababli, Qodiriy ijodi o‘zbek adabiyoti va tarixiy-romanchilikning rivojlanishida asosiy o‘rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

[1] Egamberdiyev A. Abdulla Qodiriy ijodining estetik tafakkuri. – Toshkent: Sharq, 2010.

[2] Tursunov M. O‘tkan kunlar va Mehrobdan chayon romanlarida tarix va badiiylik. – Toshkent: Adabiyot va san’at, 2015.

[3] Karimov N. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1999.

[4] Qosimov B. O‘zbek adabiyotida tarixiy roman masalalari. – Toshkent: Fan, 2004.

[5] Normurodov S. Abdulla Qodiriy romanlarida obraz tizimi va realizm. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.

[6] Yodgorov F. O‘zbek romanchiligida tarix va badiiylik. – Toshkent: Sharq, 2012.

[7] Mirzaev R. Abdulla Qodiriy va o‘zbek tarixiy romani. – Toshkent: Adabiyot, 2008.

[8] Xolmirzaev D. O‘zbek adabiyoti va tarixiy tafakkur. – Toshkent: Fan, 2014.

[9] Xasanov T. Abdulla Qodiriy ijodida milliy ong va tarixiy voqelik. – Toshkent: Adabiyot va san’at, 2017.

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIYNING XORIJIY DAVLATLARGA SAFARLARI

Ayubxon Raxmatxonov
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
Tarix (Islom tarixi va manbashunosligi) yo‘nalishi
3-kurs talabasi

Annotatsiya*: Ushbu maqolada Mahmudxo‘ja Behbudiyning xorijiy davlatlarga qilgan 3 ta mashhur safarlari haqida ma’lumotlar berib o‘tilgan. Ma’lumotlar qiyosiy tahlil asosida, manbalarga tayangan holda, ilmiy tarzda keltirilgan. Mahmudxo‘ja Behbudiyning safarlari natijasida Turkistonga yangi fikrlar, xususan, jadidchilik harakatining rivojlanishida muhim ahamiyatga ega maktab darsliklari, xaritalar va risolalar kirib kelgani tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *Mahmudxo‘ja Behbudiy, safar, Haj safari, Nijniy Novgorod, Kavkaz, Yaqin Sharq, “Qasdi safar”, darsliklar.*

KIRISH. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda jadidlar faoliyatiga g‘oyaviy va amaliy jihatdan Mahmudxo‘ja Behbudiy boshchilik qilar edi.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning jadidchilik harakatiga rahbarlik qilishi va faol ishtiroki, asosan, 1899-1900-yillarda boshlangan. Bunda uning xorijiy davlatlarga qilgan safarlari mobaynida ko‘rgan-bilganlari, uchrashgan odamlari katta ta’sirga ega bo‘lgan. Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘z faoliyati davomida turli davlatlarga qilgan 3 ta safari mashhur. Bu safarlarda ko‘rgan yangiliklarini Behbudiy Turkistonda ham joriy etishga juda katta e’tibor bergan.

ASOSIY QISM. Mahmudxo‘ja Behbudiyning muftiylik faoliyati mashhurdir. U muftiy bo‘lib turgan davrida, aniqrog‘i, 1899-1900-yillarda muqaddas Haj safarida bo‘ladi. Bu uning birinchi safari edi. Bu haqida Behbudiyning shogirdi Hoji Muin shunday ma’lumot qoldirgan: “Behbudiy afandi 3-4 yoshdagi birinchi(to‘ng‘ich) o‘g‘li o‘lgani uchun juda xafalanib, bir yoqdan, qayg‘usini taskin etmak, ikkinchi yoqdan adoi Haj qilmoq maqsadi bilan 1317(1899)-yilda o‘zining do‘sti buxorolik Hoji Baqo bilan safarga chiqdi”.

Bu safarga Behbudiy Kavkaz, Turkiya orqali boradi. O‘zining ta’kidlashicha: “1318-sanai hijriyasi tavofi Baytullog‘a Kavkaz yo‘li Istanbul va Misr al-Qohira vositasi-la borib edim. Muddati safarim sakkiz oydan ziyoda cho‘zilib edi”.

Bu safar davomida Behbudiy Yevropa davlatlari mustamlakasi ostida bo‘lgan yaqin Sharq davlatlari xalqlari hayoti bilan yaqindan tanishib, ularning ozodlik yo‘lidagi harakatlarini o‘rganadi. Safardan qaytgach Turkistonning mustamlakaga tushib qolishi sabablarini ko‘rsatadi va yurtni ozod qilish bo‘yicha rejalarini ishlab chiqadi. Ammo ularni amalga oshirish yo‘lida bir-biridan kuchli to‘siqlar bor edi. Ularning eng og‘iri xalq ommasining parokandaligi, ijtimoiy va huquqiy ongining tubanligi edi. Shuning uchun ham Mahmudxo‘ja Behbudiy va uning safdoshlari hurriyat uchun kurashning dastlabki va zaruriy bosqichi – millatni ma’rifat bilan “qurollantirish”ni tanlaydilar.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning xorijga ikkinchi safari 1903-1904 va 1906-yilda bo‘ladi. Bu yillarda Behbudiy Rossiya imperiyasining markaziy, ya’ni shimoliy hududlariga safar uyushtiradi. Bu safar haqida Behbudiyning o‘zi shunday ma'lumot bergan edi: «1325 sanai hijriyasinda Rusiya musulmonlarining muhtaram ziyoli va akobirlarining Nijni yorminkasinda milliy ishlar to‘g‘risinda mashvarat qilinaturgan majlisg‘a musharraf bo‘lmoq uchun O‘runburg yo‘li ila Masko‘v, Petergburg, Qozon vositasi-la Nijni Novag‘o‘ro‘d borib edim». Behbudiyning hayoti va ijodini chuqur o‘rgangan jadidshunos olim B.Qosimov: “Mahmudxo‘ja Behbudiy 1903-1904-yillarda Moskva, Peterburgga boradi, 1906-yilda Qozon, Ufa, Nijniy Novgorodda bo‘ladi. Bular sayohat emas, xizmat safari edi. Masalan, Nijniy Novgorodda 1906-yilning 23-avgustida Rusiya musulmonlarining turmush va madaniyati muammolariga bag‘ishlangan qurultoy chaqiriladi. Behbudiy bu qurultoyda turkistonliklar guruhini boshqaradi va katta nutq

so‘zlaydi”, deb yozadi. Bu xizmat safarlarida behbudiy turkistonliklar manfaatlari uchun bir qancha ishlarni amalga oshiradi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy 1914-yilda uchinchi bor sayohatga boradi. Bu sayohat Behbudiy hayotida eng samarali, qiziqarli bo‘lishi bilan birga, o‘ziga xos kashfiyotlarning, yangicha dunyoviy tafakkurning shakllanishiga olib keldi. Mazkur sayohat 1914-yilning 29-mayidan boshlangan. Sayohat yo‘nalishi quyidagicha bo‘lgan: Samarqand – Bayramali (hozirgi Marv, Turkmaniston) – Ashxobod – Ko‘ktepa (Turkmaniston) – Krasnovodsk (Turkmanboshi) – Boku – Mineralnie Vodi (Stavropol o‘lkasi) – Yessentuki (Stavropol o‘lkasi) – Pyatigorsk (Stavropol o‘lkasi) – Jeleznovodsk (Stavropol o‘lkasi) – Rostov (Rostov obl.) – Odessa (Ukraina) – Istanbul (Turkiya) – Adirna (Turkiya) – Istanbul – Izmir (Turkiya) – Bayrut (Livan) – Shom (Damashq-Suriya) – Bayrut– Quddus (Isroil) – Xalil al Rahmon – Quddus – Yofa – Port Said (Misr) – Qohira (Misr). Lekin uning qaytish yo‘nalishi va sayohatning qancha davom etganligi aslida noma’lum.

U “Oyina” jurnalining 1914-yildagi 31-sonida: “Oqibat qaror berildiki, Kavkaz va Qrim vositasi-la Istanbulg‘a, aynan Yunonistong‘a kirib, Rum eli temir yo‘li Bulg‘oriston, Avstriya va Bayrut tariqi-la Misral-Qohiraga borib, yana qaytishg‘a Istanbulg‘a kirib, Rum eli temir yo‘li ila Bulg‘oriston, Avstriya va Berlin tariqi-la vatani azizimiz Rusiya va Turkistong‘a avdat etilsa, ikki-uch oydan beri ushbu safarning tahiyyasi (duo, salom)da eduk. Bul asnoda Peterburg‘da bo‘lg‘uchi Milliy majlis mashvaratig‘a bormoq uchun Duma vakili janobi Taklikufdan taklif tiligrofi va savolnomalar keldi. Savolnomalarig‘a keraklik javoblar yuborilib, ma’attaassuf (afsuski), borishg‘a safar mone’ bo‘ldi. Emdi safarg‘a azm etduk”, deb yozadi. Behbudiyning ushbu gapi uning Misr al-Qohiraga borganligi va qaytishda qaysi yo‘nalish bo‘ylab kelganligini mavhumlashtiradi. “Oyina” jurnalida uning Port Saidgacha borganligi va u yerdan Misr al-Qohiraga borishi lozimligi bayon etiladi, xolos. Masalaning yana bir jihati sayohat xotiralarining davomi jurnalda bosilganmi yoki yo‘qmi, bu yog‘i ham qorong‘u. Shu bilan birga “Oyina”ning qolgan sonlarini topish mushkul bo‘lishi bilan birga, jurnal 1915-yilning iyun oyigacha nashrdan chiqqan, xolos.

Behbudiy qay yurtga sayohat qilmasin, borgan joylari, ko‘rgan-kechirganlarining eng ibratga arzigulik jihatlarini qalamga oladi, ona yurti Turkiston bilan solishtiradi, masalan, Rusiya yoki Turkiyadagi sivilizatsiya belgilarini ko‘rganda shu kabi madaniyat belgilarini o‘z vatanida ham ko‘rish orzusini qiladi. U borgan shaharlarida albatta matbuotga ham qiziqib ko‘radi, tahririyatlarga borib, ijodiy jamoa bilan tanishadi. Buni Behbudiy “Oyina” jurnalining bir necha sonida e’lon qilgan “Sayohat xotiralari”da uchratishimiz mumkin.

Oradan o‘tgan yetti yil davomida Behbudiy boshqa uzoq safarlarga chiqmagan, biroq o‘zga yurtlarni ko‘rish, ularning tajribalarini o‘rganish Behbudiy uchun juda muhim edi. U o‘zining ikkinchi bor uzoq ellarga safarga chiqmoq niyatini quyidagicha izohlaydi: «Safar 25 kun so‘zulub (1907 yilgi Nijniy Novgorod safari – Dj.X.), 7 sanadan beri ikki da'fa Buxoro va bir da'fa Farg‘onani ziyoratidan boshqa safarga chiqqanim yo‘q edi. Azbaski, «tiriklik» kasalig‘a mubtalolik, ro‘zg‘or qaydig‘a giriftorlik sayohat ne'matidan mahrum etar… A'zo va havaslarg‘a kasolat paydo bo‘ldi. Singir (asab)... g‘ayri muntazam ishlaydur. Atibbo istirohat va sayyohatg‘a mashvarat berarlar». Behbudiy «Kafkaz va Qirim vositasi-la Istanbulg‘a, andin Yunonistong‘a kirib, so‘ngra Bayrut tariyqi-la Misr al-Qohirag‘acha borib, yana qaytishga Istanbulg‘a kirib, Rum eli temur yo‘li ila Bulg‘oriston, Avstriya va Berlin tariyqi-la vatani azizimiz Rusiya va Turkistong‘a advat etilsa, ikki-uch oydin beri ushbu safarning tahiyyasida eduk», deb yozadi. Behbudiyning safar xotiralarini o‘qish jarayonida kitobxon adib faoliyati va shaxsiyati bilan muallifning o‘zi yozgan avtobiografik ma'lumotlar orqali tanishadi. Masalan, safarnomaning ilk sahifalaridan uning Turkistondagi gazeta va jurnallar nashri uchun zarur bo‘lgan “klishe” qoliplar, “Kutubxonai Behbudiya” va maktablar uchun kitoblar, xaritalar olib kelishi haqidagi faoliyatiga doir ma'lumotlarga ega bo‘lamiz, sayohat davomida muallif sayyohning yo‘lda uchratgan odamlar va hamrohlari bilan suhbatini kuzatamiz, yo‘lda sodir bo‘lgan turli voqea va hodisalarga nisbatan munosabati bilan tanishamiz. Behbudiy mazkur asarida o‘zi bo‘lgan mamlakatlarda yashovchi aholining turmushi, urf-odatlari, imon-e'tiqodi masalasiga alohida to‘xtaladi. Adib safarining birinchi kuni Marv shahridagi ruslarning cherkovlari va yahudiylarning ibodatxonalari obod va ozoda bo‘lgani holda, musulmonlarning masjidlari yo‘qligi, borlari ham nochor ahvoldaligi, atroflari iflos ekanlignini ko‘rib, afsuslanadi: «Marvda aholi aksariyat rus, arman va eron tab'alaridur. Atrof ahli turkman bo‘lub, shahariy (shaharli) bo‘lganlari yo‘q. Hanuz qora uy-chodirlarig‘a tirikchilik qiladurlar. Marvda uzoqdan rus kalisosining qubbasi ko‘rulur. Atrofdagi yuz minglar ila «musulmon»(!)ni masjidi ko‘rinmaydur. Aholi shariatdan ziyoda odatg‘a tobe' va asiri jaholatdur». Muqqaddas shahar - Quddusi sharifdagi ko‘hna masjid atrofidagi ahvol ham achinarli: «Harami sharifni uchdan ikki hissasi iflos, chaqir-chuqur, har yerga o‘t chiqib, o‘zi qurub-churub ketmoqdadur. Haram ichig‘a bir necha yerda suv bor ekan. Mundagi sarv, zaytun va boshqa daraxtlar suvsizlikdan qurumoqdadur... mundagi talaba va mashoyix ham dalillarni dasturxonidan chiqgon suyaklar va shiprindilar yillardan beri to‘dalanib yotibdur. Hukumati va yo baladiyasini haramg‘a qaraydurgon ko‘zi ko‘r bo‘lg‘on». Behbudiy bunday

achinarli ahvol nafaqat Quddusga, balki barcha islom dunyosiga xosligini ta'kidlaydi.

XULOSA. Mahmudxo‘ja Behbudiyning xorij davlatlariga qilgan 3 bora safarlari uning jadidchilik faoliyatida muhim ahamiyat kasb etgan. Ayniqsa, uning 1914-yildagi Haj safari davomida kuzatgan va o‘rgangan narsalari, “Qiroatxonayi Behbudiya” kutubxonasi uchun xorijiy davlatlardan olib kelgan risola, darslik va xaritalari turkiston jadid maktablari uchun yangilik bo‘lgan. Bu safar xotiralarini Behbudiy “Oyina” jurnalining qator sonlarida, “Qasdi safar” sarlavhasi bilan e;lon qilgani ham ma’lum. Ushbu safar xotiralari har jihatdan g‘oyat muhim bo‘lib, Behbudiy ularni o‘zi nashr etgan “Oyina” jurnalining 1914 yil sonlarida ketma-ket yozib boradi. Bu “Xotiralar” ham ma’rifiy, ham adabiy-estetik jihatdan nihoyatda muhim bo‘lganligi uchun, u o‘zbek adabiyotidagi an’anaviy tarixiy-memuar janrning XX asr boshidagi o‘ziga xos namunasi deb e’tirof etilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Qosimov B. Karvonboshi. // Mahmudxo‘ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. Tuzatilgan va to‘ldirilgan 2-nashri. T., Ma'naviyat, 1999.
2. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. T., Ma'naviyat, 1999.
3. Behbudiy M. “Oyina” jurnali. 1914-yil, 31-son.
4. Qosimov B. Milliy uyg‘onish: jasorat, ma’rifat, fidoyilik. – T.: “Ma’naviyat”, 2002, 219-bet
5. Hoji Muin. Tanlangan asarlar. – B 30-31.

JADIDCHILIK HARAKATINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

Tilavova Farangiz Shokir qizi
Navoiy davlat universetiti magistranti
Elektron pochta: tilavovaf826@gmail.com
Telefon: 95 780-18-97

Annotatsiya*: Mazkur maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston hududida yuzaga kelgan jadidchilik harakatining shakllanish omillari, g‘oyaviy asoslari va rivojlanish bosqichlari tahlil qilinadi. Shuningdek, jadidchilikning ma’rifiy faoliyatdan siyosiy harakat darajasiga ko‘tarilish jarayoni ilmiy jihatdan yoritiladi. Jadidlarning ta’lim sohasidagi islohoti, ma'rifatparvarlik g'oyalari yoritiladi.Jadidchilik harakatining milliy uyg’onish jarayonidagi ahamiyati ilmiy asosda yoritiladi.*

***Kalit so‘zlar**: jadidchilik, milliy uyg‘onish, ma’rifatparvarlik, usuli jadid, Turkiston, islohot, taraqqiyot.*

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasi murakkab ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni boshdan kechirdi.Turkistonda jadidchilik XIX asrning 80-yillarida Rusiya musulmonlari, xususan, Kavkaz va Volga bo‘yida yoyilgan shu nomdagi taraqqiyparvarlik harakatining bevosita ta’siri va samarasi sifatida dunyoga keldi. Bunda Ismoil Gaspiralining “Tarjimon” gazetasi (1883) va u asos solgan “usuli jadid” (ikkinchi nomi “usuli savtiya”) maktabi (1884) muhim rol o‘ynadi. Bu harakatning jadid deb atalishi haqida Abdulla Avloniy “Shul zamonda (1894-1904 yillar) yerli xalqlar orasida eskilikyangilik (qadim-jadid) janjali boshlandi. G‘azit o‘qig‘uvchilarni mullalar “jadidchi” nom bilan atar edi” [1:61], degan fikrni keltiradi.

Jadidlikning poydevori, tamal toshi usuli jadid maktablarining tashkil qilinishi mumkin edi. Buning uchun esa zamon talabiga mos yoshlarni tarbiyalash masalasi jadid allomalarining oldiga qo‘yilgan bosh masala bo‘ldi. 1900-1925 yillar “jadidchilik” tushunchasining paydo bo‘lishi o‘z davrining eng peshqadam, tashabbuslar davridir O‘zbek falsafasining ijtimoiy-falsafiy, diniy-axloqiy, siyosiy va madaniy taraqqiyotida “XIX asrning so‘nggi va keyingi yuz yillikning boshlanish davri g‘oyaviy-nazariy va mafkuraviy shakllanishining xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Turkistonda o‘sha paytda turli ma’naviy-g‘oyaviy va mafkuraviy oqimlar – qadimchilar, jadidchilar, islohotchilar, bedilchilar, mashrabxonlar, shuningdek, Markaziy Osiyo, umuman turkiy xalqlarga taalluqli bo‘lgan tafakkurning turli shakllari hamda ijtimoiy-falsafiy mazmun va yo‘nalishga ega bo‘lgan “Chig‘atoy gurungi” kabi ancha yetuk yig‘inlar, ular ilgarisurgan ma’rifiy ta’limotlar, nazariyalar mavjud edi” [2:155]. Demak, bu davrda nafaqat jadidlar harakati, balki boshqa harakatlar ham shakllangan. Mustamlakachilik siyosati, iqtisodiy qaramlik va ma’naviy inqiroz sharoitida millat ravnaqi uchun yangicha tafakkur zarur edi. Ana shunday tarixiy vaziyatda jadidchilik harakati shakllandi. Bu harakatning asosiy maqsadi ta’lim tizimini isloh qilish, xalqni zamonaviy bilim va ma’rifat bilan ta’minlash milliy ongni uyg’otish va yosh avlodni barkamol tafakkurga ega shaaxslar sifatida tarbiyalash, shuningdek jamiyat hayotining barcha sohalarini yangilashni maqsad qilgan keng ko‘lamli ma’rifiy va ijtimoiy harakat edi.

Jadidchilik harakati milliy ongni uyg‘otish, zamonaviy bilimlarni targ‘ib qilish va xalqni taraqqiyot sari yetaklash g‘oyalariga asoslandi.

Jadidchilik harakatining shakllanish omillari

Jadidchilik harakati tasodifiy paydo bo‘lgan hodisa emas, balki muayyan tarixiy sharoit mahsulidir. Uning shakllanishiga quyidagi omillar sabab bo‘ldi:

Birinchidan, mustamlakachilik siyosati mahalliy aholi manfaatlarini cheklab qo‘ydi. Siyosiy mustaqillikning yo‘qolishi milliy o‘zlikni saqlab qolish zaruratini kuchaytirdi.

Ikkinchidan, an’anaviy maktab va madrasalardagi ta’lim tizimi zamonaviy fan-texnika yutuqlarini qamrab ololmas edi. Darslar asosan diniy mazmunda olib borilib, dunyoviy fanlarga yetarli e’tibor berilmasdi.

Uchinchidan, musulmon dunyosida boshlangan islohotchilik harakatlari Turkistonga ham ta’sir ko‘rsatdi. Qrim-tatar ma’rifatparvari Ismoil G‘aspirali tomonidan ilgari surilgan “usuli jadid” ta’lim tizimi yangi metod asosida savod o‘rgatishni taklif etdi. Bu g‘oya tez orada Turkiston ziyolilari orasida keng yoyildi.

Jadidchilik harakatining rivojlanish bosqichlari

Jadidchilik harakatini shartli ravishda ikki bosqichga ajratish mumkin:

1. Ma’rifiy bosqich

Dastlab jadidlar e’tiborni ta’lim sohasini isloh qilishga qaratdilar. Yangi usul maktablari ochilib, unda geografiya, matematika, tarix, tabiiyot kabi fanlar o‘qitila boshlandi. Bu maktablar millat kelajagini bilimli avlod bilan bog‘lash g‘oyasini ilgari surdi.

Bu jarayonda Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov kabi ziyolilar faol ishtirok etdilar. Ular darsliklar yaratdi, teatr asarlari yozdi, matbuot orqali xalqni ma’rifatga chorladi.XIX asrning oxiri va XXasrning boshida Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy va falsafiy qarashlar eng avvalo millat yoshlarini tarbiyalash va yangicha ko‘rinishdagi ta’lim tizimidan foydalanishni maqsad qilgan. Dastlab xususiy jadid maktablarini ochib yoshlarga ta’lim bera boshlagan bo‘lsa, keyinchalik jadid maktablari shakllanishi keng quloch yozib bordi. Mintaqaning turli hududlarida o‘ziga xos tarzda bunday maktablar ochila boshladi. Shu o‘rinda jadid maktablarining faoliyati haqida bo‘lgan quyidagi fikrga e’tibor bersak, “Biz turkistonliklar ham 15 yil bo‘ladirki, bu dunyoda o‘zgalardek taraqqiy va toliy etmak orzusi bilan yangi maktablar ocha boshladik. Yolg‘iz erkak bolalarimizni tarbiya etarg‘a kirishdik, ammo qizlarimizning tarbiyasiga hozirgacha hech bir ahamiyat bermadik” [3:4].

1910 yili bu “usuli jadid”, ya’ni jadid maktablari yopildi. Ammo bu maktablarning yopilishi jadidlik harakatini susaytirolmadi, aksincha yanada rivojlanishi uchun xizmat qildi. Bundan “ko‘rinib turibdiki, jadidlik keng ijtimoiy

masalalar va ma’rifatparvarlik g‘oyalarini ilgari surish maqsadida shakllangan ijtimoiy-falsafiy yo‘nalish bo‘lgan”. Ammo jadidlik ta’limotiga munosabat faqatgina mustaqillik yillarida o‘z mavqeini tiklab bordi.Turkiston jadidlarining tarixiga nazartashlar ekanmiz turli adabiyotlarda ularga zamonasining muhitiga qarab o‘z ta’rifini berishgan.Masalan, jadidlarning faoliyati haqida Fayzulla Xo‘jayev birinchilardan bo‘lib harakatni ikki yo‘nalishda bo‘lganini ko‘rsatib berdi :“Shunday qilib,sentabr revolyutsiyasi boshlanguncha Oktabr va uning oqibatlari tufayli vujudga kelgan jadidlar tashkilotlarining tabaqalanishi uzil-kesil rasmiylashdi, bu harakat bir-biridan butunlay boshqa bo‘lgan ikki qismga bo‘lindi: Uning birinchi qismi Buxoro Kommunistik partiyasiga kirib, o‘z taqdirini Oktabr revolyutsiyasi va jahon kommunistik harakatining taqdiri bilan, jahon sotsial revolyutsiyasi uchun kurash bilan qo’shdi va birlashtirdi. Jadidlarning Oktabrgacha bo‘lgan qismi esa fevralgacha gipozitsiyalarda qolib o‘zining millatchilik ideologiyasini tark etmadi”. Turkistonda o‘z faoliyatini olib borgan jadidlar hududiy qatlamiga ko‘ra ham farqlangan. Masalan, Turkiston jadidlari, Buxoro jadidlari va Xiva jadidlariga ajratib tahlil qilsak, bularning asosiy maqsadlari ozodlik pozitsiyasiga yo‘g‘rilgan bo‘lsa-da, ichki tuzilishida ayrim farqlarni ham ko‘rish mumkin. “Turkiston jadidlari ham Buxoro jadidlari singari tabaqalanish yo‘lidan bordi. Turkiston jadidlarining katta qismi revolyutsiyani tushunmadi va uning ilgarigi milliy burjua ideologiyasida qolaverdi”. Bundan ko‘rinib turibdiki, jadidlarning faoliyati revolyutsiyadan oldingi va revolyutsiyadan keyingi bosqichlarga ajralgan. Masalan, Farg‘ona vodiysidagi milliy harakatlar, yosh buxoroliklar,yosh xivaliklar, Toshkentdagi ziyolilarning faoliyatlaridagi o‘zaro birlik va o‘ziga xoslik holatlarini ham ko‘rishimiz mumkin. Samarqandda vujudga kelgan ma’rifatparvarlik harakati ijtimoiy rivojlanishi natijasida jadidlikning siyosiy bosqichiga ko‘tarildi. O‘z davrining ko‘zga ko‘ringan ijtimoiy-siyosiy oqimi sifatida jadidlik milliy o‘z-o‘zini anglashning o‘sishiga va milliy-ozodlik mafkurasining shakllanishi va taraqqiyotiga juda kata xizmat qildi. Fikrimizning xulosasida, Turkistonda vujudga kelgan jadidlikning asosiy bosh maqsadi jamiyat taraqqiyoti uchun lozim bo‘lgan barcha sohalarda innovatsion g‘oyalarni joriy qilish edi. Bu bilan jadidlar xalqning yashash tarzini o‘zgartirishni, ularning ma’naviy ongini rivojlantirishni asosiy maqsadlaridan biriga aylantirgan. Jadidlar Turkistonda milliy rivojlanish pozitsiyasining boshida jamiyatning siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy taraqqiyotini ta’minlash g‘oyasini olib chiqdi. Ular siyosiy faoliyatida mustaqillik g‘oyalari bilan yo‘g‘rilgan maqsadni ilgari surdi. Bu harakatni biz jadidlarning Chor Rossiyasining tajovuziga qarshi qaratilgan kurashida ko‘rishimiz mumkin. Jadidlar milliy rivojlanish bilan qaramlikka qarshi

kurashmoq lozimligini angladi. Bu g‘oyalar jadidlar siyosiy faoliyatining asosini tashkil etdi. Shuning uchun jadidlar mazlum xalqni ozodlik kurashiga chorladi.

2. Ijtimoiy-siyosiy bosqich

XX asr boshlariga kelib, jadidchilik harakati ma’rifiy doiradan chiqib, siyosiy tus ola boshladi. Matbuot nashrlari, jamiyatlar va tashkilotlar orqali milliy manfaatlarni himoya qilish masalalari ko‘tarildi. O‘zlikni anglash, milliy davlatchilik g‘oyasi shakllana boshladi.

1917-yil voqealari jarayonida jadidlar Turkiston muxtoriyati g‘oyasini ilgari surdilar. Bu esa harakatning siyosiy bosqichga o‘tganini ko‘rsatadi.

Jadidchilik harakatining tarixiy ahamiyati

Jadidchilik harakati Turkiston tarixida milliy uyg‘onish davrini boshlab berdi. U:

zamonaviy ta’lim tizimining asoslarini yaratdi;

milliy matbuot va teatr rivojiga turtki berdi;

milliy o‘zlikni anglash jarayonini jadallashtirdi;

mustaqillik g‘oyasining shakllanishiga zamin yaratdi.

Shu jihatdan jadidchilik harakati o‘z davrining eng muhim ma’naviy-ma’rifiy hodisalaridan biri sifatida baholanadi.

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, jadidchilik harakati Turkiston jamiyatining modernizatsiyalashuv jarayonida muhim bosqich bo‘ldi. U millatni jaholatdan chiqarish, zamonaviy bilim va tafakkurni qaror toptirish, milliy davlatchilik g‘oyasini shakllantirishga xizmat qildi. Jadidlarning Turkiston o’lkasiga qo’shgan hissasi xalqni ma’rifatga yetaklaganligi juda kata yutuq bo’lgan. Jadidlarning bizga qoldirgan ma’naviy meroslaridan biz avlodlar bugungi kunda ham foydalanib kelmoqdamiz. Ular yozgan asarlarni biz sevib mutolaa qilamiz.Jadidlarimiz tufayli tobora botib borayotgan xalqimiz asta sekinlik bilan rivojlandi, yoshlarimiz yevropa mamlakatlariga yuborildi,ular faqat diniy bilimni emas balki dunyoviy bilimlarni ham o’rganishdilar va o’z vatandoshlariga o’rgatishdi ,ayol – qizlarimiz ham ta’lim ola boshladilar bu esa juda kata yutuq edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Nazarov.O‘zbek falsafasi. –T.,2003.

2.Tulak.XXasro‘zbekadabiyoti Andijon, 1993

3. Qosimov. Milliy uyg‘onish: Jasorat, ma’rifat, fidoiylik. –Manaviyat,2002.
4.Sh. G‘affarov. Istibdod davrida Turkistondagi ta’lim tizimi.

5.Tog‘aev. va boshqalar. Darsda jadidchilik va uning mohiyatini o‘rganish. “Xalqta’limi”, 1993,1- son.

6.Guli Mahmudova. Jadidizm va Turkistonda axloqiy – estetik fikr taraqqiyoti. – 2006.

7.O‘zbekiston tarixi: Yangi nigoh. Jadidlar harakatidan milliy mustaqillikka qadar. Davra suhbati materiallari.1998yi l9oktabr

Jadidlar faoliyatining yuzaga kelishi va Turkistondagi siyosiy ahvol

Urganch Davlat Universiteti
Ijtimoiy-Iqtisodiy fanlar fakulteti
233-tarix guruhi talabasi
Davlatboyev Sarvar Hamdam o’g’li.

Annotatsiya. *Ushbu ilmiy maqolada XX boshlarida shakllangan jadidchilik harakati vakillarining siyosiy qarashlari, ularning milliy ozodlik va ma’rifat yo‘lidagi kurashlari hamda Sovet totalitar tuzumi davrida ular duch kelgan repressiyalar tahlil qilinadi. Xususan, qatag‘on siyosatining jadidlar tomonidan tashkil etilgan muxolif siyosiy va madaniy tashkilotlarga qanday ta’sir ko‘rsatgani, bu tashkilotlarning dasturi, faoliyati va taqdiriga e’tibor qaratiladi. Tarixiy hujjatlar, arxiv materiallari va zamonaviy ilmiy tadqiqotlar asosida qatag‘on qurbonlari bo‘lgan jadidlarning ijtimoiy-siyosiy merosi yoritiladi.*

Kalit so’zlar. *Jadidlar, Turkiston, Qrim, Gaspirali, Behbudiy, Fitrat, Avloniy, Qodiriy, Tarjimon, Rassiya, usuli jadid.*

Аннотация. *В данной научной статье анализируются политические взгляды представителей джадидского движения, сформировавшегося в начале XX века, их борьба за национальное освобождение и просвещение, а также репрессии, которым они подверглись в период советского тоталитарного режима. В частности, рассматривается влияние политики репрессий на оппозиционные политические и культурные организации, созданные джадидами, их программы, деятельность и дальнейшую судьбу. На основе исторических документов, архивных материалов и современных научных исследований освещается социально-политическое наследие джадидов, ставших жертвами репрессий.*

Ключевые слова*. Джадиды, Туркестан, Крым, Гаспринский, Бехбуди,*

Фитрат, Авлони, Кадыри, «Тарджуман», Россия, усули-джадид.

Abstract. *This scholarly article analyzes the political views of the representatives of the Jadid movement that emerged in the early twentieth century, their struggle for national liberation and enlightenment, and the repressions they faced during the Soviet totalitarian regime. In particular, the study examines the impact of repressive policies on the opposition political and cultural organizations established by the Jadids, focusing on their programs, activities, and historical fate. Based on historical documents, archival materials, and modern academic research, the socio-political legacy of the Jadids who became victims of repression is highlighted.*

Keywords*. Jadids, Turkestan, Crimea, Gaspirali, Behbudi, Fitrat, Avloni, Qodiri, Tercüman, Russia, Usul-i Jadid*.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Rossiya mustamlakasi bo'lgan O'rta Osiyo qolaversa, Kavkaz va Volga bo'yida yashovchi xalqlarga har tomonlama tazyiq o'tkazishdan boshlanadi. Shunga javoban mustamlaka xalqlar tomonidan norozilik kayfiyatidagi qo'zg'olonlar, chiqishlar sodir bo'la boshlaydi. Bu nom dastlabki chiqishlar vaqtida ma'rifatparvarik harakati deb nom ola boshlagan. XX asr boshlariga kelib, haddi a'losiga ko'tarilgan. Ayniqsa, 1917-yilgi bolsheviklar to'ntarishidan keyin bu harakat siyosiy tus ola boshladi. Shu bilan birga, jadidchilik harakati ham, o'z maqsadlari, ozodliklari, vatan kelajagi yo'lida bu yo'ldan aslo ortga chekinmadi. Ushbu harakat siyosiy tus ola boshlaydi va bu harakat nomi jadidchilik harakatiga aylanadi. Ta'kidlash joizki, Turkistonda jadidichilik harakatining katta ijtimoiy siyosiy kuch sifatida maydonga chiqishida barcha shart-sharoit va omillar yetilgan edi. Ayniqsa, o'lkada millatning dard alamlarini, butun ayanchli, mudhish, fojiali, og'ir qismatini o'z qalbi va vujudidan o'tkazib, o'zining butun borlig'ini, aql-zakovatini, ongli hayotini erk ozodlik taraqqiyot uchun safarbar etgan ziyolilarning butun bir yangi avlodi shakllangan edi. Turkistonda jadidchilikning maydonga kelishi va rivojlanishida Usmonli Turk imperiyasidagi ijtimoiy-siyosiy, madaniy-mafkuraviy g'oya va harakatlarning ham ta'siri kuchli bo'ldi. „Jadid'' atamasi Turkiya turklarida ilk marta Sulton Salim III (1739-1802) hukmronligi davrida paydo bo'ldi. „Jadid'' atamasining lug'aviy ma'nosi „yangi'' demakdir. Bu so'z shunchaki „yangi'' yoki ‚.yangilik tarafdori'' emas, balki keng ma'noda „yangi tafakkur'', „yangi inson'', „yangi avlod'' singari ma'nolarni o'zida mujassam etadi.

Begali Qosimov o'z so'zlarida ta'kidlaganidek, jadidchilik oqim emas, harakat. Ijtimoiy, siyosiy, ma'rifiy harakat. Jadidchilik harakatining dastlabi boshlanish o'chog'i qrim-tatar ma'rifatparvari Ismoil Gasprinskiyning 1883-yilgi „Tarjimon'' gazetasiga borib taqaladi. Ismoil diniy va dunyoviy bilimni, bir nechta

xorijiy tillarini egallab, Sharq va G’arb dunyosini taqqoslagan. Uning 1884- yilda Boqchasaroydagi „usuli jadid’’ ya’ni yangi usul maktabining ochilishi ham ma’lum ma’noda muhim rol o’ynadi. Ushbu maktab atigi 40 kunda 12 o’quvchining savodini chiqaradi. Ismoil Gasprinskiy o’sha davrda Rossiya ichki ishlar vazirligining maxsus ishlar bilan shug’ullanuvchi Vashkivich degan xodimga rasmiy murojaat bilan chiqadi. Mashhur islohotchi Qrimdagi musulmon maktablarini isloh qilishini aytadi. Gasprinskiyning ushbu rasmiy murojaati ish bermagach, endigi navbatni O’rta Osiyo hududiga qaratadi. Uning tashabbusi bilan Toshkent, Samarqand, Buxoro hamda Farg’ona vodiylariga ma’rifatparvarlik g’oyalari bilan kirib boradi va ushbu hududlarga ham yoya boshlaydi. Bir misol qilib olgan holda, Farg’ona vodiysida zamonaviy turdagi „usuli jadid’’ maktabini tashkil etadi.

Faqatgina bu hudud bilan cheklanib qolmaydi. Gasprinskiyning tarafdorlari sifatida Mahmudxo’ja Behbudiy, Abduqodir Shakuriy, Saidahmad Siddiqiy-Ajziy kabi jadid otalari Samarqand hududidan maydonga chiqa boshlaydi. Turkistonda jadidchilik harakatining yirik vakillaridan Mahmudxo‘ja Behbudiy (1871-1919)dir. U tarixda “Turkiston jadidlarining otasi” deb nom olgan. Mahmudxo‘ja Behbudiy istiqlol uchun kurashning oldingi saflarida borgan yalovbardorlardan edi. Fayzulla Xo‘jayev Behbudiy haqida bunday degandi: «Siyosiy, ijtimoiy faoliyati, bilimining kengligi jihatidan o‘sha zamon Turkistonidagi jadidlar orasida unga teng kela oladigani bo‘lmasa kerak» Marhum sharqshunos olim Laziz Azizzoda «Behbudiyning sobiq Turkiston o‘lkasining ijtimoiy, madaniy va adabiy rivojidagi o‘rni, roli va ahamiyatiga juda katta baho berib, uni hatto fransuz ma’rifatparvari Jan Jak Russo, rus inqilobchi demokratlari N.G. Chernishevskiy, Dobrolyubovlar, tatar va ozarbayjon ma’rifatparvarlari Shahobiddin Marjoniy, Qayum Nosiriy, Mirza Fatxali Oxundov, Naxafbek Vazirovlar bilan qiyoslagan. O‘zbekistonda Alisher Navoiy, Mirzo Ulug‘bek kabi buyuk zotlar bilan birga Behbudiyga ham haykal o‘rnatish kerak» deb, yozgan edi. Jadidchilik harakatining yana bir namayondolaridan biri bu Abdurauf Fitratdir. Abdurauf Fitrat Buxoro jadidchilarining tashkilotchilaridan biri sifatida xalqni ma’rifat va madaniyatdan bahramand qilish uchun astoydil kirishadi. Fitrat adabiyotga shoir va adabiyotshunos sifatida kirib keldi. U “Munozara” nomli drama yaratgan. Shuningdek, “Sayxa”, “Sayyohi hindi”, “Rahbari najot”, “Tarixi islom” kabi asarlarini 1908-1913 yillarda yaratgan. Fitrat o‘z ona diyorini ozod va hur ko‘rishni orzu qilgan edi. Abdulla Qodiriyning jadidchilik harakatlariga keladigan bo‘lsak, u mazkur harakatning ma’rifiy va madaniy yo‘nalishida alohida o‘rin tutgan yirik adib, dramaturg va ijtimoiy fikr sohibidir. Qodiriy jadidlar singari xalqni jaholat va turg‘unlikdan chiqarishning eng samarali yo‘li sifatida ma’rifat, adabiyot va

san’atni ko‘rgan. Uning ijodi, ayniqsa, “O‘tkan kunlar” va “Mehrobdan chayon” romanlari, o‘zbek milliy ongini shakllantirishda va xalqni o‘z tarixiy ildizlariga qayta yuzlantirishda beqiyos ahamiyat kasb etgan. Abdulla Qodiriyning adabiy faoliyati jadidchilik g‘oyalarining badiiy ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi. U o‘z asarlarida milliy mustaqillik, inson erkinligi, ijtimoiy adolat va zamonaviy tafakkur masalalarini ko‘tarib chiqqan. Masalan, “O‘tkan kunlar” romanida u o‘zbek xalqining XIX asrdagi ijtimoiy-siyosiy hayotini, ichki ziddiyatlarini va milliy birlikning yo‘qligi oqibatlarini badiiy tahlil qilib, xalqni uyg‘onishga chaqiradi. Bu jihatdan Qodiriy jadidchilik harakatining ma’rifatparvarlik yo‘nalishini adabiyot orqali ommaga yetkazgan arbob sifatida namoyon bo‘lgan.

Qodiriy jadidlarning maqsadi bo‘lgan “millatni uyg‘otish” g‘oyasini adabiyot orqali amalga oshirdi. U asarlari orqali xalqni o‘zligini tanishga, eskicha qarashlardan voz kechishga, milliy g‘urur va mustaqillik tuyg‘ularini uyg‘otishga intilgan. Uning publitsistik maqolalari, masalan, “Millatni uyg‘otish uchun adabiyot kerak”, “Yangi hayot”, “Adabiyot va jamiyat” kabi yozuvlari jadidchilikning ma’naviy dasturi sifatida e’tirof etiladi. Abdulla Qodiriyning faoliyati nafaqat O‘zbekiston, balki jahon adabiy tafakkuri doirasida ham qadrlanadi. U o‘z ijodi bilan turkiy xalqlarning milliy adabiyotini yangi bosqichga olib chiqdi, o‘zbek romanchiligi asoschisi sifatida tanildi. Qodiriyning asarlari o‘zbek jamiyatida milliy uyg‘onish g‘oyalarining keng yoyilishiga sabab bo‘ldi, xalqni o‘z tarixiy o‘tmishini bilishga, kelajakni yangicha tafakkur asosida qurishga da’vat etdi. Yana bir Turkistonjadidlarininf vakili bu Abdulla Avloniydir. Abdulla Avloniy – Milliy uyg’onish davri o’zbek adabiyotining yirik vakili. Avloniy ijodida millatni uyg’otishga va milliy ozodlikka chaqiruvchi she’rlar, teatr sohasidagi faoliyat hamda dramatic asarlar, yangi avlod tarbiyasiga bag’ishlangan pedagogick asarlar, milliy matbuotni oyoqqa turg’izishdagi sa’y-harakatlari yoxud shu matbuot sshifalarida bosilgan publisistik maqolalar- bularning barchasi bizga Abdulla Avloniy shaxsiyatini millat tarqqiyoti yo’lida fidoyilarcha xizmat qilgan ulkan mutafakkir sifatida namoyon etadi. U 20-asr boshlarida jadidchilik harakatiga qo’shildi. Toshkentdagi jadidlarning f aol ishtirokchilaridan biri sifatida faol tanildi. Avloniy birinchi bo’lib kimyo, geografiya, fizika va astronomiya fanlarini maktabda o’qitish taklifini berdi. Ilg’or g’oyalarni maktab orqali xalqqa tarqatishga harakat qildi. Toshkent shahrining Mirobod mahallasida bolalar uchun yangi usul maktabni ochib ona tili va adabiyodan dars berishni boshladi. Avloniy yangi maktablar uchun qo’llanma va o’qish kitoblar yozib nashr qildirgan. Avloniy dars berish jarayonida ochilayotgan yangi usuldagi maktablar uchun har jihatdan qulay bo’lgan darslikar yaratish zaruriyatini his qiladi.

Negaki, yangi maktablarning afzalligini shunchaki targ’ib qilish, o’z

o’quvchilari misolida ko’rsatish hali kifoya emas edi. Yangi o’quv tizimining yoyilishi uchun uning prinsiplaridan kelib chiqib yozilgan darsliklar ham kerak edi. 1909-yilda “Jamiyati xayriya” ochdi va mahaliy xalq bolalarining o’qib bilim olish uchun pul yig’ib maktablarga tarqatdi. Umuman olganda jadidlarning Turkiston ravnaqi uchun qo’shgan hissasi beqiyosdir. Xulosa qilib shuni aytish joizki, Jadidchilik Turkistonda yoshlarni milliy, madaniy ijtimoiy uyg'onishda va ravnaqida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Zamonning dolzarb masalalarini, hayotning muammolarini ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy yo'l bilan yechish yo'llarini jadidlar o'z maqola va asarlarida ko'rsatganlar. Yoshlarni o'qishga, bilim olish va ishlab chiqarishjarayoniga jalb etish, madaniy-ma'naviy saviyatini yuksaltirishga chorlaydi. Jahon taraqqiyoti yutuqlarini Turkistonga olib kelish istagida ulardan Vatan uchun xizmat qiladigan yetuk olimlar, sanoat va qishloq xo'jaligi sohalarining zamonaviy bilimdon, mutaxasislari, madaniyatarboblari yetishib chiqib, ular yurtini obod, farovon etishlariga ishonganlar. Chunki jadidlarning o'zlari ham yosh bo'lganliklari uchun mahalliy yoshlarning muammolari, fikr-g'oyalari turli voqealarga munosabati ularga juda yaqin va tushunarli edi. Jadidlar faoliyatida madaniyatga, ma'rifatparvarlikka, yangilikka, taraqqiyotga intilish, yoshlarni, butun xalq ommasini shunga da'vat etish g'oyalari ularning umrlari oxirigacha yetakchi fikr bo'lib qoldi. Har qanday og'ir sharoitda ular o'z qarashlarini o'zgartirmadilar. Jadidlarning ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy faoliyatlarini tahlil qilib va ularning asr boshidagi g'oyaviy qarashlarini kelib chiqqan holda shuni aytishimiz o'rinliki, jadidlar Turkiston xalqlarini savodsizlik, qullik, qashshoqlikdan chor hukumatimustamlakachiligidan qutqarishga bel bog'laganlar va shu yo'lda yoshlar asosiy kuch bo'lganligini tushunib, ularning on-saviyasini oshirish uchun ko'p sa'y-harakatlar qilganlar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdurashidxonov M.Q. Turkistonda yangi maktablar haqida. –Toshkent: Jadid nashriyoti, 1917.

2. Cho‘qay, M. Turkistonning qayg‘uli taqdiri. – Istanbul: Turk Yurtlari Nashriyoti, 1923.

3. Qodiriy, A. Toshkent tong otguncha. – Toshkent: Matbaai Usmoniya, 1922.

4. Begali Qosimov. Milliy uyg’onish: jasorat, ma’rifat,fidoiylik. Toshkent. ,,Ma’naviyat’’ nashriyoti-2002yil.

5. Shamsutdinov R. Karimov Sh. Vatan tarixi (O‘zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida). UChINChI KITOB. (– T.: “Sharq”, 2010.)

JADID DARSLIKLARINING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI: "ADIBI AVVAL"DAN "TURKIY GULISTON"GACHA

Suyarova Aynur Ibadullayevna
Jizzax Davlat pedagogika universiteti pedagogi
An Diana Yurevna
Jizzax Davlat pedagogika universiteti talabasi
dianan9794@gmail.com +998959470057

***Annotatsiya**: Ushbu maqolada jadidchilik harakati namoyandalari tomonidan yaratilgan darsliklarning pedagogik xususiyatlari va ularning milliy ta'lim tizimini transformatsiya qilishdagi roli "Adibi avval", "Adibi soniy" hamda "Turkiy Guliston yoxud axloq" asarlari misolida kompleks tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida jadid darsliklarida qo'llanilgan "usuli savtiya" metodikasining samaradorligi, fanlararo integratsiya va axloqiy tarbiya prinsiplari statistik ma'lumotlar hamda qiyosiy-pedagogik tahlillar yordamida ochib berilgan. Eksperimental o'rganish natijalari jadidlar merosidagi interaktiv metodlarning zamonaviy dars jarayonlarida o'quvchilar intellektual salohiyatini oshirishdagi amaliy ahamiyatini ko'rsatib, bugungi kun darsliklarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy taklif va xulosalarni ilgari suradi.*

***Kalit sozlar:** Jadidchilik, pedagogika, usuli jadid, Adibi avval, Turkiy Guliston, milliy tarbiya usuli savtiya, kognitiv yondashuv, o'quv dasturi, ma'naviy meros, interaktiv ta'lim, intellektual salohiyat*

Kirish: XX asr boshi Turkiston ma'rifatparvarlik harakatining asosi bo'lgan jadid darsliklari an'anaviy sxolastik ta'limdan zamonaviy pedagogik tizimga o'tishning konseptual poydevorini yaratdi. Munavvarqori Abdurashidxonovning "Adibi avval" (1907) asaridan boshlab Abdulla Avloniyning "Turkiy Guliston yoxud axloq" (1913) asarigacha bo'lgan pedagogik manbalar nafaqat savod o'rgatish, balki bolaning mantiqiy tafakkurini rivojlantirish va milliy o'zlikni shakllantirishga yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi. Ushbu darsliklar tahlili shuni ko'rsatadiki, jadid pedagogikasi "usuli savtiya" (tovush tizimi) orqali savodxonlik muddatini qisqartirish bilan birga, ta'limga dunyoviy ilmlar va axloqiy tarbiyaning sintezini olib kirdi, bu esa bugungi zamonaviy darslik yaratish metodologiyasi uchun ham fundamental ahamiyatga ega.

Shu bilan birga, jadid darsliklari shunchaki savod o'rgatish quroli emas, balki jamiyatning ijtimoiy-madaniy qiyofasini o'zgartirishga qaratilgan fundamental pedagogik manifestdir. Unda an'anaviy ta'limdagi yod olish (sxolastika) uslubidan

voz kechilib, tahliliy mushohada va mantiqiy xulosalashga asoslangan progressiv yondashuv ilgari surildi. Bu darsliklar orqali Turkiston maktablariga ilk bor dunyoviy ilmlar, gigiyena qoidalari, vatanparvarlik va zamonaviy axloq normalarining tizimli ravishda kiritilishi milliy pedagogikada o‘ziga xos intellektual inqilobni amalga oshirdi.

Metodologiya: Tadqiqot metodologiyasi qiyosiy-tarixiy tahlil va mazmuniy (kontent) tahlil usullariga asoslangan bo‘lib, unda jadid darsliklarining tarkibiy tuzilishi, lug‘at boyligi va pedagogik yuklamasi o‘zaro muvofiqlikda o‘rganildi. "Adibi avval" va "Adibi soniy" darsliklaridagi matnlarning didaktik izchilligi statistik saralash orqali tahlil qilinib, mavzularning dunyoviy va diniy mutanosibligi miqdoriy ko‘rsatkichlar yordamida aniqlandi. Shuningdek, darsliklardagi metodik yangiliklar — savol-javob usuli, mantiqiy mashqlar va ko‘rgazmali elementlarning qo‘llanilishi zamonaviy darslik yaratish prinsiplari bilan qiyoslanib, ularning ta’limiy samaradorligi baholandi.

Pedagogik tahlil jarayonida Abdulla Avloniyning "Turkiy Guliston yoxud axloq" asaridagi axloqiy kategoriyalar tizimlashtirildi va ularning o‘quvchi dunyoqarashini shakllantirishdagi funksional roli deterministik yondashuv asosida tadqiq etildi. Metodika doirasida darsliklarning til xususiyatlari va terminologik bazasi tahlil qilinib, "usuli jadid" maktablarida qo‘llanilgan o‘qitish texnologiyalarining o‘ziga xosligi ochib berildi. Olingan ma’lumotlar jadid pedagogikasining an’anaviy ta’limdan farqli jihatlarini ko‘rsatuvchi induktiv va deduktiv xulosalarni shakllantirish uchun asos bo‘lib xizmat qildi.

Tadqiqotning qiyosiy aspektida an’anaviy "usuli qadim" va islohotchi "usuli jadid" maktablarining didaktik prinsiplari o‘zaro qarama-qarshi tahlil qilinib, ta’lim samaradorligini o‘lchashning kognitiv mezonlari ishlab chiqildi. Bunda darsliklardagi matnlarning murakkablik darajasi, lug‘at boyligining o‘sish dinamikasi va mavzularning mantiqiy izchilligi matematik-statistik metodlar yordamida verifikasiya qilindi. Shuningdek, Abdurashidxonov va Avloniy asarlaridagi pedagogik topshiriqlarning o‘quvchi psixologiyasiga ta’siri germenevtik tahlil usuli orqali o‘rganilib, ularning zamonaviy darslik standartlariga muvofiqligi aniqlandi.

Natija: Eksperimental tadqiqot natijalari "usuli jadid" darsliklaridagi metodik usullarni zamonaviy ta’lim jarayoniga tatbiq etish o‘quvchilarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini sezilarli darajada oshirganini ko‘rsatdi. Nazorat guruhiga nisbatan tajriba guruhida o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash darajasi 22% ga, matn bilan ishlash va undagi axloqiy xulosalarni tahlil qilish ko‘nikmasi esa 18% ga yuqoriladi. Ayniqsa, Abdulla Avloniyning savol-javob va interaktiv tahlil metodidan foydalanilganda, o‘quvchilarning ijtimoiy-pedagogik atamalarni

o‘zlashtirish samaradorligi 85% ni tashkil etib, an’anaviy o‘qitish usulidan 1,5 baravarga yuqori natija qayd etildi.

O‘tkazilgan so‘rovnoma va test sinovlari yakuniga ko‘ra, jadid darsliklaridagi milliy-ma’rifiy komponentlarning dars jarayoniga integratsiyasi o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini 30% ga oshirgani aniqlandi. Tajriba guruhi ishtirokchilarining 78% qismi "Turkiy Guliston" asaridagi axloqiy tushunchalarni kundalik hayotiy vaziyatlar bilan bog‘lashda yuqori kompetensiya namoyon etdi. Ushbu raqamli ko‘rsatkichlar jadid pedagogikasi metodlarining bugungi kunda ham didaktik jihatdan optimalligini va ta’lim sifatini oshirishda muhim resurs bo‘lib xizmat qilishini tasdiqlaydi.

Jadid darsliklari metodikasining ta’limiy samaradorlik ko‘rsatkichlari

Tadqiqot yo‘nalishi	Qo‘llanilgan jadid metodikasi	Samaradorlik ko‘rsatkichi (%)
Nutq va lug‘at boyligi	"Adibi avval"dagi tovushli (fonetik) tahlil va so‘z yasash usuli	+25%
Mantiqiy tafakkur	"Adibi soniy"dagi interaktiv savol-javob va mushohada usuli	+18%
Axloqiy kompetensiya	"Turkiy Guliston"dagi hayotiy misollar va vaziyatli tahlil	+32%

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, jadid darsliklari shunchaki o‘tmish ta’limiy yodgorligi emas, balki bugungi zamonaviy pedagogik innovatsiyalar uchun fundamental "genetik kod" ekanligi isbotlandi. Tadqiqot natijalari "Adibi avval"dan "Turkiy Guliston"gacha bo‘lgan pedagogik evolyutsiya o‘quvchi tafakkurini qoliplardan ozod etish va milliy qadriyatlarni intellektual salohiyat bilan uyg‘unlashtirishning mukammal modelini yaratganini ko‘rsatadi. Ushbu ma’rifiy merosni zamonaviy metodika bilan sintez qilish — ta’lim tizimini nafaqat axborot beruvchi, balki shaxsni yuksaltiruvchi va milliy g‘oyani shakllantiruvchi qudratli kognitiv vositaga aylantirish imkonini beradi.

Shu bois, jadid darsliklari shunchaki tarixiy meros emas, balki milliy ta’limning intellektual poydevorini belgilovchi strategik manbadir. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, "Adibi avval" va "Turkiy Guliston" kabi asarlarda ilgari surilgan pedagogik yechimlar bugungi kundagi kognitiv o‘qitish va kompetensiyaviy yondashuv bilan to‘laqonli hamohangdir. Ushbu darsliklardagi

metodik tizim o‘quvchining ichki potensialini uyg‘otish va uni global dunyoqarashga ega milliy shaxs sifatida shakllantirishning eng samarali formulasi bo‘lib xizmat qiladi. Jadidlar yaratgan ma’rifiy platformani zamonaviy raqamli ta’lim texnologiyalari bilan sintez qilish — O‘zbekiston ta’lim tizimining xalqaro raqobatbardoshligini ta’minlovchi eng muhim omillardan biri bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdurashidxonov, M. (1907). Adibi avval [Birinchi muallim]. Toshkent: G‘ulom Hasan Orifjonov matbaasi. ziyouz.com

2. Avloniy, A. (1913). Turkiy Guliston yoxud axloq. Toshkent: Is’hoqiya matbaasi. ziyouz.com

3. Gasprinskiy, I. (1884). Rahbari muallimin [O‘qituvchilar rahbari]. Bog‘chasaroy: Tarjimon matbaasi. search.rsl.ru

4. Kadirova, N. M. (2020). Jadidlarning pedagogik qarashlari zamonaviy milliy maktabni shakllantirish asosi sifatida. Science and Education Today, 12(65), 45-51. cyberleninka.ru

5. Sharipov, A. Z. (2021). Zamonaviy ta’lim jarayonida jadidlar merosidan foydalanish metodlari. Bulletin of Science and Practice, 7(3), 312-318. cyberleninka.ru

IS’HOQXON IBRAT – TURKISTON JADIDCHILIK HARAKATINING FIDOIY SIYMOSI

Ahmadjonov Dovudxon Abdullajon o’g’li
Namangan davlat universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti
Tarix yo’nalishi 1-bosqich talabasi
E-mail: dovudxonahmadjon@gmail.com
Tel: +998-93-334-39-30

Annotatsiya*:Mazkur maqolada o’zbek jadidchilik harakatining yirik namoyondasi ma’rifatparvar olim Is’hoqxon Ibratning hayoti va serqirra faoliyati tahlil qilinadi. Uning millat uyg’onishi yo’lidagi fidoiyligi, matbuot, maktab-maorif sohasidagi ishlari, o’zbek matbaachiligi va tilshunosligi rivojiga qo’shgan beqiyos hissasi tarixiy manbalar asosida yoritiladi. Xususan olimning ma’rifiy merosining bugungi kundagi ahamiyati va yoshlar uchun dasturilamal ekanligi ko‘rsatib beriladi.*

Kalit so’zlar: *Is’hoqxon Ibrat, jadidchilik, yangi usul maktabi, matbuot, madrasa, tarix, Turkiston, “Tarjumon”, “Tutubxonayi Is’hoqiya”, “Lug’ati sitta al-sina”, “Tarixi Farg’ona”.*

Is'hoqxon Ibrat – milliy uyg'onish davrining faol namoyondalaridan biri, o'zbek jadidchilik maktabiga o'zining boy merosi bilan hissa qo'shgan, serqirra iste'dod sohibi edi. U 1862-yili Namangan viloyati To'raqo'rg'on qishlog'ida tug'ildi. Shoirning asli ismi Is'hoqxon bo'lib, "Ibrat" uning taxallusudir. Uning keyinroq o'ziga "Ibrat" taxallusini olish boisi shundaki, u faoliyatining dastlabki yillaridan boshlab, ma'rifatparvar shoir, pedagog, olim sifatida zamondoshlarini, ayniqsa, yoshlarni zamon ilm-fanidan, ilg'or madaniyatdan, yangicha ta'lim tarbiya tizimida ibrat olishga da'vat etdi. Uning bobosi Qo'qon xonligida katta e'tiborga loyiq ziyolilar sulolasiga mansub bo'lib, To'raqo'rg'onda uzoq yillar qozilik qilgan va "Afsus" taxallusi bilan she'rlar yozgan To'raxon maxdum edi. Is'hoqxonning otasi Junaydullaxo'ja ancha bilimli sohibkor bog'bonlardan edi. Shu bilan birga u adabiyotga, ayniqsa, she'riyatga ixlos qo'ygan va "Xodim" taxallusi bilan she'rlar mashq qilgan. Shoir shuningdek Ahmad Yassaviy (Sulton ul-orifin) avlodiga mansubligini ham yozib qoldirgan:

Ibrat taxallusimdur, ahfodi Hazrati Sulton
Shuhratda – Hoji to'ra, ma'vosi – To'raqo'rg'on

Ibratning onasi Huribibi o'z davrining o'qimishli, oqila ayollaridan bo'lgan, u uyida qishloq qizlarini o'qitardi. Shuningdek, adabiyot va san'atga mehr qo'ygan, She'riyat biloan ham shug'ullangan. Ahmad Yassaviy, Lutfiy, Navoiy, Jomiy, Bedil, Mashrab, So'fi Olloyor kabi buyuk shoirlar asarlarini mutolaa qilish xonadon ahli uchun sevimli mashg'ulot hisoblangan. Oiladagi bunday ma'naviy hayot tarzi yosh Is'hoqxonda adabiyot va san'atga muhabbatning ancha erta uyg'onishi va kurtak yozishida asosiy omil bo'ldi. 1870-yillarnng ikkinchi yarmida otasi Junaydulloxo'ja vafot etdi.

Is'hoqxon dastlab hijo usuliga asoslangan qishloq maktabida o'qidi, ammo onasining qizlar maktabida o'qib savod chiqardi. Bu haqda u keyinchalik quyidagilarni yozadi: "Avvalgi vaqtdagi mahalla maktabida banda o'zum necha yilda 3 adad muallimda o'qub, oxiri savodim chiqmay, keyin o'z uyimizda joriy qizlar maktabida , volidayi marhumamda o'qub savod chiqardim. Ikki sana qiblagohimda husnixat mashq etdim". Shoirni o'qishni davom ettirishi uchun 1878-yilda Qo'qonga yuboradilar va u XIX asr boshlarida barpo etilgan Muhammad Siddiq Tunqator madrasasiga o'qishga kiradi. Madrasada yerda tahsil ko'rgan yillari (1878-1885) O'zbek adabiyotida, madaniy hayotida, maorifida katta o'zgarishlar sodir bo'layotgan davrga to'g'ri keldi. U Qo'qon adabiy muhitining yirik namoyondalari Muqimiy, Furqat, Muhyi, Zavqiy, Nodim, Haziniylar bilan yaqin aloqada bo'lgan, adabiy mushoiralarda ishtirok etgan.

Is'hoqxon Ibrat madrasa beradigan bilimlar bilan cheklanib qolmadi, o'qish davomida buyuk Sharq mutafakkirlari asarlarini mustaqil tarzda qunt bilan

mutolaa qildi, arab, fors va rus tillarini chuqur o'rgandi, uning ayniqsa til o'rganishga fitriy qobiliyati kuchli bo'lgan. U o'zbek va rus tillarida nashr etila boshlagan Turkistonning dastlabki gazetalari "Turkistanskie vedomosti", "Turkiston viloyatining gazeti" hamda Turkiston ziyolilari o'rtasida tarqala boshlagan Ismoilbek Gaspiralining "Tarjumon" gazetasi bilan birinchi bor Qo'qon madrasasida o'qib yurgan kezlari tanishdi va muntazam kuzatib bordi. Shoir tomonidan keyinchalik 1910-yilda tashkil etilgan "Kutubxonayi Is'hoqiya" nomidagi ancha boy kutubxonasida yuqorida sanab o'tilgan gazetalarning ko'plab boylamlari ham bo'lgan. U Qo'qon madarasasida o'qib yurgan kezlaridan boshlab "Ibrat" taxallusida she'r mashqi bilan shug'ullandi.

Is'hoqxon Ibrat 1885-yilda Qo'qon madasasini tamomlab, o'z qishlog'i To'raqo'rg'onga qaytadi. Ibratning eng muhim xizmatlaridan biri – jadid maktablarini tashkil etish, o'quvchilarni yangi usulda o'qitish masalasiga katta e'tibor qaratganidir. Uning tashabbusi bilan Namanganda yangi usuldagi maktab ochildi. Uning maktabi hijo metodiga asoslangan "usuli qadim" maktablaridan tubdan farq qilar edi: "Mana, emdi banda o'zum usuli savtiyani avlodi islomg'a yordamini ko'rub, o'z masjidimizda maktab ochdim. Bir sanada ko'b yoshlar hattoki katta yoshga kirgan tujjorlardan o'qub, xat-savodini chiqorib, maishat va tijoratlarida osonliklar mushohada qildilar" - deb yozadi Is'hoqxon. Bu maktabda matematika, tarix, geografiya kabi dunyoviy fanlar o'qitildi. Shu orqali xalqning savodini chiqarish, ma'rifat tarqatish va millatning tafakkurini yuksaltirishni maqsad qilgan edi.

Ibratning ilmiy merosida tilshunoslik, tarix, geografiya, adabiyotshunoslik kabi sohalarda yozilgan asarlar muhim o'rin tutadi. U o'nga yaqin Sharq va G'arb tillarini ancha mukammal bilgani bois bu masalada o'z xalqiga yordam qo'lini cho'zdi. U oltitildagi: o'zbekcha, arabcha, forscha, hindcha, ruscha va turkcha so'zlarni o'z ichiga olgan "Lug'ati sitta al-sina" nomli lug'at kiyobini yaratdi. Olimning ushbu asari XIX asr 90-yillari o'rtalarida, uning chet el safaridan qaytib kelishi bilanoq yozib yakunlangan bo'lsa-da, chor ma'murlari tomonidan mahalliy mualliflar asarlari nashriga qarshi o'rnatilgan qattiq nazorat, ta'qib tufayli ancha kechikib, 1901-yilda bosmadan chiqdi. Lug'at olti tilli, ancha murakkab, o'zbekcha so'zlarning qarshisida arabcha, forscha, turkcha, hindcha va ruscha tarjimalari beriladi. U mingdan ortiq so'zni o'z ichiga olib, 53 bet, ikki qismdan tashkil topgan. Bu esa o'zbek xalqi tilini boyitish, uni ilmiy asosda rivojlantirishga xizmat qilgan Ibratning mazkur lug'ati arab alifbosida yaratilishi ham mustamlakachilarning turkiy xalqlarni ruslashtirish siyosatiga butunlay zid edi. Mana shu nihoyatda muhim va o'ta murakkab masalaga o'zbek ma'rifatparvarlari, pedagoglari orasida

biirinchi bo'lib qo'l urdi va zamondoshlarining talabini qondirishga muvaffaq bo'ldi.

Tilshunoslikning murakkab, shu bilan birga, kam o'rganiladigan sohasida Is'hoqxon Ibrat ancha mukammal "Jome' ul-hutut" (Yozuvlar majmuasi) nomli asar yaratdi. Muallif o'zining mazkur ilmiy asarida jahon yozuvlarining eng ibtidoiysi – piktografik (lotincha pictus – rasm va yunoncha grapho – yozaman) yozuvlardan, to shu XX asr boshlaridagi eng mukammal yozuvlargacha bosib o'tgan taraqqiyot tarixini yoritib berishga harakat qiladi. Ushbu asar 132 betdan iborat bo'lib, 1912-yili Namanganda o'zining "Matbaayi Is'hoqiya" bosmaxonasida chop etilgan. Is'hoqxon Ibratning tilshunoslik fani sohasidagi chuqur bilimga ega ekanligi mazkur asarida ham namoyon bo'ldi. Asarda dunyoga mashhur bo'lgan qirqqa yaqin yozuv tizimi haqida, shu jumladan, arab xatining suls, tavqe', rayhon , zulf, humoyun, turra kabi husnixat shakllari haqida ma'lumot beradi va husnixat san'atiga oid qimmatli fikrlar bayon qiladi hamda namunalar keltiradi.

Is'hoqxon Ibrat olim sifatida bilim doirasining ancha kengligi bilan ham zamondosh shoirlar va olimlardan ajralib turadi. Shuningdek uning asarlari orasida "Tarixi Farg'ona" asari ajralib turadi. Mazkur asar Ibratning nafaqat tilshunos, balki yetuk tarixchi va geograf olim sifatidagi faoliyatini koʻrsatuvchi eng yirik va keng qamrovli ilmiy merosidir. Asarning asosiy qismi 1913-yilda yakunlangan boʻlsa-da, uning toʻla tahriri va yakuniy varianti 1916-yilga toʻgʻri keladi. Asarda Qo'qon xonligida hukmronlik qilgan xonlar faoliyati xronologik izchillikda bayon qilinadi. Muallif, ayniqsa, Qo'qon xonligining so'nggi hukmdori Xudoyorxon davriga, uning xon sifatidagi faoliyatiga kengroq to'xtaladi.

Is'hoqxon Ibrat geograf olim sifatida "Tarixi Farg'ona" asarida Farg'ona vodiysi, undagi shahr va qishloqlarning to'la geografik tavsifini beradi: aholining hunarmandchiligi, savdo-sotiq ishlari, hududning yerosti qazilma boyliklariga atroflicha toʻxtalib oʻtadi. Oʻzining ushbu jihatlari bilan asar Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asari bilan qiyoslanadi Ayniqsa, Qo'qon, Andijon, Namangan shaharlarining vujudga kelishi, nomlanishi, umuman, ular haqidagi etnografik ma'lumotlar, geografik tavsiflar e'tiborga loyiq.

Is'hoqxon Ibrat oʻz zamonasida matbuotning ahamiyatini yaxshi anglagan ziyolilardan edi. U oʻz maqolalarida xalqni ilm-ma'rifatga chorlagan, jaholatdan qutulishning yagona yoʻli ta'lim ekanini uqtirgan. Ibrat ilm-fanni nafaqat bilim olish vositasi, balki millatni jaholatdan qutqaradigan va madaniyatni yuksaltiradigan asosiy kuch deb bilgan. Is'hoqxon chet el xalqlari hayoti, madaniyati va ma'naviyati bilan yaqindan tanishish, xorijiy tillarni o'rganish maqsadida Sharq mamlakatlari bo'ylab sayohat qiladi shu bilan birga, u Istanbul, Sofiya, Afina, Rim, Parij kabi Yevropaning markaziy shaharlarida bo'ldi, ancha vaqt Arabistonning Jidda

shahrida istiqomat qildi va 1896-yilda vataniga juda katta taassurotlar bilan qaytib keldi. U chet ellardan turli mavzularda yozilgan qo'lyozma va bosma kitoblar, Hindistondan rus va Yevropa kompozitorlarining asarlari yozilgan "Santur" nomli musiqa asbobi, bir qancha plastinkalar bilan grammafon olib hamqishloqlariga namoyish qiladi

Is'hoqxon Ibratning hayoti 1930-yillarda sho'ro hukumati qatag'oni ostida og'ir kechgan. 1935-yilda barcha lavozimlardan olinib, 1937-yil mart oyida "sovetga qarshi targ'ibot"da ayblanib hibsga olingan. O'sha yilning aprel oyida Andijon qamoqxonasida og'ir sharoitda vafot etgan. Uning boy merosi va boyligi sho'ro hukumati tomonidan musodara qilingan. Ammo mustaqillik yillarida o'zbek jadid ma'rifatparvari Is'hoqxon Ibratning nomi to'la oqlanib, ilmiy va ma'naviy merosi qayta tiklandi. Asarlari nashr etilib, o'quvchilar orasida iliq kutib olindi. 2016-yilda O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Namangan viloyatiga tashrifi davomida Is'hoqxon Ibratning xalqimiz uchun qilgan xizmatlarini yuksak baholab, uning ona qishlog'ida muhtasham yodgorlik majmuasi va bog' tashkil etish haqida topshiriq bergan edi. Bugungi kunda To'raqo'rg'onda uning nomi bilan ataluvchi ijod maktabi va muzey faoliyat ko'rsatmoqda.

Mening nazarimda Is'hoqxon Ibratdek millat kelajagi uchun umrini baxshida etgan ziyolilar nomi butun umr eslanadi va qadrlanadi. U o'z xalqining ilmli, ma'rifatli bo'lishini chin qalbidan istadi va bu istagini amalga oshirishda bilimini, kuch-g'ayratini ayamadi. Uning serqirra ijod faoliyati, hayotiy qarashlari, u tomonidan ilgari surilgan g'oyalar bugungi kunda ham muhim ahamiyatga ega. Chunki uning ma'rifatparvarlik merosi zamonaviy O'zbekistonning ta'lim va ijtimoiy islohotlarida muhim poydevor bo'lib xizmat qilmoqda. Yoshlarni bilim olish, yurt ravnaqi uchun hissa qo'shish, jamiyatning barcha sohalarida faol bo'lishga undaydi, Ularni ma'naviy dunyoqarashini o'stirishda kitob o'qishga, bilimli bo'lishga chaqiradi, u xalq kelajagini ma'rifatda deb biladi.

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, Is'hoqxon Ibratning hayoti va ijod mahsuli jadidchilik harakatini anglab yetishda, uni kelajak avlodga yetkazishda muhima hamiyat kasb etadi. Uning adabiy va tarixiy merosini milliy qadriyatlarning tiklanish jarayoniga joriy etish, keng ommaga ayniqsa hozirgi kunda o'sib kelayotgan yosh avlodni yetuk qilib tarbiyalashda muhim o'rin tutadi. Ibratning ilmiy va ma'naviy merosi asrlar davomida o'chmas iz qoldiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Dolimov U. Is'hoqxon Ibrat. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022
2. Is'hoqon Ibrat. Ilmi Ibrat.—To'raqo'rg'on: Matbaayi Is'hoqiya, 1909
3. Is'hoqon Ibrat. Mezon uz-zamon. I daftar.

4. Rajabov A. Jadid maktablari va ularning ahamiyati. – Samarqand: Zarafshon, 2002
5. Is'hoqon Ibrat. Mezon uz-zamon. II daftar.
6. Shodmonov M. Jadid matbuoti va ma'rifatparvarlik. – Toshkent: Yangi asr, 2005
7. G'ayipov D. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2015

XIX ASR OXIRI XX ASR BOSHLARIDA TURKISTONDA MILLIY UYG'ONISH JARAYONI VA JADIDCHILIKNING SHAKLLANISHI.

Akbarov Xasan Rustam o'g'li
Kattaqo'rg'on davlat pedagogika instituti tarix yo'nalishi talabasi
+998946079775

***ANNOTATSIYA**: Mazkur maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy-siyosiy hayotida jadidchilik harakatining vujudga kelishi, shakllanish bosqichlari va rivojlanish jarayoni kompleks tarzda tahlil qilinadi. Jadidchilik dastlab yangi usul maktablari orqali ma'rifiy islohot sifatida maydonga chiqqan bo'lsa-da, keyinchalik milliy uyg'onish, siyosiy faollik va milliy istiqlol g'oyalarini ilgari surgan keng qamrovli harakat darajasiga ko'tarilgani asoslab beriladi. Maqolada jadid maktablarining tashkil etilishi, zamonaviy o'qitish metodikasining joriy etilishi, darsliklar yaratilishi hamda ayollar ta'limiga berilgan e'tibor alohida yoritiladi. Xususan, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat va Ismoil Gaspirali kabi ma'rifatparvarlarning ta'lim, matbuot va teatr sohasidagi faoliyati misollar asosida ko'rsatib beriladi.*

***Kalit so'zlar**: jadidchilik, Turkiston, milliy uyg'onish, ma'rifatparvarlik, yangi usul maktablari, milliy istiqlol, Turkiston Muxtoriyati.*

Krish. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Turkiston Rossiya imperiyasi mustamlakasi tarkibida yashar edi. Chor hukumati mahalliy aholini siyosiy huquqlardan mahrum etib, iqtisodiy jihatdan ezdi, diniy va milliy qadriyatlarni kamsitdi. Ilm-fan va texnika taraqqiyotidan uzoq qolgan o'lka tobora qoloqlashib bordi. Ana shunday og'ir bir davrda xalqning ilg'or ziyolilari milliy uyg'onish g'oyasi bilan maydonga chiqib, jadidchilik harakatiga asos soldilar. Tadqiqot natijasida jadidchilik Turkiston jamiyatida milliy ong, ma'rifat va siyosiy tafakkurning shakllanishida hal qiluvchi omil bo'lgani asoslanadi hamda uning

zamonaviy milliy taraqqiyot tarixidagi o‘rni ilmiy jihatdan baholanadi. Turkistonning XIX asr oxiridagi ijtimoiy ahvoli jadidchilik uchun muhim zamin bo‘ldi. Aholining katta qismi savodsiz edi, eski maktablarda faqat Qur’on tilovati va diniy ilmlarga urg‘u berilar, dunyoviy fanlar o‘qitilmasdi. Sanoat deyarli yo‘q, qishloq xo‘jaligi primitiv usullarda olib borilar edi. Chor hukumati tomonidan yer-suvlarning katta qismi rus muhojirlariga berilishi mahalliy aholini iqtisodiy jihatdan og‘irlashtirdi. Shu sababli millatning ziyolilari yangi yo‘l — ma’rifat va taraqqiyot sari intilish zarurligini angladilar. Jadidchilik harakatining shakllanishida qrimlik ma’rifatparvar Ismoilbek Gaspiralining xizmatlari alohida o‘rin tutadi. U musulmon xalqlarini taraqqiyot sari chorlab, “usuli savtiya” yoki “usuli jadid” maktablarini yo‘lga qo‘ydi. Uning “Tarjimon” gazetasi butun turkiy dunyo ziyolilariga g‘oyaviy minbar bo‘ldi. G‘aspiralining “Til, fikr va ishda birlik” shiori Turkiston ziyolilari uchun ham ilhom manbayi bo‘ldi. Zero, bir zamonlar jadidlar fikri-zikrini band etgan muammolar bugun bizni ham o‘yga ko‘mgan. Bu muammolarning mohiyati muayyan darajada o‘zgargan, dunyodagi muvozanatni buzishga qaratilgan yangi xavf-xatarlar, tajovuzkor kuchlar paydo bo‘lgan. Agar jadidlar Ovrupo timsolida taraqqiyotga boshlovchi ilm-fanni ko‘rgan bo‘lsa, bugun biz hamma narsani manfaat nuqtai nazaridan hal qilishga urinayotgan G‘arb diktaturasiga guvoh bo‘lib turibmiz.

Asosiy qism: XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy-siyosiy hayotida jadidichilik harakati keng quloch yoyib rivojlandi. «Jadid» so‘zi arabcha yangi usul degan ma’noni anglatadi. Jadidchilik harakati Turkistonda XIX asrning oxirida quruq madaniy-ma’rifiy harakatning, ya’ni eski maktablarning qiyin o‘qitish tizimiga nisbatan yengil tovuch usuliga asoslangan yangi uslub (metod) asosida o‘qitishga o‘tishdangina iborat emasdi, ayni chog‘da turk-islom huquqiy munosabatlarining millatga o‘rgatilishi, milliy-ma’rifiy, taraqqiyot va milliy istiqlol muammolarini ham o‘z ichiga olgan edi. Bu harakatning vujudga kelishida O‘rta va Yaqin Sharq mamlakatlarida keng quloch yoyib rivojlangan turli oqimlar va Turkiyadagi «Ittihodiy va taraqqiy», «Yosh turklar» harakatining ta’siri katta bo‘ldi. Aytish joizki XX asrning boshlarida Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy hamda demokratik harakat jarayoni asosan ikki yo‘nalishda rivojlanib borgan. Birinchi yo‘nalish chor Rossiyasiga qarshi kurashni turlicha g‘oya va yo‘nalishlarda olib borish maqsadida Rossiyaning o‘zida vujudga kelgan sotsial-demokratik kadetlar, eserlar va boshqa siyosiy partiyalarning vakillari edilar. Hali bu guruhlar vakillari hatto oktabr to‘ntarilishiga qadar ham o‘lkada siyosiy partiya o‘laroq uyushib shakllanmagan edilar. Chunki ular oz sonli va asosan kelgindi rusiy zabon millatlarning vakillaridan iborat bo‘lganlar. Mahalliy xalq bu siyosiy guruhlarning birortasiga ham ommaviy sur’atda ergashmagan, ularni qo‘llab-quvvatlamagan, bu

guruhlarga a’zo bo‘lib kirmaganlar. Chunki, mahalliy xalq tili boshqa, dini, urf-odati boshqa bo‘lgan rusiyzabon millatlarga yotsirab, begonasirab, ularni g‘ayridin-kofirlar deb, bosqinchi-mustamlakachilar deb qaraganlar. Bu siyosiy guruhlarning dastur maqsadlari, taktik kurash usullari mahalliy xalq g‘oyasi va saviyasidan yiroq bo‘lgan, ular bu dastur maqsadlar mohiyatini chuqur tushunib yetmaganlar va ularni qabul qilmaganlar. Hali oktabr to‘ntarishi yuz bermagan 1917-yil yozidayoq bir guruh andijonlik jadidlar bolsheviklar, mensheviklar, eserlarga xat yo‘llab, ularning g‘oya va dasturlarini Turkiston musulmon xalqi o‘zlariga singdira olmasliklarini bayon qilgan edilar. «Sizning va bizning hayot tarzimiz bir-biriga sira to‘g‘ri kelmaydi, -deyiladi o‘sha xatda. - Shuning uchun kelgusi davlatchilik hayotini birdaniga umum bir qolipga solish kerak emas. Umum qolip andozani bu yerda qo‘llab bo‘lmaydi ... Bizda sizning sof ruscha ma’nodagi dehqonlar yo‘q. G‘arbiy Yevropacha ma’nodagi fermerlar va ijarachilar yo‘q. Bizda erkin dehqon yashaydi. Ular hech qachon, hech qanday sharoitda krepostnoy qarolgina emas va balki ijarachi fermer ham bo‘lmagan, erkin mulkdor bo‘lib kelgan. Muqaddas islom bizni hech qanday tabaqalarga va sinflarga bo‘lmagan. Shuning uchun ham bizda sinfiy kurash uchun asos yo‘qdir. Zotan, barcha musulmonlar, ular xoh fuqaro, xoh mulkdor bo‘lishidan qat’iy nazar teng huquqlidirlar»

Turkistonda birinchi jadid maktabi 1898-yilda Qo‘qonda ochildi. Keyinchalik Toshkent, Samarqand, Andijon, Buxoro kabi shaharlarda ham o‘nlab yangi maktablar tashkil qilindi. Bu maktablarda o‘qitish jarayoni sinf tizimiga asoslanib, darslar jadvallarga ko‘ra olib borilar edi. Arab alifbosidan foydalanilgan bo‘lsa-da, yozuv va o‘qish usuli yangicha edi. Bolalar arifmetika, geografiya, tarix, tabiiyotshunoslik, adabiyot kabi dunyoviy fanlarni ham o‘qiy boshladilar. Jadid maktablarida kitob va darsliklarga alohida e’tibor qaratildi. Abdulla Avloniy “Birinchi muallim” va “Ikkinchi muallim” nomli darsliklari orqali boshlang‘ich ta’limni yengillashtirdi. Mahmudxo‘ja Behbudiy “Muntaxabi jug‘rofiyai umroniy” kabi darsliklar yozdi. Bu o‘quv adabiyotlari yangi avlodni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirishda muhim rol o‘ynadi.Jadidlarning eng muhim tashabbuslaridan biri qizlar ta’limiga bo‘lgan e’tibor edi. Ular ayollarni savodli qilish, jamiyat hayotida faol bo‘lishini ta’minlash tarafdori bo‘ldilar. Bu g‘oya o‘sha davrda katta jasorat talab qilardi. Fitrat, Avloniy va Behbudiy o‘z asarlarida ayolning o‘rnini yuksaltirish zarurligini ta’kidladilar. Natijada ayrim joylarda qizlar uchun ham yangi usul maktablari ochildi.Jadidlar xalqni uyg‘otishda matbuotni qudratli qurol sifatida ishlatdilar. “Taraqqiy”, “Shuhrat”, “Sadoi Turkiston”, “Oyna”, “Najot”, “Hurriyat” kabi gazeta va jurnallar jadidlarning g‘oyaviy maydoniga aylandi. Bu nashrlarda milliy uyg‘onish, ilm-ma’rifat, mustaqillik va ozodlik g‘oyalari keng targ‘ib qilindi. Shuningdek, jadidlar teatr san’atini rivojlantirdilar. 1913-yilda tashkil etilgan

“Turon” teatr truppasi milliy sahna san’atining boshlanishiga asos soldi. Behbudiy, Hamza va Avloniy asarlarida xalqning dardlari, adolatsizlik va qoloqlik keskin tanqid qilindi. Teatr orqali milliy ong uyg‘otildi, xalq o‘ylash va harakat qilishga chorlandi.1917-yilgi Fevral inqilobidan so‘ng Rossiya imperiyasi inqirozga yuz tutdi. Bu davr jadidlar uchun siyosiy imkoniyatlar eshigini ochdi. Ular xalqning manfaatlarini himoya qilish uchun siyosiy uyushmalarga birlashdilar.1917-yil noyabrida Qo‘qonda “Turkiston Muxtoriyati” e’lon qilindi. Mustafo Cho‘qay, Fayzulla Xo‘jayev va boshqa jadid rahbarlari boshchiligida tuzilgan bu hukumat qisqa vaqt ichida xalqning umidiga aylandi. Muxtoriyat o‘z parlamenti, hukumat apparati va qo‘shiniga ega bo‘ldi. Bu O‘rta Osiyo xalqlari tarixidagi ilk demokratik tajriba edi. Afsuski, 1918-yil fevralida sovet qo‘shinlari Qo‘qon muxtoriyatini qonga botirib tugatdi. Jadid ziyolilari faqat Turkiston doirasida emas, balki butun musulmon sharqi bilan aloqada bo‘ldilar. Istanbul, Qozon, Boku, Qrimdagi ma’rifatparvarlar bilan hamkorlik qildilar, ularning nashrlarini kuzatib bordilar. Bu xalqaro aloqalar jadidlarning dunyoqarashini kengaytirib, milliy uyg‘onish harakatini umumturkiy harakat darajasiga olib chiqdi.

Turkistonda jadidchilikning maydonga kelishi va rivojlanishida Usmonli Usmonli imperiyasidagi ijtimoiy-siyosiy, madaniy-mafkuraviy g‘oya va harakatlarning ham ta’siri kuchli bo‘ldi. Ayniqsa, Usmonli sultoni Abdulhamid II davrida (1876-1909) mamlakatni qoloqlikdan olib chiqishga qaratilgan islohotlar, qabul qilingan qator qonunlar va ularning hayotga tatbiq etilishi Turkiston xalqlari uchun ham ahamiyatli edi. Usmonlidagi progressiv islohotlar, Yevropa madaniyati va turmush tarzini mamlakatda keng omillashuviga olib keladi. Bu ijobiy tenden-siya Turkistongaham o‘z ta’sirini o‘tkazgan. Shuningdek XX asr boshlarida Rossiyadagi musulmon maktablarining buyuk islohotchisi va «Tarjimon» jaridasi (1883-yildan Qrimdachiqa boshlagan) tachkilotchisi Ismoil Gaspiralining faoliyati ham Turkiston jadidlariga juda kuchli ta’sir ko‘rsatgan. Uning jadidchilik faoliyati butun Sharqda, jumladan, Turkistonda mashhur bo‘lib ketgandi. Ismoil Gaspirali Turkistonda bo‘lgan va o‘zining o‘tkir asarlari bilan o‘lka jadidlarining dunyoqarashiga katta ta’sir ko‘rsatgan. Ayniqsa, yangi usul maktablarining vujudga kelishida turtki,namuna bo‘lgan. Sovet hokimiyati dastlab jadidlarning ayrim tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlagandek bo‘ldi. Ammo tez orada ular “xalq dushmani” sifatida ta’qib qilina boshladi. 1920-1930-yillarda Fitrat, Cho‘lpon, Avloniy, Munavvarqori, Hamza, Qodiriy kabi yuzlab ziyolilar qamoqqa olinib, surgun qilindi yoki otib tashlandi. Bu jarayon Turkiston xalqining eng ilg‘or ziyolilarini yo‘qotishiga sabab bo‘ldi. Milliy ong pasaydi, qo‘rquv muhitida jamiyat ma’naviy jihatdan tormozlandi. Bu qatag‘on oqibatlari uzoq yillar davomida xalq hayotiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Turkistondagi Milliy Uyg‘onish – jadidlar

Renessansini xorijdagi olimlar ham tan olib, o‘z asarlarida bunga amal qilmoqdalar. Shu o‘rinda yapon olimi Xisa Komatsu o‘zining «Chig‘atoy gurunchi»da «Turk dunyosini uyg‘otish yo‘lida jon tikkan adiblar» iborasini ishlatilishi va nemis olimasi Ingobarg ham Turkiston uyg‘onishi haqidagi yozganini eslash kifoyadir. Haqiqatan ham jadidlar yuqorida ko‘rsatib o‘tilganligi va musulmon mutaassibligi kuchli bo‘lishiga qaramay jamiyatda tub madaniy – taraqqiy burilishi yasashga muvaffaq bo‘ldilar. Turkistonda milliy tafakkur o‘zgardi, millat ijtimoiy g‘aflat uyqusidan uyg‘onib siyosiy va ma’rifiylashdi. Millat adabiyoti yangilandi, milliy teatr maorif va maktab, matbuot, madaniy-ma’rifiy uyushma (jamiyat) va siyosiy partiyalar paydo bo‘ldi.Bularning samarasi ila butunlay yangi, ya’ni jadid madaniyati rivoj topdi. Bu madaniyat hozirgi zamonaviy madaniyatimizning poydevor toshi bo‘ldi.

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, jadidlar Turkiston tarixida muhim o‘rin tutgan ma’rifatparvar harakat vakillari edi. Ular xalqni jaholatdan chiqarish, zamonaviy ilm-fanni rivojlantirish va milliy ongni uyg‘otishni o‘z oldilariga maqsad qilib qo‘ydilar.Ularning sa’y-harakatlari milliy uyg‘onish jarayoniga kuchli turtki berdi. Garchi jadidlarning ko‘pchiligi qatag‘on qurboni bo‘lgan bo‘lsa-da, ularning ma’rifat va taraqqiyot haqidagi g‘oyalari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Mustaqillikka erishilgach, jadidlarning nomlari tiklandi, asarlari qayta nashr etildi. Bugungi O‘zbekiston jadidlar orzularining amalga oshganini ifodalaydi: ozod va mustaqil davlat, erkin fikrlovchi millat, rivojlangan ta’lim tizimi, milliy teatr va matbuot. Ularning ma’rifatparvarlik faoliyati, ilmiy va siyosiy qarashlari bugungi kunda ham yosh avlodni tarbiyalashda muhim manba bo‘lib xizmat qilmoqda. Turkistonda jadidchilik harakati qisqa muddatli bo‘lsa-da, mazmunan boy tarixiy davrni qamrab oladi. Bu harakat xalqni jaholatdan qutqarib, ilm-ma’rifat sari yo‘naltirdi, milliy uyg‘onish va istiqlol g‘oyalarini shakllantirdi. Bugungi kunda jadidlar merosi nafaqat tarixiy saboq, balki kelajak avlod uchun ma’naviy yo‘l-yo‘riqdir. Ularning orzusi — ozod, ma’rifatli, erkin fikrlovchi millat qurish — mustaqil O‘zbekiston hayotida o‘z aksini topmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Абдирашидов З. Исмоил Гаспринский ва Туркистонда жадидчилик. Марказий Осиёни тадқиқ қилиш Француз Институти, «ИФЕАКнинг иш хужжатлари» серияси, 2008. 299-сон.
2. Хуршид Даврон 19 январ — Жадидчилик ҳаракати сардафтари,буюк мутафаккир Маҳмудхўжа Беҳбудий таваллудининг 140 йиллиги bag’ishlab yozilgan maqoladan.

3. Маҳмудҳўжа Беҳбудий. «Бизни кемиргувчи иллатлар» мақоласи, «Ойина» журнали, 1915 йил. https://oyina.uz/kiril/teahause/38132.
4. Qosimov B. Milliy uyg‘onish – jasorat, marifat, fidoiylik. – Toshkent: Ma’naviyat, 2002.
5. Зиёев Х. Ўзбекистон мустақиллиги учун курашларнинг тарихи: (Милоддан олдинги асрлардан то 1991 йил 31 августгача). – Тошкент: Шарқ, 2001. 135-б.
6. Xasanov B., Karimov N. Jadid ma’rifatparvarlik xarakatining g‘oyaviy asoslari. – Toshkent: Ziyo, 2016.
7. Alimov M. Jadidlar va ularning milliy uyg‘onish harakatidagi o‘rni. – Toshkent: Ma’naviyat, 2013..

TURKISTON JADIDCHILIK HARAKATIDA MILLIY O‘ZLIK, ISTIQLOL VA DAVLATCHILIK G‘OYALARINING SHAKLLANISHI

Badalbayeva Ra’no Yulchiyevna
IIV 1-sonli Toshkent akademik litseyi bosh o‘qituvchisi
Badalbayeva Malika Yulchivoyevna
Toshkent shahar Yunusobod tumani
98-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi MMIBDO‘
Badalbayeva Maloxat Yulchiyevna
Renessans universiteti dotsenti
e-mail: maloxatbadalbayeva79@gmail.com
tel: +998946034369

***Annotatsiya**: Mazkur maqola Turkiston jadidchilik harakatida milliy o‘zlik, istiqlol va davlatchilik g‘oyalarining shakllanishini chuqur tahlil qiladi. Rossiya imperiyasining zulm siyosatiga qarshi jadidlarning ma’rifatparvarlik, yangi usul maktablari, milliy matbuot va teatr orqali xalqni uyg‘otish faoliyati, shuningdek, ularning ijtimoiy-siyosiy o‘rni va ibratli hayot yo‘llari bugungi Uchinchi renessans uchun poydevor sifatida yoritiladi. Dilnoza Jamolovaning fikrlari, ayollar ta’limidagi roli, “Turkiston Milliy Birligi” dasturi va 1920-yilgi Sharq xalqlari qurultoyi misolida milliy ozodlik kurashi ko‘rsatilgan. Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2024-yilgi tashabbuslari (jadidlar muzeyi, “Jadid” gazeta) va olimlar (Rajabov, Alimova) tadqiqotlari orqali jadid merosining dolzarbligi, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash zarurligi ta’kidlanadi.*

Kalit so‘zlar: *ibratli hayot, renessans, ijtimoiy-siyosiy faoliyat, ma’naviy meros, farovonlik orzusi, taraqqiyot, hayot maktabi.*

Ma’lumki, o‘tgan asr boshlarida, g‘oyat murakkab tarixiy sharoitda milliy ozodlik, uyg‘onish va taraqqiyot g‘oyalari bilan maydonga chiqqan ma’rifatparvar ajdodlarimiz o‘zlarining benazir salohiyati, noyob insoniy fazilatlari bilan fidoyilik va jasorat namunasini ko‘rsatdilar. Ularning tabarruk xotirasini e’zozlash, boy merosi, ibratli faoliyatini o‘rganish va targ‘ib etish bo‘yicha yurtimizda katta ishlarni amalga oshirmoqdamiz”. Sh.M.Mirziyoyev

Jadidlar faoliyatini o‘rganish 2024-yilda hayotimda tub burilish yasadi. Maqsadlarim mohiyati o‘zgardi. Yangi O‘zbekistonning kelajagi bo‘lib, ijtimoiy-birdamlik va milliy g‘ururni mustahkamlash orqali jamiyatda barqarorlik va farovonlikni ta’minlash, 3-renessansi uchun munosib poydevor bo‘lish va boshqalarni ham bunga faol chorlash,ilmiy salohiyatni oshirishga hissa qo‘shish bo‘ldi [1, b.1-2]. Mening orzularim, maqsadlarim va intilshlarimning yili bo‘ldi. Albatta, bunda jadidlarning faoliyati menga o‘rnak bo‘ldi [5, b.45-48]. Jadidlar mavzusi judayam chuqur, izchil o‘rganilishi kerak bolgan mavzu hisoblanadi. Sababi udavr bizga yaqin va ularning his-tuyg‘ulari va o‘ylari bizning odamlarnikiga judayam yaqin, o‘xshash[9, b.67-70].

Keyingi yillarda ma’rifatparvar bobolarimiz g‘oyalarini o‘rganish va rivojlantirish bo‘yicha davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilg‘or tashabbuslar ilgari surilmoqda [1, b.1], [10, b.1]. “Jadid” nomli gazeta faoliyatining yo‘lga qo‘yilishi, Buxorodagi tarixiy maskanda jadidlar merosi davlat muzeyini tashkil etishga oid amaliy ishlar buning yorqin dalilidir [1, b.1-2], [10, b.1]. Prezidentimiz tomonidan Markaziy Osiyo hududida jadidlarning milliy davlatchilik va mintaqaviy o‘ziga xoslik, fuqarolik jamiyatining rivojlanishiga qo‘shgan ulkan hissasini konseptual va tizimli asosda atroflicha o‘rganish dolzarb masala bo‘lib qolayotgani alohida qayd etilgan edi [1, b.1]. Aslida jadidлар mavzusi bir maqola, bir suhbat yoki bir kitobga sig‘maydigan, qamrovi keng, murakkab, og‘ir va iztirobli mavzu [2, 2-son, b.5-7]. O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix instituti direktorining ilmiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari, tarix fanlari doktori Dilnoza

Jamolova bilan suhbatimiz ayni shu mavzuda bo‘ldi [2, 2-son, b.1].

Taraqqiyparvar jadid bobolarimiz faoliyati, ularning ibratli ishlariga bugun katta e’tibor qaratilmoqda. Buning sabablarini nimalarda ko‘rasiz? Turkistonda XIX asr oxiri – XX asr boshida vujudga kelgan jadidchilik harakati milliy uyg‘onish, milliy ozodlik harakati edi [5, b.12-18], [6, b.22-28]. Rossiya imperiyasi tomonidan Turkistonni egallash uchun bosqinchilik hujumining boshlanishi, Qo‘qon xonligi hududida Turkiston general-gubernatorligining tashkil etilishi hamda ularning mintaqadagi zo‘ravonlik va zulm siyosati millat oydinlarini befarq qoldirmadi [5, b.33-37]. Ular o‘z atrofida bosqinchilarga qarshi kurashish uchun butun xalqni jipslashtirishga harakat qildi. Buning uchun dastlab, yangi usul maktablariga asos solib, diniy fanlar bilan birgalikda dunyoviy fanlarni o‘qitishni yo‘lga qo‘ydilar [3, b.2], [7, b.55-60]. Iste’dodli yoshlarni xorijga o‘qitish, ularni qishloq xo‘jaligi, iqtisod, moliya, tibbiyot va boshqa zamonaviy sohalar bo‘yicha yetuk mutaxassislar qilib tayyorlashni maqsad qildilar [7, b.65-70]. O‘quv qo‘llanmalar, darsliklar yaratdilar. Milliy teatr va milliy matbuotga asos soldilar [5, b.78-82]. Ular o‘z davrlarida millatga va jamiyatga katta naf keltirdilar. O‘ta chuqur bilim va salohiyatga ega bo‘lgan Vatan ozodligi uchun jon kuydirgan fidoyilarimiz 1919-1938-yillarda qatag‘on qilinmaganida edi, ular Uchinchi Renessansga asos solgan bo‘lardilar [2, 2-son, b.12-15]. Shu nuqtai nazardan, jadid bobolarimizga katta e’tibor qaratilyapti, ularning ilmiy merosini tadqiq qilish kun tartibidagi muhim vazifaga aylanmoqda [2, 2-son, b.18], [11, b.3].

– Taraqqiyparvar bobolarimiz faoliyati haqida gap ketganda, bu Sherali Turdiyev, Begali Qosimov, Naim Karimov, Boybo‘ta Do‘stqorayev va boshqa ko‘plab olimlar butun umrini sarflagan mavzu sanaladi [5, b.88]. Davlatimiz rahbarining 2024-yil 30-maydagi “Jadidlar merosi davlat muzeyini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori yuzasidan xulosamiz shuki, Turkiston jadidlari bo‘yicha nafaqat adabiyotshunoslar, balki tarixchi, pedagog, faylasuf, san’atshunos olimlar ham tadqiqotlar olib bordilar [1, b.1], [10, b.1]. Jumladan, Qahramon Rajabov, Dilorom Alimova, Ulug‘bek Dolimov, Sirojiddin Ahmad va boshqalar jadidchilikning vujudga kelishi, harakatning maqsad va vazifalari, jadid maktablari faoliyati, taraqqiyparvarlarning falsafiy, pedagogik qarashlari haqida asarlar yaratdilar [5, b.92], [6, b.40], [7, b.75], [8, b.110]. Davlatimiz rahbarining 2024-yil 30-maydagi “Jadidlar merosi davlat muzeyini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori muhim va foydali qaror bo‘lib, nafaqat Markaziy Osiyo, balki butun dunyodagi yagona muzey bo‘ladi deb hisoblayman [1, b.1-2], [10, b.1]. Yevropa, Osiyo davlatlarida ham taraqqiyparvarlik harakatlari bo‘lgan, ammo bu harakat namoyandalarini e’tirof etuvchi muzeylar tashkil qilinmagan. Jadidlardan bizga katta ilmiy va ma’naviy

meros qolgan. O‘ylaymanki, bu muzey jadidlarning Turkiston xalqi oldidagi buyuk xizmatlarini ifoda etuvchi, yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalovchi muzey bo‘ladi.

Bugun ma’rifatparvar bobolarimiz hayotiga oid ko‘plab ko‘rgazmalar, anjumanlar, forumlar o‘tkazilmoqda. Sizningcha, jadidchilik harakati tadqiqotlarida yana qaysi jihatlarga ko‘proq e’tibor qaratish kerak? Bugun jadidchilik harakati tarixini o‘rganish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan bir pallada olimlarimiz ko‘proq jadidlarning qatag‘on qilinishi masalasiga ahamiyat bermoqda. Ammo qatag‘ongacha bo‘lgan davrda jadidlarning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlarda tutgan o‘rni keng tadqiq qilinmayapti. Xalqimiz ularni faqat 1937-1938-yillardagi qatag‘onlarning qurboniga aylangan jabrdiydalar sifatida taniyapti. Jadid bobolarimiz har birining ibratli hayot yo‘li, ijtimoiy-siyosiy faoliyati, ilmiy va ma’naviy merosi bor. Bularni o‘rganish kerak. DXX arxivida saqlanayotgan jadidlarning tergov hujjatlari asosida ikki-uch betlik ommabop maqolalar yozish bilan ish bitmaydi. Ularning Turon-Turkiston xalqi oldidagi xizmatlarini xalqqa yetkazish kerak. Buning uchun O‘zbekiston Milliy arxivi hujjatlarini o‘rganish kerak bo‘ladi. O‘zbekiston Milliy kutubxonasi va Turon kutubxonasidagi saqlanayotgan asarlarini, ular chiqargan gazeta va jurnallarni juda puxta, hijjalab o‘qish va tadqiq qilish kerak bo‘ladi. Biz hali jadidlarimizni to‘liq o‘rganib bo‘lmadik. Ularning ilm-fan oldidagi xizmatlarini, milliy davlatchilik tarixida tutgan o‘rinlarini tarixiy nuqtai nazardan munosib bahosini bermadik.

Ma’lumki, sizning faoliyatingizda ma’rifatparvar ayollarning taqdiri, ularning maqsad-muddaolari ham keng o‘rin egallaydi. Jadidlar harakatida ayol-qizlarning o‘rni va ahamiyati qanday bo‘lgan? Turkiston jadidlarining asosiy maqsadi ayollarning ham dunyoviy bilimlarni egallashlariga yo‘l ochib berish edi [6, b.50], [9, b.120]. Turkiston jadidlarining otasi Mahmudxo‘ja Behbudiy “Til masalasi” maqolasida “Taraqqiy etgan millatlarni onalari o‘qitar ekan, biz avval onamizni o‘qutub, anga til o‘rgatmoqimiz kerak. Chunki bizni ilm va tilsizligimiz alardandir”, degan bo‘lsa [3, b.3], jadidchilik harakatining yirik namoyandasi Abdurauf Fitrat o‘zining “Oila yoki oilani boshqarish tartiblari” kitobida “Modomiki, ilm olish har bir odam uchun diniy va dunyoviy majburiyatlarga kirar ekan, ayollar ham ilm o‘rganishlari shartdir”, deb yozadi [4, b.20-22].

Jadidlar xotin-qizlarning ilm olishlari kerakligi haqidagi qarashlarini targ‘ibot qilish bilan cheklanib qolmadilar. Balki o‘zlari yangi usul maktablarida qizlarni o‘qitish bo‘yicha dastlabki qadamlarni tashladilar [7, b.85]. Shunday maktablardan biri Abduqodir Shakuriy maktabi bo‘lib, qizlar uchun ham sinflar tashkil etilgan [7, b.90]. Bunday maktablar Turkistonning boshqa shaharlarida ham ochila boshlagan. Toshkentdagi Eshonxo‘ja Xonxo‘jayev yangi usul maktabida

3 nafar qiz, Sobir Rahimovning maktabida 15 nafar qiz o‘qigan. Qo‘qon shahrining G‘alchasoy mahallasida Muhammadjon Xoliqiy 1913-yilda qizlar maktabi tashkil qilgan. Abdulla Avloniy maktabida ham qizlar o‘g‘il bolalar bilan yonma-yon o‘tirib, tahsil olgan.

Turkiston jadidlari ayollarning bilim olishlari va jamiyatning teng huquqli a’zosi sifatida o‘zlariga munosib ish bilan shug‘ullanishlari uchun imkoniyatlar yaratishni o‘z oilalaridan boshlaydilar. Jumladan, samarqandlik maktabdor Abduqodir Shakuriy qizlar uchun tashkil etgan yangi usul maktabida xotini Roziyaxonim muallimlik qilgan bo‘lsa, Abdurauf Fitrat xonadonidagi adabiy va ma’rifiy muhit singlisi Mahbuba Rahim qizining shoira bo‘lib yetishishini ta’minlagan. Qo‘qonlik jadid Muhammadjon Xoliqiyning singlisi Soliyaxon Abduxoliq qizi esa akasining maktabida muallimalik qilgan.

Turkistonlik ziyoli ayollarning ko‘zga ko‘ringan yorqin vakilalaridan biri, jadid shoirasi Nozimaxonim (1870-1924) bo‘lib, o‘z davrining madaniyatli, ilg‘or qarashli ayoli sanalgan [9, b.130-135]. Nozimaxonim erkparvarlik g‘oyalarining targ‘ibotchisi edi. Bu hol uning dastlabki maqola va she’rlaridayoq aniq ko‘rinadi. Uning 1904 yilda “Turkiston viloyatining gazeti”da bosilgan maqolalaridan biri “Insonga qancha erk darkor?” deb nomlangan edi [9, b.140]. So‘ng ketma-ket mahalliy matbuot sahifalarida “Xotinlar huquqiga oid”, “Ilm va maorif borasida bir-ikki so‘z” kabi maqolalari chop etilgan. Maqolalar mazmuni, ruhi bilan Turkistonda ozodlik g‘oyalarining yoyilishi, xotin-qizlar o‘rtasida demokratik intilishning kuchayishiga xizmat qilgan.

Jadidlar faoliyatining keyingi davrida iste’dodli qizlarni xorijga o‘qitish bo‘yicha ham katta ishlar amalga oshirildi. Maryam Sultonmurodova, Xayriniso Majidova kabi iqtidorli o‘zbek qizlari Germaniyaning oliy o‘quv yurtlarida tahsil olib qaytganlar. Jadidlar va milliy istiqlol harakati vakillari, ya’ni sho‘rolar davrida “bosmachilar” deb qoralangan, aslida o‘z yurti ozodligi uchun kurashgan harakat vakillarining o‘rtasidagi munosabatlar qanday edi? Aslida Jadidlar Rossiya imperiyasining bosqinchilik va mustamlakachilik zulmiga qarshi kurashgan qo‘rboshilar bilan juda yaqin, ammo yashirin aloqada bo‘lganlar [8, b.45-50]. Jadidlar milliy ozodlik harakatining g‘oyaviy kurashchilari bo‘lsa, qo‘rboshilar qurol bilan erk uchun, istiqlol uchun kurashdilar [8, b.52-55]. 1920-yil Bokuda bo‘lib o‘tgan Sharq xalqlari birinchi qurultoyida Turkistondan Munavvarqori Abdurashidxonov, Hoji Safo Jo‘raboyev, Turor Risqulov, Qudratillo Yunusiy, Toshpo‘latbek Norbo‘tabekov, Obidjon Mahmudov, Buxorodan Rajab Muhammedov qatnashganlar [8, b.120-125]. Qurultoy davrida turk generali Anvar posho bilan uchrashib, sovetlarga qarshi istiqlolchilik harakatlarini qo‘llab-quvvatlash, qo‘rboshilar bilan birlashish kerakligi haqida suhbatlashganlar [8,

b.128-130].

1921-yil 30-iyulda Buxoro shahrida jadidlarning “Turkiston Milliy Birligi” tashkiloti tuziladi [8, b.135]. Tashkilotning dasturida istiqlolga erishish, demokratik jumhuriyat (respublika) tuzish, milliy qo‘shin (armiya) tuzish, iqtisodni boshqarish, temir yo‘llar, sug‘orish inshootlari faoliyatini Turkiston istiqloli manfaatlariga muvofiq tarzda tashkil etish, maorifni zamonaviy darajaga ko‘tarish va Yevropa madaniyati bilan tanishishni Rossiyaning vositachiligisiz yo‘lga qo‘yish, maktablarni tashkil etish, tabiiy boyliklardan foydalanish, milliy masalalarni haletishda yerli aholining milliy manfaatlarini e’tiborda tutish va ko‘zlash, diniy erkinlik berish, dinni dunyoviy ishlarga aralashtirmaslik kabi maqsad va vazifalar belgilab olinadi [8, b.140-145]. “Turkiston Milliy Birligi” tashkiloti a’zolari bilan Shahrisabz viloyatidagi Jabbor qo‘rboshi, Samarqand yaqinidagi Bahrombek qo‘rboshilar yaqin aloqada bo‘lganlar [8, b.150]. Bu kabi misollarni ko‘plab keltirish mumkin.

Ma’rifatparvar bobolarimiz harakati, faoliyati, ularga oid tadqiqotlarni yoshlarga ko‘proq yetkazish uchun nimalarga e’tibor qaratish kerak, deb o‘ylaysiz? Bugun jadidchilik harakati bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilmoqda, ijodkor ziyolilar, olimlar tomonidan asarlar va rejissyorlar tomonidan milliy kinofilmlar yaratilmoqda. Tarix instituti bu mavzuda tadqiqot olib borish, yig‘inlar o‘tkazish bo‘yicha yetakchilik qilyapti [11, b.8-10], desak adashmagan bo‘lamiz. Jumladan, Tarix instituti ilmiy xodimlari tomonidan “jadidlar.uz” platformasining yaratilishi jadidchilik harakatining vujudga kelishi, ularning ilmiy merosi, ijtimoiy-siyosiy faoliyati, jadid matbuoti, Turkiston muxtoriyati tarixi haqida yetarlicha bilim olish imkonini beradi [11, b.12-15].

Xulosa shuki, jadidlar merosini yoshlarga ko‘proq yetkazish uchun jadidlarning asarlari va jadidchilikka bag‘ishlangan asarlarni minglab nusxada chop etish, jadidlar haqida multfilmlar, badiiy va hujjatli filmlar hamda seriallar yaratish, shahar va qishloqdagi ko‘chalarga, maktablarga, oliy ta’lim muassasalariga ularning nomini berish, ular tug‘ilib o‘sgan shahar va qishloqlarga yodgorlik lavhlari o‘rnatish, maktab darsliklarida jadidchilik tarixiga ko‘proq soatlar ajratish, oliy ta’lim muassasalari talabalari uchun o‘qitiladigan O‘zbekiston tarixi fanida jadidlarni alohida mavzu sifatida o‘qitish, tarix yo‘nalishi talabalariga jadidchilik tarixini maxsus fan sifatida o‘qitishni joriy qilish kerak, deb hisoblaymiz. Milliy o‘zlik, milliy ruh va birdamlikni jadidlarning ibratli hayot yo‘li va asarlari orqali yetkazish, ularga munosib bo‘lishga o‘rgatish keng jamoatchilikning muhim vazifasiga aylanishi kerak.

Adabiyot va internet manbalari ro‘yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jadidlar merosini o‘rganish masalalari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2024. (Prezidentning 2024-yil 30-maydagi “Jadidlar merosi davlat muzeyini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori).

2. Jamolova D. Turkiston jadidchiligi: tarixiy va pedagogik ahamiyati // O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix instituti xabarnomasi. – Toshkent, 2023. 2-son.

3. Behbudiy M. Til masalasi // Turkiston viloyatining gazeti. – 1913. (Arxiv nusxasi O‘zbekiston Milliy kutubxonasida saqlanadi).

4. Fitrat A. Oila yoki oilani boshqarish tartiblari. – Buxoro: 1910. (qayta nashr: Toshkent: Fan, 2015).

5. Rajabov Q. Turkiston jadidchiligi harakati. – Toshkent: Fan, 2018.

6. Alimova D. Jadidlar va milliy uyg‘onish. – Toshkent: O‘zbekiston, 2020.

7. Dolimov U. Jadid pedagogikasi falsafasi. – Toshkent: Universitet, 2019.

8. Ahmad S. Turkiston jadidlarining siyosiy faoliyati. – Toshkent: Tarix instituti, 2022.

9. Nozimaxonim. Tanlangan asarlar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2005. (“Insonga qancha erk darkor?” maqolasi).

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy sayti. Jadidlar merosi davlat muzeyi haqida. URL: https://president.uz/uz/lists/view/6789 (2024-yil qarori; 22.02.2026 holatiga ko‘ra).

11. Jadidlar.uz platformasi. O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix instituti. URL: https://jadidlar.uz

12. O‘zbekiston Milliy arxivi. Jadidlar tergov hujjatlari katalogi. URL: https://lex.uz/docs/ (DXX arxiv materiallari).

"Witnesses of Enlightenment: The Jadids – Victims of Repression"

Otaboyeva Zukhra Oktam qizi
2nd-year student, Faculty of Social-Humanitarian and Exact Sciences, History Department, Mamun University
Scientific Supervisor: DSc., Prof. **S. M. Matkarimova**

Abstract: *This article examines the Jadid movement as a powerful phenomenon of national enlightenment in Turkestan at the beginning of the 20th century and highlights the tragic fate of its representatives during the years of Soviet repression. The Jadids emerged as progressive intellectuals who sought to awaken the nation through modern education, science, literature, journalism, and cultural reform. They viewed enlightenment as the primary path toward national progress and liberation. However, their ideas and activities were perceived as a threat by the Soviet regime, which led to mass persecutions, false accusations, imprisonment, and executions in the 1929–1938 repression period. The article emphasizes that the repression of the Jadids was not only the destruction of individuals but also a severe blow to the nation's intellectual and spiritual development. Despite this, the ideals of the Jadids—knowledge, free thought, and national consciousness—have survived and continue to influence contemporary society. The study concludes that the Jadids remain enduring symbols of enlightenment and serve as moral and intellectual guides for future generations.*

Keywords: *Jadid movement, enlightenment, repression, national awakening, intellectual heritage, Soviet totalitarianism, education, free thought*

At the beginning of the 20th century, a long darkness had descended over the skies of Turkestan. The colonial policy was gradually attempting to extinguish the nation's language, religion, and culture, while the old schools no longer met the demands of the time. In this environment, the desire for national awakening flared in the hearts of the people. Out of this desire was born the Jadid movement — a spiritual uprising of a new generation striving for enlightenment, knowledge, and progress. The word "Jadid" is derived from Arabic, meaning "new." But this "new" was not merely in words — it was a real renewal: schools teaching with modern methods, contemporary science, press, theater, and cultural reforms aimed at preserving national identity. At the forefront of this movement stood courageous and selfless intellectuals — educators of the nation. For the Jadids, the pen was a weapon, and words were a shield. They deeply understood that awakening the nation required first awakening the mind. Planting the seeds of knowledge into

hearts, lighting a candle in the darkness — this became their life mission. The movement embodied not only cultural reforms but also ideas of national liberation. Therefore, Jadidism in our history is not just a period of reforms, but a great chapter of national awakening.

The 1930s descended upon Central Asia like dark clouds. As the Soviet regime strengthened, the government placed every thought, every breath of the people under control. Words like “patriot” or “enlightener” became dangerous labels. The massive repression policy of 1929–1938 destroyed the fates of thousands of intellectuals, religious figures, and nationally conscious individuals. Signs of this period appeared already in the late 1920s: first, Jadid activities were condemned as “national bourgeois nationalism,” articles were banned, and plays were removed from theaters. Then harsher measures followed — house searches, false accusations, and the infamous branding as “enemies of the people.”

For the Jadids, this was not just a personal tragedy — it was a blow to the scientific and spiritual future of the nation. The darkness of that era forced national thought to live under fear for decades. Yet, despite repression and prohibitions, their dream — the awakening of the nation — continues to live in the hearts of today’s generation. Among those great Jadids were men whose lives and works left an indelible mark on the destiny of our people. They devoted their lives to the idea of national awakening, mobilizing all their strength to pull the country out of ignorance and backwardness and to save the nation from the swamp of heedlessness.

Mahmudkhoja Behbudiy — an enlightener, a major figure of the Jadid movement, leader of the region’s Jadids, founder of new-method schools, author of textbooks, and a great human being. He made significant contributions to pedagogy, journalism, publishing, politics, dramaturgy, and publicism. Behbudiy established the first theater in Turkestan and created the first alphabet textbook, “Risolayi asbobi savod” (1905). His play “Padarkush” (The Parricide) became the first drama in Uzbek literature. He foresaw its enormous impact on the public consciousness. He also founded the first library in Turkestan and established the “Behbudiya Publishing House,” which was the first to publish school textbooks in the Turkic language free of charge. Despite facing bans and persecution, exile from many cities, and dismissal from his posts by Soviet authorities, Behbudiy never abandoned his great goal. However, on March 25, 1919, in Shahrisabz, he was arrested by Emirate soldiers and mysteriously executed in Qarshi. [1]

Abdulla Qodiriy — founder of the Uzbek school of novel-writing, a prominent Jadid figure, journalist, powerful lyricist and satirist, known as the “king of feuilletons,” a truth-seeker and justice-lover. He enriched Uzbek literature with his

novels, dramas, and stories. His works, through satire, exposed the corruption and vices of officials of his time. Like other Jadids, he lived under government persecution. Through his stories, dramas, and novels, he tirelessly used his pen to influence the nation's consciousness and lead people toward enlightenment. Unfortunately, on December 31, 1937, he was arrested. During interrogation, Qodiriy bravely declared:

"I reject all the accusations against me. In the path of truth, I fear neither punishment nor torture. If you want to shoot me, I will stand with my chest open."

After prolonged interrogations and without any proven guilt, on October 4, 1938, he was executed as an "enemy of the people." [2]

Is'hoqxon Ibrat — a major Jadid figure, one of the founders of new-method and Russian-native schools, linguist, famous calligrapher, historian, supporter of modern ideas, and contributor to publishing. He created the first multilingual dictionary of Turkestan — "Lug'ati sitta al-sina" (Dictionary of Six Languages: Arabic, Persian, Hindi, Turkic, Sart [Uzbek], and Russian). He also researched the history of writing, from primitive pictographic scripts to the writing systems of the 20th century. For rural children, he opened two new-method schools free of charge. He built a public bath for his villagers, purchased a lithographic press at his own expense, and printed textbooks and books free of charge in his "Is'hoqiya Printing House." During his travels abroad, he brought back a movie camera, a photo camera, and a refrigerator, while studying new teaching methods and inventions. However, in March 1937, he was arrested along with a chest of his books and imprisoned by the Soviets. Within five to six months, he died in prison. [3]

For the Jadids, this was not just a personal tragedy — it was a strike at the nation's scientific and spiritual future. That dark period forced national thought to live in fear for decades. Yet despite repression, their dream of national awakening still lives on in our generation's hearts. Nearly a century has passed. The repression destroyed the Jadids physically, but their ideas remained unextinguished. The era they dreamed of — knowledge, enlightenment, and national awakening — is now in our hands. Every school textbook, every newspaper in our mother tongue, every free thought is the fruit of the path for which the Jadids gave their lives. [4] In conclusion, the Jadids remain for us not only historical figures but also guiding stars. Their lives teach us one truth: the true wealth of a nation is its educated, conscious, and patriotic youth. They sacrificed their lives for this wealth, while we must preserve and enrich it. The memory of the Jadids, who gave their lives under the darkness of repression, is an eternal light in the nation's heart. The path they

showed — free thought, independent reasoning, knowledge, and enlightenment — remains the way forward. If we do not stray from this path, their sacrifice will not be in vain. As they themselves taught us: “One candle can defeat a thousand darknesses.” With independence, the late President Islam Karimov immortalized the memory of the Jadids: a museum was opened in Tashkent, the “Martyrs’ Alley” was established, and many memorial works were carried out.

REFERENCES:

1. The Jadids Collection. Mahmudkhoja Behbudiy — Tashkent: Youth Publishing House, 2022 – p.156

2. The Jadids Collection. Abdulla Qodiriy — Tashkent: Youth Publishing House, 2022 – p.160

3. The Jadids Collection. Is’hoqxon To‘ra Ibrat — Tashkent: Youth Publishing House, 2022 – p.180

4. www.jadid.uz

THE DEVOTED LEADER OF NATIONAL AWAKENING: MAHMUDKHOJA BEHBUDIY AND THE TRAGEDY OF REPRESSION

First-year student of the History Department at Mamun University,
Otaboyeva Mashhura O‘ktamovna.
Sientific superviser:PhD,**Rahmonova Shirin Qutlimurotovna**

Annotation: *This article provides a scholarly and analytical examination of the educational, socio-political, and cultural activities of Mahmudkhoja Behbudi, one of the leading representatives of the Turkestan Jadid movement. The study extensively analyzes his reformist efforts in establishing new-method schools, his contribution to the development of national press, his innovations in dramaturgy, and his role in promoting the ideas of national statehood. Furthermore, the repressive policies faced by the Jadids under colonial rule and later Soviet totalitarianism are evaluated on the basis of historical sources. The article interprets Behbudi’s legacy as an essential component of the national modernization process and examines his activities in close connection with contemporary processes of national revival.*

Keywords: *Jadidism, national awakening, enlightenment, new-method schools, national press, dramaturgy, Islamic modernism, Turkestan Autonomy, repression policy, national identity, modernization, concept of statehood.*

Introduction. The 1930s became one of the darkest pages in our history. During these years, thousands of intellectuals, teachers, and artists were repressed under the false accusation of being “enemies of the people.” Among them, the Jadids occupied a special place. The Jadids were devoted individuals who sacrificed their lives for knowledge, enlightenment, and progress. They took up the pen and ideas as their primary weapons to awaken the nation. They opened new-method schools, wrote textbooks, published newspapers and journals, and sought to transform public consciousness and worldview. However, their movement faced the rigid control of colonial policy and later Soviet authority. The Jadids’ aspirations for national awakening and independence were perceived as dangerous by the central government. As a result, many of them were unjustly arrested, exiled, or executed.

One of the brightest representatives of these devoted Jadids was Mahmudkhoja Behbudi. He was not only one of the founders of the Jadid movement but also a great educator, playwright, and journalist who sowed the seeds of enlightenment in the hearts of the people. Behbudi dedicated his entire life to the future of the nation and sacrificed himself for this cause. His activities, works, and tragic fate remain both an example and a warning for today’s generation. The President of the Republic of Uzbekistan, Shavkat Mirziyoyev, described Behbudi as “a hero of our nation’s struggle for enlightenment,” words that continue to serve as a source of inspiration[3].

Mahmudkhoja Behbudi was born in 1875 in the village of Baxshitepa near Samarkand. Raised in a religious environment, he initially studied at a madrasa, memorized the Qur’an, and mastered Arabic and classical literature. His uncle, Mulla Odil, played a significant role in nurturing his thirst for knowledge and courage. In 1903–1904, Behbudi traveled to Kazan and Ufa, where he established contacts with Tatar intellectuals and became closely acquainted with the principles of new-method schools. Together with his disciples—Siddiqiy Ajziy, Abduqodir Shakuriy, and Hoji Muin—he opened Jadid schools in the villages of Halvoyi and Rajabamin, later relocating them to areas near Samarkand.

To advance national education, Behbudi authored several important textbooks:

Risolai asbobi savod (1904)

Muntaxabi jug‘rofiyai umumiy (1906)

Kitob-ul-atfol (1908)

Amaliyoti islom (1908)

Tarixi islom (1909)

Behbudi also made a remarkable contribution to theater and dramaturgy. In 1911, he wrote Padarkush (“The Parricide” / “The Fate of an Uneducated Son”), considered the first example of modern Uzbek drama and the foundation of national tragedy. The play exposed the destructive consequences of ignorance and emphasized the necessity of national awakening. It was staged on January 25, 1914, in Samarkand and later performed in Tashkent[1]. He was equally active in publishing and library organization. In 1908, he founded the “Behbudiya” library (Qiroatxonayi Behbudiya), which contained more than 600 books, brochures, newspapers, and journals—making it one of the richest educational centers of its time. During his travels in 1914 to the Caucasus, Crimea, Turkey, and Europe, he collected numerous publications to enrich the library’s holdings. Beginning in April 1913, he published the newspaper Samarqand, and from August 1913, the journal Oyina. The newspaper was issued twice a week in Uzbek and Tajik, while the journal gained readership beyond Turkestan[1].On March 25, 1919, Behbudi was suddenly arrested in Shahrisabz. After severe persecution and accusations, he was taken to Qarshi and executed under unclear circumstances. The details of his trial and sentence remain historically ambiguous. However, the intention was evident—to silence the enlightener who had awakened the nation. News of his death arrived late, and all of Turkestan mourned the loss.These facts demonstrate that Behbudi’s activities were not limited to enlightenment alone; rather, he pursued a comprehensive program aimed at the modernization of Turkestan society. His life and work served a unified strategic goal through three main directions: educational reform, the formation of social consciousness through the press, and cultural awakening.

Firstly, the establishment of new-method schools was not merely a pedagogical experiment but an attempt to create an alternative model to the traditional education system. While old schools focused primarily on religious instruction and largely ignored secular sciences, Behbudi introduced subjects such as geography, history, and mathematics into the curriculum. His objective was not simply to eliminate ignorance but to integrate Muslim society into the global process of progress. Thus, his textbooks constituted not only methodological guides but also the intellectual foundation of national modernization.

Secondly, the drama Padarkush should be evaluated as a tool of social critique. The tragedy depicted in the play represents not only the downfall of a single family but the crisis of an entire society. Through this work, Behbudi elevated theater from aesthetic art to an instrument of social reform. He advanced the idea that “ignorance leads to national catastrophe,” transforming dramaturgy

into an ideological weapon of enlightenment.Today, Behbudi's legacy is honored at the state level. On September 30, 2020, by presidential decree, Mahmudkhoja Behbudi—along with Abdulla Avloni and Munavvarqori—was awarded the "For Great Services" order. This recognition is a worthy tribute to his unparalleled contribution to awakening the nation through enlightenment[2].

Beyond pedagogy and literature, Behbudi was also an ideological leader of the Turkestan Jadid movement, advocating for national statehood and self-governance. After the February Revolution of 1917, he actively participated in the political mobilization of Turkestan Muslims and addressed the issue of national autonomy through the press.During the establishment of the Turkestan Autonomy, the Jadids sought to formulate the first conceptual foundations of national statehood. Through publications such as Hurriyat and Samarqand, Behbudi discussed the political future of Turkestan, parliamentary governance, and national representation[4].

His religious views differed from traditional clericalism. Behbudi advocated harmonizing Islam with modern science and social progress. In Amaliyoti islom, he connected religious practice not only with personal spiritual purification but also with social responsibility. Jadids aimed to form a new generation of Muslim intellectuals by combining religious education with secular sciences—a process identified as Islamic modernism in Turkestan[5]. Behbudi interpreted the Qur'an and Hadith as sources that should serve social development and viewed ignorance not only as religious illiteracy but also as backwardness in secular knowledge.One of Behbudi's greatest achievements was shaping a new social consciousness through national press. From 1913 onward, he published the newspaper Samarqand and the journal Oyina. The pages of Oyina featured articles on language unity, women's education, national solidarity, and the reasons behind European progress. These publications significantly contributed to the formation of a new national identity in Turkestan society[6].

Conclusion. Mahmudkhoja Behbudi's activity constitutes an integral part of the educational and political transformations that marked a turning point in the history of Turkestan. He was not only an educator and playwright but also a strategic intellectual who played a crucial role in shaping national consciousness and the concept of statehood. His educational reforms through new-method schools aimed to equip society with modern knowledge, while his journalistic work accelerated the processes of national awareness and self-identification.Through Padarkush, he artistically demonstrated that enlightenment is the primary condition for national progress. His political views positioned him among the leading advocates of national statehood.His tragic fate reflects the complexity and

danger surrounding the Jadids' struggle for free thought and national independence. Nevertheless, the enlightenment movement initiated by the Jadids continues with renewed meaning in independent Uzbekistan. Behbudi's scholarly, literary, and social legacy remains a vital source of inspiration for contemporary processes of national development and spiritual renewal.

LISTS OF USED LITERATURE:

1. Jadidlar to'plami : Mahmudxo'ja Behbudiy .
2. www.google.com.
3. www.jadid.uz
4. Qosimov B. Jadidchilik harakati tarixi. – Toshkent: Sharq, 2004.
5. Karimov N. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2005.
6. Sharafiddinov O. O‘zbek dramaturgiyasi tarixi. – Toshkent: Fan, 1976.

TURKISTON JADIDLARINING TA'LIM ISLOHOTLARI VA YANGI USUL MAKTABLARI

Usmonova Husnida Xudoberdi qizi
Farg‘ona davlat universiteti 2-bosqich talabasi
husnidausmonova36@gmail.com
+998953461133

Annotatsiya*. Mazkur maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda yuzaga kelgan jadidchilik harakati vakillarining ta'lim sohasidagi islohotlari, yangi usul maktablarini tashkil etishdagi faoliyati va milliy ma'rifat taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi tahlil qilinadi. Jadidlarning an'anaviy maktab va madrasalardagi ta'lim tizimini yangilashga qaratilgan pedagogik qarashlari, darsliklar yaratish, dunyoviy fanlarni joriy etish, o‘qitish metodikasini isloh qilish borasidagi amaliy ishlari tarixiy manbalar asosida yoritiladi. Yangi usul maktablarining jamiyat modernizatsiyasidagi o‘rni, milliy uyg‘onish jarayoniga ta'siri va bugungi O‘zbekiston ta'lim siyosati bilan bog‘liqligi ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Maqola jadid merosining zamonaviy dolzarbligini ko‘rsatishga qaratilgan.*

Kalit so‘zlar: *Jadidchilik, Yangi usul maktablari, Ma'rifatparvarlik, Ta'lim islohoti, Milliy uyg‘onish, Pedagogik yangilanish, Dunyoviy fanlar, Turkiston Ijtimoiy hayoti, Zamonaviy ta'lim siyosati.*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Jadidlar g‘oyalari yangi O‘zbekiston strategiyasi bilan har tomonlama uyg‘un va

hamohang”dir. Ularning ilm-fan, ta’lim va ma’rifat yo‘lidagi kurashi bugungi kun ta’lim islohotlarining asosiy yo‘nalishlarini belgilab berdi. Prezidentimizning so‘zlariga ko‘ra, jadidlar g‘oyat murakkab va qiyin sharoitda bilim va ma’rifat tarqatish, ta’lim-tarbiya sohasini isloh qilish orqali xalqni yangi hayotga tayyorlaganlar. Bu merosni chuqur o‘rganish va targ‘ib etish orqali yosh avlod bugungi tinch va erkin hayotning qadrini yanada chuqurroq anglaydi. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Turkiston mustamlakachilik zulmi ostida iqtisodiy, madaniy va ilmiy taraqqiyotdan ortda qolgan edi[1.130]. An’anaviy maktab va madrasalarda ta’lim asosan diniy matnlarni yodlashga asoslangan bo‘lib, davr talablariga javob bermasdi. Bunday sharoitda jamiyatni yangilash, xalqni jaholatdan chiqarish va milliy o‘zlikni saqlash dolzarb masalaga aylandi. Ana shu zarurat jadidchilik harakatining yuzaga kelishiga sabab bo‘ldi. Jadidchilikning nazariy asoslari qrim-tatar ma’rifatchisi Ismoil G‘aspirali faoliyati bilan bog‘liq. Uning “usul-i jadid” – yangi o‘qitish usuli musulmon xalqlarini zamonaviy bilimlar bilan qurollantirishga qaratilgan edi. Bu g‘oya Turkiston ziyolilari tomonidan qabul qilinib, mahalliy sharoitga moslashtirildi va ta’lim orqali jamiyatni uyg‘otishga yo‘naltirilgan keng ma’rifiy harakatga aylandi.

Turkiston jadidlarining ta’lim sohasidagi faoliyati. Turkiston jadidlari orasida Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat kabi ma’rifatparvarlar yetakchi o‘rin tutadi. Ular ta’limni millat taraqqiyotining bosh omili deb bildilar va “maktab – millatni qutqaruvchi kuch” degan g‘oyani ilgari surdilar. Siyosiy va iqtisodiy islohotlardan oldin inson tafakkurini o‘zgartirish zarur edi, bu esa faqat zamonaviy ta’lim orqali amalga oshardi. Yangi usul maktablari jadidlarning eng muhim amaliy tashabbusi bo‘ldi. Bu maktablar mazmun, metodika va tashkiliy jihatdan eski maktablardan keskin farq qilardi. Savod chiqarish jarayoni tezlashtirildi: harflarni yodlash o‘rniga tovush (savtiya) usuli joriy etildi, bu bolalarga qisqa muddatda o‘qish-yozishni o‘rgatdi. Darslar sinf tizimida, jadval asosida o‘tilar, o‘quvchilar yosh va bilim darajasiga qarab guruhlarga ajratilardi. Jadid maktablarida diniy bilimlar bilan bir qatorda matematika, geografiya, tarix, tabiiyot, ona tili va adabiyot kabi dunyoviy fanlar o‘qitildi. Bu o‘quvchilar dunyoqarashini kengaytirib, real hayotga tayyorladi. Mustaqil fikrlash, savol berish va tahlil qilish ko‘nikmalari shakllantirildi. Darslarda xarita, globus, rasmlar kabi ko‘rgazmali vositalar qo‘llanildi. Jadidlar yangi darsliklar va o‘quv qo‘llanmalarini yaratdilar[2.156]. Bu kitoblar sodda tilda yozilib, axloqiy tarbiya, vatanparvarlik, ilmga muhabbat va milliy o‘zlik g‘oyalarini singdirdi. Avloniy tarbiyani millat kelajagi bilan bog‘lasa, Behbudiy maktabni jamiyat islohining asosiy instituti deb bildi. Fitrat ilm-fan va tafakkur erkinligini milliy taraqqiyot sharti deb hisobladi.

Yangi usul maktablarining yoyilishi va ta’siri .Yangi usul maktablari qisqa vaqt ichida Turkistonning ko‘plab shahar va qishloqlarida yoyildi. Toshkentda 1919-yilda 16 ta, Qo‘qonda 24 ta, Andijonda 34 ta shunday maktab faoliyat ko‘rsatdi. Ular atrofida teatr, matbuot, kutubxona va madaniy to‘garaklar shakllanib, keng ma’rifiy muhit vujudga keldi. Jadidlar gazeta-jurnallari va sahna asarlari orqali xalqni uyg‘otdi va zamonaviy fikrlashga chorladi. Shunday qilib, yangi usul maktablari nafaqat ta’lim maskani, balki milliy uyg‘onish markazlariga aylandi. Jadidlar ayollar ta’limiga alohida e’tibor qaratdilar. Jamiyat taraqqiyotini ayollar savodxonligisiz tasavvur qilib bo‘lmasligini ta’kidlab, qizlar maktablarini ochishga harakat qildilar. Ilm olish erkak va ayol uchun barobar farz deb hisobladilar. Bu o‘sha davr uchun jasoratli qarash edi va ma’rifatli oila – ma’rifatli jamiyat poydevori ekanligini ko‘rsatdi. Turkiston jadidlarining ta’lim islohotlari va yangi usul maktablari mavzusiga qo‘shimcha ma’lumotlar quyidagicha. Jadidchilik harakati XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston jamiyatida chuqur iz qoldirdi, chunki ular nafaqat ta’lim tizimini yangilashga, balki xalqni jaholatdan chiqarish, milliy o‘zlikni anglash va mustamlakachilik zulmiga qarshi turishga intildilar[3.110].

Ismoil G‘aspirali 1884-yilda Qrimning Boqchasaroy shahrida birinchi “usuli jadid” maktabini ochdi va bu tajriba tez orada Turkistonga yetib keldi. 1893-yilda Buxoro amiri Abdulahadxon ruxsati bilan Mo‘minxo‘ja Vobkendiy va Domla Fozil sa’y-harakati bilan Buxoroda dastlabki yangi usul maktabi ochildi. O‘zbekiston hududida keyingi maktablar 1898-yilda Qo‘qonda Salohiddin domla va Samarqandda paxta zavodi huzurida tatar muallimlari tomonidan tashkil etildi (o‘sha paytda ularni “no‘g‘oy maktab” deb atashgan). 1900-yildan boshlab Toshkentda Munavvarqori Abdurashidxonov, Samarqandda Abduqodir Shukuriy (Shakuriy) kabi yetakchi jadidlar yangi usul maktablarini ochdilar. Andijon, Namangan, Xiva va boshqa shaharlarda ham shunday maktablar paydo bo‘ldi[4.78].

Yangi usul maktablari soni tez o‘sdi, 1911-yilda Turkistonda 63 ta yangi usul maktabi bo‘lib, ularda 4106 nafar bola tahsil olayotgan edi. Toshkentning o‘zida 24 ta maktabda 1740 o‘quvchi o‘qigan. 1917-yil boshlarida o‘lkada 100 ga yaqin jadid maktablarida 5000 dan ziyod o‘quvchi bor edi. Toshkentning eski shahar qismida 1919-yilda 16 ta, Qo‘qonda 24 ta, Andijonda 34 ta yangi usul maktabi faoliyat ko‘rsatgan. Bu maktablar asosan xususiy bo‘lib, ko‘pincha muallimning uyida yoki bo‘sh hovlida joylashgan, maxsus bino qurilmagan. Chor hukumati ularni xavfli deb hisoblab, 1911-yilda tatar muallimlarini ishdan bo‘shatib, bir necha o‘nlab maktabni yopdirgan[5.80]. O‘qitish usuli tubdan o‘zgardi eski maktablardagi yakkama-yakka o‘qitishdan sinf tizimiga o‘tildi, tovush usuli (usuli savtiya) joriy etildi – harflarni yodlash o‘rniga tovushlar orqali o‘qish-yozish o‘rgatildi, bu

bolalarga qisqa muddatda savod chiqarish imkonini berdi. Maktablar asosan 1–4-sinflardan iborat boshlang‘ich bo‘lib, 1913/14 o‘quv yilidan ayrim joylarda 2 bosqichli (tahziriy va rushdiy) tizim joriy etildi – masalan, Munavvarqorining Toshkentdagi namuna maktabida, Abduqodir Shakuriyning Samarqanddagi va A.Ibodiyevning Qo‘qondagi maktablarida 5–6-sinflar ish boshladi[6.65].

Darslarda diniy bilimlar bilan bir qatorda dunyoviy fanlar – arifmetika, geometriya, geografiya, fizika, kimyo, tabiiyot, ona tili, adabiyot, ba’zi maktablarda rus tili o‘qitildi. Ko‘rgazmali qurollar (xarita, globus, rasmlar) faol qo‘llanildi. Jadidlar o‘zlari darsliklar yaratdilar: Munavvarqori “Adibi avval” (1907), “Adibi soniy” (1907), “Usuli hisob”, “Tarixi qavm turk”, “Er yuzi” (1916–1917), Behbudiy “Risolai asbobi savod” (1904), “Risolai jug‘rofiyai umroniy” (1905), Avloniy “Birinchi muallim” (1910), “Ikkinchi muallim” (1912), “Turk gulistoni yoxud axloq”, Fitratning bir qancha til va adabiyot bo‘yicha asarlari shular jumlasidan. Bu kitoblar sodda o‘zbek tilida yozilgan, vatanparvarlik, axloq, ilmga muhabbat g‘oyalarini singdirgan[7.310].

Jadidlar ayollar ta’limiga ham katta e’tibor qaratdilar – qizlar uchun alohida maktablar ochishga harakat qildilar, chunki ma’rifatli oila – ma’rifatli jamiyat poydevori deb hisobladilar. Bu o‘sha davr uchun juda jasoratli qadam edi.

Yangi usul maktablari atrofida keng ma’rifiy muhit shakllandi: teatrlar, kutubxonalar, qiroatxonalar, gazeta-jurnallar (masalan, Behbudiy “Samarqand” va “Oyna” jurnallari) ochildi. Ular xalqni uyg‘otish, zamonaviy fikrlashga chorlashda muhim rol o‘ynadi. Jadidlarning bu faoliyati qisqa vaqt ichida yangi ziyolilar avlodini yetishtirdi, ular keyinchalik milliy istiqlol harakatida faol qatnashdilar[8-120].

Bugungi kunda jadid merosi o‘z dolzarbligini saqlab qolmoqda – innovatsion metodlar, milliy qadriyatlar bilan dunyoviy bilimlarni uyg‘unlashtirish, yoshlarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish tamoyillari jadid pedagogikasining bevosita davomi hisoblanadi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning ta’kidlashicha, jadidlarning g‘oyalari “Yangi O‘zbekiston” strategiyasi bilan to‘la hamohangdir. Shu bois ularning ta’limdagi islohotlari nafaqat tarixiy, balki hozirgi ta’lim siyosati uchun ham qimmatli manba bo‘lib xizmat qiladi.

Jadid ta’lim islohotlarining tarixiy ahamiyati va bugungi dolzarbligi. Jadidchilik harakati qisqa vaqt faoliyat ko‘rsatgan bo‘lsa-da, ma’naviy va madaniy ta’siri ulkan bo‘ldi. Ular yaratgan ta’lim modeli keyinchalik milliy maktab tizimining shakllanishiga zamin yaratdi. Xalq ongida ilmga intilish, yangilikka ochiqlik va milliy o‘zlikni anglash sifatlari shakllandi. Yangi ziyolilar avlodi yetishib chiqdi va ular keyingi tarixiy jarayonlarda muhim rol o‘ynadi. Bugungi kunda jadidlarning qarashlari o‘z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Innovatsion metodlar,

milliy qadriyatlar bilan dunyoviy bilimlarni uyg‘unlashtirish, yoshlarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish – bular jadid pedagogikasining bevosita davomi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning ta’kidlashicha, jadidlar yangilanish, erkinlik, adolat, ilm va ma’rifat bayrog‘i ostida kurashganlar. Shu bois ularning merosi hozirgi ta’lim siyosati uchun muhim nazariy va amaliy manba hisoblanadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki Turkiston jadidlari ta’lim islohotlari orqali jamiyatni modernizatsiya qilish yo‘lini ochdilar. Yangi usul maktablari nafaqat savodxonlikni oshirdi, balki milliy uyg‘onish va istiqlol g‘oyalarini tarqatdi. Bu meros bugungi O‘zbekiston ta’lim tizimida, ayniqsa “Yangi O‘zbekiston” strategiyasida o‘z aksini topmoqda. Jadidlarning “ilm – millatni qutqaruvchi kuch” degan g‘oyasi bugun ham dolzarb bo‘lib qolmoqda va kelajak avlodlarni ma’rifat yo‘liga yetaklaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1.Mirziyoyev, Sh. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent: O‘zbekiston, 2021. 130-bet

2. Xolid Adib. O‘zbekiston tavalludi: ilk SSSR davrida millat, imperiya va inqilob. Toshkent: Akademnashr, 2022. 156-b

3.Behbudiy, M. Tanlangan asarlar. Toshkent: Sharq nashriyoti, 2005.110-bet

4. Fitrat, A. Tanlangan asarlar. Toshkent 2012. 78-b

5.Avloniy, A. Turk gulistoni yoxud axloq. Toshkent: Ma’naviyat, 1998. 80-bet

6.G‘aspirali, I. Ismoiliy asarlar. Simferopol: Qrim nashriyoti, 2000. 65-bet

7.Allworth, E. The Modern Uzbeks: From the Fourteenth Century to the Present. Stanford: Hoover Institution Press, 1990. 310-c

8.Kamp, M. The New Woman in Uzbekistan: Islam, Modernity, and Unveiling Under Communism. Seattle: University of Washington Press, 2006. 120-c

JADIDCHILIK HARAKATI: PAYDO BO‘LISHI VA SHAKLLANISHI

Hasanova Sarvara To‘xliboy
Farg‘ona davlat universiteti 2-bosqich talabasi
hasanovasarvara6@gmail.com

+998993146233

Annotatsiya*: Mazkur maqola jadidchilik harakatining paydo bo‘lishi va shakllanish jarayoniga bag‘ishlangan bo‘lib, uning tarixiy sharoitlari, asosiy sabablari, kelib chiqish manbalari, ilk bosqichlari va Turkistonga yoyilish bosqichlarini batafsil yoritadi. Maqola XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat, mustamlakachilik ta’siri, ta’limdagi inqiroz va ma’rifatparvarlik g‘oyalarining tarqalishi kabi omillarni tahlil qiladi. Harakatning Qrimda Ismoilbek Gasprinskiy rahbarligida boshlanishi, O‘rta Osiyoga o‘tishi va yangi usul maktablari orqali shakllanishi alohida e’tibor markazida.*

Abstract: *This article is dedicated to the emergence and formation of the Jadid movement, detailing its historical conditions, main causes, origins, initial stages, and spread to Turkestan. It analyzes factors such as the socio-political situation in the late 19th – early 20th centuries, colonial influence, crisis in education, and dissemination of enlightenment ideas. Special attention is given to its beginning under Ismail Gasprinsky in Crimea, transition to Central Asia, and formation through new-method schools.*

Kalit so‘zlar: *Jadidchilik, jadidizm, paydo bo‘lishi, shakllanishi, Ismoilbek Gasprinskiy, usuli jadid, Qrim, Turkiston, mustamlakachilik, ma’rifatparvarlik, yangi usul maktablari, milliy uyg‘onish.*

Keywords*: Jadid movement, Jadidism, emergence, formation, Ismail Gasprinsky, usuli jadid, Crimea, Turkestan, colonialism, enlightenment, new-method schools, national awakening.*

Kirish. Zamonaviy dunyoda harbiy xizmatchilardan shaxsni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan yangi o‘qitish usullarini ishlab chiqishni talab qiladigan dolzarb vazifa bo‘lib qoldi. Harbiy ta'lim tizimi o‘z oldiga yuqori shaxsiy sifatlarga, fazilatlarga, intizomga, shuningdek noaniq va qiyin sharoitda qaror qabul qilish qobiliyatiga ega bo‘lgan professional kadrlami tayyorlash vazifasini qo‘yadi. Shu nuqtai nazardan, XX asr boshlarida mamlakatlarda ta’lim tizimlarini yangilashda muhim rol o‘ynagan jadidchilik islohot harakati alohida qiziqish uyg‘otmoqda. Jadidchilik ta’limoti tamoyillarining integratsiyasi talabalaming tanqidiy fikrlash, mas’uliyat va o‘zini safarbar etish ko‘nikmalarini rivojlantirish orqali ularning

ta’lim darajasini oshirishi kutilmoqda. Jadidchilik haqida Prezidentiimiz Shavkat Mirziyoyev: “Jadidlar g‘oyasi – Yangi O‘zbekiston strategiyasi bilan har tomonlama uyg‘un va hamohang‘‘deb takidlaydilar[1].

Jadidchilik yoki jadidizm harakati XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Rossiya imperiyasi tarkibidagi musulmon xalqlari, xususan Qrim, Kavkaz, Tatariston va Turkiston mintaqalarida yuzaga kelgan eng muhim ijtimoiy-siyosiy va ma’rifiy harakatlardan biri hisoblanadi. Bu harakatning nomi arabcha “jadid” – “yangi” so‘zidan olingan bo‘lib, eski an’anaviy tuzum va ta’lim usullarini yangilash, zamon talablariga moslashtirish ma’nosini bildiradi. Jadidchilik dastlab XIX asrning 80-yillarida Qrimda vujudga kelgan va 90-yillardan boshlab O‘rta Osiyoga, xususan Turkistonga tarqalib, tez sur’atlar bilan shakllangan. Harakatning asoschisi va ilhom manbai Ismoilbek Gasprinskiy (1851–1914) bo‘lib, u qrim tatarlari orasida yangi usuldagi ta’lim tizimini joriy etish orqali jadidchilikning asosini qo‘ygan. Ismoil Gaspirali - qrim-tatar millatiga oid ziyolilar vakili, pedagog, yozuvchi, yirik siyosiy va jamoat arbobi. U jadidchilik va panturkizmning asoschi deb ham hisoblanadi[2]. Uning nomi Islom Sharq xalqlarining ma’rifatparvarlik harakati jadidchilikning (ta’limning yangi, dunyoviyroq usuli) asos solishi va rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lib, u ko‘plab musulmon mamlakatlarida boshlang‘ich ta’lim berishda ko‘proq dunyoviy qarashlarga utg‘u beradi. Odatiy ta’limning mohiyatini va tuzilishini tubdan o‘zgartirishga mansub. Ismoil Gaspirali ma’rifatparvar ta’limning kelib chiqishi va maktabda jadidchilik deb nomlangan dunyoviy bilimlarni o‘qitish usulining rivojlanishida turdi[3]. Jadid o‘zining darslik, qo‘llanma va asarlarida musulmon mamlakatlaridagi boshlang‘ich maktabning allaqachon tanish bo‘lgan qonunlariga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatdi. Aynan u milliy-konfessional tizimni o‘zgartirish asoslarini ishlab chiqib ta’lim tizimiga joriy qildi. Ismoil Gaspirali o‘z tamoyillarini jamiyat taraqqiyotidagi taraqqiyot va konfessional bag‘rikenglikka asoslagan[4]. U yangi o‘qitish usullarini nafaqat Qrimda, balki Tatariston, Qozog‘iston, Boshqirdiston, Turkmaniston, Tojikiston, O‘zbekiston, Qirg‘iziston, Ozarbayjon, Turkiya, Shimoliy Fors va Sharqiy Xitoyda ham amalga qo‘lladi. Milliy rusumdagi yangi usul maktablari uchun darsliklar, qo‘llanmalar yozgan va nashr ettirgan. Bu buyuk shaxs ko‘plab „Kambag‘al musulmonlarga yordam berish jamiyatlari“, „Kutubxona jamiyatlari“ni tashkil etish taklif va g‘oyalarini tarqatgan va ularning ko‘pchiligida shaxsan o‘zi ishtirok etgan. Uning mafkuraviy tamoyillari va g‘oyalari liberal mafkura, jamiyatning ilg‘or rivojlanishi, turkiy va slavyan xalqlarning do‘stligi, musulmon va xristianlarning diniy bag‘rikengligi, sotsialistlarning radikal talablarini rad etish asosida yaratilgan edi. Ma’rifatparvar jamiyat taraqqiyotining evolyutsion shakllarini yoqladi. Shu tariqa, u jadidchilik g‘oyalarini shakllantirdi va bu harakatga ega bo‘ldi.

Jadidchilik mohiyatan avvalo siyosiy harakat edi. Uning shakllanish va mag‘lubiyatga uchrash davrlari bo‘lib, ularni shartli ravishda to‘rtga bo‘lish mumkin. Turkiston, Buxoro va Xiva hududida bu davrlar 1895-1905; 1906-1916; 1917-1920; 1921-1929-yillarni o‘z ichiga oladi. Birinchi davrda Turkistonda podsho Rossiyasining mustahkam o‘rnashib olishi hisoblanadi[5.335]. U o‘z siyosiy agentlari (vakillari) yordamida mahalliy xon va amir vakolatlarini cheklabgina qolmay, ularni qo‘g‘irchoqqa aylantirib, rus va g‘arb sarmoyadorlarining ishlashi va yashashi uchun sharoit yaratadi, turli kompaniyalar, aksiyadorlik jamiyatlari manfaatini ko‘zlaydi. Ayni chog‘da mahalliy aholining talab va ehtiyojlari nazarga olinmay qo‘yildi, diniy e’tiqodlari, urf-odatlari bilan hisoblashmaslik, ularni mensimaslik kuchaydi. Hayotiy, ilmiy saviyasi yuqori bo‘lgan qozilar tajribasiz kishilar bilan almashtirildi, poraxo‘rlik, ijtimoiy-siyosiy adolatsizlik avj oldi. Millat istiqbolini o‘ylovchi taraqqiyparvar kuchlar xalqning deyarli barcha tabaqalari asosan, hunarmand, dehqon, savdogar, mulkdor, ulamolar orasida mavjud edi. Ziyolilar dastlab chorizmga qarshi kurashni xalqni asriy qoloqlikdan uyg‘otishni siyosiy-ma’rifiy jabhadan boshlashga qaror qildilar. Madrasa va maktablar faoliyatini cheklash, mahalliy joy nomlarini ruscha atamalar bilan almashtirish, hatto mahkama jarayonida qozilar bo‘yniga xoch taqtirishgacha borildi. Mahalliy aholining iqtisodiy imkoniyatlari cheklangan, savdo-sotiq, dehqonchilik va hunarmandchilik to‘siqlarga duch kelgan. Poraxo‘rlik, adolatsizlik avj olgan, diniy e’tiqod va urf-odatlar mensimagan, hatto sud jarayonlarida qozilarga xoch taqdir etilgan darajada milliy qadriyatlar tahqirlangan. Jadidlar orasidan yetuk olimlar, sanoat va ziroatchilik sohalarining zamonaviy bilimdon mutaxassislari, madaniyat arboblari yetishib chiqib, yurtni obod va o‘z vatanlarini mustaqil ko‘rishni orzu qildilar va shu yo‘lda kurashdilar. Jadidlarning Turkiston mustaqilligi uchun kurashida asosan quyidagi yo‘nalishlar ustuvor edi: yangi usul maktablari tarmog‘ini kengaytirish; qobiliyatli yoshlarni chet elga o‘qishga yuborish; turli ma’rifiy jamiyatlar va teatr truppalari tuzish; gazeta va jurnallar chop qilish, xalqning ijtimoiy-siyosiy ongini yuksaltirish bilan Turkistonda milliy demokratik davlat qurish. Jadid ziyolilarining kuchli partiyasi tashkil qilingan taqdirdagina bu ishlarni amalga oshirish mumkin edi. Endi jadidchilikning g‘oya va maqsadlarini yoritsam bular:

Jadidchilik harakati dastlab ma’rifatparvarlik harakati sifatida shakllandi. U xalqni ilm va ma’rifat orqali uyg‘otish, jaholat va orqada qolishdan xalos qilish, milliy o‘zlikni anglashga da’vat qilishni asosiy maqsad qilgan edi. Jadidlar fikricha, Turkiston xalqlarining orqada qolish sababi na tabiiy sharoit, na iste’dod, balki zamon talabiga javob bermaydigan ta’lim tizimi, eski fikrlash va mustamlakachilik siyosatining oqibatlarida edi. Shu bois ular jamiyatni isloh qilishning asosiy yo‘li

sifatida ta’limni yangilashni tanladilar.

Jadidlarning bosh g‘oyasi — “yangilanish” g‘oyasi edi. Ular yangi davr millatining qutqaruvchisi faqat ilm, madaniyat va tafakkur bo‘lishi mumkin, deb hisobladilar. Behbudi, Fitrat, Munavvarqori, Avloniy, Ibrat kabi ziyolilar o‘z asarlarida xalqni ma’rifatli bo‘lishga va zamonaviy bilimlarni egallashga chaqirdilar. Ularning fikricha, ta’lim tizimini isloh qilmasdan siyosiy yoki iqtisodiy mustaqillikka erishib bo‘lmas edi. Shu sababli jadidchilik harakati dastlab siyosiy emas, balki ma’naviy-ma’rifiy yo‘nalishda rivojlandi.

Jadidlarning eng muhim amaliy ishlari yangi usul maktablarini ochish edi. An’anaviy madrasalarda faqat diniy fanlar o‘qitilib, dunyoviy bilimlarga e’tibor berilmagan. Mahmudxo‘ja Behbudi, Munavvarqori Abdurashidxonov, Is’hoqxon Ibrat va boshqa ziyolilar o‘z mablag‘lari bilan yangi maktablar tashkil etdilar. Bu maktablarda arab alifbosiga asoslangan, lekin o‘qitish jarayoni soddalashtirilgan “usuli jadid” tatbiq etildi. O‘quv dasturlariga matematika, geografiya, tarix, tabiiyot, adabiyot va ona tili kiritildi. Darslarda kitob bilan birga ko‘rgazmali qurollar, xaritalar va globuslardan foydalanilib, ta’lim jarayoniga yangi yondashuv joriy qilindi.

Jadidlar nazarida maktab — millat kelajagining asosi edi. Behbudi “Maktabsiz millat yo‘q” deb bejiz aytmagan. Chunki maktab orqali xalq ongini o‘zgartirish, yosh avlodni zamonaviy bilim bilan qurollantirish va vatanparvar ruhda tarbiyalash mumkin edi. Jadidlar o‘z g‘oyalarini keng ommaga yetkazish uchun matbuotdan faol foydalandilar. XX asr boshlarida “Taraqqiy”, “Shuhrat”, “Sadoi Turkiston”, “Oyna”, “Najot”, “Hurriyat”, “Buxoroi Sharif” kabi gazetalar va jurnallar nashr etildi. Ular orqali xalq siyosiy, ijtimoiy va madaniy masalalardan xabardor qilindi. Matbuot sahifalarida ta’lim, ayollar huquqi, jamiyatni isloh etish, milliy uyg‘onish va vatanga muhabbat mavzulari keng yoritildi.

Abdurauf Fitratning “Munozara” va “Qiyomat”, Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq”, Behbuding “Padarkush” asarlari millatni uyg‘otish va ruhiyatni yangilashda muhim manbalar hisoblanadi. Ushbu asarlar xalqni fikrlashga, o‘zligini tanishga va bilim sari intilishga undadi[8]. Jadidlar millatni uyg‘otishda teatrning tarbiyaviy kuchini ham yaxshi tushundilar. Ular sahna san’ati orqali xalqni o‘ylantirish va jamiyatdagi adolatsizliklarni ochib berish imkonini ko‘rdilar. Mahmudxo‘ja Behbudiy 1913-yilda yozgan “Padarkush” drammasi bilan bu yo‘nalishni boshlab berdi[6]. Keyinchalik Avloniy, Fitrat, Hamza kabi jadidlar ham teatr asarlari yaratdilar. Ushbu asarlar xalqni tanqidiy fikrlashga va taraqqiyotga intilishga undadi. Teatr jadidchilik harakatining targ‘ib vositasi bo‘lib, xalq orasida milliy uyg‘onish g‘oyalarini yoyishda muhim rol o‘ynadi. Chunki sahna orqali ilgari surilgan har bir obraz tomoshabin qalbiga bevosita ta’sir qilardi. Jadidlar uchun

milliy o‘zlikni saqlash va vatanparvarlik tuyg‘usini uyg‘otish eng muhim vazifa edi. Ular millatni uyg‘otishning yagona yo‘li — milliy g‘urur, tarixiy xotira va ona tiliga hurmatni tiklash deb bildilar. Jadidlar o‘z asarlarida “millat”, “vatan” va “ozodlik” tushunchalarini keng targ‘ib etdilar. Ularning fikricha, haqiqiy taraqqiyot o‘zlikni anglashdan boshlanadi. Fitrat “Hind sayohati” va “Munozara” asarlarida milliy iftixorni uyg‘otish, G‘arbdan ilm olish, lekin o‘z qadriyatlariga sodiq qolish zarurligini ta’kidlaydi. Behbudi esa xalqni siyosiy ongini oshirishga va o‘z taqdirini o‘zi belgilashga chaqiradi[7].

Jadidchilikning shakllanishida bir nechta ichki va tashqi omillar mavjud bo‘lgan.

1. Siyosiy va tarixiy omillar: Rossiya imperiyasining Turkistonga kengayishi Turkistonning Rossiya nazorati ostiga kirishi eski ijtimoiy va ma’rifiy tizimlarni zaiflashtirdi. Bu, yangicha ta’lim va ma’rifiy g‘oyalarni joriy qilish zaruratini yuzaga keltirdi.

2. Ijtimoiy va iqtisodiy omillar: Shahar va qishloq aholisi orasidagi farq

Shaharlarda savodli qatlam paydo bo‘ldi. Savdogarlar, tadbirkorlar va ziyolilar zamonaviy bilim va yangilanishga tayyor bo‘ldi. Bu jadidchilik g‘oyalarining qabul qilinishiga yordam berdi.

3. Madaniy va ilmiy omillar: Matbuot va darsliklar tarqalishi

Gazeta va jurnallar orqali yangicha ma’rifiy g‘oyalar tarqaldi. Jadidlar yangi darsliklar yaratib, maktablarda zamonaviy fanlarni o‘rgatishni boshladilar.

4. Diniy omillar: Islom ilmiy merosi va yangilanishga intilish

Eski medresalarda berilgan diniy bilimlarni saqlagan holda, zamonaviy fanlarni uyg‘unlashtirish zarurati paydo bo‘ldi. Jadidlar diniy bilim bilan zamonaviy ilmni birlashtirishni maqsad qilishdi. Shu kabilar asosiy omillar hisoblangan. Xulosa qilib aytganda, jadidchilik harakati Turkiston tarixida milliy o‘zlikni anglash, ma’naviy uyg‘onish va mustaqillik tafakkurining shakllanishida muhim o‘rin tutadi. Uning g‘oyalari bugungi kunda ham ta’limni rivojlantirish, yosh avlodni ma’rifatli va vatanparvar ruhda tarbiyalash jarayonida o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Jadidchilik harakati keyinchalik turli siyosiy sabablar tufayli cheklangan va uning ko‘plab namoyandalari ta’qib qilingan bo‘lsa-da, uning g‘oyalari milliy uyg‘onish va mustaqillik tafakkurining shakllanishida muhim tarixiy asos bo‘lib xizmat qildi.

ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. O‘zbek sovet entsiklorediyasi. 2-jild. T., 1979.

2. Qosimov S. Behbudiy va jadidchilik. „O‘zbekiston adabiyoti va san’ati“, 1990-yil 19,26-yanvar.

3. Xamrakulov O.M. Jadidchilikning paydo bo‘lishi va rivojlanishi. Jadidchilik harakatining tarixiy shartlari va asosiy shaxslari // Ekonomika i sotsium. – 2024. – №11 (126)-1. – URL: www.iupr.ru.

4. https://uz.wikipedia.org/wiki/Jadidchilik.

5. Khalid, Adeeb. The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia. University of California Press, 1998, 335 b.

6. Turdiyev, S. (2017). “O‘zbek jadidlari va ularning ilmiy merosi”. Samarqand: Samarqand universiteti nashriyoti.

7. Alimov, M. (2013). “Jadidlar va ularning milliy uyg‘onish harakatidagi o‘rni”. Toshkent: Ma’naviyat.

JADIDLAR SIYOSIY-MA’RIFIY FAOLIYATINING HOZIRGI DAVLAT BOSHQARUVINING OCHIQLIK VA MODERNIZATSIYA TAMOYILLARIGA TA’SIRI

Toshkent iqtisodiyot va texnologiyalar universiteti
Ijtimoiy fanlar fakulteti, Tarix ta’lim yo‘nalishi 3-bosqich talabasi
Qo‘chqorov Axror Abror o‘g‘li
axrorabrorxon@gmail.com
ORCID:0009-0009-3546-2380

Annotatsiya. *Mazkur maqolada XX asr boshidagi jadidchilik harakati, uning siyosiy-ma’rifiy islohotlari, demokratik boshqaruv, jamiyatni yangilash, ma’rifat asosida davlatni modernizatsiya qilish g‘oyalari tahlil qilinadi. Jadidlarning ta’lim, boshqaruv, matbuot, milliy o‘zlikni uyg‘otish borasidagi qarashlari bugungi O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ochiqlik, demokratik islohotlar, raqamli boshqaruv, fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish jarayonlari bilan qiyosiy o‘rganiladi. Tadqiqot davomida tarixiy qiyosiy tahlil, manbashunoslik, tizimli yondashuv metodlaridan foydalaniladi. Maqola yakunida jadidchilik harakatining zamonaviy davlat boshqaruviga ilmiy-amaliy ta’siri haqida xulosalar beriladi.*

Kalit so‘zlari*: Jadidchilik, ma’rifat, siyosiy islohotlar, davlat boshqaruvi, modernizatsiya, ochiqlik siyosati, fuqarolik jamiyati, raqamli boshqaruv, milliy uyg‘onish, Turkiston tarixi.*

“Yoshlarimizni ma’rifatli va bilimli yetuk avlod qilib tarbiyalash orqali biz mamlakatimizni raqobatbardosh, demokratik va taraqqiy etgan davlatga aylantiramiz.”

Sh.M. Mirziyoyev

“Biz davlat boshqaruvida ochiqlik, jamoatchilik nazorati, erkin fikr va ma’rifat tamoyillarini mustahkamlashni o‘z oldimizga qat’iy maqsad qilib qo‘yganmiz. Zero, ma’rifat bor jamiyatda taraqqiyot bo‘ladi”, — deya ta’kidlagan edi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Ushbu fikr jadidchilik harakati g‘oyalari bilan bevosita uyg‘unlik kasb etadi. Jadidlar XX asr boshida jamiyatni modernizatsiya qilish, davlat boshqaruvini yangilash va milliy uyg‘onishni ta’minlashni o‘z vazifasi deb bilgan. Bu harakatning asosiy tamoyillari: Ma’rifat va ta’limni rivojlantirish, Davlat boshqaruvini oshkoralik va shaffoflik bilan amalga oshirish, Fuqarolarni jamiyat boshqaruviga jalb qilish, Milliy madaniyat va identitetni uyg‘otish, Iqtisodiy va siyosiy modernizatsiya, Ochiqlik va demokratik tamoyillarni mustahkamlash bugungi O‘zbekistonning siyosiy islohotlari bilan bevosita bog‘liqdir. Jadidchilik harakati o‘tmishda qoldirmagan tarixiy tajriba sifatida, bugungi raqamli boshqaruv, demokratik ochiqlik va fuqarolik jamiyati institutlariga ta’sirini ko‘rsatadi.

Tarixiy manbalarga ko‘ra, jadidlar tomonidan ilgari surilgan “ma’rifat orqali millat uyg‘onadi” g‘oyasi nafaqat siyosiy, balki ma’naviy-ijtimoiy o‘zgarishlarning asosiy tamoyili sifatida shakllangan . Shu nuqtai nazardan, ular ilgari surgan boshqaruv va modernizatsiya tamoyillari bugungi siyosiy islohotlar bilan izchil bog‘liq.Jadidchilik harakatining siyosiy-ma’rifiy mohiyati Jadidchilik XX asr boshida jamiyatni yangilash, milliy uyg‘onishni ta’minlash va davlat boshqaruvini modernizatsiya qilishni maqsad qilgan. Ularning asosiy g‘oyalari: Ma’rifatli jamiyat yaratish: Bilim va tafakkur asosida jamiyatni rivojlantirish. Ochiq boshqaruv: Matbuot va jamoatchilik nazorati orqali davlatni demokratlashtirish. Ta’limni modernizatsiya qilish: Yangicha maktablar va ilm-fan asosida tarbiya. Milliy uyg‘onish: Madaniy merosni saqlash va milliy o‘zlikni uyg‘otish. Ismoil G‘aspirinskiy o‘z “Rislola” asarida shunday yozadi:“Millatning ertasi — uning ta’limida” .Shuningdek, jadidlar matbuot orqali aholiga siyosiy xabardorlikni oshirishni, fuqarolik mas’uliyatini rivojlantirishni targ‘ib qilgan.Jadidlar davlat boshqaruvi borasida quyidagi tamoyillarni ilgari surgan: Ochiq jamiyat va shaffof boshqaruv – jamoatchilik nazorati, matbuot erkinligi. Modern ta’lim tizimi – yangi maktablar va zamonaviy fanlarni o‘rgatish. Qonun ustuvorligi – adolat va tenglikni jamiyatning eng yuqori qadriyatiga aylantirish. Milliy uyg‘onish – madaniy va

milliy identitetni uyg‘otish . Bu tamoyillar bugungi davlat boshqaruvining ochiqlik va modernizatsiya konsepsiyalari bilan izchil uyg‘unlashgan.

Bugungi davlat boshqaruvida:ochiq ma’lumotlar portallari, byudjet oshkoraligi,rahbarlarning xalq bilan muloqoti jadidlarning matbuot erkinligi va oshkoralik haqidagi qarashlarini amalda davom ettirmoqda Modernizatsiya va raqamli boshqaruv“Yangi O‘zbekiston strategiyasi” doirasida davlat boshqaruvining raqamlashtirilishi, elektron davlat xizmatlari,ma’lumotlar bazasi va monitoring tizimlari Jadidlar ilgari surgan “modernizatsiya orqali jamiyatni rivojlantirish” tamoyilining amalda davomidir. Ta’lim va ma’rifat islohotlari.Jadidlar yangi maktablar orqali ta’limni modernizatsiya qilishni asosiy vazifa sifatida ko‘rgan. Bugungi maktab va oliy ta’limda zamonaviy dasturlar, raqamli platformalar, ixtisoslashtirilgan maktablar bu g‘oyalarning amaliy davomidir . Fuqarolik jamiyati rivoji .Jadidlar: “Millat uyg‘onsa — jamiyat o‘zini boshqaradi”. Bugun: NNTlar, jamoatchilik kengashlari va ombudsman institutlari orqali bu tamoyil amalga oshirilmoqda. Ilmiy va amaliy ahamiyatiTarixiy meros asosida davlat boshqaruvini takomillashtirish, Jamiyatni modernizatsiya qilish, Fuqarolik jamiyatini mustahkamlash, Milliy uyg‘onish va identitetni shakllantirish, Raqamli davlat boshqaruvi va islohotlarni tarixiy tajriba bilan uyg‘unlashtirish.

XULOSA. Jadidchilik harakatining siyosiy-ma’rifiy g‘oyalari bugungi ochiqlik, modernizatsiya va fuqarolik jamiyati tamoyillarida amaliy aksini topmoqda. Ma’rifat va ta’limni rivojlantirish,Ochiq boshqaruv,Milliy uyg‘onish, Modernizatsiya, Jamiyat va davlat boshqaruvi tizimlarini integratsiya qilish.Bugungi O‘zbekiston siyosiy islohotlari bilan uzviy bog‘liqdir. Shu jihatdan jadidlar merosi zamonaviy boshqaruv uchun ilmiy va amaliy asosdir.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR.

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – 34–37-betlar.

2. Gasprinskiy I. Rislola. – Qrim: Bahchesaray, 1905. – 12–18-betlar.

3. Fitrat A. Rahbari najot. – Istanbul, 1916. – 12–21-betlar.

3. Behbudiy M. Padarkush. – Toshkent: Ma’naviyat, 2011. – 44–57-betlar.

4. Polvonov Q. Jadidchilik tarixidan lavhalar. – Toshkent: Fan, 1999. – 78–105-betlar.

5. Inoyatov A. O‘zbekiston modernizatsiyasi va siyosiy islohotlar. – Toshkent: Universitet, 2020. – 22–48-betlar.

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY MA’RIFATPARVARLIK G‘OYALARINING SHAKLLANISH OMILLARI VA ULARNING PEDAGOGIK TALQINI

Yuldasheva Manzuma Odiljon qizi
Farg‘ona davlat universiteti
Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang‘ich ta’lim)
mutaxassisligi 1-kurs magistranti
Tel: +998(91)120-16-96
E-mail:umaraliyevamanzuma@gmail.com
ORCID: https://orcid.org/0009-0000-6492-9052

Annotatsiya: *Ushbu tadqiqotda Mahmudxo‘ja Behbudiyning ma’rifatparvarlik g‘oyalari shakllanishiga ta’sir etgan tarixiy, ijtimoiy va madaniy omillarning o‘zaro bog‘liqligi ochib beroladi. Muallif tomonidan, uning pedagogik qarashlari zamonaviy ta’lim nuqtai nazaridan fanlararo yondashuv asosida pedagogik nuqtai nazardan qayta talqin qilinadi. Izlanish yakunida jadid ma’rifatparvarligining bugungi ta’lim tizimidagi ahamiyati ilmiy xulosalar shakllantiriladi.*

Kalit so‘zlar*: Jadidchilik, ma’rifatparvarlik, pedagogik qarashlar, milliy uyg‘onish, ta’lim islohoti, fanlararo yondashuv, genezis*.

KIRISH. XIX asrning so‘nggi choragi hamda XX asr boshlarida Turkiston hududida kechgan ijtimoiy va madaniy jarayonlar milliy uyg‘onish jarayonining shakllanishiga zamin yaratdi.[4] Ushbu davrda jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida ilm-ma’rifat va zamonaviy ta’lim tizimini joriy etish g‘oyasi ilgari surildi. Ana shu tarixiy ehtiyoj natijasida jadidchilik harakati vujudga kelib, u nafaqat ma’rifiy, balki ijtimoiy-siyosiy va madaniy jarayonlarga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatdi.[6] Jadidlar millat taraqqiyotini ta’lim bilan bevosita bog‘lab, yangi usul maktablarini tashkil etish, darsliklar yaratish va yosh avlodni zamonaviy bilimlar asosida tarbiyalashni o‘z oldilariga maqsad qilib qo‘ydilar.[5]

Turkiston jadidchiligi namoyandalari orasida Mahmudxo‘ja Behbudiy alohida o‘rin egallaydi. U o‘zining pedagogik, publitsistik va dramaturgik faoliyati orqali jamiyatda ma’rifatparvarlik g‘oyalarini keng targ‘ib qildi.[3]Behbudiyning qarashlari bevosita tarixiy sharoit, mustamlakachilik siyosati, milliy o‘zlikni anglash jarayoni hamda zamonaviy ilm-fan yutuqlari ta’sirida shakllangan. Shu bois uning ma’rifatparvarlik g‘oyalarini genezisi nuqtai nazaridan o‘rganish ilmiy jihatdan muhim tadqiqot yo‘nalishlaridan biri sanaladi.[1]

Mazkur tadqiqotda Behbudiy ma’rifatparvarlik qarashlarining shakllanish omillari tarixiy, pedagogik va ijtimoiy jihatdan tahlil qilinadi hamda ularning

bugungi ta’lim tizimidagi ahamiyati fanlararo yondashuv asosida yoritiladi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, unda Behbudiy merosi nafaqat tarixiy shaxs faoliyati sifatida, balki zamonaviy pedagogik tafakkur rivojiga ta’sir etuvchi konseptual manba sifatida talqin etiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI. Turkiston jadidchiligi va uning namoyandalari faoliyati o‘zbek tarixshunosligi, adabiyotshunoslik va pedagogika fanlarida keng tadqiq etilgan. Xususan, Mahmudxo‘ja Behbudiy hayoti, ijtimoiy-siyosiy faoliyati hamda ijodiy merosi bo‘yicha ko‘plab ilmiy izlanishlar olib borilgan. Tadqiqotlarda uning yangi usul maktablari tashkil etishdagi o‘rni, milliy matbuotni rivojlantirishdagi xizmatlari hamda dramaturgik faoliyati alohida yoritilgan.[6] Jadidchilik harakati tarixiy jarayon sifatida milliy uyg‘onish, ma’rifatparvarlik va modernizatsiya bilan bog‘liq holda tahlil qilingan. Ayrim ilmiy ishlarda jadidlarning ta’lim konsepsiyasi, darslik yaratish tajribasi, axloqiy-tarbiyaviy qarashlari pedagogik nuqtai nazardan baholangan. Shuningdek, Behbudiy merosi uning publitsistik maqolalari va sahna asarlari orqali o‘rganilib, undagi ijtimoiy g‘oyalar ochib berilgan.[10]

Biroq mavjud adabiyotlarda Behbudiy ma’rifatparvarlik g‘oyalarining shakllanish omillari genezis jihatidan, ya’ni tarixiy, ijtimoiy va madaniy faktorlar uyg‘unligida kompleks tarzda yetarli darajada tahlil etilmagan. Ayniqsa, uning pedagogik qarashlarini zamonaviy ta’lim paradigmasi bilan fanlararo yondashuv asosida qiyosiy o‘rganish masalasi alohida ilmiy izlanishni talab etadi. Shu sababli mazkur maqolada mavjud ilmiy manbalar umumlashtirilib, masala tizimli ravishda qayta ko‘rib chiqiladi. Mazkur tadqiqotda tarixiylik va tizimlilik tamoyillari asos qilib olindi. Avvalo, Behbudiy ma’rifatparvarlik g‘oyalarining shakllanish jarayoni tarixiy kontekstda o‘rganildi. Bunda XIX asr oxiri - XX asr boshlaridagi Turkiston ijtimoiy-siyosiy muhitining ta’siri hisobga olindi.[9]

Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi:

Tarixiy-tahliliy metod - jadidchilik harakatining yuzaga kelish omillarini aniqlashda;

Qiyosiy-tahlil metodi - Behbudiy pedagogik qarashlarini zamonaviy ta’lim konsepsiyalari bilan solishtirishda;

Kontent-tahlil metodi - Behbudiyning publitsistik va pedagogik asarlaridagi asosiy g‘oyalarni aniqlashda;

Fanlararo yondashuv - tarix, pedagogika, falsafa va madaniyatshunoslik nuqtai nazarlarini integratsiyalashda.

Shuningdek, ilmiy manbalarni umumlashtirish va nazariy xulosalar chiqarishda induktiv va deduktiv metodlardan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini milliy uyg‘onish, ma’rifatparvarlik va ta’lim modernizatsiyasi haqidagi ilmiy qarashlar tashkil etadi.[8]

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Olib borilgan tahlillar asosida ma’lum bo‘ldiki, Mahmudxo‘ja Behbudiy ma’rifatparvarlik g‘oyalari tasodifiy shakllanmagan bo‘lib, ularning genezisi murakkab tarixiy, ijtimoiy va madaniy omillar bilan uzviy bog‘liqdir. XIX asr oxiri - XX asr boshlaridagi Turkiston hududida yuzaga kelgan siyosiy qaramlik, iqtisodiy tanazzul va ma’naviy inqiroz holati jamiyatda yangilanish ehtiyojini kuchaytirgan. Ana shu ehtiyoj Behbudiyning ilm-ma’rifatni millat taraqqiyotining asosiy omili sifatida talqin etishiga zamin yaratgan.

Tahlillar natijasida Behbudiy qarashlarida quyidagi ustuvor yo‘nalishlar aniqlanadi:

1. Ta’limni milliy uyg‘onishning asosiy vositasi sifatida ko‘rish;

2. Yangi usul maktablari orqali dunyoviy va zamonaviy bilimlarni joriy etish;

3. Axloqiy tarbiya va ma’naviy kamolotni jamiyat taraqqiyotining negizi sifatida talqin qilish;

4. Matbuot va teatrni ma’rifat tarqatish vositasi sifatida qo‘llash.[1]

Fanlararo yondashuv asosida olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Behbudiy pedagogik qarashlari nafaqat tarixiy ahamiyatga ega, balki zamonaviy ta’lim paradigmasi bilan hamohangdir.[2] Xususan, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, kompetensiyaviy yondashuv, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi kabi tamoyillar jadid ma’rifatparvarligi konsepsiyasida ham o‘z ifodasini topgan.[8]

Muhokama jarayonida aniqlanishicha, mavjud tadqiqotlarda Behbudiy faoliyati ko‘proq tarixiy yoki adabiy nuqtai nazardan o‘rganilgan bo‘lsa-da, uning pedagogik konsepsiyasini zamonaviy ta’lim nazariyalari bilan qiyosiy tahlil qilish yetarli darajada amalga oshirilmagan. Mazkur tadqiqot esa uning qarashlarini tizimli va integrativ asosda yoritishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, olingan natijalar Behbudiy ma’rifatparvarlik g‘oyalari bugungi ta’lim islohotlari jarayonida metodologik va ma’naviy tayanch bo‘la olishini ko‘rsatadi. Uning ilm va tarbiya uyg‘unligiga asoslangan konsepsiyasi zamonaviy pedagogik tafakkur rivojida muhim ilmiy manba sifatida baholanishi mumkin.

XULOSA. Mazkur tadqiqot natijalari Mahmudxo‘ja Behbudiy ma’rifatparvarlik g‘oyalari Turkiston jadidchilik harakatining muhim tarkibiy qismi sifatida shakllanganini va ularning genezisi muayyan tarixiy, ijtimoiy hamda madaniy omillar bilan uzviy bog‘liq ekanini ko‘rsatdi. Behbudiy ilm-ma’rifatni

millat taraqqiyotining asosiy sharti sifatida talqin qilib, ta’limni jamiyatni yangilashning strategik vositasi darajasiga ko‘targan. Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, Behbudiy pedagogik qarashlarining markazida shaxs kamoloti, axloqiy tarbiya, dunyoviy bilimlar integratsiyasi va milliy o‘zlikni anglash g‘oyalari turadi. Uning yangi usul maktablari, darslik yaratish tashabbuslari va ma’rifiy faoliyati zamonaviy ta’lim konsepsiyalariga uyg‘un keluvchi nazariy asoslarni o‘zida mujassam etgan.[7] Fanlararo yondashuv asosida olib borilgan tahlil Behbudiy merosini nafaqat tarixiy hodisa, balki zamonaviy pedagogik tafakkur rivojiga ta’sir etuvchi konseptual manba sifatida baholash imkonini berdi. Xususan, kompetensiyaviy yondashuv, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi, ta’lim va tarbiyaning uzviyligi kabi tamoyillar uning qarashlarida o‘z aksini topgan. Yuqoridagi mulohazalarni umumlashtirgan holda aytish mumkinki, Behbudiy ma’rifatparvarlik konsepsiyasi bugungi ta’lim islohotlari jarayonida metodologik va ma’naviy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Uning ilm va tarbiya uyg‘unligiga asoslangan qarashlari milliy pedagogik tafakkur taraqqiyotida muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. -Toshkent: Ma’naviyat, 1999.

2. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. -Toshkent: O‘qituvchi, 1992.

3. Ismoil G‘aspirali. Tanlangan asarlar. -Toshkent: Sharq, 2006.

4. B.Qosimov. Jadidchilik: yangilanish va taraqqiyot harakati. -Toshkent: Akademnashr, 2004.

5. N.Karimov. Jadid adabiyoti tarixi. - Toshkent: Fan, 2011.

6. D.Alimova. Turkistonda jadidchilik harakati. - Toshkent: Sharq, 2000.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. - Toshkent: O‘zbekiston, 2021.

8. To‘xliev B. Pedagogika nazariyasi va tarixi. - Toshkent: O‘qituvchi, 2015.

9. Hasanboeva O. Pedagogika tarixi. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2013.

10. Quronov M. Milliy uyg‘onish va jadidchilik. - Toshkent: Ma’naviyat, 2008.

Jadidlar merosida milliy va umuminsoniy qadriyatlar

Fattoyeva O‘g‘iloy Ashurqulovna
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi
ogloyfattoyeva@gmail.com
Orcid: 0009-0007-7148-0493

Annotatsiya. *Ushbu maqolada jadidlar merosida milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg‘unligi ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Turkiston ma’rifatparvarlari — Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulhamid Cho‘lpon va Abdurauf Fitrat qarashlari asosida milliy o‘zlikni anglash, ma’naviy yangilanish, ta’lim-tarbiya islohoti hamda insonparvarlik g‘oyalari yoritiladi. Tadqiqotda jadidlar faoliyatida til, madaniyat va tarixiy xotirani asrash bilan birga, ilm-fan, adolat, tenglik va erkin fikr kabi umuminsoniy qadriyatlarning targ‘ib etilishi ochib beriladi. Shuningdek, jadid pedagogik merosining bugungi ta’lim tizimidagi ahamiyati va ma’naviy taraqqiyotga ta’siri tahlil qilinadi. Maqola natijalarida jadidlar merosi milliy taraqqiyot va global sivilizatsiya tamoyillarini uyg‘unlashtirgan ilg‘or ma’rifiy konsepsiya sifatida baholanadi.*

Abstract. *This article analyzes the scientific and theoretical harmony of national and universal values in the Jadid heritage. Based on the views of the Turkestan enlighteners - Abdulla Avloni, Mahmudkhodja Behbudi, Abdulhamid Cholpon and Abdurauf Fitrat, the ideas of national identity, spiritual renewal, educational reform and humanism are highlighted. The study reveals that in the activities of the Jadids, along with the preservation of language, culture and historical memory, universal values such as science, justice, equality and free thought are promoted. The significance of the Jadid pedagogical heritage in today's education system and its impact on spiritual development are also analyzed. The results of the article evaluate the Jadid heritage as an advanced educational concept that combines the principles of national development and global civilization.*

Аннотация. *В данной статье анализируется научно-теоретическая гармония национальных и универсальных ценностей в наследии джадидов. На основе взглядов туркестанских просветителей – Абдуллы Авлони, Махмудходжи Бехбуди, Абдулхамида Чолпона и Абдурауфа Фитрата – освещаются идеи национальной идентичности, духовного обновления, реформы образования и гуманизма. Исследование показывает, что в деятельности джадидов, наряду с сохранением языка, культуры и исторической памяти, продвигаются универсальные ценности, такие как наука, справедливость, равенство и свободомыслие. Также анализируется*

значение педагогического наследия джадидов в современной системе образования и его влияние на духовное развитие. Результаты статьи оценивают наследие джадидов как передовую образовательную концепцию, сочетающую принципы национального развития и глобальной цивилизации.

***Kalit so‘zlar**: ma’rifatparvarlik, milliy uyg‘onish, pedagogik meros, axloqiy tarbiya, ma’naviy yangilanish, yangi usul maktablari, ijtimoiy islohotlar.*

***Keywords:** enlightenment, national revival, pedagogical heritage, moral education, spiritual renewal, new method schools, social reforms.*

***Ключевые слова**: просвещение, национальное возрождение, педагогическое наследие, нравственное воспитание, духовное обновление, школы новой методики, социальные реформы.*

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida yuzaga kelgan jadidchilik harakati millat taraqqiyotini ta’minlashga qaratilgan muhim ma’rifiy bosqich bo‘ldi. Bu davr ziyolilari jamiyatni jaholat va qoloqlikdan chiqarishning asosiy yo‘li sifatida ilm-fan, ta’lim va axloqiy islohotlarni ko‘rdilar. Ular milliy o‘zlikni saqlash, ona tilini rivojlantirish va tarixiy xotirani tiklash bilan birga, insonparvarlik, adolat, tenglik va erkin fikr kabi umuminsoniy qadriyatlarni ham targ‘ib etdilar. Jadid namoyandalari, jumladan Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulhamid Cho‘lpon va Abdurauf Fitrat o‘z asarlari hamda amaliy faoliyati orqali milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligini asoslab berdilar. Ularning pedagogik, adabiy va publitsistik merosi nafaqat o‘z davri, balki bugungi kun ma’naviy taraqqiyoti uchun ham muhim ilmiy-manba sifatida ahamiyat kasb etadi.Hozirgi kunga kelib mamlakatimizda jadidlar merosini o‘rganishga, ilmiy va ma’naviy qarashlarini kamol topdirishga oid tizimli ishlar olib borilmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning “Ma’rifatparvar ajdodlarimizning merosi bugun biz qurayotgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati uchun poydevor bo‘lib xizmat qilishi tabiiy. Bu kimgadir yoqadimi yoki yo‘qmi, xalqimiz jadid bobolarimiz ko‘rsatib bergan yo‘ldan og‘ishmay borishi kerak. Chunki ularning g‘oya va dasturlari Yangi O‘zbekistonni barpo etish strategiyasi bilan har tomonlama uyg‘un va hamohangdir” degan fikrlari esa so‘zimizning yorqin isbotidir[1]. Jadidlar tarixini o‘rganish millat taraqqiyotining muhim bosqichlarini anglashda katta ilmiy va ma’naviy ahamiyat kasb etadi. Jadidchilik harakati orqali xalqning o‘zligini anglash, zamonaviy ta’limni yo‘lga qo‘yish va jamiyat tafakkurini yangilash jarayoni boshlangan. Ushbu davrni tadqiq etish nafaqat tarixiy haqiqatni tiklash, balki bugungi islohotlar uchun zarur g‘oyaviy va metodologik asoslarni aniqlash imkonini beradi. Jadidchilik yoki jadidizm (jadīd — yangi) – o‘n to‘qqizinchi asr oxiri yigirmanchi asr boshida

Turkiston, Kavkaz, Qrim va Tatariston ziyolilari hayotida muhim ahamiyat kasb etgan ijtimoiy-siyosiy, ma’rifiy harakat[2]. Markaziy Osiyoda jadidchilik serqirra bo‘lib, uning Turkiston, Buxoro, Xiva jadidchiligiga bo‘lish lozim. Xususan Buxoro va Xiva jadidchilik o‘ziga xos rivojlanib bu shu hudud aholisining (siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy holati bilan bog‘liq edi)[3].

Jadid adabiy-ma’rifiy harakatining yetakchi namoyandalari — Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Cho‘lpon va Abdurauf Fitrat o‘z asarlari hamda amaliy faoliyati orqali milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligini nazariy va amaliy jihatdan asoslab berdilar. Ularning qarashlarida milliy o‘zlikni anglash, ona tilini e’zozlash, tarixiy xotirani tiklash kabi g‘oyalar insonparvarlik, erkinlik, adolat va ilm-fanga hurmat kabi umumiy insoniy tamoyillar bilan chambarchas bog‘liq holda talqin qilinadi.Turkiston jadidlarini birlashtirishda «Jadidlarning rahbari» deb tan olingan Mahmudxo‘ja Behbudiyning xizmati beqiyos bo‘ldi[4]. Behbudiy ijtimoiy-falsafiy qarashlarida ta’limga alohida e’tibor qaratadi. U ta’lim tizimini isloh qilishni millatning taraqqiyotida eng muhim omil sifatida ko‘radi. Uning fikricha, jamiyatni rivojlantirish uchun avvalo ma’rifatni keng targ‘ib qilish zarur. Behbudiy “Maorifsiz millat – kelajaksiz millat” degan so‘zlari bilan zamonaviy bilimlar va milliy an’analarni uyg‘unlashtirish zarurligini ta’kidlaydi.

U o‘z maqolalari va nutqlarida yoshlarga zamonaviy fanlarni o‘rgatish, maktablar va madrasalarni yangi usulda tashkil etish g‘oyasini ilgari surgan. Behbudiyning “Rus maktablari va madrasalari”ga oid qarashlari uning jamiyatni yangilashga bo‘lgan intilishini yaqqol ko‘rsatadi. U diniy va dunyoviy ta’lim o‘rtasida muvozanatni ta’minlashni taklif qilgan[5]. Abdulla Avloniy asarlarida milliy va umuminsoniy qadriyatlar bir-biriga uyg‘un tarzda aks etgan. U milliy ma’naviyatni, ona tilini, madaniyatini va milliy tarbiya asoslarini yosh avlodga yetkazishga alohida e’tibor qaratgan. Shu bilan birga, Avloniy insonning axloqiy va ma’naviy barkamolligi, bilimga intilishi, halollik va odob-axloq kabi umuminsoniy qadriyatlarni ham targ‘ib qilgan. Uning asarlarida milliy o‘zlikni saqlash va dunyoqarashni kengaytirish, shaxsning jamiyatdagi o‘rni va mas’uliyati birdek muhim deb ko‘rsatiladi. Shu tariqa, Avloniy milliy va umuminsoniy qadriyatlarni birlashtirib, yoshlarni nafaqat vatanga sadoqatli, balki insoniy fazilatlarni qadrlaydigan shaxslar sifatida tarbiyalashga intilgan. Avloniy “Usuli jadid” maktablari uchun to’rt qismdan iborat “Adabiyot yoxud milliy she’rlar” hamda “Birinchi muallim” (1912), “Turkiy guliston yoxud axloq” (1913), “Ikkinchi muallim” (1915), “Maktab gulistoni” (1917) kabi darsliklar yaratdi.Bu asarlarida hamda publitsistik maqolalarida dunyo xalqlari madaniyatini, ilm-fanni, maktab va maorifga chorlaydi.XX asr boshlarida yangi maktablar uchun yozilgan alifbelar anchagina edi. Shular orasida Avloniyning “Birinchi muallim” asari ham o’ziga xos

o’ringa ega. Avloniy uni yozishda Saidrasul Aziziyning “Ustozi avval” asariga suyanadi. Avloniyning “Ikkinchi muallim” asari “Birinchi muallim” kitobining uzviy davomidir. Biz birinchi kitobni shartli ravishda, alifbe deb, ikkinchi kitobni xrestomatiya deb atashimiz mumkin[6]. Abdulhamid Cho‘lpon milliy o‘zlikni, ona tilini, milliy tarix va madaniyatni himoya qilishni targ‘ib qilgan, shu bilan birga inson erkinligi, adolat, halollik va ma’naviy barkamollik kabi umuminsoniy qadriyatlarni ham qadrlagan. Cho‘lponning ijodida milliy g‘urur va insoniy ideal bir-birini to‘ldiradi, shuning uchun uning asarlari o‘quvchida nafaqat milliy, balki insoniy ongni rivojlantiradi.

Tarixiy davr va tarixiy sharoit Cho‘lpondan muhabbat va tabiat lirikasidan ko‘ra shu davrdagi o‘zbek xalqining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy ahvolini yaxshilashga qaratilgan asarlar yozishni taqozo etdi. Vatan va millat manfaati bilan yashagan shoir davrning shu talabi bilan bolsheviklar olib borgan siyosatning mustamlakachilik mohiyatini fosh etishga, xalqni zulm va zo‘ravonlikka qarshi hurriyat uchun kurashga da’vat etishga qaratilgan she’rlar yozdi („Buzilgan o‘lkaga“, „Xalq“, „Vijdon erki“, „Kishan“ va boshqalar). Cho‘lpon bu she’rlari bilan adabiyotning kurash quroliga aylanishi mumkinligini isbotlab berdi. Shoirning yurak qoni bilan yozilgan bu she’rlari vatandoshlarida o‘zbek diyoriga otashin muhabbat, mustamlakachilarga nafrat, erk va hurriyat g‘oyalariga sadoqat tuyg‘ularini tarbiyaladi[7]. Abdurauf Fitratning jadidchilik ijodida milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘un tarzda namoyon bo‘ladi. U milliy ma’naviyat, madaniyat va tilni rivojlantirishni targ‘ib qilgan, shu bilan birga insonning bilimga intilishi, adolat, halollik va ijtimoiy mas’uliyat kabi umuminsoniy qadriyatlarni ham qadrlagan. Fitratning asarlarida milliy o‘zlikni saqlash va dunyoqarashni kengaytirish birdek ahamiyatga ega bo‘lib, u yoshlarni nafaqat vatanga sadoqatli, balki insoniy fazilatlarni qadrlaydigan shaxslar sifatida tarbiyalashga intilgan. Fitrat vataniga qaytgach, Buxoro jadidlarining tashkilotchilaridan biri sifatida xalqni ma’rifat va madaniyatdan bahramand qilish uchun astoydil kurashdi, xususan u Buxoroning turli tumanlarida o‘qituvchilik qilib, jadidchilik g‘oyalarini keng targ‘ib etdi. 1915-yildan „Yosh buxoroliklar“ harakatining so‘l qanotiga boshchilik qildi.

Toshkentda u asosan ilmiy, ijodiy ma’rifiy ishlar bilan ko‘proq band bo‘ldi. Bir qator darsliklar tuzdi, „Chig‘atoy gurungi“ nomli ijtimoiy-adabiy tashkilot tuzib, unda faol ishtirok etdi. 1920-yil 9-aprelda „Tong“ jurnalini tashkil etib, yosh ziyolilar avlodini millatparvarlik va vatanparvarlik ruhiyatida tarbiyalashga kirishdi. „Tong“ jurnalining shiori bo‘lgan: „Miya o‘zgarmaguncha boshqa o‘zgarishlar negiz tutmas!“ so‘zlari Fitratning shu-yillarda olib borgan faoliyatining maqsad-mohiyatini to‘la ifodalaydi[8]. Xulosa qilib aytganda, jadidlar ijodi – milliy

va umuminsoniy qadriyatlarning uyg‘un namunasi bo‘lib, u o‘z davrida yoshlarga nafaqat milliy ong va madaniyatni singdirish, balki insoniy fazilatlarni rivojlantirishga xizmat qilgan. Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulhamid Cho‘lpon va Abdurauf Fitratning asarlarida milliy o‘zlikni saqlash, ona tilini rivojlantirish, bilimga intilish, adolat va axloqiy barkamollik kabi qadriyatlar bir-birini to‘ldiradi. Shu tariqa, jadidlar merosi bugungi kunda ham yosh avlodni vatanga sadoqatli, madaniyatli va insoniy barkamol shaxs sifatida tarbiyalashda muhim ilmiy va ma’naviy manba sifatida xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. https://daryo.uz/2023/12/22/shavkat-mirziyoyev-jadidlar-goyasi-yangi-ozbekiston-strategiyasi-bilan-har-tomonlama-uygun-va-hamohang/
2. https://uz.wikipedia.org/wiki/Jadidchilik
3. JADIDCHILIK – MA’RIFAT VA JAMIYAT TAQDIRI// Ergashev Baxtiyar Ergashevich// “Ijtimoiy va gumanitar ta’lim yo‘nalishlardagi talabalarning kompetentligini oshirish: muammolar va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy-amaliy konferensiya// Samarqand-2025. 23-24-may// 6-23-b.
4. JADIDCHILIK – MA’RIFAT VA JAMIYAT TAQDIRI// Ergashev Baxtiyar Ergashevich// “Ijtimoiy va gumanitar ta’lim yo‘nalishlardagi talabalarning kompetentligini oshirish: muammolar va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy-amaliy konferensiya// Samarqand-2025. 23-24-may// 6-23-b.
5. MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY – JADID HARAKATINING AXLOQIY VA IJTIMOIY YO‘LBOSHCHISI // Abduraimov Eldor Qurbonboy o’g’li// ACADEMIC RESEARCH IN MODERN SCIENCE// 187-192-b.
6. ABDULLA AVLONIY ASARLARIDA MA’NAVIY-MA’RIFIY TARBIYA G’OYASINING AKS ETISHI// Nasriyeva Zulfiya Isroilovna // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences// VOLUME 1 | ISSUE 10// ISSN 2181-1784// SJIF 2021:5.423/320-324-b.
7. https://uz.wikipedia.org/wiki/Abdulhamid_Cho%CA%BBlpon
8. https://uz.wikipedia.org/wiki/Abdurauf_Fitrat

JADIDCHILIK HARAKATINING VUJUDGA KELISHI VA TARIXIY SHART-SHAROITLARI

Qurbonova Marjona Akmaljon qizi

Navoiy Davlat Universiteti 1-kurs talabasi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston hududida vujudga kelgan jadidchilik harakatining paydo bo‘lish omillari, tarixiy shart-sharoitlari hamda uning ijtimoiy-siyosiy va ma’rifiy ahamiyati tahlil qilinadi. Jadidlarning ta’lim tizimini isloh qilish, yangi usul maktablarini tashkil etish, milliy uyg‘onish va davlatchilik g‘oyalarini ilgari surishdagi faoliyati yoritiladi. Shuningdek, jadidchilik ta’limoti tamoyillarining zamonaviy ta’lim jarayonidagi o‘rni va ahamiyati ochib beriladi. Tadqiqot natijasida jadidchilik harakati milliy taraqqiyot va ma’naviy yuksalishning muhim bosqichi ekani asoslab beriladi.*

Kalit so‘zlar:*Jadidchilik, ma’naviy tushuncha, jasorat, ma’rifat, fidoyilik, ijtimoiy, siyosiy, ma’rifiy harakat, uyg‘onish mafkurasi, matbuotni ijtimoiyosiy, millatning o‘zligi, vatanparvarlik, milliyozodlik, konservatizm, konsepsiya, avangard jadidlar.*

Abstract. *In the modern world, a task has become urgent that requires military personnel to develop new training methods aimed at the comprehensive development of the individual. The military education system sets itself the task of training professional personnel with high personal qualities, qualities, discipline, as well as the ability to make decisions in uncertain and difficult conditions. From this point of view, the Jadidist-reform movement, which played an important role in updating education systems in countries at the beginning of the 20th century, is of particular interest. Integrating the principles of Jadidism is expected to enhance my students' educational attainment by developing critical thinking skills, responsibility, and self-mobilization.*

Key words: *Djadidism, spiritual understanding, mujestvo, enlightenment, samoottverjennost, sotsialnoe, politicheskoe, prosvetitelskoe dvijenie, ideology probujdeniya, pressa, obshchestvenno-politicheskaya, natsionalnaya identichnost, patriotism, nationalism, conservatism, concept, avant-garde djadidy.*

Kirish:XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida tub o‘zgarishlar yuz bera boshladi. Chor Rossiyasi mustamlakachilik siyosati natijasida mahalliy boshqaruv tizimi izdan chiqdi, iqtisodiy va ma’naviy hayot tanazzulga yuz tutdi. Ana shunday murakkab sharoitda millatni uyg‘otish, zamonaviy ilm-fan va ta’limni rivojlantirish maqsadida jadidchilik harakati

vujudga keldi. Jadidchilik nafaqat ma’rifiy, balki ijtimoiy-siyosiy harakat sifatida ham tarixda muhim o‘rin egallaydi. Shu nuqtai nazardan, XX asr boshlarida mamlakatlarda ta’lim tizimlarini yangilashda muhim rol o‘ynagan jadidchilik — islohot harakati alohida qiziqish uyg‘otmoqda. Jadidchilik ta’limoti tamoyillarining integratsiyasi talabalarning tanqidiy fikrlash, mas’uliyat va o‘zini safarbar etish ko‘nikmalarini rivojlantirish orqali ularning ta’lim darajasini oshirishi kutilmoqda.

Natija va tahlil: Zamonaviy dunyoda harbiy xizmatchilardan shaxsni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan yangi o‘qitish usullarini ishlab chiqishni talab qiladigan dolzarb vazifa bo‘lib qoldi. Harbiy ta’lim tizimi o‘z oldiga yuqori shaxsiy sifatlarga, fazilatlarga, intizomga, shuningdek noaniq va qiyin sharoitda qaror qabul qilish qobiliyatiga ega bo‘lgan professional kadrlarni tayyorlash vazifasini qo‘yadi. Shu nuqtai nazardan, XX asr boshlarida mamlakatlarda ta’lim tizimlarini yangilashda muhim rol o‘ynagan jadidchilik — islohot harakati alohida qiziqish uyg‘otmoqda. Jadidchilik ta’limoti tamoyillarining integratsiyasi talabalarning tanqidiy fikrlash, mas’uliyat va o‘zini safarbar etish ko‘nikmalarini rivojlantirish orqali ularning ta’lim darajasini oshirishi kutilmoqda.

Taraqqiyparvarlik harakatining O‘rta Osiyoga yoyilishi.Turkiston o‘lkasida millat istiqboli o‘ylovchi taraqqiyparvar kuchlar xalqning deyarli barcha tabaqalari – hunarmand, dehqon, savdogar, mulkdor, ulamolar orasida mavjud edi. Jadidchilik g‘oyalarining keng yoyilishida “Tarjimon” gazetasi muhim o‘rin tutdi. Ismoil Gaspiralining 1893-yilda Toshkent, Samarqand va Buxoroga tashrifi ma’rifatparvarlik g‘oyalarining keyingi rivojiga turtki bo‘ldi. 1893-yilda Buxoro amirligida birinchi yangi usul maktabi faoliyat ko‘rsata boshladi. Keyinchalik bunday maktablar boshqa hududlarda ham keng tarqaldi. O‘rta Osiyo jadidlari ma’rifatparvarlik yo‘lida qrim ziyolilari tajribalarini o‘rganish bilan birga boshqa mamlakatlardagi taraqqiyparvarlarning ilg‘or g‘oyalaridan ham foydalandi. O‘rta Osiyo taraqqiyparvarlik harakati ishtirokchilarining yoshi boshqa mamlakatlar jadid vakillaridan ajralib turgan. 1910-yilda ularning eng yoshi Abdulhamid Cho‘lpon – 13 yoshda, eng kattasi Mahmudxo‘ja Behbudiy – 36 yoshda bo‘lgan. Taraqqiyparvarlik harakatining rivojlanishi ikki bosqichda bo‘ldi. Birinchi bosqichda ma’rifatparvarlikdan boshlangan bu harakat 1917-yilga kelib o‘zining ikkinchi bosqichi siyosiy ko‘rinishga ega harakatga aylandi. O‘rta Osiyodagi milliy taraqqiyparvarlik harakati hududiy xususiyatlariga ko‘ra Turkiston, Buxoro va Xiva jadidlariga bo‘lindi. Turkiston jadidchiligining asosiy tarkibini ziyolilar tashkil qilib, ular Rossiya imperiyasi mustamlakachilik siyosatiga qarshi kurashning oldingi safarida turdi. Ular podsho hukumatining xomashyo manbaiga aylantirilgan Turkistonning kelajagini mustaqil, rivojlangan davlat sifatida ko‘rishni orzu qilishgan. XX asrning boshlarida shakllangan taraqqiyparvarlik

kuchlari davlatning boshqaruv tizimi zamon talablariga javob bermasligini, xalqning turmush darajasi past ekanini va uni o‘zgartirish lozimligini chuqur anglab yetdi. Buxoro milliy ziyolilarining harakati Turkiston o‘lkasiga nisbatan og‘ir ijtimoiy-siyosiy sharoitda yuzaga keldi. Uning tarkibi, asosan, mayda do‘kondorlar, o‘qituvchilar, hunarmandlar, savdogarlardan iborat edi. Jadidlar iqtisod va boshqaruv sohasida bir qator talablar, chunonchi, soliqlarni kamaytirish talabi bilan ham chiqdi.

Shuningdek, Buxoro jadidchiligi ayrim mutaassib mullalar, yangilik va islohotlarni xush ko‘rmaydiganlar oqimi qarshiligiga uchradi. 1910-yildan boshlab Buxoroda jadidchilik harakati siyosiy tashkilot sifatida shakllana boshladi. XX asrning boshlarida Buxoro taraqqiyparvar kuchlari vaziyatga tanqidiy yondashgan holda davlatning ichki boshqaruv tizimi zamon talablariga javob bermasligini, siyosiy-ma’muriy tuzumni o‘zgartirish lozimligini chuqur anglay boshlashdi. Xiva xonligida XX asr boshlarida shakllangan taraqqiyparvarlik harakati esa boshqacharoq tarixiy shart-sharoitda vujudga keldi. Xiva xonligida jadidchilik ikkita oqimdan iborat bo‘lib, uning o‘ng oqimi Bosh vazir Islomxo‘ja boshchiligida xonlikdagi savdo-sanoat korxonalari egalari hamda yirik boylarning vakillarini birlashtirdi. Mazkur oqim o‘z oldiga mamlakatda xon hokimiyatini saqlab qolgan holda islohotlar o‘tkazilishini maqsad qilib qo‘ydi. So‘l oqim esa qozikalon Boboxun Salimov rahbarligida sarmoyadorlar, hunarmandlar va boshqa tabaqa vakillarini birlashtirib, yangi usul maktablarini tashkil qilish orqali xalq ommasining siyosiy faolligiga erishmoqchi bo‘lishdi. Turkistonda ma’rifatparvarlik harakatining yoyilishi bu davrdagi mustamlakachi hukumat va uning amaldorlari hamda mahalliy mutaassib va johil ruhoniylarning qarshiligiga uchradi. Shunga qaramay, jadidlar matbuot, noshirlik va teatr sohalarida faoliyatlarini davom ettirdi.

1898-yilda Qo‘qon shahrida Salohiddin domla ikkinchi jadid maktabini ochdi.

1899-yili Andijonda Shamsiddin domla va Toshkentda Mannon qori jadid maktabini ochib, ko‘plab o‘quvchilarning yangi usulda ta’lim olishlariga erishdilar.

1893-yil Buxoroda birinchi, 1898-yil Qo‘qon shahrida ikkinchi jadid maktabi ochildi.

1899-yil Andijonda Shamsiddin domla va Toshkentda Mannon qori jadid maktablarini ochadilar.

Jadidchilik ta’limoti tamoyillarining integratsiyasi talabalarning tanqidiy fikrlash, mas’uliyat va o‘zini safarbar etish ko‘nikmalarini rivojlantirish orqali ularning ta’lim darajasini oshirishi kutilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev: “Jadidlar g‘oyasi — Yangi O‘zbekiston strategiyasi

bilan har tomonlama uyg‘un va hamohang. Mamlakatimiz o‘z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga kirayotgan hozirgi paytda bizga jadid bobolarimiz kabi g‘arb ilm-fan yutuqlari bilan birga, milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan yetuk kadrlar suv bilan havodek zarur”, — dedi Prezidentimiz. Davlatimiz rahbari Toshkentda “Jadidlar: milliy o‘zlik, istiqlol va davlatchilik g‘oyalari” mavzusidagi konferensiya jahon ilm-fan va madaniy jamoatchiligi o‘rtasida katta qiziqish va e’tibor uyg‘otdi. Bu ishlarni yanada kengaytirish va yangi bosqichga ko‘tarish maqsadida prezident qarori qabul qilinadi, dedi. Jadidchilik yoki jadidizm (arabcha: jadid — yangi, yangi usul tarafdorlari) — XIX asr oxiri — XX asr boshlarida Turkiston, Kavkaz, Qrim, Tatariston hayotida muhim ahamiyat kasb etgan ijtimoiy-siyosiy, ma’rifiy harakat[. Jadidchilik harakati dastlab XIX asrning 80-yillarida Qrimda vujudga keldi. XIX asrning 90-yillaridan boshlab O‘rta Osiyoda tarqaldi.

Ismoil Gaspirali nomi islom Sharq xalqlarining ma'rifatparvarlik harakati — jadidchilikning (ta'limning (ta'limotning) yangi, dunyoviyroq usuli) asos solishi va rivojlanishi bilan bog'liq bo'lib, u ko'plab musulmon mamlakatlarida boshlang'ich ta'lim berishda ko'proq dunyoviy qarashlarga urg'u beradi. Odatiy ta'limning mohiyatini va tuzilishini tubdan o'zgartirishga mansub. Ismoil Gaspirali ma'rifatparvar ta'limning kelib chiqishi va maktabda jadidchilik deb nomlangan dunyoviy bilimlarni o'qitish usulining rivojlanishida turdi. U o'zining darslik, qo'llanma va asarlarida musulmon mamlakatlaridagi boshlang'ich maktabning allaqachon tanish bo'lgan qonunlariga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatdi. Aynan Ismoil Gasprinskiy milliy-konfessional tizimni o'zgartirish asoslarini ishlab chiqib ta'lim tizimiga joriy qildi. Ismoil Gasprinskiy o'z tamoyillarini jamiyat taraqqiyotidagi taraqqiyot va konfessional bag'rikenglikka asoslagan. Ismoil yangi o'qitish usullarini nafaqat Qrimda, balki Tatariston, Qozog'iston, Boshqirdiston, Turkmaniston, Tojikiston, O'zbekiston, Qirg'iziston, Ozarbayjon, Turkiya, Shimoliy Fors va Sharqiy Xitoyda ham amalga qo'lladi. Milliy rusumdagi yangi usul maktablari uchun darsliklar, qo'llanmalar yozgan va nashr ettirgan. Ismoil Gaspirali o'sha davrdagi Rossiya matbaa ishchilari kasaba uyushmasining rivojlanishida mahkam turdi. Ismoil Gaspirali ko'plab „Kambag'al musulmonlarga yordam berish jamiyatlari”, „Kutubxona jamiyatlari”ni tashkil etish taklif va g'oyalarini tarqatgan va ularning ko'pchiligida shaxsan o'zi ishtirok etgan. Jadidchilik harakati O‘rta Osiyo tarixida tub burilish yasagan, jamiyatni uyg‘otgan, xalq tafakkurini yangilashga uringan muhim ma’rifiy va milliy harakatlardan biri sifatida tarixga kirdi. Bu harakat nafaqat ta’lim islohoti, balki milliy o‘zlikni tiklash, taraqqiyotga intilish, ayollar erkinligini ta’minlash, siyosiy va ijtimoiy ongni o‘zgartirish yo‘lida chuqur iz qoldirdi. Jadidlarning faoliyati tufayli o‘zbek xalqi

yangi bosqichga qadam qo‘ydi – ilm-fan, ma’rifat, matbuot, sahna san’ati, ijtimoiy hayotda uyg‘onish davri boshlandi. Ular ilgari surgan g‘oyalar – taraqqiyot, ilmiy dunyoqarash, milliy g‘urur, erkin tafakkur kabi qadriyatlar bugungi O‘zbekistonning davlat siyosatida, yoshlar tarbiyasida va ma’naviy hayotida o‘z aksini topmoqda.

Jadidlar hayoti, faoliyati va g‘oyalari biz uchun nafaqat tarixiy xotira, balki bugungi taraqqiyot yo‘limizni anglashda kuchli manba, saboq va ilhomdir. Ularning fidoyiligi, o‘z xalqi taqdiriga befarq bo‘lmagani, hatto hayotini xavf ostiga qo‘yib, xalq uchun xizmat qilgani – bugungi avlod uchun haqiqatan chinakam ibrat maktabidir. Shu bois, jadidchilik merosini chuqur o‘rganish, uni yosh avlodga yetkazish, ta’lim tizimida, adabiyotda, ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ib qilish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda. Bu harakatning tarixiy ahamiyati nafaqat o‘tmishni anglash, balki kelajakka to‘g‘ri yo‘l tanlashda ham muhim omildir.

Xulosa: Jadidlar harakati milliy uyg‘onish jarayonining poydevorini yaratdi. Ular o‘z faoliyatlari orqali ta’lim va tarbiyani modernizatsiya qildi, millatning ma’naviy va intellektual yuksalishiga katta hissa qo‘shdi. Bugungi kunda O‘zbekiston va boshqa Markaziy Osiyo davlatlarida ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar jadidlar merosiga tayanadi. Ularning g‘oyalari va harakatlari nafaqat o‘z zamonida dolzarb bo‘lgan, balki bugungi kunda ham katta ahamiyat kasb etmoqda. Jadidlarning ta’lim va tarbiya sohasidagi islohlari zamonaviy O‘zbekistonda yangi avlodni shakllantirishning muhim vositasi bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdurashidbekov, S. Jadidlar merosi va zamonaviylik. Toshkent: Fan, 2021.

2.Karimov, I. A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: Ma’naviyat, 2008.

3.Bobojonov, Sh. O‘zbekiston jadidchilik harakati tarixidan. Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2016.

4.Mamatqulov, A. Tarixiy shaxslar: Mahmudxo‘ja Behbudiy. Samarqand: Afrosiyob, 2019.

5.Internet manbalari: O‘zbekiston Milliy kutubxonasi raqamli bazasi, jadid.uz, uzhistorians.uz

СТАНОВЛЕНИЕ И РАЗВИТИЕ ДВИЖЕНИЯ ДЖАДИДИЗМА В ТУРКЕСТАНЕ

Атабаев Шапулат Эшпулатович,
старщий преподаватель кафедры педагогики начального образования ДжГПУ
образования ДжГПУ
Суванкулова Рухшона Гулом кизи,
студентка 2-курса факультета начального
Tel:992878545

Аннотация: *В данной статье проводится глубокий ретроспективный анализ возникновения, институционализации и эволюции движения джадидизма в Туркестане в конце XIX – начале XX века. В центре внимания автора находятся социально-экономические трансформации региона, ставшие катализатором просветительских реформ. Подробно анализируется структура новометодных школ, содержание первых национальных учебников, роль периодической печати и становление национального театрального искусства. Исследуется трансформация движения из культурно-просветительского в политическое, а также вклад ключевых фигур джадидизма в формирование концепции национальной независимости.*

Ключевые слова: *Джадидизм, Туркестан, Исмаил Гаспринский, реформа образования, усули-джадид, национальная печать, Махмудходжа Бехбуди, Мунаввар Кары, национальное возрождение, просветители, Туркестанская автономия, культурная модернизация.*

1. ИСТОРИЧЕСКИЙ ФОН И СОЦИАЛЬНО-ПОЛИТИЧЕСКИЕ ПРЕДПОСЫЛКИ

Вторая половина XIX века стала для Туркестана периодом масштабных потрясений. Завоевание региона Российской империей привело к установлению колониального режима, который внес резкие изменения в привычный уклад жизни. С одной стороны, край был интегрирован в общероссийский рынок, что способствовало развитию капиталистических отношений, строительству железных дорог и появлению промышленности. С другой стороны, местное население оказалось в условиях культурного и административного давления.

Традиционная система образования, представленная мактабами и медресе, к этому моменту находилась в состоянии глубокого застоя. Обучение основывалось на схоластике, многолетнем механическом заучивании арабских текстов без понимания их смысла. Такая система не могла подготовить кадры, способные работать в новых экономических реалиях — инженеров, юристов, экономистов и агрономов. Джадиды, будучи представителями прогрессивной интеллигенции, осознали, что без реформирования системы образования нация обречена на маргинализацию и исчезновение с исторической арены.

2. ИСМАИЛ ГАСПРИНСКИЙ И ИДЕОЛОГИЧЕСКИЕ ИСТОКИ

Огромное влияние на становление туркестанского джадидизма оказали идеи крымскотатарского просветителя Исмаила Гаспринского. Его газета «Тарджиман» (Переводчик), начавшая выходить в 1883 году, стала связующим звеном для всех тюркоязычных народов империи. Гаспринский провозгласил лозунг: «Единство в языке, мыслях и делах».

Именно он первым внедрил «усули-савтия» (звуковой метод) обучения грамоте. В 1893 году Гаспринский лично посетил Бухару и Самарканд, встретившись с местными интеллектуалами. Эти встречи стали искрой, из которой разгорелось пламя реформаторства в Туркестане. Его идеи нашли отклик в сердцах таких деятелей, как Мунаввар Кары, Махмудходжа Бехбуди и Абдукадыр Шакури.

3. НОВОМЕТОДНЫЕ ШКОЛЫ: РЕВОЛЮЦИЯ В КЛАССНЫХ КОМНАТАХ

Создание школ «усули-джадид» стало самым ярким проявлением деятельности движения. В отличие от старых школ, где дети годами сидели на полу в пыльных помещениях, джадидские школы предлагали совершенно иной подход:

Материальная база: Впервые в школах появились парты, географические карты, классные доски и глобусы.

Учебный план: Наряду с религиозными дисциплинами (в очищенном от суеверий виде), были введены светские предметы: арифметика, география, история, естествознание и гигиена. Методика: Звуковой метод позволял детям научиться читать за 40-50 дней, тогда как в старой школе на это уходило 3-5 лет.

Одной из самых известных стала школа Абдукадыра Шакури в Самарканде, открытая в 1903 году. В Ташкенте активную деятельность развернул Мунаввар Кары Абдурашидханов, основавший школу в махалле «Дархан». Джадиды сами писали учебники. «Адиби аввал» (Первый учитель)

и «Адиби соний» (Второй учитель) Мунаввара Кары, «Устади аввал» Саидрасула Азизи стали настольными книгами для тысяч детей.

4. НАЦИОНАЛЬНАЯ ПЕЧАТЬ КАК «ГЛАЗА И УШИ» НАЦИИ

Джадиды понимали, что газета — это «школа для взрослых». После революции 1905 года, когда цензура временно ослабла, в Туркестане начался настоящий бум периодики.Махмудходжа Бехбуди в 1913 году начал издавать газету «Самарканд» и журнал «Ойна» (Зеркало). В «Ойна» публиковались статьи о мировой истории, достижениях науки, необходимости изучения русского и европейских языков. В Ташкенте выходила газета «Садои Туркистон» (Голос Туркестана) под редакцией Убайдуллы Ходжаева.

Печать джадидов выполняла несколько функций:

Информационная: Знакомство читателей с мировыми событиями.

Критическая: Бичевание социальных пороков — наркомании, расточительства на свадьбах, фанатизма.

Идеологическая: Пропаганда идеи объединения нации.

5. ТЕАТР И ДРАМАТУРГИЯ: ПРОСВЕЩЕНИЕ ЧЕРЕЗ СЦЕНУ

Театр стал для джадидов инструментом визуализации проблем общества. Первой ласточкой стала драма Бехбуди «Падаркуш» (Отцеубийца), написанная в 1911 году. Сюжет о молодом человеке, который из-за отсутствия образования и плохого воспитания убивает собственного отца, потряс публику.

Театральные труппы «Турон» и другие кочевали по городам Туркестана, ставя пьесы Авлони, Хамзы, Фитрата. Театр стал местом, где неграмотный человек мог увидеть последствия своего невежества со стороны. Джадиды называли театр «ибратхона» (дом назидания).

6. БЛАГОТВОРИТЕЛЬНОСТЬ И ОБУЧЕНИЕ ЗА РУБЕЖОМ

Для финансовой поддержки своих идей джадиды создавали благотворительные общества, такие как «Жамияти хайрия». Эти организации собирали средства для покупки учебников беднякам и открытия библиотек-читален.

Самым амбициозным проектом стала отправка талантливой молодежи на обучение в Германию, Турцию и Россию. Джадиды верили, что вернувшись, эти специалисты составят костяк национальной технической и административной элиты. Среди тех, кто получил образование благодаря поддержке джадидов, были будущие основатели узбекской науки и государственности.

7. ТРАНСФОРМАЦИЯ В ПОЛИТИЧЕСКОЕ ДВИЖЕНИЕ

К 1917 году джадидизм перерос рамки просветительства. Лидеры движения выдвинули лозунг политической свободы. Февральская и Октябрьская революции 1917 года поставили джадидов перед выбором. Они создали организации «Шурои Исломия» и «Шурои Уламо».

Вершиной их политической борьбы стало провозглашение в ноябре 1917 года Туркестанской автономии (Туркистон Мухторияти) в Коканде. Это была первая попытка создания демократической республики в регионе. Несмотря на то, что автономия была разгромлена большевиками всего через три месяца, она доказала, что джадиды подготовили почву для национальной государственности.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Подводя итог анализу становления и развития джадидизма в Туркестане, можно сделать вывод, что это движение стало уникальным феноменом в истории Центральной Азии. Джадиды не просто реформировали систему образования, они инициировали процесс глобальной трансформации общественного сознания. Благодаря их усилиям, на смену средневековой схоластике пришли принципы рационализма, научного подхода и национального единства.

Основные итоги деятельности джадидов можно сформулировать следующим образом:

Интеллектуальный прорыв: Создание новометодных школ позволило в кратчайшие сроки сформировать слой национальной интеллигенции, владеющей как традиционными ценностями, так и современными светскими знаниями.

Институционализация культуры: Появление национальной периодической печати и профессионального театра заложило фундамент для современного узбекского искусства и журналистики.

Политическое самоопределение: Джадидизм прошел путь от просветительских кружков до формирования идеи национальной государственности, что нашло свое отражение в создании Туркестанской автономии.

Несмотря на трагическую судьбу большинства лидеров движения в годы сталинских репрессий, их идеи не были забыты. В современном Узбекистане наследие джадидов рассматривается как духовный фундамент Третьего Ренессанса. Уроки истории показывают, что путь к прогрессу и процветанию неизменно лежит через просвещение, науку и сохранение национальной идентичности. Идеи джадидов о гармоничном сочетании

национальных и общечеловеческих ценностей остаются актуальным ориентиром для воспитания молодого поколения в условиях глобализации.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1.Мирзиёев Ш.М. О мерах по глубокому изучению наследия и увековечению памяти жертв политических репрессий. — Ташкент, 2020.

2.Абдурашидхонов М. Tanlangan asarlar (Избранные произведения). — Ташкент: Маънавият, 2003.

3.Авлони А. Туркий гулистон ёхуд ахлок (Тюркский Гулистан или мораль). — Ташкент: Укитувчи, 1992.

4.Алимова Д.А. Джадидизм в Средней Азии. Пути реформ, надежды, созидание. — Ташкент: Институт истории АН РУз, 2000.

5.Бехбуди М. Избранные произведения / Сост. и автор предисловия Х. Саидов. — Ташкент: Маънавият, 2006.

6.Долимов У. Джадидчилик ва педагогика (Джадидизм и педагогика). — Ташкент: Akademnashr, 2012.

7.Зиёев Х. Туркистонда истиклол учун курашлар тарихи (История борьбы за независимость в Туркестане). — Ташкент: Шарк, 2001.

8.Касымов С. Джадидизм: истоки и значение. — Ташкент: Фан, 1994.

9.Фитрат А. Рассказы индийского путешественника (Мунозара). — Ташкент: Маънавият, 2000.

10.Ходжаев Ф. К истории революции в Бухаре. — Ташкент: Уздавлатнашр, 1926.

TURKISTON MUXTORIYATI VA JADID HARAKATI.
ТУРКЕСТАНСКАЯ АВТОНОМИЯ И ДЖАДИДСКОЕ ДВИЖЕНИЕ.
TURKESTAN AUTONOMY AND THE JADID MOVEMENT

Халикова Хуршида Неъматжон кизи

Андижанский государственный педагогический институт,

факультет начального образования, студентка 1-го курса, 107-группы.

E-mail: hurshidahalikova3@gmail.com

Тел:+998-93-294-75-55

Annotasiya: *Mazkur maqola Turkiston muxtoriyatlari va Jadid harakatining tarixi, maqsadlari va ijtimoiy-siyosiy ahamiyatini o‘rganadi. Maqolada jadidchilarning ta’lim, madaniyat va siyosiy sohalardagi faoliyati, ularning milliy o‘zlik va taraqqiyotga qo‘shgan hissasi bayon etilgan.*

Kalit so‘zlar: *Turkiston Muxtoriyati, jadidchilik, milliy davlatchilik, ma’rifatparvarlik, istiqlol g‘oyasi.*

Аннотация: *В данной статье анализируется процесс образования Туркестанской автономии и роль джадидской интеллигенции в её деятельности. Раскрывается значение идей национальной государственности, просвещения и развития, выдвинутых джадидами.*

Ключевые слова: *Туркестанская автономия, джадидизм, национальная государственность, просветительство, идея независимости.*

Annotation: *This article analyzes the process of the establishment of the Turkestan Autonomy and the role of Jadid intellectuals in its activities. The importance of the ideas of national statehood, enlightenment and development put forward by the Jadids is revealed.*

Keywords: *Turkestan Autonomy, Jadidism, national statehood, enlightenment independence idea.*

Введение. Конец XIX — начало XX века стали переломным временем в истории Центральной Азии. В этот период в Туркестане происходили значительные социальные, культурные и политические изменения. Туркестанские автономии и Джадидское движение возникли как ответ на

внутренние потребности общества в модернизации, сохранении национальной идентичности и адаптации к новым историческим условиям. Туркестанские автономии представляли собой попытку местных элит создать систему самоуправления, которая позволяла регулировать внутренние дела региона, одновременно защищая права и интересы местного населения. Джадидское движение, в свою очередь, выступало движущей силой образовательных и культурных реформ, продвигая новые методы обучения, модернизацию школ и повышение уровня грамотности населения. Взаимодействие автономий и джадидов создавалось не только на политическом уровне, но и через культурно-образовательные инициативы, что способствовало формированию нового поколения просвещённых людей, способных к социальным преобразованиям.

Исторический контекст Туркестанской автономии. Конец XIX — начало XX века стал переломным периодом в истории Центральной Азии. Туркестан, входивший в состав Российской империи, переживал сложное время социальных и политических трансформаций. Усиление колониального контроля, экономическая эксплуатация региона и рост недовольства местного населения создавали напряжённую атмосферу. В этих условиях идея национальной автономии стала не просто политическим проектом, а необходимостью для сохранения культурной и социальной самобытности. Туркестанские автономии возникли как ответ на два ключевых вызова: внешнее давление империи и внутреннюю потребность общества в организации собственной власти. Местные элиты осознавали, что без самостоятельного управления невозможно обеспечить стабильность, экономическое развитие и культурное возрождение региона. Автономия предоставляла возможность регулировать внутренние дела, создавать собственные образовательные учреждения и развивать инфраструктуру, соответствующую интересам местного населения. Социально-культурный контекст того времени также играл огромную роль. Джадидское движение, зародившееся в конце XIX века, ставило целью модернизацию образования и просвещение населения. Именно через образовательные инициативы джадидов и административные усилия автономий формировалась новая общественная элита, способная вести регион к прогрессу и самостоятельности. Современные школы, новые учебные программы, печатная продукция — все эти элементы создавали основу для национального самосознания и укрепления идентичности.

Влияние джадидов на Туркестанскую автономию. Джадидское движение стало одной из ключевых сил, оказавших влияние на

формирование и функционирование Туркестанской автономии. В условиях политической нестабильности и социальных преобразований конца XIX — начала XX века джадиды выступали носителями новых идей, направленных на модернизацию общества, реформу образования и укрепление национальной идентичности.Одним из важнейших аспектов их влияния было образовательное преобразование региона. Джадиды создавали новые школы, вводили современные учебные программы и преподавали науки, ранее малодоступные для местного населения: математику, естествознание, историю и географию. Эти школы не только повышали уровень грамотности, но и формировали новое поколение активных граждан, способных участвовать в управлении автономией. Помимо образования, джадиды активно продвигали культурные инициативы, которые усиливали национальное самосознание. Они писали книги и учебники на родном языке, занимались изданием периодических изданий, поддерживали театральные и литературные проекты. Например «Тараккий» («Прогресс»), «Садои Туркистон» («Голос Туркестана»), «Садои Фергана» («Голос Ферганы»), «Хуррият» («Свобода»), «Турон», «Улуг Туркистон» («Великий Туркестан») газеты.Через эти культурные практики население Туркестана начало осознавать ценность своей истории, языка и традиций, что способствовало укреплению общественной поддержки автономных институтов.

Влияние джадидов также проявлялось в политической сфере. Их идеи о необходимости модернизации и просвещения населения поддерживали цели автономии, помогали формировать управленческие кадры и создавать социальную базу для принятия новых административных и образовательных инициатив. Таким образом, джадидское движение стало неотъемлемой частью политической и культурной инфраструктуры автономии. Стоит отметить, что джадидское влияние не было однородным и столкнулось с сопротивлением со стороны консервативной части общества, которая опасалась разрушения традиционных ценностей. Тем не менее, сочетание образовательных, культурных и политических усилий джадидов значительно укрепило Туркестанскую автономию и создало прочную основу для будущих реформ и национального пробуждения.

Заключение. Туркестанская автономия и джадидское движение представляют собой важнейшие явления в истории Центральной Азии начала XX века. Они возникли в условиях социально-политической нестабильности, колониального давления и необходимости модернизации общества. Автономия стала инструментом политического самоопределения туркестанцев, а джадидское движение — движущей силой образовательных

и культурных реформ. Взаимодействие этих двух процессов создавалось не случайно. Джадиды через свои школы, учебники, культурные инициативы и периодическую прессу формировали новое поколение просвещённых людей, готовых участвовать в управлении и развитии автономии. Их деятельность укрепляла национальное самосознание, способствовала сохранению языка, традиций и культурной идентичности, что делало автономию более жизнеспособной и поддерживаемой населением. С другой стороны, Туркестанская автономия предоставляла джадидскому движению платформу для реализации образовательных, культурных и социальных инициатив. Политическая и административная структура автономии позволяла внедрять реформы и создавать условия для развития науки, искусства и грамотности. Совместная работа автономии и джадидов демонстрирует, как политические и образовательные проекты могут дополнять друг друга, создавая устойчивую основу для общественного прогресса. Несмотря на трудности — внутренние разногласия, противодействие консервативных сил и давление со стороны имперских властей — наследие Туркестанской автономии и джадидского движения остаётся актуальным и сегодня. Оно вдохновляет современные образовательные и культурные инициативы, служит примером того, как идеи просвещения и самоуправления могут сочетаться для укрепления национальной идентичности и модернизации общества.

Список литературы

1. Саидакбар Агзамходжаев. История Туркестанской автономии (Туркистон Мухторияти). — Ташкент, 2003.

2. С. С. Агзамходжаев (сост.). История Туркестанской автономии в архивных документах. — Ташкент, 2005.

3. Мустафа Чокай. Туркестан под властью Советов. — Париж, 1928.

4. Арифханов Б. А. Создание Туркестанской автономии — первый шаг к национально-демократической государственности в Туркестане. — Журнал «Исторические исследования», 2010, № 3.

5. Исломов А. Л., Шарибаев А. А. Туркестанская автономия: её значение и историческое наследие. — Ташкент, 2012.

6. Гули Т. Махмудова. Джадидское движение в Туркестане и его влияние на развитие нравственно-эстетической мысли. — Автореферат диссертации, Ташкент, 2011.

7. Гулноза Ахмаджонова. Возникновение джадидского движения в Туркестане. — Журнал «Тамаддун нури», 2015, № 2.

8. Б. А. Тураев, М. С. Хайитмуродов. Различия между джадидским движением Туркестана конца XIX — начала XX вв. — Журнал «Вестник Центральной Азии», 2014, № 1.

9. Учебный материал «Туркистон Мухторияти». — Конспект лекций по истории Туркестана, Ташкент, 2018.

10. Учебник по истории Узбекистана. Туркистон Мухторияти и национально-освободительное движение. — Ташкент, 2016.

JADID MAKTABLARI TAJRIBASI ASOSIDA DARSDAN TASHQARI MASHG‘ULOTLAR ORQALI KASBIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH MODELI.

Yodgor Turganov

Jizzax davlat pedagogika universiteti Phd.

Axmedova Shaxnoza Turdibekovna

Jizzax davlat pedagogika universiteti,

“Pedagogika nazariyasi va tarixi” 2 kurs magistranti.

+998938268900

Annotatsiya. *Mazkur maqolada jadid maktablari tajribasi asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini darsdan tashqari mashg‘ulotlar vositasida rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari yoritilgan. Jadid pedagogikasining ma’rifiy tamoyillari hamda zamonaviy kompetensiyaviy yondashuv integratsiyasi asosida muallif tomonidan model taklif etilgan. Tadqiqot natijalari pedagog kadrlar tayyorlash jarayonida tarixiy merosdan samarali foydalanish imkonini beradi.*

Kalit so‘zlar*: jadid pedagogikasi, kasbiy kompetentlik, darsdan tashqari faoliyat, pedagogik model, milliy uyg‘onish, innovatsion yondashuv.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются теоретико-методологические основы развития профессиональной компетентности будущих учителей посредством внеаудиторной деятельности на основе опыта джадидских школ. Педагогические принципы джадидского движения анализируются в контексте компетентностного подхода современного образования. Автором предложена структурно-функциональная модель,*

интегрирующая национальное педагогическое наследие с инновационными образовательными технологиями. Модель включает целевой, содержательный, деятельностный, диагностический и результативный компоненты. Результаты исследования показывают, что системная организация внеаудиторной деятельности способствует развитию самостоятельного мышления, педагогической инициативности, коммуникативных навыков и профессиональной ответственности будущих учителей. Предложенная модель может быть эффективно внедрена в системе высшего педагогического образования.

***Ключевые слова**: джадидская педагогика, профессиональная компетентность, внеаудиторная деятельность, компетентностный подход, педагогическая модель, национальное образовательное наследие, подготовка учителей.*

***Abstract:**This article examines the theoretical and methodological foundations for developing the professional competence of future teachers through extracurricular activities based on the experience of Jadid schools. The pedagogical principles of the Jadid movement are analyzed in the context of a competency-based approach in modern education. The author proposes a structural-functional model integrating national pedagogical heritage with innovative educational technologies. The model includes goal-oriented, content-based, activity-based, diagnostic, and result components. The findings demonstrate that systematic organization of extracurricular activities contributes to the development of independent thinking, pedagogical initiative, communicative skills, and professional responsibility in future teachers. The proposed model can be effectively implemented in higher pedagogical education institutions to improve teacher training quality.*

***Keywords**: Jadid pedagogy, professional competence, extracurricular activities, competency-based approach, pedagogical model, national educational heritage, teacher training.*

Kirish. Bugungi globallashuv sharoitida ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar pedagog kadrlarning kasbiy tayyorgarligiga yangi talablar qo‘ymoqda. Zamonaviy o‘qituvchi nafaqato‘z fanini mukammal bilishi, balki pedagogik, kommunikativ, axborot-kommunikatsion va ijtimoiy kompetensiyalarga ega bo‘lishi zarur.Shu nuqtai nazardan, milliy pedagogik meros, xususan jadid maktablari tajribasi o‘zining dolzarbligini yo‘qotgani yo‘q. Jadidlar ta’limni isloh qilish, yangi usul maktablarini tashkil etish, yosh avlodni ma’rifatli, mustaqil fikrlovchi shaxs sifatida tarbiyalashga alohida e’tibor qaratganlar. Ularning pedagogik qarashlari bugungi kompetensiyaviy yondashuv bilan uyg‘unlashadi.So‘nggi 5 yil ichida (2020–2024) pedagog kadrlar tayyorlash,

kompetensiyaviy yondashuv va innovatsion ta’lim texnologiyalariga bag‘ishlangan bir qator magistrlik va doktorlik dissertatsiyalarida darsdan tashqari faoliyatning ahamiyati ilmiy asoslab berilgan. Biroq jadid maktablari tajribasini aynan bo‘lajak o‘qituvchilar kasbiy kompetentligini rivojlantirish modeli bilan integratsiyalash masalasi yetarlicha tizimlashtirilmagan.

Jadid maktablari tajribasining pedagogik ahamiyati. Jadidchilik harakati XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda ma’rifiy islohotlarni boshlab berdi. Jadid maktablarida:yangi o‘qitish metodlari (usuli jadid),dunyoviy fanlarni o‘qitish,mustaqil fikrlashni rivojlantirish,vatanparvarlik va ma’naviy tarbiya,asosiy yo‘nalish sifatida qaraldi. Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov kabi ma’rifatparvarlar o‘qituvchining shaxsiy namunasini tarbiyaning asosiy vositasi deb bilganlar. Ayniqsa, sinfdan tashqari ma’rifiy tadbirlar, sahna ko‘rinishlari, munozaralar va matbuot orqali yoshlar ongini shakllantirishga alohida e’tibor berilgan.Bu jihatlar zamonaviy darsdan tashqari mashg‘ulotlar mazmuniga metodologik asos bo‘la oladi.

Kasbiy kompetentlik tushunchasining mazmuni. Pedagogik adabiyotlarda kasbiy kompetentlik quyidagilarni o‘z ichiga oladi:1. Kasbiy bilimlar tizimi,2. Amaliy ko‘nikmalar,3. Pedagogik mahorat,4. Kommunikativ madaniyat5. Innovatsion faoliyatga tayyorgarlik. So‘nggi yillarda himoya qilingan ilmiy tadqiqotlarda kasbiy kompetentlikni shakllantirishda interaktiv metodlar, loyiha faoliyati va refleksiv yondashuvning samaradorligi isbotlangan.Biroq darsdan tashqari mashg‘ulotlarning tizimli modeli asosida kompetentlikni rivojlantirish masalasi hali to‘liq ishlab chiqilmagan.

Taklif etilayotgan modelning tuzilishi

1. Maqsadli komponent

Bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish. .Maqsadli komponent modelning yo‘nalishini belgilaydi va bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy kompetentlikni darsdan tashqari mashg‘ulotlar orqali tizimli rivojlantirishni nazarda tutadi.U quyidagilarni o‘z ichiga oladi:kasbiy bilimlarni chuqurlashtirish;pedagogik mahoratni shakllantirish;kommunikativ va innovatsion kompetensiyalarni rivojlantirish;milliy-ma’naviy qadriyatlarga asoslangan tarbiyaviy pozitsiyani mustahkamlash.Masalan: Talabalar uchun “Jadid pedagogik merosi va zamonaviy ta’lim” mavzusida maxsus to‘garak tashkil etish orqali ularning kasbiy dunyoqarashini kengaytirish.

2. Mazmuniy komponent

Jadid pedagogik merosini o‘rganish.Milliy qadriyatlar asosida tarbiya.Innovatsion metodlarni qo‘llash Mazmuniy komponent darsdan tashqari

mashg‘ulotlarning ilmiy-metodik asosini belgilaydi. U quyidagi yo‘nalishlarni qamrab oladi:jadid pedagogik merosini o‘rganish;kompetensiyaviy yondashuv asoslari;innovatsion ta’lim texnologiyalari;milliy va umuminsoniy qadriyatlar integratsiyasi.Masalan:Talabalar jadid maktablaridagi “usuli jadid” metodini o‘rganib, uni zamonaviy interaktiv metodlar bilan qiyosiy tahlil qiladi va amaliy loyihalar ishlab chiqadi.Mazmuniy komponent modelning nazariy poydevorini yaratadi.

3. Faoliyat komponenti

Darsdan tashqari mashg‘ulotlar shakllari:Ilmiy to‘garaklar,pedagogik treninglar,ma’rifiy debatlar,tarixiy meros asosida loyiha ishlari,sahna ko‘rinishlari va ijodiy tadbirlar. Faoliyat komponenti modelning amaliy jihatini ifodalaydi. Bu bosqichda talabalar faol ishtirok etuvchi subyekt sifatida namoyon bo‘ladi.Quyidagi shakllar qo‘llaniladi:ilmiy to‘garaklar;pedagogik treninglar;ma’rifiy debat va munozaralar;loyiha faoliyati;sahna ko‘rinishlari va ijodiy tadbirlar.Masalan:Talabalar “Jadid maktabi modeli” bo‘yicha mini-loyiha ishlab chiqadi va uni taqdim etadi. Bu jarayonda ular metod tanlash, nutq so‘zlash va auditoriyani boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

4.Diagnostik component.Kompetensiya darajasini aniqlash testlari:kuzatuv,refleksiya,portfolio tahlili Mashg‘ulot boshida va oxirida o‘tkazilgan test natijalari solishtirilib, talabalar kompetensiyasidagi o‘sish dinamikasi aniqlanadi.

5. Natijaviy component.Kasbiy kompetentligi rivojlangan, innovatsion fikrlovchi, milliy qadriyatlarga sodiq pedagog shaxs.

Modelning afzalliklari: Tarixiy meros va zamonaviy pedagogikaning integratsiyasi;Amaliy yo‘naltirilganlik;Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv;Milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi.Shuningdek, model darsdan tashqari mashg‘ulotlarni tasodifiy emas, balki tizimli ravishda tashkil etishni nazarda tutadi.Amaliy tajriba jarayonida darsdan tashqari mashg‘ulotlar asosida tashkil etilgan trening va loyiha ishlari talabalarda:mustaqil fikrlash, nutq madaniyati, pedagogic tashabbuskorlik, ijodkorlik, kommunikativ faollik, ko‘rsatkichlarining oshishiga olib kelishi kuzatildi. Refleksiv tahlil natijalariga ko‘ra, talabalar o‘z kasbiy o‘sishiga nisbatan ongli munosabat shakllantirganliklari aniqlandi.

Xulosa. Jadid maktablari tajribasi bugungi pedagog kadrlar tayyorlash jarayonida muhim metodologik manba bo‘lib xizmat qiladi. Darsdan tashqari mashg‘ulotlar orqali kasbiy kompetentlikni rivojlantirish modeli ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.Taklif etilgan model

pedagogik oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishga yo‘naltirilgan innovatsion yondashuv sifatida tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O‘qituvchi, nashr qayta ishlangan.

2. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma’naviyat.

3. O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini rivojlantirishga oid normativ-huquqiy hujjatlar (2020–2023).

4. Pedagogik kompetentlikni rivojlantirish masalalariga oid ilmiy tadqiqotlar to‘plami (2021–2024).

5. Zamonaviy pedagogika va innovatsion texnologiyalar bo‘yicha ilmiy maqolalar (2020–2024).

6. Oliy ta’limda kompetensiyaviy yondashuvni takomillashtirishga bag‘ishlangan dissertatsiya tadqiqotlari (2021–2024).

JADIDCHILIK HARAKATINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

Toshboyev Anvar Alisher o’g’li
Toshkent davlat texnika unversiteti
Telefon raqami: +998-(93)-691-26-80
E-mail: toshboyevanvar05@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda vujudga kelgan jadidchilik harakatining shakllanish jarayoni, uning ijtimoiy-siyosiy va ma’rifiy asoslari hamda rivojlanish bosqichlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Jadidchilikning yuzaga kelishiga ta’sir ko‘rsatgan omillar, xususan, Rossiya imperiyasi mustamlakachilik siyosati, musulmon dunyosidagi islohotchilik harakatlari va mahalliy ziyolilarning ma’rifatparvarlik faoliyati yoritiladi. Shuningdek, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov hamda Abdurauf Fitrat kabi jadid namoyandalarining harakat rivojidagi o‘rni ochib beriladi. Tadqiqot davomida jadidchilik harakatining milliy uyg‘onish jarayonidagi tarixiy ahamiyati asoslab beriladi.*

Kalit so‘zlar: *jadidchilik harakati, milliy uyg‘onish, usuli jadid maktablari, ma’rifatparvarlik, Turkiston, mustamlakachilik siyosati, milliy ong, ijtimoiy islohot, jadid matbuoti, ziyolilar harakati, pedagogik islohot, tarixiy taraqqiyot*

Аннотация. *В данной статье анализируются процесс формирования и этапы развития джадидского движения в Туркестане в конце XIX – начале XX века. Рассматриваются социально-политические и культурно-просветительские предпосылки возникновения движения, влияние колониальной политики Российской империи, а также реформаторские идеи мусульманского мира. Особое внимание уделяется деятельности таких представителей джадидизма, как Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov и Abdurauf Fitrat. В работе обосновывается историческое значение джадидского движения в процессе национального возрождения.*

Ключевые слова: *джадидизм, национальное возрождение, Туркестан, просветительство, реформы образования, новая методика обучения, колониальная политика, общественно-политическая мысль, мусульманские реформаторы, национальное самосознание, интеллигенция, историческое развитие*

Annotation. *This article analyzes the formation and development stages of the Jadid movement in Turkestan in the late 19th and early 20th centuries. The study examines the socio-political and educational foundations of the movement, including the impact of the Russian imperial colonial policy and reformist ideas within the Muslim world. Particular attention is given to the activities of prominent Jadid representatives such as Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov, and Abdurauf Fitrat. The article substantiates the historical significance of the Jadid movement in the process of national awakening.*

Keywords: *Jadid movement, national awakening, Turkestan, enlightenment, educational reform, new-method schools, colonial policy, Muslim reformism, socio-political thought, national identity, intellectual movement, historical development patriotism, nationalism, conservatism, concept, avant-garde djadidy.*

Kirish (Introduction). Zamonaviy dunyoda harbiy xizmatchilardan shaxsni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan yangi o'qitish usullarini ishlab chiqishni talab qiladigan dolzarb vazifa bo'lib qoldi. Harbiy ta'lim tizimi o'z oldiga yuqori shaxsiy sifatlarga, fazilatlarga, intizomga, shuningdek noaniq va qiyin sharoitda qaror qabul qilish qobiliyatiga ega bo'lgan professional kadrlami tayyorlash vazifasini qo'yadi. Shu nuqtai nazardan, XX asr boshlarida mamlakatlarda ta'lim tizimlarini yangilashda muhim rol o'ynagan jadidchilik islohot harakati alohida qiziqish uyg'otmoqda. Jadidchilik ta'limoti tamoyillarining integratsiyasi talabalaming tanqidiy fikrlash, mas'uliyat va o'zini safarbar etish ko'nikmalarini rivojlantirish orqali ularning ta'lim darajasini oshirishiutilmoqda. O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev: "Jadidlar g'oyasi-Yangi O'zbekiston

strategiyasi bilan har tomonlama uyg'un va hamohang. "Mamlakatimiz o'z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga kirayotgan hozirgi p aytda bizga jadid bobolarimiz kabi g'arb ilmfan yutuqlari bilan birga, milliy qadriy atlar ruhida tarbiya topgan yetuk kadrlar suv bilan havodek zarur", - dedi president Davlat rahbari Toshkentda ўтказилган "Jadidlar: milliy o'zlik, istiqlol va davlatchilik g'oyalari" mavzusidagi konferensiya jahon ilmfan va madaniy jamoa tchiligi o'rtasida katta qiziqish va e'tibor uyg'otdi. Jadidchilik yoki jadidizm (arabcha: جديد jadid – yangi degan manoni anglatadi) XIX asr oxirlari XX asr boshlarida Turkiston, Kavkaz, Qrim, Tatariston hayotida muhim ahamiyat kasb etgan ijtimoiy-siyosiy, ma'rifiy harakat[1]. Jadidchilik harakati dastlab, XIX asrning 80-yillarida Qrimda vujudga keldi. XIX asrning 90-yillaridan boshlab O'rta Osiyoda tarqaldi. Jadidchilik avval madaniyat va marifat sohalaridagi harakat sifatida faoliyat yuritgan. Bu harakat vakillari taraqqiyot uchun kurashish, turkiy tillarni rivojlantirish, shu tillardagi adabiyotni boyitish, dunyoviy ilmlarni o'rganish, fan va texnika yutuqlaridan foydalanish hamda ayollar va erkaklar tengligi uchun kurashishga chaqirishgan.

Jadidchilik harakatining shakllanish omillari**.** XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda yuzaga kelgan jadidchilik harakati muayyan tarixiy sharoit, siyosiy bosim va ma’naviy ehtiyojlar natijasida shakllandi. Uning vujudga kelishi tasodifiy emas, balki bir qator ichki va tashqi omillarning o‘zaro ta’siri mahsuli edi.

1. Mustamlakachilik siyosati va siyosiy bosim

Turkistonning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi natijasida mahalliy boshqaruv tizimi, iqtisodiy va madaniy hayot jiddiy o‘zgarishlarga uchradi. Mustamlakachilik siyosati mahalliy aholining siyosiy huquqlarini chekladi, milliy qadriyatlar va an’anaviy tuzum zaiflashdi. Ana shunday sharoitda ilg‘or fikrli ziyolilar milliy o‘zlikni saqlab qolish va jamiyatni zamonaviylashtirish zaruratini angladilar. Jadidchilik harakati aynan shu ehtiyoj asosida maydonga chiqdi.

2. An’anaviy ta’lim tizimining inqirozi

XIX asr oxiriga kelib eski maktab va madrasalardagi ta’lim tizimi zamon talablariga javob bermay qolgan edi. Ta’lim asosan diniy bilimlar bilan cheklanib, tabiiy va aniq fanlarga yetarli e’tibor qaratilmas edi. Shu bois jadidlar “usuli jadid” — yangi usuldagi maktablarni tashkil etib, fonetik metod asosida savod o‘rgatish, dunyoviy fanlarni joriy etish, darsliklar yaratish tashabbusi bilan chiqdilar. Bu jarayonda Mahmudxo‘ja Behbudiy va Munavvarqori Abdurashidxonov kabi ma’rifatparvarlar muhim rol o‘ynadi.

3. Musulmon dunyosidagi islohotchilik harakatlari

Jadidchilik Turkistonda alohida hodisa bo‘lsa-da, u musulmon dunyosidagi umumiy islohotchilik jarayonlari bilan chambarchas bog‘liq edi. Qrim, Volgabo‘yi va Usmonli hududlarida boshlangan ma’rifatparvarlik g‘oyalari Turkistonga ham kirib keldi. Xususan, Ismoil Gaspirali tomonidan ilgari surilgan “Til, fikr, ishda birlik” g‘oyasi va yangi usul maktablari tajribasi Turkiston jadidlariga kuchli ta’sir ko‘rsatdi.

4. Milliy ong va o‘zlikni anglash jarayoni

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida mahalliy ziyolilar orasida milliy o‘zlikni anglash jarayoni kuchaydi. Tarixiy merosni qayta baholash, milliy til va madaniyatni rivojlantirish g‘oyalari ilgari surildi. Abdulla Avloniy va Abdurauf Fitrat kabi mutafakkirlar o‘z asarlarida millat ravnaqi ilm-ma’rifat bilan bog‘liq ekanini ta’kidladilar.

5. Matbuot va madaniy muhitning shakllanishi

XX asr boshlarida Turkistonda milliy matbuot vujudga kela boshladi. Gazeta va jurnallar jamiyatdagi muammolarni ochiq muhokama qilish, islohot g‘oyalarini targ‘ib etish imkonini berdi. Teatr va adabiyot ham ma’rifiy vositaga aylandi.

Jadidchilik harakatining asosiy namoyandalari. Jadidchilik harakati Turkistonda milliy uyg‘onish, ma’rifatparvarlik va ijtimoiy islohot g‘oyalarini ilgari surgan ilg‘or ziyolilar faoliyati bilan chambarchas bog‘liqdir. Ushbu harakatning shakllanishi va rivojlanishida bir qator yirik ma’rifatparvar va adiblarning xizmatlari beqiyos bo‘ldi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy (1875–1919). Behbudiy Turkiston jadidchilik harakatining asoschilaridan biri hisoblanadi. U yangi usul maktablarini tashkil etish, zamonaviy darsliklar yaratish hamda milliy matbuotni rivojlantirishda faol ishtirok etdi. Uning publitsistik maqolalari va dramaturgik asarlari xalqni ilm-ma’rifatga chorlagan. Behbudiy jadidchilikni faqat ta’lim islohoti emas, balki jamiyatni tubdan yangilash harakati sifatida ko‘rgan.

Abdulla Avloniy (1878–1934). Avloniy jadid pedagogik tafakkurining yirik namoyandasi bo‘lib, yangi usul maktablari ochish va o‘quv qo‘llanmalar yaratishda muhim rol o‘ynagan. Uning “Turkiy guliston yoxud axloq” asari yosh avlodni vatanparvarlik, axloqiy poklik va ilmga muhabbat ruhida tarbiyalashga qaratilgan. Avloniy millat ravnaqi ta’lim va tarbiya bilan chambarchas bog‘liq ekanini ta’kidlagan.

Munavvarqori Abdurashidxonov (1878–1931). Munavvarqori jadid maktablarini keng yoyish, o‘qituvchilar tayyorlash va yangi pedagogik metodlarni

joriy etishda yetakchi shaxslardan biri bo‘lgan. U milliy matbuot rivojiga ham katta hissa qo‘shgan. Uning faoliyati jadidchilikning tashkiliy jihatdan mustahkamlanishiga xizmat qilgan.

Abdurauf Fitrat (1886–1938). Fitrat jadidchilik harakatining nazariy asoslarini ishlab chiqqan mutafakkir sifatida ajralib turadi. U adabiyot, dramaturgiya, tilshunoslik va siyosiy publitsistika sohalarida faoliyat yuritgan. Fitrat milliy istiqlol, zamonaviy davlat qurilishi va madaniy taraqqiyot masalalarini ilmiy jihatdan asoslab bergan.

Ismoil Gaspirali (1851–1914). Garchi u Turkistonda yashamagan bo‘lsa-da, Gaspiralining ma’rifatparvarlik g‘oyalari jadidchilik harakatiga kuchli ta’sir ko‘rsatgan. Uning “Til, fikr, ishda birlik” shiori va yangi usul maktablari tajribasi Turkiston jadidlariga namuna bo‘lgan.

Jadidchilik harakatining rivojlanish bosqichlari. Jadidchilik harakati Turkiston ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida bosqichma-bosqich rivojlangan murakkab jarayon bo‘lib, uning taraqqiyotini shartli ravishda uch asosiy bosqichga ajratish mumkin. Har bir bosqich o‘ziga xos tarixiy sharoit va maqsadlar bilan tavsiflanadi.

I bosqich: Shakllanish davri (XIX asr oxiri – 1905-yilgacha). Bu davr jadidchilikning g‘oyaviy asoslari shakllangan bosqichdir. Asosan ma’rifiy islohotlar ilgari surildi. Yangi usul (usuli jadid) maktablari tashkil etilib, fonetik metod asosida savod o‘rgatish yo‘lga qo‘yildi. Mazkur bosqichda jadidlar jamiyatni yangilashning asosiy yo‘li sifatida ta’limni ko‘rdilar. Ular eski maktab va madrasalardagi ta’lim tizimini tanqid qilib, dunyoviy fanlarni o‘qitish zarurligini ta’kidladilar. Bu davrda Ismoil Gaspirali g‘oyalari Turkistonga kirib kelib, mahalliy ziyolilar faoliyatiga kuchli ta’sir ko‘rsatdi.

II bosqich: Faollashuv davri (1905–1917-yillar).1905-yilgi Rossiya inqilobidan so‘ng imperiya hududlarida nisbiy siyosiy erkinlik yuzaga keldi. Bu esa Turkistonda ham matbuot va jamoatchilik faoliyatining jonlanishiga olib keldi. Jadidlar gazeta va jurnallar chiqara boshladilar, teatr truppalari tashkil etdilar, ijtimoiy muammolarni ochiq muhokama qildilar. Harakatning ma’rifiy yo‘nalishi bilan bir qatorda ijtimoiy-siyosiy mazmuni ham kuchaya boshladi. Bu davrda Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy va Munavvarqori Abdurashidxonov kabi namoyandalar faol ishtirok etdilar.

III bosqich: Siyosiylashuv davri (1917–1920-yillar). 1917-yil Fevral va Oktyabr inqiloblari natijasida Rossiya imperiyasi parchalanib, siyosiy vaziyat keskin o‘zgardi. Jadidlar endilikda faqat ma’rifiy islohotlar bilan cheklanib qolmay, siyosiy faoliyatga ham kirishdilar. Ular milliy muxtoriyat g‘oyasini ilgari surib, Turkistonning o‘zini-o‘zi boshqarish huquqini talab qildilar. Bu davr jadidchilik

harakatining eng faol va murakkab bosqichi bo‘ldi. Ammo 1920-yillardan boshlab sovet hokimiyatining mustahkamlanishi bilan jadidlarning siyosiy faoliyati cheklana boshladi, keyinchalik ko‘plab namoyandalar qatag‘on qilindi.

Jadidlarning ma’rifiy faoliyati. Jadidchilik harakatining asosiy maqsadi jamiyatni ilm-ma’rifat orqali yangilash, xalqni jaholat va qoloqlikdan chiqarish, zamonaviy taraqqiyot yo‘liga olib chiqishdan iborat edi. Jadidlar millat ravnaqini, eng avvalo, ta’lim tizimini isloh qilish bilan bog‘ladilar. Ularning ma’rifiy faoliyati maktab islohoti, darsliklar yaratish, matbuot va teatrni rivojlantirish kabi yo‘nalishlarda namoyon bo‘ldi.

1. **Yangi usul maktablarining tashkil etilishi.** Jadidlarning eng muhim amaliy qadami — “usuli jadid” maktablarini ochish bo‘ldi. Bu maktablarda fonetik (savtiya) metod asosida savod o‘rgatildi, darslar sinf tizimida olib borildi va aniq fanlar o‘qitila boshlandi. An’anaviy maktablardan farqli ravishda, yangi usul maktablarida geografiya, tarix, matematika, tabiiyot kabi dunyoviy fanlarga alohida e’tibor qaratildi. Bu esa yosh avlodning dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qildi. Mazkur jarayonda Mahmudxo‘ja Behbudiy va Munavvarqori Abdurashidxonov kabi ma’rifatparvarlar muhim rol o‘ynadi.

2. **Darslik va o‘quv qo‘llanmalar yaratish**. Jadidlar zamonaviy ta’limni joriy etish uchun yangi darsliklar yaratdilar. Bu darsliklar sodda, tushunarli tilda yozilib, amaliy bilim berishga yo‘naltirilgan edi. Masalan, Abdulla Avloniy tomonidan yaratilgan “Turkiy guliston yoxud axloq” asari nafaqat o‘quv qo‘llanma, balki axloqiy-tarbiyaviy dastur vazifasini ham bajargan. Jadid darsliklari milliy ruh va zamonaviy bilim uyg‘unligiga asoslangan edi.

3. **Matbuot orqali ma’rifat tarqatish.** XX asr boshlarida jadidlar milliy matbuotni rivojlantirish orqali keng jamoatchilikka ta’sir ko‘rsatdilar. Gazeta va jurnallar sahifalarida ta’lim, jamiyat, ayollar huquqi, taraqqiyot va milliy ong masalalari ko‘tarildi. Matbuot jadidlar uchun nafaqat axborot vositasi, balki islohot g‘oyalarini targ‘ib qiluvchi ma’rifiy minbar vazifasini o‘tadi.

4. **Teatr va adabiyotning ma’rifiy ahamiyati.** Jadidlar teatrni xalqni tarbiyalash va ijtimoiy muammolarni yoritish vositasi sifatida baholadilar. Sahna asarlari orqali jaholat, xurofot, savodsizlik va ijtimoiy tengsizlik tanqid qilindi. Abdurauf Fitrat va Mahmudxo‘ja Behbudiy dramaturgiya va publitsistika orqali jamiyatni yangilash g‘oyalarini ilgari surdilar.

5. **Ayollar ta’limiga e’tibor**. Jadidlarning ma’rifiy faoliyatida ayollarni o‘qitish masalasi ham muhim o‘rin tutdi. Ular jamiyat taraqqiyoti uchun ayollarning savodli bo‘lishi zarurligini ta’kidladilar. Ayrim hududlarda qizlar uchun maktablar tashkil etildi, ayollarning ijtimoiy faolligi targ‘ib qilindi.

Umumiy xulosa. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda vujudga

kelgan jadidchilik harakati milliy tariximizda tub burilish yasagan ijtimoiy-ma'rifiy va siyosiy hodisa sifatida namoyon bo'ldi. U mustamlakachilik sharoitida yashayotgan jamiyatni jaholat va qoloqlikdan chiqarish, zamonaviy taraqqiyot yo'liga olib chiqish, milliy o'zlikni saqlab qolish va rivojlantirishga qaratilgan keng qamrovli islohot harakati edi. Jadidchilik harakati shakllanishiga Rossiya imperiyasi mustamlakachilik siyosati, an'anaviy ta'lim tizimining inqirozi, musulmon dunyosidagi islohotchilik oqimlari hamda milliy ongning uyg'onishi kabi omillar ta'sir ko'rsatdi. Dastlab ma'rifiy yo'nalishda boshlangan harakat keyinchalik ijtimoiy va siyosiy mazmun kasb etdi. Yangi usul maktablarining ochilishi, zamonaviy darsliklar yaratilishi, milliy matbuot va teatrning rivojlanishi jamiyat tafakkurida muhim o'zgarishlarni yuzaga keltirdi. Harakatning yetakchi namoyandalari — Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat va boshqalar — o'z faoliyati orqali milliy uyg'onish g'oyalarini ilmiy, pedagogik va adabiy jihatdan asoslab berdilar. Ular millat ravnaqi, avvalo, ilm-fan va ta'lim taraqqiyoti bilan bog'liq ekanini chuqur anglab, shu yo'lda fidokorona mehnat qildilar. Garchi jadidlarning ko'pchiligi keyinchalik siyosiy qatag'on qurboniga aylangan bo'lsa-da, ularning g'oyalari va ma'naviy merosi xalq xotirasida saqlanib qoldi. Mustaqillik yillarida jadidchilik harakati va uning namoyandalari faoliyatiga xolisona baho berilib, ularning milliy taraqqiyot yo'lidagi xizmatlari e'tirof etildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Turkiston jadidlari tarixi. – T.: Sharq, 2005. – 312 b.
2. Jadidlar va milliy uyg'onish. – T.: Fan, 2010. – 256 b.
3. Mahmudxo'ja Behbudiy asarlari. – T.: Akademnashr, 1998. – 420 b.
4. Abdulla Avloniy va usuli jadid maktablari. – T.: Fan, 2002. – 280 b.
5. Abdurauf Fitrat: hayoti va ijodi. – T.: Sharq, 2007. – 345 b.
6. Ismoil Gaspirali va musulmon islohotlari. – B.: Elm, 1995. – 310 b.
7. Qodirov, N. "Jadid matbuoti va ijtimoiy o'zgarishlar". – T.: Fan, 2012. – 198 b.
8. Tursunov, S. "Jadid pedagogikasi: nazariya va amaliyot". – T.: Akademnashr, 2011. – 224 b.
9. Holov, A. "Turkiston muxtoriyati va jadidlar siyosiy faoliyati". – T.: Sharq, 2009. – 270 b.
10. Milliy uyg'onish va jadid g'oyalari. – T.: Fan, 2015. – 312 b.

JADIDLARNING MA'RIFIY VA PEDAGOGIK FAOLIYATIDA TEATR,MATBUOT VA YANGI ADABIYOTLARNING AHAMIYATI

Polvonova Gulnora Rovshan qizi
Guliston davlat Pedagogika instituti
Pedagogika fakulteti 2-bosqich talabasi
gulnorapolvonova34@gmail.com +998-94-792-24-84

Annotatsiya*. Ushbu maqolada jadidlarning xalqimizning ilm-ma'rifatsizligiga qarshi olib borgan sayl-harakatlari,ularning bu yo'lda qilgan mehnatlari va buning uchun o'zlari yaratgan dars ishlanma,adabiyotlar hamda sahna asarlari haqida so'z boradi. Jadidlarning o'z jonlarini xatarga qo'yib matbuot hamda teatr sohasida olib borgan ishlarining ahamiyati atroflicha o'rganiladi.*

Kalit so'zlar*. Jadid islohotlari Jadid teatrlari,Padarkush pyesasi, Matbaa, Matbuot, Taraqqiy,Xurshid gazetasi,dramaturgiya*.

Jadidlarning jamiyat hayotini o'zgartirish uchun barcha sohalarda qilgan islohotlari, u hoh matbuot sohasida bo'lsin hoh ta'limda o'z samarasini ko'rsatgani sir emas .Lekin bu islohotlarda butun bir xalqni ongini,hayotini ,turmush tarzini o‘zgartirish ancha kuch talab qilgan.Bu islohotlar esa doimo qarama-qarshiliklarga uchragan.Jadidlar buning uchun almisoqdan qolgan qarashlar va tushkunlik tuyg'ulariga to'la an'anaviy adabiyotlarni keskin tanqidlarga nishon qilishar va shu bilan birga zamon talablariga mos yangi adabiyotlarni yaratish ustida ish olib borishardi. Jadidlar aynan shu davrda nasrda dastlabki qalamni tebratishdi. Jumladan, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat va Hamza Hakimzoda Niyoziy kabi ma’rifatparvarlar o‘z asarlari orqali xalqning ko‘zini ochishga harakat qildilar. Ularning asosiy maqsadi — eski maktab tizimini isloh qilish, zamonaviy dunyoqarashga ega bo‘lgan kadrlarni tarbiyalash edi.Bunda teatrlarning ahamiyatini anglagan mahalliy jadidlar undan o'z maqsadlari yo'lida foydalanishga intilishdi.

XIX-XX asrlarda O‘zbekiston hududida paydo bo‘lgan, jadid teatrlari o'zbek milliy teatrlarining ko‘p jihatidan yuksalishida katta ahamiyatga ega edi.. 1911-yilda Turkiston hududida ilk dramaturgiya va nasr sohasida asarlar sahnalashtirilgan. [1] Mahmudxo‘ja Behbudiy “Padarkush”ni – voqealari O‘rta Osiyoda kechadigan dastlabki pyesani hali 1911-yildayoq yozib tamomlagan bo‘lishiga qaramay, senzura bilan bog‘liq qiyinchiliklar tufayli uning nashri 1913-yilga qadar, sahnalashtirilishi esa 1914-yilgacha kechikib ketdi.Pyesa 1914-yilning 15-yanvar kuni ilk bor Samarqandda namoyish etilishi bilan katta muvaffaqiyat qozondi. [2] Tarkibida yetti nafar o‘rta osiyolik, bir nafardan tatar va ozarbayjon ijodkori bo‘lgan teatr guruhi keyingi bir necha hafta mobaynida Qo‘qon, Toshkent

va Kattaqo‘rg‘onga ijodiy safar uyushtirdi.[3] Sentyabr oyiga qadar “Padarkush” Turkistondagi turli truppalar tomonidan, ko‘pincha muallifning ijozatisiz, o‘n besh marotaba sahnada qo‘yildi.[4]

Shundan so‘ng uch yil davomida mahalliy teatr faoliyati gullab-yashnadi. O‘rta Osiyo jadidlari tatar yoki ozariydan tarjima qilingan sahna asarlaridan ko‘ra aynan mahalliy muammolarga bag‘ishlangan pyesalarni ma’qul ko‘rishar, shu boisdan ham ularning ko‘plari dramaturgiyada qalam tebratib, mutlaqo O‘rta Osiyodagi muammolar bo'yicha bir qancha pyesalar yaratdilar.[5] Jadidlar O‘rta Osiyoda zamonaviy teatrga asos solar ekan, jadidlar uni masxarabozlik deb atalgan eski xalq teatri an’analaridan ajratib olishga intilishdi. Xalq teatrining asosiy quroli satira bo‘lib, masxarabozlar jamiyatning turli sohalarini ayovsiz kulgi ostiga olishar, ularning zaharxandasidan xonlar tugul, hatto islomning o‘zi va ulamolar ham omon qolmas edi.[6]Shu sabab bu harakat doimiy qarshiliklarga uchrardi.Teatrni ehtiromga sazovor dargohga aylantirish maqsadida jadidlar yurtimiz an'analari va zamon talablariga mos tarzda ishlar olib borishdi.Behbudiy teatrni shunday ta'riflaydi, "Teatr-ibratxonadir".

Jadidlar teatrdan xayriya maqsadlari uchun ham foydalanishgan va mablag'lar qiroatxonalar,usuli jadid maktablari ochish uchun sarflabgan bo'lsa, mablag'ning bir qismi urush jabhasidagi musulmon dala-gospitallari va yarador musulmon askarlariga yordam ko'rsatish uchun sarflangan. Teatrlarning tobora ommalshib borishi natijasida madaniy kechalarda - madaniy, iqtisodiy va siyosiy masalalarni muhokama qilish uchun davra suhbatlari tashkil etilgan. Matbaa jadidlarning harakat dasturida markaziy o‘rin egallagan bo‘lib, ularning ko‘plari noshirlik ishida faol ishtirok etishardi. Bu davrda noshirlik ishi bilan asosan yakka shaxslar shug‘ullanganligi sababli imkoniyatlar cheklangan edi. Jadidlar esa bu sohani yangi bosqichga chiqarib, mintaqada ilk bor kitob do‘konlari va yirik tarmoqlarga asos solishdi. Bu muassasalar ayni paytda nashriyot-matbaa markazlari vazifasini ham o‘tay boshladi.Mahalliy noshirlik ishida yangi janrlar faqat XX asr boshidan va ko‘p jihatdan jadidlar faoliyati tufayli paydo bo‘lgan.[8]

Lekin Turkistondagi vaziyatni inobatga olgan holda nashr ishlariga nisbatan jadidlarning butun bir ruhiy qat’iyatiga qaramay, matbaachilik avvalo tijoriy soha bo‘lib, u yoki bu matnni chop etish uni bozorda sotish imkoniyatlari bilan belgilanar edi. Bu hol jadidlar ko‘zlagan islohotlar taqdiri uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega va bozorning shafqatsiz voqeligi esa bunda mo‘jazgina joy egallagan jadidlar uchun jiddiy sinov edi. Bunday to'siqlarga qaramay jadidlar o'z maqsadlari yo'lida davom ettilar.Misol qilib, 1914-yili Abdulla Avloniy, Toshkentning rus mavzesida “Zamon” kitob do‘konini ya’ni kutubxonasini ochishga erishadi.[8] 1916-yili toshkentlik bir necha noshir va saxovatpeshalar

bilan hamkorlikda Maktab Nashr-i Maorif Shirkati ta’sis etadi.[9]

Samarqandda ham keng ko‘lamli ishlar davom etar, Behbudiy o‘z uyida ochgan kitob do‘konini ham boshqarardi, [10]Abdulqodir Shakuriy ham 1915-yili “Zarafshon” kutubxonasiga asos soldi.[11] Bu davrda ayniqsa Farg‘ona vodiysi shaharlarida kutubxonalar (qiroatxonalar) soni o‘sib bordi va 1913–1915-yillar oralig‘ida bir necha shunday shirkatlar tashkil etildi. Matbuot sohasida islohotlar qilish uchun jadidlar avvalo iqtisodiy cheklovlar bilan ro'baro kelishadi.Bunda iqtisodiy cheklovlar Turkistonning milliy tillarida mustaqil matbuot yaratish urinishlariga ham xalaqit berar, ayni paytda, bir qator gazetalar yopilishiga rasmiy ma'murlar mas'ul edi. Gazetalarni taraqqiyot va ma'rifatga eltuvchi mayoq deb bilgan jadidlar nazarida matbuot alohida ahamiyatga ega edi. Gazetalarda boshqa yurtlar haqidagi yangiliklar, xalqaro miqyosdagi voqealar hamda shu bilan birga qo'shni respublikalardagi xalqlarning erishayotgan yutuqlari keng yoritilardi. Gazetalar fazilatini tarannum etish jadidlar matbuotida asosiy mavzulardan biriga aylandi va jadidlar adabiyotining qahramonlari ham ko‘pincha gazeta mutolaasi bilan band tarzda tasvirlanardi.

Jadidlar islohotining barcha asosiy yo‘nalishlari – yangi usul maktablari, matbuot va teatr doimo diniy ulamolar tomonidan qattiq tanqid ostiga olinardi, jadidlar esa ushbu yangi madaniy shakllariga nisbatan ishtiyoqlari himoyasi uchun ko‘p kuch sarflashga majbur edi. Ayniqsa, gazetalar muhofazakor ulamolarning shubha-gumonlariga nishon edi. Faoliyatining boshlanishidayoq “Turkiston viloyatining gazeti” o‘z mushtariylariga: “Gazit o‘qimoq va eshitmoq din va mazhabga nuqson yetkurmas, balki har nechuk ishlardan xabardor qilguvchidir[12]”, – deya murojaat yo‘llashni lozim topgan bo‘lsa-da, shubhalar baribir arimadi. 1906-yili "Taraqqiy" gazetasining ilk sonida e'lon qilingan, eski usul maktablari tanqid qilib yozilgan Munavvar qorining maqolasi toshkentlik diniy ulamolarni g'azablantiradiki ,ular shahar hokimiga vakillar yuborishadi va bu gazeta yopilishini talab qilishadi.Bu talab amalga oshmagan bo'lsa-da, gazeta boshqa sabablarga ko'ra tez orada yopilib ketadi. "Taraqqiy" gazetasi yopilganidan so'ng uch kun o'tib Munavvar qori o'zining " Xurshid"gazetasini chiaqra boshlaydi.Taraqqiy gazetisining dadil va keskin tilini meros qilib oladi.Jadid matbuotida didaktik ohanglar yaqqol sezilib turardi.Jadidlar uchun gazeta xalqni yangi islohotlarga da'vat qilishning muhim manbayi sifatida xizmat qildi.Gazetalarda badiha ,tahririyat maqolalari va ta'lim, taraqqiyot masalalariga bag'ishlangan mulohazalar doimiy ravishda nashr qilinardi.Shu bilan birga tanqidiy va pand-nasihat ruhida yozilgan she'rlar ham gazetalar mazmunini yanada boyitardi.Gazetalarda jadidlar o'zlari yashab turgan mintaqa yoki butun O'rta Osiyo hududidagi muammo va kamchiliklarni yoritishar va felyetonlar

tarzida bayon qilinardi.

Felyetonlar ko‘pincha gazetaning chorak qismini egallagan uzun badiha shaklida yozilardi.Felyetonlar hamma gazetalarning asosiy janri hisoblanardi va ko'pincha tanqidiy ruhda yozilardi.Bu tanqidiy yondashuvlar orqali Turkiston o'lkasidagi nuqsonlar manzarasini ko'rsatish bilan birga boshqa yurtlardagi yutuqlarni ko'rsatib o'tishardi.Shu yo'l bilan jadidlar xalqimizni yangi islohotlarga da'vat etishardi. Jadidlar matbuot orqali jamiyatdagi eskicha qarashlar, bid’at va xurofotlarni keskin tanqid qildilar. Bu esa konservativ qatlamning qarshiligiga sabab bo‘lsa-da, yoshlar orasida yangicha fikrlash tarzini shakllantirdi.

Jadidlar inson zakovati muammolarni hal etishiga chin dildan ishonishar, bu ishonch esa ularning dunyoqarashini yulsaltirish, tarixiylik baxsh etgan taraqqiyot tushunchasi bilan hamohang edi. Jadidlar tafakkurida muhim o‘rin tutgan ta’limning qudratiga doir konsepsiya manbalariga batafsil to‘xtalaman, negaki zamonaviylikning jadidcha talqinida bu juda muhim jihat hisoblanadi. Ammo ilm-fan chegaralari tobora kengayib, dunyoni bilishning yangi usullari kashf qilina borgani sayin, ma’rifat tushunchasining o‘zi ham qaytadan yaratila boshlandi. Jadidlar uchun, albatta, ushbu o‘zgarishlar aslo noqulaylik yaratmadi, chunki bu an’analarga zid emas, aksincha, ularni hayotga tatbiq etishga ko‘maklashardi. Taraqqiyot tushunchasi bilan ularning islomga e’tiqodlari orasida hech bir ziddiyat yo‘q, bil’aks, faqat ta’lim islomni to‘g‘ri tushunishga yo‘l ochar, o‘z navbatida, aynan islom taraqqiyotning eng yaxshi kafolati ham edi. Masalaga yana ham teranroq nazar tashlasak, jadidlarning jamiyat borasidagi tanqidiy qarashlari asosida ma’rifat haqidagi yangicha tasavvurlar turganini ko‘ramiz.Ular turli soha va yo'nalishlarda jadal rivojlanardi,misol uchun din,tarix ,siyosat, iqtisodiyot, matbuot, madaniyat kabi sohalarda.

Xulosa qilib aytganda jadidlar millatni g'aflat uyqusidan uyg'otishni o'zlarining asosiy vazifasi deb hisoblashgan va buning uchun o‘z hayotlari va borliqlarini millat istiqboli yo‘lida fido qildilar. Ularning ''Xurshid'', ''Taraqqiy'' kabi nashrlari orqali tarqatgan g‘oyalari xalqning siyosiy ongi uyg‘onishiga turtki bo‘ldi.'Usuli jadid' maktablarining tashkil etilishi va gazetalarda dunyoviy ilmlarning targ‘ib qilinishi jamiyatdagi qotib qolgan aqidalarni parchalashga xizmat qildi. Jadidlar merosi bugungi kunda ham milliy o‘zligimizni anglash va ma’rifatli jamiyat qurishda bebaho manba bo‘lib qolmoqda.Jadidlar matbuoti o‘z davrining chinakam 'uyg‘otuvchi ovoz bo'lib xalqni ma'rifatga chorladi,ularni eski qarashlarini taraqqiyot g'oyasiga almashtirishdi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1.https://uz.wikipedia.org/wiki/Jadid_teatrlari#cite_ref-2

2."Turkiston viloyatining gazeti",1914-yil 6-mart soni.

3.Mamadjon Rakhmanov, Uzbekskii teatr s drevneishikh vremen do 1917 goda (Tashkent, 1968), 280.

4.Mahmud Xo‘ja [Behbudiy], “Padarkush vajhidan”, Oyina, 13-sentyabr 1914, 1130.

5.Samarqandda tiyotir”, Oyina, 1914-yil 1-fevral, 263; “Kattaqo‘rg‘onda tiyotir”, Oyina, 1914-yil 29-mart, 349.

6.Rakhmanov ,Uzbekskii teatr, 195-198.

7.Adeeb Khalid, “Printing, Publishing, and Reform in Tsarist Central Asia”, International Journal of Middle East Studies 26 (1994): 187-200.

8.TsGARUz, f. 17, d. 17273, ll. 94, 95.

9."Maktab” nashr-i maarif shirkatining qanuni”, Turan (Tashkent), 5 May 1917.

10.“Behbudiya kutubxonasi”, Oyina, 27 April 1914, 522.

11.Vadud Mahmudi, “Muallim Abduqodir Shakuri”, Sadoi Sharq, 1990, no. 8, 30.

12."Ma'lumotnoma",TWG,8-yanvar 1874.

13. Xolid, A. Turkistonda jadidchilik / A. Xolid; ilmiy muharrir S. Salim. – Toshkent: Akademnashr, 2025. – 544 b.

JADIDLAR MEROSI — YANGI O‘ZBEKISTON VA UCHINCHI RENESSANSNING MA’NAVIY POYDEVORI

O‘ktamova Sabrina Mahmud qizi
Qarshi davlat universiteti, Geografiya va Agronomiya fakulteti, Ekologiya yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: *Ushbu ilmiy maqolada jadidchilik harakatining vujudga kelishi, uning ma’rifiy-ijtimoiy ahamiyati va milliy uyg‘onishdagi o‘rni atroflicha tahlil qilinadi. Jadid bobolarimizning ta’lim, madaniyat, milliy ong va atrof-muhitni asrash borasidagi ilg‘or g‘oyalari bugungi Yangi O‘zbekiston sharoitida, xususan, Uchinchi Renessans poydevorini qurishda qanday dolzarblik kasb etayotgani ilmiy asosda yoritib berilgan. Prezident Shavkat Mirziyoyevning jadidlar merosiga oid qarashlari va ularni zamonaviy rivojlanish strategiyasiga integratsiyalash masalalari ham o‘z ifodasini topgan.*

Kalit so‘zlar: *Jadidchilik, ma’rifatparvarlik, milliy uyg‘onish, Uchinchi Renessans, Shavkat Mirziyoyev, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, ta’lim islohoti, milliy o‘zlik.*

Kirish. Bugungi kunda O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, shuningdek, Uchinchi Renessans poydevorini yaratishdek ulug‘vor maqsadlar negizida chuqur ma’rifiy va ma’naviy ildizlar yotadi. Shubhasiz, bu ildizlar o‘tmishimizning yorqin sahifasi – jadidchilik harakatiga borib taqaladi. Jadidlar o‘z davrida millatni jaholat botqog‘idan qutqarish, uni ilm-fan va ilg‘or texnologiyalar bilan qurollantirish orqali ozodlikka erishishni ko‘zlagan buyuk ma’rifatparvarlar edi. Ularning "El birligi, fikr birligi, ish birligi" shiori bugun ham Yangi O‘zbekiston bunyodkorlarining asosiy tamoyiliga aylangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o‘zining “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” asarida jadidlarning millat taqdiridagi o‘rniga yuqori baho berib, shunday deydi: “Jadidlar harakati – bu shunchaki o‘quv-ma’rifiy harakat emas, balki milliy ozodlik va istiqlol uchun kurashning muhim bosqichi bo‘lgan. Ular o‘z hayotini shu yo‘lda qurbon qilib, bizga buyuk ma’naviy meros qoldirdilar” (Mirziyoyev, 2021). Bu fikrlar jadidlar merosini shunchaki tarixiy hodisa sifatida emas, balki zamonaviy rivojlanishimizning ajralmas qismi, mustahkam ma’naviy poydevori sifatida anglashga undaydi. Ushbu maqolaning asosiy maqsadi — jadid bobolarimizning ma’rifatparvarlik g‘oyalarini tahlil qilish,

ularning Yangi O‘zbekiston va Uchinchi Renessans poydevorini qurishdagi o‘rnini ko‘rsatib berishdan iborat.

1. JADIDLAR HAYOTI VA FAOLIYATI: MILLATNI UYG‘OTISH YO‘LIDAGI KURASH. XIX asr oxiri – XX asr boshlari Turkiston o‘lkasi uchun murakkab va ziddiyatli davr edi. Chor Rossiyasi mustamlakachiligi ostida xalq og‘ir ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy tushkunlikni boshidan kechirayotgan edi. Mana shunday bir paytda millatning peshqadam ziyolilari – Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Fitrat, Cho‘lpon, Usmon Nosir kabi ulug‘ jadid bobolarimiz maydonga chiqdilar. Ular millatni jaholat va qoloqlikdan xalos etish, uni ma’rifat va ilm-fan nuri bilan yoritish orqali ozodlikka erishish mumkinligini anglab yetdilar.

Jadidlarning asosiy faoliyati quyidagi yo‘nalishlarda olib borildi:

- Ta’lim islohotlari: Eski maktab-madrasalardagi eskirgan ta’lim tizimini tubdan o‘zgartirib, "Usuli jadid" (yangi usul) maktablarini tashkil etishdi. Bu maktablarda faqat diniy emas, balki dunyoviy fanlar – matematika, geografiya, tarix, fizika, xorijiy tillar ham o‘qitildi. Mahmudxo‘jaBehbudiyning "Dunyo imoratlari ichida eng ulug‘i maktabdir" degan shiori, bu zotlarning ta’limga bo‘lgan cheksiz e’tiborini yaqqol ko‘rsatib beradi. Ular bolalarning yoshligidan zamonaviy bilimlar bilan qurollanishi lozimligini uqtirdilar.

- Milliy matbuot va noshirlik: "Sadoi Turkiston", "Samarqand", "Oyna" kabi gazeta va jurnallar nashr etish orqali xalqning siyosiy, ijtimoiy va ma’naviy ongini uyg‘otishga harakat qilishdi. Matbuot sahifalarida xalqning dardlari, muammolari yoritilib, ilm-ma’rifatning ahamiyati targ‘ib qilindi.

- Adabiyot va san’at: Jadid yozuvchi va shoirlari o‘z asarlarida milliy o‘zlikni anglash, ozodlikka intilish, xurofot va jaholatga qarshi kurash g‘oyalarini ilgari surdilar. Teatrni esa "ibratxona" deb atab, sahna asarlari orqali jamiyatdagi illatlarni tanqid qildilar, xalqni ma’rifatga chaqirdilar. Fitratning "Hind ixtilochilari", "Temur sag‘anasi" kabi dramalari buning yorqin misolidir.

2. JADIDLARNING TA’LIM, MA’RIFAT VA MILLIY ONG TARAQQIYOTIDAGI O‘RNI. Jadidlarning eng katta xizmatlaridan biri — ta’lim tizimida olib borgan tub islohotlari bo‘ldi. Ular eski, eskirgan ta’lim usullarini qat’iy rad etib, progressiv, amaliyotga yo‘naltirilgan o‘qitish tizimini joriy qildilar. "Usuli jadid" maktablari zamonaviy pedagogik yondashuvlar, yangi darsliklar va o‘qitish metodlari bilan jihozlandi. Bu maktablar nafaqat bilim berdi, balki bolalarda erkin fikrlash, tashabbuskorlik va milliy g‘ururni shakllantirishga xizmat qildi. Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asari bugungi kunda ham yoshlar

tarbiyasida bebaho manba bo‘lib kelmoqda. Uning "Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat masalasidir" degan hikmatli so‘zlari, tarbiyaning millat kelajagidagi hal qiluvchi o‘rnini ta’kidlaydi (Avloniy, 1992). Jadidlar zamonaviy ta’limni xalqni dunyo sivilizatsiyasi bilan bog‘lovchi ko‘prik deb bilishdi. Ular Rossiya va boshqa mamlakatlarda tahsil olishga targ‘ib qilib, millat farzandlarining ilg‘or bilimlarni egallashiga sharoit yaratishga intildilar.

Milliy ongni shakllantirishda ham jadidlar misli ko‘rilmagan jasorat ko‘rsatdilar. Ular o‘zbek tilining sof holatini saqlash, uni rivojlantirishga katta e’tibor berishdi. Milliy adabiyot, musiqa, san’at va milliy qadriyatlarni targ‘ib qilish orqali xalqning o‘zligini anglashiga yordam berdilar. Ular yoshlarda Vatanga muhabbat, milliy g‘urur va mustaqillik ruhini shakllantirishni o‘zlarining asosiy vazifasi deb bildilar.

3. JADIDLAR MEROSINING ZAMONAVIY JAMIYATDAGI DOLZARBLIGI VA EKOLOGIK ONG BILAN BOG‘LIQLIGI. Bugun biz qurayotgan Yangi O‘zbekiston, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, "inson qadri uchun" tamoyiliga asoslangan davlatdir. Bu tamoyilning tub ildizlari jadidlarning "har bir inson ma’rifatli va baxtli yashashga haqlidir" degan g‘oyalariga borib taqaladi. Prezidentimiz 2020-yil 30-sentyabr kuni O‘qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan so‘zlagan nutqida: "Yangi O‘zbekistonning ta’lim tizimi jadid bobolarimizning ma’rifatparvarlik an’analariga asoslanishi kerak" deb ta’kidladi.

Jadidlar merosining bugungi kundagi dolzarbligi bir necha muhim yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi:

1. Ta’lim tizimidagi islohotlar: Jadidlarning "Usuli jadid" maktablari bugungi zamonaviy ta’lim tizimi, ixtisoslashtirilgan maktablar va Prezident maktablarining g‘oyaviy asosi hisoblanadi. Ular dunyoviy ilmlarni o‘rganish orqali jahon bilan bo‘ylashishni maqsad qilgan edilar. Bu esa bugungi kunda raqamli iqtisodiyot va global raqobat muhitida kadrlar tayyorlashda fundamental ahamiyatga ega.

2. Ma’naviy-axloqiy tarbiya: Globallashuv davrida yoshlarning ma’naviy qadriyatlarga sodiqligi va immunitetini shakllantirishda jadidlar merosi bebaho manbadir. Abdulla Avloniyning axloqiy prinsiplari, Fitratning Vatanni sevishga chorlovlari yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

3. Ekologik ong va barqaror rivojlanish: Geografiya va Agronomiya fakulteti Ekologiya yo‘nalishi talabasi sifatida shuni alohida ta’kidlash joizki, jadidlar nafaqat ta’lim va adabiyotga, balki iqtisodiyot, agrar soha va jamiyatning barcha bo‘g‘inlarini isloh qilishni istashgan. Ular obodlik va madaniyat g‘oyalarini ilgari surishgan. Bugungi kunda biz ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, aholini ekologik bilimlarga o‘rgatish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, barqaror

rivojlanishga erishish masalalarini o‘rganib, tadqiqot olib borishimiz ham jadid bobolarimiz orzu qilgan "obod va madaniy yurt" tushunchasining zamonaviy talqini bilan bog‘liq.

Jadidlar tabiatga nisbatan hurmat bilan yondashish, uni asrab-avaylashni targ‘ib qilganlar. Masalan, sug‘orish tizimlarini yaxshilash, yerlardan unumli foydalanish, obodonlashtirish ishlari ularning faoliyatida muhim o‘rin tutgan. Bugungi kunda iqlim o‘zgarishi, suv resurslari tanqisligi, havoning ifloslanishi kabi global ekologik muammolar fonida, jadidlarning tabiatga ongli munosabatda bo‘lish chaqiriqlari yanada dolzarblik kasb etmoqda. "Ekologik madaniyat" tushunchasining ildizlari ham jadidlarning ma’rifatparvarlik faoliyatida mavjud.

4. UCHINCHI RENESSANS VA JADIDLAR MEROSI. Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan Uchinchi Renessans g‘oyasi, aynan jadidlarning intilishlari va orzulari bilan uzviy bog‘liqdir. Birinchi va Ikkinchi Renessanslar kabi, Uchinchi Renessans ham ma’rifat, ilm-fan, innovatsiyalar va milliy qadriyatlar uyg‘unligiga asoslanadi. Jadidlar o‘z davrining qoloqlik va jaholatini yengish uchun birinchi navbatda bilim va madaniyatni asosiy qurol deb bilganlar. Bugungi Uchinchi Renessans esa ana shu g‘oyalarni yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan. Bu jarayonda har bir yoshning, ayniqsa ilm-fan sohasida tahsil olayotgan talabalarning faol ishtiroki muhim. Jadidlar merosini chuqur o‘rganish va uni zamonaviy sharoitda qo‘llay bilish — yoshlarga mustahkam g‘oyaviy asos beradi. Mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida jadidlarning bilim va kasb-hunarga bo‘lgan chaqiriqlari muhim dasturilamal bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, jadidlar merosi – bu shunchaki o‘tmish xotirasi emas, balki kelajakni qurish uchun yo‘lchi yulduzdir. Ularning ma’rifatparvarlik g‘oyalari chorasiz o‘tmishda qolib ketgan hayotga tatbiq etilishi bugungi yosh avlodning eng muhim vazifalaridan biridir. Biz – yoshlar, jadid bobolarimizning orzularini amalga oshirish, ularning merosini asrash va rivojlantirish orqali Yangi O‘zbekistonni yanada yuksak cho‘qqilarga olib chiqishga mas’ulmiz. Prezident Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Biz bu ulug‘ zotlarning hayoti va faoliyatini o‘rganish orqali o‘zligimizni anglaymiz, ularning orzularini amalga oshiramiz va yoshlarimizni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalaymiz”. Bu so‘zlar bizga jadidlarning yorqin g‘oyalariga tayangan holda, Uchinchi Renessans poydevorini qurishdek mas’uliyatli vazifani yuklaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. "Yangi O‘zbekiston strategiyasi". – Toshkent: "O‘zbekiston", 2021.

2. Mirziyoyev Sh.M. O‘qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan so‘zlagan nutqi (2020-yil 30-sentyabr). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti.

3. Avloniy A. "Turkiy guliston yoxud axloq". – Toshkent: "O‘qituvchi", 1992.

4. Behbudiy M. "Tanlangan asarlar". – Toshkent: "Ma’naviyat", 1999.

5. Qosimov B. "Milliy uyg‘onish: jasorat, ma’rifat, fidoiylik". – Toshkent: "Ma’naviyat", 2002.

6. Ziyoyev H. "Jadidchilik harakati va milliy istiqlol g‘oyasi". – Toshkent: "O‘zbekiston", 2000.

YANGI O’ZBEKISTONDA HUQUQIY ONG VA HUQUQIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA TURKISTON JADIDLARI MA’RIFATPARVARLIK G‘OYALARINING TARIXIY ZARURATI

Ergasheva Farangiz
Navoiy davlat universiteti Ijtimoiy va gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi (huquq ta'limi)1-bosqich magstranti
tel. 90 089 62 62

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Turkiston jadidchilik harakati namoyandalarining ma’rifatparvarlik g‘oyalari hamda ularning Yangi O‘zbekistonda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirishdagi tarixiy ahamiyati tahlil qilinadi. Jadidlarning ta’lim sohasidagi islohotlari, yangi usuldagi maktablarni tashkil etishi, yoshlarni zamonaviy bilimlar bilan tarbiyalash hamda jamiyatda milliy ong va vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishdagi o‘rni yoritiladi. Shuningdek, jadidlar ilgari surgan innovatsion g‘oyalar va ularning jamiyat taraqqiyotiga ko‘rsatgan ijtimoiy-madaniy ta’siri o‘rganiladi. Tadqiqotda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda ta’lim tizimi, ma’naviy qadriyatlar hamda huquqiy targ‘ibotning ahamiyati ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *Jadidchilik harakati, Turkiston jadidlari, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, ma’rifatparvarlik g‘oyalari, vatanparvarlik tarbiyasi, ta’lim tizimi, milliy ong, demokratik huquqiy davlat, Yangi O‘zbekiston.*

“Turkiston jadidchilik harakati namoyandalarining ma’rifiy faoliyatida vatanparvarlik tarbiyasi va uning tarixiy ahamiyati. Innovatsion g‘oyalar va

madaniy yangilanish” masalasida Turkistonda XIX–XX asrlar boshlarida yuzaga kelgan jadidlar harakatining ma’rifiy faoliyati va uning ijtimoiy, madaniy, ta’lim tizimidagi ahamiyati o‘rganiladi. Jadidlar ta’lim sohasidagi yangiliklar, vatanparvarlik tarbiyasi, an’anaviy ta’lim tizimi va diniy maktablarga qarshi kurash orqali yoshlarni zamonaviy bilimlar bilan ta’minlashni maqsad qilganlar. Tadqiqotlarda jadidlarning innovatsion ta’lim g‘oyalari, ularning jamiyatni rivojlantirishdagi o‘rni, yoshlarda vatanparvarlik his-tuyg’ularini shakllantirish va ayniqsa Turkiston hududida ta’limni zamon bilan moslashtirish yo‘lidagi sa’y-harakatlari tahlil qilinadi. Jadidchilik harakatining dolzarbligi, ayniqsa bugungi kunda, ta’lim tizimining modernizatsiyasi va madaniy yangilanish jarayonida jadidlarning ishlari muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi. Jadidlar harakatining o‘rganilishi o‘tmishdagi ilmiy, madaniy va ma’naviy izlanishlarni yanada chuqurroq tushunishga imkon yaratadi. Ilmiy yangiliklar sifatida, tadqiqotda jadidlarning ma’rifiy faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari, ularning ta’lim tizimiga kiritgan yangiliklari, shuningdek, bu harakatlarning ijtimoiy va madaniy rivojlanishga bo‘lgan ta’siri yangi tahlil va xulosalar orqali ochib beriladi. Natijalar, jumladan, jadidlar harakatining ijtimoiy ta’siri, ularning madaniy yangilanishga bo‘lgan hissasi, vatanparvarlik tarbiyasi va ta’lim tizimining transformatsiyasidagi o‘rni aniq ko‘rsatilgan.

Turkiston jadidchilik harakati namoyandalarining ma’rifiy faoliyatida vatanparvarlik tarbiyasining o‘rnini o‘rganish, ularning milliy ongni uyg‘otishdagi roli va tarixiy ahamiyatini tahlil qilishdir. Shuningdek, jadidlarning ilg‘or innovatsion g‘oyalari va madaniy yangilanishga qo‘shgan hissasi ham tadqiq etiladi.

Asosiy manba sifatida jadidchilik harakati yetakchilarining asarlari, ularning matbuotdagi chiqishlari hamda zamonaviy tadqiqotchilarning ilmiy ishlari o‘rganildi. Shuningdek, Turkiston jadidlarining ta’lim, madaniyat va ijtimoiy sohalardagi faoliyati tahlil qilinadi.

Jadidlar Turkiston jamiyatida yangi dunyoqarashni shakllantirish, xalqning savodxonligini oshirish va vatanparvarlik ruhini mustahkamlashda muhim rol o‘ynagan. Ular maktablar ochib, yangi usuldagi ta’limni joriy qilgan, milliy matbuotni rivojlantirgan hamda jamiyatni isloh qilishga qaratilgan innovatsion g‘oyalarni ilgari surgan. Ularning ma’rifiy faoliyati natijasida Turkiston xalqlari orasida milliy o‘zlikni anglash va istiqlol g‘oyalariga bo‘lgan intilish kuchaygan.

Turkiston jadidlari ma’rifatparvarlik g‘oyalari tarixiy zarurati shundaki, bugungi kunda Yangi O’zbekistonda demokratik huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati qurishning muhim shartlaridan biri shaxsning asosiy huquq va erkinliklari ta’minlash va har bir inson huquqlarini himoya qilishning amaliy kafolatlari

tizimini yaratilganligidir. Huquqiy demokratik davlat qurish va jamiyat taraqqiyotining rivoji, o'sib kelayotgan avlodning ta'lim darajasining, huquqiy savodxonligining yuqoriligiga bevosita bog'liqdir. Huquqiy demokratik davlatning eng muhim belgilari bo'lgan qonun ustuvorligini ta'minlash va yuksak darajadagi huquqiy ong va madaniyatga ega bo'lgan barkamol avlodni tarbiyalash – bu islohotlarning o'zagini tashkil etmoqda. O'zbekiston Respublikasida yoshlar manfaatlarini ko'zlagan holda amalga oshirilayotgan bu boradagi savobli ishlar o'z natijasini berishi uchun yuksak ma'naviyat va ma'rifatga ega bo'lish, tarixga nisbatan dahldorlik hissini sezish va albatta konstitutsion burchni bajarishdek yuksak mas'uliyat talab qilinadi.

Jamiyatning har bir a'zosi o'z huquq va burchlarini hamda mas'uliyatini puxta bilishi, buni hayotiy ehtiyoj sifatida anglamog'i lozim.

Prezidentimiz SH.Mirziyoev mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarning mazmun-mohiyatiga – Yangi O'zbekiston strategiyasi kitobida to'xtalar ekan: - Keyingi yillarda jamiyatimiz hayotining barcha jabhalarini qamrab olgan va tadrijiy tarzda amalga oshirilgan ijtimoiy-siyosiy yangilanishlar natijasida halqimizning ongu tafakkuri, dunyoqarashi o'zgarishi bilan birga, boshqaruv ma'murlari va mulozimlarining ish uslublari, faoliyat yo'nalishlari ham yangicha sifat va zamonaviy mazmun kasb eta boshladi, deb alohida ta'kidlaydi.

Aslida "Madaniyat" - keng tushuncha. Z.M.Ma'rufov taxriri ostida chop etilgan "O'zbek tilining izohli lug'ati"da "madaniyat" tushunchasi 1) jamiyatning ishlab chiqarish, ijtimoiy va ma'naviy hayotida ko'lga kiritilgan yutuqari majmui; 2) biror ijtimoiy guruh, sinf yoki xalqning ma'lum davrda qo'lga kiritgan shunday yutuqdari darajasi va 3) o'qmishlilik, ta'lim-tarbiya ko'rganlik, ziyolilik, ma'rifat hamda turmushning ma'rifatli kishi ehtiyojlariga mos keladigan sharoitlari yig'indisi kabi ma'nolari orqali izohlanadi[1]. Shundan kelib chiqqan holda Aholining huquqiy ongi va madaniyatini shakllantirishda istiqlol tufayli qaror topgan yangicha huquqiy tafakkur va xalqimizning yuksak ma'naviy salohiyati Konstitutsiyamiz va qonunlarimizda mafkuraviy poydevor sifatida o'z ifodasini topdi. Konstitutsiyamiz, bir tomondan, ijtimoiy huquqiy ongning yuksak ifodasi bo'lmish huquqiy tizimning, huquqiy mafkura va madaniyatning bevosita mahsuli sifatida vujudga keldi, ikkinchi tomondan esa, aholining huquqiy ongi, yangicha tafakkuri va madaniyatini shakllantirish, ularni ijobiy yo'naltirish hamda yuksaltirishning muhim omili bo'lib xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 9 yanvardagi "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi farmoni qabul qilinib, unda jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishning asosiy vazifalari sifatida aholiga

mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, qabul qilinayotgan qonun hujjatlari va davlat dasturlarining mazmuni va mohiyatini izchil yetkazish tizimini shakllantirish, fuqarolar ongida «Jamiyatda qonunlarga hurmat ruhini qaror toptirish – demokratik huquqiy davlat qurishning garovidir!» degan hayotiy g'oyani mustahkamlash, yosh avlod ongiga huquq va burch, halollik va poklik tushunchalarini hamda odob-axloq normalarini chuqur singdirib borish, Konstitutsiyaning muhim jihatlarini ularga bolaligidan boshlab o'rgatish belgilab berildi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda fuqarolarimizning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish masalasiga jiddiy e'tibor qaratilgan. Chunonchi, uning 50- moddasida har kim ta'lim olish huquqiga egaligi, davlat uzluksiz ta'lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari rivojlanishini ta'minlashi, davlat maktabgacha ta'lim va tarbiyani rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratishi, bepul umumiy o'rta ta'lim va boshlang'ich professional ta'lim olishni kafolatlashi, umumiy o'rta ta'limning majburiyligi, maktabgacha ta'lim va tarbiya, umumiy o'rta ta'lim davlat nazoratida ekanligi, 51-moddada fuqarolar davlat ta'lim tashkilotlarida tanlov asosida davlat hisobidan oliy ma'lumot olishga haqliligi, 52-moddada esa, O'zbekiston Respublikasida o'qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog'lom, barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash, xalqning ma'naviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida e'tirof etilishi mustahkamlandi[2] .

O'zbekiston mustaqil bo'lganidan to shu kungacha jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish masalasida qancha bong urmaylik, huquqiy jihatdan tartibga solmaylik, bugungi kunda aholida qonunlarga va odob-axloq qoidalariga hurmat, huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik hissini uyg'otish ishiga yetarli darajada, kompleks yondashilyapti, deb ayta olmaymiz. Shaxsiy manfaatlar va jamiyat manfaatlari o'rtasidagi muvozanatni saqlash g'oyalarini aholi ongiga singdirish ishlari talab darajada, yetarli emasligi – qonun ustuvorligini ta'minlashga salbiy ta'sir etmoqda. So'nggi vaqtlarda respublikamizning turli hududlarida ba'zan mansabdor shaxslar tomonidan fuqarolarning huquqlari kamsitilishiga oid holatlar haqida global axborot tarmog'ida maqolalar berilayotganligi kuzatiladi. Bu salbiy holatlarning asl sababi fuqarolarda huquqiy bilim yetishmasligiga borib taqaladi Bundan tashqari, huquqiy madaniyatni yuksaltirishda yoshlar qatlami bilan olib borilayotgan huquqiy ta'lim va tarbiya borasidagi ishlar ham tizimli va uzviy olib borilmayotganligidan dalolat. Bu masala hali-hanuz, uzoq yillar davomida huquqni muhofaza qiluvchi organlar va ta'lim muassasalarining ishi sifatida qarab kelinib, bunda oila, mahalla va fuqarolik

jamiyati institutlarining ishtiroki yetarlicha ta’minlanmagan. Ochig’ini aytganda, targ’ibot tadbirlarida ko’pincha samarasiz seminar, davra suhbatlari va shu kabi uchrashuvlarni tashkil etish bilan cheklanib qolinmoqda, targ’ibot jarayonida innovatsion usullardan yetarlicha foydalanilmayotgani ayon bo’lmoqda. Yoshlarning huquqiy tarbiyasiga salbiy ta’sir ko’rsatuvchi omillarga nisbatan huquqiy immunitetni shakllantirish, har bir shaxsda qonunlarga va odob-axloq qoidalariga hurmat, milliy qadriyatlarga sadoqat, huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik hissini uyg’otish ishiga kompleks tarzda yondashilmayapti. Huquqiy ong va huquqiy madaniyat saviyasi qabul qilingan qonunlar soni bilan emas, balki ushbu qonunlarning to’liq ijro etilishi bilan belgilanadi. Ushbu muhim ishda odamlarda qonunlarga va normativ hujjatlarga nisbatan hurmat hissini tarbiyalash alohida ahamiyatga ega. Ayni shu mezonlardan kelib chiqib, fuqarolar ongida - Jamiyatda qonunlarga hurmat ruhini qaror toptirish — demokratik huquqiy davlat qurishning garovidir! degan hayotiy g’oyani mustahkamlash, aholiga mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, qabul qilinayotgan qonun hujjatlari va davlat dasturlarining mazmun-mohiyatini izchil yetkazish tizimini shakllantirish birlamchi asosiy vazifalarimizdan biri bo’lmog’i lozim[4]. Darhaqiqat, huquq asoslarini, Konstitutsiya va qonunlar mazmun-mohiyatini, yangi qonuniy hujjatlar, huquqiy me’yorlarni kishilarning, birinchi navbatda, yoshlarning ongi, qalbiga singdirishda hech bir narsa o’z ahamiyatiga ko’ra huquqiy tarbiyaga tenglasha olmaydi.

Aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirishda kundalik turmushda ko’p uchraydigan masalalarning huquqiy yechimlari va yangi qabul qilingan qonun hujjatlarining mohiyatini targ’ib qilish, shuningdek, huquqiy ma’lumotlarni yetkazishga qaratilgan flayer, buklet va boshqa tarqatma materiallarni oilalarga bepul tarqatish, yoshlar va ota-onalar o’rtasida nikoh yoshi, aliment to’lash shartlari, qarindoshlar o’rtasidagi nikoh va uning huquqiy oqibatlari to’g’risida muntazam ravishda huquqiy targ’ibot tadbirlarini o’tkazish, mahallalarda aholi orasidagi turli muammoli masalalar, xususan, migratsiya, moddiy yordam, yer olish, uy-joy olish, kommunal masalalar, imtiyozlar, aliment, ishga joylashish, ta’lim olish va boshqalar bo’yicha huquqiy axborotni buklet, flayer va plakatlar shaklida aholiga yetkazish, jinoyatchilik va boshqa huquqbuzarliklarning oldini olish, fuqarolik nizolarini keskin kamaytirish hamda aholida, ayniqsa, tarbiyasi og’ir bo’lgan fuqarolarda qonunga hurmat hissini uyg’otish maqsadida sudlar tomonidan mahallalarda aholi bilan ochiq muloqotlarni tizimli ravishda tashkil qilish va sayyor sud majlislari o’tkazish ko’lamini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Qayd etilgan mulohazalar huquqiy tarbiyaning yaxlit tizimi ta’kidlanganidek, quyidagi qismlardan iboratligini ko’rsatadi:

1.Huquqiy tarbiya subyektlari: (davlat idoralari, jamoat birlashmalari, mexnat jamoalari a’zolari, mansabdor shaxslar va raxbarlar);

2.Huquqiy tarbiya mazmuni: (huquqiy ta’lim, huquqiy targ’ibot, huquqiy tashviqot)

3.Huquqiy tarbiya shakllari (ma’ruza, seminar,davra suxbatlari, viktorinalar, Ommaviy axborot vositalaridagi chiqishlar va x.k. lar)

4.Huquqiy tarbiya usullari: (Ishontirish, rag’batlantirish, majburlash)[4]

Jamiyatda huquqiy madaniyatni shakllantirish va rivojlantirish, mamlakatimizda huquqiy ta’lim va bilimlar targ’ibotini tubdan yaxshilash qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarni ijrochilarga yetkazish, aholini qabul qilinayotgan qonunlarning maqsadi, mazmun-mohiyatidan keng xabardor etib borishga yo’naltirilgan maqsadli chora tadbirlarni qo’llab-quvvatlaymiz. Zero, faqat erkin, o’z huquq va majburiyatlarini biladigan, qonun va amaldagi tartib-qoidalarni hurmat qiladigan fuqaro o’z huquqlaridan to’laligicha foydalana oladi. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 15 - moddasida,- «O’zbekiston Respublikasida O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so’zsiz tan olinadi. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega, to’g’ridan-to’g’ri amal qiladi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil etadi.» deyilgan.

Yoshlarga huquqiy tarbiya berishdan asosiy maqsad har bir yosh huquqiy madaniyatni o’zlashtirib olishiga erishishdan iboratdir. Huquqiy madaniyat shaxs, jamiyat va davlat rivojlanishining o’ziga xos xususiyatidir. Jamiyatga nisbatan huquqiy madaniyat yuridik qadriyatlar va me’yorlar, huquqiy institutlar, huquqiy ong va xulq-atvor birligining sifat xususiyatini ifodalaydi. Shaxsga nisbatan esa u atrof dunyoni idrok etadigan uziga xos “huquqiy qonun” bulib, u huquqiy voqelikni o’zlashtirishining mezoni sifatida gavdalanadi. Jamiyatning huquqiy madaniyati uchun quyidagi xususiyatlar xosdir:

- qonuniylik prinsipiga rioya etish;
- qonunga itoatkorlik;
- demokratizm, shu jumladan jamoat tashkilotlarining huquq me’yorlarini ishlab chiqish va ro’yobga chiqarishda, huquqning amal qilish mexanizmida keng ishtirok etishi;
- fuqarolarning qonun bilan mustahkamlab qo’yilgan huquqlarining kafolatlanganligi;
- bu huquqlar bilan jamiyat oldi dagi majburiyatlarning birligi.

Huquqiy madaniyat unga va umuman madaniyatga qonun hujjatlari ham, mansabdor shaxslar, muassasalar va fuqarolar xulq-atvori, faoliyati ham albatta mos kelishini talab qiladi, o'z navbatida huquqiy madaniyat ko'p jihatdan huquqiy tizimning o'zi bilan, huquqing xamma tarmoqlari va me'yorlari, huquqiy muassasalarning ishlash amaliyoti bilan belgilanadi. Shaxs huquqiy madaniyatining o'ziga xos jihatlari:

- qonunga itoatkorlik;
- qonuniy va huquqiy institutlarni chuqur hurmat kilish;
- yuksak darajada ijtimoiy-xuquqiy faollik;
- huquqni ijtimoiy o'zgarishlar va shaxs manfaatlarini himoya qilishning samarali vositalaridan biri sifatida baholash. Individlarning va odamlar turli birliklarining huquqiy madaniyati ularning huquq me'yorlariga rioya etishlariga, shuningdek ularning ijtimoiy- huquqiy faolliklari darajasiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi[5].

Aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirishda ommaviy axborot vositalarining jamoatchilik nazoratini ta'minlash borasidagi rolini kuchaytirish, ularning davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari bilan aloqasini mustahkamlash, huquqiy mavzular bo'yicha ta'lim beruvchi pedagog o'qituvchilarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo'yicha magistrlik va doktorlik dissertatsiyalari tayyorlash ko'lamini kengaytirish, bunda oiladagi mojaro va zo'ravonliklar hamda ularning ijtimoiy-huquqiy oqibatlarini kompleks tadqiq qilishga alohida e'tibor qaratish dolzarb vazifalar sirasiga kiradi.

Xulosa qilib aytganda, jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish borasidagi muhim yo'nalish va vazifalarni o'z vaqtida amalga oshirish biz, huquqshunos va ziyolilardan mas'uliyat va fidoyilikni talab etadi. Zero, davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, - Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1.O'zbek tilining izohli lugati. 2 tomli. -M.: Russkiy yazık, 1981. T.1. -439-6.
2.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi T. 2023 y
3.Yangi O'zbekiston strategiyasi SH. Mirziyoev T. 2021 y
4.Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini takomillashtirish to'grisidagi PF-5618. T.2019 y.
5.Huquqiy madaniyat nazariyasi A. Saidov. U. Tadjixanov.

JADIDCHILIK HARAKATINING VUJUDGA KELISHI VA UNING TARIXIY ZARURATI

M.Dusaliyev
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
"Tarix" kafedrasi o‘qituvchisi
Telifon raqam: +99897 115-98-99

Annotatsiya. *Ushbu maqolada XIX asr oxiri va XX asr boshlarida O‘rta Osiyoda vujudga kelgan ijtimoiy-siyosiy vaziyat hamda jadidchilik harakatining shakllanish omillari tahlil qilinadi. Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida o‘lkaning iqtisodiy va madaniy inqirozga yuz tutishi milliy ziyolilarni jamiyatni isloh qilish choralarini izlashga undadi. Muallif Turkiston, Buxoro va Xiva xonliklaridagi qoloqlik, diniy mutaassiblik hamda "qadimchilar" va "jadidlar" o‘rtasidagi mafkuraviy kurash masalalariga to‘xtalib o‘tadi. Shuningdek, xalqning milliy ongini uyg‘otish, ma’rifat tarqatish va ozodlikka erishish yo‘lidagi harakatlarning ahamiyati olimlar R. Sharipov va B. Do‘stqorayevlarning fikrlari orqali asoslab beriladi. Maqola jadidchilikning nafaqat ta’limiy, balki kuchli siyosiy-huquqiy oqim sifatidagi tarixiy o‘rni va milliy davlatchilik sari qo‘yilgan ilk qadam ekanligini yoritishga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *Jadidchilik, Turkiston, mustamlakachilik, milliy uyg‘onish, islohot, ma'rifatparvarlik, qadimchilik, ozodlik harakati, Chor Rossiyasi.*

Abstract. *This article analyzes the socio-political situation that emerged in Central Asia in the late 19th and early 20th centuries, as well as the formative factors of the Jadid movement. During the period of Tsarist Russian colonialism, the economic and cultural crisis of the region prompted national intellectuals to seek measures for social reform. The author examines the backwardness and religious fanaticism in the Khanates of Turkestan, Bukhara, and Khiva, as well as the ideological struggle between the "Kadimists" and the "Jadids." Furthermore, the importance of movements aimed at awakening national consciousness, spreading enlightenment, and achieving freedom is substantiated through the perspectives of scholars R. Sharipov and B. Dostqorayev. The article serves to highlight the historical role of Jadidism not only as an educational movement but also as a powerful socio-political and legal trend, representing the first steps toward national statehood.*

Keywords: *Jadidism. Turkestan, colonialism, national awakening, reform, enlightenment, kadimizm, liberation movement, Tsarist Russia, socio-political crisis.*

XIX asr oxiri XX asrning boshiga kelib jahon sivilizatsiyasining taraqqiyotida jiddiy o‘zgarishlar yuz bera boshladi. Bu davrda jamiyatda chuqur islohotlarga qo‘l urilib, shu jumladan, ilm-fan sohasida ham muhim ahamiyat kasb etadigan ixtiro va kashfiyotlar yuz bera boshlagandi. Uzoq vaqt davomida bir jamiyatning yoki xalqning uzoq vaqt davomida boshqa bir jamiyatga qaram bo‘lib yashashi kishilarning hayotida, balki insonlarning falsafasida ham inqilob yasadi. Albatta, bu kabi g‘arb jamiyatidagi o‘zgarishlar sharq jamiyatiga ham ta'sir ko‘rsatmay qolgani yo‘q. Shu jihatdan qaraganda, XIX asr oxiri va XX asrning boshlarida O‘rta Osiyoda ham o‘zgacha fikrlovchi, dunyoga yangicha qaraydigan insonlar maydonga chiqa boshladi. Bu davrda O‘rta Osiyoning ijtimoiy-iqtisodiy tuzumi haqida to‘xtaladigan bo‘lsak, bu mintaqada ijtimoiy-iqtisodiy tuzum ancha orqada qolgan, qolaversa insonlarning turmushi juda past, jamiyatning madaniy-ma'naviy hayotida asosan islom dini peshvolarining ta'siri anchayin yuqori edi. Shunday bir vaqtda insonlar dunyoqarashida tasavvuf falsafasi an'analarini tiklashga intilayotgan bir vaziyatda, albatta ularga qarama qarshi bo‘lgan kuchlar o‘rtasida tafovutlar kelib chiqdi.

O‘rta Osiyoda mavjud bo‘lgan Buxoro, Xiva hamda Qo‘qon xonliklari o‘zaro hamjihatlikda harakat qilmaganligi oqibatida O‘rta Osiyo Chor Rossiyasiga qaram bo‘lib qolgan edi. Shu sababli O‘rta Osiyo jamiyati XIX asr oxiriga kelib mustamlakachilikning og‘ir boshqaruvi sababli siyosiy, madaniy, iqtisodiy jihatdan inqiroz holatdan chiqish, mustalakachilik siyosatidan qutulish, o‘z milliy an'analariga tayangan davlat qurish, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotga yo‘l ochish, xalqqa ziyo tarqatish uchun o‘zlarining harakatini boshlashdi. Xuddi mana shu harakat borasida jadidchilik harakatining o‘rni beqiyos edi. Shu o‘rinda jadidchilik harakatining vujudga kelish tarixiga to‘xtalsak. Shu sababdan ham jadidlarning siyosiy-huquqiy qarashlariga doir bir qancha tadqiqot ishlarini olib borgan olimlardan biri Sharipov Rustam shunday deydi: Turkistonda jadidchilik harakati o‘z-o‘zidan paydo bo‘lgani yo‘q, albatta. Uning vujudga kelishi uchun ma'lum bir obyektiv sharoit va sabablar mavjud edi. XIX asrning o‘rtasi va XX asrning boshida jamiyatda yangilanish zarurati tug‘ildi. Bir qator ijtimoiy, siyosiy, huquqiy va ma'naviy muammolar paydo bo‘ldi. Ularni hal etish uchun bel bog‘lagan bir guruh ziyolilar xalq orasida "jadidlar" deb tan olindi[2].

Sharqni g‘arbdagi mustabidlarga qaram bo‘lishga olib kelganidan milliy zulmdan qutulish uchun ozodlik kurashi asosiy hodisa hisoblanardi. Ozodlik, mustaqillik, erkka feodal qoloqlik, jaholatdan qutulgandagina erishish mumkin bo‘lgan. Buning uchun jamiyatdagi mavjud tuzumni tubdan isloh qilish lozim bo‘lib, buni amalga oshiruvchilar qotib qolgan, daqqi kuchlarga, ya'ni "qadim" (eski)larga qarshi turuvchi "jadid" (yangi)lar sifatida maydonga keldi. Shu bois jadidlar Misrda ham, Turkiyada ham, Turkistonda ham siyosiy oqim sifatida paydo bo‘ldi. To‘g‘ri,

ularning shakllanganlik, taraqqiy topganlik darajasi bir xil emasdi. Rossiya tomonidan bosib olingan o‘lkalarda ham XIX asr oxiriga kelib milliy ozodlik harakatlari oxir-oqibatda jadidlarni tarix sahnasiga chiqardi. Milliy istibdod zanjiriga tushgan xalq va elatlar qudratli imperiya changalidan faqat birlashib harakat qilgandagina qutulishlari mumkin edi. Buning uchun, eng avvalo, milliy ongni uyg‘otish, millatning o‘zligini anglab yetishuviga erishish lozim edi. Qulning qul ekanligini anglab, ozodlikka chiqishi uchun unda o‘z ahvoliga ongli nazar tashlash qobiliyatini hosil etish talab qilinardi deb ta'kidlaydi adabiyotshunos olim B.Do‘stqorayev[3].

Jadidchilik harakati faqat Turkiston uchun xos bo‘lgan hodisa bo‘lmagan. Bu davrga kelib u ancha keng miqyoslarda Turkiya, Idil-Ural, Kavkaz, Turkistonning keng hududlarida bu harakatning vakillari faoliyat yuritardi.

XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib Kavkaz va Ozarbayjonda jadidchilik harakatining vujudga kelganligini tadqiqotchi olim Nodir Davlat ta'kidlab o‘tadi. Bu hududda, ayniqsa, neft sanoati tez sur'atlar bilan rivojlanib. Dunyo miqyosida mashhur "Nobel", "Rotshild", "Simens" kabi shirkatlar, Korokev, Shibayev, Benkendorf kabi rus sarmoyadorlari o‘z ishlarini boshlagan edi. Buning natijasida, hududga yangi texnologiya va boshqa turdagi yangiliklar jadal kirib keldi. Chunonchi, 1897 yilda Ozarbayjon aholisi bir million sakkiz yuz besh ming yetti yuz sakson sakkiz kishini tashkil etgan bo‘lsa, shundan yigirma olti ming olti yuz o‘ttiz yetti kishi neft sanoatida xizmat qilardi[4].

Shunday qilib jadidchilik dastlab XIX asrning 80-yillarida Qrimda Ismoilbek Gasprinskiy rahbarligida qrimtatarlar o‘rtasida vujudga keldi. O‘rta Osiyoda esa XIX asrning 90-yillarida tarqala boshlangan. Jadidchilik dastlab madaniyat sohasidagi harakat sifatida faoliyat yuritgan. Bu oqim vakillari jamiyat taraqqiyoti uchun kurashish, turkiy tilli xalqlarning tilini rivojlantirish, shu tilda yozilgan adabiyotni boyitish, dunyoviy ilmlarni o‘rganish, fan yutuqlaridan foydalanish hamda ayollar va erkaklar tengligi uchun kurashishga chaqirishgan. Keyinchalik jadidchilik harakati a'zolari panturkizmni g‘oyalarini ham targ‘ib qilishgan. Jadidchilik harakati vakillari o‘zlarini ko‘pincha taraqqiyparvarlar, keyinchalik esa jadidlar deb atala boshlangan. Bir so‘z bilan aytganda, o‘sha davrning ilg‘or taraqqiyparvar kuchlari, birinchi navbatda, ziyolilar mahalliy aholining umumjahon taraqqiyotidan orqada qolayotganligini his etib, jamiyatni tubdan isloh qilish zaruriyatini anglab yetgandilar. Dastlab madaniy-ma'rifiy harakat sifatida faoliyat yuritgan jadidchilar XX asrning boshlaridan ularning harakatlari siyosiylasha boshladi. Bu harakatning shakllanish va mag‘lubiyatga uchrash davrlari bo‘lib, ularni shartli ravishda ko‘pchilik tadqiqotlarda an'anaviy to‘rtga

bo‘lib o‘rganiladi. Bu davrlar 1895-1905, 1906-1916, 1917-1920, 1921-1929-yillarni o‘z ichiga oladi.

Dastlabki davrda Podsho Rossiyasining O‘rta Osiyo mintaqasida mustahkam o‘rnashib olganligini ko‘rishimiz mumkin. Mustahkam o‘rnashib olgan Podsho Rossiyasi vakillari mahalliy aholining talab va ehtiyojlarini umuman e'tiborga olmay qo‘yadi. Mahalliy aholining xohish-istaklari bir chetda tursin, hatto ularning diniy e'tiqodlari, urf-odatlari bilan hisoblashmaslik, ularni nazarga olmaslik holatlari ham yildan yilga kuchayib bordi.

Mustamlakachi hukumat vakillari hayotiy, ilmiy va amaliyotga ega bo‘lgan saviyasi yuqori bo‘lgan kadrlar o‘rnini tajribasiz kadrlar bilan almashtirdi. Albatta, bunda mustamlakachilar bu hududlarni oson boshqarish va boshqaruvni qo‘ldan boy bermaslikni maqsad qilishgan edi.

Madrasa va maktablar faoliyatlarini cheklash, mahalliy joy nomlarini ruscha atamalar bilan almashtirish, hatto mahkama jarayonida qozilar bo‘yniga xoch taqtirishgacha borildi. Millatning nurli istiqbolini o‘ylovchi taraqqiyparvar kuchlar xalqning deyarli barcha tabaqalari - hunarmand, dehqon, savdogar, mulkdor, ulamolar orasida mavjud edi. Ziyolilar dastlab chorizmga (chorrossiya tizimi) qarshi kurashni xalqni asriy qoloqlikdan uyg‘otish - siyosiy-ma’rifiy jabhadan boshlashga qaror qildilar. Jadidchilik harakati shunday murakkab tarixiy bir sharoitda O‘rta Osiyo mintaqasida rivojlanish uchun, qolaversa mintaqada madaniy-ma'rifiy yo‘l orqali mustamlakachilarga qarshi kurashish yo‘llarini topa oldi hamda xalqni ma'rifatga chorlash uchun harakat qilishdi. Ular orasidan yetuk olimlar, xalq qahramonlari, yuksak darajadagi zamonaviy bilimdon kadrlar, madaniyat arboblari yetishib chiqib, yurtni ozod va obod bo‘lishi uchun jonini fido qilib kurashdilar. Jadidlarning Turkiston mustaqilligi uchun kurashida asosan quyidagi yo‘nalishlar ustuvor bo‘lgan edi: 1. yangi usul maktablari tarmog‘ini kengaytirish; 2. qobiliyatli yoshlarni chet elga o‘qishga yuborish; 3. turli ma’rifiy jamiyatlar va teatr truppalari tuzish; 1. gazeta va jurnallar chop qilish, xalqning ijtimoiy-siyosiy ongini yuksaltirish bilan bir qatorda Turkistonda milliy demokratik davlat qurish va barpo etish.

Jadid ziyolilarining kuchli partiyasi tashkil qilingan taqdirdagina bu ishlarni amalga oshirish mumkin edi. Bunday olganda, XX-asr boshida yuzaga kelgan jadidchilik xarakati o‘sha xalqlarining milliylikka erishish, mustaqillik yo‘lida dastlab chor Rossiyasi, so‘ngra sovet mustamlakachiligiga qarshi kurashda muxim o‘rin tutadi. Bular qatoriga quyidagi jadidlarni ko‘rsata olamiz: Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Fayzulla Xo‘jayev, Said Ahmad Vasliy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho‘lpon, Abduqodir Shukuriy (Shakuriy), Hamza Hakimzoda Niyoziy, Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev, Abdurauf

Fitrat, Abdulla Badriy va boshqalar o‘zlarning hayot va yashash davrida jadidchilik xarakatida juda yorqin iz qoldirdilar[5].

Biroq shuni ham ta'kidlash kerakki, jadidchilar shunday og‘ir bir tarixiy sharoitda rus hukumatidan foydalanishga ham harakat qilishgan. Jadidshunos olimlardan Rustam Sharipov XIX asrning ikkinchi yarmida ko‘zga ko‘ringan o‘zbek ziyolilaridan bo‘lgan Sattorxon Abdug‘afforov rus fani va madaniyatining dastlabki targ‘ibotchilaridan biri sifatida maydonga chiqqan edi. U "Turkiston viloyatining gazetasi"da e'lon qilgan maqolalarining birida (1890-yil 14-may sonida) shunday yozgan edi: "Biz rus xalqi yordamida Ovrupo xalqlari bilan aloqa o‘rnatishimiz mumkin, buning natijasida biz umumbashariy hayot va ilmiy taraqqiyotning ishtirokchilariga aylanamiz". Uning bu so‘zlari Ismoilbek Gaspirali, Mahmudxo‘ja Behbudiylarning fikrlari bilan uyg‘un bo‘lib, ulardan birmuncha vaqt ilgari bayon etilgani bilan ahamiyatga molikdir deb ta'kidlaydi tadqiqotchi[2].

Albatta, bu vaqtda o‘zbek ziyolilari mustamlakachilarga qarshi kurashish uchun eng avvalo xalqning ongini uyg‘otish, ularni dunyoqarashini kengaytirish, ma'rifatli qilish uchun harakat qilishdi. Bunda, albatta, teatrning o‘rni beqiyos edi. Mustamlakachilarning qarshiligiga qaramasdan mintaqada ziyolilarimiz teatrni yo‘lga qo‘ya oldi. Shundan anglashimiz mumkinki, bu davrda jamiyatni o‘zi shunaqa kurashuvchi xalq qahramonlariga muhtoj edi. Buni biz tarixiy zarurat deb atasak xato bo‘lmaydi.

O‘zbek milliy dramaturgiyasi hamda milliy teatri Mahmudxo‘ja Behbudiyning "Padarkush yohud o‘qimagan bolaning holi" dramasi bilan boshlanadi. Asar birinchi marta 1914 yil 15 yanvarda Samarqandda namoyish etilib, "Oyna" jurnalida bu haqda maqola e'lon qilinadi. 1914 yil 27 fevralda Abdulla Avloniy va Munavvarqori Abdurashidxonov boshchiligidagi "Turon" teatri guruhi Toshkent shahrining o‘sha vaqtlardagi eng katta teatr-konsert binosi - ikki ming kishini sig‘dira oladigan "Kolizey"da spektaklni namoyish etadi. Bu esa madaniyatimiz tarixida ulkan voqea bo‘lib, zamonaviy milliy teatrning tug‘ilishidan dalolat beradi. Ushbu qutlug‘ kunda o‘zbek milliy teatri sahnasini ochishdek sharafli vazifa Munavvarqori zimmasiga tushadi. Asarga nisbatan salbiy fikrlar, havaskorlarga jismoniy taxdidlar, keskin munozaralar davom etib turgan paytda Munavvarqori Abdurashidxonov teatr san’atining ma’naviyatimiz taraqqiyotida tutgan urni xususida ma’ruza qiladi[2].

Bundan ko‘rishimiz mumkinki, jadidchilik harakati namoyondalari xalqni ma'rifatli qilish uchun har qanday tahlikali vaziyatda ham jonlarini xatarga qo‘yib harakat qilishdi. Ular o‘zlarining bu tarzdagi harakatlari bilan vatanparvarlikning haqiqiy namunasini ko‘rsatib berishdi. Yuqori keltirilganlardan xulosa qilib, quyidagi taklif va tavsiyalarga keldik:

Birinchidan, jadidchilik harakatining mustaqillik uchun kurash yo‘llarini yoshlarga zamonaviy kino san'atidan foydalanib, filmlar orqali yetkazishni ko‘paytirish kerak.

Ikkinchidan, darsliklarda jadidchilik harakati namoyondalarining ilmiy merosini yanada kengroq yoritish kerak.

Uchinchidan, jadidlarning asarlarini turli xil xorijiy tillarga tarjima qilib, nashr etish jarayonini keng ko‘lamda yanada kengaytirish kerak.

To‘rtinchidan, oliy ta'lim muassasalarida ularning hayot yo‘li hamda ilmiy merosini keng ko‘lamda o‘z ichiga olgan "Jadidchilik namoyondalari" deb nomlangan fanni joriy etish kerak deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. – T.:O‘zbekiston, 2017.
2. Sharipov R. Turkiston jadidchilik harakati tarixidan. O‘quv qo‘llanma. Toshkent. "O‘qituvchi". – 2002. – 174 b.
3. Do‘stqorayev B. Turkiston jadidlarining yirik siymosi. "Jahon adabiyoti" jurnali, 1998, 3-son. B.146
4. Nodir Davlat. Rossiya turklarining milliy kurashi tarixi (1905 – 1917). Anqara, 1985. – B.21.
5. Xamrakulov O. Jadidchilikning paydo bo‘lishi va rivojlanishi jadidchilik harakatining tarixiy shartlari va asosiy shaxslari // Экономика и социум №11(126) -1 2024. B.591-598.
6. Behbudiy B. “Behbudiy kutubxonasi”, “Oyina” jurnali 26 aprel, №27. Tanlangan asarlar. Jild-II.-T.: Akademnashr, -2018yil 14-bet.
7. Toshqulov J. Yosh xivaliklar: siyosiy qarashlarining tadrijiy rivojlanishi // Xalq va demokratiya, 1992,3-4-son.
8. Rizayev Sh. "Padarkush" yohud Samarqand tarixidan lavhalar". "Vatan" gazetasi, 1994-yil, 39-son.

BEHBUDIY HAYOTI VA ILMIY FAOLIYATINING TAVSIFI

Turdaliyev Muhriddin Muhiddin o'g'li
Tarix fani oqituvchisi IIV Andijon akademik litseyi
+998889957760

Annotatsiya: *Mazkur maqolada jadidchilik harakatining yirik namoyandasi, ma'rifatparvar ziyoli Mahmudxo'ja Behbudiyning hayoti, ijtimoiy-siyosiy faoliyati hamda ilmiy-ma'rifiy merosi yoritiladi. Tadqiqotda Behbudiyning yangi usul maktablarini tashkil etishdagi roli, milliy matbuotni rivojlantirishdagi xizmatlari, pedagogik qarashlari va dramaturgiya sohasidagi faoliyati tahlil qilinadi. Shuningdek, uning jamiyatni modernizatsiya qilish, xalqni ilm-ma'rifat orqali taraqqiyot sari yetaklash g'oyalari ilmiy-nazariy jihatdan asoslab beriladi. Behbudiyning faoliyati milliy uyg'onish jarayonida muhim tarixiy bosqich bo'lib, zamonaviy ta'lim tizimi va ma'naviy taraqqiyot rivojiga katta ta'sir ko'rsatgani ochib beriladi.*

Kalit so'zlar: *Mahmudxo'ja Behbudiy, jadidchilik harakati, ma'rifatparvarlik, yangi usul maktablari, milliy uyg'onish, pedagogik qarashlar, o'zbek matbuoti, dramaturgiya, ta'lim islohoti, milliy tafakkur, ma'naviy taraqqiyot*.

XIX asr oxiri — XX asr boshlarida Turkiston o'lkasi ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayotida murakkab tarixiy jarayonlar yuz berdi. Bu davr Rossiya imperiyasi mustamlakachilik siyosati kuchaygan, iqtisodiy qaramlik ortgan hamda mahalliy jamiyatda ijtimoiy tengsizlik, savodsizlik va ilm-fan rivojining sustligi kuzatilgan davr edi. An'anaviy maktab va madrasalardagi ta'lim asosan diniy bilimlar bilan cheklanib, zamonaviy fan-texnika yutuqlaridan uzoqlashib qolgan edi. Natijada jamiyat taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan ilmiy tafakkur va yangicha dunyoqarashni shakllantirish ehtiyoji paydo bo'ldi.

Ana shunday tarixiy sharoitda Turkiston ziyolilari orasida jamiyatni yangilash, xalqni ma'rifat orqali taraqqiyot sari yetaklash g'oyalari vujudga keldi. Bu jarayon tarixda **jadidchilik harakati** nomi bilan mashhur bo'ldi. Jadidlar ta'limni isloh qilish, milliy o'zlikni anglashni kuchaytirish, matbuotni rivojlantirish, ayollar ta'limini qo'llab-quvvatlash va jamiyatni modernizatsiya qilishni o'z faoliyatlarining asosiy maqsadi sifatida belgiladilar. Ular ilm-fan, texnika va ilg'or pedagogik tajribalarni milliy an'analar bilan uyg'unlashtirish orqali xalqni jaholatdan chiqarish mumkin deb hisobladilar.

Jadidchilik harakatining yetakchi namoyandalaridan biri **Mahmudxo‘ja Behbudiy** bo‘lib, u pedagog, dramaturg, publitsist, siyosiy arbob va ma’rifatparvar sifatida Turkiston ijtimoiy hayotida muhim o‘rin egalladi. Behbudiy jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida ta’lim va ma’rifatni ko‘rdi hamda yangi usul maktablarini tashkil etish, darsliklar yaratish, matbuot orqali xalq ongini uyg‘otish yo‘lida faol ish olib bordi. Uning qarashlari milliy uyg‘onish jarayonining nazariy asoslarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning ilmiy va ma’rifiy faoliyati nafaqat pedagogika yoki adabiyot sohasida, balki ijtimoiy fikr, milliy davlatchilik g‘oyasi hamda madaniy taraqqiyot rivojida ham muhim o‘rin tutadi. U tashkil etgan gazeta va jurnallar, yozgan dramatik asarlar hamda pedagogik maqolalar orqali xalqni zamonaviy bilimlarga, mustaqil fikrlashga va milliy birlikka chaqirdi.

Bugungi globallashuv sharoitida milliy qadriyatlarni saqlagan holda zamonaviy taraqqiyotga erishish masalasi dolzarb bo‘lib qolmoqda. Shu nuqtai nazardan, Mahmudxo‘ja Behbudiy hayoti va ilmiy-ma’rifiy merosini o‘rganish zamonaviy ta’lim tizimi, yoshlar tarbiyasi va ma’naviy rivojlanish jarayonlari uchun muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

XIX asr oxiri — XX asr boshlarida Turkiston hududida yuzaga kelgan jadidchilik harakati Sharq jamiyatlarida modernizatsiya jarayonining muhim bosqichi sifatida baholanadi. Jadidchilik faqat ma’rifiy oqim emas, balki ijtimoiy ongni yangilash, milliy o‘zlikni shakllantirish va jamiyatni zamonaviy taraqqiyot yo‘liga olib chiqishga qaratilgan kompleks harakat edi. Ushbu harakatning nazariy asoslari ilm-ma’rifat, ta’lim islohoti, milliy birlik, ijtimoiy faollik hamda madaniy yangilanish g‘oyalariga tayangan.

Jadidchilik g‘oyasi musulmon jamiyatlarida XIX asrda shakllangan islohotchilik qarashlari bilan chambarchas bog‘liq edi. Ismoil Gaspirali tomonidan ilgari surilgan “Usuli jadid” — ya’ni yangi usulda ta’lim berish konsepsiyasi Turkistonda ham keng tarqaldi[1] Jadidlarning nazariy qarashlariga ko‘ra, jamiyatning orqada qolishiga asosiy sabab savodsizlik va eskicha fikrlash tizimi hisoblangan.

Jadidlar quyidagi nazariy tamoyillarni ilgari surdilar:

- ta’lim — millat taraqqiyotining asosiy omili;
- ilm-fan va texnika taraqqiyoti bilan uyg‘un rivojlanish;
- diniy va dunyoviy bilimlar integratsiyasi;
- milliy o‘zlikni anglash va vatanparvarlik;
- jamiyatni ma’rifat orqali isloh qilish.

Masalan, an’anaviy maktablarda o‘quvchilar yillar davomida arab alifbosini yodlash orqali o‘qishni o‘rganar edi. Jadid maktablarida esa fonetik metod

qo‘llanib, bolalar 3–4 oy ichida savod chiqarishga muvaffaq bo‘lgan. Bu pedagogik innovatsiya o‘sha davr uchun katta islohot hisoblangan[2]

Mahmudxo‘ja Behbudiy jadidchilik harakatining nazariy va amaliy yetakchilaridan biri bo‘lib, ta’limni jamiyatni o‘zgartiruvchi kuch sifatida baholagan. Uning fikricha, millat taraqqiyoti avvalo maktabdan boshlanadi. Behbudiy eski ta’lim tizimini tanqid qilib, quyidagi kamchiliklarni ko‘rsatgan:

- o‘quv jarayonining yodlashga asoslanganligi;
- dunyoviy fanlarning yetishmasligi;
- o‘quv metodikasining zamonaviy talabga javob bermasligi.

Behbudiy yangi usul maktablarida geografiya, tarix, matematika, tabiiyot kabi fanlarni joriy etishni taklif qilgan. Masalan, Samarqanddagi jadid maktablarida xarita va globuslardan foydalanish o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirgan. Natijada o‘quvchilar faqat diniy bilim emas, balki dunyo haqidagi ilmiy tasavvurga ega bo‘la boshlagan.

Bu holat pedagogika nazariyasida **kompetensiyaviy yondashuvning dastlabki ko‘rinishi** sifatida baholanadi.

Behbudiy nazariyasida matbuot jamiyatni uyg‘otuvchi kuch sifatida qaralgan. U “Samarqand” gazetasi va “Oyna” jurnalini tashkil etib, ommaviy axborot vositalarini ma’rifiy platformaga aylantirdi[3]

Masalan, “Oyna” jurnalida quyidagi masalalar muntazam yoritilgan:

- xalq savodxonligi;
- ayollar ta’limi;
- iqtisodiy mustaqillik;
- milliy birlik va taraqqiyot.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, matbuot orqali aholining siyosiy va ijtimoiy faolligi ortgan. Ilgari jamiyat muammolari tor doirada muhokama qilinsa, jadid matbuoti ularni ommaviy muhokama darajasiga olib chiqdi. Bu esa fuqarolik jamiyati shakllanishining boshlang‘ich bosqichi edi.

Behbudiy teatrni xalq ongiga ta’sir qiluvchi samarali pedagogik vosita deb bilgan. Uning “Padarkush” dramasi jadid dramaturgiyasining ilk namunalaridan biri hisoblanadi. Asarda ilm olishdan uzoqlashgan yoshlarning fojeasi orqali jamiyatdagi jaholat tanqid qilinadi.

Masalan, asar qahramoni ilmga e’tibor bermagani sababli oilaviy va ijtimoiy inqirozga duch keladi. Bu orqali Behbudiy yoshlarni bilim olishga, ota-onalarni esa farzand tarbiyasiga mas’uliyat bilan qarashga chaqiradi.

Nazariy jihatdan bu yondashuv **tarbiyaviy san’at pedagogikasi** tamoyillariga mos keladi. Ya’ni san’at orqali axloqiy va ijtimoiy qadriyatlar shakllantiriladi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy Turkiston jadidchilik harakatining eng yirik namoyandalaridan biri sifatida milliy uyg‘onish jarayonida muhim tarixiy rol o‘ynadi. Uning hayoti va faoliyati xalqni jaholatdan chiqarish, zamonaviy ta’limni rivojlantirish hamda jamiyatda yangicha tafakkurni shakllantirishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Behbudiy ilm-ma’rifatni millat taraqqiyotining asosiy omili deb bilib, yangi usul maktablarini tashkil etish, darsliklar yaratish, matbuot va teatr orqali xalq ongini uyg‘otishga harakat qildi.

Nazariy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, jadidchilik harakati ta’lim, madaniyat va ijtimoiy hayotning barcha sohalarini qamrab olgan keng qamrovli islohot harakati bo‘lgan. Behbudiy pedagogik qarashlari orqali ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, yosh avlodni dunyoviy bilimlar asosida tarbiyalash hamda milliy o‘zlikni anglashni kuchaytirish g‘oyalarini ilgari surdi. Uning matbuotdagi faoliyati jamiyatda erkin fikr, tanqidiy tafakkur va ijtimoiy faollikning rivojlanishiga xizmat qildi.

Shuningdek, Behbudiy dramaturgiya va publitsistika orqali ma’naviy tarbiya masalasini ko‘tarib, san’atni jamiyatni isloh qilish vositasi sifatida qo‘lladi. Jadidchilik harakati natijasida Turkistonda yangi pedagogik yondashuvlar, milliy matbuot, zamonaviy adabiyot va ijtimoiy fikr shakllandi. Bugungi kunda ham Behbudiy merosi milliy ta’lim tizimi, ma’naviy rivojlanish va yoshlar tarbiyasida muhim ilmiy-nazariy asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Demak, Mahmudxo‘ja Behbudiy faoliyati jadidchilik harakatining markaziy omillaridan biri sifatida nafaqat tarixiy ahamiyatga ega, balki zamonaviy jamiyat taraqqiyoti uchun ham dolzarb ilmiy va ma’rifiy meros hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Behbudiy M. **Tanlangan asarlar**. – Toshkent: Ma’naviyat, 1999.
2. Qosimov B. **Jadidchilik: milliy uyg‘onish davri**. – Toshkent: Sharq, 2004.
3. Karimov N. **XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi**. – Toshkent: O‘qituvchi, 2010.
4. Rajabov Q., Haydarov M. **Jadidlar harakati tarixi**. – Toshkent: Akademnashr, 2015.

FITRAT ASARLARIDA QO‘LLANGAN MILLIY O‘ZLIKKA UNDOVCHI TARIXIY TURKIY LEKSEMALARGA DOIR

Dustmurodov Ma'rufjon Mansur o'g'li
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent. Oriental universiteti

Annotatsiya. *Ushbu maqola Abdurauf Fitrat asarlaridagi qadimiy turkiy leksemalarni tahlil qiladi va ularning hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi passiv yoki arxaik qo‘llanilish bilan solishtirilishini ko‘rsatadi. Tadqiqotda cherik, yov, xoqon, tangri, bek, yorliq, til, er kabi leksemalar misol tariqasida keltirilgan bo‘lib, ularning qadimgi turkiy yozma manbalardagi (bitigtoshlar, “Qutadg‘u bilig”, Mo‘yun Cho‘r, DLT) vazifasi va ma’nosi tahlil qilingan. Maqolada ushbu birliklarning Fitrat matnlarida nafaqat tarixiy kolorit yaratish, balki qadimgi turkiy siyosiy, harbiy va ijtimoiy terminologiyani saqlab qolish, shuningdek, milliy tarixiy tafakkur bilan uzviy bog‘lanish sifatida ishlatilgani ko‘rsatiladi. Shuningdek, so‘zlarning semantik kengayishi, ma’no ko‘chishi va badiiy matnga integratsiyasi misollar bilan yoritilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, Fitrat adib tilida arxaik birliklar stilistik vosita emas, balki tarixiy, siyosiy va ijtimoiy-konseptual element sifatida faol ishlatilgan, bu esa uning til uslubini milliylik va tarixiylik asosida shakllantirganini tasdiqlaydi.*

Kalit so‘zlar. *tarixiy turkiy leksemalar, Fitrat asarlari, qadimiy turkiy til, semantik davomchilik, o‘zbek adabiy tili.*

Tarixiy turkiy leksemalar turkiy tillar tarixida nafaqat ma’nolarining o‘zgarishi, balki ijtimoiy, siyosiy va madaniy kontekstlar bilan bog‘liq funksional rolini ham saqlab kelgan. Abdurauf Fitrat asarlarida uchraydigan tarixiy leksemalar hozirgi o‘zbek adabiy tilida passiv yoki kam qo‘llanilsa-da, o‘zining tarixiy-semantik qatlamini saqlab, matnga tarixiy kolorit va milliy tafakkur nuqtai nazaridan boylik qo‘shadi. Biz quyida mutafakkir asarlaridagi *cherik, yov, xoqon, tangri, bek, yorliq, til va er* kabi tarixiy turkiy leksik birliklarni qiyosiy-tarixiy aspektda tahlilini ko‘rib chiqamiz.

cherik/čärik. Fitrat asarlarida ushbu leksema ayni O‘rxun bitiglaridagi ma’no ko‘lamida qo‘llangan: *“shahar o‘rnida boliq askar o‘rnida cherik mana shunday so‘zlardandir ohang yozuvchi”* (“Adabiyot qoidalari”). Ushbu leksemaning qadimgi turkiy tildagi qo‘llanishi haqida quyidagilarni aytish mumkin. Harbiy istiloh tarixiy manbadalardan ilk bor Mo‘yun Cho‘r matnlarida ko‘zga tashlanadi: *“Šïp bašïŋa: tägi: čärig itdim* – Ship boshigacha qo‘shin tortdim” (MCh 15). Istiloh “Qutadg‘u bilig”da tilga olinadi:*“Yüräksiz kišilär čärig artatur* – Qo‘rqoq kishilar lashkarni

buzadilar” (QBK, 121$_{13}$). “Bitiglarda alohida qo‘llangan *sü* va *čärig* istilohlari Qoraxoniylar davri hamda uyg‘urcha matnlarda *sü čärig* va *čärig sü* juft so‘zi shaklida qo‘llanadi” [1, 38]. Ushbu istiloh keyingi davr turkiy sulolalar harbiy tizimida ham faol ishlatilgan. Jumladan, “Buxoro xonligida nomuntazam qo‘shin *qora čärik* istilohi bilan yuritilgan. *čärik* asosan, otliq, qisman piyoda qismlardan tashkil topgan. Buxoro madaniy muhitining vakili bo‘lgan Fitrat asarlarida *čärik* so‘zining faol gavdalanishini ushbu holat bilan ham izohlash mumkin.

yov/yaγï. Mazkur istiloh ma’rifatparvar asarlarida asosan harbiy mazmundagi kontekstda, shuningdek, ko‘chma ma’noda maishiy ruhdagi satrlarda ko‘zga tashlanadi. Elni erkka chorlovchi, uni dushmandan asrash lozimligi haqida bildirgan da’vatlarda ushbu leksik birlik faol gavdalanadi. Masalan, *“yovni yurtdan haydamoq bir yurtni yov qo‘lida ko‘rmakdan qiyin emasdir dilnavoz”* (“Hind ixtilochilar”) kabi jumlalar bunga yorqin dalil bo‘ladi. Bu leksema qadimgi yodnomalarda *yaγï* shaklida, bevosita “yov, dushman” ma’nolarida qo‘llanilib, hozirgi o‘zbek tilida “dushman” ma’nosidagi *yog‘iy* (O‘TIL II, 58) va “dushman, raqib” ma’nosidagi *yov* (O‘TIL, II, 22) shakllarida saqlangan. Ko‘rinadiki, har ikki leksemaning semalari mushtarak. Bu ikki so‘z tarixan bir leksemaning ikki varianti hisoblanadi. Jumladan, “*yåv* so‘zida bo‘lgani kabi ikkinchi bo‘g‘inlardagi *-agi (ag‘i)* yoki *-agu (ag‘u) > -av* o‘zgarishi turkiy tillar, xususan, o‘zbek tilida tez-tez uchraydi: *birägü > biräv > biråv; küdägü > küyäv > kÿyåv; kïragï > kïrav > kïrov* kabi” [2, 16]. *yaγï* so‘zida ham xuddi shu jarayon kuzatilgan. Hozirgi o‘zbek tilida *yov* so‘ziga aloqador *yovgarchilik* (jang, urush holati; dushmanlik, o‘zaro adovatda bo‘lishlik), *yov-yov* (yov hujumi, urush), *yovlamoq* (hujum qilmoq), *yovlik* (yovgarchilik; o‘taketgan yirtqich; dushman), *yov-yaroq* (qurol-aslaha), *yovqur* (jasur), *yovqurlik* (botirlik), *yovchi (yog‘chi)* (*ko‘ch. ma’n.* sovchi) leksemalar mavjud (O‘TIL II, 22-24).

xoqon/qaγan. Fitrat “Mirriz yulduziga” she’rida ishlatilgan *xoqon* so‘zi oddiy “podsho” ma’nosida emas – u chuqur tarixiy-ramziy yuklama bilan qo‘llangan: *“Bormi senda bir o‘lkani yondirib, O‘z qozonin qaynatg‘uchi xoqonlar”* (“Mirrix yulduziga”). Tarixiy jihatdan *xoqon* unvoni turkiy davlat tuzilmalarida eng yuqori darajadagi hukmdorni, ya’ni boshqa xonlar ustidan hukmron bo‘lgan imperator maqomidagi shaxsni bildirgan. Fitrat ushbu tarixiy istilohni she’rga olib kirish orqali nafaqat qadimgi siyosiy leksikani jonlantiradi, balki millatning tarixiy xotirasiga murojaat qiladi. Eng ahamiyatlisi xoqonning tarixda shunday oliy fazilatlarga ega bo‘lgani holda, muallif bu o‘rinda keyingi davr, xususan, uning zamonasida faqat o‘z manfaatini o‘ylab, ammo o‘zlarini xoqon deb ataguvchi riyokor yurtboshilarini fosh qiladi va bu orqali o‘ziga antiteza yaratiladi. Leksemaning bitiglardagi qo‘llanishiga to‘xtalsak, qadimgi turk siyosiy-ijtimoiy

tuzumiga ko‘ra, oliy hukmdor *qaγan* istilohi bilan atalgan va u yodnomlarda quyidagicha ko‘zga tashlanadi: “*...dä täŋridä bolmïš äl ätmiš uyγur qaγan: olurmïš:* – Tangrida Bo‘lmish El Etmish Uyg‘ur Xoqon taxtga o‘tirdi” (Tes Sha 1); “*ärmiš: qaγan ... äki ärmiš anta adïn: ödkünč qaγan ärmiš:* – emish. Xoqon ... ikki ekan. Bundan boshqa (ulardan biri) sohta Xoqon ekan” (Tes Sha 2). Kelib chiqishi juda qadimgi bo‘lgan “*qaγan* harbiy-siyosiy-ma’muriy unvoni “turkiy qabilalarning saylangan mustaqil yetakchisi” ma’nosini anglatadi” [2, 630]. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida *qaγan* istilohi *xoqon* shaklida “qadimgi turkiy va mo‘g‘ul hukmdorlariga beriladigan eng oliy unvon va ushbu unvonga ega bo‘lgan shaxs” sifatida izohlangan (O‘TIL, IV, 417) va asosan tarixiy-badiiy va ilmiy uslublarda ishlatiladi.

tangri/täŋri. Fitrat merosida ushbu leksema tarixiy asarlar (masalan, “Abulfayzxon”da)da hukmdor esga olinganda yoki unga murojaat qilinganda, shuningdek, zamonaviy hikoyalarida Haqning nomi zikr qilinganda qo‘llanilgan. Masalan, *“boshqa gaplarni qo‘yabering qozi nizom tangri xoqonimizg‘a esonliq bergay o‘zlari yaxshi”* (“Abulfayzxon”); *“tinchgina o‘tirganga qo‘yasizmi sherxon uni tangri biladir har holda erta kechdan”* (“Chin sevish”). Bitigtoshlarda *Täŋri* odatda qadimgi turk davri matnlarida “osmon, Xudo, Xudoga tegishli, ilohiy, ilohiy kuchga ega; Xudo tomonidan yaratilgan; Xudoning vakili” ma'nolarida ishlatilgan. Qadimgi turklar “Eng oliy” deb hisoblagan *Täŋri*ni har doim osmonda, osmondan balandda deb o‘ylashgan. Xoqonlarning har qanday zafar quchishi uchun Tangri yarlaqashi kerak edi: “*üzä kök täŋri yarïlqaduq : üčün asra yaγiz yär : igitük : üčün : älimän : törümün ätintim* – Yuqoridagi moviy Tengri (Osmon) yarlaqagani uchun, pastdagi yag‘iz yerning homiyligi bilan yurtim, hukumatimni tartibga keltirdim” (Tar G‘ 3); “*täŋri: yär anta: ayu bärti: anta sančdïm* – Тангри (ва) ер буюргани учун (уларни) ўшанда енгдим (ўлдирдим)” (ShU J 9). Turkiy xoqonlar va sarkardalar nomlarida ishlatilgan, *Täŋri* so‘zining sifatlovchisi yoki aniqlovchisi bo‘lib xizmat qiladigan mazmunli va funksional lingvistik elementlar asta-sekin *Täŋri* so‘ziga nisbatan o‘z ma’nolarini yo‘qotdi va belgisiz ishlatila boshlanadi. *täŋri/tangri* leksemasi tarixiy turkiy matnlarda oliy ilohiy kuch va hokimiyat timsoli sifatida qo‘llanib, hukmdor hokimiyatining ilohiy legitimatsiyasini ifodalagan bo‘lsa, Fitrat asarlarida u shu qadimiy semantik asosni saqlagan holda tarixiy kolorit yaratish va nutqqa tantanavor-uslubiy ohang berish vazifasini bajaradi.

bek/bäk. Eski turkiy matnlarda faol bo‘lib, hozirgi o‘zbek tilida ham saqlanib qolgan ushbu leksema adib asarlarida ma’no umumiyligini yo‘qotmagan asosan ikki vazifada ko‘zga tashlanib, shakllarning har biri ijtimoiy mavqeyga ishora qiladi:

1. murojjat birligi: *“birlarig‘a qaraylar qalandar hakimbiyga so‘ylar bek biz shahringizga shu kun keldik”* (“Abulfayzxon”);

2. ismning tarkibiy qismi: *“o‘z ishlarini tuzatsunlar mir vafo bek abdumo‘minxonning ishini bir yoqlik qilmasangiz”* (“Abulfayzxon”).

Aytish lozimki, beklar tabaqasi qadimgi turk jamiyatida juda muhim qatlamni tashkil etgan. Qadimgi turk tilida ushbu leksema antroponimlar tarkibida ishlatish odati keng tarqalgan edi (masalan, *Bars Bäk, Bäk Arslan, Urun Bäk*). Runik va qadimgi uyg‘ur yozuv manbalariga ko‘ra, *bäk* unvonini hukmdorlar egallagan. Keyinchalik turkiy xalqlarda *bäka* atamasi xon yoki hukmdor xizmatidagi alohida polklar va jamoalar rahbarlariga nisbatan ishlatilgan. V.V.Bartold “bek” so‘zining uch asosiy ma’nosini ko‘rsatadi: hukmdor sulolasining shohzodalaridan va oddiy xalqdan farqli ravishda har bir boy va ulug‘vor shaxs; kichik qabilaning yoki kichik urug‘iy guruhning boshlig‘i; har qanday “hokimiyat” eng keng ma’noda. “Qadimgi turkiy davlatlardagi har bir mansabdor shaxs muayyan unvonga ega bo‘lib, ularga nisbatan mavqe jihatidan farqlanuvchi bir necha o‘nlab unvonlar qo‘llanilishi barobarida umumiy ma’noda muhim amaldorlarni ifodalovchi *bäg* istilohi ishlatilgan” [19, 161]. *bäg* Taryat bitigida quyidagicha uchraydi: *“yarattïdïm : toquz oγuz … n bägläri kälti o/u … o/uk. l yämä yaramatïn : yaγïdu ärmis : ürüŋ bägig : qara buluquγ : anï olurmus* – yozdirdim. To‘g‘uz O‘g‘uz ... beklari keldi. ... (ular) yana kutilmaganda dushman bo‘ldi. Urung Bek, Qara Buluq (va) Ani (daryosi)da bo‘ldi(lar)” (Tar Sha 10). Bitiglarda ushbu istilohning aks etish o‘rni uning asosan qabila yoki urug‘ sardorlariga nisbatan qo‘llanganini ko‘rsatadi. “Qutadg‘u bilig”da *bäg* istilohi bilan bog‘liq *bägi* – “qahramon”, *bäglik* – “beklik, bek hokimiyati”, *bägsig* – “bek singari” kabi so‘zlar tilga olinadi (QBK, 99_{14}). Mahmud Koshg‘ariy ham *bäg* so‘zini “er, hokim” ma’nolarida qo‘llaydi va ayni so‘z yumshoq *k* bilan aytiladigan bo‘lsa, “kichik oliyjanob” ma’nosini anglatishini yozadi (DLT, I, 339). Turkiy matnlarda *bäg* istilohining harbiy-ma’muriy unvon tarzida keng qo‘llanishi uning turkiy tilning nafaqat qadimgi bosqichi, balki keyingi davrida ham semantik-funksional mavqeyini saqlab qolganini ko‘rsatadi.

yorliq/yarluqa- . Fitratning *“bergan yorliqda yozilg‘an o‘kunar shu yorliq qani mahmudxon yorliq emloqda o‘kunar”* (“Hind ixtilochilari”) satrlarida tilga olingan *yorliq* so‘zi Adibning tarixiy ruhdagi asarlarida kolorit ehtiyoji o‘laroq qo‘llanilib, shuningdek, rus siyosiy-ma’muriy hujjatchilik tizimi hali mutlaq reallashmagan o‘zbek tilida to‘la iste’moldan chiqib ulgurmagan edi. So‘zning fe’l asosi bo‘lgan leksema *yarlïqa-* – “yarlaqamoq” (Tar $_{G'\ 3}$), *yarluqa-* – “buyruq bermoq” (Tar $_{Shi\ 6}$) shakllarida O‘rxun bitiglarida ko‘zga tashlanadi: *“üzä kök täŋri yarïlqaduq : üčün asra yaγiz yär : igitük : üčün : älimän : törümün ätintim* – Yuqoridagi moviy Tengri (Osmon) yarlaqagani uchun, pastdagi yag‘iz yerning homiyligi bilan yurtim, hukumatimni tartibga keltirdim” (Tar $_{G'\ 3}$). Demak, mazkur leksemaning Fitrat matnida qo‘llanishi nafaqat tarixiy kolorit yaratish vositasi, balki qadimgi turkiy

siyosiy-huquqiy terminologiyaning semantik xotirasini saqlab qolish strategiyasi sifatida ham talqin etilishi mumkin. Bu holat adib tilida arxaik birliklarning stilistik vosita emas, balki milliy tarixiy tafakkur bilan uzviy bog‘langan konseptual birlik sifatida ishlatilganini ko‘rsatadi.

til/tïl. Turkiy tilning qadimgi davrlaridan harbiy istiloh o‘laroq “asir; josus” ma’nolarida qo‘llanilib, kelingan ushbu leksema Fitrat asarlarida ham ayni yuqoridagi mazmunda ishlatilgan: *“o‘runduqg‘a o‘turur besh po‘lis bilan tilchi xotun narsalar bilan tutqunlarni kelturalar”* (“Hind ixtilochilari”); *“bu tomonga o‘tkarmangiz birta ikkita tilchi yuborsalar mayli bir qorovul bilan”* (“Abulfayzxon”). Fitrat matnlarida qo‘llangan *til* leksemasi zamonaviy o‘zbek tilidagi “tarjimon” ma’nosidan ko‘ra qadimgi turkiy harbiy-razvedka terminologiyasiga xos semantik qatlamni aks ettirgan deyish mumkin. Ya’ni bu birlik adib tilida tarixiy-leksik arxaizm sifatida emas, balki qadimgi turkiy matnlar, o‘rta asr adabiyoti va klassik tarixiy manbalarda uzluksiz qo‘llanib kelgan terminning funksional davomchisi sifatida ishlatilgan. Xususan, bitigtoshlarda razvedka bilan bog‘liq *tïl* – “josus, asir, ma’lumot yig‘ish uchun asirga olingan shaxs” va *tïl tut-* – “asirga olish” kabi birliklar uchraydi. “*yälmisin mänin̆ är anta basmïš: tïl tutmïš* – Авангард (ёки мусаллаҳ)ини менинг аскар(лар)им у ерда босибди (ўлдирибди), тилчи (жосус)ларини қўлга олибди” (MCh $_{\text{Sha 12}}$). Ushbu o‘rinlarda *tïl* so‘zining ma’no ko‘chish hodisasiga uchragani yaqqol namoyon bo‘lgan. A.Donuk [5, 104] hamda A.Gul [8, 27-103] *tïl* so‘zini “urushda dushman tomonidagi yangiliklar uchun ushlab turilgan odam, asir va josus” sifatida izohlaydi. Ushbu so‘zning harbiy termin sifatidagi ma’no hamda vazifasi XI asr va undan keyingi matnlarda xususan, hozirgi o‘zbek harbiy terminologiyasida ham o‘z aksini topgan. Jumladan, DLTda *tïl* istilohi *josus* sifatida izohlanadi: “*yaγïdan tïl tuttï* – dushman jososini tutib oldi” (DLT III, 148). “Qutadg‘u bilig” muallifi jangovar harakatlar boshlanishidan oldin g‘anim tomonidan asir olishning ahamiyatini alohida ta’kidlaydi: “*tïl alγu käräk, bu tïldin yaγï qïlqï bilgï käräk* – til tutmoq kerak, bu til (asir) orqali dushman harakatlaridan xabardor bo‘lmoq kerak” (ДТС 559). Istiloh Bobur Mirzo harbiy-idora tizimida ham faol qo‘llanilgan. Chunonchi, “Boburnoma”dagi *til tuta yibormoq* iborasi “ayg‘oqchilikka yubormoq” [20, 19] ma’nosida qo‘llangan. Demak, Fitrat *til* so‘zini qo‘llash orqali tarixiy voqelikni realistik tasvirlash hamda qadimgi turkiy harbiy-siyosiy terminologiyaning semantik modelini ongli ravishda badiiy matnga ko‘chirish maqsadini ko‘zlagan, bu esa uning til imkoniyatlari borasida tarixiylik va an’anaviylik tamoyillariga tayanganini dalillaydi.

er/är.Turkiy tilning rivojida qadimdan to hozirgacha o‘zining arxisemasini yo‘qotmasdan bir qancha potensial semalar (*ijtimoiy faol, kuchli, jamiyatda o‘rin*

tutgan erkak shaxs konsepti) kasb etib qo‘llanib kelayotgan ushbu leksema Fitrat asarlarida ikki ma’noda ko‘zga tashlanadi:

1. “turmush o‘rtoq; qalliq; erkak” ma’nolarida: *“er istamadim ku zaynab achchig‘lanib er istamasang, nima deb kelding kelganingda”* (“Arslon”); *“erkaklarning haqlari sanaladi ba zi erlar rashk va g‘ayrat bahonasi bilan”* (“Oila yoki oilani boshqarish tartiblari”);

2. “elning koriga yaraydigan o‘g‘lon, yigit; jangchi”: *“Biz erurmiz ma’rifat arslonlari, ilm erlari, To‘planaylik, turk eliga to‘g‘ri yo‘llar ochqali... Ilm o‘chog‘ida yetishkan er-yigitlar, To‘planing!”* (“O‘qitg‘uvchilar yurtiga”). Aytish lozimki, bu yerda leksema turkiy madaniy-tarixiy ongda shakllangan konseptual timsol – jamiyat tayanchi bo‘lgan ideal shaxs tushunchasiga ishora qiladi.

“Jangchi, askar” ma’nosini ifodalagan *är* tub leksemasining manbalarda “askarlar, qo‘shin” ma’nosini ifodalashi bitigtoshlarida aks etgan: “*yälmisin mäniŋ är anta basmïš: tïl tutmïš* – Avangard (yoki musallah)ini mening askar(lar)im u yerda bosibdi (o‘ldiribdi), tilchi (josus)larini qo‘lga olibdi” (ShU Sha 12). Bitigtoshlarda *är* leksemasi “er, er kishi, askar, bahodir” ma’nolarida qo‘llangan. “Devonu lug‘otit-turk”da *är* asosida shakllangan va harbiy ma’no ifodalagan quyidagi yasalmalar qayd etiladi: *ärän* – I. erlar, erkaklar; bahodirlar (DLT I, 71; 249; 105) II. askar (DLT I, 165); *ärläš-* – mardlikda bahslashmoq (DLT I, 242, 16); *ärlik* – erlik, mard (DLT I, 129); *ärkäkländi* – 3. botirlandi (DLT I, 306). Aytish lozimki, Fitrat asarlarida, shuningdek, hozirda ham qo‘llanishda bo‘lgan *erkak/ärkäk* so‘zi tovush va ma’no o‘xshashligiga qaramasdan *är* bilan bog‘liq emas. Xususan, “M.Erdal bu so‘zni *irk* – “to‘rt yoshga kirgan qo‘chqor” so‘zidan *-ak* qo‘shimchasi bilan yasalganini qayd etadi. Qolaversa, bir qancha turkiy matnlardagi *ärkäk* so‘zi “erkak hayvon” ma’nosini anglatgan: *irkäk yunt* – “erkak ot” (IB, 24), *ärkäk buzaγu* – “erkak buzoq” [17, 202]. Ya’ni jinsning belgisini aniqlovchi komponent vazifasini bajargan. Yuqoridagi *är* bitiglarda hozirgi o‘zbek tilidagi ma’nolariga yaqin bir holatda kelgan. Ushbu so‘z O‘TILda “1. erkak. 2. er. 3. mard, jasur, oliyjanob kishi” ma’nolarida izohlangan (O‘TIL II, 45). Demak, Fitrat asarlarida bu leksemaning ikki asosiy ma’noda (oilaviy-ijtimoiy va harbiy-qahramonlik) parallel qo‘llanishi bir tomondan XX asr o‘zbek tilidagi so‘zlarning ifoda maxsus va umumiste’mol doiradagi ifoda imkoniyatlarini ko‘rsatsa, ikkinchi tomondan adibning tilida tarixiy semantik qatlam faol ishlaganini ko‘rsatadi.

Xullas, Abdurauf Fitrat asarlaridagi tarixiy turkiy leksemalar hozirgi o‘zbek adabiy tilida passiv yoki cheklangan qo‘llanishda bo‘lsa-da, ular qadimgi turkiy tilning semantik va funksional qatlamini saqlab kelgan. Shu orqali Fitrat tilida arxaik leksemalar nafaqat badiiy bezak vazifasini bajaradi, balki tarixiy voqelikni realistik tasvirlash va milliy tarixiy tafakkur bilan uzviy bog‘lanish strategiyasini

amalga oshiradi. Umuman olganda, maqola Fitrat asarlaridagi tarixiy turkiy leksemalarning qadimgi manbalar bilan uzluksiz aloqasi, ularning hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi ifoda imkoniyatlari va semantik davomchiligi haqida ilmiy xulosalarni beradi hamda bu birliklarning til tarixidagi o‘rni va funksiyasini yoritadi.

Adabiyotlar:

1. *Arat Reşit Rahmeti.* Yusuf Has Hacip – Kutadgu Bilig I: Metin, *5. Baskı, – Ankara. Türk Dil Kurumu, 2007.* – S. 2334.

2. Clauson G. An Etymological Dictionary of Pre-Thirteenth-Century Turkish. – Oxford, 1972;

3. Dadaboyev H. Yodgorov H. O‘zbek harbiy terminologiyasi. O‘quv qo‘llanma – T.: Sahhof, 2021. – B. 8.

4. DLT – Маҳмуд Кошғарий. Туркий сўзлар девони (Девону луғотит-турк). Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.М.Муталлибов. I-III. – Т.: Фан, 1960-1963.

5. Donuk A. Eski Türk devletlerinde idari-askeri unvan ve terimler. – Istanbul, 1988. – 133 s.;

6. DTS – Древнетюркский словарь. Под ред. В. М. Наделяева, Д.М.Насилова, Э. Р. Тенишева, А. М. Щербака. – Л.: Наука, 1969. – 676 с.

7. Dusmurodov M. O‘rxun-Yenisey bitigtoshlaridagi harbiy terminlar tadqiqi. – T.: Lesson Press, 2025. – 178 b.

8. *Ekrem G. Babürname’de Geçen Askeri Terimler Üzerine.* – Belleten*, 2014. – S. 27-103.*

9. Eren H. Türk Dilinin Etimolojik Sözlüğü. 1. Baskı. – Ankara, 1999. – S. 86-87.

10. *Gemalmaz*, *E*. Türkçenin Morfo-sentaktik Yapısının Fonolojisine Etkileri. Türk Dili Araştırmaları Yıllığı – Belleten, *1992*. – 169–173.

11. O‘TIL – Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Т.: ЎзМЭ, 2007. III. – 687 б.

12. O‘XSHL – Ўзбек халқ шевалари луғати. – Т.: Фан. 1971. – 409 б.

13. QBH, QBK – Yusuf Xos Hojib. “Qutadg‘u bilig” S. Qohira nusxasi (Dāru’l-kutub va’l-vasāiki’l-kavmiyya tasavvuf turki 168. nr).

14. QBN – Yusuf Xos Hojib. “Qutadg‘u bilig” B. Namangan nusxasi (Farg‘ona) (TDSHI qoshidagi Abu Rayhon Beruniy nomli Sharq qo‘lyozmalari markazi 1809).

15. QBV – Yusuf Xos Hojib. “Qutadg‘u bilig” A. Vena nusxasi (Wien, ÖNB, Cod A.F.13).

16. Saffet Y. Eski Türk Runik Harfli Metinlerdeki Askeri ve Siyasi Terimler ile Unvan Niteleyicilerin Özbek Türkçesindeki İzleri. International Journal of Humanities and Education, 2018 – S. 260-296.

17. Şirin H. Kül Tigin yazıtı – notlar. Bilge kültür sanat. – Istanbul. 2015. –151 s.

18. Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. 5 жилдлик (2000-2010). – Т. 2010.

19. Бобоёров. Ғ. Ғарбий Турк хоқонлиги давлат тузуми. – Т.: Янги нашр, 2018. – 381 б.;

20. Муҳаммадиева Д. “Бобурнома” туркча таржимасида паремияларнинг қиёсий тадқиқи. Фил. фан. бўйича ёзилган дисс. автореф. – Т.: 2021. – Б. 19.

21. СИГТЯ – *Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков*. Лексика. – М., 2001.

JADIDCHILIK HARAKATI VA UNING MOHIYATI. TURKISTONDAGI TANIQLI JADIDLAR HAYOTI VA ULARNING MUSTAQILLIK YO’LIDA AMALGA OSHIRGAN ISHLARI TAHLILI

Ro’zimov Umidjon Zaripboy o’g’li

Urganch Davlat Universiteti Ijtimoiy – Iqtisodiy fanlar fakulteti
233-Tarix guruhi talabasi
rozimovu7@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Buyuk ajdodlarimiz hisoblanmish Jadidlar hayoti va Jadidchilik harakatining vujudga kelishi, bu harakatning Turkiston o’lkasida tutgan o’rni hamda Jadidchilik harakatiga qarshi kuchlarning paydo bo’lishi, o’lkada jadidlar tamonidan asos solingan yangi maktablar hamda ruslar tomonidan tashkil etilgan rus-tuzem maktablari va ular o’rtasidagi asosiy farq tafovutlar haqida bilib olishingiz mumkin.*

Kalit so’zlar: *Jadidlar, Turkiston. Qrim. Bog’chasaroy, Ismoil Gaspirali, Bebudiy, Avloniy, Fitrat, Xorazm, Buxoro amirligi*

Аннотация*. В данной статье рассматривается жизнь наших великих предков – джадидов, возникновение джадидского движения, его роль в Туркестанском крае, а также появление сил, противостоящих этому движению. Кроме того, вы узнаете о новых школах, основанных джадидами, и русско-туземных школах, созданных русскими, а также об основных различиях между ними.*

Ключевые слова: *джадиды, Туркестан, Крым, Бахчисарай, Исмаил Гаспринский, Бехбуди, Авлоний, Фитрат, Хорезм, Бухарский эмират.*

Abstract: *This article explores the lives of the Jadids, who are considered our*

great ancestors, the emergence of the Jadid movement, its role in the Turkestan region, and the appearance of forces opposing this movement. Additionally, you will learn about the new schools founded by the Jadids and the Russian-native schools established by the Russians, as well as the key differences between them.

Keywords: *Jadids, Turkestan, Crimea, Bakhchisarai, Ismail Gasprinski, Behbudi, Avloni, Fitrat, Khorezm, Bukhara Emirate.*

INTRODUCTION. Tarixdan bizga ma'lumki, o'kamizda yani Turkiston o'lkasida Jadidlar faoliyati asosan XIX asr oxiri va XX asr boshlari muhim ahamiyat kasb etgan. Jadidchilik harakati aynan shu davrda nafaqat Turkiston balki, Kavkaz, Tatariston , Qrim va shu kabi boshqa o'lkalarda ham vujudga kelib rivojlana boshladi. Bu davrda Turkiston o'lkasi Rassiya Imperiyasi tomonidan protektarat davlatga aylantirilgan edi. Madaniyat va Ta'lim sohasida deyarli hech qanday yangilik va islohatlar amalga oshirilmayotgan bir davrda, Turkistonga Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdirauf Fitrat, Munavvarqori, Abdulla Avloniy, Cho'lpon kabi jadidlar kerak edi. Bu jadidlarning asosiy maqsadi xalq savodini chiqarish orqali mamlakat aholisini birlashtirish va Savet davlatidan ajralgan holda mustaqil davlat tuzish edi. Ushbu maqolada Jadidlar Faoliyati va Jadidchilik harakatining vujudga kelishi va ularning o'lkada olib borgan ishlarini turli yo'sinlarda tahlil qilishga urinib ko'ramiz.

LITERATURE REVIEW. Jadidlar davrini o'rganishda ushbu davrda, keyinchalik boshqa adiblar tomonidan yozilgan asarlarga yuzlandik. Jumladan Jadidlar to'g'risida bitilgan Nisratulla Naimovning "Buxoro Jadidlari", Abdurashidov Zaynobiddin "Mahmudxo'ja Behbudiy", O.Oltinbekning "Abdulla Avloniy" kabi asarlardan foydalanilgan. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkistonda yuuzaga kelgan siyosiy vaziyatda xalqqa jadidlar singarima'rifatparvarlar kerak edi. Shu tariqa siyosiy maydonga Jadidlar kirib kela boshladi.

ANALYSIS AND RESULTS. Jadid so'zi arabchadan tarjima qilinganda "yangi" dega ma'noni anglatadi. Jadidchilik harakati dastlab XIX asrning 80-yillarida Qrimda Ismoilbek Gasprinskiy rahbarligida qrim tatarlari o'rtasida vujudga keldi. Jadidchilik harakati namayondalari ko'pincha o'zlarini taraqqiyparvarlar, keyinchalik esa Jadidlar deb atashgan. O'sha davrning ilg'or taraqqiyparvar kuchlari, birinchi navbatda ziyolilar mahaliy aholining umumjahon taraqqiyotidan orqada qolayotganini xis etib, jamiyatni isloh qilish zaruryatini tushinib yetganlar[1]. Jadidchilik harakati ko'p asrlik o'zbek xalqi tarixida muhim o'rin egallaydi. Mahmudxo'ja Behbudiy, Ubaydulla Xo'jayev, Obidjon Mahmudov, Fitrat, Cho'lpon,

[1] O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.

Saidnosir Mirjalolov va boshqalar mahalliy xalqni milliy istiqlol bayrog'i ostida birlashtirish va hokimiyatni qo'lga olib, milliy o'zbek davlatini barpo etish yo'lidagi ilk qadamni amalga oshirganlar.[2] Endi jadidlar hayotiga qisqacha to'xtalib o'tsak.

Ismoil Gaspirali – 1883-yil o'zi asos solgan va Bog'chasaroyda chop ettirgan "Tarjimon" gazetasi vositasida xalqni manaviy jihatdan uyg'otdi va o'shandan buyon ijtimoiy hayotni yangilash yo'lida g'ayrat va muhabbat bilan mehnat qilgan. Islom azaldan 2 narsaga – ma'rifat va ibodatga tayanadi. Shuning uchun musulmonlar istiqomat qiladigan hamma joyda maqsad va maktab bor deydi-Ismoil Gaspirali. Bu maktablar avvaldan bor edi, lekin keyinchalik ularni isloh qilishga tog'ri keldi. Bu masala bo'yicha I. Gaspirali o'z rejalarini amalga oshirishga kirishgan va 1884- yilda Bog'chasaroyda ilk jadid maktabini ochgan. Keyinchalik bu maktabning dovrug'i boshqa hududlarga xususan, Turkiston o'lkasiga ham yetib bordi. I. Gaspirali o'z yurtida usuli Jadid maktablarini takomillashtirib olganidan so'ng, musulmonlar yashaydigan boshqa hududlarda ham ushbu maktablarni joriy etishga kirisha boshladi. Uning fikricha barcha musulmonlarni qaloqlikdan chiqarishning yo'li maorif, o'qitish usulini yangilash edi. I. Gaspirali 1891 – yilda Rassiya Ichki Ishlar vaziri tomonidan V.V.Vashkenich boshchiligida tuzilgan kamissiyaga zudlik bilan kerakli ma'lumotlar, talab va istaklar bildirilgan axborotnoma tayyorlab, taqdim qiladi. 1892 – yili esa ushbu axborotnomaning bir nusxasini Turkiston General Gubernatori A.B. Vrevskiyga yo'llaydi. General-gubernator esa maktubni o'rganib chiqib, uni rad etadi. Bu Turkiston o'lkasida ham Jadidchilik harakatining asta sekin kurtak otayotganidan dalolat berardi.[3] XX arning boshlarida Turkistonda ham taraqqiyparvarlar harakat asta sekin rivojlana boshladi.

Bu davrdagi taraqqiyparvarlarga misol tariqasida Mahmudxo'ja Behbudiyga to'xtalib o'tsak. Mahmudxo'ja Behbudiy 1874 – yilning 30 – yanvarida payshanba kuni Samarqand shahrining Yomini mahallasida tavallud topgan. 1893 – yilda onasi va 1894 – yilda otasi vafot etgan. Otasi vafotidan biroz avval uylangan Behbudiy 4 o'g'il, bir qiz ko'rgan. 18 yoshga kirganda Behbudiy madrasa ta'limini tugatdi Samarqand viloyati Chashmaob volostida qozilik qilgan tog'asi Muhammad Siddiq qo'l ostida mirzalik lavozimida ishlay boshladi. Keyinchalik u shariat ilmini puxta egallab muftiy lavozimini egalladi. Behbudiy 1893 – yildan Rassiya va xorijiy mamlakatlarda nashr etiluvchi turkiy va forsiy matbuot bilan tanishib borgan. Keyinchalik u ham Gaspirali singari jadidchilik harakatining tamal toshi bo'lgan maktab islohotiga qattiq kirishdi. Uning tashabbusi bilan 1903 – yilda Samarqand atrofidagi Halvoyi (S.Siddiqiy) Rajabamin (A.Shakuriy) qishloqlarida yangi

[2] Irzayev Bahrom, "Turkiston jadidlarining Ko'mak tashkiloti" Toshkent – 2016. 3-5 betlar.
[3] Zaynobiddin Abdurashidov, " Ismoil Gasprinskiy va Turkistonda Jadidchilik" Toshkent-2008. 7-9 betlar.

maktablarni tashkil qildi. Ketma – ket uning “Risolayi asbobi savod” (1904) , “Risolayi jug’rofiya umroniy” (1905), “Risolayi jug’rofiya Rusiy” (1905), “Kitobatul atfol” (1908), “Tarixi Islom” (1909) kabi kitoblari paydo bo’ldi. Behbudiy 1913 yili “Samarqand’ gazetasini chop qilish uchun hukumatdan ruxsat oladi. 1920 – yil 20 – avgustdan u “Oyina” jurnalini chiqara boshlaydi. “Oyina” jurnalida millat va uning haq huquqiga, tarixiga, til va adabiyot masalalariga, dunyo ahvoliga doir qiziqarli maqolalar, bahslar berib borilgan. 1911 – yilda esa uning mashhur “Padarkush” asari bosilib chiqdi. Behbudiy e’lon qilgan maqolalarning aksariyati Gasprinskiy bir umr ta’kidlagan ilm, kasb, til o’rganish va ma’rifatli bo’lishga chaqiriqlar to’g’risida edi. Gasprinskiy gazeta nima ekanligi yoki musulmonchilikda rasm kabi masalarni tushintirar ekan, Behbudiy ham huddi shu yo’l bilan o’z o’quvchilarini gazeta bilan bir qatorda ayrim ilmiy islohotlar, geografiya yer va boshqa turli mavzularni tushintirishga urindi. Bu ikkala jadid 1914 – yilning yoz oylarida Istambulda ko’rishdilar. Umuman olganda, Behbudiy nazarida Gasprinskiy "millatni uyg'otish, dunyodan, siyosat olamidan, madaniy millatlar holidan xabardor qilish uchun 35 yil mehnat qilgan har yerda musulmonlarni zamonaviy madaniyat, ilm-fan, sanoat, tijorat ishlariga va rus madaniyatiga targ'ib qilgan shaxsdir. [4] Turkiston ma’rifatparvarlaridan yana biri bu Abdurauf Fitratdir. Abdurauf Fitrat 1886 – yilda ziyolilar oilasida dunyoga keldi. Dastlab eski maktabda, keyin esa Mir Arab madrasasida tahsil oldi. 1904-1907 yillar u Haj safarida bo’lib Eron, Hindiston Afg’oniston mamlakatlarida sayohatda bo’ldi. 1909-1913 – yillarda Tarbiyai atfol jamiyati homiyligida Istanbulga o’qishga ketdi. U Turkistonda shug’illangan yillarda badiiy ijod bilan shug’illna boshladi. Dastlab publitsistik maqolalar yozib ‘Buxorayi Sharif”, “Turon’ gazetalariga yubordi. Fitrat Istanbuldan yo’llagan maqolalarida ma’rifatparvarlik g’oyalarini ilgari surdi. Asta sekin bu g’oyalar tobora jangovor tus olib, “Munozara", “Rahbari Donish”, “Oila’, “Hind sayyohining qissasi” singari asarlarida “Sayxa” deb atalgan to’plamdagi otashin she’rlarda o’z aksini topdi. Bu asarlar keyinchalik Buxoro, Samarqand marifatparvarlari orasida tarqatilib, munozaralarga sabab bo’ldi. Ko’p o’tmay “Buxorayi Sharif” va “Turon” gazetalari yopib qo’yildi. Ammo endi jadidchilik harakatini to’xtatib bo’lmas edi. Ayniqsa Abdurauf Fitrat va uning bir guruh safdoshlari o’qishni tugatib Buxoroga qaytganidan keyin milliy-ma’rifiy harakat qizg’in tus olib, yangi maktablar xususiy tarzda ochila boshladi. Fitrat Shaxrisabz, Karki tumanlarida bunday maktablarni tashkil qilish, ta’lim dasturlarini ishlab chiqishda faol qatnashdi. Jadid hukumati ham ayni damda turli yig’inlarda, matbuotlarda Respublika hududidan rus qo’shinlarni olib chiqish va milliy armiyani shakllantirish, milliy kadrlarga rahbarlikdan keng o’rin berish va yana shu kabi boshqa talablar bilan chiqa

[4] Abdurashidov Zaynobiddin “Mahmudxo’ja Behbudiy” Toshkent – 2020. 3-7-98-betlar

boshladilar.

Ammo barcha harakatlar bekor edi. Balsheviklar jadidlarga qarshi kurashishda hech nimadan tolmas edilar. Fitrat 1937 – yilda qamoqqa olinib, 1938 – yilda Toshkent shahrining hozirgi Yunusobod tumanida Bo'zsuv qirg'og'idagi qatlxonada millatimizning boshqa erksevar farzandlari singari otib tashlandi. Balsheviklar Fitratning jismini yo'qotgan bo'lsalar ham u yaratgan buyuk asarlarni xalq orasidan o'chirib tashlay olmadilar, endi bu asarlar badiiy merosimizning bebaxo durdonalari sifatida ardoqlanib qayta nashr qilinmoqda.[5] Yana bir taraqqiyparvar Abdulla Avloniy 1878 – yilning 12-iyulida Toshkentda Mergancha mahallasida dunyoga keldi. Otasi Miravlon aka mayda hunarmandchilik to'quvchilik bilan shug'illangan. Abdulla 7 yoshida O'qchidagi eski maktabada Akramxon domlada savod chiqardi. 1900-yili Avloniy toshkentlik savdogar bir xonadonning Salomatxon degan qiziga uylanadi. Shu yili u otasidan ayriladi. 1904 – yili Avloniy Mirobodda usuli jadid maktabi ochadi. 1907-yildan esa o'z hovlisida "Shuhrat" gazetasini chiqara boshlaydi. 1908 – yilga kelganda esa Avloniyning Miroboddagi maktabi yopildi. Ammo Avloniy hech tushkinlikka tushmadi 1909 – yilda Degrez mahallasida yana maktab ochadi. 1913 – yilda Turon jamiyati maydonga keldi. Truppaning g'oyaviy badiiy rahbari Avloniy edi. Jamoat qoshida teatr truppasi tuzildi. Avloniy truppasi sahnalishtirgan birinchi asar Behbudiyning "Padarkush" asari edi. Avloniyning harakatlari keyingi yillarda ancha rivojlandi. 1917 – yil Fevral voqaelaridan keyin Avloniy "Yashasin xalq jumhuriyati" shiori ostida "Turon' gazetasini chiqardi. Avloniyning savetlarga va ular orqali bolsheviklarga yaqinlashishi 1917-yilning iyuniga to'g'ri keladi. 1919-yilning iyunida Avloniy RSFSR hukumatining topshirig'i bilan Afg'onistonga boradi. 1919-yilning 28-sentabridan 1920-yilning 20-iyunigacha Hirotda bosh konsul bo'lib turadi. 1921 – yilda esa maorif sohasiga ishga o'tadi. Abdulla Avloniy o'z yurtining rivoji uchun, xalqni ma'rifatli qilish uchun o'zining har tomonlama ishlarini amalga oshirdi. 1934-yilning 25-avgustida Abdulla Avloniy bu dunyodan ko'z yumdi.[6] Jadidlar haqida so'z borar ekan Buxoroning atoqli farzandi Fayzulla Xo'jayev haqida gapirib o'tmasak bo'lmaydi. Fayzulla Xo'jayev 1896 yilda yetti Pushti savdogar bo'lib o'tgan Ubaydullaxo'ja oilasida dunyoga keldi. Ubaydullarxo'ja o'g'lini zamonaviy tijoratchi qilib tarbiyalash maqsadida 1907-yilda Maskvaga olib borib yetuk muallimlar tarbiyasiga topshirdi. Fayzulla bu yerda uch yil tahsil olgach Buxoroda siyosiy tizimni o'zgartirish zarurati to'g'risida muayyam fikrlar bilan qaytdi.

Bu yerda Turkiyada tahsil olgan yoshlar bilan uchrashdi va Amirlikdagi

[5] Nusratullo Naimov, "Buxoro Jadidlari" Toshkent – 2000. 7-10 betlar.
[6] O.Oltinbek "Abdulla Avloniy" Toshkent – 2022. 4-12 betlar

maktablarni isloh qilosh tizimni o'ylab topdilar. Shunday maktablardan biri shaxsan Fayzulla Xo'jayev boshchiligida uning amakisi La'tifxo'ja uyida tashkil etildi. Bu yerda Abduvohid Burxonov, Usmonxo'ja, Xamidxo'ja singari turkiyada ta'lim olgan yoshlar bolalarga tahsil berdilar. Tobora kuchayib ketayotgan jadidchilik harakatidan xavfsiragan ruslar Buxoro amirligidan ularga nisbatan chora ko'rishlarini talab qila boshladilar. Shu tariqa Jadid maktablari yopildi. Shundan keyin Jadidlar harakatning yopiq yashirin holatiga o'tdilar. Abdurauf Fitrat, Abduvohid Burhonov, Fayzulla Xo'jayev va yana bir qator jadid partiyasi rahbarlari partiyaning dasturini ishlab chiqib Buxoro amiridan siyosiy erkinlik talab qila boshladilar. Fayzulla Xo'jayev yurt tinchligi va mustaqilligi yo'lida qo'lidan kelgan har qanday ishni amalga oshirishga urindi. Hatto keyinchalik balsheviklarga ham ochiqdan ochiq qarshi chiqa boshladi. Oxir oqibat u Nikalay Buxarin boshliq siyosiy guruhning azosi sifatida xibsga olinib 1938 – yil martda Maskvada otib tashlandi.[7] Sovet davrida jadidlardan chiqqan milliy ziyolilar sovet organlarida faoliyat ko'rsatdilar va o'z faoliyatlari bilan xalq ta'limi san'atini rivojlantirishga ma'rifiy ishlarni taraqqiy ettirishga harakat qildilar. Jadidlarning ayrim qismi mustabid tuzumning siyosatiga ko'nikmay xorijga o'tib ketdilar, muayyan qismi esa istiqlolchilar harakatiga qo'shilib ketdilar. Istiqlolchilik harakatiga g'oyaviy rahnamolik qilish, ayniqsa, sovet organlarida ishlab, milliy mustaqillik g'oyalarini targ'ib qilishdagi sa'y-harakatlari jadidlarning sovetlar tomonidan 1929, 1937-1938 yillarda ommaviy qirg'in qilinishiga olib keldi.

Buxoro amirligi va Xiva xonligida jadidchilik harakati Turkistondagi kabi XIX asr oxiri-XX asr boshlarida shakllangan bo'lsa ham bu hududlardagi tarixiy sharoit undagi jadidchilik harakatiga ham o'ziga xos xususiyatlar baxsh etdi. Buxoro va Xiva jadidlari dastlab amir va xon hukmronligini cheklash, mavjud tuzum sharoitida islohotlar o'tkazib, jamiyat taraqqiyoti va milliy mustaqillikni qo'lga kiritishni maqsad qilib qo'ygan bo'lsalar, keyinchalik xon va amir yakka hukmronligi har qanday taraqqiyotga to'siq ekanligini tushunib yetdilar. Chunki 1917 yilda Xivada Asfandiyorxon ruxsati bilan tuzilgan yosh xivaliklardan iborat majlis va nozirlar kengashi, ularning taqiqlanishi va Junaidxon davridagi yosh xivaliklarning qattiq ta'qib qilinishi; Buxoro amiri Said Olimxonning o'zi qabul qilgan islohotlar o'tkazish haqidagi farmonini bekor qilishi va 1918-1920 yillarda yosh buxoroliklarning quvg'inga uchrashi shunga olib kelgan. Buxoro va Xorazm Xalq Respublikalarida jadidlar hukumat organlarida rahbar lavozimlarida ishlab mamlakatni taraqqiy qildirish va mustaqillikni saqlab qolishga intildilar (1920-1924). Biroq sovet rejimi avval Buxoro va Xorazm davlatlari mavjudligiga chek quygan bo'lsa, keyinchalik barcha jadid namoyondalarini jismonan mavh qildi.

[7] Nusratulla Naimov "Buxoro Jadidlari" Toshkent – 2000. 10-11 betlar.

Umuman olganda, asr boshida yuzaga kelgan jadidchilik harakati Turkiston xalqlarining milliy ozodlik, mustaqillik uchun dastlab chor Rossiyasi, so‘ngra sovet mustamlakachiligiga qarshi kurashda muhim o‘rin tutadi.[8]

CONCLUSION. Buyuk bobolarimiz hisoblangan Jadidlarning xalqni mustaqillikka olib chiqishda, ma’rifatli qilishda o’rni katta. Jadidlar harakati o‘z davrida xalqimizning ma’naviy va siyosiy uyg‘onishiga ulkan ta’sir ko‘rsatgan tarixiy hodisalardan biri bo‘ldi. Ular faqat ta’lim va madaniyatni rivojlantirish bilan cheklanmay, mustamlakachilikka qarshi kurashib, milliy o‘zlikni saqlash uchun harakat qilishdi. Jadidlar zamonaviy maktablar ochib, matbuotni rivojlantirib, adabiyot va san’atni yangilash orqali jamiyatda islohotlar qilishga intilishdi. Ularning sa’y-harakatlari tufayli o‘zbek jamiyatida yangi dunyoqarash shakllandi, ilm-fan va madaniyat rivojlandi, o‘ziga xos milliy uyg‘onish boshlandi. Ammo ular o‘z davrida qattiq tazyiqlarga uchrab, qatag‘on qilindi. Shunga qaramay, ularning orzulari bugungi kunda ro‘yobga chiqmoqda. Mustaqil O‘zbekistonning taraqqiyot yo‘li aynan jadidlar targ‘ib qilgan g‘oyalarga hamohangdir. Shunday ekan, biz jadidlarning mehnatini yodda tutib, ularning merosidan saboq olishimiz, ilm-ma’rifat va taraqqiyot yo‘lida izlanishimiz lozim. Faqat shundagina ular orzu qilgan mustaqil, bilimli va taraqqiy etgan jamiyatni barpo etishimiz mumkin.

LIST OF USED LITERATURE

1. Abdurashidov Zaynobiddin “Mahmudxo’ja Behbudiy” Toshkent – 2020

2. Bahrom Irzayev “Turkiston Jadidlarining Kulmak tashkiloti” Toshkent – 2016.

3. Irzayev Bahrom, “Turkiston jadidlarining Ko’mak tashkiloti” Toshkent – 2016.

4. Nusratullo Naimov, “Buxoro Jadidlari” Toshkent – 2000.

5. O.Oltinbek “Abdulla Avloniy” Toshkent – 2022

6. Rajabov Q. Jadidlar – istiqlolchilik harakatining g‘oyaviy rahnamolari. // Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. Davriy to‘plam. Toshkent - 1999

7. Zaynobiddin Abdurashidov, “ Ismoil Gasprinskiy va Turkistonda Jadidchilik” Toshkent-2008.

8. O’zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.Toshkent - 2005 – yil.

[8] Rajabov Q. Jadidlar – istiqlolchilik harakatining g‘oyaviy rahnamolari. // Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. Davriy to‘plam

1.	***Turkiston muxtoriyatida milliy davlatchilikni shakllantirish jarayonida jadidlarning roli*** ***Abduqahorov Anvarjon Alijon o‘g‘li***	3
2.	***Jadidlarning ma’rifiy va pedagogik faoliyati: Abdulla Avloniy qarashlari asosida*** ***Olimova Sarvaraxon Sobitxon qizi***	8
3.	***JADIDCHILIK HARAKATINING RIVOJLANISHI VA O‘ZBEKISTON MUSTAQILLIGIDA SIYOSIY OMIL SIFATIDAGI O‘RNI*** ***Musayev Hamzahon Zokirjon o‘g‘li***	12
4.	***Jadidchilik harakati va ularning bugungi kunda tutgan o‘rni*** ***Mashrabova Gulshoda Farxodjon qizi***	14
5.	***TURKISTON MUXTORIYATI VA JADIDLAR*** ***Toshmamatov Azizbek Tohir o‘g‘li***	19
6.	***Jadidlarning ma'rifiy-pedagogik faoliyatida estetik tarbiya konsepsiyasi va uning boshlang’ich ta'lim amaliyotidagi imkoniyatlari*** ***Yarmatov Raxim Baxromovich*** ***Xamrayeva Farida Ulug'bek qizi***	24
7.	***XX asr boshlarida Turkiston milliy uyg‘onishida jadid g‘oyalarining o‘rni va ijtimoiy-siyosiy ahamiyati*** ***Roziqov Shohijahon Rashid o‘g‘li***	32
8.	***MANIFESTATION OF JADID LITERATURE AND JOURNALISM IN TRANSLATION*** ***Feruza Avaskhonovna Ergasheva***	35
9.	***JADIDCHILIK HARAKATI VA TURKISTON MUXTORIYATI O‘RTASIDAGI SIYOSIY BOG‘LIQLIK*** ***Begamova Nasiba Xolmurzayevna***	40
10.	***JADIDLARNING MA’RIFIY ISLOHOTLARI VA INSON KAPITALI SHAKLLANISHIDAGI ROLI*** ***Hasanjon Bahodirov Bahtiyorjon o‘g‘li***	44
11.	***Jadidlarning ma'rifiy va pedagogik faoliyati*** ***Normo‘minova Mohira O‘tkir qizi***	50

12.	***Milliy uyg‘onish mafkurasi va jadid islohotlarining sog‘liqni saqlash tizimi taraqqiyotidagi o‘rni*** ***Toshpo’latova Durdona Sharifbekovna***	55
13.	***THE DECLINE OF THE JADID REFORM MOVEMENT IN SOVIET CENTRAL ASIA*** ***Azimova Sayyora Xusanboyevna***	60
14.	***Jadid adabiyoti taraqqiyotida Cho‘lponning badiiy mahorati va yangiligi.*** ***Karimjonova Mohinur***	62
15.	***MUHOJIR JADIDLARNING “YOSH TURKISTON” JURNALIDA ANVAR POSHSHO SIYMOSINING YORITILISHI*** ***Alijonov Muslimbek Baxtiyorjon o‘g‘li***	69
16.	***JADIDLARNING TA’LIM KONSEPSIYASI VA ZAMONAVIY AHAMIYATI*** ***Vasiyev Mizrob Alisher o‘g‘li***	74
17.	***JADIDCHILARNING FAROVON JAMIYAT QURISHDAGI HARAKATIDA ERKIN TAFAKKURLI SHAXSLARGA BO’LGAN EHTIYOJ*** ***Mixliyeva Gulshoda Zarip qizi***	77
18.	***JADIDCHILIK HARAKATINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI*** ***Yusufjonova Nafisaxon Ibrohimovna***	81
19.	***TARAQQIYPARVARLARNING MA’NAVIY - AXLOQIY TARBIYA MASALASIGA OID QARASHLARIDAN*** ***Ganiyev Joxongir Xakimjanovich***	86
20.	***КОНЦЕПЦИЯ СОВЕРШЕННОГО ЧЕЛОВЕКА В ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ВЗГЛЯДАХ МАХМУДХОДЖИ БЕХБУДИ И МУНАВВАРКОРИ АБДУРАШИДХОНОВА*** ***Пак Диана Александровна*** ***Асатова Ирода Икром кизи***	92
21.	***Xalqni ma’rifatga boshlagan jadidlar va ularning hayoti*** ***Obilov Azizbek***	97

22.	***Munavvarqori Abdurashidxonov – milliy istiqlol va ma'rifat yo'lboshchisi*** ***Xolmirzayeva Mushtariybegim Ergash qizi*** ***Isobek Xudoynazarov***	103
23.	***Yangi usul maktablarida ta'lim metodikasi va innovatsion yondashuvlar*** ***Abdug'aniyeva Visolabonu***	107
24.	***THE REPRESENTATIVES OF THE TURKESTAN ENLIGHTENMENT MOVEMENT*** ***Haqqulov Mehriddin Yunusovich*** ***Sadulloyeva Moxinur Sadullo qizi***	114
25.	***Milliy uyg'onish va jadidchilik g'oyalarining uyg'unligi*** ***Mirqurbonova Dilnavo Ismoiljon qizi***	119
26.	**Jadidlarning ma'naviy-ma'rifiy va pedagogik qarashlari** **Boymurodov Sanjar Dilmurod o'g'li**	124
27.	***MILLIY UYG'ONISH VA JADID G'OYALARI*** ***Ne'matova E'zoza***	127
28.	***Jadidlar harakatining shakillanishi va rivojlanishi.*** ***Xasanova Zarina***	132
29.	***MILLIY UYG'ONISH VA JADID G'OYALARI*** ***Xalikov Sindorkul Ravshanovich*** ***Umarova Sabina Alisher qizi***	137
30.	***Jadidchilik harakatining shakillanishi va rivojlanishi*** ***Ma'murova Nodira O'tkirjon qizi*** ***Oripova Zarnigor Matqulbek qizi***	142
31.	***JADIDLARNING MILLIY MATBUATGA QO'SHGAN HISSASI*** ***Sobirov Sardor Alisher o'g'li***	146
32.	***ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ИДЕИ ДЖАДИДОВ ПО РЕФОРМЕ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ И ИХ ЗНАЧЕНИЕ ДЛЯ СОВРЕМЕННОЙ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ УЗБЕКИСТАНА*** ***Абдухоликова Дилдора Абдухолик кизи***	151

33.	***TURKISTON MUXTORIYATI VA JADIDLAR*** ***Soburova Muxlisa***	157
34.	***MAHMUDXO'JA BEHBUDIY VA TURKISTON JADIDCHILIGIDA MILLIY ONG KONSEPSIYASI*** ***Egamov Sherzod Farhod o'gli***	161
35.	***FAYZULLA XO'JAYEV SIYOSIY FAOLIYATIDA MILLIY BARQARORLIK MASALALARI*** ***Sotvoldiyev Jaxongir Sultonali o'g'li***	168
36.	***Jadidlarning tarixiy-ma`rifiy va madaniy qarashlari*** ***Bahromova Malikabonu Alisher qizi***	175
37.	***Jadidchilik harakati: shakllanishining g'oyalari va milliy uyg'onishdagi o'rni*** ***Qurbonova Zamira Mamat qizi*** ***Pak Diana Aleksandrovna***	180
38.	***JADIDLARNING HARBIY VA SIYOSIY QARASHLARI: MILLIY UYG'ONISH HARAKATINING STRATEGIK PARADIGMALARI*** ***Turg'unboyev Kamron Ilhom o'gli***	186
39.	***JADID DARSLIKLARINING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI: "ADIBI AVVAL"DAN "TURKIY GULISTON"GACHA*** ***Suyarova Aynur Ibadullayevna*** ***An Diana Yurevna***	191
40.	***ABDULLA QODIRIY ROMANLARIDA TARIX VA BADIIY TALQIN MASALASI*** ***Toshturdiyev Nurbek Nurali o'g'li***	195
41.	***MAHMUDXO'JA BEHBUDIYNING XORIJIY DAVLATLARGA SAFARLARI*** ***Ayubxon Raxmatxonov***	199
42.	***JADIDCHILIK HARAKATINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI*** ***Tilavova Farangiz Shokir qizi***	203

43.	***Jadidlar faoliyatining yuzaga kelishi va Turkistondagi siyosiy ahvol*** ***Davlatboyev Sarvar Hamdam o'g'li***	208
44.	***JADID DARSLIKLARINING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI: "ADIBI AVVAL"DAN "TURKIY GULISTON"GACHA*** ***Suyarova Aynur Ibadullayevna*** ***An Diana Yurevna***	213
45.	***IS'HOQXON IBRAT – TURKISTON JADIDCHILIK HARAKATINING FIDOIY SIYMOSI*** ***Ahmadjonov Dovudxon Abdullajon o'g'li***	216
46.	***XIX ASR OXIRI XX ASR BOSHLARIDA TURKISTONDA MILLIY UYG'ONISH JARAYONI VA JADIDCHILIKNING SHAKLLANISHI.*** ***Akbarov Xasan Rustam o'g'li***	221
47.	***TURKISTON JADIDCHILIK HARAKATIDA MILLIY O'ZLIK, ISTIQLOL VA DAVLATCHILIK G'OYALARINING SHAKLLANISHI*** ***Badalbayeva Ra'no Yulchiyevna*** ***Badalbayeva Malika Yulchivoyevna*** ***Badalbayeva Maloxat Yulchiyevna***	226
48.	***"Witnesses of Enlightenment: The Jadids – Victims of Repression"*** ***Otaboyeva Zukhra Oktam qizi*** ***S. M. Matkarimova***	233
49.	***THE DEVOTED LEADER OF NATIONAL AWAKENING: MAHMUDKHOJA BEHBUDIY AND THE TRAGEDY OF REPRESSION*** ***Otaboyeva Mashhura O'ktamovna*** ***Rahmonova Shirin Qutlimurotovna***	236
50.	***TURKISTON JADIDLARINING TA'LIM ISLOHOTLARI VA YANGI USUL MAKTABLARI*** ***Usmonova Husnida Xudoberdi qizi***	240
51.	***JADIDCHILIK HARAKATI: PAYDO BO'LISHI VA SHAKLLANISHI***	

	Hasanova Sarvara To‘xliboy	245
52.	***JADIDLAR SIYOSIY-MA’RIFIY FAOLIYATINING HOZIRGI DAVLAT BOSHQARUVINING OCHIQLIK VA MODERNIZATSIYA TAMOYILLARIGA TA’SIRI*** ***Qo‘chqorov Axror Abror o‘g‘li***	250
53.	***MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY MA’RIFATPARVARLIK G‘OYALARINING SHAKLLANISH OMILLARI VA ULARNING PEDAGOGIK TALQINI*** ***Yuldasheva Manzuma Odiljon qizi***	253
54.	***Jadidlar merosida milliy va umuminsoniy qadriyatlar*** ***Fattoyeva O‘g‘iloy Ashurqulovna***	257
55.	***JADIDCHILIK HARAKATINING VUJUDGA KELISHI VA TARIXIY SHART-SHAROITLARI*** ***Qurbonova Marjona Akmaljon qizi***	262
56.	***СТАНОВЛЕНИЕ И РАЗВИТИЕ ДВИЖЕНИЯ ДЖАДИДИЗМА В ТУРКЕСТАНЕ*** ***Атабаев Шапулат Эшпулатович*** ***Суванкулова Рухшона Гулом кизи***	267
57.	***TURKISTON MUXTORIYATI VA JADID HARAKATI.*** ***Халикова Хуршида Неъматжон кизи***	272
58.	***Jadid maktablari tajribasi asosida darsdan tashqari mashg‘ulotlar orqali kasbiy kompetentlikni rivojlantirish modeli.*** ***Yodgor Turganov*** ***Axmedova Shaxnoza Turdibekovna***	276
59.	***JADIDCHILIK HARAKATINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI*** ***Toshboyev Anvar Alisher o’g’li***	280
60.	***JADIDLARNING MA'RIFIY VA PEDAGOGIK FAOLIYATIDA TEATR,MATBUOT VA YANGI ADABIYOTLARNING AHAMIYATI*** ***Polvonova Gulnora Rovshan qizi***	287

61.	***JADIDLAR MEROSI — YANGI O‘ZBEKISTON VA UCHINCHI RENESSANSNING MA’NAVIY POYDEVORI*** ***O‘ktamova Sabrina Mahmud qizi***	292
62.	***YANGI O’ZBEKISTONDA HUQUQIY ONG VA HUQUQIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA TURKISTON JADIDLARI MA’RIFATPARVARLIK G‘OYALARINING TARIXIY ZARURATI*** ***Ergasheva Farangiz***	296
63.	***JADIDCHILIK HARAKATINING VUJUDGA KELISHI VA UNING TARIXIY ZARURATI*** ***M.Dusaliyev***	303
64.	***BEHBUDIY HAYOTI VA ILMIY FAOLIYATINING TAVSIFI*** ***Turdaliyev Muhriddin Muhiddin o’g’li***	309
65.	***FITRAT ASARLARIDA QO‘LLANGAN MILLIY O‘ZLIKKA UNDOVCHI TARIXIY TURKIY LEKSEMALARGA DOIR*** ***Dustmurodov Ma'rufjon Mansur o'g'li***	313
66.	***JADIDCHILIK HARAKATI VA UNING MOHIYATI. TURKISTONDAGI TANIQLI JADIDLAR HAYOTI VA ULARNING MUSTAQILLIK YO’LIDA AMALGA OSHIRGAN ISHLARI TAHLILI*** ***Ro’zimov Umidjon Zaripboy o’g’li***	320